

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAHSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

JO‘RAYEV TOSHBOLTA TO‘XTAYEVICH

IQTISODIYOT NAZARIYASI

(O‘quv qo‘llanma)

TOSHKENT – 2017

UO‘K: 33.01 (075)

KBK 65.01

J-96

**J-96 T.T.Jo‘rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. (O‘quv qo‘llanma).
–T.: «Fan va texnologiya», 2017, 640 bet.**

ISBN 978–9943–11–621–4

Iqtisodiyot nazariyasi bo‘yicha mazkur o‘quv qo‘llanmada iqtisodiyotning umumiy asoslari, bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyasiga oid mavzular o‘rin olgan. Ayniqsa, iqtisodiyotning asosiy muammosi, hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti, uning qonun-qoidalari va tartibga solish mexanizmlari rolini yoritishga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘quv qo‘llanmada «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va oliy o‘quv yurtlarida bakalavrlar tayyorlash davlat andozasining talablari hisobga olingan. Har bir mavzu mazmunini yoritishda respublika qonunlari va boshqa me‘yoriy hujjatlardan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov asarlaridan hamda 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan harakatlar strategiyasidan keng foydalanilgan.

O‘quv qo‘llanma OO‘MTV tomonidan tasdiqlangan o‘quv rejasidagi fanning nomiga to‘liq mos keladi va OO‘MTV tomonidan tasdiqlangan xorij adabiyoti “Economics” dan foydalanilgan.

O‘quv qo‘llanma iqtisodiy yo‘nalishdagi barcha bakalavrlar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 33.01 (075)

KBK 65.01

Taqrizchilar:

H.P. Abdulqosimov – iqtisod fanlari doktori, professor;

B.Rustamov – iqtisod fanlari nomzodi, professor.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 28-iyundagi 434-sonli buyrug‘iga asosan nashr etildi.

ISBN 978–9943–11–621–4

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2017.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti har bir kishidan qanday kasb egasi bo'lmasin iqtisodiy mushohada yuritish va shu asosda xulosa chiqarishni o'rganishni talab qiladi. Bo'lg'usi iqtisodchilardan esa iqtisodiy voqeliklarni, iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish bilan birga, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iste'molchi sifatida tanlovning eng optimal variantlarini amalda ro'yobga chiqarish bo'yicha o'zining mustaqil qarashlariga ega bo'lish hamda o'z sohasidan ilmiy tadqiqot yo'llarini amalga oshirishga layoqatli bo'lishi talab qilinadi.

Fanni o'zlashtirishda talabalarning har bir iqtisodiy voqelik bo'yicha tahliliy xulosa chiqarishga o'rgatish – eng muhim masala hisoblanadi. Chunki tahliliy xulosa chiqara oladigan odamgina mustaqil fikrlaydi. Mustaqil fikrlaydiganlar doimo izlanadi, ularning xatti-harakati va ilmiy, ijodiy mehnati tufayli jamiyatda fan-texnika taraqqiyoti yuz beradi.

Talabalarning mustaqil fikr yuritishi, turli iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mohiyatiga o'z nuqtayi nazarini bayon qilish layoqatiga va real voqelik to'g'risida amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi hozirgi zamon talabidir.

Shu sababli, o'quv qo'llanmada jamiyat iqtisodiy hayotining muhim jabhalariga har xil iqtisodiy maktab vakillarining turfa qarashlari keltiriladi.

Ko'pchilik iqtisodiy kategoriyalar mohiyati klassik maktab vakillari va hozirgi zamon iqtisodiy oqimlar qarashlarini sintezlashtirish orqali ochib beriladi.

Bu talabalarning hozirgi zamon iqtisodiyoti va uning istiqbolda rivojlanish tamoyillariga fikrlar xilma-xilligi orqali baho berishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'llanmada asosiy e'tibor qo'yilgan muammoga har tomonlama va turli darajada qarash qoidasiga asoslanadi. Bunda so'z mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, undagi davlat sektori va jahon

iqtisodiyoti darajasida ro‘y beradigan munosabatlar to‘g‘risida ketadi.

Qo‘llanmada hozirgi davrda iqtisodiy hayotda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion rivojlanish va globallashtirish jarayonining kuchayishi bilan bog‘liqlikda yoritib beriladi.

Taraqqiyotning o‘zi bir tomondan, fanni chuqur o‘zlashtirishni zarur qilib qo‘ysa, ikkinchi tomondan, turli-tuman yangi usullarni qo‘llash, ko‘rgazmalilikni oshirish, texnik vositalardan foydalanish, ularni qo‘llashni takomillashtirish orqali bilim olishni osonlashtiribgina qolmasdan, uni qiziqarli jarayonga ham bog‘liq.

Shu sababli, mazkur o‘quv qo‘llanmada bayon qilingan iqtisodiy voqelik, ko‘rgazmali vositalar bilan to‘ldiriladi va boyitiladi.

Iqtisodiy fanlarning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan ajralib turadigan tomoni ham shundaki, u dalillar rasmiy yoki shartli ma‘lumotlar bilan ish ko‘radi. Iqtisodchidan ular bilan ishlay bilish, qo‘ygan maqsadga erishish uchun hisob-kitoblarni amalga oshirishi, ularning dinamikasini o‘rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarish, “Tegishli qaror qabul qilish” ko‘nikmasiga ega bo‘lish talab qilinadi.

Bu o‘z navbatida nazariy-iqtisodiy fanlarni amaliy jihatlari bilan chuqur o‘rganish, imkon qadar real voqelikka yaqin tajribalar o‘tkazish, nazariy qonun-qoidalarni sinab ko‘rishni zarur qilib qo‘yadi.

Shu sababli, qo‘llanmada o‘quv materiallarini bayon qilish usul va uslublari takomillashtiriladi, nazariy va amaliy muammolar jabhasi kengaytiriladi.

Iqtisodiyot nazariyasi bo‘yicha mazkur o‘quv qo‘llanmada, iqtisodiyotning umumiy asoslari, bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyasiga oid masalalar mantiqiy ketma-ketlikda o‘rin olgan. Ayniqsa, iqtisodiyotning asosiy muammosi va uning amal qilish yo‘llarini, hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti, uning qonun-qoidalari va tartibga solish mexanizmlari rolini yoritishga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘quv qo‘llanmada «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va oliy o‘quv yurtlarida bakalavrlar tayyorlash davlat andozasining talablari hisobga olingan. Har bir

mavzu mazmunini yoritishda respublika qonunlari, boshqa me'yoriy hujjatlardan, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov va Prezident Sh.Mirziyoyev asarlaridan hamda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan harakatlar strategiyasidan keng foydalanilgan.

Qo'llanmada shu fandan mavjud xorijiy adabiyotlar bilan birga respublikada "Iqtisodiyot nazariyasi" bo'yicha chop qilingan darslik va o'quv qo'llanmalardan, mamlakatimiz iqtisodiy hayotiga tegishli rasmiy statistik ma'lumotlardan keng foydalanilgan.

O'quv qo'llanma oddiy va ravon tilda yozilgan bo'lib, bu talabalarga fanni oson o'zlashtirishlari uchun imkon beradi.

Qo'llanmada o'qitishning yangi texnologik xususiyatlari hisobga olinib, har bir mavzudan keyin asosiy tayanch tushunchalar va atamalar, takrorlash va munozara uchun savollar berildi, kitobning oxirida asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirildi.

Iqtisodiyot nazariyasi bo'yicha mazkur qo'llanma Oliy o'quv yurtlarining – 5111000 Kasb ta'limi (5230600-Moliya) bakalavr yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan. Undan barcha iqtisodiy yo'nalishdagi bakalavrlar o'rta maxsus o'quv yurtlari o'quvchilari, doktorantlar va iqtisodiyot nazariyasi sohasidagi bilimlarga qiziquvchi kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin.

Muallif kursning tuzilishi, mazmuni, muammolarning bayon qilinishi tartibi va uslubi bo'yicha bildirilgan har qanday taklif-mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi va keyingi o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda hisobga oladi.

Muallif ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda qimmatli maslahatlari va amaliy yordamlarini bergan Toshkent Moliya instituti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida professor-o'qituvchilaridan D.V.Rasulova, D.S.Jumanov, Z.G.Allaberganovlarga, dizayner-sahifalovchi N.D.Karimovaga samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

BIRINCHI BO‘LIM.

IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING SHAKLLANISHI

I bob. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA YO‘NALISHLARI

- 1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi.**
- 2. Ehtiyojlarning cheksizligi. Ehtiyojlarning yuksalib borish qonuni.**
- 3. Iqtisodiy resurslar, ularning turlari, tarkibi va cheklanganligi. Ishlab chiqarish imkoniyati va uning chegarasi.**
- 4. Iqtisodiy bilimlarning vujudga kelishi va iqtisodiy fanlarning shakllanishi.**
- 5. Zamonaviy iqtisodiy qarashlar va uning rivojlanish yo‘nalishlari.**

1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi

Insonlarning talab va ehtiyojlari ko‘p va turlichadir. Biologik nuqtayi nazardan olib qaralganda, insonlarga faqatgina havo, suv, oziq-ovqat, kiyim-kechak va oddiy boshpana bo‘lsa kifoya qiladi. Ammo biz yashayotgan zamonaviy jamiyatda insonlar o‘z turmush tarzini va yashash sharoitlarini yaxshilash uchun ko‘proq yangi tovar va xizmatlarga talab bildiradi. Endi insonlar daryodan oqib turgan oddiy suvga emas, balki bejirim idishlarda chiroyli qadoqlangan suv, salqin ichimliklar va sharbatlarga ehtiyoj sezadilar. Kiyinish borasida ham avvalgi eng sodda kiyim-kechaklarni emas, balki yuqori sifatli, bejirim kiyim-boshlarga ega bo‘lishni xohlaydilar, albatta.

Avvalgidek insonlar oddiy uyda emas, balki ko‘p qavatli binolarda, hashamdor imoratlarda kun kechirishni istaydilar. Insonlar ehtiyojining chek-chegarasi yo‘q. Shuningdek, biz o‘zimizda kundalik hayotimizni yaxshilashga va yengillashtirishga yordam beradigan uy jihozlariga, sifatli ta‘lim olishga, ishonchli

xavfsizlikka, sogʻlikni saqlash xizmatiga va hokazolarga ehtiyoj sezamiz.

Ayni vaqtda insonlar ehtiyojini qondirish uchun Yer, foydali qazilma boyliklari, ish qurollari, texnika, mehnat qilish layoqati kabi ishlab chiqarish resurslari mavjuddir. Xuddi mana shu resurslar iqtisodiyotda qoʻllanilib, biz uchun turli-tuman mahsulotlar ishlab chiqariladi va koʻpgina ehtiyojlarimiz qondiriladi.

Lekin oddiy haqiqat shundan iboratki, bizning ehtiyojlarimizni qondirish uchun zarur mavjud resurslar cheklangan. Biz ulardan foydalanishning muqobil variantlaridan birini tanlashga majburmiz. Ana shu haqiqat bizga iqtisodiyotning bosh masalasini tushunishimizga yordam beradi¹.

Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi hamda uni qondirish uchun zarur boʻlgan iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir. Iqtisodiyotning bosh masalasi oʻzining ikki tomoniga ega: ehtiyojlar cheksiz va iqtisodiy resurslar cheklangan.

Iqtisodiyotning asosiy muammosi – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qanday qilib toʻlaroq qondirib borish mumkinligi toʻgʻrisidagi masaladir.

Iqtisodiyotning asosiy muammosini hal qilish yoʻllari:

- iqtisodiy resurslar miqdorini koʻpaytirish;
- resurslar unumdorligini oshirish;
- resurslardan foydalanishning turli muqobil variantlaridan eng samaralisini tanlash;
- jamiyat ehtiyojlarini cheklash.

Bugun hammaga maʼlumki, kishilar yashashlari, siyosat, sanʼat, adabiyot, fan, maʼrifat, bilan shugʻullanishlari uchun hayotiy neʼmatlarni isteʼmol qilishlari, kiyinishlari va turli xil xizmatlardan bahramand boʻlishlari kerak.

Kishilar bunday hayotiy vositalarga ega boʻlishi uchun turli sohalarda faoliyat koʻrsatadi. Insonning turli faoliyatlari ichida eng asosiysi, ularning yashashi va kamol topishini taʼminlaydigan iqtisodiy neʼmatlarni ishlab chiqarish (hamda xizmatlar koʻrsatish) dan iborat boʻlgan iqtisodiy faoliyatdir.

¹ Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Economics: principles, problems and policies. 17 th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2008. page 8-9.

Kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlar va vositalarni ishlab chiqarish hamda iste'molchilarga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar yaxlit qilib, iqtisodiy faoliyat deb ataladi.



Iqtisodiyot murakkab va ko'pqirrali tushuncha bo'lib, turlicha mazmun va talqiniga ega. Iqtisodiyot bu, birinchidan xo'jalik tizimi, ikkinchidan iqtisodiy munosabatlar birligi va uchinchidan, fan darajasida mujassamlashgan bilimlardir. Qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo'jaligi doirasida ro'y bergan. Shuning uchun iqtisodiyot deganda, uy xo'jaligi va uni yuritish qonun-qoidalari tushunilgan. Lekin hozirgi davrda iqtisodiyot faqat uy xo'jaligi doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki yirik ishlab chiqarish korxonalarini, korporatsiyalar, kompaniyalarini, moliya va bank tizimlari, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalarni o'z ichiga olgan juda murakkab tuzilma hisoblanadi.

Iqtisodiyot – bu iqtisodiy ne'matlar va vositalarni takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik yuritish shakllari, ularni tartibga soluvchi mexanizmlar va infratuzilmaviy muassasalarning ma'lum darajada tartibga solingan tizimidir. Boshqacha aytganda, iqtisodiyot – bu zaruriy hayotiy iqtisodiy ne'matlarni yaratish yo'li bilan jamiyat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi xo'jalik tizimlari majmuasidir. Har qanday iqtisodiyot bir qator zaruriy bo'g'inlar va umumiy tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'ladi.

Bular ichidan ishlab chiqarishning texnologik usuli, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashish, jamiyatning iqtisodiy resurs salohiyati va ustqurmaviy tuzilmalarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiyot doirasida iqtisodiy boyliklarni, ya'ni jamiyat uchun zarur bo'lgan ne'mat va vositalarni takror ishlab chiqarish jarayoni ro'y beradi.

Iqtisodiy fanda takror ishlab chiqarish qisqarib boruvchi, oddiy va kengaytirilgan turlarga ajratiladi.

Qisqarib boruvchi takror ishlab chiqarishda ishlab chiqarish hajmi kamayib borish tartibida takrorlansa, uning oddiy turida bir me'yorda, o'zgarmasdan va kengaytirilgan turida esa bu jarayon ko'payib borish tartibida takrorlanadi.

Tovarlar, xizmatlar va resurslarning harakati bo'yicha takror ishlab chiqarish - ishlab chiqarish, ayriboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarining birligidan iboratdir. Bularning ichida eng asosiysi va boshlang'ich bo'g'ini ishlab chiqarish jarayonidir. Chunki hamma tovar va xizmatlar xuddi shu bosqichda yaratiladi. Agar ishlab chiqarilmasa, taqsimlanadigan, ayriboshlanadigan va nihoyat, iste'mol qilinadigan narsalar bo'lmaydi.

Taqsimot jarayonida ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi, tovar va xizmatlar hamda pul daromadlari tarmoqlar, sohalar, hududlar, korxonalar va jamiyatning alohida a'zolari o'rtasida taqsimlanadi hamda qayta taqsimlanadi.

Ayriboshlash yaratilgan ne'matlar va boyliklarning ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilarini bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida iqtisodiy aloqa – ayriboshlash jarayoni, ya'ni pul va unga tenglashtirilgan vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Takror ishlab chiqarishning oxirgi bosqichi iste'mol jarayonidir. Bu jarayonda tovarlar va xizmatlar o'zlarining pirovard iste'molchilarini topadi hamda turli xil ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Iste'mol ikki turga bo'linadi: umumli va shaxsiy iste'mol. Ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi ishlab chiqarish jarayonida foydalanilib, umumli iste'mol qilinadi. Iste'mol buyumlari shaxsiy iste'mol jarayonida foydalaniladi va shu orqali ularning o'rniga yangisini ishlab chiqarish zaruriyati paydo bo'ladi.

Infratuzilma – bu ishlab chiqarish va ayriboshlashning bir me'yorda ro'y berishi hamda kishilar turmush kechirishining umumiy shart-sharoitini tashkil qiluvchi sohalardir.

Infratuzilma quyidagi turlardan iborat bo'ladi:

Ishlab chiqarish infratuzilmasi-bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatadi. Bular saqlash va uzatish vositalari, ombor xo'jaligi, moddiy texnika ta'minoti, transport, aloqa, yo'llar va boshqa shu kabilardir.

Ijtimoiy infratuzilma-kishilar yashash va hayot kechirishining ijtimoiy-madaniy va maishiy sharoitlarini tashkil qiladi (ta'lim, sog'liqni saqlash, maishiy, uy-joy va kommunal xo'jalik).

Bozor infratuzilmasi-tovarlar va iqtisodiy resurslar ayriboshlash jarayoniga xizmat qiladi (birjalar, savdo uylari, auksionlar va boshqalar).

2. Ehtiyojlarning cheksizligi. Ehtiyojlarning yuksalib borish qonuni

Ishlab chiqarishning pirovard maqsadi iste'mol, ya'ni ehtiyojni qondirish hisoblanadi.

Insonning yashashi va kamol topishi, jamiyatning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan hayotiy vositalar va iqtisodiy resurslarga zaruriyat «ehtiyoj» deb ataladi.

Jamiyat ehtiyojlari kishilar, ya'ni jamiyat a'zolari, korxonalar va davlat ehtiyojlarining birligidan iborat. Ehtiyojlarning bu barcha turlari uchun umumiy bo'lgan xususiyat – ular cheksiz va chegarasizdir. Jamiyat ehtiyojlarida kishilarning ehtiyoj-



lari asosiy va belgilovchi rol o'ynaydi. Kishilarning barcha hayotiy ehtiyojlari (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, siyosiy ehtiyojlar) orasida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar alohida o'rin tutadi. Bu ehtiyojlar kishilarning yashashi, mehnat qilishi va hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlardan hamda xizmatlardan iborat bo'ladi. Shu jihatdan olganda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarni o'z ichiga oladi.

Moddiy ehtiyojlar, bu avvalo, kishilarning o'zlariga foydali bo'lgan ne'matlarni iste'mol qilishga bo'lgan xohishlaridir. Bular iste'mol uchun zarur bo'lgan ko'plab hayotiy predmetlarni (oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy) va zeb-ziynat buyumlarini (taqinchoq, atir-upa, yengil avtomobil va h.k.) o'z ichiga oladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, bir necha yil oldin zeb-ziynat dabdaba hisoblangan buyum bugungi kunda eng oddiy hayotiy zarur predmetga aylanishi mumkin. Xizmatlar ham moddiy ne'matlar kabi

ma'lum ehtiyojlarni qondiradi. Masalan, shaxsiy avtomashinani remont qildirish, soch oldirish, huquqshunos maslahatidan foydalanish kabi xizmatlar moddiy tovarlar bilan bir qatorda kishilarning ularga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Ma'naviy ehtiyojlar moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan kishilarning bilim va dam olish, madaniy saviyasini oshirish, malaka-mahoratiga ega bo'lish, har xil xizmatlardan bahramand bo'lish kabi ko'plab ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Ehtiyojlar yakka tarzda va birgalikda qondirilishi mumkin. Bu esa ehtiyojning tabiatiga va uni qondiruvchi obyektlari xususiyatiga bog'liq.

Ijtimoiy ehtiyojlar umumlashgan iste'mol faoliyatining turli shakllarida qatnashish orqali qondiriladi hamda uni kishilarning birgalikda, hamkorlikda mavjud bo'lishi zarurligini taqozo qiladi. Shunday buyum va xizmat turlari borki, ulardan faqat birgalikda foydalanish mumkin. Masalan, ta'lim olish, sog'liqni saqlash, dam olish joylaridan bahramand bo'lish, sport o'yinlari va ko'ngilochar tomoshalarni birgalikda ko'rish kabilar shular jumlasidandir.

Jamiyat ehtiyojlarida korxonalar va davlat ehtiyojlari ham o'z o'rniga ega. Korxonalarga ishlab chiqarish maqsadlarini amalga oshirish, ya'ni tovarlar ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi kerak bo'ladi. Davlat, butun mamlakat aholisining umumiy ehtiyojlarini aks ettirib, avtomobil va temir yo'llar, maktablar, kasalxonalar qurilishiga ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun davlatga ham zaruriy ne'matlar va iqtisodiy resurslar kerak bo'ladi.

Jamiyat ehtiyojlariga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular quyidagilar:

jamiyatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi. Iqtisodiyoti rivojlanishdan orqada qolgan mamlakatlarda ehtiyojlar doirasi tor bo'lsa, aksincha, iqtisodiyoti gurkirab rivojlangan mamlakatlarda keng va xilma-xil bo'ladi;

jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizim. Agar jamiyatdagi tizim bozor iqtisodiyoti tartiblari asosida qurilgan bo'lsa, undagi ijtimoiy guruhlar boylar va kambag'allar, mulkdor va mulksizlarga bo'linib, ularga mansub kishilar ehtiyojlari o'rtasida katta farq mavjud bo'ladi. Yuqori daromad oluvchilar juda sifatli, noyob

mahsulotlar va xizmatlarga ehtiyoj bildirsa, kambag'allarning ehtiyojlari o'z hayotini saqlash uchun juda zarur mahsulotlar va xizmatlar bilangina cheklanadi;

tabiiy-geografik sharoitlar. Bu omil ham ehtiyojlarning miqdori va tarkibiga ta'sir qiladi. Masalan, nisbatan sovuq iqlim sharoitida, issiq sharoitdagilarga qaraganda hayot kechirish uchun oqsil va yog'ga boy oziq-ovqat, issiq kiyim-kechak, uy va transport vositalariga ko'proq ehtiyoj bo'ladi;

tarixiy-milliy an'analar va urf-odatlar, tarixan shakllangan milliy va diniy marosimlar. Jumladan, Navro'z bayrami, ro'za va hayitlar o'ziga xos ehtiyojlarni yuzaga keltiradi;

aholi sonining o'sishi, uning tarkibidagi o'zgarishlar;

xalqaro, davlatlar, millatlar va mintaqalar o'rtasidagi aloqalar, ayniqsa, ular o'rtasidagi mahsulot va axborot ayriboshlashning rivojlanishi.

Alohida kishilarning ehtiyojlari ularning yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, kasbi, mehnatning tabiati kabi omillarga bog'liq. Masalan, keksa kishilar yoshlardan farq qilib, yengil hazm bo'ladigan ovqatga, dori-darmonga, shovqin-suronsiz yashash muhitiga ko'proq ehtiyoj sezadi. Ko'p bolali oilalarda bolalar kiyimi, o'yinchoqlarga ehtiyoj yuqori bo'lsa, farzandsiz oilalarda bunday ehtiyojlar bo'lmaydi. Murakkab, og'ir va yengil mehnat turlari bilan shug'ullanuvchi kishilar ehtiyojlari ham bir-biridan tubdan farq qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy, shu jumladan, moddiy ehtiyojlarni to'liq qondirish mumkin emas. Jamiyatda har bir ma'lum davrda ko'plab qondirilmagan ehtiyojlar bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan yangi buyumlarning paydo bo'lishi, reklamaning ta'siri va bozorlarning rivojlanishi

natijasida ehtiyojlar tarkiban o'zgaradi va miqdoran o'sib boradi.

Ehtiyojlar turlari. Ehtiyojlar nihoyatda turli - tu-



man bo‘lib, ularni turkumlashga turli jihatdan yondashish mumkin.

Ko‘pgina iqtisodchilar u yoki bu xususiyatlariga ko‘ra ehtiyojlarni turli guruhlariga ajratib tushuntirishga harakat qilishgan. Ular, ehtiyojlarni absolyut va nisbiy, minimal va maksimal darajadagi, qondirilishi zarur va qondirilishi kechiktirsa bo‘ladigan, bevosita va bilvosita qondiriladigan joriy va kelajakda qondiriladigan ehtiyojlarga ajratadi. Ayrim adabiyotlarda birlamchi – eng zarur ehtiyojlar, ikkilamchi qondirilishi kechiktirsa bo‘ladigan ehtiyojlar mavjudligi qayd qilinadi. Birlamchi ehtiyojlarga insonning eng zarur bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa kabilarga bo‘lgan ehtiyojlarini, ikkilamchi ehtiyojlarga ularning ma‘naviy, intellektual faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bilim olish, san‘at, turli ko‘ngilochar tadbirlarga qatnashishga bo‘lgan ehtiyojlarini kiritish mumkin. Lekin bunday ajratish shartli. Ular har bir inson uchun individual bo‘lib, bir inson uchun kiyim-kechak, turar joy birlamchi bo‘lsa, boshqasi uchun hayotiy yashash vositalari ahamiyatli. Birov uchun kiyim-kechakdan ko‘ra bilim olish zarurroq, boshqasi uchun aksincha, yoki bir kishi uchun ma‘naviy ehtiyojga xohish bo‘lsa, boshqasi uchun kundalik ehtiyoj birlamchi bo‘lish yoki ma‘lum vaqt o‘tgach, ular oddiy ehtiyojlarga aylanishi ham mumkin.

Ehtiyojlarga turli mezonlar orqali yondashib, uni har xil guruhlariga ajratish mumkin:

Ehtiyojlar subyektlariga ko‘ra: individual, jamoa va umumjamiyat ehtiyojlariga bo‘linadi.

a) Individual ehtiyoj – har bir insonning ehtiyojini ifodalaydi. U fiziologik ehtiyojlar, o‘zining har tomonlama kamol topishiga bo‘lgan ehtiyojlar va boshqa shu kabilarni o‘z ichiga oladi.

b) Guruhiy ehtiyoj – bu oilaviy yoki kishilarning biron maqsadda birlashgan guruhlari (mehnat jamoasi, turli uyushmalar) ehtiyojlari bo‘lib, birgalikda yashash, faoliyat yuritish jarayonida vujudga keladigan umumiy ehtiyojlardir.

d) Umumjamiyat ehtiyoji – bu mamlakat miqyosida, insonlarning bir butun bo‘lib tarkib topgan ehtiyojlaridir. U o‘z ichiga birinchidan, barcha turdagi individual va guruhiy ehtiyojlarni olsa, ikkinchidan jamiyatni yaxlit organizm sifatida yashab turishi uchun zaruriy ehtiyojdir. Bularga tabiiy resurslarni asrash, mudofaa,

jamiyatni boshqarish kabilarni kiritish mumkin. Jamiyatning ehtiyoji turli ijtimoiy toifa va guruhlarga mansub kishilar ehtiyojining yaxlitligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ehtiyojlar obyektga ko‘ra moddiy, ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlarga bo‘linadi.

Moddiy ehtiyojlar azaliy, ular inson paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan. Ular tabiiy ehtiyojdir. Moddiy ehtiyojlar eng zarur va hayotiy ehtiyojlardir. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joylarga bo‘lgan ehtiyojlarning qondirilishi yashashning birlamchi shartidir. Moddiy ehtiyojlar albatta moddiy ko‘rinishga ega, masalan, oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj: un, guruch, yog‘, go‘sht, shakar va boshqalar aynan shunday ko‘rinishga ega. Ijtimoiy-ma’naviy ehtiyoj azaliy bo‘lmay jamiyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida, sivilizatsion rivojlanish natijasida yuzaga keladi. Jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlar tabiiy zaruratga aylanib boradi. Ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlar asosan turli xizmatlardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojlar tarzida yuzaga chiqadi. Kishilar ijtimoiy-ma’naviy xizmatlardan foydalanib, axloqiy, ma’naviy, estetik, jismoniy jihatdan tarbiyalanadi, bilim oladi, kasb egallaydi, har tomonlama kamol topadi.

Ehtiyojlar tizimida mehnat qilish, dam olish, ish qobiliyatini tiklashga bo‘lgan ehtiyojlarga ajratiladi.

Mehnat ehtiyoji insonning o‘zida mujassamlashgan. Mehnatsiz inson yashay olmaydi, Chunki mehnatsiz nozu-ne‘matlarni yaratib bo‘lmaydi va inson shaxsi kamol topa olmaydi. Mehnat ehtiyoji insonda jismoniy mehnat qilish va aqliy qobiliyati borligidan kelib chiqadi. Inson mehnatda o‘z o‘rnini topib va qobiliyatini ishga solib, obro‘-e‘tibor qozonishga harakat qiladi. Inson mehnat qilar ekan, albatta ish qobiliyatini tiklash uchun dam olishi va turli ko‘ngilochar tadbirlarda qatnashishiga ehtiyoj sezadi.

Ehtiyojlar qondirilishi jihatidan yakka tartibda va birgalikda qondiriladigan ehtiyojlarga bo‘linadi. Har bir inson o‘zining ehtiyojlarining bir qismini yakka tartibda, ikkinchi qismini esa boshqalar bilan birgalikda qondiradi. Yakka tartibda qondiriladigan ehtiyojga yagona o‘lchov bilan yondashib bo‘lmaydi. Moddiy ehtiyojlarning ko‘pchiligi odatda yakka tartibda qondiriladigan ehtiyojlarni tashkil etsa, ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlar ko‘proq birga-

likda qondiriladigan ehtiyojlardan iborat. Masalan, kiyim kiyishga bo'lgan ehtiyoj yakka tartibda, bilim olishga bo'lgan ehtiyoj birgalikda qondiriladi.

5. Ko'zlangan maqsadiga qarab shaxsiy va umumli, ya'ni ishlab chiqarish ehtiyojlari farqlanadi. Iste'mol tovarlari va iqtisodiy resurslarga bo'lgan ehtiyoj shular jumlasidandir. Birinchisi insonning bevosita ehtiyojlari bo'lib, uning hayot kechirishi, har tomonlama kamol topishiga qaratiladi. Ishlab chiqarish ehtiyojlari esa kishilar uchun bilvosita ehtiyojlar hisoblanib, uning yordamida inson yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan turli ne'matlar ishlab chiqarish uchun zarur ishlab chiqarish vositalari umumli iste'mol qilinadi.

Qayd qilingan ehtiyojlarning barchasi bir-biri bilan bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi hamda yagona umumjamiyat ehtiyojlari tarzida shakllanadi.

Jamiyatning, ya'ni uni tashkil qiluvchi kishilar va davlat ehtiyojlarining cheksizligi, ularning to'xtovsiz yangilanib va ortib borishi ehtiyojlarning o'sib borishi iqtisodiy qonunda o'z ifodasini topadi. Mazkur qonun nafaqat ehtiyojlarning miqdoran o'sib borishini, balki ularning tarkiban yangilanib turishini, eskilarining o'rniga yangilarining kelishini bildiradi. Ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni ishlab chiqarish bilan ehtiyojlar o'rtasidagi uzviy, to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni aks ettiradi. Ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi va uning rivojlanishi yangi ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Ishlab chiqarish baynalminal tus olishi bilan ishlab chiqarish va ehtiyoj o'rtasidagi bog'liqlik xalqaro miqyosda aks etadi. Ma'lum bir mamlakatda paydo bo'lgan ehtiyoj boshqalariga tarqalib, xalqaro mazmunga ega bo'ladi. Xalqaro aloqalar rivojlanib borgani sari ehtiyojlarning milliy xususiyatlari bilan bir qatorda uning millatlararo, baynalminal belgilari rivoj topib boradi.

Ehtiyojlar o'zaro bir-birini taqozo qilishi sababli bir ehtiyoj o'z orqasidan boshqa bir ehtiyojni keltirib chiqaradi. Masalan, kompyuter texnikasiga ehtiyojning paydo bo'lishi, o'z navbatida uni ishlatish, o'rganish, xizmat ko'rsatish va dastur tuzishga ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

Ehtiyojlarning o'sib borishi bir tekis, uzluksiz bo'lmaydi. Uning o'sishiga qarshi ta'sir qiluvchi omillar ham mavjud bo'ladi. Ishlab

chiqarish holati, jamiyatdagi hukmron munosabatlar, favqulodda yuz beradigan hodisalar (urushlar, iqtisodiy tizim almashishi) va tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yong'in kabilar) ehtiyojlarning o'sib borishiga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. Shunday qilib, ehtiyojlarning o'sib borish qonuni mavjud ehtiyojlarning miqdoran o'sib borishida, mutlaqo yangilarining paydo bo'lishida, muayyan ehtiyojlar doirasida uning turlari nisbatining o'zgarishida va bir ehtiyojning boshqasi bilan almashinishida namoyon bo'ladi. Ehtiyojlarning o'sib borishi, uni qondirish vositalari darajasi bilan chegaralanadi. Chunki ehtiyojlar cheksiz o'sib borgan taqdirda ham uni ta'minlash uchun zarur bo'ladigan iqtisodiy resurslar cheklangandir.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixiga nazar tashlansa ehtiyojlarning miqdoran o'sib, tarkiban takomillashib borishi aniq namoyon bo'ladi. Ehtiyojlarning uzluksiz o'zgarib turishi har qanday jamiyatga xosdir. Qondirilgan ehtiyoj yangi ehtiyojlarni keltirib chiqarishi xalqda «Insonning ko'zi tuproqqa to'lganda to'yadi» degan naql kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Hozirgi zamon fanida ehtiyojlar cheksiz, ular o'sishining to'xtashi, jamiyat hayotini to'xtashini bildiradi deb e'tirof etishadi. Ehtiyoj o'sib bormaganda ishlab chiqarishning taraqqiy etishiga ham zarurat bo'lmas edi.

Ehtiyojlarning yuksalishi ikki yo'nalishda amalga oshadi.

1. Kishilarning ehtiyoji miqdoran o'sib boradi. Bu bir tomondan aholi sonining ko'payib borishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, iste'molning ortishi bilan bog'liq.

2. Ehtiyojlar tarkibi o'zgarib, yangilanib va ko'payib boradi. Ayrim ehtiyojlar yo'qolib, o'rniga yangisi keladi. Ishlab chiqarishning o'zi ehtiyojlarning o'sishiga va tarkibining o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun ehtiyojlar borgan sari tarkiban yangilanib, ko'payib sifat jihatdan o'zgarib boradi. Ishlab chiqarish ta'sirida mutlaqo yangi ehtiyojlar vujudga keladi va ayni vaqtda eskilari yo'qolib boradi.

Chunki, ishlab chiqarish orqaligina turli ne'matlar yaratiladi va muayyan ehtiyojlarni qondirishga imkoniyat ham vujudga keladi. Mavjud ehtiyojning qondirilishi o'z navbatida yangi ehtiyojlarni vujudga keltiradi. Masalan, avtomobil sotib olib ehtiyojning

qondirilishi o‘z navbatida qator yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi: mashina turadigan joyga, yonilg‘i, ehtiyot qism, sug‘urta qildirish, soliqlar to‘lash va hokazolarga ehtiyojlar shular jumlasidandir.

Fan-texnika taraqqiyotining tezlashuvi, aholi turmush tarzi o‘zgarishi ham ehtiyojlarni tubdan o‘zgartiradi. Yangi ixtirolarni ommaviy ishlab chiqarish o‘z navbatida ularga xos ehtiyojlarni vujudga keltiradi. Masalan, kir yuvish mashinasi, planshet va boshqalarga ehtiyoj.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi kishilar hayotining ijtimoiy-maishiy va madaniy sharoitlariga ham ehtiyojlarni shakllantiradi. Bunga oddiygina misol, dastlabki ibtidoiy odamlarning ovqatlanishi bilan hozirgi zamon ovqat tayyorlash texnologiyasi tubdan farq qiladi.

Ishlab chiqarish ehtiyojlarni shakllantirar ekan, o‘z navbatida ehtiyojlar ham ishlab chiqarishga ta’sir etadi. Birinchidan, ehtiyojlar yaratuvchanlik faoliyatining aniq yo‘nalishiga asos bo‘ladi, ikkinchidan inson ehtiyojlarining miqdor va sifat jihatdan tez o‘zgarishi ishlab chiqarishning unga moslashishini taqozo etadi.

Bu qonun ishlab chiqarish bilan ehtiyojlar o‘rtasida o‘zaro uzviy bog‘liqlik va ehtiyojlarning yuksalishi murakkab tarzda kechishini ko‘rsatadi. Ehtiyojlarning cheksizligi nisbatan ko‘proq ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlarga taalluqli. Shu sababli, A.Smit «ovqatga intilish har bir odamda kishi oshqozonini kichik sig‘imi bilan cheklanadi, lekin qulayliklarga hamda uy-joy, kiyim-kechak, uy sharoiti va anjomlarni bezashga intilish aftidan cheksiz yoki muayyan chegaralarga ega bo‘lmasa kerak» deb ta’kidlagan.

Ehtiyojlarni qondirilish darajasi (EQD) har bir davrda haqiqiy iste’mol (HI)ni ehtiyojlarning umumiy darajasi (EUD)ga nisbati orqali aniqlanadi, ya’ni

$$EQD=HI/EUD*100$$

Ehtiyojlar qondirilish darajasi odatda iste’mol bilan taqqoslanadi. U yil davomida aholi jon boshiga iste’mol qilingan tovar va xizmatlar turi miqdori hisobida baholanadi. Masalan, aholi jon boshiga iste’mol qilingan non va non mahsulotlari, sut, go’sht, sabzavot, meva; har yuz oilaga to‘g‘ri keladigan uzoq muddat foydalanadigan tovarlar: avtomobil, televizor, kir yuvish mashinasi, muzlatgich, uy-joy maydoni va boshqalar.

Jamiyat taraqqiy etgan sari iste'mol darajasi ortib, ehtiyojlar to'laroq qondirila boradi. Ehtiyojni qondirish usullari ham o'zgaradi. Iste'mol ne'matlari turi ko'payadi. Ehtiyojlarning qondirilishi umumiy tarzda aholi turmush darajasini ko'rsatadi. Turmush darajasi - aholi ehtiyojlarini qondirilishiga qarab baholanadi. Aholining ehtiyojlarining qondirilishi ularning farovon yashashi, uzoq umr ko'rishining garovidir. Buning uchun esa ana shu ehtiyojlarni qondiradigan darajada ishlab chiqarish zarur bo'ladi.

Ehtiyojlar bilan ishlab chiqarish nisbati o'zgarishining uch muqobil varianti mavjud bo'ladi:

1. Regressiv. Bu muqobil holat uzoq muddat ishlab chiqarishning tushkunlikda bo'lishi natijasidan kelib chiqadi. Iqtisodiyotning bunday o'zgarishini girdob tarzida ko'rish mumkin. Aholi iste'moli miqdor va sifat jihatdan ham kamayib boradi. Borgan sari kishilarning eng zarur ehtiyojlarini qondirish ham qiyinlashib boradi. Hozir shunday vaziyatni Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining qator mamlakatlarida ko'rish mumkin.

2. Turg'un. Bu variantda nisbatan cheklangan turdagi mahsulot ishlab chiqariladi va ehtiyojlar ham nihoyatda sekinlik bilan o'sib boradi. Yaratuvchanlik faoliyati sust, ishlab chiqarish (– taqsimot – ayriboshlash – iste'mol) va ehtiyojlar doira shaklini eslatadi. Iqtisodiyotda umumiy turg'unlik yuz berib, ko'pincha u xalqlarning an'ana va urf-odatlarini bilan bog'lanib ketadi. Bu hol hozirgi paytda ayrim Osiyo va Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida kuzatiladi.

3. Progressiv. Bunda ishlab chiqarish miqdoran ko'payib boradi, sifati yaxshilanadi, iste'mol va ehtiyojlar o'sadi. Uni tobora kengayib boruvchi spiralsimon harakat tarzida ifodalash mumkin. Bir qator beqarorliklarga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish ham, ehtiyojlar ham o'sib boradi.

3. Iqtisodiy resurslar, ularning turlari, tarkibi va cheklanganligi. Ishlab chiqarish imkoniyati va uning chegarasi

Yuqorida keltirilgan iqtisodiyot borasidagi mushohadalardan kelib chiqib, nima sababdan iqtisodchilar dunyoga cheklanganlik nuqtayi nazardan boqishlarini ko'rish mumkin. Cheklanganlik

tushunchasi iqtisodiy resurslar, mahsulotlar va xizmatlarga tatbiqan ham qoʻllaniladi. Cheklanganlik insonda istagancha tanlab olish imkoniyatini cheklab, bizga mavjud narsalardan ayrimlarini tanlay olishni talab qiladi. Endi biz hamma narsalardan xohlagancha



foydalana olmasdan, mavjud narsalar bilangina kifoyalanishimiz kerak ekanligini anglatadi. “Hech qachon sichqon tutgichda tekin pishloq boʻlmaydi” degan oddiygina naql iqtisodiyotning oʻzagini tashkil etadi. Aytaylik, siz biror-bir mahsulotdan bepul foydalandingiz deylik, ammo xuddi shu mahsulotni ishlab

chiqargan boshqa bir ishlab chiqaruvchi unga qanchadir mablagʻ sarflagan-ku! Biror bir oddiy boʻlib koʻringan mahsulotni ishlab chiqarish uchun ham qanchadir oʻlchamdagi yer maydoni, ish quroli, qoʻl mehnati, bunyodkorlik salohiyati kabilar talab qilinadi. Yuqoridagi “tekin pishloq” ning oʻrniga uni ishlab chiqarish uchun ketgan iqtisodiy resurs hisobiga boshqa bir mahsulotni ishlab chiqarish mumkin edi.

Shunday qilib, bepul tarqatilgan narsa – buyumlar insonlarga hech qachon aslida tekin berilmagan boʻlib chiqadi. Jamiyatimizdagi hech qaysi mahsulot hech qachon shunchaki bepul berilmaydi yoki unga sarflangan resurslarni boshqa foydali mahsulotga sarf qilish mumkin boʻladi. Iqtisodchilar xuddi shu sarf-xarajatlarni yashirin xarajatlar deb ataydilar. Bir turdagi mahsulotni qoʻlga kiritish uchun boshqa turdagi mahsulotni ishlab chiqarishdan cheklanishga majburmiz.²

Resurslar cheklangan sharoitda jamiyat ham oʻz qarorini tanlov asosida qabul qilishga majbur boʻladi. Bunda xarajatlarni kamaytirish muammosiga ham duch kelinadi. Jamiyat cheklangan resurslaridan foydalanishning ustuvor sohalarini aniqlaydi. Bunda ulardan toʻliq va samarali foydalanish hamda ehtiyojlarni toʻlaroq qondirib borish talabi hisobga olinadi.

² McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 17 th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2008. page 35

Iqtisodiy faoliyatda foydalanishga yaroqli bo'lgan moddiy insoniy va tabiiy resurslar iqtisodiy resurslarni tashkil qiladi. Iqtisodchilar iqtisodiy resurslarni to'rtta umumiy turga ajratadi. Yer-iqtisodchilar uchun ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan barcha tabiiy resurslar tushuniladi, jumladan, ekin maydonlari, o'rmonlar, mineral va neft zaxiralari hamda suv resurslarini tashkil etadi. Ishchi kuchi insonda mavjud bo'lgan jismoniy va aqliy qobiliyatlar yig'indisi. Mehnat – inson ishchi kuchining sarflanish jarayonidir.

Kapital – kapitalga iste'mol tovarlari va xizmatlarini yaratishda foydalaniladigan kishilar tomonidan yaratilgan barcha ishlab chiqarish vositalarini kiritish mumkin. Bular sirasiga zavod-fabrikalar, omborxonalar, transport vositalari, yetkazib berish xizmati, texnika va asbob-uskunalar kiradi. Kapital tovarlari xaridiga sarflarga investitsiya deb qaraladi³.

Resurs sifatidagi kapital iste'mol tovarlaridan farq qiladi. Iste'mol tovarlari inson ehtiyojini to'g'ridan-to'g'ri qondiradi, vaholanki, kapital resurs iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga jalb etiladi. E'tibor berish kerakki, iqtisodchilar resurs sifatidagi "kapital" terminiga pul sifatida emas, balki jihozlar, texnika va boshqa ishlab chiqarish vositalari sifatida qarashadi. Sababi pulning o'zi hech narsani yaratmaydi, shu sababli iqtisodchilar unga iqtisodiy resurs sifatida qaramaydi.

Tadbirkorlik qobiliyati alohida kishilarga xos bo'lgan noyob ishbilarmonlik layoqati. Yer, mehnat, kapital va tadbirkorlik qobiliyati mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlarni ma'lum turini tashkillashtirish uchun bir joyga jam bo'lar ekan, ularni umumiy qilib, tovar ishlab chiqarish omillari yoki sodda qilib aytganda xarajatlar deyish mumkin⁴.

Har bir resurs undan ishlab chiqarishda foydalanganda ma'lum samara beradi. Resurs keltiradigan natija o'z chegaralariga ega. Har qanday resursdan eng yaxshi, oqilona foydalanilgan taqdirda ham ma'lum chegaradan ortiq mahsulot yaratib bo'lmaydi.

³ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 17 th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2008. page 39

⁴ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 17 th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2008. page 41


Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi ishlab chiqarish imkoniyatlarining ham cheklanishiga olib keladi.

Har bir xo‘jalik, oila, korxonalar, firma, tarmoq, mamlakat o‘zining ana shunday imkoniyat chegarasiga ega. Resurslardan foydalanish darajasi turlicha bo‘lgani uchun barcha tovarlar bo‘yicha ishlab chiqarish imkoniyati chegarasini ko‘rsatish qiyin.

4. Iqtisodiy bilimlarning vujudga kelishi va iqtisodiy fanlarning shakllanishi

Iqtisodiyot sir-asrorlarini bilishga qiziqish juda qadim zamonlarda ham mavjud bo‘lgan.

Iqtisodiyotga oid bilimlar antik dunyoning ko‘zga ko‘ringan olimlari



Xenofont, Platon, Aristotel shuningdek, qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashlarida ham uchraydi. Ikki iqtisodiy bilimlarning ildizlarini qadimgi dunyo avvalo, jahon sivilizatsiyasi beshigi Ko‘hna Sharq mamlakatlari mutafakkirlari qarashlaridan o‘z o‘rniga ega bo‘lgan.

Qadimgi Hindistonning «Manu qonunlari»da (bizning eramizgacha IV-III asr) ijtimoiy mehnat taqsimoti, hukmronlik va qaramlik munosabatlari mavjud bo‘lishi qayd qilingan. Qadimgi Xitoy mutafakkirlari xususan Konfutsiy (bizning eramizgacha 551-479 y.y.) asarlarida aqliy va jismoniy mehnatning farqlari ko‘rsatiladi, bunda birinchisi jamiyat “yuqori” qatlamlari, ikkinchisi asosiy qism qullardan iborat bo‘lgan «oddiy kishilar» ga tegishli bo‘lishi qo‘rsatilgan.

Iqtisodiy qarashlarning yanada rivojlanishiga qadimgi Gretsiya mutafakkirlari munosib hissa qo‘shgan, Xenofont (e.o 430-354 y.y.), Platon (e.o 427-347 y.y.), Aristotel (e.o 384-322 y.y.) qarashlarini hozirgi zamon iqtisodiy fanining boshlang‘ich nazariy nuqtasi sifatida tavsiflash mumkin. Bu ularning xo‘jalik ne‘matlari asosi hisoblangan naflilik to‘g‘risidagi, ne‘matlarni to‘g‘ri ayriboshlash, ekvivalentlar ayriboshlanishi va boshqa shu kabi qarashlariga tegishli.

Qadimgi Rim mutafakkirlari (S.Katona, Varrona, Kalumella) iqtisodiy qarashlarida qulchilikning mavjud bo'lishi asoslanadi, tabiatan barcha kishilar tengligi qayd qilinadi, adolatli narx prinsiplari, mehnat mahsulotlarini ijtimoiy baholash, mulkchilik tushunchasi boylik va boshqa shu kabilarga o'z fikrlarini bayon qilinadi.

Aristotel birinchilardan bo'lib tovarning xususiyatini ko'rsatib, ayriboshlash nisbatini asoslaydi, pulning kelib chiqishi va vazifalariga o'zining qarashlarini bayon etadi.

Qadimgi dunyo olimlari iqtisodiyotning ko'pgina qonun-qoidalarini, tushunchalarini yoritib bergan bo'lsa ham, u davrda iqtisodiy fan ilmiy bilimning alohida sohasi sifatida shakllanmagan.

Iqtisodiyot nazariyasi fani ko'pgina mamlakatlarda milliy bozor shakllangan va jahon bozori vujudga kelayotgan davrlarda dastlab «siyosiy iqtisod» nomi bilan shakllana boshladi.

Siyosiy iqtisod yunoncha so'zdan olingan bo'lib «politiko»–ijtimoiy, «oykos»-uy xo'jaligi, «nomos»–qonun, ya'ni uy yoki ijtimoiy xo'jalik qonunlari degan ma'noni bildiradi. Bu «iqtisod» tushunchasiga yaqin bo'lib u hozirgi davrda turlicha mazmunda ishlatiladi, ya'ni har xil darajadagi xo'jaliklarni, ilmiy bilishning aniq sohasini va yaxlit iqtisodiy munosabatlarni anglatadi. Fransuz iqtisodchisi Antuan de Monkreten birinchi marta «Siyosiy iqtisod traktati» (1615 y.) nomli asarida, bu fanni mamlakat miqyosida iqtisodiyotni boshqarish fani sifatida asosladi.

Iqtisodiy fan shakllanishi jarayonida bir qancha g'oyaviy oqimlar, maktablar vujudga kelgan. Ular jamiyat boyligining manbai nima, u qayerda va qanday qilib ko'payadi, degan savollarga javob topishga urinishgan. Bunday iqtisodiy oqimlardan dastlabkisi «merkantilizm», (italyancha mercante - savdogar) deb atalgan. Bu oqim tarafdorlari odamlarning, jamiyatning boyligi (pul, oltin) savdoda, asosan tashqi savdoda paydo bo'ladi, ko'payadi, faqat savdoda band bo'lgan mehnat unumli mehnat, boshqalari esa unumsizdir, deb tushuntiradi.

Boshlang'ich merkantalizm (XIV asr oxiri XVI asr o'rtalari) monetar tizim deb nomlanib, uning asosiy sharti pul (oltin, kumush)ni mamlakatda ushlab qolish hisoblangan. Vaqt o'tishi bilan merkantalistlar bu tadbir o'z-o'zicha mamlakatning boyligini

oshirmasligini tushunishgan. Keyingi merkantalizm (XVII-XVIII asr boshlari) tashqi savdo rivojlanishi va umuman iqtisodiy rivojlanishga pulni tashqariga chiqarishni taqiqlash to‘siq bo‘lishini anglashgan. Bu holda asosiy talab tashqi savdoda pulning ijobiy qoldig‘i mavjud bo‘lishi hisoblangan, pul oqimini tartibga solishga esa iqtisodiy usullar yordamida erishilishi lozimligi ta’kidlangan.

Keyingi merkantalizmning Angliyadagi asosiy vakili Tomas Mann (1571-1641) hisoblanib, shu oqim nuqtayi nazarida davlatning ichki va tashqi siyosatini asoslaydi. Merkantalizm konsepsiyasi asosan proteksionizm iqtisodiy siyosatiga tayanadi, ya’ni ular davlatning iqtisodiyotni boshqarishda qatnashishi, eksportning importdan ortiq bo‘lishi va boylikni ko‘paytirishni ta’minlashi zarurligi masalalariga e’tibor qaratadi. Bu obyektiv vujudga kelgan nazariya va siyosat kapitalning dastlabki jamg‘arilishi va shu orqali iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

«Fiziokratlar» merkantilistlardan farqli o‘laroq, boylik qishloq xo‘jaligida yaratiladi va ko‘payadi, degan g‘oyani olg‘a surdi. «Fiziokratiya» yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, ma’nosi «tabiat hukmronligi» degan ma’noni anglatadi. Bu maktab dastlab XVIII asr o‘rtalarida vujudga kelib, keyin Italiya, Angliya va Germaniyada keng yoyilgan. Fransiyada fiziokratlar g‘oyasining asoschisi Fransua Kene (1694-1774) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning yagona tarmog‘i hisoblanadi, unda tabiiy yo‘l bilan qo‘shimcha «sof mahsulot» vujudga kelib, xalqning boyligini ko‘paytirib boradi degan qarashni ilgari suradi. Uning fikricha, qishloq xo‘jaligida doimiy takror hosil qilinadigan boylik barcha sohalar o‘shishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, savdoning gullab-yashnashi va aholi farovonligiga olib keladi, sanoatni rivojlantiradi hamda millatning kamolotini ta’minlaydi. Fiziokratlar iqtisodiy qonunlar ham tabiat qonunlari kabi tabiiy, ular o‘ylab topilmaydi, balki ularni bilish va talabiga bo‘ysunish zarur deb hisoblaydi.

F.Kene birinchi bo‘lib, ijtimoiy takror ishlab chiqarish modeli – mashhur “iqtisodiy jadvalni” yaratadi. F.Kene dehqonchilikda barcha sinflar uchun oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat uchun xomashyo, kelgusi yil hosili uchun urug‘lik ishlab chiqarilishi natijasida milliy iqtisodiyotda sinflar o‘rtasida tovar va pul oqimi

harakatda bo‘ladi deb ko‘rsatadi. Olingan sof daromadni ular yer mulkdoriga renta shaklida beradi.

Fiziokratlar butun sof daromad mulkdorlar sinfiga tegishli bo‘lishi sababli, mazkur daromadga soliq kiritib, uni yer mulkdorlaridan undirib olish zarur deb hisoblaydi.

Uilyam Petti (1623-1686) g‘oyalari merkantilizmdan klassik fan-siyosiy iqtisodga o‘tish uchun ko‘prik bo‘ldi. U birinchi bo‘lib boylikning manbai mehnat va yer deb e‘lon qildi.

«Mehnat boylikning otasi bo‘lsa, yer uning onasidir» degan mashhur qarash U.Pettiga tegishli. XVII-XVIII asrda Angliyada iqtisod fanining klassik maktabi namoyondalari bo‘lmish A.Smit, D. Rikardolar tomonidan boylik faqatgina qishloq xo‘jaligidagina emas, balki butun moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida yaratilishini isbotlab berdi hamda ular boylikning umumiy shakli tovar va pulda mujassamlashgan qiymat deb hisoblaydi. Qiymatning o‘zini tovar ishlab chiqaruvchilar mehnati vujudga keltiradi. Shundan kelib chiqib, ular boylikning onasi yer, otasi mehnat, degan qat‘iy ilmiy xulosaga keldi. A.Smit (1723-1790) iqtisodiy fanning predmeti jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush farovonligini o‘stirishni o‘rganish deb hisoblaydi. U o‘zining «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot» (1776 y.) nomli asarida klassik maktab rivojlanishining yuz yillik davrini umumlashtirib tovar ishlab chiqarish va ayriboshlashga alohida soha sifatida qarashlarini asosladi, ular obyektiv qonunlar asosida rivojlanishi va davlat tomonidan tartibga solishga muhtoj emasligini ko‘rsatadi. A. Smit moddiy ishlab chiqarishda nima yaratilsa jamiyatning boyligi deb hisoblaydi. U boylikning o‘sinh shart-sharoitlari mehnat taqsimoti va uning unumdorligi ortishidir deb ta’kidlaydi.

A.Smit fikricha, qiymatning manbai mehnat, jamiyat rivojlanishi mehnat bilan birga kapital va yer ham qiymat manbai bo‘lib boradi, Shu sababli, tovar narxi ish haqi, foyda va rentadan qaror topadi. U ijtimoiy boylik ortib borishi bilan jamiyatning barcha sinflari daromadi o‘sib boradi, pul qiymat o‘lchovi vazifasini bajaradi degan xulosaga keladi.

A. Smit tushunishicha, qachonki shaxsiy manfaat ijtimoiy manfaatdan ustun tursa bozor qonunlari iqtisodiyotga samarali ta’sir

ko'rsatadi. Inson o'z manfaatini, shaxsiy iqtisodiy faolligi natijalarini faqat boshqalar bilan o'zaro ayriboshlash yo'li bilan ro'yobga chiqaradi. Shunday qilib, kishilar o'z manfaatini ko'zlab, bir-birlari uchun mahsulot ishlab chiqaradi, bozor esa ularning o'zaro manfaatlarini hisobga olishga majbur qiladi, ya'ni bunda kishilar beixtiyor jamiyat uchun ishlaydi.

A. Smitning «ko'rinmas qo'l» qoidasida bozor kuchlari (erkin narxlar, talab va taklif, raqobat) va obyektiv iqtisodiy qonunlar stixiyali ta'siri nazarda tutiladi. U davlatning jamiyatdagi yangi sinfi – kapitalist – tadbirkorlarning xo'jalik ishlariga aralashmasligini yoqlab chiqadi va tabiiy erkinlik g'oyasini ilgari suradi. Tabiiy erkinlik siyosati uning nazariyasida quyidagilarni ko'zda tutadi: ishchi kuchining erkin harakati, yer bilan erkin savdo, sanoat va savdo faoliyat qilishini davlat tomonidan tartibga solishni bekor qilish.

A.Smitning alohida nazariy qarashlari izdoshi D.Rikardo (1772-1823) hisoblanadi. Uning nazariy qarashlarining xarakterli belgisi – qiymat qonuni yaxlit iqtisodiy nazariya fani shakllanadigan asos deb tan olinishidir. D.Rikardo mazkur fanning asosiy vazifasi daromadlar taqsimlanishini boshqaradigan qonunlarni ochishda deb biladi. U ishlab chiqarish sohasini qiymat va daromadlar manbai deb hisoblaydi hamda foyda normasining pasayish tamoyilini ko'rsatib beradi, Differensial renta mexanizmini yoritadi.

D.Rikardo kapitalizmga ishlab chiqarishning mutlaq ratsional tizimi, foyda normasiga esa – kapitalizm jo'shqinligining rag'batlantuvchisi sifatida qaraydi. Uning g'oyalari Angliya utopik sotsializm nazariyasiga asos bo'ldi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining rivojlanishiga Sismondi (1773-1842) ham muhim hissa qo'shdi. U kapitalistik jamiyat iqtisodiy mexanizmini tanqid qilib, siyosiy iqtisod inson baxti yo'lida ijtimoiy mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan fan bo'lmog'i lozim deb ko'rsatadi. Kapitalizmning iqtisodiy tuzumini tanqid qilish bilan bir qatorda undan ko'ra progressiv bo'lgan jamiyat qurish g'oyasi Sen-Simon (1760-1825), Sharl Fure (1772-1837), Robert Ouen (1771-1858) kabi sotsial utopistlar tomonidan ilgari surilgan edi. Ular xususiy mulkni qattiq tanqid qilib, uni tugatish tarafdori edilar. Ulardan keyin marksizm deb nomlangan nazariy

yoʻnalish jamiyat taraqqiyotiga tabiiy-tarixiy jarayon deb qarab, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ularning iqtisodiy tizimi, tarkibiy qismlari, vujudga kelishi, rivojlanishi va boshqasi bilan oʻrin almashish sabablari toʻgʻrisidagi taʼlimotni hamda qoʻshimcha qiymat nazariyasini yaratdilar. Mazkur taʼlimot asoschilari oʻzlarining nazariy konsepsiyasini uslubiy jihatdan bir vaqtda uchta ilmiy manbaga tayanib yaratadi: A.Smit – D.Rikardoning Angliya klassik siyosiy iqtisodi, Gegel – Feyrbaxning nemis klassik falsafasi va fransuz utopik sotsializmi.

Ular taʼlimotida asosiy oʻrinni bazis va ustqurma konsepsiyasi egallaydi – unga koʻra ijtimoiy borliq (hayot) kishilar ongini belgilaydi. Mazkur nazariyada kapitalizm tizim sifatida daromadlar taqsimotida bozor prinsiplari buzilishiga olib kelishi, toʻliq bandlikni taʼminlay olmasligi, kolonial ekspluatatsiya va urushlarga tortishi qayd qilinadi. Ular A.Smit va D.Rikardo asos solgan qiymatning mehnat nazariyasini yangidan qayta ishlab, qoʻshimcha qiymat ishlab chiqarishga proletariatni ekspluatatsiya qilish orqali erishilishini va uning kapitalistlar tomonidan oʻzlashtirilishi ular boyligining koʻpaytirishning doimiy manbaini tashkil qilishini qayd etadi. Kapitalning jamgʻarilish jarayoni sinfiy kurashning keskinlashishi va kapitalizmning barbod boʻlishi bilan tugashini qayd qiladi.

K.Marksning kapital toʻgʻrisidagi taʼlimoti bir xil baho olmadi. Sobiq sotsialistik mamlakatlarda marksistik gʻoyani roʻyobga chiqarishga qaratilgan harakat muvaffaqiyatsizlikka mahkum boʻldi. Bu uning chuqur inqiroziga olib keldi. Hozirgi kunda Marksizm tanqidchilari kapitalizm barbod boʻlganligi va uning bashoratlari tasdiqlanmaganligini qayd qilishadi. Bu gʻoyaning tarafdorlari u tadqiq qilgan kapitalizm 1930-yillardagi buyuk depressiya davrida barbod boʻlganligini koʻrsatadi.

Markaziy Osiyoda iqtisodiy qarashlarning rivojlanishi Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy (1441-1501) va boshqa shu kabi dunyoga mashhur mutafakkirlar nomi bilan bogʻliq. Ularning asarlaridagi iqtisodiy gʻoyalar hali falsafiy bilimlardan toʻliq ajralmagan boʻlsada, ancha qiziqish uygʻotadi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy qarashlarida insonlarning ehtiyojlari



to'g'risidagi g'oyalar markaziy o'rinni egallaydi. Uning fikricha, kishilarning moddiy ehtiyojlari jamiyatning shakllanishida birlamchi sabablardan hisoblanadi.

Ibn Sino nafaqat oila doirasida, balki shahar va davlat darajasida daromad va harajatlar muvozanati haqida fikr yuritadi. Uning qarashicha, daromad va xarajatlar muvozanatligiga tabiiy ofatlar va urushlar ro'y berganida zaxiradan mablag'larni ta'lim uchun ajratishni hisobga olib erishish zarur.

Iqtisodiy bilimlar sohasida XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib muhim o'rin tutadi. U jamiyat rivojlanishida mehnatning rolini ko'rsatib, moddiy boyliklarning xarakteri va xususiyatlarini qayd qiladi, mehnat taqsimoti masalasi muhimligiga e'tibor qaratadi hamda pulning vazifalariga aniq ta'rif beradi.

Buyuk shoir, mutafakkir, qomuschi olim va davlat arbobi A.Navoiy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi haqida o'z fikrlarini bayon qiladi, boylikni yaratishda mehnatning rolini ko'rsatib beradi. U «boylik» agar u butun xalq tomonidan foydalanilsa, ne'matga aylanadi deb hisoblaydi. Uning fikricha, davlat boyishining manbai soliqlar hisoblanadi, Shu sababli, adolatli soliq tizimini o'rnatish g'oyasini ilgari suradi. Navoiy o'zining asarlarida davlat moliyasiga alohida e'tibor qaratadi.

5. Zamonaviy iqtisodiy qarashlar va uning rivojlanish yo'nalishlari

XIX asrning 70-yillaridan boshlab «siyosiy iqtisod» atamasi «iqtisod» tushunchasiga almashtirila boshlandi. Mazmunan iqtisodiyot nazariyasida yangi yo'nalish «ekonomiks» (inglizcha "economics" – iqtisod, xo'jalik hayoti, iqtisodiy fan) shakllandi, u fan sifatida xo'jalikni rivojlantirish qonunlarini o'rgatishni anglatadi.

Shu sababli, bu davrdan qator g'arb mamlakatlarida yangi iqtisodiy konsepsiyalar paydo bo'ldi va mustahkamlandi. Ularda qiymatning mehnat nazariyasini inkor qilish asosida nazariy fanni uning ijtimoiy muammolaridan ozod qilishga urinishlar kuzatildi.

Fan tadqiqot markaziga ijtimoiy va tarixiy mazmundan mahrum qilingan bir qator umumiy prinsiplar qo'yildi. Bular: iste'mol jarayonida iqtisodiy ne'matlar subyekt nafligi pasayib borish prinsipi; iqtisodiy muvozanatlik qoidalari va boshqalar.

Iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi ishlab chiqarishning mavjud omillari (mehnat, kapital, yer)dan foydalanishning muqobil imkoniyatlaridan tanlashda muammoning ijtimoiy mazmunidan ozod qilingan «texnologiya» bo'lib qoldi. Diqqat markazga iqtisodiyotning bozor mezonlariga binoan samarali faoliyat qilish masalasi chiqadi. Har bir iqtisodiyot subyekti imkoniyatlar cheklanganlik muammosiga to'qnash keladi. Shundan kelib chiqib, fan jamiyat cheklangan resurslardan nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish muammosini qanday hal qilish mumkinligini tadqiq qiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab «marjinalizm» deb atalgan oqim vujudga kelib, shakllana boshladi. U fransuzcha "marginus" so'zidan olingan bo'lib, «keyingi qo'shilgan», degan ma'noni beradi. Uning asoschilari Avstriya iqtisodiy maktabining namoyondalari Karl Menger (1840-1921), Fridrix fon Vizer (1851-1926), Bem Bavrek (1851-1914) hamda ingliz iqtisodchisi Uilyam Stenli Jevons (1835-1882) bo'lib, ular tomonidan keyingi qo'shilgan tovar nafliligining, mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borishi, keyingi xarajat kabi nazariyalar ishlab chiqildi. Bu oqim iqtisod fanida yangi yo'nalish neoklassik, ya'ni yangi klassik deb nom oldi. Mazkur nazariyaning yirik namoyandalaridan biri A.Marshall bo'lib, u iqtisodiy jarayonlarning uzviy bog'lanishi va uning nisbatlarini ishlab chiqishga harakat qildi, bozor muvozanati va narxni aniqlovchi omillar talab va taklifdan iborat deb qaraydi. Bu nazariy yo'nalishning namoyondalaridan biri Shveysariya iqtisodchisi Leon Valras (1834-1910) bo'lib, u umumiy iqtisodiy muvozanat modelini ishlab chiqishga harakat qildi.

Neoklassiklar o'zlarini A.Smit va boshqa liberal iqtisodchilarning izdoshlari deb hisoblab iqtisodiy erkinlik va davlatning bozor mexanizmiga aralashmaslik prinsiplarini qo'llab chiqadi. Ularning bosh g'oyasi shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti muvozanatlikni o'z-o'zicha tartibga solish va qo'llab-quvvatlashga layoqatli, davlat faqat bozorning faoliyat qilishi uchun shart-sharoit

yaratishi zarur. Neoklassik oqim tarafdorlari o'zlarining tadqiqot predmeti sifatida ijtimoiy tashkil qilinish shaklidan qat'i nazar "sof iqtisodiyot" va shaxsiy manfaatga asoslangan bozor iqtisodiyoti alohida subyektlari xatti-harakatini nazarda tutadi.

Avstriya iqtisodiy maktabining namoyandasi E.Shumpeter «Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi» (1912-yil) deb nomlangan kitobida iqtisodiy tizimlar o'zgarishining ichki kuchlarini, ularning ichki mazmunini ko'rsatishga harakat qildi va u iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch tadbirkorlik degan xulosaga keladi.

Ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keynes (1883-1946) o'zining «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936-yil) degan kitobida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar: milliy daromad, kapital xarajatlar, iste'mol va jamg'arishning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, investitsiya va iste'mol nisbatlarining eng maqsadga muvofiq tarzda qaror topishi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili deb ko'rsatadi. Keynes ta'limoti ta'sirida iqtisodiyotda makroiqtisodiy tahlil yo'lga qo'yildi. U davlatning iqtisodiyotni boshqarishda faol qatnashishi zarurligini asosladi.

Keynsning bosh g'oyasi shundan iboratki, bozor iqtisodiy tizimi takomillashmagan va o'z-o'zini tartibga solishga layoqatli emas, mumkin bo'lgan yuqori bandlik va iqtisodiy o'sish faqat iqtisodiyotga davlatning faol aralashuvi orqali ta'minlanishi mumkin.

O'tgan asrning 50-yillari boshlarida neokeynschilar (R. Xarrod, E. Domar, E. Xansen va boshq.) bandlik va inflatsiya o'rtasida optimal nisbatni topishga harakat qilib, iqtisodiy o'sish muammosining yechimini ishlab chiqadi. "Neoklassik sintez" konsepsiyasi ham shunga yo'naltirilgan. Jumladan, P. Samuelson neoklassik va Keynscha nazariyalarni, ishlab chiqarishning optimal darajasini ta'minlovchi hamda talabni faollashtiruvchi omillarni bog'lashga harakat qiladi. P. Samuelsonning asosiy g'oyasi shundan iboratki, qachonki to'liq bandlikka erishilganda bozorning o'zini-o'zi tartiblash tizimi ta'sir ko'rsata boshlaydi.

XX asrning 60 – 70-yillarida neokeynschilar (J. Robinson, P. Sraffa, N. Kaldor va boshqalar) daromadlarni ancha teng taqsimlash, bozor raqobatini cheklash, inflatsiyaga qarshi tadbirlar

o‘tkazishni yoqlab keynschilikni D. Rikardo g‘oyalari bilan to‘ldirishga harakat qiladi.

Keyns nazariyasi g‘arb mamlakatlarida iqtisodiy o‘shishning, ancha yuqori sur‘atlarini ta‘minlash, bandlikni oshirish va umumiy farovonlikni o‘stirish imkonini berdi. Biroq kuchli jahon iqtisodiy inqirozlari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jamiyatni ishsizlik, inflatsiya va iqtisodiy bo‘hronlarni bartaraf qilishga layoqatsiz ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli, iqtisodiyot nazariyasidagi yangi yo‘nalish – monetarizm, yangi klassik maktab va neoinstitutsionalizm keynschilikni siqib chiqara boshladi.

Monetarizm – iqtisodiyotni barqarorlashtirishda pul omillari hal qiluvchi rol o‘ynashini asoslashga qaratilgan nazariya monetaristlar iqtisodiyotni boshqarishda davlat pul masalasi, pul emissiyasi, muomala va zaxiradagi pul miqdorini nazorat qilishi, davlat budjeti muvozanatlashuviga erishishi va yuqori bank kredit foizini o‘rnatishi zarur deb hisoblaydi.

Monetarizm erkin raqobat va narxning erkin shakllanishini bozor iqtisodiyotining asosi va uning muvozanatlikka erishish sharoiti deb hisoblaydi. Ular fikricha, bozor o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tizim bo‘lib qolaveradi, davlatning aralashuvini esa faqat pul sohasi bilan cheklash lozim.

Uning asoschilaridan biri amerikalik iqtisodchi Nobel mukofoti sovrindori Milton Fridman o‘zining tadqiqoti negizida iqtisodiyotni barqaror qilishda pul omili asosiy rol o‘ynaydi, degan g‘oyani ilgari suradi. M. Fridmanning fikricha, pul iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning tartibsiz dastagi bo‘lishi mumkin.

Uning iqtisodiy qarashlaridan Pinochet davlat boshqaruviga kelgan davrda Chilida, R.Reygan iqtisodiy siyosatini asoslash uchun AQSHda foydalanilgan.

XX asrning 50–60-yillarida neoklassik yo‘nalishida bir qator yangi oqimlar vujudga keldi. Ularning asosiylari quyidagilar:

Neoliberalizm (F.Xaek, Shumpeter, L.Erxard) – asosiy e‘tiborni davlatning iqtisodiyotga aralashuvini eng kam darajaga keltirishga, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratish lozimligini uqtiradi.

Institutsionalizm tarafdorlari (T.Veblen, U.Mitchel, M.Veber, J.Gelbreyt) fikriga ko‘ra xo‘jalik yurituvchilar o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat iqtisodiy, balki noiqtisodiy omillar ta‘sirida vujudga

keladi. Shu sababli, iqtisodiyotga muassasaviy o'zgarishlar orqali ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hozirgi paytda marjinalizm, monetarizm, keynschilik va boshqa qator yo'nalishdagi iqtisodiy qarashlar «Ekonomiks» nomli kitobda mujassamlashgan bo'lib, bu AQSH, Angliya va boshqa qator mamlakatlarda darslik sifatida o'tiladi.

Hozirgi paytda bu yo'nalishdagi fan mamlakatimiz va boshqa qator MDH davlatlarida «Iqtisodiyot nazariyasi» deb atala boshlandi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fan sifatida shakllanguncha bosib o'tgan yo'l va unda vujudga kelgan g'oyalar, oqimlar juda murakkab, ko'pincha bir-biriga zid va qarama-qarshidir. Shunday bo'lsa-da, ular bir-birini to'ldiradi, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning ichki ziddiyatlarini, qonunlarini ma'lum darajada umumlashtirib ifodalaydi.

Iqtisodiy fanda turli xil maktablarning mavjud bo'lishi va iqtisodiy jarayonlarni bilishga turlicha yondashuvlar iqtisodiy hayotning murakkabligi, o'zgaruvchanligi va ziddiyatli bo'lishini tasdiqlaydi. Shu sababli, hech bir nazariya doimiy va mutlaq haqiqat bo'lib qolmaydi. Ayni vaqtda bu nazariyalar o'z rivojlanishining u yoki bu bosqichida turgan jamiyat iqtisodiy muammolarini mushohada etish va hal qilishga ma'lum hissa qo'shadi. Shundan kelib chiqib va vujudga kelgan ziddiyatlarni bartaraf qilish maqsadida turli xil, hatto iqtisodiyot nazariyasidagi qarama-qarshi oqimlar yutuqlarini umumlashtirish zarur bo'ladi.

Tayanch tushunchalar

Iqtisodiyot – bu iqtisodiy ne'matlar va vositalarni takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik yuritish shakllari, ularni tartibga soluvchi mexanizmlar va infratuzilmaviy muassasalarning ma'lum darajada tartibga solingan tizimidir.

Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi – jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi hamda iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.

Iqtisodiyotning asosiy muammosi – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qanday qilib to‘laroq qondirib borish mumkinligi to‘g‘risidagi masaladir.

Infratuzilma – ishlab chiqarish va ayriboshlashning bir me‘yorda ro‘y berishi hamda kishilar turmush kechirishining umumiy shart-sharoitini tashkil qiluvchi sohalardir.

Iqtisodiy faoliyat – kishilar uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne‘mat va vositalarni ishlab chiqarish hamda iste‘molchilarga yetkazib berishga qaratilgan va chambarchas bog‘liqlikda amal qiladigan turli xil faoliyatlar.

Ehtiyoj – insoniyatning rivojlanishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo‘lgan zaruriyat.

Iqtisodiy resurslar – mamlakat, ayrim korxonalar va firma, oila ixtiyorida to‘planib, ayni vaqtda mavjud bo‘lgan, tovar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish ularni iste‘molchilarga yetkazib berish va iste‘mol jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vositalar, imkoniyatlar va manbalardir.

Kapital – inson tomonidan vujudga keltirilgan barcha ishlab chiqarish vositalari (binolar, inshootlar, mashina va mexanizmlar, asbob va uskunalar, xomashyo, materiallar va h.k.).

Yer – ishlab chiqarishga jalb qilingan barcha yerlar va boshqa barcha tabiiy resurslar.

Ishchi kuchi (mehnat) – insonda mavjud bo‘lgan jismoniy va aqliy qobiliyatlar. Ishchi kuchining sarflanishi mehnat jarayonini tashkil qiladi.

Tadbirkorlik layoqati – ayrim kishilarga xos bo‘lgan, iqtisodiy faoliyat sohasida noyob xislat.

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi nima?
2. Nima uchun hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berish insonning turli xil faoliyatlari ichida eng asosiylari hisoblanadi?
3. Iqtisodiyotning asosiy muammosini hal qilishning qanday yo‘llari mavjud?

4. Markaziy Osiyoda iqtisodiy qarashlarning rivojlanishida qaysi mutafakkirlarning o‘rni bor?

5. «Iqtisodiyot nazariyasi» fan sifatida shakllanish jarayonida qanday g‘oyaviy oqimlar vujudga kelgan?

II bob. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA BILISH USULLARI

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, vazifalari va tamoyillari.

2. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar.

3. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning uslub va usullari.

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, vazifalari va tamoyillari

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmetiga o'tmishdan turlicha qarashlar mavjud bo'lib va hozirgi davrda ham turli fikrlar bildirib kelinmoqda.

Masalan, Aristotel bu fanga uy xo'jaligini boshqarish qonunlari to'g'risidagi fan deb qaragan bo'lsa, merkantilistlar, fiziokratlar va ingliz klassik iqtisodiy maktabining vakillari uni boylik to'g'risidagi fan deb hisoblaydi. Fanning predmeti boylikning manbalari, uni ko'paytirish yo'llari hamda jamiyat ne'matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish jarayonini o'rganishdan iborat deb qaraydi. Keyingi paytda mazkur fanni xalq xo'jaligi, ijtimoiy xo'jalik to'g'risidagi fan deb ham hisoblamoqdalar. Ayrimlar iqtisodiyot nazariyasi fanini moddiy hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va ayriboshlashni boshqarish qonunlari to'g'risidagi fan deb ko'rsatadilar. A.Marshall esa iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti insoniyat, jamiyatning me'yorida hayotiy faoliyatini tadqiq qilishdan iborat deb qayd qiladi.

Iqtisodiyot nazariyasi fani siyosiy iqtisod nomi bilan yuritilgan davrlarda uning predmeti moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlarni o'rganishdan iborat deb hisoblangan.

«Ekonomiks» nomli o'quv adabiyotlarida fanning predmeti kishilarning ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida cheklangan

resurslardan samarali foydalanish muammolarini tahlil qilish, kishilarning iqtisodiy xulq-atvorini o'rganishdan iborat deb ta'kidlanadi.

Shunday qilib, iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti to'g'risida siyosiy iqtisodga doir adabiyotlarda ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlarni o'rganishga alohida ustuvorlik berilsa, «Ekonomiks» yo'nalishidagi manbalarda asosan kishilarning resurslarga, moddiy ashyoviy buyumlarga bo'lgan munosabatini, iqtisodiy xatti-harakatini o'rganishga, cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanish masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Iqtisodiyot nazariyasi fani predmetiga har ikkala yo'nalishdagi qarashlar birgalikda uning predmet doirasini qamrab oladi va yaxlitligini ta'minlaydi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida iqtisodiy ne'matlarni takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini yoki kishilarning iqtisodiy xatti-harakatini o'rganishdan iborat.

Iqtisodiy munosabatlar – bu iqtisodiy ne'matlarni takror ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida vujudga keladigan turli xil aloqa va munosabatlardir.

Ularning aniq namoyon bo'lish shakllari iqtisodiy hodisa va iqtisodiy jarayonlardir.

Iqtisodiy hodisalar ishsizlik, inqiroz, inflatsiya, bandlik va shu kabilar, iqtisodiy jarayonlar esa ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, taqsimlash, ayriboshlash, iste'mol kabilar orqali yuzaga chiqadi.

Iqtisodiyot nazariyasi o'z predmetini mikro va makro darajada o'rganadi. Agar iqtisodiyotga mikrodarajada qaralsa, fanning predmeti alohida iqtisodiy birliklar (alohida iste'molchi, alohida ishlab chiqaruvchi)ning xatti - harakatini o'rganish, alohida tovarlarga narx shakllanishi, korxonalar xarajatlari va daromadlar qaror topishi va shu kabilarni tahlil qilishga qaratiladi. Iqtisodiyotga uning yirik tarkibiy qismlari (uy xo'jaliklari, xususiy va davlat sektori) o'zaro



ta'siridagi yaxlit tizim sifatida qaralsa va davlat iqtisodiy siyosatining qonuniyatlari aniqlansa, bu makroiqtisodiy tahlil hisoblanadi. Makroiqtisodiyot shuningdek daromadlar, bandlik, narxlar darajasi, mahsulotning yalpi hajmi, milliy daromad, jami sarflar kabi jamlanma ko'rsatkichlarni ham qarab chiqadi.

Iqtisodiyotning mazkur ikki darajasi farqi faqat iqtisodiy tahlil nuqtayi nazaridan kelib chiqadiki, shu sababli iqtisodiyot nazariyasini bunday qismlarga ajratishni mutlaqlashtirish ko'pam to'g'ri emas. Chunki mikro va makroiqtisodiyot o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi cheklangan iqtisodiy resurslardan foydalanishning turli muqobil variantlaridan eng samaralisini tanlash orqali jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini to'laroq qondirib borishning nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilishdan iborat.

Fanning predmeti, uning vazifalarida yanada oydinroq ko'rinadi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifasini ikki tomondan, ya'ni ham amaliy va ham nazariy tomondan tushuntirish mumkin.

Fanning amaliy vazifasi cheklangan resurslardan samarali foydalanib, ularning har birligi evaziga ko'proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash, har bir faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar miqdori bilan erishilgan samara, ya'ni tovar va xizmatlar miqdorini taqqoslash, resurslardan unumliroq foydalanish yo'llarini topishga qaratiladi. Bu vazifa yaratilgan nazariyalar va ilmiy qarashlarni real amaliy hayotga joriy qilib borishni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning mohiyatini, iqtisodiy qonunlar va iqtisodiy tushunchalarning mazmunini yoritib ilmiy bilish vazifasini ham bajaradi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining qayd qilingan amaliy va nazariy vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Amaliy iqtisodiyot nazariy bilimga ega bo'lishni, u bilan qurollanish zaruriyatini taqozo etadi. Umuman olganda, bu fan iqtisodiy jarayonlar, voqea va hodisalar sirini bilishda ilmiy qo'llanmadir. Nazariy bilim esa oldindan ko'ra bilish va amaliy harakat yo'lini to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Iqtisodiyot nazariyasi aniq vaziyatlarda aniq takliflarni berib, uslubiy vazifani ham bajaradi. Iqtisodiy bilim nazariyalarga ega bo‘lish, o‘zgarib turuvchi iqtisodiy vaziyatlarda ratsional qaror qabul qilishni mustaqil amalga oshirish imkonini beradi.

Iqtisodiyot nazariyasi bashorat qilish vazifasi orqali jamiyat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining istiqbollari ilmiy asoslab beradi.

«Pirovard maqsadimiz bo‘lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma’naviy kuch quvvat manbai, ilmiy asos – bu milliy g‘oya, milliy mafkuradir»⁴. Shu aqidadan kelib chiqib, iqtisodiyot nazariyasi fani «Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish»⁵ vazifasini ham bajaradi.

Iqtisodiyot nazariyasining tamoyillari. Har qanday fanning tamoyillari uning shakllanishidagi boshlang‘ich holatini anglatib, aniq olingan fanning butun binosi ushbu asos ustida barpo qilinadi.

Iqtisodiyot nazariyasining asos bo‘luvchi tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Cheklangan resurslar sharoitida tanlashning zarurligi. Bu tamoyil kishilar har doim resurslar va vaqt cheklanganligini hisobga olib “nima”, “qanday”, “qancha” ishlab chiqarish bo‘yicha tanlov oldida turishini anglatadi.

Muqobil qiymat tamoyili. Bu muqobil xarajatlar bilan bog‘liq. Nimaningdir qiymati bu kutilgan natijani olish uchun, voz kechish to‘g‘ri kelgan boshqa birining qiymatidir.

Iqtisodiyot subyektlari o‘zlarining faoliyatini keyingi xarajatlardagi o‘zgarishlarni hisobga olib amalga oshiradi. Bunda olinishi kutilayotgan qo‘shimcha naf qilinish zarur bo‘lgan qo‘shimcha xarajatlar bilan solishtirilishi zarur.

Iqtisodiyot sohasidagi har qanday qarorlar (iqtisodiy siyosat) uning subyektlari xatti-harakatiga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Qaytimning kamayib borish tamoyili. Bu tamoyil qo‘shimcha teng miqdordagi mehnat, kapital va boshqa resurslar sarfi ma’lum

⁴ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.: «Ўзбекистон», 2000. 463-бет.

⁵ Каримов И.А. «Ўзбекистон буюк келажак сари». Т.: «Ўзбекистон», 1999. 187-бет.

davrdan boshlab, mahsulot hajmi o'sishining kamayishi bilan birga boradi.

Xo'jalik faoliyati qatnashchilari harakatini uyg'unlashtirishda bozor va ma'muriy usullarning o'zaro bog'liqlik tamoyili.

2. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar

Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy munosabatlarda amal qiladigan iqtisodiy qonunlarni ham o'rganadi.

Boshqacha qilib aytganda, bu fanning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiy qonunlarni bilish va uning mazmunini, amal qilish mexanizmini ochib berish hisoblanadi.

Iqtisodiy qonunlar iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalarini, ularning ichki o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.

Iqtisodiy qonunlar obyektiv amal qilayotgan iqtisodiy voqea-likning umumlashgan nazariy ifodasi bo'lib, u obyektiv reallikni ilmiy bilish natijasidir, ya'ni uning inson ongidagi in'ikosidir. Iqtisodiy qonunlar obyektiv xarakterga ega bo'lib, ularning kelib chiqishi, amal qilishi, rivojlanishi va barham topishi kishilarning ongiga, ularning xohish irodasiga bog'liq emas. Ma'lum tarixiy davrlarda, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga, mavjud iqtisodiy tizimning xarakteri va shart-sharoitiga mos keladigan iqtisodiy qonunlar vujudga keladi va amal qila boshlaydi. Lekin iqtisodiy qonunlar kishilarning iqtisodiy faoliyatidan tashqarida, ulardan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, balki aynan ularning faoliyati, xatti-harakatlari, iqtisodiy xulq-atvori tufayli tarkib topadi va ular orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun insonlar iqtisodiy qonunlarning mazmunini bilib, ularning talablarini hisobga olib, o'zlarining amaliy faoliyatlarida foydalanishlari lozim bo'ladi. Bu iqtisodiy qonunlar talablariga zid har qanday qaror va xatti-harakatlar kishilarning xohish irodasidan qat'iy nazar muqarrar ravishda xo'jalik faoliyatida qiyinchiliklarga, resurslar isrofgarchiligiga olib keladi.

Iqtisodiy qonunlar tabiat qonunlaridan farq qiladi. Tabiat qonunlari doimiydir, iqtisodiy qonunlar esa ijtimoiy hayot qonunlari

bo‘lib, tarixiydir va o‘zgaruvchidir, Chunki u kishilarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib kishilik jamiyati mavjud bo‘lganda paydo bo‘ladi va amal qiladi.

Amal qilish davrining davomiyligiga qarab iqtisodiy qonunlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Umumiqtisodiy qonunlar – kishilik jamiyati rivojlanishining barcha bosqichlarida amal qiladi. Masalan, vaqtni tejash qonuni, ehtiyojlarning o‘zib borish qonuni, takror ishlab chiqarish qonuni, unumdorlikning o‘zib borishi qonuni va boshqalar;

Xususiy yoki davriy iqtisodiy qonunlar – insoniyat jamiyati taraqqiyotining ma’lum bosqichlarida amal qiladi. Masalan, talab qonuni va taklif qonuni, tovar-pul munosabatlari mavjud bo‘lgan davrlarda amal qiladi.

Maxsus o‘ziga xos iqtisodiy qonunlar – alohida olingan iqtisodiy tizim sharoitida amal qiladi. Masalan, sof kapitalizm sharoitidagi qo‘shimcha qiymat qonuni.

Iqtisodiy kategoriyalar. Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy qonunlar bilan bir qatorda iqtisodiy jarayonlarning alohida tomonlarini tavsiflaydigan kategoriyalarning mazmunini ham ochib beradi.

Iqtisodiy kategoriyalar – doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushunchadir.

Iqtisodiy kategoriyalar real iqtisodiy hodisalarning mohiyatini ifoda etadigan ilmiy tushuncha bo‘lib, ilmiy tafakkur mahsulidir. Ular nihoyatda ko‘p va xilma-xildir. Bozor, pul, tovar, kapital, ishchi kuchi, iqtisodiy muvozanat, moliya, kredit, bank va boshqa shu kabi tushunchalar iqtisodiy kategoriyalarga misol bo‘la oladi. Iqtisodiy qonunlardan farq qilib, ilmiy kategoriyalar, iqtisodiy hodisalarning mazmunini ifoda etadi.

3. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning uslub va usullari

Uslubiyat — bu ilmiy bilishning tamoyillari tizimi, yo‘llari, qonun - qoidalari, usullari va aniq tartiblaridir. Bu obyektiv voqelikni bilish dialektikasi, mantiqi va nazariyasini o‘z ichiga oluvchi bir butun ta’limotdir. Uslubiyat umumiy tavsifga ega, lekin

har bir fan o‘zining predmetidan kelib chiqib, ilmiy bilish usullariga ega bo‘ladi.

“Usul” yunonchadan so‘zma - so‘z tarjima qilinganda “tadqiqot” tushunchasini anglatib, ilmiy bilishning aniq hodisalarini bildiradi.

Dialektika ilmiy bilishning umumiy usuli bo‘lib xizmat qiladi. Uning iqtisodiyot nazariyasi fanida qo‘llaniladigan asosiy qoidalari quyidagilar:

iqtisodiyot bir-biri bilan aloqada, chambarchas bog‘liqlikda, bo‘lgan o‘zaro ta’sir qilib turadigan turli bo‘g‘inlardan, bo‘laklardan iborat yaxlit bir tuzilma deb hisoblanadi;

iqtisodiy hodisa va jarayonlarning kelib chiqishi, amal qilishi va barham topishi, uning sabablari va oqibatlari ichki aloqadorlik va bog‘liqlik tomonlarini zamon va makonda ro‘y berishi tan olinadi;

iqtisodiy jarayonlarni oddiydan murakkablikka, quyidan yuqoriga rivojlanishida deb qaraladi. Bu yerda son jihatidan o‘zgarishlar to‘plana borib, sifat jihatidan o‘zgarishga olib kelishi hisobga olinadi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining o‘ziga xos tadqiqot usullari ham mavjud. Ulardan eng asosiylari quyidagilar:

Ilmiy abstraksiya usuli – voqea va hodisalarning tahlil paytida xalal berishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali belgilari e’tibordan chetlashtirilib, o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga tegishli belgilarga e’tiborni qaratishdir.

Tahlil va sintez usuli. Tahlil — bu o‘rganilayotgan bir butunni alohida qismlarga ajratib ularning xususiyatini ochib berishdir. U ikki darajada amalga oshiriladi. Mikroiqtisodiy tahlilda iqtisodiyotning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lmish korxonalar va boshqa iqtisodiy subyektlarning yuqori pirovard natijaga erishishga qaratilgan xatti-harakati, tadqiq qilinadi.

Makroiqtisodiy tahlilda milliy iqtisodiyotning holati, faoliyat qilishi va natijalari o‘rganiladi. Iqtisodiy resurslarni to‘liq band qilish, inflatsiyani jilovlash va iqtisodiy muvozanatlikni ta’minlash orqali iqtisodiy o‘sishga erishish muammolari bu tahlil obyektidir. Qisqacha aytganda, makroiqtisodiy tahlilda milliy xo‘jalik, uning alohida sektorlari (davlat, kooperativ, xususiy) va jahon xo‘jaligi o‘rganiladi.

Sintez – bu hodisa va jarayonlarning umumiy o‘zaro ta’siri asosida xulosalar chiqarishdir.

Mantiqiylik va tarixiylikning birligi usuli. Tarixiylik dalili iqtisodiy fanlarda ham tarixiy rivojlanish nuqtayi nazaridan tadqiqot olib borishni zarur qilib qo‘yadi. Chunki iqtisodiy jarayonlar jamiyatning tarixiy rivojlanish bosqichlarida ro‘y beradi. Mantiqiylik usulida jarayonlar faqatgina tarixiy nuqtayi nazardan emas, shu bilan birga ichki zaruriy va qonuniy bog‘lanishlar bo‘yicha ham tahlil qilinadi.

Foydalaniladigan usullar ichida eksperiment alohida o‘ringa ega. Iqtisodiy o‘shishning keskin o‘zgarishi, xususan iqtisodiyotning inqiroz va beqarorlik bosqichlarida eksperimentdan keng foydalaniladi.

Induksiya va deduksiya usuli. Induksiya nazariyadan amaliyot tomon borishni, yaratilgan nazariyalarni kishilarning amaliy hayotida sinab ko‘rishni anglatadi, deduksiya amaliyotdan nazariya tomon borishni, real hayotdagi ro‘y beradigan hodisa va jarayonlardan nazariyalar yaratishni bildiradi.

Pozitiv va normativ usullar. Pozitiv usul iqtisodiy hodisalarning real hayotdagi holatini qanday bo‘lsa, shu holicha aks ettiradi. Masalan, O‘zbekistonda ishsizlik 2015-yilda 4,9 foizni tashkil qildi. Respublikada narxlarning o‘shishi o‘tgan 2016-yilda 7,0 foizdan oshmadi va h.k. Normativ usul hodisa va jarayonlarning qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi fikr va mulohazalardir. Masalan, ishsizlikning tabiiy darajasi 5,0 foizdan oshmasligi kerak. Real ish haqining o‘shishi narxlarning o‘shish sur‘atidan yuqori bo‘lishi zarur va hokazo.

Iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy tahlil qilishda matematik, statistik usullar va grafiklardan keng foydalaniladi. Matematik usul iqtisodiy hodisa va jarayonning miqdoriy o‘lchamlarini aniqlash imkonini bersa, grafik usul o‘zgaruvchi miqdorlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rgazmali qilib tasvirlaydi.

Iqtisodiy tahlilda «Boshqa sharoitlar o‘zgarmay qolganda» degan farazdan ham foydalaniladi. Chunki real iqtisodiy hayotda hodisa va jarayonlarga ko‘plab omillar bir vaqtda, shu bilan birga turli xil yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatadi.

Bu barcha omillarning birgalikda ta'sirida hodisa va jarayonlar mohiyatini ochib berish qiyin kechadi yoki mutlaqo mumkin bo'lmaydi. Shu sababli, ularning alohida olingan omil ta'sirida mohiyati ochilib, boshqa omillar ta'siri e'tibordan chetda qoladi yoki ular o'zgarmas deb hisoblanadi. Tahlilning keyingi bosqichida o'rganilayotgan hodisa yoki jarayonga boshqa omillarning ta'siri ham alohida-alohida qarab chiqiladi.

Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy modellardan ham foydalaniladi. Iqtisodiy modellar – bu real voqelik, iqtisodiyot va undagi ro'y beradigan hodisa hamda jarayonlarning soddalashtirilgan manzarisidir. Bunda iqtisodiy modellarning ikkita turi o'z o'rniga ega bo'ladi: muvozanatlashgan va optimallashtirilgan modellar.

Muvozanatlashgan modellar iqtisodiy hodisa va jarayonlar yoki ularning natijalari miqdoriy o'lchamlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. Masalan, yalpi talab va yalpi taklif modeli, tovarlar miqdori va pul massasi modeli, daromadlar va xarajatlar modeli va h.k.

Optimallashtirilgan modellar – alohida olingan iqtisodiy hodisa yoki uning natijasidagi miqdoriy o'zgarishlarni va har bir davrdagi optimal me'yorlarni xarakterlaydi. Masalan, narx modeli, xarajatlar modeli, daromadlar modeli va h.k.

Model qisqa va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli nisbatan qisqa davrni, uzoq muddatli odatda uzoqroq vaqt davrini qamrab oladi. Iqtisodiyotning barcha masalalariga javob berishga layoqatli yagona model mavjud bo'lmaydi. Shu sababli, iqtisodiy tahlilda ko'plab har xil modellardan foydalaniladi, ulardan har biri muayyan vazifalarni hal qiladi.

Ayni vaqtda, har qanday model real hayotiy voqealar (bankrotlik, tabiiy ofatlar, siyosiy larzalar va boshqa) ni aks ettirmaydi. U real hayotdan abstraktlashgan, iqtisodiy yetuklikning yuqori andazasidir. Bu qayd qilinganlar iqtisodiy modellar uning iqtisodiy tahlildagi ahamiyatini pasaytirmaydi. Jumladan yalpi talab va yalpi taklif modeli umumiy iqtisodiy muvozanatlikni ifodalab, real jarayonlar uning idealidan farqlanishini aniqlash va undagi aniq omillar ta'sirini miqdoriy baholash imkonini beradi.

Iqtisodiy prinsiplarni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradigan boshqa omillar ham mavjud. Umumiyashtirish iqtisodiy

prinsiplar iqtisodiyot fani yoki iqtisodiy munosabatlarga oid umumlashgan tushunchalardir. Iqtisodiy prinsiplarni muayyan iste'molchilar yoki ishlab chiqaruvchilar to'g'risidagi yondashuv deb qabul qilish mumkin.

Tayanch tushunchalar

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida hayotiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va ularni iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimini, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o'rganishdan iboratdir.

Iqtisodiy qonunlar – iqtisodiy hayotning turli tomonlarini, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi takrorlanib turadigan, barqaror ichki sabab-oqibat aloqalarini, ularning o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.

Iqtisodiy kategoriyalar – doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushunchalar.

Uslubiyat – iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning prinsiplari, yo'llari, qonun-qoidalari, usullari va aniq tartiblari tizimidir.

Ilmiy abstraksiya – iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishda qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, voqea-hodisalarning tahlil paytida xalaqit beruvchi ikkinchi darajali belgilarini e'tibordan chetlashtirib, o'rganilayotgan hodisaning asl mohiyatini ochib beruvchi belgilarga fikrni qaratishdir.

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat? U boshqa iqtisodiy fanlar ichida qanday o'rin tutadi?

2. Iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi?

3. Makroiqtisodiy tahlil bilan mikroiqtisodiy tahlil o'rtasidagi farq nimadan iborat?

4. Iqtisodiy model nima va uning qanday turlarini bilasiz?
5. Induksiya va deduksiya usullari mazmunini tushuntiring.

III bob. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI

- 1. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va o‘ziga xosligi.**
- 2. Ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibi.**
- 3. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi.**
- 4. Ishlab chiqarishning natijalari. Ishlab chiqarish funksiyasi.**
- 5. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko‘rsatkichlari.**

1. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va o‘ziga xosligi

Ishlab chiqarish jarayoni – bu kishilarning iste‘moli uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy ne‘matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatidir. Iqtisodiy ne‘matlar yaratish, turli xizmatlar ko‘rsatish jarayoni kishilar faoliyatining asosiy tomoni, chunki bu jarayonda kishilar o‘rtasida bo‘ladigan munosabatlar boshqa hamma sohalarda (ayriboshlash, taqsimot va iste‘mol sohalarida) ro‘y beradigan munosabatlarning xususiyatlarini va yo‘nalishini belgilab beradi.


Ma‘lumki, har qanday ishlab chiqarish, birinchi navbatda, mehnat jarayonidir yoki boshqacha qilib aytganda, tabiatdagi bor narsalarning ko‘rinishini o‘zining iste‘moli uchun muvofiq holga keltirish uchun qilingan faoliyatdan iboratdir. Ana shu mehnat jarayonida kishilar, eng avvalo, tabiatga, uning kuchlari va ashyolariga ta‘sir ko‘rsatish orqali bir-birlari bilan o‘zaro ma‘lum munosabatda bo‘ladilar. Ishlab chiqarish jarayonida bo‘ladigan bu munosabatlarning xarakterini, shakllarini va xususiyatlarini o‘rganish va ularni bilgan holda ishlab chiqarishni ongli tashkil etish cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanilgan holda kishilarning o‘sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish maqsadiga erishishning birdan-bir yo‘lidir. Ko‘pchilik iqtisodchilar mehnat kishilar yashashining umumiy asosidir deb ta‘riflaydilar. Demak,

mehnat kishilarning yashashi uchun hech qanday ijtimoiy shakllarga bogʻliq boʻlmagan holda abadiy tabiiy zaruriyatdir. Mehnat boʻlmaganda kishi bilan tabiat oʻrtasida modda almashinuvi ham mumkin boʻlmas edi.

Kishilar oʻzlarining ongli maqsadga muvofiq mehnati bilan tabiat moddalarining shakllarini oʻzgartiradilar va isteʼmoli uchun zarur boʻlgan mahsulotni vujudga keltiradilar. Mehnat jarayonida kishilar bilan tabiat oʻrtasida moddalar almashinuvi roʻy berishi bilan birga insonning oʻzi ham har tomonlama kamol topib boradi, yaʼni ular oʻzining mehnatga boʻlgan qobiliyatini, bilimini oshiradi va ularni amalda qoʻllash imkoniyatini kengaytirib boradi.

Shunday qilib, mehnat jarayoni naflilikni vujudga keltirish uchun maqsadga muvofiq qilinadigan harakatdir, tabiat yaratgan narsalarni kishi isteʼmoli uchun oʻzlashtirib olishdir, kishi bilan tabiat oʻrtasidagi modda almashuvining umumiy shartidir, kishi hayotining abadiy tabiiy sharoitidir.

Shuning uchun bu jarayon uzoq tarixga ega boʻlib, oddiy tosh va yogʻoch qurollardan foydalanib, eng sodda ovchilik va dehqonchilik qilishdan tortib, to hozirgi zamon murakkab zamonaviy texnologiyaga asoslangan robotsozlik, samolyotsozlik, kompyuter



texnikalarini, zamonaviy radio va televidenie vositalarini ishlab chiqarishgacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtgan.

Iqtisodiy neʼmat va vositalarning tabiatda mavjud materiallardan yaratilgan qismi moddiy koʻrinishga ega boʻladi. Ularning tabiat materiallaridan foydalanilmasdan yaratilgan qismi nomoddiy neʼmatlar yoki xizmatlar hisoblanadi. Shu maʼnoda ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalari farqlanadi. Ular iqtisodiyotning real sektori ham deyiladi. Sanoat, qishloq xoʻjaligi, transport, qurilish, savdo, kommunal xoʻjaligi, maishiy xizmat,

ovchilik, baliqchilik, dorivor o'simliklarni yig'ish kabilar iqtisodiyotning real sektori sohalarini tashkil qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohalarida nomoddiy ne'matlar (ma'naviy qimmatlik) yaratiladi hamda nomoddiy xizmatlar (sog'liqni saqlash, ta'lim, ilmiy maslahat va boshqalar) ko'rsatiladi.

Bu ikki soha bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda rivojlanadi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtda ular umumiy jihatlarga ham ega. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoni bir tomondan, naflilikni vujudga keltirish, ikkinchi tomondan, qiymatning o'sish jarayoni hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayoni har doim jamiyatda, ijtimoiy mehnat taqsimoti sharoitida amalga oshiriladi, ayni vaqtda har bir ishlab chiqaruvchi boshqalari bilan ko'plab xo'jalik rishtalari orqali o'zaro bog'liq bo'ladi. Masalan, avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha dunyoning yirik kompaniyasi "Jeneral Motors" 137 ming yetkazib beruvchilar xizmatidan foydalanadi.

Ishlab chiqarishdan maqsad iste'mol, lekin bozor xo'jaligida pirovard maqsad bilan tovar ishlab chiqaruvchining maqsadi mos kelmasligi mumkin. Pirovard maqsad iste'mol, ya'ni ehtiyojni qondirish bo'lsa, tovar ishlab chiqaruvchining maqsadi xarajatlarni qoplab, foyda olishdir. Buning uchun ishlab chiqarilgan mahsulot to'g'ridan-to'g'ri iste'molga kelmasdan bozorda ayriboshlanadi va keyin iste'molga kelib tushadi.

2. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi

Iqtisodiy ne'matlarni yaratish, xizmatlar ko'rsatish inson hayoti, uning yashashi va kamol topishi uchun moddiy asosdir. Shuning uchun ishlab chiqarishning to'xtovsiz takrorlanishi va uni rivojlantirish har doim eng muhim obyektiv zaruriyatdir.

Har qanday jamiyatda ishlab chiqarishning amalga oshishi, eng avvalo, uning ro'y berishi uchun bu jarayonda qatnashadigan resurslar, ya'ni uning omillari mavjud bo'lmog'i lozim. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qat'iy nazar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning hamma sohalarini uchun umumiy bo'lgan omillar: yer, ishchi kuchi, kapital va tadbirkorlik layoqati bo'lishi shart.

Ishchi kuchi deb, insonning mehnat qilishga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig‘indisiga aytiladi. Ishchi kuchi mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilar uchun xosdir. Lekin ishchi kuchi insonning o‘zi emas yoki mehnati ham emas, uning qobiliyatidan iboratdir.

“Kapital” tushunchasi har xil yondashuvlarda turlicha mazmunga ega. Iqtisodiy resurs sifatidagi kapital ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida qo‘llaniladigan investitsion vositalardan, ya‘ni barcha turdagi mashinalar, asbob-uskunalar, binolar, inshootlar, ombor xo‘jaliklari, saqlash va transport vositalari hamda boshqa shu kabilardan iborat bo‘ladi. “Kapital” tushunchasiga birinchi yondashuvda uning iqtisodiy resurs sifatidagi moddiy va ashyoviy ko‘rinishini, ikkinchi yondashuvda esa uning umumiy ma‘nodagi qiymat ko‘rinishi e‘tiborga olinadi. Umumiy ma‘noda kapital tushunchasi o‘z egalariga daromad keltiradigan barcha sohalarda ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalarini, sotishga tayyor turgan tovarlarni, moliyaviy resurslar va ishchi kuchini sotib olishga mo‘ljallangan pul mablag‘larini qamrab oladi.

Bu yerda umumiy ma‘nodagi kapital turli shaklda: pul, ishlab chiqarish vositalari, tovar va boshqa moddiy vositalar shaklida bo‘lishi mumkin.

Kapital omil sifatida inson tomonidan yaratilgan ishlab chiqarish vositalar, ya‘ni mehnat vositalari va predmetlarini o‘z ichiga oladi.


Mehnat vositalari deb, inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta‘sir qiladigan vositalarga aytiladi (mashinalar, stanoklar, traktorlar, qurilmalar, uskunalar va boshqalar). Mehnat predmetlari esa bevosita mehnat ta‘sir qiladigan, ya‘ni mahsulot tayyorlanadigan narsalardir (yer-suv, xomashyo va boshqa turli materiallar). Mehnat predmetlari tabiatda tayyor holda uchrashi mumkin yoki oldingi davrdagi mehnat mahsuloti, ya‘ni xomashyo bo‘lishi mumkin. Mehnat qurollari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalari deb yuritiladi. Bu esa mehnat jarayonining tabiatidan kelib chiqadi, shuning uchun ham ishlab chiqarish vositalari hamma ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, insoniyat jamiyati taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun xosdir.

Mehnat vositalarini mehnat predmetlariga ta'sir etish xarakteriga ko'ra, bir nechta katta guruhlarga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga mashinalar, mexanizmlar, stanoklar, uskunalar va boshqalardan iborat mehnat qurollarini kiritish mumkin. Ularning yordamida ishchi tabiat ashyolari va kuchlariga bevosita ta'sir qiladi va bu ashyolarni o'zining iste'moli uchun zarur bo'lgan shaklga keltiradi.

Ikkinchi guruhga materiallarni saqlash uchun mo'ljallangan mehnat vositalari sisternalar, turli xil quvurlar, omborlar va boshqalar kiritiladi.

Uchinchi guruhga ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydigan mehnat vositalari kiradi. Lekin bu vositalarsiz ishlab chiqarish jarayonining amalga oshishi mumkin emas yoki to'la va samarali amalga oshmasligi mumkin. Bularga binolar, yo'llar va boshqalar misol bo'la oladi.

Hozirgi fan-texnika inqilobi davrida ishlab chiqarishning rivojlanishida mehnat predmetlarining ahamiyati o'zgacha. Materiallarning tabiatda tayyor holda uchramaydigan yangi turlari paydo bo'lib boradi. Ishlab chiqarish vositalari uning moddiy, ishchi kuchi esa shaxsiy omilini tashkil qiladi.



3.1-chizma. Ishlab chiqarish omillarining turkumlanishi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida o'ziga xos omillardan biri tadbirkorlik qobiliyatidir. Tadbirkor qobiliyati iqtisodiy resurslarning bir-biriga qo'shilishini ta'minlaydigan tashkilotchi, yangilikka intiluvchi tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavf-xatardan qo'rqmaydigan kishilarni anglatadi. Hozirgi davrda ayrim adabiyotlarda axborot va uning vositalarini, ekologiyani ham alohida omil deb ko'rsatadilar. Aslida ular yer va kapitalda o'z

ifodasini topadi. Ishlab chiqarish jarayonida yuqorida qayd qilingan omillar bir-birini to'ldiradi, o'zaro ta'sirda bo'ladi. Ishlab chiqarishning omillari va miqdor jihatdan ortib sifat jihatdan takomillashib boradi. Ishlab chiqarish vositalari rivojlanib, borgan sari murakkab mashinalar, asbob-uskunalar, yangi texnologiyalar vujudga keladi.

Ishlab chiqarish omillarining o'zaro ta'sir usuli texnologiyada o'z ifodasini topadi. Kishilar buyumlarning ilgari ma'lum bo'lmagan xususiyatlarini anglab, tovar va xizmatlarning yangi turlarini tayyorlash sirlarini bilib oladilar, ilg'or texnologiyani qo'llaydilar, yangi materiallardan, energiya turlaridan foydalanadilar. Ishlab chiqarish omillari va texnologiyaning o'zgarishi ishlab chiqarishni tashkil etishning mazmuni va shaklining o'zgarishiga, uning takomillashuviga sabab bo'ladi.

3. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi

Ehtiyojlarning doimo yuksalib borishi resurslarning cheklanganligi sababli ularni to'la qondirish uchun zarur bo'lgan miqdorda tovar (xizmat)larni ishlab chiqarishning imkonini bermaydi. Shu sababli, cheklanganlik tanlovda muqobillikni taqozo etadi.

Oila budjetini cheklanganligi hayot kechirish uchun zarur buyumlarni qaysi birini xarid qilishni, vaqtimizni cheklanganligi qaysi ishni bajarishimizni, resurslarni cheklanganligi ularni qaysi tovar (xizmat)larni ishlab chiqarish, davlat budjetining cheklanganligi ularni qanday maqsadlar uchun ishlatishni tanlashni zarur qilib qo'yadi. Masalan, talaba o'z vaqtini dars tayyorlashga yoki dam olishga sarflashi mumkin. Dehqon o'z yeriga piyoz yoki kartoshka ekishi mumkin. Tadbirkor o'z puliga yangi uskuna yoki xomashyo sotib olishi mumkin. Budjet mablag'ini yangi maktab yoki ko'prik qurishga sarflashi mumkin va hokazo.

Ana shu imkoniyatlardan birini tanlash qolganlaridan voz kechishga olib keladi yoki biridan ko'proq, ikkinchisidan kamroq tanlashimizga to'g'ri keladi. Tanlash to'g'risidagi qarorlarni muqobil qiymatlarni taqqoslash asosida chiqaramiz.

Tanlovning muqobil qiymati deb, uning natijasida voz kechilgan imkoniyatlar ichidan bu maqsad uchun eng katta naf keltiruvchi yoki qadrlanuvchi qiymatga aytiladi.⁷

Muqobil qiymat doimiy, o'sib boruvchi va pasayib boruvchi bo'lishi mumkin. Muqobil qiymatni ilmiy abstraksiya usulini qo'llab, ikki tur mahsulot ishlab chiqarish misolida tahlil qilamiz. Iqtisodiyoda ikki xil mahsulot – guruch va avtomobil ishlab chiqariladi deb, faraz qilamiz. Barcha resurslar 100 birlikdan iborat. 1 tonna guruch yetishtirish uchun 2 birlik, bir dona avtomobil ishlab chiqarish uchun 4 birlik resurs zarur. Agarda guruchni X, avtomobilni Y bilan belgilasak, mavjud resurslardan foydalanib ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlar miqdori o'rtasidagi bog'lanish quyidagicha bo'ladi.

$$2X+4Y=100$$

Ishlab chiqarish imkoniyati chegarasi⁸

3.1-jadval

Mahsulot turlari	Muqobil ishlab chiqarish					
	A	B	S	D	E	G
guruch (tonna) «X»	0	10	20	30	40	50
avtomobil (dona) «Y»	25	20	15	10	5	0

Agar mavjud resurslardan faqat avtomobil ishlab chiqarsak, u 25 ta, faqat guruch yetishtirsak 50 tonnaga teng keladi. Birinchi tovarni ishlab chiqarishni ko'paytirish, albatta, ikkinchisining kamayishi hisobiga ro'y beradi.

Jadval ma'lumotlarini grafikda aks ettirsak, ikki turdagi mahsulot ishlab chiqarishning turlicha uyg'unlashuvi mavjud bo'lishiga ishonch hosil qilamiz.


Resurslarning cheklanganligi ehtiyojni qondirishning asosi bo'lgan ishlab chiqarish imkoniyatlarini ham cheklab qo'yadi.

⁷ Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Economics: principles, problems and policies. 17 th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2008. page 11.

⁸ Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Economics: principles, problems and policies. 17 th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2008. page 11.

Ishlab chiqarish imkoniyati deb, mavjud iqtisodiy resurslardan to‘laroq foydalanish evaziga eng ko‘p mahsulot ishlab chiqarish tushuniladi. U ishlab chiqarish imkoniyati chegarasini ifodalaydi.

Shu bilan birga, bu imkoniyatlar darajasi doimo bir xil bo‘lib turmaydi, yangi texnikalar va texnologiyalarning yaratilishi hamda ularning ishlab chiqarishga jalb qilinishi imkoniyatlar chegarasining kengayishiga olib keladi. Yangi texnikalar va texnologiyalar, bir tomondan, mehnat unumdorligini, ekinlar hosildorligini oshirish, energiya, yonilg‘i, mehnat va boshqa moddiy resurslarni tejash, ikkinchi tomondan, resurslarning yangi manbalarini topib, iqtisodiy faoliyatga jalb etish imkonini beradi. Bunga yerning chuqur qatlamlaridagi tabiiy boyliklarni topish va ishga tushirish, jahon okeani-ning uzoq va chuqur joylaridagi resurslaridan, quyosh energiyasidan foydalanish va shu kabilarni misol qilib keltirish mumkin.



3.2-chizma. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i.

Bizning yuqoridagi misolda jamiyatning ehtiyojlarini to‘laroq qondirib borish uchun guruch va avtomobil ishlab chiqarishning turli muqobil uyg‘unlashuvidan birini tanlashga to‘g‘ri keladi. Bunda mos keluvchi mahsulotlar muqobil qiymatlari taqqoslanadi.

Agar:

A) guruch yetishtirishning 0 dan 10 tonnaga yetkazilishi avtomobil ishlab chiqarishning 5 donaga kamayishiga olib keladi. 10 tonna guruchning muqobil qiymati 5 dona avtomobil;

B) guruch yetishtirishni 10 tonnadan 20 tonnaga ko'paytirsak, avtomobil ishlab chiqarish 15 donagacha qisqaradi. Muqobil qiymat 5 dona avtomobil;

D) guruch yetishtirishni 20 tonnadan 30 tonnaga yetkazish, avtomobil ishlab chiqarishni yana 5 donaga kamaytiradi. Muqobil qiymat yana 5 dona avtomobil;

E) guruch yetishtirishni 30 tonnadan 40 tonnagacha ko'paytirish avtomobil ishlab chiqarishni yana 5 donaga kamaytiradi. Muqobil qiymat 5 dona avtomobil.

Bizning misolda muqobil qiymat doimiy bo'lganligi sababli, ishlab chiqarish imkoniyatlari to'g'ri chiziq ko'rinishiga ega bo'ladi.

Agarda mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'rsatuvchi nuqta OAG kesma ichida jamlansa (V nuqta), u mavjud resurslardan to'liq foydalanmaganlikni, iqtisodiyotning imkoniyatlarga qaraganda kam miqdorda mahsulot ishlab chiqarilganini ko'rsatadi. Jumladan, 15 tonna guruch va 10 dona avtomobil ishlab chiqarish uchun faqat 70 birlik resurs talab etiladi. Bizdagi mavjud resurs esa 100 birlik.

OAG kesmadan tashqaridagi nuqta (W) ishlab chiqarish miqdorining mavjud resurslarga nisbatan ko'payishini bildiradi.

Agarda 30 tonna guruch, 20 dona avtomobil ishlab chiqarish zarur bo'lsa, u holda 140 birlik resurs talab qilinadi.

Resurslar cheklanganligi sharoitida ularni tejab ishlatish tovar turlarining muqobil variantlaridan eng optimal darajasini tanlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Shuning uchun korxonalar, mahsulot turini ko'paytirsak resurslar tejalishi evaziga xarajatlarni pasaytirishga erishadi.

Tanlovning variantlari nihoyatda xilma-xil bo'lib, bu qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi. Muqobil variantlardan birini tanlash uchun ularga qilinadigan sarf - xarajatlarni taqqoslashga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, turli variantlardan birini tanlash qolganlaridan voz kechishga yoki ularning miqdorini kamaytirishga olib keladi. Insonning butun hayoti tanlov asosida qanday qarorga kelishiga bog'liq.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining asosiy vazifasi ham ana shu tanlovning eng maqbul yo‘llarini topib, to‘g‘ri qaror chiqarishni o‘rganishdir.

4. Ishlab chiqarishning natijalari. Ishlab chiqarish funksiyasi

Har bir ishlab chiqarish bo‘g‘inida turli omillarning birgalikda ishlatilishi natijasida mahsulot, ya’ni tovar va xizmatlar yaratiladi.

Ular qiymat o‘lchovida korxonalar darajasida yalpi mahsulotni milliy iqtisodiyot ko‘lamida milliy mahsulotni tashkil qiladi.

Maqsadli ishlatilishi, ishlab chiqarish yoki shaxsiy iste’mol vositasi bo‘lib xizmat qilishiga muvofiq turli darajadagi mahsulot o‘zining natural buyumlashgan shakli bo‘yicha ikki qismdan: ishlab chiqarish vositalari va iste’mol tovarlaridan tashkil topadi. Keyingisi o‘z navbatida iste’mol buyumlaridan va aholiga ko‘rsatilgan turli xizmatlardan iborat bo‘ladi.

Ishlab chiqarish omillari bilan uning natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik ishlab chiqarish funksiyasi deb ataladi. Masalan, ishlab chiqarish omillari Yer /E/, kapital /K/ va ishchi kuchi /V/dan olingan mahsulotni /M/ dan iborat deb olsak, ishlab chiqarish funksiyasi $M=f(E, K, V)$ ko‘rinishni oladi.

Ishlab chiqarish funksiyasi jalb qilingan omillarining, ya’ni sarflarning har birligi evaziga olingan mahsulot hajmini bildiradi va e’tiborni kam resurs sarflab, ko‘proq mahsulot olish imkoniyatini qidirishga qaratadi. Bundan tashqari, mazkur ko‘rsatkich mahsulot hajmini ishlab chiqarishga qancha resurs sarfi talab qilinishini aniqlash imkonini beradi.

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan turli xil resurslar sarfini birdaniga yoki ularning ayrim turlarini ko‘paytirish yo‘li bilan mahsulot hajmini oshirish mumkin. Lekin boshqa omillar va sharoitlar teng bo‘lgani holda ayrim resurslar sarfini oshirish yo‘li bilan mahsulotni cheksiz ko‘paytirib bo‘lmaydi. Masalan, ishlab chiqarish binolari, mashina, stanok va boshqa asbob-uskunalar soni va sifati o‘zgarmagan holda ishchilar sonini va xomashyoni ko‘paytirish yo‘li bilan mahsulotni ma’lum miqdorda oshirib borish mumkin. Bunda bino va asbob-uskunalaridan foydalanish darajasi oshiriladi, ya’ni ular to‘xtovsiz ishlatiladi, ilgari bir smenada

ishlayotgan bo'lsa endi ikki yoki uch smenada ishlatishga erishiladi. Ammo ma'lum darajaga borgandan keyin qo'shimcha jalb qilingan ishchi kuchi yoki xomashyolar samarasi kamayadi. Ikkinchidan, ishlab turgan ishchilar soni o'zgarmagan holda ularni yangi texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish, ya'ni har bir ishchiga to'g'ri keladigan kapital miqdorini oshirish hisobiga ham mahsulotni ko'paytirishga erishish mumkin. Iqtisodiyotning barcha darajasida resurslardan foydalanish va ularning miqdorini oshirish evaziga olingan mahsulotni uch xil o'lchamda aniqlash mumkin: umumiy mahsulot, o'rtacha mahsulot va qo'shilgan mahsulot.

Umumiy mahsulot jalb qilingan asosiy kapital, ishchi kuchi, xomashyo va materiallardan foydalanish evaziga olingan mahsulotning mutlaq hajmidir.

O'rtacha mahsulot (O'M) esa jalb qilingan ishchi kuchi (V) yoki kapitalning (K) bir birligiga to'g'ri keladigan mahsulotga aytiladi. Bu esa umumiy mahsulot (M) miqdorini umumiy resurs (ishchi kuchi yoki kapital) miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. $O'M = M/V$. (yoki $O'M = M/K$)

Qo'shilgan mahsulot deb, eng keyingi qo'shilgan (o'sgan) ishchi kuchi yoki kapital miqdoriga bo'lish yo'li bilan qo'shilgan omil, ya'ni qo'shilgan kapital yoki qo'shilgan ishchi kuchi unumdorligi aniqlanadi.

Har bir qo'shilgan resurs evaziga olingan qo'shilgan mahsulot esa qo'shilgan resurs unumdorligi deb aytiladi.

Yuqorida aytganimizdek, alohida olingan resurs evaziga qo'shilgan mahsulot ma'lum darajaga borgandan keyin kamaya boshlaydi. Mana shu qo'shilgan resurs unumdorligining pasayib borishini hisobga olib, marjinalistlar unumdorlikning kamayib borish qonunini kashf qilishgan.

Ularning g'oyasi bo'yicha har bir keyingi qilingan xarajat yoki resurs oldingisiga qaraganda kamroq samara beradi va oqibatda uning hisobiga olingan o'rtacha mahsulot ham pasayib boradi.



5. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish samaradorligi va uni oshirish masalasi har doim iqtisodiyot nazariyasi fanining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Samaradorlikning iqtisodiy mazmuni sifatida har doim ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga qilingan xarajatlar o‘rtasidagi nisbat tushuniladi. Boshqacha aytganda, samaradorlik “natija” va “xarajat” nisbatini aks ettirishi tufayli, natija/xarajat ko‘rinishini oladi.

Butun milliy iqtisodiyot darajasida uning natijalarining iqtisodiy resurs sarf-xarajatlariga nisbati ijtimoiy ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining asosiy ko‘rsatkichidir. Samaradorlikning mavjud darajasida jamiyat ehtiyojlari ancha to‘liq qondirilganda uning, biror a‘zosi iqtisodiy ahvolini yomonlashtirmasdan boshqasining ehtiyojlari qondirilish darajasini oshirish mumkin emas. Bunday holat Pareto – samarasi deb nomlanadi. (Italiyan iqtisodchisi V. Pareto nomi bilan).

Turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sharoitida shu jamiyatning maqsadidan kelib chiqib, samaradorlik muammosining tub mohiyati o‘zgaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilganligi sababli har bir iqtisodiy subyekt foydasini oshirib borishga intiladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarishning samaradorligi (R^1) olingan foydaning (F) ishlab chiqarishga sarflangan resurs xarajatlariga (W) nisbati bilan aniqlanadi, ya’ni:

$$R^1 = \frac{F}{W} \times 100\% . .$$

Bu yerda, R^1 – foyda normasi, W – ishlab chiqarish xarajatlari.

Ishlab chiqarish samaradorligi ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, qayd qilingan birgina asosiy ko‘rsatkichda, uni to‘liq ravishda har tomonlama ifodalab bo‘lmaydi. Shuning uchun ishlab chiqarish samaradorligini to‘laroq ifodalashda, unda qatnashgan omillarning unumdorligini, ulardan samarali foydalanish darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Bulardan biri mehnat unumdorligidir. Mehnat unumdorligi deb, ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyatiga aytiladi va ishlab chiqarilgan mahsulotning /iste’mol qiymatining/ sarflangan mehnat miqdoriga nisbati bilan belgilanadi.

Sarflangan mehnat miqdori esa ishlangan vaqt bilan, kishi kuni, kishi soati va h.k. bilan belgilanadi. Mehnat unumdorligi quyidagicha aniqlanadi: $MU=M/V$.

Bu yerda, MU mehnat unumdorligini, M mahsulotning hajmi, V sarflangan ish vaqti.

Mehnat unumdorligi sarflangan mehnatning har birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan aniqlanadi.

Samaradorlikni aniqlashda kapital unumdorligi ko'rsatkichidan ham foydalaniladi va u ishlab chiqarishda qatnashgan kapitalning birligi evaziga olingan mahsulot, daromad yoki foyda bilan aniqlanadi. $KU=M/K$;

$KU=YAD/K$; $KU=F/K$; bu yerda KU – kapital unumdorligini, K – ishlab chiqarishda qatnashgan kapital miqdorini, M – mahsulot, YAD – yalpi daromad hajmi, F – foyda.

Ishlab chiqarishning muhim omillaridan biri yer hisoblanishi sababli undan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi olingan mahsulot hajmining yer maydoniga (gektarga) nisbati bilan aniqlanadi.

Samaradorlikni aniqlashda mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi, energiya sig'imi kabi ko'rsatkichlar ham qo'llanilib, ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotning har bir birligini yaratish uchun ketgan mehnat, energiya va moddiy ashyolar miqdorini ifodalaydi.

Bu ko'rsatkichlarning har biri ishlab chiqarishda qatnashgan turli omillar samaradorligini ifodalab, bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Ishlab chiqarish samaradorligi har qanday darajada uning natijalari miqdoriga to'g'ri, iqtisodiy resurs sarf-xarajatlari hajmiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Ishlab chiqarish natijalari miqdori o'zgarmay qolganda xarajatlarning kamayishi uning samaradorligi oshishini bildiradi va aksincha.

“Natija” yoki “Xarajat”ga ta'sir ko'rsatib ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keluvchi bir qancha omillar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilar:

Yangi texnologiyalarni joriy qilish, fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish va uning natijalarini ishlab chiqarishda qo'llash;

Ishlab chiqarishni ratsiotnal joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash;

Iqtisodiyotning tarkibiy qismlarini va uning tashkiliy bo‘g‘inlarini o‘zgartirish;

Ishlab chiqaruvchilarni o‘z mehnat natijalaridan rag‘batlantirish va ularning faolligini oshirish;

Mavjud tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona, tejabtergab foydalanish, yangi, arzon, sifatli xomashyo va energiya turlarini, ekinlarning yangi hosildor navlarini, chorva mollarining mahsuldor zotlarini ishlab chiqarishga joriy qilish.

2017-2021-yillar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning “Harakatlar strategiyasi” da ham .. “...iqtisodiyotning energiya va resurs sarfini qisqartirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish”ga ishlab chiqarish samaradorligini o‘stirishning muhim omili sifatida qaraladi.⁹

Kishilarning bilim saviyasini, malakasi va kasbiy mahoratini oshirish, yetuk ishchi va mutaxassislar tayyorlash.

Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta’sir qiladigan asosiy va iqtisodiyotning barcha sohalari uchun umumiy bo‘lgan omillardir.

Fan-texnika taraqqiyoti fan sohasidagi ishlab chiqarish qurollari, texnologiya, boshqarish va boshqa ko‘pgina o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi davrda fan-texnika tez sur‘atlar bilan taraqqiy qilmoqda va u ilgarigi texnika taraqqiyotiga qaraganda birmuncha afzalliklarga egadir.

Hozirgi davrdagi fan-texnika taraqqiyoti afzalligi shundaki, ilg‘or mamlakatlarda fan yangiliklari tezlik bilan ishlab chiqarishga joriy qilinadi, binobarin fan bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanib boradi.

Hozirgi davrdagi ishlab chiqarishning texnik bazasini mustahkamlash elektronika, radioelektronika, telemexanika, atom energiyasi, kimyo va boshqa fanlarning erishgan yutuqlari bilan bevosita bog‘liqdir.

⁹ 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

Xullas, fanning erishgan yutuqlari ishlab chiqarishning taraqqiyoti va uning iqtisodiy samaradorligi uchun cheksiz imkoniyatlar ochib beradi. Shuning uchun ham O‘zbekistonda fan-texnika taraqqiyotiga katta e’tibor berib, uni keskin jadallashtirishni, texnikaning eng yuqori unumdor va samaradorlikni ta’minlovchi yangi turlarni, prinsipial jihatdan yangi texnologiyalarni keng joriy etish vazifasi qo‘yilmoqda. Fan taraqqiyotining natijasi va uning ishlab chiqarish bilan yaqinlashishining muhim belgisi takomillashgan, chidamli va unumli mehnat qurollari va predmetlarini vujudga keltirish va ishlab chiqarishga joriy qilish hisoblanadi. Ishlab chiqarishga yangi unumli mehnat qurollari va mehnat predmetlari qancha ko‘p kirib kelsa, jonli mehnat shuncha ko‘p mehnat vositalarini harakatga keltiradi va ko‘proq naflilikni yaratadi. Davlatning investitsiya siyosati resurslarni fan-texnika taraqqiyotining ilg‘or sohalari bo‘lgan mashinasozlik sanoati, informatika, elektronika, ishlab chiqarish sohalarini kompleks mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, yangi materiallarni yaratish va ularga ishlov berish texnologiyasi singari muhim yo‘nalishlariga jalb qilishga qaratilgandir. Shuning uchun ham fan-texnika taraqqiyotining evolutsion va revolutsion shakllarini farqlamoq lozim. Fan-texnika taraqqiyotining evolutsion shaklda rivojlanishi deganda, uning mavjud texnologiyalar asosida rivojlanishi tushuniladi.

Revolutsion shaklda rivojlanishda esa texnikaning eng so‘nggi avlodlarini qo‘llash, prinsipial yangi texnologik tizimga o‘tish tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining keyingi shaklda rivojlanish samaradorlik nuqtayi nazaridan yuksak natija beradi.

Ishlab chiqarish samaradorligi natijaviy ko‘rsatkich foyda miqdoriga to‘g‘ri mutanosiblikda iqtisodiy resurs sarf-xarajatlariga teskari mutanosiblikda o‘zgaradi. Shu sababli, samaradorlikni oshirishga boshqa sharoitlar o‘zgarmay qolganda ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini ko‘paytirish va unga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish, ya’ni tejamkorlik tamoyillariga amal qilish orqali erishiladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning shunday omillari ham mavjudki, ular bir vaqtda ham natijaviy ko‘rsatkichlar miqdoran ortishiga va ham iqtisodiy resurs xarajatlari kamayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday omillarga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni uzluksiz modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni kiritish mumkin. Modernizatsiyalash keng ma'noda yaxlit tizimni takomillashtirishga yo'naltirilgan texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy o'zgarishlar birligini ifodalaydi. U inglizcha "modern" so'zidan olingan bo'lib "yangi", "zamonaviy" kabi ma'nolarni anglatadi.

Ishlab chiqarishga qiyosan modernizatsiyalash mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ularni "yangilash", mashina, uskuna va texnologik jarayonlarni "zamonaviylashtirish"ni bildiradi. Iqtisodiy modernizatsiyalash mehnat, moddiy va tabiiy resurslardan foydalanish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga ham olib keladi.

Diversifikatsiyalash (lotincha "diversys" – har xil, "facese" qilmoq, bajarmoq) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, maqsadida korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, chiqariladigan mahsulotlar turlarini ko'paytirishga qaratilgan jarayondir.

Diversifikatsiyalash vertikal, gorizontal va konglomerat bo'lishi mumkin.

Vertikal diversifikatsiyalash – bir xil yo'nalishda ixtisoslashgan korxonalarining tarmoq darajasida ishlab chiqaradigan mahsulotlari turini ko'paytirish va faoliyatlarini tarmoq ichida kengaytirishni bildiradi.

Gorizontal diversifikatsiyalash – turli tarmoq korxonalari (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish va h.k.) ning yagona texnologik jarayonga qo'shib borishi orqali mahsulot turlarining ko'payishi va faoliyatlarining tarmoqlararo kengayishini anglatadi.

Konglomerat diversifikatsiya – korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini texnologik jarayon, tovar turlari va turli bozorlar talabini hisobga olib ko'paytirishga yo'naltiriladi.

Istiqbolda mahsulot turlarini ko'paytirish, tijorat faoliyatini rivojlantirish va bozorni kengaytirishga qaratilgan harakat diversifikatsiya strategiyasi mazmunini anglatadi. Bu korxonalarda mahsulot turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, milliy va chet el kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar tuzish, boshqa korxonalarni sotib olish kabi usullarda amalga oshiriladi.

Xarajatlarni kamaytirish va mahsulot tannarxini pasaytirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mahalliyashtirish darajasini o‘stirib borish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev qayd qilib o‘tganlaridek samaradorlikni oshirishning muhim omili... “..asosiy va yordamchi tarmoqlarni barqaror rivojlantirish, ortiqcha xarajatlar va tannarxni kamaytirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish va importning qisqarishi”¹⁰ dan iborat.

Mahalliyashtirish mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mahalliy xomashyo va materiallardan foydalanishga ustuvorlik berishni anglatib, bu pirovardida nafaqat tannarxni pasaytirish, balki import qilinadigan tovarlar hajmini qisqartirish imkonini ham beradi. Importning qisqarishi sof eksportni ko‘paytirish orqali milliy iqtisodiyot samaradorligini o‘tib borishiga olib keladi.

Respublikamizda faqat 2017-yilning o‘zida mahalliyashtirish dasturlari to‘liq amalga oshirilmaganligi natijasida unda ko‘zda tutilgan “qariyb 400 million dollarlik mahsulot chetdan import qilingan”¹¹.

Shu sababli, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning “Harakatlar strategiyasi”^{*}da ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag‘batlantirish siyosatini davom ettirish hamda eng avvalo, iste‘mol tovarlari va butlovchi buyumlar importining o‘rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirishga tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida qaraladi.

Tayanch tushunchalar

Ishchi kuchi – insonning mehnat qilishga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlari yig‘indisi.

¹⁰ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: «O‘zbekiston», 2017 14-yanvar. 14 bet.

¹¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: «O‘zbekiston», 2017 14-yanvar. 26 bet.

* keyingi o‘rinlarda qisqacha “Harakatlar strategiyasi” deb ketiladi.

Mehnat qurollari – insonning tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qilishga xizmat qiladigan vositalar: mashinalar, stanoklar, qurilmalar, uskunalar va boshqalar.

Mehnat predmetlari – bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalar (yer - suv, xomashyo, materiallar va boshqalar).

Ishlab chiqarish jarayoni – kishilarning maqsadni ko'zlab amalga oshiriladigan faoliyati bo'lib, iste'moli uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan jarayon.

Ijtimoiy ishlab chiqarish – o'zaro bog'liqlikda va doimiy aloqada bo'lgan barcha individual ishlab chiqarishlarning birligidan iboratdir.

Ishlab chiqarishning umumiy samarasi – ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga sarflangan resurs xarajatlari o'rtasidagi nisbat.

Ishlab chiqarish funksiyasi – ishlab chiqarish omillari bilan uning natijalari o'rtasidagi bog'liqlik.

Qo'shilgan kapital – ishlab chiqarishda mavjud band bo'lgan kapital miqdori ustiga yangi qo'shimcha ravishda sarflangan kapital, boshqacha qilib aytganda kapital miqdorining o'sgan qismi.

O'rtacha mahsulot – jalb qilingan ishchi kuchi va kapitalning bir-birligiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori.

Qo'shilgan mahsulot – so'nggi qo'shilgan omil: kapital yoki ishchi kuchi hisobiga o'sgan mahsulot.

Muhokama uchun savollar

1. Ishlab chiqarish omillari nimalardan iborat?
2. Omil sifatidagi kapital tushunchasiga ta'rif bering va uning tarkibiga nimalar kirishini tushuntirib bering.
3. Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini tushuntiring.
4. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalarini tushuntirib bering.
5. Milliy mahsulotning tarkibi nimalardan iborat?
6. Keyingi qo'shilgan mehnat, kapital va qo'shilgan mahsulot tushunchalarini izohlab bering.

7. Qo‘shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borish qonunini tushuntiring.

IV bob. IJTIMOIIY-IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI

- 1. Iqtisodiy tizim tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi.**
- 2. Iqtisodiy tizimlar turkumlanishiga turlicha yondashuvlar. Iqtisodiy tizim modellari.**
- 3. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulkchilik shakllari.**
- 4. O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish maqsadi, yo‘llari va usullari.**

1. Iqtisodiy tizim tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi

Tizim (yunoncha systema – qismlardan tarkib topgan, birlashgan) – bu bir-biri bilan aloqa va munosabatda joylashgan hamda ma’lum bir yaxlitlikni tashkil qiluvchi tarkiblar yig‘indisidir.

Jamiyat o‘zining turli iqtisodiy va ijtimoiy hayot sohalari bilan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Bular moddiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy sohalardir. Bu barcha sohalar bir - biri bilan funksional bog‘liq, ya’ni ularning birisiz boshqasini tasavvur qilish qiyin.

Shunday qilib, tizim deb elementlar, qismlardan iborat o‘zaro uzviy bog‘langan, ma’lum tartib asosida tarkib topgan butunlik tushuniladi. Iqtisodiy aloqalar, jarayonlar misoli zanjir bo‘lsa, har bir xo‘jalik yuritish subyekti ana shu zanjirning halqasi tarzida namoyon bo‘ladi. Bu aloqalar, munosabatlar xo‘jalik faoliyati yuritayotgan kishilar o‘rtasida yuz beradi. Shuning uchun ham odatda ularni ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar deb yuritiladi.

Hozirgi dunyo turli-tuman iqtisodiy tizimlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ular muayyan tarixiy davrlarda vujudga keladi, rivojlanadi, biri ikkinchisi bilan almashinadi. Jamiyat hayotini yaxshiroq tushunish uchun uning tarixiy taraqqiyot jarayonini bir butun holda ko‘rib, rivojlanish bosqichlarini, tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy tizim jamiyatdagi turli xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar, aloqalar, jarayonlarni bir butun holda, muayyan tarzda tarkib topishi va tartibga solinishini ifodalaydi.

Iqtisodiy tizim – bu zamon va makonda amal qilinadigan iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo‘jalik yuritish mexanizmi va iqtisodiy muassasalarning o‘zaro uzviy bog‘liqlik asosida tarkib topgan yaxlit tuzilmasidir.

Iqtisodiy tizimlarning tarkibiy qismlari bu: iqtisodiy munosabatlar, xo‘jalik yuritish shakllari, texnologiya va ishlab chiqarishning tabiiy shart-sharoitlari, xo‘jalik yuritish mexanizmlari, iqtisodiy muassasalardir.

Iqtisodiy munosabatlar bizga oldindan ma’lum bo‘lganidek kishilar uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne’matlarni va vositalarni takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy aloqa va munosabatlarni ifodalaydi

Iqtisodiy munosabatlarning ikki turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Tashkiliy iqtisodiy munosabatlar – ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish orqali vujudga keladi. U ijtimoiy - iqtisodiy shaklidan qat’iy nazar ishlab chiqarishning holatini ifodalaydi. Bunga mehnat taqsimoti, uning ixtisoslashishi va kooperatsiyasi, ishlab chiqarishning to‘planishi va uyg‘unlashtirilishi natijasida vujudga keladigan munosabatlarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar – hayotiy ne’mat va vositalarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste’mol qilish jarayonida vujudga keladi.

Xo‘jalik yuritish shakllari iqtisodiy faoliyatni har xil darajada turlicha tashkil qilinishidir.

Texnologiya bu ishlab chiqarish omillarini uyg‘unlashtirishning o‘ziga xos usullaridir.

Iqtisodiy mexanizm – bu iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlovchi va bir-birini taqozo etuvchi vositalar bo‘lib, unga iqtisodiy stimullar, iqtisodiy faoliyatni (ishlab chiqarish, ayriboshlash va iste’molni) tashkil etish hamda tartibga solish usullari kiradi.

Iqtisodiy munosabatlar bir vaqtda ijtimoiy - iqtisodiy tizim bazisi ham hisoblanadi. Uning ustida mazkur iqtisodiy tizimga xos

boʻlgan alohida siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, milliy, axloqiy, oilaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlar hamda tartibotlarning alohida turlari vujudga keladi. Ularning barchasi jamiyatning ustqurmasini tashkil qiladi. Klassik yondashuvga koʻra ishlab chiqarish usuli bilan jamiyat ustqurmasi ijtimoiy - iqtisodiy formatsiya deyiladi.

Iqtisodiy muassasalar iqtisodiyotni tartibga solish va davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Iqtisodiy siyosat – bu davlatning iqtisodiyot, iqtisodiy munosabatlar va takror ishlab chiqarish jarayonlariga taʼsir koʻrsatishga qaratilgan chora-tadbirlari yigʻindisidir.

Iqtisodiy tizim – bu iqtisodiy neʼmat va xizmatlarning ishlab chiqaruvchi va isteʼmolchilar oʻrtasidagi aloqalarning alohida tartibga keltirilgan tizimidir. Shu sababli, barcha iqtisodiy tizimlarning umumiy tarkibiy elementlari sifatida mulkchilik munosabatlari, xoʻjalik hayotini boshqarish va tartibga solish usullari, resurslar va iqtisodiy neʼmatlarni taqsimlash hamda narx shakllanish tartiblari yuzaga chiqadi.

2.Iqtisodiy tizimlar turkumlanishiga turlicha yondashuvlar.


Iqtisodiy tizim modellari

Formatsion yondashuvda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning almashinuviga tarixiy ishlab chiqarish usullari asos qilib olinib, ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va sotsializmga ajratib koʻrsatiladi.

Klassik nazariyada tizimlarga mulkiy, sinfiy mezonlar asosida qaralib, ular formatsiya deb ataladi. Ishlab chiqarish usuli iqtisodiy bazis-asos sifatida ajratilib, u ustqurtma-davlat bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani ifodalashi qayd qilinadi.

Ishlab chiqarish usulining oʻzi ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlariga ajratiladi. Ishlab chiqarish kuchlari ishchi kuchi yoki boshqacha aytganda, maʼlum malaka va tajribaga ega kishilar hamda ishlab chiqarish vositalaridan tashkil topadi. Ishlab chiqarish vositalari mehnat vositalari va mehnat ashyolaridan iborat boʻladi. Ishlab chiqarish, mehnat vositalariga mulkchilik munosabatlari, ishlab chiqarish jarayonida sotsial guruhlarining tut-

gan o'zni, ular o'rtasida faoliyat natijalarini ayriboshlash, taqsimlash, iste'mol munosabatlaridan iborat.



4.1-chizma. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya.

O'tgan asrning 60-yillarida klassik ta'limotdan tubdan farq qiladigan, sivilizatsion yondashuv nazariyasi paydo bo'ldi. Bu nazariyaga amerikalik iqtisodchi Uolter Rostou asos soldi. (1960-yilda nashr qilingan «Iqtisodiy o'sish bosqichlari» kitobida) U jamiyat taraqqiyotini 5 bosqichga bo'ladi. Ular quyidagilar:

An'anaviy (traditsion) jamiyat. Bu jamiyat qishloq xo'jaligi ustuvorligi, yirik yer egalari hukmronligi, mehnat qurollarining oddiy, primitivligi, mehnat unumdorligining pastligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun unda jamg'arish ham bo'lmaydi.

O'tkinchi jamiyat. Bu bosqich markazlashgan davlatning vujudga kelishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, hunarmandchilik hamda tadbirkorlikning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Jamg'arish boshlanadi, u o'z o'rniga ega bo'ladi.

Industrial jamiyatga o'tish. Bu davrda mehnat qurollarining takomillashuvi, sanoatda inqilob (to'ntarish) yuz beradi. Uning natijasida mehnat unumdorligi o'sadi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi shakllanadi, rivojlana boshlaydi. Qo'l mehnati o'rniga mashinalar keladi. Jamg'arish kam bo'lsa ham avvalgiga nisbatan o'sib boradi.

Industrial jamiyat. Bu bosqichda yirik mashinalashgan industriya vujudga keladi. Fan-texnika taraqqiyoti jadal boradi. Yirik sanoat, ayniqsa og'ir industriya rivojlanadi. Sanoat iqtisodiyotning yetakchi sohasiga aylanadi. Urbanizatsiya (shahar aholisining ko'payishi) ro'y beradi. Jamg'arish jadal boradi, keyingi bosqich uchun asos yaratiladi.

Ommaviy iste'mol jamiyati. Bu bosqichda ommaviy iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanadi. Uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish yetakchi o'ringa chiqadi. Mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati iste'mol uchun ishlaydi. Bu konsepsiyada rivojlanish asosini ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi tashkil etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni tasniflashga hozirgi zamon yondashuvda ikkita belgi asos qilib olinadi:

Ishlab chiqarish vositalariga mulkchilikning hukmron shakli.

Iqtisodiyotni boshqarish va uyg'unlashtirish mexanizmi.

Shu asosda bozor, buyruqli, aralash va an'anaviy iqtisodiy tizimlar ajratiladi.

Mulkning tarkibi jihatidan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar ikkita: monostrukturali hamda polistrukturali tizimlarga ajratiladi. Bunday yondashuvda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga bir mulk shaklining hukmron bo'lishi yoki mulk shakllarining xilma-xilligi nuqtayi nazaridan qaraladi.

Monostrukturali, ya'ni bir mulk shakli hukmron bo'lgan tizim mulkiy monopoliyaga asoslanadi. Bu hukmronlik xususiy mulk yoki davlat mulkining hukmronligi bilan ajralib turadi. Yakka mulk monopoliyasiga tayangan iqtisod monotizim yoki monoiqtisod hisoblanadi. Qadimiy Sharqda u davlat mulkiga asoslangan «osiyocha ishlab chiqarish usuli» bo'lib, ishlab chiqarish omillari

davlat qoʻlida toʻplangan. Yer, suv, har xil inshootlar, hatto ish kuchi ham davlatniki boʻlgan.

Gʻarbda esa monoiqtisodiyot asosan xususiy mulk monopoliyasiga tayangan. U qadimgi dunyo va oʻrta asrlarda quldorlar va feodallarning mulkiy hukmronligi va ishlab chiqaruvchilarning tobeligi tarzida namoyon boʻlgan.

Klassik kapitalizmda ulardan farqli ravishda, ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik sharoitida ishlab chiqaruvchilar shaxsan qaram boʻlmagan. Lekin ular mulkdan mahrum etilgan holda tirikchilik qilish uchun mulk egalari qoʻygan shartga rozi boʻlib ishlashga majbur boʻlgan.

Klassik kapitalizmning oʻziga xos belgisi bu mulkning xususiy kapitalistik mulk shakliga kirishidir. Klassik kapitalizm XVIII asrning oxiridan XX asr ikkinchi yarmigacha davom etib, oʻzidan avvalgi quldorlik va feodalizmdan muhim afzalligi – mehnat unumdorligini oshirish layoqati bilan ajralib turadi. Uning tarixiy oʻrni shundaki, bu tizim industrial ishlab chiqarishga asos yaratadi.

Monoiqtisodiyotning oʻziga xos shakli davlat mulk monopoliyasiga asoslangan tarixda “sotsialistik” jamiyat deb nom olgan iqtisodiy tizimdir. U davlatning iqtisodiyot ustidan qattiq nazorat oʻrnatishga asoslangan. Ishlab chiqarish vositalari, barcha jamiyat aʼzolariniki deb, eʼlon qilingan boʻlsa-da, mulkni tasarruf qilish davlat qoʻlida boʻlgan. Iqtisodiy faoliyat davlat tomonidan markazdan turib rejalashtirilgan va boshqarilgan. Davlat belgilagan reja quyi boʻgʻinlar, korxonalar uchun majburiy boʻlib, uni bajarish shart boʻlgan. Davlat narx-navo ustidan qattiq nazorat oʻrnatgan. Narx davlat tomonidan belgilangan. Yaratilgan mahsulot, olingan daromadlar ham davlat belgilagan qattiq tartib asosida taqsimlangan. Mazkur tizimda davlat mulkidan tashqari jamoa mulki ham mavjud boʻlsa-da, u ham amalda davlatlashtirilgan.

Aholi daromadlari past boʻlsa-da, shaxsiy mol-mulk cheklangan, uni daromad olish yoʻlida ishlatish man qilingan. Bunday iqtisodiy tizim “totalitar”, “rejali iqtisodiy tizim” deb ham yuritilgan.

Bu monotizimning oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, hamma resurslarni davlat qoʻlida toʻplash, ularning katta qismini jamgʻarish imkonini bergan. Maʼmuriy yoʻl bilan yaratilgan milliy

daromadning asosiy qismi davlat tasarrufiga olinib, jamg'arish jadallashtirilgan. Bunda kapitalistik monotizmi hal qilib ulgurmagan jamg'arish muammosini totalitar sotsialistik tizim bajargan. Shuning uchun bu tizim nisbatan iqtisodiyotda agrar ishlab chiqarish ustun, industrilashtirishda orqada qolgan mamlakatlarda o'rnatilganligi bejiz emas.

Keyingi rivojlanish bosqichida mono-iqtisod o'rniga poliiqtisod keladi. Polistrukturali tizim asosini turli - tuman mulkchilik va ayrim mulk shaklining ustuvorligini inkor qilish tashkil etadi. Bunday tizimda mulkiy muvozanat hosil bo'ladi hamda hamma mulk shakllarining rivojlanishi uchun bir xil sharoit yaratiladi. Albatta, mono-iqtisodiyotning poliiqtisodiyotga o'tishi darhol yuz bermaydi. Rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon XX asrning 20-yillardan boshlangan bo'lsa, sobiq sotsialistik mamlakatlarda 80-yillarda ro'y bergan.

Poliiqtisodiyot mazmunan aralash iqtisodiyotdir. U har qanday monopoliyani rad etadi. U turli xil iqtisodiy, bozor va nobozor aloqa munosabatlarning qorishmasidan iborat.

Siklli rivojlanish darajasiga ko'ra jamiyat taraqqiyoti quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

Neolitik (30-35 asr)

Quldorlik- bronza asri (20-23 asr)

Antik-temir asri (11-13 asri)

Dastlabki feodal (7 asr)

Toindustrial sivilizatsiya (4,5 asr)

Industrial (2,5 asr)

Postindustrial (1,3 asr).

Qamrov darajasiga ko'ra:

Mikroiqtisodiyot, Makroiqtisodiyot, Mezoiqtisodiyot, Supermakroiqtisodiyot (megoiqtisodiyot) ga farqlanadi.

Iqtisodiy tizimlar rivojlanishiga texnologik yondashuvda ishlab chiqarishning texnologik usuli asos qilib olinib, uning quyidagi turlari ajratiladi:

Oddiy kooperatsiyaga asoslangan iqtisodiy tizim;

Manufakturaga asoslangan iqtisodiy tizim;

Yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga asoslangan iqtisodiy tizim.

Mehnat vositalari, materiallar, texnologiya, energiya, axborotlar va ishlab chiqarishni tashkil etish birgalikda ishlab chiqarishning texnologik usuli deyiladi.

Oddiy kooperatsiya – bu bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki bir xil ishni bajaruvchilar mehnatining oddiy shaklda (bir joyda) uyushtirilishidir.

Manufaktura – oddiy kooperatsiyaga uyushgan ishlab chiqaruvchilar oʻrtasida mehnat taqsimotining joriy qilinishidir. Manufaktura qoʻl mehnatiga va oddiy mehnat qurollariga asoslanadi.

Mashinalashgan ishlab chiqarish – manufakturaga uyushgan xodimlar mehnatiga mashinalarning joriy qilinishi natijasida vujudga keladi.

Iqtisodiy tizimlar iqtisodiy faoliyatni boshqarish uslubi asosida ham uch guruhga boʻlinadi:

Ierarxik tartib asosida boshqariladigan tizim;

Oʻz-oʻzini boshqarishga asoslangan tizim;

Aralash tartibda boshqariladigan tizim.

Ierarxik tartib asosida boshqarishda davlat asosiy rol oʻynaydi. Ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash va isteʼmol boʻyicha barcha qarorlar davlat tomonidan qabul qilinadi, muammo va masalalar ham davlat tomonidan yechiladi.

Buyruq va topshiriqlar asosida yuqoridan pastga qarab, ierarxik tartib asosida olib boriladi. Ierarxiya odatda boshliq hokimligiga tayanadi. Ierarxik boshqarishning oʻziga xos shakli maʼmuriy-buyruqbozlikka asoslangan, markazdan rejalashtirish asosida boshqariladigan iqtisod boʻlib, korxonalar asosan davlat mulki boʻlib, xoʻjalikni boshqarish ierarxik tarzda olib borilgan. Nima, qancha, qanday ishlab chiqarish zarurligi davlat tomonidan hal qilingan.

Iqtisodiyotni tartibga solishni oʻz-oʻzini boshqarish orqali amalga oshirilishi erkin raqobat kurashi hukmron davriga xos. Bunda resurslarni taqsimlash va boshqa masalalar bozor tomonidan tartibga solingan.

Aralash tartibda boshqarishda xususiy sektor bilan bir qatorda davlat ham resurslar va iqtisodiy neʼmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va isteʼmol qilishda muhim rol oʻynaydi.

Davlat bozor iqtisodiyotiga aralashadi, lekin bozorning o‘zini-o‘zi tartibga solish rolini yo‘qqa chiqarmaydi.

Real hayotda stixiyali tartibga solish bilan ierarxiya birgalikda amal qiladi. Hozirgi paytda AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti ana shunday tarzda boshqariladi.

Iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va uyg‘unlashtirish mexanizmi hamda mulkchilikning ustuvor shakllariga ko‘ra buyruqli, bozor, aralash va an’anaviy iqtisodiy tizim modellari farqlanadi.

Buyruqli iqtisodiyot modelida:

Davlat mulki ustuvorlikka ega bo‘ladi.

Iqtisodiy jarayonlar bir markazdan turib boshqariladi va uyg‘unlashtiriladi.

Bu tizimda iqtisodiy resurslar va ishlab chiqarilgan mahsulotlar bir markazdan muddatli ustuvorliklarni hisobga olish asosida taqsimlanadi. Iqtisodiy tartib qattiq ma‘muriy va huquqiy tadbirlar bilan ta‘minlanadi.

Bozor iqtisodiyoti modelida:

Xususiy mulk ustuvorlikka ega bo‘ladi.

Iqtisodiy jarayonlar bozor mexanizmi orqali tartibga solinadi.

Unga XIX asr erkin raqobat davridagi “sof kapitalizm” misol bo‘la oladi. Bozor iqtisodiyoti iste‘molchilar erkinligini kafolatlaydi. Iqtisodiy resurs va mahsulot bozor mexanizmi (raqobat, narx, talab va taklif) yordamida taqsimlanadi.

Iqtisodiy xatti-harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi – shaxsiy manfaat hisoblanadi. Davlatning roli xususiy mulkni himoya qilish va huquqiy asosni o‘rnatish, erkin bozorning faoliyat qilishini yumshatish bilan cheklanadi.

Aralash iqtisodiyot (buyruq va bozor iqtisodiyotning qo‘shilish nuqtasida hosil bo‘ladi) modelida:

Mulkchilikning turli-tuman shakllari mavjud bo‘ladi.

Iqtisodiy jarayonlar bozor mexanizmi bilan birga davlat tomonidan ham tartibga solinadi.

Hozirgi zamon aralash tizimlari – bu bozor mexanizmi bilan tartibga solinadigan xususiy ishlab chiqarish, davlat tomonidan tartibga solish bilan to‘ldiriladi.

An’anaviy iqtisodiyot modelida.

Mulkchilik munosabatlarida merosxo‘rlik va sulolalarning mavqei hukmronlik qiladi.

Iqtisodiy jarayonlar urf-odatlar, udumlar, an‘analar, ijtimoiy va diniy tartiblar yordamida tartibga solinadi.

Natural mayda tovar xo‘jaligi xo‘jalik yuritishning ustuvor shakli hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti erkin raqobatga asoslangan klassik bozor iqtisodiyoti yoki sof kapitalizm va hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ajratiladi.

3. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulkchilik shakllari

Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosini tashkil qilib, insoniyat iqtisodiy taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari iqtisodiy ne‘matlarni ishlab chiqarish va jamiyat boyliklarini o‘zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi.

Shunday ekan, mulkchilik munosabatlari – bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish hamda ishlab chiqarish natijalarini o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.



Mulkka egalik qilish mulkdorlik huquqining egasi qo‘lida saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan moddiy boyliklarni o‘zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi.

Ayrim hollarda mulkka egalik qilish uning egasi ixtiyorida saqlangan holda, undan amalda foydalanish esa boshqalar qo‘lida bo‘ladi. Bunga ijaraga berilgan mol-mulkni misol qilib keltirish mumkin. Mulkdan foydalanish – bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda



qoʻllanilishidir. Mol-mulkdan foydalanish yuz berganda u daromad olish uchun yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatilishini bildiradi. Mulkni tasarruf etish – bu mol-mulk taqdirining mustaqil hal qilinishidir. U mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish kabi hollar orqali roʻy beradi.

Mulkchilik munosabatlarining xarakteri nafaqat alohida mulk shakllarida, balki bitta mulk shakli doirasida ham farqlanishi mumkin.

Misol uchun xususiy mulk shakli bir necha ming yillardan buyon hozirgacha saqlanib kelgan. Shu bilan birga, bu davr davomida xususiy mulk mazmunida tubdan oʻzgarishlar sodir boʻldi. Uning oʻzgarishiga xususiy mulkchilikni roʻyobga chiqarish usullari sabab boʻldi. Xususiy mulkchilik mehnatga majbur qilish yoʻli bilan roʻyobga chiqarilsa, u quldorlik yoki feodal xarakter kasb etadi: roʻyobga chiqarish mulkdorning oʻz mehnati yordamida amalga oshirilsa, mayda tovar ishlab chiqarishi uchun xarakterli boʻlgan mehnat qilib topilgan xususiy mulk paydo boʻladi; nihoyat, xususiy mulk yollanma ishchilar tomonidan harakatga keltirilsa, kapitalistik xususiy mulki paydo boʻladi.

Mulkchilik jamiyatdagi ham huquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini oʻzida ifodalaydi. Mulkchilikning bu ikki jihati oʻzaro bogʻliq va bir-birini taqozo qiladi. Shu sababli, mulkchilik bir vaqtda ham iqtisodiy, ham huquqiy kategoriya hisoblanadi. Bunda, hal qiluvchi rolni mulkchilikning iqtisodiy tomoni egallaydi. Agar mulk iqtisodiy jihatdan roʻyobga chiqarilmasa, yaʼni ishlab chiqarishda foydalanilmasa yoki mulk egasiga daromad keltirmasa, bunda u «huquqiy» kategoriya sifatida qoladi.

Boshqa tomondan, mulkchilikning huquqiy jihati uning iqtisodiy mazmuniga nisbatan faqat boʻysunuvchi rol oʻynamaydi. Bu shunda koʻrinadiki, ishlab chiqarish vositalariga maʼlum huquqiy egalik qilmasdan, hech kim ishlab chiqarish jarayonini amalga oshira olmaydi, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotdan foydalana olmaydi. Shu sababli, mulkchilikning huquqiy normalari (egalik qilish, tasarruf qilish, foydalanish huquqi) iqtisodiy munosabatlarning aniqlashtirilgan koʻrinishi hisoblanadi.

Huquqiy normalar, bir tomondan, aynan mulk obyektlarini muhofaza qilish zarurati bilan bog‘liq holda vujudga kelsa, boshqa tomondan u tovar ishlab chiqarish sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishda g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Bu rol shunda ko‘rinadiki, tovar xo‘jaligi sharoitida ayrim ijtimoiy qatlamlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashmasdan, ayriboshlash munosabatlarida ishtirok etib (masalan, savdo vositachilari) mulkdorga aylanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, mulkchilikning huquqiy normalari, birinchidan, ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan iqtisodiy ne‘matlarning muayyan shaxslarga (huquqiy yoki jismoniy) tegishli ekanligini, ikkinchidan, mulk egalari qonun bilan qo‘riqlanadigan vakolatlarini va nihoyat, uchinchidan mol-mulkni himoya qilish usullarini belgilab beradi.

Mulkchilik munosabatlari, uning obyektlari va subyektlari bo‘lishini shart qilib qo‘yadi. Mulkka aylangan barcha boylik turlari mulkchilik obyektlaridir. Mulk obyekti bo‘lib, inson yaratgan moddiy va ma‘naviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mehnat mahsuli, insonning mehnat qilishi qobiliyati – ishchi kuchi va boshqalar hisoblanadi. Mulk obyektida asosiy bo‘g‘in – bu ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish hisoblanadi. Ishlab chiqarish vositalari kimniki bo‘lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot ham unga tegishli bo‘ladi.

Amaliy hayotda ishlab chiqarish vositalarining umumlashish darajasi turli xil, ya‘ni ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan qo‘shilishi turli darajada va turli shakllarda amalga oshiriladi. Shunga mos ravishda mulk subyektlari vujudga keladi. Mulk subyekti jamiyatda ma‘lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega bo‘lgan, mulk obyektini o‘zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari bo‘lib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki boshqa ijtimoiy guruhlarga birlashgan bo‘ladi. Ayrim kishilar, oilalar va davlat ham mulkchilik subyekti bo‘lib chiqadi.

Mulkning tuzilishi va shakli xilma-xilligi sababli, bu mulkni o‘zlashtiruvchi subyektlar ham turli darajada bo‘ladi. Masalan, davlat mulkining bevosita subyektlari respublika hokimiyati va boshqaruv organlari, davlat korxonalari va muassasalari hamda ularning mehnat jamoalari a‘zolari bo‘lishi mumkin.

Aralash mulk, subyektlari sifatida qo‘shma korxonalar, xorijiy fuqarolar, xorijiy tashkilotlar va xorijiy davlatlar chiqadi.

Shunday qilib, mulk subyektlari ko‘p darajali bo‘lib, ulardan birontasi o‘zini shu mulk egasi sifatida yuzaga chiqara olmasa, unda mulkchilik munosabatlari rasmiy va yuzaki tus oladi.

Mulk subyektlari tizimida ishlab chiqarish vasitalari mulkdorda markaziy o‘rinni egallaydi, Chunki u o‘ziga tegishli vasitalar yordamida yaratilgan mahsulotning ham mulkdori hisoblanadi. Ko‘pincha mulkdor yaratuvchanlik faoliyati bilan shug‘ullanmaydi, balki o‘z mulkidan foydalanish imkoniyatini boshqa shaxslarga ma‘lum shartlar asosida beradi. Bunga ijara va konsessiya xizmat qilib, ular qisman o‘zlashtirish munosabatlarini ifodalaydi.

Ijara mulkning ma‘lum to‘lovlar hisobiga vaqtincha foydalanishga berilishini, konsessiya esa davlat tegishli qazilma boyliklar, yer uchastkalari korxonalar va boshqa obyektlarni ma‘lum shartlarda foydalanishga topshirilishini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi»¹² – deb ta‘kidlanadi.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida bu mulk o‘z ichiga davlat mulkidan tashqari, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va matlubot sohalaridagi jamoa mulkning xilma-xil turlarini, ijtimoiy tashkilotlar mulkini, uy xo‘jaligi va shaxsiy tomorqa xo‘jaligi hamda yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy mulkni, tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasidagi aralash mulk shakllarini va xususiy mulklarni oladi.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida turli-tuman mulklar quyidagi shakllarga kiritiladi: davlat mulki, jamoa mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk, aralash mulk.

Mulk davlatga tegishli bo‘lganda unga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish davlat ixtiyorida bo‘ladi. Davlat mulki asosan ikki yo‘l bilan hosil bo‘ladi:

Xususiy mol-mulkni milliylashtirib, davlat qo‘liga olish.

Davlat mablag‘lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxonalar va tashkilotlarda investitsiyalarni amalga oshirish.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 2012 y. – 11-bet.

Davlat mulki haqiqatda ham jamiyatga tegishli bo'lgan, bo'linmaydigan yoki umumiy resurslardan foydalanish uchun juda mosdir. Bunga misol qilib takror ishlab chiqarib bo'lmaydigan tabiiy resurslarni, yirik inshootlar va transport vositalari, yo'llar kabi iqtisodiy tuzilmaning kattagina qismini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda Fuqarolik Kodeksiga muvofiq davlat mulki respublika mulkidan va ma'muriy-hududiy (munisipal) tuzilmalar mulkidan iborat bo'ladi. Yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika hokimiyati va boshqaruv tuzilmalari mol-mulki, davlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, budjet mablag'lari, oltin zaxirasi, valuta fondi va boshqa davlat fondlari respublika mulki hisoblanadi¹³.

Ma'muriy-hududiy (munisipal) tuzilmalar mulkida davlat hokimiyati mahalliy organlari mol-mulki, mahalliy budjet mablag'lari, munisipal uy-joy fondi va kommunal xo'jaligi korxonalarini va boshqa mulkiy majmualar, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari kabilar mol-mulki o'z o'rniga bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish vazifasi davlat mulki monopoliyasini qisqartirishni taqozo qiladi. Chunki sog'lom bozor iqtisodiyoti davlat monopoliyasi bilan chiqishmaydi, monopoliya raqobatga to'sqinlik qiladi.

Mulknini davlat tasarrufidan chiqarish oqibatida iqtisodiyotda davlat mulkining ulushi kamayib u asosan jamoa mulkiga, ayrim hollarda fuqaro mulkiga va xususiy mulkka aylanadi.

Jamoa mulki – muayyan maqsad yo'lida jamoaga birlashgan kishilar tomonidan moddiy va ma'naviy boyliklarni hamjihatlik bilan o'zlashtirishni bildiradi. Jamoa mulki davlat mulkini korxonaga jamoasi sotib olishi, badal to'lab korxonaga qurishi, aksiya chiqarib ularni sotish kabi yo'llar orqali paydo bo'ldi. Jamoa mulkining muhim xususiyati shundaki, bunda ishlab chiqarish vositalari va natijalariga ayrim shaxslar emas, balki ma'lum guruh, kishilar egalik qiladi.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.

Jamoa mulkiga – kooperativlarning, ijara va jamoa korxonalarining, aksionerlar jamiyatlari, xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlarining, jamoa va boshqa tashkilotlarning mulki kiradi.

Kooperativlar mulkining asosiy belgisi ishlab chiqarish vositalari va uning natijalarini o‘zlashtirishning jamoa-guruh xususiyatidir. Ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish va ularni o‘zlashtirish mulk egasi bo‘lmish mehnat jamoasi doirasida amalga oshiriladi hamda jamoa va shaxsiy iqtisodiy manfaatlarning mushtarakligi vujudga keladi.

Kooperativlar qishloq xo‘jaligida, sanoat, qurilish, transportda, savdo va umumiy ovqatlanish, pulli xizmatlar sohasida hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-madaniy hayotning boshqa tarmoqlarida, ilmiy va ilmiy-texnikaviy xizmat ko‘rsatish sohalarida barpo etilishi va faoliyat ko‘rsatishi mumkin.

Ishlab chiqarish kooperativlari o‘z a‘zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Ishlab chiqarish va xizmatlarning boshqa sohalaridagi kooperativlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular ichida qishloq xo‘jaligi kooperativlari alohida ajralib turadi.

Shaharlarda aholining tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talabini yaxshiroq qondirish maqsadida davlat korxonalari va tashkilotlari uning tasarrufidan chiqarilib turli xil matlubot kooperatsiyalari vujudga keladi. Matlubot kooperatsiyasining mulki mulkchilikning davlat va boshqa shakllaridan kelib chiqadi. Mulkchilikning bu shakli faoliyatida uning a‘zolari o‘z mehnati bilan ishtirok etishi shart emas. Matlubot kooperatsiyalari mustaqil yoki turli korxonalar, tashkilot va muassasalar qoshida tashkil qilinishi mumkin. Matlubot kooperatsiyasi tizimi xizmat ko‘rsatish, shaxsiy tomorqa xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlar va xalq hunarmandchilik buyumlarini shartnoma asosida sotishni ta‘minlashda belgilangan huquqlardan foydalanadi.

Shaxsiy mulk bu fuqarolar mulki bo‘lib, shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Bu mulk shakli asosan shaxsning yoki uning oila a‘zolarining mehnati asosida ko‘payadi va rivoj topadi.

Fuqaroning shaxsiy mulki asosan ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirokidan, o‘z xo‘jaligini yuritishdan tushgan mehnat

daromadlari hisobiga vujudga keladi va ko‘payadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsiy mulk aksiyadan keladigan dividend, bank foizlari va boshqa daromadlar kabi yangi manbalarga asoslanadi.

Shaxsiy mulk obyektlari – bu turar joylar, bog‘-hovli va uylar, transport vositalari, pul jamg‘armalari, uy-ro‘zg‘or va shaxsiy iste‘mol buyumlari, yakka tartibda va boshqa xo‘jalik faoliyati uchun kerakli ishlab chiqarish vositalari, ularda hosil qilingan mahsulot va boshqalar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat sohasidagi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi maydaroq korxonalar fuqaro va ularning oila a‘zolarining mulki bo‘lishi mumkin. Shaxsiy mulk obyektlari ehtiyojlarini qondirish doirasidan chiqib, daromad topish yo‘lida ishlatilishi ham mumkin.

Xususiy mulk – ayrim tadbirkorlarga qarashli yollanma mehnatga asoslangan va o‘z egasiga foyda keltiruvchi mulkdir. «Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir»¹⁴.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida, xususiy mulk o‘z mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir deb ko‘rsatilgan. Shu bilan birga xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmasligi ta’kidlanadi.

Xususiy mulk ham, boshqa har qanday mulk shakllari kabi, o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. U, so‘zsiz, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni, mehnatga mas‘uliyatlilik munosabatlarini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, tovar ishlab chiqarish sharoitida u xufyona daromad orttirishga intilish hissini tug‘diradi. Bu mulk sotib olingan ishlab chiqarish vositalari asosida mustaqil xo‘jalik yuritish yoki davlat korxonalari, kooperativ firmalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari va shu kabilarni sotib olish orqali vujudga kelishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida xususiy mulkni shakllantirish manbalari ham ko‘rsatiladi. Tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, yollanib ishlash, kredit muassasalariga qo‘yilgan mablag‘lar, qimmatli qog‘ozlardan olinadigan daromadlar, meros tartibda mol-mulkni qo‘lga kiritish kabilar ana shunday manbalar

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T.: «O‘zbekiston», 2012 y. – 11-bet.

bo'lishi mumkin. O'zbekistonda qishloq xo'jaligidan boshqa ayrim faoliyatlarda yer ham xususiy mulk obyekti bo'lishi mumkin. Shu sababli, Respublika qonun hujjatlariga muvofiq¹⁵ savdo, xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarini ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga tanlov asosida sotilishiga ruxsat beriladi. Mazkur yer uchastkalariga xususiy mulk huquqining hamma me'yorlari taalluqli bo'lib, ular sotilishi, vasiyat qilib qoldirilishi yoki ijaraga berilishi mumkin. Biroq yerning boshqa toifalari, jumladan, umumiy foydalanishdagi yerlar, qishloq xo'jalik ekinzorlari va davlat zaxirasiga kiritilgan yerlar davlatning alohida mulk obyektlaridir va shu sababli, ular fuqarolarga faqat meros qilib qoldirish huquqi bilan uzoq muddatga foydalanishga berilishi mumkin.

Turli shakldagi mulklarning birikib ketishi natijasida aralash mulk paydo bo'ladi. Bu mulk alohida olingan obyektning turli mulkdorlar ishtirokida o'zlashtirilishini bildiradi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mulkchilikning turli xil shakllarini vujudga keltirish asosiy maqsad emas. Bu faqat ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, tashabbuskorlik va sog'lom raqobatni vujudga keltirish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgandir.

4. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufdan chiqarish va xususiylashtirish maqsadi, yo'llari va usullari

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy sharti ko'p ukladli iqtisodiyotni va raqobatlashuvchi muhitni shakllantirish uchun shart-sharoitini vujudga keltirishdan iborat. Shu sababli, respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A. Karimov mulkchilik masalasini hal qilishni «Bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi»¹⁶ deb alohida ta'kidlab ko'rsatgan edi.

Bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish vazifasi o'tish davrida mulkchilikda davlat sektorining salmog'i ancha yuqori bo'lgan

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 1994-йил 21-январдаги Фармонининг 3-банди.

¹⁶ И.А.Каримов Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т-3. -Т: «Ўзбекистон», 1996. 202 бет.

mamlakatlarda bu mulkning ma'lum qismini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni taqozo qiladi. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishga qaraganda ancha keng tushuncha. Xususiylashtirish davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishidir. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishdan tashqari, bu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirishni ham ko'zda tutadi. U bir qator yo'llar bilan amalga oshiriladi: davlat korxonalarini hissadorlik jamiyatiga aylantirish, davlat korxonasini sotib, uni jamoa mulkiga aylantirish; mulknı qiymatiga qarab chiqarilgan cheklar (vaucher) bo'yicha fuqarolarga bepul berish; mulknı ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga sotish; ayrim davlat korxonalarini chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish; davlat mol-mulknı auksionlarda kim oshdi savdosi orqali sotish va h.k.



Bu yo'llardan qaysi birini tanlash undan kutilgan maqsadga bog'liq. Masalan, Rossiya Davlat mulknı vaucher orqali bepul taqsimlash usuli qo'llanildi. Bundan ommaviy xususiylashtirishdan ko'zlangan maqsad qisqa muddat ichida cheklar bozorini joriy etish hisobiga mulkdorlarning

g'oyat keng qatlamini vujudga keltirishdan iborat edi. Agar tadbirkorlikni rag'batlantirish ko'zda tutilsa, xususiylashtirish tanlab olingan ozchilik o'rtasida o'tkaziladi. Agar xususiylashtirish chetdan kapitalning kirib kelishiga yo'l ochishi zarur bo'lsa, davlat mulknı xorijiy tadbirkorlarga berish shaklida amalga oshiriladi. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarishda ayrim usullardan foydalanishni rad etmaydi, aksincha, ularni ham qo'llash zarurligini bildiradi. Masalan, korxonaga ustunlik berilib, davlat mulknı aksiyalashtirish, bu aksiyalarnı sotib olishda shu jamoadan tashqari kishilar va chet el kapitalining ishtirok etishi ham o'z o'rniga ega bo'lishi mumkin. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish sharoitiga qarab pulli, pulsiz yoki imtiyozli tarzda o'tkaziladi. O'z

shakli va usulidan qat'i nazar bu tadbir xilma-xil mulkchilik shakllarini vujudga keltirishni ta'minlaydi, chunki davlat mulki hisobidan nodavlat mulkining barcha shakllari va turlari rivojlanadi.

Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish mulkchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan davlatning monopol hukmronligiga chek qo'yib, jamiyatda faollik ko'rsatayotgan erkin tadbirkorlik tashabbusiga keng yo'l va imkoniyatlar ochib berishdan iborat. Aslida xususiylashtirish iqtisodiyotni davlat mulkchiligidan qaytish yo'llaridandir. Xususiylashtirish davlat mulkini ma'lum darajada haqiqiy egalari – fuqarolarga berish demakdir.

Xususiylashtirish natijasida aholi orasida ijtimoiy jihatdan tabaqalanish yuz beradi va kishilarning bajargan ishiga qarab oladigan haqi turlicha bo'lib, aholining daromadlari darajasida ham farqlanish ortib boradi. Kishilar turli sohalarda, masalan biznesda har xil shakllardagi mulkka ega bo'lib, aksiya sotib olish va korxonada mulkida o'z hissalarini oshirib borishga harakat qiladilar.

Xususiylashtirish orqali korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, ma'lum jamoa va shaxslarga sotilgandan keyin faoliyatlarini bozorning raqobat qonunlari asosida tashkil etadi.

Xususiylashtirishning rivojlanishini ta'minlaydigan muhim omillardan biri – bu ishlab chiqaruvchilar hamda tadbirkorlarning tashabbusi, ularning ishlab chiqarishdagi faolligi hamda ishbilarmonligidir.

Davlat mulkini xususiylashtirish siyosati mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini, mahalliy va milliy sharoitlarni, urf-odatlarini hisobga olgan holda olib borilishini ko'zda tutadi.

Davlat mulkchiligidan qaytishning muhim yo'nalishlari bu ijara va aksionerlik munosabatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Bu jarayon ma'lum talablarga rioya qilingan holda olib borilishi u mehnat jamoalarining iqtisodiy manfaatiga, davlat manfaatlariga putur yetkazmasligi, shu bilan birga iste'molchilar manfaatlariga ham zid bo'lmasligi zarur.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq mulkchilikning hamma shakllari teng huquqli ekanligi konstitutsion tarzda e'tirof etildi va davlat mulki monopolizmini tugatish hamda bu mulknii xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirish vazifasi qo'yildi. Avvalo mulkchilikning turli xil

shakllari qaror topishi uchun teng huquqiy me'yorlar va amal qilish mexanizmlari yaratildi¹⁷.

O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga yondashuvning muhim xususiyati – uni dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat. 1992–1993-yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichini o'z ichiga olib, bu bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimini qamrab oldi. Yengil, mahalliy sanoatga, transport va qurilishga, boshqa tarmoqlarga qarashli ayrim o'rta va yirik korxonalar keyinchalik sotib olinish huquqi bilan ko'proq ijara korxonalariga, jamoa korxonalariga, yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlariga aylantirildi. Aksiyalarning nazorat paketi davlat ixtiyorida saqlab qolindi.

Xususiylashtirishning birinchi bosqichida davlat iqtisodiyotning samarasiz bo'lgan, biroq butun mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan ayrim sektorlarini, korxonalarini saqlab turishni va mablag' bilan ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oldi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichi natijasida kichik xususiylashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun kerak bo'lgan muassasalar tizimi vujudga keltirildi.

Savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat korxonalarini xususiy va jamoa mulki qilib berildi. Uy joylarni xususiylashtirish jarayonida ilgari davlat ixtiyorida bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog'i fuqarolarning xususiy mulki bo'lib qoldi.

Davlat ijtimoiy dasturida belgilab berilgan ikkinchi bosqich 1994–1995-yillarga to'g'ri keldi. Bu bosqichda ko'plab o'rta va yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi hamda ularning aksiyalari respublika qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etdi. Davlat mulkining hissadorlikka aylantirilishi bilan bir qatorda kichik xususiy biznes korxonalarini qizg'in tashkil qilindi.

¹⁷ Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari (1994 y. 21-yanvar) va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi (1994 yil 16-mart) farmonlar.

Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning bu bosqichida ochiq turdagi aksionerlik jamiyatlarini vujudga keltirish, davlat mulkini tanlov asosida hamda kim oshdi savdosida sotish amaliyotga joriy qilindi. Ko‘chmas mulk va qimmatli qog‘ozlar bozorining yangi muassasalari barpo etildi.

Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan keladigan samara ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, u aholining bo‘sh turgan mablag‘larini o‘ziga jalb qilib, ularning bozorga tazyiqini pasaytiradi. Ikkinchi tomondan, yangi mablag‘larni ishlab chiqarishga jalb etish va tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobatni yuzaga keltirish uchun sharoit yaratadi. Bu yerda shuni ta’kidlash lozimki, xususiylashtirish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo‘lmagan sektorini shakllantirishning yagona yo‘li emas. Tashabbuskorlik asosida yakka tartibdagi xususiy mulkchilikka asoslangan, shuningdek, turli xil kooperativlar, shirkatlar, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ko‘rinishidagi kichik va o‘rta korxonalarini tashkil qilish – ikkinchi qudratli jarayon hisoblanadi.

Respublika iqtisodiyoti 1996-yildan boshlab mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning uchinchi bosqichiga kirdi. Bu bosqich yakunlovchi xarakterga ega bo‘lib, bu davrda xususiylashtirilmaydigan obyektlar ro‘yxatiga kirmagan barcha obyekt va korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi.

Respublikada xususiylashtirishning manzilli yo‘naltirilganligi uning navbatdagi xususiyatidir. Bu aholining barcha qatlamlariga mazkur jarayonda aniqroq va natijaliroq qatnashish imkonini beradi. Xususiylashtirishning manzilli yo‘naltirilganligi uy-joylarning o‘z egalariga imtiyozli yoki bepul berilishida, aholining ko‘proq muhtoj va zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning turli xil dasturlari budjet mablag‘lari hisobiga qoplanishida, qishloq aholisi o‘z yordamchi xo‘jaligi uchun chek yerlar olishi kabilarda ifodalanadi.

O‘zbekistonda xususiylashtirishning to‘lovliligi uning navbatdagi muhim xususiyatidir. Pulni to‘lash orqali davlat tasarrufidagi korxonalar va obyektlarni xususiylashtirishda mulknı bepul taqsimlash bilan bog‘liq salbiy holatlar bartaraf etilishi bilan birga qator muammolarni hal qilish imkoniyati yaratiladi. Bulardan asosiysi avvalo, tadbirkorlikni, xususiylashtirilgan korxonalarini davlat

tomonidan qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy manbalari paydo bo‘ladi, bozor infrastrukturasi barpo etish uchun resurslar vujudga keladi va aholini ijtimoiy muhofazalash dasturini ro‘yobga chiqarish uchun mablag‘lar jamlanadi.

Davlat mol-mulkini yangi mulkdorlarga sotish yo‘li orqali ularning mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirilishi bilan birga xususiylashtirishdan olinadigan mablag‘lar shu korxonaning o‘zini qo‘llab-quvvatlashga, yangi raqobatlashuvchi korxonalar barpo etishga ham sarflanadi.

Navbatdagi muhim xususiyat – respublikada mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog‘ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlar yaratildi va ta‘minlandi¹⁸. Ijtimoiy kafolatlar bir butun imtiyozlar tizimi orqali yaratildi. Bular xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasiga aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotish, yangi mulkdorga eskirgan asosiy fondlar hamda ijtimoiy infrastruktura obyektlarini bepul topshirish, davlat korxonalarining mol-mulki, fermalar, bog‘lar va shu kabilarni imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirish hamda soliq to‘lashda ayrim imtiyozlar berish kabilardir.

Respublikada davlat mulkini xususiylashtirishning o‘ziga xos boshqa jihatlari Respublika Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan bayon qilingan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy qoidalaridan kelib chiqadi. Bular quyidagilar:

a) davlat mulkini xususiylashtirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning ichki mantiqiga bo‘ysundiriladi va ularning asosini tashkil qiladi;

b) mulkni xususiylashtirish jarayoni davlat tomonidan boshqariladi;

d) xususiylashtirishni huquqiy-me‘yoriy jihatdan ta‘minlashda qonunlarga rioya etiladi.

Respublikamizda xususiylashtirish jarayonining hozirgi bosqichdagi yo‘nalishlari islohotlarni chuqurlashtirish talablaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu avvalo, kichik va o‘rta biznesni, xususiylashtirishni rag‘batlantirishga qaratilishi zarur. Kichik va o‘rta biznes, xususiylashtirish mamlakatning nafaqat yalpi ichki

¹⁸ И.А.Каримов Ўзбекистон, иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида.-Т.: «Ўзбекистон», 1995. 51 бет.

mahsulotini shakllantirishda asosiy bo‘g‘in, balki aholi bandligi va daromadlari manbaining, milliy farovonlikka erishishining muhim omili ham bo‘lishi darkor¹⁹.

Hozirgi davrda xususiylashtirishdagi an’anaviy yo‘nalish davlat ro‘yxatiga kirmagan korxonalar va obyektlarni bu jarayonga jalb qilish ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib qolaveradi. Yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlarini keng aholi qatlami, shu jumladan chet el kapitali ishtirokini ta’minlaydigan ochiq turdagi jamiyatlarga aylantirish xususiylashtirishdagi navbatdagi yo‘nalishdir.

Respublikamizda xususiylashtirish bo‘yicha qo‘yilgan vazifa, davlat sektori bozor sharoitida ham sezilarli rol o‘ynashini inkor qilmaydi. Chunki iqtisodiyotning davlat korxonalari saqlanib qolishi kerak bo‘lgan sohalar ham mavjud. Bunday korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga tarkiban moslashuviga imkon beradigan xo‘jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqish talab qilinadi.

Tayanch tushunchalar

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim – jamiyatdagi turli xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar va jarayonlarni bir butun holda, muayyan tarzda tarkib topishi va tartibga solinishini ifodalaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – ishlab chiqarish usuli asos bo‘lib, u iqtisodiy bazis ishlab chiqarish munosabatlari va ustqurma (davlat) bilan birgalikda jamiyat tarixiy taraqqiyoti rivojlanishi bosqichlarini ifodalaydi.

Ierarxik boshqarish – ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash, iste’mol bo‘yicha barcha qarorlar davlat yoki boshliq tomonidan qabul qilinib, axborot olish buyruq topshiriqlar asosida yo‘lga qo‘yiladi.

Aralash tartibda boshqarish – iqtisodiyotni tartibga solishning o‘z-o‘zini boshqarish bilan ierarxik boshqarish birgalikda olib boriladi.

¹⁹ Каримов И.А. Жамиятда тадбиркорлик руҳини қарор топтириш – тарққиёт гарови. «Халқ сўзи» газетаси, 2001-йил 18-июн № 140.

Aralash iqtisodiyot – mulkchilikni turli-tumanligi, ularning tengligiga va iqtisodiyotni aralash tartibda boshqarishga asoslangan iqtisodiyot.

Mulkchilik munosabatlari – bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Mulkka egalik qilish – mulkdorlik huquqini uning egasi qo‘lida saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan moddiy boyliklarni o‘zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi.

Mulk obyektlari – bu mulkka aylangan barcha boylik turlari.

Mulk subyektlari – bu mulk obyektini o‘zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari.

Davlat tasarrufidan chiqarish – bu davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy tizim tushunchasini ta’riflang, u qanday tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi.

2. Iqtisodiy tizimlar qanday mezonlar bo‘yicha turkumlanadi, izoh bering.

3. Iqtisodiy tizim modellarining tub belgilarini ko‘rsating. Ularni farqlantiruvchi jihatlarini bayon qiling.

4. Mulkchilikning mohiyatiga ta’rif bering va uning turli shakllarining iqtisodiy mazmunini tushuntiring. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy mazmunini ta’riflang.

5. Mulk shakllariga uning subyektlari mos keladimi? Mulk subyektlarining ko‘p darajali bo‘lishiga sabab nima? Mulkchilik shakllarining farqlanishi asosida nima yotadi? Mulk har bir shaklining (davlat, jamoa, aralash, xususiy) tuzilish va tarkibini tushuntirib bering.

6. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish nima uchun mulkchilikning turli shakllarini taqozo qiladi? Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish nima uchun hozirgi bosqichda obyektiv zaruriyat hisoblanadi?

7. Xususiylashtirish bosqichlari va shakllariga tavsif bering.
8. Xususiylashtirishning qanday usullarini bilasiz? Bu usullardan birini tanlab olishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

V bob. TOVAR-PUL MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI

- 1. Ijtimoiy xo‘jalik shakllari va ularning rivojlanishi.**
- 2. Tovar va uning xususiyatlari.**
- 3. Qiymatning turli xil nazariyalari.**
- 4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari.**

1. Ijtimoiy xo‘jalik shakllari va ularning rivojlanishi

Ijtimoiy xo‘jalik – insoniyat jamiyati taraqqiyotining alohida uzoq davrlari davomida ishlab chiqarishning maqsadini ancha to‘liq ifodalab qoladigan, barqaror umumiy belgilariga ega bo‘lgan va rivojlanishida ma‘lum bir qonuniyatlarga asoslangan xo‘jalik yuritishning turlaridir.

Umumiy iqtisodiy shakllarning tarixan birinchisi natural ishlab chiqarish bo‘lgan, bunda mahsulotlar ishlab chiqaruvchining o‘z iste‘molini qondirish uchun, ichki xo‘jalik ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan. Natural xo‘jalikning asosiy belgilari bu:

- mehnat taqsimoti yetarlicha rivojlanmaganligi;
- ishlab chiqarish biqiq xarakterga ega bo‘lib, ishlab chiqaruvchilarning o‘z ehtiyojlarini qondirishga bo‘ysundirilganligi;
- ishlab chiqarish bilan iste‘mol o‘zaro mos kelib, bevosita xo‘jalik ichida bir-biri bilan bog‘langanligi;
- mehnat tor doirada ijtimoiy xarakterga ega bo‘lganligi;
- ishchi kuchining harakatchanligi cheklanganligi.

Iste‘mol ko‘pincha ishlab chiqarishga mos kelgan, ularning bir-biri bilan bog‘lanishi bevosita ushbu xo‘jalikning o‘zida ro‘y bergan. Bunday xo‘jaliklar ibtidoiy jamoa tizimida hukm surgan. Patriarxal dehqon xo‘jaligini va feodal pomestelari ham asosan natural xo‘jalik bo‘lgan.

Hozirgi kunda ham yer yuzining ayrim qoloq hududlarida (Urugvay, Gvineya) hamda shaxsiy yordamchi va tomorqa xo‘jaliklarda natural xo‘jalik belgilari saqlanib qolgan.

Natural ishlab chiqarish ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanmaganligi oqibati sifatida vujudga kelgan. Bunday sharoitda biqiq yoki o'z ehtiyojlarini o'zi qondiradigan ishlab chiqarish tuzilmalari paydo bo'lgan. Mehnat ularning tor doirasidagina ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan. Natural ishlab chiqarish shakli barcha iqtisodiy jarayonlarni bir xo'jalik doirasida qat'iy cheklab qo'yadi, tashqi aloqalar uchun yo'l ochilmaydi. Natural xo'jalik shakllarining xuddi shu xususiyatlari qishloq xo'jalik jamoalari ming yillar davomida barqaror yashovchan bo'lib qolganligining «siri»ni ochib beradi. Natural xo'jalik ishlab chiqarish maqsadlarini nihoyat cheklab qo'yadi, hajm jihatidan juda oz va turi jihatidan kam xil bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga bo'ysunadi. Shuning uchun ham jamiyat asta-sekinlik bilan tovar ishlab chiqarishga o'tadi.

Tovar ishlab chiqarish natural xo'jalikning rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan. Tovar xo'jaligi ibtidoiy jamoa tizimi ixtisoslashuvi davrida, bundan taxminan 7-8 ming yil oldin qaror topa boshlagan.

Tovar xo'jaligida kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar buyum orqali, ular mahsullarini oldi-sotdi qilish orqali namoyon bo'ladi. Tovar ishlab chiqarishning natural ishlab chiqarishdan farqi shundaki, bunda tovar yoki xizmat o'zining iste'moli uchun emas, balki bozorga sotish uchun yaratiladi.

Natural xo'jalikni siqib chiqarish va tovar ayriboshlashning rivojlanish jarayoni mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, xususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi asosida individual xo'jaliklarning tovar ayriboshlashga, oldi-sotdiga o'tish yo'li bilan boradi. Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv, ularni turli xil ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ayriboshlashni zarur qilib qo'yadi. Ixtisoslashuv esa mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi, demak, tovar ayriboshlash faqat zarurgina emas, balki foydali bo'lib boradi. Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv, ularni turli xil ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ayriboshlashni zarur qilib qo'yadi. Tovar ayriboshlashga tortiladigan ishlab chiqaruvchilar bir-biriga tobora ko'proq bog'liq bo'lib qola boshlaydi.

Tovar xo‘jaligi vujudga kelishi va amal qilinishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari qanday? Bu, birinchidan, ijtimoiy mehnat taqsimotidir. Bunda ishlab chiqaruvchilar u yoki bu aniq mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti tarixida uchta bosqich ajratiladi:

1-dehqonchilikdan chorvachilik ajralgan, ular o‘rtasida doimiy mahsulot ayriboshlash uchun shart - sharoit vujudga kelgan.

2-dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib tovar ishlab chiqarish vujudga kela boshlagan.

3-ishlab chiqarishdan savdo-sotiq alohidalashgan, sudxo‘rlar qatlami shakllana boshlagan.

Tovar ishlab chiqarish uchun mehnat taqsimoti zarur, lekin u yetarlicha to‘liq shart-sharoit hisoblanmaydi. Buning uchun ikkinchi shart – ishlab chiqaruvchilarning mulkdor sifatida iqtisodiy alohidalashgan bo‘lishi lozim.

Ishlab chiqaruvchilar xususiy mulk munosabatlari tufayli iqtisodiy jihatdan bir-biridan muayyan tarzda alohidalashib qoladi, bunda ular o‘z mehnat natijalarini o‘zlari tasarruf qiladilar. Iqtisodiy alohidalik nima ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish zarurligi va yaratilgan mahsulotlarni kimga va qayerga sotishni faqat ishlab chiqaruvchining o‘zi hal qilishini bildiradi. Xuddi shu ikki holat tovar ishlab chiqarishni zarur qilib qo‘yadi va bozor vujudga kelishining shart-sharoiti hisoblanadi. Mahsulot tovarga, ya‘ni bozorda ayriboshlash uchun, sotish uchun tayyorlanadigan narsaga, ishlab chiqaruvchilar esa tovar ishlab chiqaruvchilarga aylanadi.

Hozirgi zamon tovar xo‘jaligida ko‘lami jihatdan mehnat taqsimotining quyidagi turlari farqlangan:

– individual (shaxsning qandaydir kasb yoki ixtisoslikni egallashi);

– korxonalar darajasida (mehnat jamoasida har xil ish turlari, operatsiyalarning ajratilishi);

– tarmoq va ishlab chiqarish turlari ko‘lamida (masalan, elektroenergetika, neft qazib olish, avtomobilsozlik va shu kabilar);

– mamlakat ko‘lamida (sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqalar);

– mamlakat ichida hududlar bo‘yicha (har xil iqtisodiy hududlarda qandaydir mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashish);

– xalqaro (alohida mamlakatlarning qandaydir tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi).

Mehnat taqsimoti ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga asoslanadi. Ixtisoslashishning predmetli (qandaydir buyum tayyorlanadi), qismli (tayyor mahsulotning faqat biror qismi yaratiladi) va texnologik (ishlov berishning muayyan aniq operatsiyalari bajariladi) turlari mavjud bo‘ladi.

Ixtisoslashuv, o‘z navbatida, qiyosiy ustunlik prinsipi bo‘yicha, ya‘ni mahsulotni nisbatan kam muqobil qiymatda ishlab chiqarish layoqati bilan aniqlanadi. Tovar xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayonida o‘zaro aloqalarning kuchayishi natijasida ishlab chiqaruvchilarning, birlashishlari, ya‘ni mehnat kooperatsiyasi ro‘y beradi. Kooperatsiya – bu kishilarning o‘zaro bog‘liq bir yoki bir nechta mehnat jarayonida birlashishining tashkiliy shaklidir.

Ishlab chiqarishning, rivojlanishi sharoitida uning yiriklashish tamoyillari kuzatiladi. Bu ishlab chiqarishning konsentratsiyasi bo‘lib, u korxonalarda iqtisodiy resurslarning to‘planishi, ya‘ni resurs ko‘lamining mustahkamlanishini anglatadi. Tovar xo‘jaligida ishlab chiqarishning konsentratsiyasi ko‘pincha uning integratsiyasiga olib keladi. Bu bir korxonada doirasida mahsulotni tayyorlash bo‘yicha operatsiyalar barcha siklning to‘planishidir.

Nihoyat, tovar xo‘jaligi vujudga kelishining muhim shart-sharoitlaridan biri erkin ayriboshlash hisoblanadi. Chunki ijtimoiy mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv va iqtisodiy alohidalik erkin ayriboshlash va xo‘jalik subyektlari faoliyatining eng samarali yo‘nalishini ko‘rsatib beradigan erkin narxlarning shakllanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, tovar xo‘jaligining belgilari sifatida qo‘yidagilar chiqadi: ijtimoiy mehnat taqsimotining mavjud bo‘lishi; ishlab chiqaruvchilarning mulk egasi sifatida bir-biridan alohidalashuvi; mahsulotlarning bozor uchun erkin ayriboshlash maqsadida ishlab chiqarilishi.

2. Tovar va uning xususiyatlari

Tovar-pul munosabatlarini tushunishda tovarning mazmunini, uning xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga egadir.

Tovar deb, biron-bir naflilikka va qiymatga ega bo'lgan ayriboshlash uchun yaratilgan mahsulotga aytiladi. Boshqacha aytganda, tovar naflilikka va qiymatga ega bo'lgan bozor uchun ishlab chiqariladigan mahsulot yoki xizmatlardir.

Demak, tovarning ikki xususiyati bor: birinchidan, u kishining qandaydir ehtiyojini qondiradi: ikkinchidan, u boshqa buyumga ayriboshlana oladigan buyumdur.

Tovarning birinchi xususiyati shundan iboratki, u kishilar uchun foydali, naflidir. U shaxsiy iste'mol buyumi sifatida bevosita yoxud ishlab chiqarish vositalari sifatida bilvosita kishilarning biron-bir ehtiyojini qondiradi.

Xo'sh, tovarning mahsulotdan farqi nimada? Tovar, eng avvalo, o'z iste'moli uchun emas, balki boshqalarning iste'moli uchun bozorga sotish maqsadida tayyorlanadigan mahsulotdir.

Har bir tovar ma'lum bir naflilikka ega, lekin u yaratuvchining o'z ehtiyojlari emas, balki ayriboshlash orqali boshqa kishilar ehtiyojini qondiradi. Ayni vaqtda tovarlar boshqa tovarlarga ayriboshlanish qobiliyatiga ega bo'lganligi uchungina, u o'zining yaratuvchisini qiziqtiradi. Tovarning shu xususiyati, ayriboshlanuvchanligi uning "almashuv qiymati" nomini oladi. Tovarlarini sotishda ularning narx ko'rsatkichi almashuv qiymatini yaqqol ko'rsatadi. Inson mehnati bilan yaratilmagan ko'plab buyumlar masalan, buloqdagi suvlar, yovvoyi daraxt mevalari naflilikka ega bo'ladi. Lekin ular har doim ham tovar bo'lavermaydi. Buyumlar tovar bo'lishi uchun, u ayriboshlashga mo'ljallangan, ma'lum miqdorda iqtisodiy resurs sarflangan, bozorga sotishga chiqarilgan bo'lishi zarur.

Tovar narxi va nafliligi o'rtasidagi bog'liqlikni birinchi bo'lib ingliz iqtisodchi – olimi U. Jevons (1835-1882) ko'rsatib bergan. Uning fikricha, keyingi qo'shilgan naflilik aynan bozor narxida o'z o'rniga ega bo'ladi. Naflilik subyektiv tushuncha bo'lganligi sababli uni miqdoriy baholash ancha qiyin. Iqtisodiyot nazariyasida naflilikni aniqlashga ikkita yondashuv qaror topgan:

Kordinalistik yondashuv, naflilikni hisoblashning shartli birligi "yutil" dan foydalanib, uning miqdorini mutlaq aniq belgilashni ko'zda tutadi.

Ordinalistik yondashuv, afzal ko‘rish tartibi bo‘yicha bir qator tovarlarni muayyan ranjirlashga yo‘l qo‘yadi. Iste‘molchi tovarlarning tartib bo‘yicha miqdor o‘lchami haqida aniq xulosa chiqara olmaydi, biroq ularning, bir-biriga nisbatan muhimlik darajasini aytib bera oladi. Masalan, birinchi tovar ikkinchisidan, ikkinchisi esa uchinchisidan afzal ko‘riladi va h.k.

Iste‘molchi uchun tovar nafliligining ikki turi – umumiy va keyingi (qo‘shilgan) naflilikdan qaysi biri muhim degan savol tug‘iladi.

Umumiy naflilik ma‘lum vaqt oralig‘ida tovar va xizmatlar yoki ularning to‘plamini iste‘mol qilishdan olingan umumiy qoniqishdir. Qisqacha aytganda – bu ne‘matlarning barcha birligini iste‘mol qilishning umumiy nafliligidir. Umumiy naflilik “TU” bilan belgilanadi.

Tovarning keyingi (qo‘shilgan) nafliligi iqtisodiy ne‘matning har bir navbatdagi birligi iste‘molidan olingan qo‘shimcha naflilik. Boshqacha aytganda, bu boshqa tovarlar iste‘moli o‘zgarmay qolganda mazkur tovar birligini iste‘mol qilish keltirib chiqaradigan umumiy naflilikning o‘shidir. Keyingi naflilikni MU bilan belgilasak, biror (X) tovarning qo‘shimcha birligi nafliligi quyidagicha ifodalanadi.

$$MU_x = \frac{\Delta TU_x}{\Delta Q_x},$$

bu yerda

ΔTU_x – umumiy naflilikning o‘shishi;

ΔQ – iste‘mol qilinadigan ne‘mat miqdorining ortishi.

Umumiy va keyingi naflilikning bir-biri orqali ifodalash mumkin. Umumiy naflilik iste‘mol qilingan iqtisodiy ne‘mat qo‘shimcha birliklari nafliligi yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi.

$$TU_n = MU_1 + MU_2 + MU_3 + \dots + MU_n.$$


Keyingi naflilik umumiy naflilikning o‘shishi yoki qo‘shimcha olingan naflilik.

$$MU_n = TU_n - TU_{n-1}.$$

Biror tovar birligi (porsiya, qismi, kg, dona, va h.k.) ketma - ketlikda iste‘mol qilinganda uning har bir navbatdagsidan kamroq qoniqish olinadi, chunki mazkur tovarga ehtiyoj sekin - asta qondiriladi va oxir oqibatda bu qoniqish o‘z chegarasiga yetadi. Shu

tariqa, mazkur tovar keyingi nafliligi uning iste'moli ortib borishi bilan kamayib boradi. Bu keyingi naflilikning pasayib borish qonuni amal qilishini ko'rsatadi.

Iste'mol qilinadigan na'mat qanchalik ko'p bo'lsa, uning har bir yangi birligini iste'mol qilish natijasida olinadigan keyingi naf shunchalik kam bo'ladi. Bu qonunni grafik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.



5.1-chizma. Keyingi naflilikning kamayib borish qonuni.

Bu yerda tovar qiymati nimaga asoslanadi? degan savol tug'iladi. Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari²⁰, tovarlar qiymatining umumiy asosi – bu mehnat, shu sababli ular ma'lum miqdorlarda bir-biriga tenglashtiriladi. Ularning fikricha, tovarlarning tabiiy xususiyatlaridan birortasi – og'irligi, hajmi, shakli va shu kabilar ayriboshlashga umumiy asos bo'la olmaydi, faqat mehnat sarflari shunday asos hisoblanadi. Almashishning zarur sharti ayriboshlanadigan tovarlarning har xil naflilikka ega bo'lishi hisoblanadi. Lekin naflilik mehnat qiymati nazariyachilari qarashlaricha miqdoriy o'lchamga ega emas. Miqdor jihatdan baravarlashtirish esa ular fikricha hamma tovarlar uchun sifat jihatidan umumiy, yagona biron-bir narsa bo'lishini taqozo etadi, bunday umumiy narsa ularni yaratish uchun sarflangan mehnatdir.

²⁰ Tovar qiymatini mehnat bilan aniqlashga yondashuvlarida ma'lum farqlar mavjud bo'lsada ularga A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, Dj.S.Mill va boshqa ayrim iqtisodchilarni, ularning izdoshlarini kiritish mumkin.

Bu o‘rinda so‘z mehnatning muayyan, aniq turlari to‘g‘risida bormaydi. Bu turlar bir-biridan sifat jihatdan farq qiladi va shu sababli, ular aniq naflilikni keltirib chiqaradi. Tovarlar o‘lchovdosh bo‘lishining boisi shuki, ularning hammasi inson mehnati va iqtisodiy resurs sarflari mahsulidir. Aynan shu sababga ko‘ra tovarlar bir xil va o‘lchovdoshdir. Tovarida mujassamlashgan mehnat va boshqa resurs sarflari uning qiymatini tashkil qiladi. Bu qiymat tovar ayriboshlaganda ko‘rinadi, shuning uchun almashuv qiymati qiymat shakli bo‘lib xizmat qiladi. Tovarining o‘zi naflilik va qiymatning uzviy birligidan iboratdir.

Klassiklar fikricha, tovarning ikki xil xususiyatga ega bo‘lishiga sabab uni ishlab chiqaruvchilar mehnati tabiatining ikki tomonlamaligidir. Bir tomondan, bu – muayyan turdagi aniq mehnatdir. Shuning uchun, naflilikni (iste‘mol qiymatni) yaratgan mehnat aniq mehnat deb nom olgan. Ikkinchi tomondan, mehnat aniq shakllidan qat’i nazar, umuman sarflangan inson ishchi kuchidir. Bu mehnat esa boshqa omillar bilan birga tovar qiymatini yaratishda qatnashadi.

Tovarlar qiymatining miqdori iqtisodiy resurslar unumdorligi, xususan mehnat unumdorligiga qarab o‘zgaradi. Mehnat unumdorligi ma’lum ish vaqti birligi mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori bilan yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqti bilan aniqlanadi. Unumdorlikning o‘zgarishi tovar birligi qiymatining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Unumdorlik ortsa, tovar birligining qiymati kamayadi yoki aksincha, mehnat unumdorligi pasaysa, tovar birligining qiymati oshadi. Tovar birligining qiymatiga barcha iqtisodiy resurslar unumdorligi ta’sir ko‘rsatadi.

Mehnat unumdorligiga bir qancha omillar ta’sir qiladi. Bu omillar mehnat qurollarining rivojlanish darajasi va samaradorligi, ishchining malakasi hamda kasb ko‘nikmasi, fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish darajasi, ishlab chiqarishning to‘planuv qo‘lami, tabiiy sharoitlardir.

3. Qiymatning turli xil nazariyalari

Iqtisodiy fanda tovar qiymatining negizini nima tashkil qiladi degan savolga javob berishda ikki xil yoʻnalish mavjud boʻlib, ular oʻrtasida doimiy munozaralar boʻlib kelgan.

Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari qarashicha, tovarlarni ayriboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi. Qiymatning miqdori esa, ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan, yaʼni ijtimoiy zaruriy ish vaqti bilan oʻlchanadi.

Ijtimoiy zaruriy ish vaqti ishlab chiqarishning mavjud ijtimoiy normal sharoitida va shu jamiyatda mehnat mahorati va jadalligining oʻrtacha darajasida naflilikka ega boʻlgan biron tovarni tayyorlash uchun talab qilinadigan ish vaqtidir.

Ijtimoiy normal ishlab chiqarish sharoiti muayyan turdagi tovarlarning aksariyat qismi yaratiladigan sharoitdir. Bu odatda oʻrtacha sharoit, faqat shu sharoitda oʻrtacha mahoratga ega boʻlgan va oʻrtacha jadallik bilan ishlaydigan ishlab chiqaruvchi bir soatlik mehnati mobaynida bir ijtimoiy normal sharoitga mos qiymat vujudga keltiradi. Xodimning mahorati va mehnatining jadalligi jamiyatda qaror topgan oʻrtacha darajadan yuqori yoki pastroq boʻlsa, bu holda bir soatlik mehnat mobaynida yaratgan qiymat tegishli koʻp yoki kam boʻladi.

Qiymatning mehnat nazariyasiga koʻra ijtimoiy zarur ish vaqti oʻziga xos ijtimoiy mehnat meʼyori rolini oʻynaydi. Bu meʼyor bozorda aniqlanadi va tovar ishlab chiqaruvchilar unga amal qilishlari zarur. Keragidan ortiqcha mehnat sarflari jamiyat tomonidan eʼtirof etilmaydi. Bozorda muayyan turdagi tovarlarning asosiy massasini ishlab chiqarish uchun zarur boʻlganidan amaldagi ortiqcha mehnat sarflariga hech kim haq toʻlamaydi.

Tovar qiymatida oddiy mehnat ifodalanadi. Oddiy mehnat deganda, maxsus tayyorgarlik talab qilmaydigan mehnat tushuniladi. U shunday boshlangʻich negizki, boshqa mehnat turlari malakasi jihatidan unga tenglashtiriladi. Binobarin, murakkab mehnat darajasiga koʻtarilgan yoki koʻpaytirilgan oddiy mehnat sifatida namoyon boʻladi. Murakkab mehnatni oddiy mehnatga tenglashtirish bozorda individual sarflarni ijtimoiy zarur sarflariga tenglashtirish bilan birga sodir boʻladi.

Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari – tovar xoʻjaligi sharoitida ishlab chiqaruvchilar oʻrtasidagi aloqalarni tartibga

soluvchi, obyektiv qiymat qonunini mavjud bo'lishini tan oladi. Ular fikriga ko'ra, bu qonunga binoan tovar ishlab chiqarish va ayriboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi.

Qiymat qonuni tovar ishlab chiqaruvchilarni ularning individual mehnat sarflari bilan ijtimoiy zarur mehnat sarflari o'rtasidagi farqqa bog'liq holda tabaqalashtiradi, sarflarni kamaytirgan ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantiradi va iqtisodiy resurslar hamda ishchi kuchining tarmoqlar va sohalar bo'yicha taqsimlanishini tartibga solib turadi. Masalan, eng yuqori mehnat unumdorligiga erishgan ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlarini ijtimoiy zarur sarflaridan kamroq, lekin ayrim individual sarflaridan yuqori narxlarga sotishlari va yuqori foyda olishlari mumkin.

Qiymat qonuni muhim iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Bular: tovar ishlab chiqaruvchilarni tartibga solish; mehnat unumdorligi o'sishini rag'batlantirish; ishlab chiqaruvchilarni ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan tabaqalashtirish.

Qiymat qonunining tartibga solib turuvchi vazifasi raqobat kurashi natijasida bozor narxlarining stixiyali ravishda tebranib, ularning ijtimoiy qiymatdan farq qilib turishidan iborat. Tovar narxining ijtimoiy qiymatidan chetga chiqish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat deb hisoblanadi:

Talab = taklif,	bo'lsa	narx = qiymat
Talab > taklif,	bo'lsa	narx > qiymat
Talab < taklif,	bo'lsa	narx < qiymat

Shunday qilib, tovarlar narxining ular qiymatidan farq qilishi tovar ishlab chiqaruvchilarning xohishi bilan sodir bo'lmay, balki obyektiv qiymat qonunining kuchi ta'siri ostida ro'y beradi.

Qiymat qonunining resurslarni taqsimlashni tartibga solib turish vazifasi shundan ko'rinadiki, jamiyatda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslar foyda normasi past bo'lgan tarmoqlardan uning normasi yuqori bo'lgan boshqa tarmoqlarga to'xtovsiz o'tib turadi.

Neoklassik nazariyada tovar nafliligiga ustuvorlik beriladi. Ular fikricha xaridor tovar qiymatini uning nafliligidan izlaydi. Italyan iqtisodchisi F. Galiani (1728 – 1787) nazariy tasavvuricha eng yuqori naflilikka ega bo'lgan tovarlar masalan, oziq - ovqat

mahsulotlari shunday yuqori qiymatga ham ega bo'lishi zarur. Biroq klassik iqtisodiy nazariyada A. Smit bunday o'zaro bog'liqlik haqiqatga to'g'ri kelmasligini qayd qilgan. Uning qarashi "Smit paradoksi" nomini olgan: agar buyumning qiymati uning nafliligiga bog'liq bo'lsa, nima uchun normal sharoitda eng yuqori nafli samaraga ega bo'lgan ne'matlar (non, suv, sut) inson uchun juda nisbiy naflilikka ega bo'lgan qimmatliklar (brilliant)ga qaraganda past baholanadi. XIX asr oxirlarida bir qator iqtisodchilar (U. Djevons, A. Marshall, K. Menger, F. Vizer, E.fon Bem. Bavrek, L. Valras) mazkur muammoning nazariy yechimini keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi tushunchasini kiritish orqali topishga harakat qiladi. Bu tushunchaga ko'ra, moddiy boyliklar qiymati aniq olingan inson uchun ularning foydalilik darajasi bilan aniqlanadi. Bunda gap foydali bo'lishning umumiy miqdori to'g'risida emas, balki ne'matning qo'shilgan miqdori nafliligi haqida ketadi.

Yuqorida qarab chiqqanimizdek, qiymatning mehnat nazariyasiga ko'ra, mehnat sarflarining ijtimoiy zaruriy darajasi faqat bozorda, ayriboshlashda yuzaga chiqadi. Qiymat faqat bozorda almashuv qiymat ko'rinishida o'zining ifodalanish shaklini oladi. U ishlab chiqarishda yaratiladi, bozorda esa namoyon bo'ladi. Shu yerda qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyotchilari qarashlari bilan qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Uning mohiyati nimadan iborat? Agar tovar bozorda sotib olinsa, bu kimdir tovar ishlab chiqarishiga ketadigan sarflarni ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari sifatida baholashi natijasida emas, balki mazkur tovar xaridor uchun foydali samaraga ega bo'lishi sababli ro'y beradi.

Kishilar tomonidan juda xilma-xil iqtisodiy ne'matlar (hamda xizmatlar) ularni ishlab chiqarishga ijtimoiy zaruriy mehnat sarflanganligi uchun emas, balki ushbu ne'matlar naflilikka ega bo'lishi sababli qadrlanadi va u yoki bu tovarni ishlab chiqarishga mehnat sarflari faqat shu sababli amalga oshiriladiki, kishilar aniq nafliliklarga ehtiyoj sezadi. U yoki bu mehnat sarflarining ijtimoiy zarurligi kim tomonidan yoki nima bilan aniqlanadi? Oddiy qilib bozor tomonidan! - deb, javob berish to'g'ri, lekin bu juda umumiy javob. Keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasi tarafdorlari fikrlariga ko'ra, "faqat tovarning nafliligi," "mehnat sarflariga" ijtimoiy zaruriy deb nomlanadigan xarakter berishi mumkin.

Keyingi qo‘shilgan miqdor nafliligi nazariyasi bilan qiymatning mehnat nazariyasining bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi turli xil iste‘mol qiymatlarini yoki nafliliklarni hisobga olish muammosi bilan bog‘liq.

Keyingi qo‘shilgan miqdor nafliligi nazariyasi tarafdorlari, naflilikning ikki turini ajratib ko‘rsatish zarur deb hisoblaydi. a) tug‘ma foydalilik, ya‘ni ne‘matlarning kishilar biron-bir ehtiyojlarni qondirish layoqati; b) aniq foydalilik, bu ne‘mat mazkur nusxasi foydaliligining subyektiv bahosini bildiradi. Bu subyektiv baho ikki omilga bog‘liq; mazkur ne‘matning mavjud zaxirasi va unga bo‘lgan ehtiyojning to‘yinganlik darajasi.

Keyingi qo‘shilgan miqdor nafliligi nazariyasi tarafdorlari subyektiv foydalilik miqdorini hisoblashda G.Gossen qonunidan foydalanadi (nemis iqtisodchisi, 1810 – 1858 y). Bu qonunga binoan, ehtiyoj qondirilib borilishi bilan «to‘yinganlik darajasi» o‘sadi, aniq qo‘shilgan miqdor nafliligi esa tushadi («zaruriy ehtiyoj» darajasi). Bu mazkur ehtiyojni qondiruvchi har bir navbatdagi qo‘shimcha ne‘mat oldingisiga qaraganda kamroq naflilikka ega bo‘lishini bildiradi, ne‘matlar zaxirasi cheklangan bo‘lganda esa uning «zaruriy ehtiyojini» qondiruvchi keyingi nusxasi mavjud bo‘ladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, mazkur turdagi ne‘mat qiymati, eng zarur ehtiyojni qondiruvchi keyingi nusxaning nafliligi bilan aniqlanadi.

Tovarlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning har birligi qadr - qiymati shunchalik kam bo‘ladi. Ne‘matning umumiy iqtisodiy qadr-qiymati uning qo‘shilgan miqdori nafliligi va umumiy miqdorning ko‘paytmasiga teng keladi. Qandaydir ne‘mat birligining, qadr-qiymati aynan shu birlikning muhimlik darajasi bilan aniqlanadi.

Yangi klassiklar naflilikning pasayib borish qonunini ham aniqlaydiki, unga ko‘ra iste‘mol qilingan ne‘matning navbatdagi birligi nafliligi pasayib boradi (oldingisiga qaraganda).

Keyingi (qo‘shilgan miqdor) naflilik – bu talab narxi, ishlab chiqarish xarajatlari esa taklif narxidir. Agar qaysidir tovar bozorida uning taklifi talabdan ortiq bo‘lsa, bunda narx qonuniy ravishda tushadi. Aksincha talabning taklifdan ortishi tovar narxini yuqoriga ko‘taradi, taqchilik ne‘matlar kamyobligini kuchayishini anglatadi, uning keyingi birligi nafliligi esa ortadi.

Qiymat va narx nazariyasida yangi yoʻnalishni boshlab bergan kishi, mashhur ingliz iqtisodchisi A.Marshall hisoblanadi. U qoʻshilgan miqdor nafliligi nazariyasining bir tomonlama yondashuvga asoslanganligini qiymatni faqat naflilik bilan tushuntirishida koʻrdi. A.Marshall keyingi qoʻshilgan miqdor nafliligi nazariyasini, talab va taklif hamda ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasi bilan bogʻlashga harakat qildi.

A.Marshallning tovar qiymati nima bilan aniqlanishini bilishda qoʻshilgan miqdor nafliligi va ishlab chiqarish xarajatlarini sintez qilish (umumlashtirish) zarurligi haqidagi fikri juda mashhur. Yangi klassiklarning qiymat va narxning bir negizli (monistik) nazariyasini yaratishga urinishdan chekinish xususan A.Marshall ishlari bilan bogʻliq. Bunday yagona manba, masalan, klassiklar nazariyasida mehnat, marjinalistlarda qoʻshilgan miqdor nafliligi hisoblanadi. A.Marshall nazariyasida esa qiymat va narx ham talab (qoʻshilgan miqdor nafliligi) va ham taklif (tovar ishlab chiqarish xarajatlari) tomonida yotuvchi bozor kuchlari oʻzaro taʼsiri orqali aniqlanadi.

A.Marshall fikricha, tovar qiymati teng darajada keyingi qoʻshilgan miqdor nafliligi va ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi. Shunday qilib, A.Marshaldan boshlab iqtisodiyot nazariyasida qiymatning tub asosini qidirib topishdan chekinish roʻy beradi va funksional tahlilga, yaʼni bir vaqtda narx va talab – takliflarning oʻzaro taʼsirini aniqlashga oʻtildi.

4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari

Pulning kelib chiqishi haqidagi masala turli xil nazariyotchilar tomonidan ayriboshlashning rivojlanish jarayoni bilan bogʻliqlikda talqin qilinadi.

Bir tovarning qiymati u boshqa tovarga ayriboshlaganda maʼlum boʻladi (T-T). Birinchi qarashda ayriboshlash bitimida tovarlar bir xil rol oʻynaydigandek koʻrinadi. Aslida esa ularning roli turlichadir. Bir tovar oʻz qiymatini boshqa tovarga nisbatan ifodalaydi. Ikkinchi tovar esa ekvivalent rovida chiqadi, qiymatning ekvivalent shaklini tashkil etadi. Xuddi mana shu yerda pulning kurtagi mavjud boʻladi.

Ayriboshlash rivojining dastlabki bosqichi qiymatning oddiy yoki tasodifiy shakli deb ataladi. Bunda, masalan, boltaning egasi uni 1 qop donga almashtiradi. (1 bolta= 1 qop don).

Bu tenglikda bolta o‘z qiymatini 1 qop donda ifodalaydi. Don esa bolta qiymatining ifodasidir, uning qiymatini ifodalash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.



Ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi va ishlab chiqarishning o‘shishi natijasida ayriboshlash yanada rivojlandi. Tobora ko‘p turdagi va miqdordagi mahsulotlar ayriboshlash jarayoniga jalb etilib boriladi.

Bunda hamma tovarlarga ayriboshlash mumkin bo‘lgan tovarga zaruriyat tug‘iladi. Dastlab bunday vazifani turli tovarlar bajarib, ishlab chiqarishning rivojlanish jarayonida bu rol asta-sekin oltinga o‘tib borgan.

XIX asrning oxirida mamlakatlar birin-ketin oltin valutaga, ya‘ni monometall tizimiga o‘ta boshlaydilar. Bu hol Avstriyada 1892, Yaponiyada 1897, Rossiyada 1898, AQSHda esa 1900-yilda sodir bo‘ladi. Angliyada oltin pul tizimi XVII asrning oxirida, Germaniyada 1871-yilda, Gollandiyada 1877-yildayoq joriy etilgan edi.

O‘zbekiston hududida tarixan bundan ham oldinroq, kumush va mis tangalar muomalada bo‘lgan. Shayboniyxon Samarqandni zabt etgandan keyin, 1507-yilda pul islohotini o‘tkazgan. Bizgacha Shayboniyxon (1501–1610) va Abdullaxon (1583–1598) zarb etgan tangalar yetib kelgan. Abdullaxon davrida tanga (oltin va kumush) zarb qilish davlat poytaxti – Buxoroda markazlashtiriladi. 1695–1709 yillarda oltin tanga zarb qilish muntazam tus oladi. Tanga og‘irligi 4,8 gramm, sifat sofligi juda yuqori – 958 bo‘lgan²¹.

Qiymat shakllarining rivojlanishiga sabab bo‘lgan asosiy omillar quyidagilar: Mehnat taqsimotining rivojlanishi va chuqurlashuvi; ishlab chiqarishning o‘shishi; mahalliy va milliy bozorlarning vujudga kelishi.

Umumiy ekvivalent rolini nodir metallarga, jumladan oltinga yuklatilishiga sabab quyidagilar bilan izohlanadi:

Sifat jihatdan bir xil o‘lchamga keltirish mumkinligi;

²¹ Чжен В.А Пул ва молия бозорлари. Т.: 1996. 25-26-бетлар.

Zanglamasligi va uzoq muddat saqlanishi;
Bo‘linuvchanligi va uni yaxlit holga keltirish osonligi;
Tabiatda nisbatan kamyobligi;

Ozgina miqdordagi va og‘irlikdagi nodir metallning qiymati ancha yuqoriligi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkin. Pulning vujudga kelishi tarixiy jarayon, u tovar ayriboshlashning rivojlanishiga asoslanadi, tovar ishlab chiqarish va ayriboshlash ziddiyatlarining keskinlashuvi natijasidir. Oltin (yoki kumush) pul umumiy ekvivalent rolini o‘ynovchi maxsus tovardir.

Hozirgi zamon puli tovarlarni ayriboshlashda umumiy ekvivalent rolini bajaruvchi, umumko‘pchilik tomonidan tan olingan va davlat tomonidan qonunlashtirilgan vositadir.

Pul tovar muomalasi doirasidan tashqarida ham amal qila boshlaydi: pul rentasi, pul soliqlari vujudga keladi, natural majburiyatlar pul majburiyatlariga aylanadi.

Shu tariqa pul ishlab chiqarish va muomala jarayonida bir qator vazifalarni bajaradi: 1. Qiymat o‘lchovi. 2. Muomala vositasi. 3. Boylik to‘plash vositasi. 4. To‘lov vositasi.

1. Tovarning almashuv qiymatini ifodalash va uni aniqlash uchun qo‘lda naqd pulga ega bo‘lish shart emas. Pulning bu vazifasini ideal pul bajaradi. Tovar egasi fikran ideal ravishda shu tovarning almashuv qiymatini pul bilan ifodalaydi. Tovarning narxi talab va taklif miqdoran mos kelgan taqdirdagina uning qiymatiga muvofiq keladi. Agar talab va taklif mos kelmasa, narx qiymatidan farq qiladi. Demak, tovarlarning narxi ularning qiymatiga, talab va taklifning nisbatiga bog‘liq.

Tovar almashuv qiymati va nafliligining pul bilan ifodalanishi uning narxidir.

Dastlab pul birliklari va ularning nomlari ko‘pincha muayyan og‘irlikda nodir metallar bilan bog‘liq bo‘lgan, valuta tizimlarining nomlari (funt sterling) ham shundan dalolat beradi. Lekin vaqt o‘tishi bilan, «vazn» nomi pul birligidan nodir metallarning haqiqiy



vaznidan tobora ko‘proq farq qila boshlagan. Buning bir qancha sabablari bor bo‘lib, ularning biri shu bilan bog‘liqki, tarixan uncha nodir bo‘lmagan, umumiy ekvivalent rolini o‘ynagan metallar nodirroq, demak, qimmatroq metallar tomonidan siqib chiqarilgan; bunda pul nomlari avvalidagicha qolgan. Masalan, funt sterling dastlab bir funt kumushning pul bilan ifodalangan nomi bo‘lgan. Lekin oltin qiymat o‘lchovi sifatida kumushni siqib chiqargach, avvalgi nom o‘z qiymati jihatidan bir funt kumushga teng bo‘lgan oltin miqdoriga nisbatan ishlatila boshlagan. Boshqa sabab tangalarni soxtalashtirish bo‘lib, bunda davlat pul zarb qilinayotganda tangaga talab qilingandan ko‘ra kamroq miqdorda pul materiallarini sarflaydi.

Tovar muomalasi jarayonida naqd pul yoki uning tashuvchilari (masalan, plastik kartalar) bo‘lishi kerak. Chunki tovarlarni oldi-sotdi paytida ularning ramziy narxlari real pulga aylanmog‘i lozim. Bu jarayonda pul muomala vositasi vazifasini bajaradi. Pulning muomala vositasi sifatidagi vazifasi shundan iboratki, u tovarlar muomalasi jarayonida vositachi bo‘lib maydonga chiqadi.

Dastlab tovarlarni ayribosh qilishda pul bevosita kumush yoki oltin quymalar shaklida mavjud bo‘lgan. Bu hol ayriboshlash vaqtida qiyinchiliklar tug‘dirgan: pul metallni o‘lchash, uni mayda bo‘laklarga bo‘lish, sifatini belgilash zarur bo‘lgan. Asta-sekin pul metall quymalari o‘rniga monetalar ishlatila boshlagan. Monetalari o‘z vazni va sifati jihatidan ma’lum miqdordagi metallardan iborat bo‘lib, ular davlatning alohida muhri bilan tasdiqlangan bo‘ladi.

Oltin pul muomalasi amaliyoti ko‘rsatadiki, uzluksiz muomalada bo‘lish natijasida oltin tangalar yeyilib ketadi, o‘z massasining bir qismini yo‘qotadi va to‘la qiymatli bo‘lmagan pulga aylanadi. Shu sababli, muomalaga oltin o‘rnini bosuvchi pul sifatida to‘la qiymatli bo‘lmagan qiymat belgilari chiqarilgan.

3. Pul muomaladan chiqarilganda boylik to‘plash vazifasini bajara boshlaydi. Har bir tovar ishlab chiqaruvchi o‘zini bozor tasodiflaridan ehtiyot qilish va o‘z tovarini sota olish yoki olmasligidan qat’iy nazar boshqa tovarlarni sotib olish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun o‘zini ma’lum pul rezervi bilan ta’minlashi kerak.

Natural xo‘jalik sharoitida boylik mahsulot jamg‘arish shaklida amalga oshirilgan. Tovar xo‘jaligining rivojlanishi boylik jamg‘a-

rişning pul shaklini keltirib chiqaradi. Tovarlarini cheklanmagan miqdorda saqlab bo'lmaydi, pulni istagan miqdorda saqlash mumkin.

Tovar xo'jaligi taraqqiyotining dastlabki davrlarida pul jamg'arish uni muomaladan chiqarib olish yo'li bilan amalga oshirilgan. Keyinchalik foyda ketidan quvish hukmron ahamiyat kasb etib, bo'sh turgan pul foyda keltirmasligi sababli pul egalari uni harakatga keltirishga, uni foydali joyda ishlatish yo'lini topishga intildilar.

Shuning uchun pul saqlash uchun banklarga qo'yiladi. Banklar esa, ularni bir joyga to'plab, kredit vositasida foydalanadi.

Boylik to'plash vositasini faqat oltin tangalar emas, balki pul materiallari, oltin buyumlar va boshqalar ham uynay oladi.

4. Tovarlar nasiyaga, to'lov muddati kechiktirib sotilganda, pul to'lov vositasi vazifasini bajaradi. Xaridorlar tovarning pulini to'lov muddati kelgandan keyingina to'laydi. Pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasi tovar muomalasi doirasi bilan cheklanmaydi. Pul qarzga berilganda, renta va soliqlarni to'lashda ham to'lov vositasi vazifasini bajaradi. Nima uchun tovarni sotish bilan unga haq to'lash o'rtasidagi vaqt jihatidan ajralish paydo bo'ladi? Buning eng tub sababi ishlab chiqarish sikllarining turlicha davom etishidir. Masalan, qishloq xo'jaligida hosil bir yilda bir marta yig'ib olinadi. Lekin dehqonga butun yil mobaynida turli xil tovarlar kerak bo'ladi. Pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasi bu xil qiyinchiliklarni bartaraf etishga va xo'jalik aylanmasini tezlashtirishga imkon beradi. Shunday qilib, pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasidan qog'oz pullar, veksel va banknotlar kelib chiqqan.

Shunday majburiy to'lovlar: soliq, bojlar, jarima va davlat transferlari amalga oshirilganda to'lov vazifasi namoyon bo'ladi.

Kredit pullar qog'oz pullar bilan qo'shib, tovar muomalasiga xizmat qila boshlaydi. Bu bilan oltinni pul muomalasidan siqib chiqarish yo'lida yana bir qadam qo'yiladi.

Muomala sohasida har doim pul muomalasi qonuni bilan tartibga solinadigan ma'lum miqdordagi pul birligi massasi mavjud bo'lishi zarur. Umumiy holda pul muomalasi qonuni quyidagicha shakllantirilishi mumkin: tovar aylanishiga xizmat qiladigan pul

miqdori tovar massalari narxi summasiga to'g'ridan - to'g'ri, pulning aylanish tezligiga teskari mutanosiblikda joylashadi:

$$P_m = \frac{R}{A_s},$$

bu yerda,

R_m – tovar muomalasi uchun zarur pul miqdori,

R – sotilgan tovarlar narxlari summasi,

A_s – ma'lum vaqt oralig'ida pul birligining aylanishlar soni.

Agar pul miqdori ortgan taqdirda ham iqtisodiyotda tovar massasi doimiy bo'lib qolsa, bu narxlar o'sishini keltirib chiqaradi. Muomalaga yetarlicha pul chiqarilmaganda tovarlar omborlarda to'planib va to'lovlar o'z vaqtida amalga oshmasdan, iqtisodiy o'sish sekinlashuviga olib keladi.

Kreditning va kredit tizimining rivojlanishi bilan pulning to'lov vositasi sifatida qo'llanish sohasi ancha kengaydi, kredit pullarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bir kishi tomonidan boshqa kishiga beriladigan kredit – qarz majburiyatini, vekselni keltirib chiqaradi. Biroq vekselar muomalasi cheklangan, chunki ularga xususiy shaxslar kafolat beradi. Shu tufayli puxtaroq kafolatga obyektiv zarurat kelib chiqadi, buning orqasida banknot paydo bo'ladi. Banknot xususiy shaxsning vekseli o'rniga bank tomonidan beriladigan vekselidir. Shunday qilib, banknot pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasidan kelib chiqadi. Banknotlar bilan bir qatorda muomalaning kredit qurollaridan yana bir turi – cheklar ishtirok etadi. Chek omonat egasi tomonidan o'z hisobidagi puldan chekda ko'rsatilgan shaxsga berish to'g'risida bankka yozilgan buyruqlardir.

Kredit munosabatlarining rivojlanishi naqd pul ishlatmasdan qarz majburiyatlarini o'zaro bir-biriga o'tkazish yo'li bilan qarzlarni uzishga imkon beradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitoblar oltin bilan ta'minlanmagan milliy valutalarda (dollar, marka, iena va h.k.) amalga oshiriladi.

Muomalaga elektron kredit pullarning (veksel, chek, qimmatbaho qog'ozlar) kirib kelish, ya'ni naqd va naqd bo'lmagan pul va kvota pullarni ishlatilishi natijasida pul massasi iborasi qo'llanila boshlandi.

Pul massasini naqd pulga aylantirish imkoniyati turlicha bo‘lib, faqat naqd pulni xohlagan maqsadda ishlatish mumkin.

Tez almashish (likvidlik) tushunchasi, hozirgi zamon qog‘oz pullarini (so‘m, tanga, dollar, lira va h. k.) bevosita sotib olish va har xil to‘lovlarni amalga oshirish kuchiga ega ekanligini bildiradi. Tez almashadigan vositalar, osonlik bilan qo‘yilgan maqsadni ro‘yobga chiqaradi. Masalan, agar sizda ortiqcha yengil avtomashina bo‘lsa, bu umuman xohlagan vaqtda uni sizga kerak bo‘lib qolgan har qanday buyumga almashtirish mumkinligini bildirmaydi. Agar siz ma‘lum miqdordagi pul summasiga (dollar, marka va h. k.) ega bo‘lsangiz, siz har doim ularni har qanday kerakli buyumga ayriboshlay olasiz. Pul mutlaq tez almashish layoqatiga ega bo‘lishi sababli qiymatni saqlashning ideal vositasi hisoblanadi.

Pul – bu ayriboshlashning umumiy tan olingan vositasi. Bu yerda «umumiy tan olingan»²² so‘ziga e‘tiborni qaratish juda muhim.

Shunday qilib, tovar ayriboshlash, ishlab chiqarish va pulning kelib chiqishi hamda tovar - pul muomalasining rivojlanishi bozor va bozor iqtisodiyotining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi va uning rivojlanishiga shart-sharoit yaratdi.

Tayanch tushunchalar

Tovar – biron-bir naflilikka va qiymatga ega bo‘lgan ayriboshlash uchun yaratilgan mahsulotdir.

Natural ishlab chiqarish – bunda mahsulotlar ishlab chiqaruvchining o‘z ehtiyojlarini qondirish, ichki xo‘jalik ehtiyojlari uchun mo‘ljallanadi.

Tovar ishlab chiqarish – bunda tovarlar o‘zining iste‘moli uchun emas, balki bozorda sotish, ayriboshlash uchun va boshqalarning iste‘molini qondirish maqsadida ishlab chiqariladi.

²² U yoki bu ayriboshlash vositasi odatga ko‘ra umuman tan olingan bo‘lib qoladi. Ayriboshlashning «Qonuniy» va «umum tan olingan» vositalari tushunchasini aralashtirib yubormaslik lozim. Ayrim hollarda qonuniy ayriboshlash vositalari umuman tan olinmasligi mumkin. Masalan, muomalaga chiqarilgan qonunlarida muqim.

Naflilik – tovarlarning, kishilarning biron-bir iste'molini qondirish layoqati.

Almashuv qiymati – bu biror turdagi tovarning boshqa turdagi tovarga ayribosh qilinadigan miqdoriy nisbat.

Mehnat unumdorligi – ma'lum vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt bilan aniqlanadi.

Mehnat intensivligi – mehnatning sarflanish tezligi yoki jadalligi.

Hozirgi zamon puli – tovarlarni ayriboshlashda umumiy ekvivalent rolini bajaruvchi, umum ko'pchilik tomonidan tan olingan va davlat tomonidan qonuniylashtirilgan vosita.

Muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy xo‘jalik shakllariga umumiy tavsif bering. Tovar ishlab chiqarish va bozorning vujudga kelishining umumiy shart-sharoitlarini tushuntiring.

2. Nima uchun tovarga naflilik va qiymatning birligi sifatida qaraladi? Tovardagi bu xususiyatlar nimadan kelib chiqadi?

3. Keyingi (oxirgi) qo‘shilgan miqdor (tovar va xizmat) nafliligi nima va uning pasayish sababini tushuntiring.

4. Tovarlarining qiymatini aniqlashga bo‘lgan quyidagi fikrlarga o‘zingizni munosabatingizni bildiring:

a) ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan belgilanadi;

b) keyingi qo‘shilgan tovarlarning nafliligi bilan aniqlanadi;

d) keyingi qo‘shilgan tovarlarning nafliligi va ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi;

5. Pulning mazmunini va vujudga kelishining umumiy shart-sharoitlarini tushuntirib bering.

6. Oltin va qog‘oz pullar o‘rtasidagi umumiylik va farqlarini ko‘rsatib bering: qog‘oz va kredit pullarning qadr-qiymati va barqarorligi nima bilan belgilanadi?

VI bob. BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI

- 1. Bozor iqtisodiyotining vujudga kelishi va uning asosiy modellari.**
- 2. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.**
- 3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari.**
- 4. Bozor tushunchasi, uning vazifalari va turlari.**
- 5. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.**

1. Bozor iqtisodiyotining vujudga kelishi va uning asosiy modellari

Kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida tovar xo‘jaligi ne-gizida bozor iqtisodiyoti vujudga kelib, u borgan sari rivojlanib bo-rishini ko‘rsatdi. XVII–XVIII asrlarga kelib, insoniyat xususiy mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyotiga o‘tdi. Iqtisodiyotda unga xos bo‘lgan tub belgilar sekin-asta shakllanib, pirovard natijada hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga xos yaxlit iqtisodiy tizim tashkil topdi.

Bozor munosabatlari tizimida shunday rag‘batlantiruvchi kuch mavjudki, u muttasil iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlaydi. Bozor tizimining afzalligini Tailand, Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur kabi Osiyo mamlakatlari ham namoyish etdi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish tarixiy obyektiv zarurat bo‘lib, kelajakda ravnaq topishining, oqilona xo‘jalik yuritishga erishishning samarali yo‘li hisoblanadi.

XX asrga kelib bozor iqtisodiyotiga o‘tish global, ya’ni umumjahon voqeligiga aylandi. Bu jarayon murakkab bo‘lib, har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinib va turli modellari asosida amalga oshadi. Har bir mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o‘tishining o‘ziga xos yo‘li quyidagi omillarga bog‘liq: geografik o‘rni, tabiiy resurslarning mavjudligi va ularning zaxirasi, tarixiy taraqqiyot darajasi, aholining an‘analari va urf-

odatlarini, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot yoʻnalishi.

Ayni vaqtda bozor iqtisodiyoti umumiy tomonlarga ham ega boʻlib, bular: turli-tuman mulkchilikka asoslanganligi, tovar va xizmatlarga erkin narxlar ustunligi, raqobat kurashiga asoslanishi, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maʼlum tizimi mavjudligi va shu kabilarda namoyon boʻladi.

Shu sababli, bozor iqtisodiyoti alohida mamlakatlarning xususiyatlari va umumiy tomonlarining oʻziga xos qorishmasidan iborat iqtisodiy tizim boʻlib, iqtisodiy fanda har xil model tarzida ifodalanadi.

Bunda bozor iqtisodiyoti modellarini ajratishga bir qator mezonlar asos qilib olinadi. Ularning asosiylari quyidagilar:

- Davlat ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarining maqsadi, yoʻnalishi;
- Iqtisodiyotni tartibga solish usullari;
- Iqtisodiyotda davlat sektorining ulushi;
- Ish haqidagi farq va boshqa shu kabilar.

Bozor iqtisodiyot modellari²³

6.1-jadval

T/r №	Model turlari	Asosiy tavsifiy belgilari
1	Amerika	Davlatning tartibga solish roli eng kam darajada boʻlishi; Tadbirkorlikning har tomonlama ragʻbatlantirilishi; Aholi daromadlarining sezilarli darajada tabaqlanishi
2	Yaponiya	Davlatning iqtisodiyotga taʼsiri yuqori darajada; Ish haqi darajasidagi farqlar sezilarsiz
3	Shved	Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ijtimoiy yoʻnaltirilganligi, kam taʼminlangan aholi qatlamini qoʻllab-quvvatlash;

²³ Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб. – метод. пособие. – М: Финансы и статистика. ИНФРА – М., 2009. с 17.

		Iqtisodiyotda davlat sektorining yuqori salmoqqa egaligi
--	--	--

6.1-jadvalning davomi

4	Fransuz	Davlatning tartibga solishdagi yuqori roli; Davlat tadbirkorlik faoliyatini qo‘llashning ancha kengligi
5	Janubiy Koreya	Moliya-kredit sohasida davlat monopoliyasi; Eksportni rag‘batlantirish va importni cheklash
6	Xitoy	Markazlashgan rejali iqtisodiyot modelidan «sot-sialistik rejali tovar iqtisodiyoti» modeliga o‘tish; Bozorlar (fond, tovar ishchi kuchi va boshqalar) tizimining yaratilganligi
7	Rossiya	Markazdan boshqarish va bozor mexanizmining uyg‘unlashganligi; Aholi ijtimoiy himoyalanganligining yetarlicha yuqoriligi

Bozor munosabatlarining yetuklik darajasiga ko‘ra bozor iqtisodiyotining quyidagi asosiy modellari ajratib ko‘rsatiladi:

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi bozor iqtisodiyoti: a) bozor infrastrukturasi yaratish; b) iqtisodiyotni barqarorlashtirish; d) sanoat tarmoqlarini (ayniqsa qayta ishlovchi) vujudga keltirish orqali yuz beradi.

O‘zining yorqinligi, samaradorligi, erishgan yutuqlari bilan jahon iqtisodiyoti taraqqiyoti tarixiga kirgan modellar «Amerika», «Yaponiya», «Germaniya», «Shvetsiya», «Janubiy Koreya», «Xitoy» modeli va boshqalar hisoblanadi.

«**AQSH modeli**» liberal model sifatida tavsiflanadi. Amerikacha andozaning o‘ziga xos xususiyati uning tadbirkorlikni aholi orasida keng yoyishga, ommaviylikka erishishni ta’minlashga asoslanganligidadir. U jamiyat a’zolaridan har birining ishbilarmonlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy faoliyatni, xususiy manfaatdorlikni oshirish uchun keng shart-sharoit yaratishga qaratilgan.

«**Yaponcha model**» – bu ikkinchi jahon urushida vayronaga aylangan mamlakat aholisining qattiq mehnati hisobiga, hokimiyatni har tomonlama va so‘zsiz qo‘llab-quvvatlashi, vatanparvarlik

tuygʻusi asosida yaratilgan. Yaponiya harbiy xarajatlardan voz kechgach, tinchlik maqsadida barcha resurslarni toʻplash va ishlatish hamda sanoatda iqtisodiy potensialni oʻstirish imkoni yaratildi. Eng avvalo, ishlab chiqarish eksportga moʻljallanib, valuta topildi, uning evaziga xorijiy mamlakatlardan, ayniqsa Amerika va Gʻarbiy Yevropadan eng yangi texnika, texnologiya, litsenziya, patent, «nou-xau» sotib olinib, yuqori mehnat unumdorligiga erishildi, tadbirkorlik qoʻllab-quvvatlandi. Jahon bozorida xomashyo va yoqilgʻining arzonlashuvi, nisbatan arzon ish kuchi, katta harbiy xarajatlarning yoʻqligi Yaponiya eksportining ortib borishiga olib keldi. Bu borada yirik kompaniyalarni qoʻllab-quvvatlash, mamlakatda ilmiy texnikaviy taraqqiyotga alohida ahamiyat berilishi katta rol oʻynaydi.

Aholining tabaqalanishi dastlab kuchaygan boʻlsa, maqsadga erishilgach, ularning ehtiyojmand qismiga davlat va firmalar yordami kuchaytirildi va natijada umumiy farovonlikka erishildi.

«**Shved model**» – uning boshqa modellardan farq qiluvchi xususiyati ijtimoiy yoʻnaltirilganligi, mulkdagi notenglikni qisqartirishga qaratilganligidir. Aholining kam taʼminlangan qatlami himoya qilinadi. Ishsizlikni kamaytirish chora-tadbirlari koʻriladi. Bu andozaning shakllanishida Shvetsiyaning tarixan iqtisodiy jihatdan yuksak rivojlanganligi va kasaba uyushmalarining jamiyatda, ayniqsa ishlab chiqarishda katta oʻrin tutishi alohida ahamiyatga ega boʻlgan.

«**Nemis model**» – ijtimoiy yoʻnaltirilganligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy bozor iqtisodiyotining bosh gʻoyasi Lyudvig Erxardga (1897–1977) tegishli.

Dastlab, Erxard industriallashtirish rejasini ishlab chiqdi. Unda sanoat mahsulotini 1936-yilga nisbatan 65%, 1938-yilga nisbatan esa 50-55% ga koʻpaytirish rejalashtirilgan. Bundan tashqari pul islohoti, narx-navo islohoti oʻtkazish, davlatning iqtisodiyotdagi aralashuv darajasiga alohida eʼtibor qaratilgan.

Ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyoti konsepsiyasi mazmunan faqat iqtisodiyotga tegishligina emas, balki unda insonning erkinligi masalalari ham ilgari surilgan.

«**Janubiy Koreya modeli**» – Shunisi bilan qiziqarliki, u Janubiy Koreyani qisqa muddat ichida rivojlanish darajasi past

boʻlgan mamlakatlar safidan rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqdi. 1962-yili iqtisodiy islohotlar boshlanayotgan paytda aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan daromad 82 dollarga teng boʻlgan boʻlsa, 1996-yilga kelib 10,6 ming dollarga yetdi.

Markazlashtirilgan tarzda uzoq va oʻrta muddatli rejalar, maqsadli dasturlar tuzish, ularning bajarilish muddatlarining belgilanishi, xoʻjalik yuritishda bozor uslublarini qoʻshib olib borish Janubiy Koreyaga qisqa muddatlarda rivojlangan mamlakatlar safiga qoʻshilib, jahon sivilizatsiyasida oʻziga xos munosib oʻrinni egallash imkonini beradi.

«**Xitoy modeli**» – iqtisodiyotni qayta qurish qishloq xoʻjaligini isloh qilishdan boshlandi. Qishloq xoʻjaligida xalq kommunallari asosiy xoʻjalik yurituvchi subyekt boʻlib, davlat pudrat tizimi barpo qilindi. Bu tadbirlar 1984-yil oxiriga kelib yakunlandi. Oilaviy pudrat, dehqon xoʻjaligini bir oila aʼzolari tashkil etib, foydalanish uchun yerlar 15-20, baʼzi joylarda 30 yilga berilgan. Yerga bir yoki bir necha oila tomonidan oʻzi egalik qilayotgan texnika, asbob-uskuna yordamida ishlov beriladi. Dehqonlar ishlab chiqargan mahsulotlarning bir qismini davlatga shartnoma asosida va soliq hisobida topshiradilar, boshqa bir qismini mahalliy fondga topshirib, qolgani oʻz ixtiyoriga koʻra erkin narxda davlatga yoki bozorda sotishlari mumkin.

Shunday qilib, har bir mamlakatning bozor munosabatlarini shakllantirishdagi boshqa mamlakatlar bilan oʻxshashlik tomonlariga qarab, ularni bozor iqtisodiyotining u yoki bu modeliga kiritish mumkin. Shu bilan birga har bir mamlakat oʻziga xos xususiyatlar bilan boshqalardan farq qilar ekan, bozor iqtisodiyotiga oʻtishda oʻz yoʻliga va oʻz modeliga ega boʻladi.

2. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari

Bozor iqtisodiyoti – xususiy mulk ustuvorlikka ega boʻlgan, iqtisodiy jarayonlar bozor mexanizmi yordamida uygʻunlash-tiriladigan va tartibga solinadigan iqtisodiy tizimdir. Bunday iqtisodiyot erkin tovar-pul munosabatlariga asoslanadi, uning negizida tovar va pulning turli shakllaridagi harakati yotadi, iqtisodiy monopolizmni inkor etadi. Hozirgi zamon iqtisodiy

nazariyalarida bozor iqtisodiyoti deganda bozor xo‘jaligi subyektlari iqtisodiy xatti-harakatlarining erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularning tovar-pul mexanizmi orqali bir-biriga bog‘lanib muvofiqlashuvi tushiniladi. Bozor iqtisodiyotida bozor aloqalari uning butun tizimni, takror ishlab chiqarish bosqichlari va jarayonlarini hamda iqtisodiy munosabatlarining barcha subyektlarini qamrab oladi.


Bozor iqtisodiyoti subyektlari tarkibi turli - tuman bo‘lib, uning barcha subyektlari uch turga ajratiladi.

1. Uy xo‘jaliklari – iqtisodiyotning iste’mochilik sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi asosiy tarkibiy birlik. Uy xo‘jaliklari doirasida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida yaratilgan pirovard tovar va xizmatlar iste’mol qilinadi. Bozor iqtisodiyotida uy xo‘jaliklari mulkdor va ishlab chiqarish omillarini yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlari shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun sarflanadi.

2. Tadbirkorlar sektori – bu daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi iqtisodiyotning birlamchi bo‘g‘inlaridir. U ish yuritish uchun o‘z kapitalini yoki qarzga olingan kapitalni ishga solishni taqozo etadi va undan olingan daromad ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun sarflanadi. Tadbirkorlar bozor xo‘jaligida tovar va xizmatlarni yetkazib beruvchi hisoblanadi.

3. Davlat – foyda olishni maqsad qilib qo‘ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi muassasalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Har qanday bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmi asosan to‘rtta tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi: narx, raqobat, talab va taklif.



6.1-chizma. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari.

Narxlar nisbati o'zgarib turadi, shuning uchun u, ishlab chiqaruvchi uchun ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi zarurligini aniqlashda yo'l ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Talab va taklif hamda raqobatchilik muhitidagi o'zgarishlar, o'z navbatida, narxlardagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Bozor iqtisodiyotining muhim belgilari quyidagilardan iborat:
turli shakllardagi mulkchilikning mavjudligi hamda xususiy mulk ustuvorligi;

tadbirkorlik, tanlovi va narxlar erkinligi;

iqtisodiy manfaatlar rag'batlantirilishi;

davlatning iqtisodiyotga cheklangan holda aralashuvi.

Bozor iqtisodiyotining bu belgilari uning hamma bosqichlari uchun umumiydir. Lekin bozor iqtisodiyotining mazmuni va belgilari haqida gap borganda bu iqtisodiyotning tarixda tarkib topgan ikki turini bir-biridan farq qilish zarur. Uning birinchi ko'rinishi uzoq vaqt davomida shakllandi, g'arbdagi rivojlangan mamlakatlarda XIX asrning oxirlarigacha davom etib keldi. U iqtisodiy adabiyotlarda klassik yoki sof bozor iqtisodiyoti deb nom oldi. Uning asosiy belgilari: a) xususiy mulkchilikka asoslangan holda iqtisodiy faoliyat yuritish; b) kapital va ishlab chiqarishning korxonalar miqyosida umumlashganligi; d) tadbirkorlar, ishchilar, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning shaxsiy erkinligi; e) tadbirkorlarning yuqori foyda olish uchun kurashlari; f) iqtisodiyotining talab va taklif, erkin bozor narxi va raqobat kurashlari

asosida tartiblanishi; g) ishsizlikning va aholi ijtimoiy tabaqalashuvining kuchayishi.

Bozor iqtisodiyotining ikkinchi ko‘rinishi hozirgi zamon rivojlangan aralash iqtisodiyot deb atalib, XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridan amal qiladi. Uning asosiy belgilari:

Mulkchilikning turli shakllariga, asosan, iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyatining yuritilishi;

Kapital va ishlab chiqarishning yuqori darajada umumlashganligi, mulkning bir qismi monopoliyalar va davlat qo‘lida to‘planib, milliy va xalqaro miqyosda umumlashganligi;

Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki. Bunda davlat fan-texnika taraqqiyoti va boshqa omillarni hisobga olib, turli iqtisodiy tadbirlarni, rivojlanish istiqbolini aniqlash, turli sohalar va tarmoqlar o‘rtasidagi nisbatlarni tartibga solish chora-tadbirlarini belgilash vazifalarini bajaradi;

Xo‘jaliklarni yuritishda reja usulidan foydalanishning kuchayishi (biznes rejasi, marketing tizimi orqali boshqarish);

Ijtimoiy himoyaning kuchayishi. Bunda turli xil davlatga, jamoalar va xususiy kishilarga tegishli ijtimoiy ta‘minot va ijtimoiy sug‘urta fondlarining vujudga kelishi.

Bu ikkala turdagi bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari va xususiyatlari saqlanib qoladi, ularda tovar va pulning harakati, rivojlanish uchun negiz va shart-sharoit bo‘lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotida yuqorida tilga olingan belgi va tartiblar bilan birga, barcha hozirgi zamon iqtisodiy tizimlariga xos bo‘lgan bir qator shart-sharoitlar bo‘lishini taqozo qiladi. Bular quyidagilar: ilg‘or texnologiya va yangi texnik vositalardan keng miqyosda foydalanish, ishlab chiqarishni ixtisoslashishi va kooperatsiyasi; pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy vositalarning qo‘llanishi.

3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari

Bozor iqtisodiyotida beshta asosiy muammosi mavjud bo‘lib, ular o‘z yechimiga ham ega.

Bular quyidagilar:

1. Nima ishlab chiqarish zarur? Foyda keltiradigan tovarlar ishlab chiqariladi, zarar keltiradiganlari ishlab chiqarilmaydi.


2. Qanday ishlab chiqarish zarur? Yangi texnika va texnologiyaga asoslangan korxonalarda ishlab chiqarish zarur.

3. Qancha ishlab chiqarish zarur? Iqtisodiy resurslar va ehtiyojlar taqozo qiladigan miqdorda ishlab chiqariladi.

4. Kim uchun ishlab chiqarish zarur? Aholining alohida tabaqalari (yuqori, oʻrta va kam taʼminlanganlar) talabini hisobga olib ishlab chiqarish tashkil qilinadi.

5. Iqtisodiy tizim roʻy beradigan oʻzgarishlarga moslasha oladimi? Bunda mavjud iqtisodiy tizim bozor iqtisodiyoti muhitiga moslasha olishlik darajasi hisobga olinadi.

Foyda olish yoki zarar koʻrish mumkinligini korxonada umumiy daromadlarini barcha xarajatlari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.



Bozor iqtisodiyotining afzalliklaridan uchta eʼtiborga loyiqdir.
Bular:

1. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi. Bozor tizimi resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Uning mazmuni shundan iboratki, raqobatli bozor tizimi resurslarni jamiyatga eng zarur boʻlgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yoʻnaltiradi. U ishlab chiqarish uchun resurslarni uygʻunlashtirishning ancha samarali usullarini va ishlab chiqarishga yangi, ancha samarali texnologiyani qoʻllashni taqozo etadi. Umuman, bozor tizimi shaxsiy manfaatni shunday tartibda boshqaradiki, u jamiyat uchun mavjud resurslardan zarur tovarlarni talab darajasiga mos miqdorda ishlab chiqarishni taʼminlaydi.

2. Erkinlik. Bozor iqtisodiy tizimining muhim afzalliklaridan biri, u shaxsiy erkinlik roliga ustuvorlik beradi. Koʻplab ayrim shaxslar va korxonalar iqtisodiy faoliyatini uygʻunlashtirish va tashkil qilish bozor iqtisodiyotining asosiy muammolaridan biridir. Bunday uygʻunlashtirishni amalga oshirishning samarali usuli bozor tizimi vositasi orqali erkin hamkorlikdir. Faqat bozor tizimi

iqtisodiy faoliyatni erkinlik qoidalari asosida uyg'unlashtirishga layoqatlidir. Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlik va tanlash erkinligini namoyish qiladi, xususan shu asosda u muvaffaqiyatga erishadi.

3. Bozor iqtisodiyotining yana bir afzalligi shundaki, u iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Bunda har bir subyekt tinimsiz harakatda va iqtisodiy faol bo'lishini taqozo etadi. Chunki xo'jasizlik, sustkashlik, beg'amlik har qanday xo'jalik tizimini parokandalikka yuz tutishiga olib keladi. Raqobatga bardosh berish, doimiy ravishda foyda olishni ta'minlash uchun kurash iqtisodiyot subyektlarini harakatga soladi, ularni boqimandalik kayfiyatidan qutqaradi.

Bozor iqtisodiyotining kamchiligi shundaki, u o'zining bosh nazorat mexanizmi – raqobatning kuchsizlanishiga yo'l qo'yadi va hatto buni rag'batlantiradi.

Bozor iqtisodiyotidagi erkin muhitda tadbirkorlar foyda ketidan quvib va o'z iqtisodiy mavqeini yaxshilashga intilib, raqobatning cheklangan yo'lidan ozod bo'lishga harakat qiladilar. Firmalarning qo'shib ketishi, kompaniyalarning xufyona kelishuvi, shafqatsiz raqobat – bularning hammasi raqobatning kuchsizlanishi va uning tartibga soluvchilik ta'sirining pasayib borishiga olib keladi.

Bozor tizimi rag'batlantiradigan texnika taraqqiyoti ham raqobatning zaiflashishiga olib keladi. Eng yaxshi texnologiya odatda: a) juda katta miqdordagi real kapitaldan foydalanishni; b) yirik bozorlar bo'lishini; d) kompleksli, markazlashgan va bir butun bo'lib birlashgan bozorning tarkib topishini; e) boy va ishonchli xomashyo manbalarini talab qiladi. Bunday texnologiya bozorning hajmiga nisbatan keng miqyosdagi ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lishi zarurligini bildiradi. Boshqacha aytganda, eng yangi texnologiyani qo'llash asosida ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishish, ko'pincha ko'p miqdordagi kichik firmalar emas, balki uncha ko'p bo'lmagan yirik ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyotining navbatdagi kamchiligi jamiyat a'zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayib borishi va aholining ta-baqalanishi bilan bog'liq. Bunday iqtisodiyot har qanday yuksak darajada rivojlanmasin, daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi, faqat uni ma'lum darajada yumshatishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotining umumiy e'tirof etilgan kamchiliklaridan biri shundan iboratki, u ijtimoiy iste'mol qilinadigan ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarib, bozorga taklif qilishga qodir emas. Shu sababli, jamiyat a'zolarini bunday ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlash davlat zimmasida bo'ladi.

Tovarlar hajmi bilan pul massasi o'rtasidagi ro'y berib turadigan nomuvofiqlikni bartaraf eta olmasligi ham bozor iqtisodiyotining kamchiligi hisoblanadi va bu – pulning qadrsizlanishi – inflatsiya bilan birga boradi.

4. Bozor tushunchasi, uning vazifalari va turlari

Bozor tushunchasi ko'pincha tovarlar sotiladigan va xarid qilinadigan joy sifatida talqin qilinadi. Lekin uning ichki mazmuniga e'tibor berilsa, u ko'p qirrali bo'lib, turli davrlarda turli ma'noni anglatishini bilib olish mumkin. Bozor tushunchasi tovar ayriboshlashning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, u ibtidoiy jamoa tuzumining oxirlarida kelib chiqqan va dastlab tovar ayriboshlash joyi yoki maydonini anglatgan.

Dastlab bozor tovar almashuv joyi sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, hunarmandchilikning rivojlanishi, shaharlarning kelib chiqishi bilan alohida maydonlar ajratilib, «bozor joyi» deb e'lon qilingan. Shu maydonda kishilar oldi-sotdi qilishgan. Lekin hali u davrlarda tovar ayriboshlash T-T ko'rinishida, ya'ni bir tovarga boshqa tovarni ayriboshlash shaklida bo'lib, o'z tovarini boshqa tovarga ayriboshlashda vaqt va makonda, birdaniga bir vaqtning o'zida o'sha joyda sodir bo'lgan. Lekin tovar ayriboshlash rivojlanib borishi natijasida pulning kelib chiqishi bilan sotish va sotib olish ikki xil jarayonga bo'lingan va T-P-T ko'rinishida ro'y bera boshlagan. Endi tovarni sotish T-P va sotib olish P-T zamon va makon jihatdan bir vaqtda bo'lmasligi mumkin. Chunki sotuvchi o'z tovarini bir joyda sotib pul qilib, boshqa joyda kerakli tovarni sotib olishi mumkin. Pulning kelib chiqishi bilan savdogarlar, ya'ni tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olib iste'molchiga, bir joydan olib ikkinchi joyga sotish bilan shug'ullanadigan maxsus qatlamlar paydo bo'lgan.

Mehnat taqsimoti chuqurlashib yana bir soha, savdo sohasi vujudga kelgan. Bu soha tovar-pul harakatini tezlashtirish imkonini berib, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchini bog'laydigan vositaga aylandi. Bunda ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi ham bir-birlari bilan uchrashishi shart bo'lmay qoldi. Ular savdogarlar-vositachilar orqali savdo bitimlari qilishlari mumkin bo'lib qoldi. Endi bozor tushunchasining mazmuni o'zgarib, yangi ma'no kasb etadi, ya'ni tovar-pul muomalasining yangi shakli sifatida namoyon bo'la boshladi. Oldi-sotdi jarayonida yangi o'ziga xos muhim tovar – ishchi kuchining paydo bo'lishi bilan bozor umumiy tus olib, uning mazmuni yanada kengaydi. Endilikda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga emas, balki ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi ham bozor jarayoni orqali o'tib, ishlab chiqarishga jalb etilib boradigan, ularning bir-biriga o'zaro ta'siri to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita, bozor orqali sodir bo'la boshlaydi.

Shunday qilib, hozirgi davrda bozor ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarning ko'p qirrali murakkab aloqalarini bog'laydigan, ularning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlaydigan jarayon sifatida shakllandi.

Bozor – bu ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) bilan iste'molchi (xaridor)ni bir-biriga bog'laydigan, ayriboshlash jarayoniga xizmat qiladigan tartiblar, mexanizmlar va muassasaviy tuzilmalardir.

Bozorning asosiy mazmuni sotuvchi va xaridorlarning o'zaro kelishuvi, ekvivalentlilik prinsipi asosida ayriboshlash, ishlab chiqaruvchilarning xarajatlari qoplanib, foyda olishi va to'lovga qodir bo'lgan iste'molchilar talabining qondirilishi va raqobatchilik muhitining mavjud bo'lishidan iboratdir. Ayrim mualliflar bozorni sotuvchi va xaridorlar tartibsiz to'planib, juft-juft, to'p-to'p, guruh-guruh bo'lib oldi-sotdi qiladigan joy deb hisoblasalar, ayrimlari uni kishilarga rizqu ro'z ulashadigan fayzu barakotli, sirli dasturxon deb ataydilar²⁴.

Bu ta'riflar ma'lum darajada bozorning ijobiy yoki salbiy tomonlarini va uning oldi-sotdi qilish joyi ekanligini ifoda etsa-da, shu bilan birga mazkur tushunchaga bir tomonlama, yuzaki qarash

²⁴ Алимов Б., Шодиев М., Расулов Т., «Шарқона бозор фазилатлари». Т., «Университет», 1996-йил, 17 бет.

natijasi hisoblanib, uning haqiqiy ichki mazmunini, vazifalarini, tutgan oʻrnini ifodalab bera olmaydi.

Bozor ishlab chiqaruvchi va isteʼmolchilar, (sotuvchi va xaridorlar) oʻrtasida pul orqali ayriboshlash (oldi-sotdi) jarayonida boʻladigan iqtisodiy munosabatlar yigʻindisidir. Bunda bozorning moddiy asosini joy emas, balki tovar va pulning harakati tashkil etadi.

Bozorda oldi-sotdi jarayonidagi zarur boʻlgan xizmatlar bajariladi. Har bir bozor subyektini oʻzi ishlab chiqargan tovar yoki xizmat turini sotadi va oʻziga kerakli boʻlgan tovar turlarini sotib oladi. Bu oldi-sotdi jarayonida bozor subyektlari, yaʼni oldi-sotdi qilayotgan kishilar bir-birini koʻrmasliklari, tanimasliklari ham mumkin. Ular turli hujjatlar, shartnomalar, tovar namunalari binoan vositachilar orqali savdoni amalga oshirishlari mumkin. Bozorga sotishga chiqarilgan tovar va xizmatlar talabga nisbatan kam boʻlsa narxlar oʻsib ketadi, ayriboshlashning ekvivalentlik muvozanati buziladi, natijada tovarni sotuvchi meʼyorida ortiqcha daromad olib, tez boyiydi yoki aksincha, bozorda tovarlar miqdori unga boʻlgan talabdan oshib ketsa, narxlar pasayib ketib, sotuvchilar zarar koʻradilar.

Shunday qilib, bozorda katta foyda olish yoki zarar koʻrish sababini tovarlarni ayriboshlash jarayonida kishilar oʻrtasida yuz beradigan munosabatlardan qidirib topish lozim, savdo boʻlayotgan joyda, bozor maydonida hech qanaqa sir-asror yoʻq. Oziq-ovqat va qishloq xoʻjalik mahsulotlari doʻkoni, avtomobilga servis xizmat koʻrsatish va yoqilgʻi quyish tarmogʻi, sanoat tovarlari doʻkoni, tijoratchilarning savdo shaxobchalari, turli xil supermarketlar, yirik savdo markazlar va savdo yarmarkalari, umumiy ovqatlanish korxonalarini, auksionlar, birjalar bularning barchasi bozorning odatdagi koʻrinishlari hisoblanadi. Fond, don birjalari, chet el valutalari bozori, auksionlar yuqori darajada rivojlangan bozorlar boʻlib, ularda sotuvchi va xaridorlar bir-biri bilan aksiya, obligatsiya, milliy valuta va qishloq xoʻjalik mahsulotlari orqali bogʻlanadi. Bozorning ayrim turlari sotuvchi va xaridorlar oʻrtasidagi oʻzaro aloqa bilan farqlansa, boshqalarida ular hech qachon bir-birini koʻrmaydi yoki bilmaydi. Shunga muvofiq bozor aloqalari bevosita va bilvosita aloqalarga boʻlinadi. Bozorning har

qanday turidan qat'i nazar uning ishtirokchilari uy xo'jaliklari, turli xil korxonalar va davlat tashkilotlaridir. Bozor subyektlari ikki toifaga – sotuvchi va xaridorlarga bo'linib, ular bozorda turlicha mavqega ega bo'ladi. Sotuvchilar bozorga tovar va xizmatlarni taklif etadi, xaridorlar esa ularga talab bildiradi. Bozor o'z subyektlari manfaatini bir-biriga bog'lab, ularni muvofiqlashtiradi.

Bozorning asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarni iste'molchilarga, iqtisodiy resurslarni ishlab chiqaruvchilarga yetkazib berishdan iboratdir. Bu yerda bozor ishlab chiqarish bilan iste'molni bir-biriga bog'laydi, ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmat o'z iste'molchisini topadi. Bunda bozor vositachi bo'lib xizmat qiladi. Bozorda qiymat shakllari almashadi. U qiymatni tovar shaklidan pul shakliga aylantiradi.

Bozor ishlab chiqarishning uzluksiz takrorlanib turishiga yordam beradi. Ishlab chiqarish yangidan boshlanishi uchun yaratilgan tovarlar sotilib pulga aylanishi, unga esa kerakli iqtisodiy resurslar xarid qilinishi zarur. Bozor vositasida tovarni sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga, ishlab chiqaruvchilar resurslar sotib olish yo'li bilan sarflangan ishlab chiqarish vositalari o'rnini qoplaydigan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kerakli moddiy va mehnat resurslariga ega bo'ladilar. Bozor orqali resurslarning erkin harakati ta'minlanadi va ularning tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishi ro'y beradi. Iste'molchilar bozorda u yoki bu tovarga bo'lgan talabini namoyon qiladi. Bozor bu talabni ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilarga uzatadi. Resurslar talab bildirilgan tarmoqlar va sohalar o'rtasida taqsimlanib turadi.

Bozorning iqtisodiyotni tartibga solib turish vazifasini talab, taklif, raqobat va narxlar yordamida bajariladi. U o'zida talab va taklifni jamlab, bu bilan nimani, qancha miqdorda va qaysi vaqtda ishlab chiqarish kerakligini aniqlab beradi. Bozor narx vositasida iqtisodiy resurslarni tovarlarga talab kamaygan tarmoqlardan talab ortgan tarmoqlarga oqib kelishini ta'minlaydi.

Bozor orqali mahsulot ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar hisobga olinadi. Aynan bozor jamiyat sotib olish mumkin bo'lgan

mahsulot xarajatlarini aniqlaydi va u narxi bilan qoplangandagina ishlab chiqariladi.

Bozor tovarlarga narx shakllantirish va ishlab chiqaruvchilarni tabaqalashtirish vazifasini ham bajaradi.

Bozor turli xil vazifalarni bajarsa-da, ular o‘zaro bog‘liq va bir-birini taqozo qiladi.

Hozirgi davr bozori bir qator tartiblarga asoslanadi:

– xo‘jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyat erkinligi va uning natijalari uchun javobgarligi;

– talab va taklif nisbatiga asoslangan narxning erkin shakllanishi;

– resurslarni yetkazib beruvchi, ishlab chiqaruvchi va iste’molchilar o‘rtasida raqobat mavjudligi;

– davlatning xo‘jalik yurituvchilar faoliyatiga eng kam darajada aralashuvi.

Sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bozor quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

– ommaviy ishlab chiqariladigan tovarlar bilan to‘yinganligi, ularning qat’iy ravishda alohida guruh iste’molchilar ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilganligi;

– iste’molchilarning eng murakkab talabiga javob berishga layoqatli, moslashuvchan ishlab chiqarish mavjudligi;

– ishlab chiqaruvchilar maqsadli vazifasining o‘zgarib turishi. Ular raqobatbardoshlikni ushlab turish uchun mahsulotni modifikatsiyalash, uning sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va bozorni kengaytirishdan manfaatdorligi;

– tadbirkorlik faoliyati shakllari o‘zgarishining ro‘y berib turishi. Jumladan, yetakchi g‘arb mamlakatlari iqtisodiyotida XX asr 70-yillari o‘rtalaridan boshlab yirik korporatsiyalar bilan birga kichik biznes ham muhim rol o‘ynay boshlagan;

– yollanma xodimlarning boshqarish va korxonada mulkida qatnashishni taqozo qiluvchi mehnat munosabatlari yangi turining qaror topishi;

– iqtisodiyotga energiya va material tejoychi tavsif xosligi;

– “xizmat sig‘imli” iqtisodiyot shakllanish jarayonining kuchayib borishi. Jumladan, AQSH YaIM qiymatida xizmatlar qiymati ulushi 60 foizdan ko‘proqni tashkil qiladi.

Bozorning ichki tuzilishi murakkab bo'lganligi sababli uni turkumlashga har xil mezonlar asos qilib olinadi. Bular bozorning yetuklik darajasi, sotiladigan va sotib olinadigan mahsulot turi, bozor subyektlari xususiyatlari, uning ko'lami, iqtisodiy aloqalar xarakteri va boshqalar. Bozor yetuklik darajasiga qarab rivojlanmagan klassik (erkin) va hozirgi zamon rivojlangan turlarga bo'linadi. Rivojlanmagan yoki shakllanayotgan bozor ko'proq, tasodifiy xarakterga ega bo'lib, unda barter ayriboshlash usuli ko'proq qo'llaniladi. Bozorning bu turi tarixan hali pul kelib chiqmagan davrga to'g'ri keladi. Lekin hozirgi davrda ham ayrim mamlakatlarda pul inqirozga uchrab, ijtimoiy ishonchni yo'qotgan, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davrlarda ham bu turdagi bozor amal qilishi mumkin. Erkin bozorda tovar va xizmatlarning har bir turi bo'yicha juda ko'p ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, mavjud bo'lib, ayriboshlash jarayonida ular o'rtasida erkin raqobat kelib chiqadi, narxlar talab va taklif o'rtasidagi nisbatga qarab erkin shakllanadi, raqobatning turli usullari qo'llaniladi, aholi va ishlab chiqaruvchilar keskin tabaqalashadi. Hozirgi zamon rivojlangan bozori — bunda davlat ham bozor ishtirokchisi bo'lib, u ancha tartiblashtiriladi va boshqariladi, turli xil birjalar va boshqa oldi-sotdi jarayoniga xizmat qiluvchi sohalar rivojlangan bo'ladi, raqobat kurashlari, aholining tabaqalashuvi yumshatilib, ularning daromadlari darajasi o'rtasidagi farqlar kamayadi. Bozor hududiy jihatdan mahalliy, milliy, mintaqaviy va nihoyat jahon bozoriga ajratiladi.

Sotiladigan va sotib olinadigan obyekt turiga ko'ra bozorlar quyidagi turlarga bo'linadi: iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi (resurslar) bozori, valuta bozori va fond birjalari, ilmiy-texnik kashfiyot va ishlanmalar bozori.

Muomalaga chiqadigan subyektlarning xususiyatiga ko'ra, ulgurji va chakana savdo to'g'risida so'z yuritiladi. Chakana savdoda asosan sotib oluvchilar fuqarolar hisoblanadi. Tashkilot va muassasalar esa sotuvchi hisoblanadi. Ulgurji savdoda davlat tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish alohida o'rin tutadi. Bunda asosiy xaridor davlat, sotuvchilar esa fermerlar, shaxsiy, kooperativ va davlat xo'jaliklaridir.

Shuningdek, mulk shakli bo'yicha davlat va kooperativ savdo, dehqon bozori ham farqlanadi. Davlat savdosini davlat, kooperativ savdoni kooperatsiyalar amalga oshiradi. Dehqon bozorida savdoni alohida fuqarolar, jamoa va fermer xo'jaliklari hamda boshqa kooperativlar amalga oshiradi.


Tovar va xizmatlar bozori bozorning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu bozorda xo'jalik subyektlarining barcha uchta turi: fuqarolar (uy xo'jaliklari) davlat va korxonalar qatnashadi.


Iste'mol tovarlari va xizmatlari bozorining alohida turi intellektual tovarlar bozoridir. Bu bozorda aqliy mehnat mahsuli bo'lgan tovarlar - ilmiy g'oyalar, texnikaviy yangiliklar, san'at va adabiyot asarlari, har xil axborotlar oldi-sotdi qilinadi. Intellektual bozor tarkibida ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni ayriboshlash katta o'rin tutadi. U amalda patent, litsenziya va nou-xau sotishdan iborat bo'lib, bu bozorda asosan innovatsiya firmalari ish ko'radi. Mazkur firmalar yangiliklarni topish, bozorda sotish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha xizmat ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish vositalari (resurslar) bozorida tovar sifatidagi mehnat vositalari va materiallar oldi-sotdi qilinadi. Bu bozorda mashina, asbob-uskuna, xomashyo, yoqilg'i va materiallar kabi ishlab chiqarish vositalari yirik hajmda ulgurji sotiladi. Resurslar bozoridagi tovarlar shaxsiy iste'molga emas, ishlab chiqarish iste'moliga xizmat qiladi, ya'ni ishlab chiqarish talabini qondiradi.

Ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha don, avtomobil, yoqilg'i va shu kabi bozorlar farqlanadi.

Bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar iste'mol tovarlari va resurslar bozori orqali ancha to'liq va yorqin namoyon bo'ladi.





Iste'mol tovarlari va resurslar bozori (bozor subyektlari o'rtasida resurslar, mahsulot va daromadlar harakati)

Bu doiraviy aylanishlar modeli ko'inishini oladi. Doiraviy aylanishlar modeli bu – iqtisodiy resurslar, mahsulotlar va pul mablag'lari (daromadlar va xarajatlar)ning yangilanib turadigan va tartiblashtirilgan harakatidir. Doiraviy aylanishlar modelida uy xo'jaligi, korxonalar va davlat resurslar hamda mahsulotlar bozori orqali ayriboshlashni amalga oshiradi.

Doiraviy aylanishlar modelidan real va nominal oqimlar aks etadi. Real oqimlar foydalaniladigan ishlab chiqarish omillari, tovar va xizmatlar harakatini tavsiflaydi. Nominal oqimlar – bu pul mablag'lari harakatidir.

Uy xo'jaliklari resurslar bozori orqali korxonalar va mahsulotlar bozori orqali korxonalar tovar va xizmatlarni sotib oladi.

Ne'matlarning pul shaklidagi harakati qarama-qarshi yo'nalishga ega. Ayni vaqtda uy xo'jaliklari davlatga to'g'ri soliqlarni to'lab, undan ish haqi va turlicha to'lovlarni oladi. Korxonalar ham davlatga soliqlarni to'laydi va undan belgilangan to'lov va subsidiyalarni oladi. Doiraviy aylanishlarning takomillashgan modelida bozor subyektlarining chet elliklar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari ham aks etadi.

Iqtisodiy resurslar bozorining tarkibiy qismini ishchi kuchi bozori tashkil qiladi. Ishchi kuchi bozorida – o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan iqtisodiy resursning oldi-sotdi bitimi amalga oshiriladi. Bu bozorda biznes tomonidan ishchi kuchiga bo'lgan talab, uy xo'jaliklari tomonidan bildirilgan ishchi kuchi taklifi bilan to'qnash keladi. Shunday ekan, ishchi kuchi bozorida iqtisodiy subyektlarning ikki turi – tadbirkorlar va yollanma ishchilar harakat

qiladi. Ishchi kuchi bozorida insonning o'zi emas, uning mehnat qilish qobiliyati ma'lum muddatga sotiladi.

Ishchi kuchi bozorining aniq namoyon bo'lish shakli – mehnat birjasidir. Mehnat birjasi – ishchilar va tadbirkorlar o'rtasidagi ishchi kuchini oldi-sotdi bitimini tuzishda vositachilikni amalga oshiruvchi va ishsizlarni ro'yxatga oluvchi muassasa.

Mehnat birjasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ishsizlarni ro'yxatga olish;
- ishsizlarni mos ish o'rinlari bilan ta'minlash;
- ish bilan ta'minlanmaganlarni qayta o'qitish va yangi kasbga tayyorlash;
- ishsizlarni ijtimoiy himoyalash.

Moliya bozori turli-tuman va ko'p jihatli bo'lsa-da, oldi-sotdi obyektiga yagona, ya'ni pul va (unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar) hisoblanadi. Ortiqcha mablag'larga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari, bu moliyaviy resurslarni, mablag'lar kamayib ketishini sezgan subyektlarga taklif qiladi.

Moliyaviy bitimlarning harakatiga qarab, moliya bozorini turkumlash mumkin. Bunda moliyaviy bozor ikkiga ajraladi: qarz majburiyatlari (iste'molni qondiradigan pul) va kapital (mulk) bozori. Qarz majburiyatlari bozorida pul vaqtincha qarz hisoblanadi va olingan pul shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladi. Mulk bozorida qo'yilgan puldan daromad olish huquqi sotiladi va sotib olinadi. Bu bozorda mablag'lar kapital sifatida ishga solinib, foyda keltiradi. Shuni hisobga olib kapital bozorini ikkita bo'g'ingacha ajratish mumkin: ssuda kapitali bozori va qimmatli qog'ozlar bozori. Ssuda kapitali bozori – pul shaklidagi kapitalning foiz to'lash sharti bilan qarzga berilishidir. Bu bozorda qisqa muddatli majburiyatlar muomalada bo'ladi. Bular asosan davlat va banklarning majburiyatlari hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida aksiya, obligatsiya, veksellik, chek, depozit kabilar oldi-sotdi qilinadi. Bular davlat tomonidan chiqarilgan uzoq muddatli majburiyatlar hamda korporatsiyalarning aksiya va obligatsiyalaridan iboratdir. Bu bozorda broker va dilerlar vositachilik qiladi. Mazkur bozor amalda fond birjalari, auksionlar va banklardan iborat bo'ladi.

Qimmatli qogʻozlarning harakati xususiyati boʻyicha moliya bozori birlamchi va ikkilamchi (hosila) bozorlarga boʻlinadi. Birlamchi bozorda yangi nusxadagi qimmatli qogʻozlar sotiladi va sotib olinadi, ikkilamchi bozorda oldin chiqarilgan qimmatli qogʻozlar harakat qiladi. Birlamchi bozorda qimmatli qogʻozlar sotilsa, ikkilamchi bozorda qayta sotiladi.

Iqtisodiyot uchun qimmatli qogʻozlarning ikkilamchi bozori favqulodda muhim ahamiyatga ega. U xoʻjalik subyektlari oʻrtasida moliyaviy vositalarning erkin harakat qilishini taʼminlaydi.

Bozor segmenti – bu bozorni alohida belgilariga qarab boʻgʻinlarga ajratishdir. Unga ikkita sabab asos boʻladi:

Isteʼmolchilarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatidan tabaqalanishi natijasida ular talabining oʻzaro farqlanishi;

Alohida tovar ishlab chiqaruvchilar tabaqalashishi.

Bozorni segmentlarga ajratish ikkita mezonga asoslanadi.

Aholining xarid qilish layoqati darajasi, yaʼni toʻlovga layoqatliligi.

Hududiy va ijtimoiy, demografik mezonlar (aholining soni, uning yosh tarkibi, jinsi, zichligi, tabiiy iqlim sharoiti va h.k.).

5. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari

Bozor infratuzilmasi – bu bozor aloqalarini oʻrnatish va ularning bir maromda amal qilishiga xizmat koʻrsatuvchi muassasalar tizimidir. Unga ombor xoʻjaligi, transport, aloqa xizmatlari koʻrsatuvchi korxonalar, tovar va xizmatlar muomalasiga (birjalar, auksionlar, savdo uylari, savdo-sotiq idoralari va agentliklari kabilar), moliya-kredit munosabatlariga (bank muassasalari, kreditlash idoralari, sugʻurta va moliya kompaniyalari, soliq idoralari) va ijtimoiy sohaga xizmat koʻrsatuvchi muassasalar (uy-joy va kommunal xizmat idoralari, aholini ishga joylashtirish firmalari) kiradi. Axborot xizmati idoralari ham bozor infratuzilmasining alohida boʻgʻinini tashkil qilib, ularga maʼlumotlarni toʻplash, umumlashtirish va sotish bilan shugʻullanuvchi kompaniya va firmalar kiradi.

Bozor infratuzilmasining bu barcha unsurlari ishlab chiqaruvchilarning savdo-sotiq, moliya-kredit ishlariga, sherik topishiga, ish kuchini yollashiga koʻmaklashadi, davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi tadbirlarini amalga oshiradi, ishlab chiqaruvchilar oʻrtasida iqtisodiy aloqa oʻrnatishga yordam beradi. Ularning bir qismi davlat mulkchiligida joylashsa, boshqalari mustaqil muassasa va uyushmalardan iborat boʻlib, koʻrsatgan xizmatlari uchun haq oladi.

Bozor infratuzilmasi tovar va moliyaviy bozorga xizmat koʻrsatuvchi turlarga ajratiladi. Tovlar birjalari, savdo korxonalari, auksionlar, yarmarkalar, vositachi firmalar tovarlar bozoriga, fond va valuta birjalari, banklar, sugʻurta kompaniyalari va fondlar, mehnat birjalari, migratsiya xizmatlari kabilar moliyaviy bozorga xizmat koʻrsatadi

Hozirgi zamon bozorini reklama, axborot va maslahat xizmati, konsalting va auditor xizmatlari ham tasavvur qilish qiyin.

Bozor infratuzilmasida tovar (xizmat)lar muomalasiga xizmat koʻrsatuvchi muassasalar muhim oʻrin tutishi sababli ularning asosiylarining qisqacha tavsifini beramiz.

Birja – namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini oʻtkazuvchi tijorat muassasalaridir. Tovlar birjalaridan farq qilib, fond birjasida qimmatbaho qogʻozlar va chet el valutarining oldi-sotdisi amalga oshsa, mehnat birjasi ishchi kuchi egasi bilan uni yollovchi korxonalar oʻrtasida turib, unga boʻlgan talab va taklifni bir-biriga bogʻlaydi.

Birjaning barcha shakllarida kelishuvning xarakterli belgisi tovar, aksiya va valuta kurslariga, narxning tebranib turishiga chayqov yoʻli bilan taʼsir qilishdir.

Birjada uning qatnashchilari ayriboshlash toʻgʻrisida bitim tuzadi, lekin tovarni yetkazib berish va uning haqini toʻlash birjadan tashqarida yuz beradi. Bunda tovar egasi va xaridorlar qatnashishi shart emas. Ular nomidan ishni brokerlar yuritadi. Broker (makler)lar – bu tovar, fond va valuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firma. Ular odatda mijozlar topshirigʻiga koʻra va uning nomidan ish yuritadi, kafolat beruvchi hisobiga oʻz nomidan savdo bitimlari tuzishi ham mumkin.

Birjaning yana bir xususiyati shundaki, bu yerda hali ishlab chiqarilmagan, lekin tayyorlanishi aniq boʻlgan, oldin sotib olinib, egasi ixtiyoriga kelib tushmagan tovarlar ham sotiladi.

Birjalar ixtisoslashgan yoki universal boʻlishi mumkin. Ixtisoslashgan birjalarda ayrim turdagi yoki bir guruh tovarlar, universal birjalarda har xil tovarlar sotiladi.

Birja bevosita olish-sotish joyi hisoblanmaydi, unda savdo bitimlari tuziladi hamda talab va taklif asosida narxlar shakllanadi. Birjalar davlatga tegishli va xususiy shaklda tashkil qilinishi hamda koʻproq aksionerlik jamiyati shaklida boʻlishi mumkin. Ularning daromadi sotilgan tovar, valuta, qimmatli qogʻozlar qiymatidan foiz hamda brokerlik oʻrinlarini sotishdan tushumlar va taʼsischilar badalidan tarkib topadi.

Birjaning barcha turlari bir tomondan bozor infratuzilmasi tarkibiga kirsa, boshqa tomondan ular mustaqil tadbirkorlik shakli hisoblanadi.

Birjalar faoliyati nizomga asoslanadi va uning boshida boshqaruvchilar kengashi turadi.

Auksionlar – alohida xususiyatlarga ega boʻlgan tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil qilingan maxsus kim oshdi savdo muassasasi. Auksionda savdo tovarlarning nisbatan cheklangan roʻyxati boʻyicha, ommaviy sotuvga qoʻyish yoʻli bilan oʻtkaziladi. Auksion eʼlon qilingan vaqtda va maʼlum davrda oʻtkaziladi. Bunda tovarlarning bozorga kelib tushish mavsumi va hajmi hisobga olinadi. Auksion savdosida namuna tovarlar roʻyxatda koʻrsatilgan tartibda savdoga qoʻyiladi, xaridorlar orasida eng yuqori narxni taklif qilgan kishi tovarni sotib oladi.

Auksionlarda sanʼat asarlari, noyob buyumlar, kolleksiyalar ham sotilishi mumkin. Savdo yarmarkalari maʼlum vaqtda oʻtkazilib, bu yerda tovarlar ulgurji ravishda oldi-sotdi qilinadi. Tovar savdosi uning egasi bilan savdo firmasi oʻrtasida yuz berib, unda bevosita isteʼmolchi qatnashmaydi.

Savdo uylari – savdo muassasasining maxsus turi. U ixtisoslashgan yoki universal boʻlishi mumkin. Ixtisoslashgan savdo uyi ayrim tovarlar bilan (kiyim-kechak, oyoq kiyim, gazlama va h.k.) universal savdo uyi har xil tovarlar bilan savdo qiladi. Savdo uylari tarkibida savdo firmalari muhim oʻrin tutadi. Ular tijorat

ishini yurituvchi va ixtisoslashgan savdo-sotiq korxonalaridir. Firmalar mustaqil yoki yirik sanoat korporatsiyalari tarkibida ish yuritib, ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanadigan turlarga bo'linadi. Ayrim firmalar har ikkala savdo turi bilan ham shug'ullanadi.

Ulgurji savdo firmalari tovarlarni o'z mulkiga sotib olib, keyin iste'molchilarga sotadi. Chakana savdo firmalari har xil shaklni olib, ular mustaqil do'konlar, maxsus do'konlar va supermarketlardan iborat bo'ladi.

Supermarket – bu xaridorning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishiga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi. U tovarlarning deyarli hamma turlari bilan, jumladan import tovarlar bilan ham savdo qiladi. Supermarket xaridorlarga bepul maslahatlar beradi, tovarlarni buyurtma bo'yicha xaridor uyiga yetkazadi, ularga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatadi.

Ko'p tarmoqli tashqi savdo firmalari ham savdo uyi deb ataladi. Ular o'z nomidan va ko'pincha o'zlari hisobidan eksport-import hamda boshqa savdo aloqalarini olib boradi. Tashqi savdo uylari savdo korxonalarini sotib olish, jihoz va uskunalarni ijaraga topshirish, kreditlar berish, sug'urta xizmati ko'rsatish bilan moliya va ishlab chiqarish xizmatida ham qatnashadi.

Infratuzilma tizimida moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasalar alohida o'ringa ega. Ular moliya bozori, uning asosi bo'lgan kapital bozorini shakllantiradi va amal qilish tartib – qoidalarini o'rnatadi. Moliyaviy muassasalardan ko'pchiligi o'ziga xos belgilarga ega bo'lsa-da, ularning barchasi bitta umumiy jihatga ega. Ular o'zlarining majburiyatlarini bildiradi, ya'ni mablag'lari ortiqcha bo'lgan subyektlardan pul qarz oladi va o'z nomidan mablag'lari yetishmagan subyektlarga pul qarz beradi.

Bozor infratuzilmasining banklar, sug'urta kompaniyalari, soliq va bojxona idoralari kabi muassasalari moliya-kredit munosabatlarida alohida o'ziga xos o'ringa ega.

Bozor iqtisodiyoti subyektlarini moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash bozor infratuzilmasining axborot xizmati idoralari shu jumladan auditorlik firmalari zimmasiga tushadi. Auditor firmalar – korxonalar, firma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib boruvchi, ular hisobotini mustaqil ekspertizadan

oʻtkazuvchi idora. Ular odatda aksioner jamiyat yoki kooperativ shaklda faoliyat koʻrsatadi va toʻliq mustaqillikka ega boʻladi. Auditor firmalar oʻz ishini har bir mamlakatda yoki xalqaro miqyosda qabul qilingan hisob-kitob va taftish qoidalariga binoan olib boradi. Auditor firma ishida qatnashuvchi taftishchilar auditorlar deb ataladi.

Shunday qilib, bozor infratuzilmasi va uning qarab chiqilgan unsurlari barcha bozor turlarining samarali faoliyat koʻrsatishini hamda davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni taʼminlaydi.

Tayanch tushunchalar

Bozor iqtisodiyoti – xususiy mulk ustunligiga asoslangan hamda iqtisodiy jarayonlar bozor mexanizmi yordamida boshqariladigan va tartibga solinadigan iqtisodiyotdir.

Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining amal qilinishini tartibga solishda va iqtisodiy jarayonlarni uygʻunlashtirishda qoʻllaniladigan dastak va vositalar.

Uy xoʻjaliklari – iqtisodiyotning isteʼmolchilik sohasida faoliyat qiluvchi asosiy tarkibiy birlik.

Tadbirkorlik (korxonalar) sektori – faoliyati foyda olishga qaratilgan iqtisodiyotning birlamchi ishlab chiqarish boʻgʻini.

Davlat – iqtisodiyotni tartibga solish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi muassasalar.

Bozor – ishlab chiqaruvchilar va isteʼmolchilar (sotuvchilar va xaridorlar) oʻrtasida pul orqali ayriboshlash jarayonida roʻy beradigan munosabatlar yigʻindisidir.

Bozor obyekti – bozorga, ayriboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyatning natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlardir.

Bozor subyekti – bozorning, ayriboshlash munosabatlarining qatnashchilaridir.

Bozor infratuzilmasi – ayriboshlash munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasaviy tuzilmalardir.

Muhokama uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?

2. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlarini va farqlarini tushuntirib bering.

3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari nimalardan iborat?

4. Bozor mexanizmi va uning tarkibini izohlang.

5. Bozor iqtisodiyotining asosiy muammolari qanday hal qilinadi?

6. Bozor tushunchasining ta'rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.

7. Bozorni turkumlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi? Ularni sanab ko'rsating.

8. Yetuklik darajasiga qarab bozorning qanday turlari ajratiladi?

9. Bozor infratuzilmasi nima?

VII bob. BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISH DAVRI VA UNING O‘ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI

- 1. O‘tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari.**
- 2. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning tamoyillari va xususiyatlari.**
- 3. O‘zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo‘nalishlari.**
- 4. O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari.**
- 5. Hozirgi sharoitda va yaqin istiqbolda respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvorliklari.**

1. O‘tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari

O‘tish davri – bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga iqtisodiy munosabatlarning bir turidan boshqa bir yangi turiga o‘tish uchun taqozo qilinadigan davrdir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrining mazmuni iqtisodiy munosabatlarning alohida unsurlarini isloh qilish yoki iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritish emas, balki butun iqtisodiy munosabatlar tizimini o‘zgartirishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri – ma’muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o‘zgartirish hamda bozor tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davrdir.

Bozor iqtisodiyotining belgilari uzoq davr davomida shakllanib, pirovard natijada yaxlit ijtimoiy tizimni tashkil qiladi.

Bunda bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari xilma-xil bo‘lib, ularning umumiy va xususiy tomonlari farqlanadi.

Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning barcha yo‘llari umumlashtirilib, quyidagi uchta turga ajratiladi:

- I. Rivojlangan mamlakatlar yo‘li.
- II. Rivojlanayotgan mamlakatlar yo‘li.
- III. Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo‘li.

Bu yo‘llarning umumiyliigi shundaki, ularning hammasi bozor iqtisodiyotiga o‘tishni maqsad qilib qo‘yadi va mazkur iqtisodiyotning qonun-qoidalari, amal qilish mexanizmi ko‘p jihatdan umumiy bo‘ladi. Shu bilan birga har bir yo‘lning o‘ziga xos xususiyatlari ham bor, bu esa bozor munosabatlarini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, milliy sharoitlari har xil bo‘lishidan kelib chiqadi.

Masalan, bozor munosabatlariga o‘tishning g‘arbcha (rivojlangan mamlakatlar) yo‘lida oddiy tovar xo‘jaligidan erkin raqobatga asoslangan klassik yoki sof bozor iqtisodiyotiga va undan madaniylashgan bozor iqtisodiyotiga o‘tiladi.

Bunda bozor iqtisodiyotiga evolutsion o‘zgarishlar orqali qaror topadi. XX asrning 30-yillariga kelib, ayniqsa 50-yillardan bu jarayon yanada tezlashdi. Bu yo‘lni iqtisodchilar klassik yo‘l deb ataydilar. U bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar uchun andoza bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Chunki, bu yo‘lda bozor iqtisodiyotining qonun-qoidalari, hayotiyliigi sinab ko‘rilgan. Klassik modelning o‘zi ham 3 ga bo‘linadi:

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti modeli ko‘proq fuqarolar manfaatini himoya qilish, uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish, aholining haddan ziyod tabaqalanishiga yo‘l qo‘ymaslik, davlat mulki ulushining boshqa modellarga qaraganda ko‘pligi (25–30%) bilan ajralib turadi. Bu model Germaniya, Avstriya, Skandinaviya mamlakatlariga xos.

Aralash yoki erkin bozor iqtisodiyoti modelida esa davlat tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratishi, iqtisodiyotni tartiblashda ustun darajada taktik usullardan foydalanish, iqtisodiyotda davlat mulkining hissasi (10% atrofida) kamligi, aholining tabaqalanishi, ish haqidagi farqning kattaligi bilan ajralib turadi. Bu modelni qo‘llagan mamlakat sifatida AQSH ni ko‘rsatish mumkin.

Korporativ iqtisodiyot modeli davlatning yirik biznes manfaatini himoya qilish, asosiy ustuvor tarmoqlarni aniqlab, ularning rivojlanishiga yordam berish, davlat mulki hissasi kamligi, lekin ish haqidagi farq haddan tashqari katta emasligi bilan farqlanadi. Bu

model Yaponiyada va uning izdoshlari bo'lgan mamlakatlarda qo'llanilgan.

Mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil rivojlanayotgan mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lining xususiyati – bu qoloq, an'anaviy iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishdir. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos belgilar turli xo'jaliklar: azaliy natural xo'jalik uning rivojlanish darajasi, bozor munosabatlariga tortilishi jihatidan farq qilishiga qaramay, transformatsiya orqali yuz beradi.

Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'lining muhim belgisi markazlashtirilgan, ma'muriy - buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyotdan hozirgi zamon rivojlangan bozor tizimiga o'tishdan iboratdir. Bu yo'ning boshqa yo'llardan farqi shundaki, totalitar iqtisodiyotning bozor iqtisodiyoti bilan umumiyligi yo'q, ular batamom bir-biriga zid. Shu bilan birga uchinchi yo'lda bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarning o'zi o'tish sharoitlari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari bilan bir-birlaridan farqlanadi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga o'tishning mazkur yo'lining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

2. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari

Markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishda maqsad bir xil bo'lsa-da, turli mamlakatlar turli yo'llarni tanlashlari mumkin. Hammaga ma'lumki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda ikki yo'l, ya'ni revolutsion va evolutsion yo'llar mavjud. Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolutsion yo'lini, birdaniga katta to'ntarishlar qilish yo'lini tanladilar. Boshqacha aytganda ular «karaxt qilib davolash» degan usulni qo'lladilar. Bu yo'lni amalga oshirish uchun Rossiyada «300 kun», «500 kun» degan o'tish dasturlari ishlab chiqildi. Bu dasturlarni tezkorlik bilan amalga oshira boshladilar. Natijada bu mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmi keskin tushib ketdi, ko'plab korxonalar yopilib, ishsizlar soni ko'paydi, pulning qadri keskin

pasayib iqtisodiyot tanazzulga uchradi va kishilarning iqtisodiy ahvoli og'irlashdi.

O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali uzoq va davomli milliy manfaatlarni amalga oshirish vazifasi qo'yilar ekan, eng avvalo, «shok terapiyasi» deb atalgan usullarni chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechilishiga to'g'ri keladi.

Shuning uchun, O'zbekiston o'ziga xos yo'l tanladi. Bu yo'l O'zbekistonning o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyutsion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir.

«Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi»²⁵, deb yozgan edi mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish yo'li ijtimoiy-yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo'lni amalga oshirishga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga Respublika Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan beshta muhim tamoyil asos qilib olingan.

Birinchi, iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, uning ustunligini ta'minlash.

Ikkinchi, o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi.

Uchinchi, butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i, qonunlarning ustunligini ta'minlash.

To'rtinchi, bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: «Ўзбекистон», 1998. 101–102-бетлар.

Nihoyat, beshinchidan, bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish. Bozor munosabatlariga o'tishda bu tamoyillarning hammasi ham muhim ahamiyatga egadir, lekin ularning ichida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish prinsipi alohida e'tiborga loyiq. Chunki tegishli huquqiy negizni, bozorning infratuzilmalarini yaratish, odamlarda bozor ko'nikmalarini hosil qilish, yangi sharoitlarda ishlay oladigan xodimlarni tayyorlash uchun vaqt kerak bo'ladi.

Bundan tashqari, bozor munosabatlariga o'tish faqatgina iqtisodiyot sohalarini o'zgartirish bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy hayotning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan barcha sohalarini, shu jumladan siyosiy, ma'naviy-axloqiy, maishiy va boshqa sohalarni ham tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolutsion yo'l bilan o'tish haqidagi g'oya juda muhim va afzal ekanligini ko'rsatadi.

Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini amalga oshirish iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq farqlash, bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishni talab qiladi.

Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo'yilgan:

– totalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

– Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish.²⁶

Shu vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda isloh qilishning muhim yo'nalishlari aniqlab olindi.

Birinchiidan, o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash.

Ikkinchiidan, mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, qishloq xo'jaligida va iqtisodiyotning boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish.

²⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. –Т.: «Ўзбекистон», 1995, 19-бет.

Uchinchidan, ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash.

Respublika iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazish bo'yicha birinchi bosqichda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida iqtisodiyot sohasiga tegishli bo'lgan, iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun-hujjatlar qabul qilindi.

Birinchi bosqichda kichik xususiylashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun zarur bo'lgan muassasalar tizimi tuzildi.

Qishloq xo'jaligida agrar islohot jarayonida bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan yangi xo'jalik tizimi shakllandi va iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan qismi keng rivojlandi.

Milliy xo'jalik, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va mavjud sharoitlarga mos bo'lgan tizimlari ishlab chiqildi. Narxlar to'liq erkinlashtirildi, bozor infratuzilmasining asosiy tarkibi shakllantirildi, aholini ijtimoiy himoyalash tizimi amalga oshirila boshladi, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari keyingi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yildi. Shu maqsaddan kelib chiqib bu bosqich uchun bir qator vazifalar belgilab olinadi²⁷.

Birinchi vazifa – davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish. Bunda davlat mulkini xususiylashtirish, tadbirkorlik faoliyatini keng qo'llab-quvvatlash, kichik xususi korxonalar tashkil qilishni rag'batlantirish hisobiga ishlab chiqarishda davlatga qarashli bo'lmagan qismning ulushini oshirish ko'zda tutiladi.

²⁷ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т.: Ўзбекистон, 1998. 332-333 бетлар.

Ikkinchi vazifa – ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Bu ham korxonalar va tarmoqlarning, umuman davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishish imkonini beradi.

Uchinchi vazifa – milliy valuta-so'mni yana ham mustahkamlashdan iborat. Bu esa so'mning konvertatsiyasi, qat'iy valutalariga erkin sur'atda almashtirish layoqati demakdir, unga pulning qadrsizlanishiga qarshi ta'sirchan choralarni qo'llash, iste'mol mollari ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda ichki bozorni shunday mollar bilan to'ldirish, korxonalarining chetga tovar chiqarishini kengaytirish hisobiga valuta zaxiralarini mustahkamlash yo'li bilan erishiladi.

To'rtinchi vazifa – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish.

Bu tarkibiy o'zgarishlarda Respublika uchun eng asosiy hisoblangan tarmoqlarni, jumladan yoqilg'i, energetika va g'alla majmualarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

O'tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko'rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo'l davom ettiriladi.

Shunday qilib, O'zbekistonda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazishda ikki bosqichli taraqqiyot yuzaga keladi. Birinchi bosqichda davlat sektori va bozor xo'jaligidan iborat yarim erkinlashgan iqtisodiy tizim yuzaga keladi. Ikkinchi bosqichda iqtisodiyot to'liq erkinlashtiriladi, xususiylashtirish tugallanadi, narxlar erkin qo'yib yuboriladi, davlat korxonalarining monopol mavqei tugatiladi.

Lekin bundan Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish maqsadiga to'liq erishildi va bu sohada qo'yilgan vazifalar to'liq bajarildi degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish har bir davrda kun tartibiga yangi vazifalarni qo'yadi.

Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining, hozirgi bosqichda iqtisodiyot sohasida quyidagi aniq vazifalarni amalga oshirish koʻzda tutiladi.

Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan oʻtkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;

Xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosda amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish;

Mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yoʻnaltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;

Kichik biznes iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor oʻrin olishiga erishish;

Mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng koʻlamda integratsiyalashuvini taʼminlash;

Iqtisodiyotda mamlakat iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy oʻzgarishlarni izchil davom ettirish.

3. Oʻzbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yoʻnalishlari

Iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy - boshqaruv tuzilmalarining bir turidan butunlay boshqa yangi turiga oʻtish, iqtisodiy islohotlar strategiyasini ishlab chiqish va uning asosiy yoʻnalishlarini aniqlab olishni taqozo qiladi. Iqtisodiy islohotlar – bu bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Iqtisodiy islohotlardan koʻzda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning maʼnaviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni taʼminlashdan iborat.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yoʻnalishlari quyidagilar:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;

– boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;

– tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;

– ijtimoiy islohotlar.²⁸

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning boshlang'ich nuqtasi bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'ladi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning bir nechta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish – davlat va iqtisodiy mustaqillikning huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilish.²⁹ Bunda boshqaruv tizimining yuqori va quyi darajadagi vazifalari aniq chegaralab qo'yildi. Vakolatli hokimiyatning yagona to'la huquqli organi bo'lgan hokimlik instituti yaratildi, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish sohasida fuqarolar yig'ini joriy qilindi.

Ikkinchi yo'nalish – tizimdagi o'zgarishlarga, yangi iqtisodiy munosabatlarga va shu jumladan mulkchilik munosabatlariga asos bo'ladigan qonunlar tizimini yaratish.³⁰ Respublikada bu yo'nalish bo'yicha qabul qilingan qonunlarda mulkdorning huquqi tan olindi, xususiy mulkchilik huquqi e'tirof qilindi, mulkchilikning barcha shakllari uchun teng sharoit yaratildi. Davlat mulkini xususiylashtirishning samarali mexanizmi ishlab chiqildi, qisqacha aytganda, bozor munosabatlarining negizi bo'lgan ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishning barcha huquqiy asoslari yaratildi.

Uchinchi yo'nalish – xo'jalik yuritishning va institutsional o'zgarishlarning bozor sharoitlariga mos keladigan yangi mexanizmini yaratishga qaratilgan qonunlar.³¹ Bozor infratuzilmasini yaratish va uning faoliyatiga xos jarayonlarni tartibga

²⁸ Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bu asosiy yo'nalishlari I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobida bayon qilib berilgan.

²⁹ Shu yo'nalish bo'yicha Respublikada quyidagi qonunlar qabul qilindi: O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida; O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida; Joylarda davlat hokimiyati to'g'risida; Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida.

³⁰ Bunday qonunlar jumlasiga mulkchilik to'g'risidagi, yer to'g'risidagi, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi, ijara to'g'risidagi va shu kabi qonunlar kiradi.

³¹ Bu guruh qonunlarga banklar va bank faoliyati to'g'risidagi, pul tizimi to'g'risidagi, tadbirkorlik to'g'risidagi, sug'urta to'g'risidagi, birjalar va birja faoliyati to'g'risidagi, auditorlik faoliyati to'g'risidagi, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risidagi qonunlar kiradi.

solishni ta'minlaydigan qonunlarni qabul qilishdan oldin, iqtisodiyotning turli sohalarida xo'jalik yuritayotgan subyektlarning huquq va iqtisodiy erkinlik borasidagi maqomini belgilab beradigan qonunlar qabul qilindi. Korxonalar to'g'risidagi qonun, kooperatsiya to'g'risidagi, dehqon xo'jaligi to'g'risidagi, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risidagi qonunlar shular jumlasidandir.

To'rtinchi yo'nalish – Respublikamizni xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyeksi sifatida ta'riflovchi huquqiy normalar³². Bu yo'nalishdagi qonunlarni qabul qilish natijasida mamlakatimizning tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi tarixida sifat jihatdan yangi bosqich boshlandi.

Beshinchi yo'nalish – kishilarning konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kafolatlarini va aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlaydigan qonunlarni ishlab chiqish. Bu qonunlar bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholining eng muhtoj tabaqalari manfaatlarini qonun kuchi bilan himoya qilishgagina emas, balki ularning ma'naviy imkoniyatlarini namoyon qilish, islohotlar uchun mustahkam ijtimoiy zamin yaratishga ham imkon beradi.

Yuqorida qarab chiqilgan barcha qonunlarda bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslarini yaratish ham amaliy, ham iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning huquqiy asosini tashkil qildi.

Bozor islohotlarining bosh bo'g'ini mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirishdir, chunki shu orqali ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyoti uchun o'tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi. Shu sababli, Respublikada mulkiy munosabatlarni isloh qilishdan ko'zda tutilgan maqsad davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat³³.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichidayoq qishloq xo'jaligini isloh qilishga ustunlik berildi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi. Birinchidan, Respublikamiz iqtisodiyotida agrar soha ustunlikka ega, bo'lib aholining ko'pchiligi qishloq xo'jaligida bandligi, iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan shu

³² Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. –Т.: «Ўзбекистон», 1995, 39-бет.

³³ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. –Т.: «Ўзбекистон», 1995, 39-бет.

tarmoq ahvoliga bog‘liq ekanligi. Hozirgi kunda agrar sektor hissasiga yalpi ichki mahsulotning 17,0% ga yaqini to‘g‘ri keladi, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 27,7% foizga yaqini qishloq xo‘jaligida band va barcha aholining yarmidan ko‘prog‘i qishloqda yashaydi.

Ikkinchidan, Respublika butun sanoat potensialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan sanoatning ko‘pgina tarmoqlarini (paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo‘jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo‘jaligiga bog‘liq.

Uchinchidan, qishloq xo‘jalik mahsulotlari (asosan paxta) valuta resurslari, Respublika uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalari chetdan sotib olishni ta‘minlayotgan asosiy manbadir.

To‘rtinchidan, mustaqillik sharoitida qishloq xo‘jaligining oziq-ovqat muammosini hal etishdagi roli ortib boradi.

O‘zbekistonda agrar islohotning negizi yerga bo‘lgan mulkchilik masalasidir. Respublika qonunchiligida yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligi ta‘kidlangan.

Shunday ekan, qishloqda bozor munosabatlarini shakllantirishga yerni meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanish uchun ijaraga berib qo‘yish orqali erishish ko‘zda tutilgan.

Respublikada yerga bo‘lgan mulkchilik munosabatlarini isloh qilishning boshqa xususiyati shundan iboratki, melioratsiya, irrigatsiya, yerlarning unumdorligini oshirish dasturlarini bajarishni davlat o‘z zimmasiga oladi. Buni sug‘oriladigan yerlardagi dehqonchilikning xususiyati taqozo qiladi. Respublikada barcha haydaladigan yerlarning 3/4 qismidan ko‘prog‘i (4,2 mln.ga) sug‘oriladigan yerlar bo‘lib, uning yarmidan ko‘prog‘i yaxshi meliorativ holatda, qolgan yerlar esa melioratsiya ishlari (qayta o‘zlashtirish, kollektor-drenaj tarmoqlarini rekonstruksiya qilish)ni olib borishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda sug‘orib kelingan har gektar yerni qayta o‘zlashtirish uchun 1990-yilgi darajadan 14-15 baravar ko‘p xarajat talab qilinadi. Bundan xulosa shuki, birorta ham fermer irrigatsiya va melioratsiya ishlarini o‘zi mustaqil amalga oshira olmaydi. Faqat davlatgina melioratsiya tarmoqlarini

rekonstruksiyalashga, qurishga va irrigatsiya tadbirlarini amalga oshirishga qodirdir.

Respublikada agrar islohotlarning navbatdagi yoʻnalishi barcha davlat qishloq xoʻjalik korxonalarini (birinchi navbatda zarar koʻrib ishlayotganlarini) jamoa xoʻjaliklariga va mulkchilikning boshqa shakllari (kooperativlar, aksiyadorlik xoʻjaliklari va har xil xususiy korxonalar)ga keyinchalik dehqon va fermer xoʻjaliklariga aylantirishdan iboratdir.

Bunda birlamchi qishloq xoʻjalik boʻgʻini fermer xoʻjaliklarini birlashtiradigan va ularga moddiy-texnikaviy taʼminot, texnika, agrokimyo xizmati koʻrsatadigan uyushmalar tashkil qilindi. Ularning tarkibida fermer xoʻjaliklari qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi sifatida faoliyat koʻrsatadi.

Respublikada agrar islohotlarni amalga oshirish dasturlariga asoslanib, 1992-yildan boshlab mavjud davlat xoʻjaliklari mulkchilikning aralash, jamoa va boshqa shakllariga aylantirib borildi. Natijada qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishining tarkibi mulkchilik shakllari boʻyicha ancha oʻzgardi.

1994-yilda qishloq xoʻjaligida davlatga qarashli boʻlmagan sektor butun mahsulotning deyarli 95%³⁴ (1991-yil 63%)ni, 1998-yilda 98,7% ni³⁵ va 2002-yilda 99,0 ni, 2008-yildan boshlab esa toʻliqicha yetishtirib beradi.

Oxirgi yillarda qishloq xoʻjaligi yalpi mahsuloti tarkibida dehqon xoʻjaliklari ulushi oʻrtacha 64% - 64,5% ni, fermer xoʻjaliklariniki 33%-34% ni va boshqa qishloq xoʻjaligi korxonalari ulushi 2,0% -2,5% ni tashkil qiladi.

Qishloq xoʻjaligini isloh qilishning keyingi yoʻnalishi – bu shaxsiy tomorqalarni kengaytirish, yangi sugʻoriladigan yerlarni shaxsiy xoʻjaliklar va bogʻ-dala hovli uchastkalariga ajratib berish yoʻli bilan aholini yer bilan taʼminlashdan iborat boʻladi. Shu koʻrilgan chora-tadbirlar hisobiga, birinchidan, qishloq joylarda ishsizlikning kuchayib borish xavfini barham toptirishga, ikkinchidan, aholining real daromadlarini oshirishga, uchinchidan, aholini hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlashdagi

³⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т.: «Ўзбекистон», 1995. 64–65-бетлар.

³⁵ Ўзбекистон Республикасининг 1998-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг асосий кўрсаткичлари. Тошкент-1999, 7-бет.

keskinlikka barham berishga va to‘rtinchidan, yakka tartibda uy-joy qurilish ko‘lamini ancha kengaytirishga muvaffaq bo‘lindi.

Islohotlar amalga oshirilgan dastlabki yillarda aholiga foydalanish uchun qo‘shimcha 550 ming gektar sug‘oriladigan yer ajratib berildi, shaxsiy tomorqa uchun berilgan yerning umumiy maydoni 700 ming gektarga yetdi. Natijada dehqon xo‘jaliklarining qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi ulushi 1992-yildagi 33% dan 1999-yilda 60,3% ni, 2002-yilda 66% ni va 2008-yilda 65,3% ni 2012-yilda 63,7%ni va 2014-yilda 64,3% ni 2016-yilda 65,1 tashkil qilgan³⁶.

Respublikada agrar islohotlarning navbatdagi yo‘nalishi – bu qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining tarkibiy tuzilishini takomillashtirishdir. Bunda xo‘jaliklarga ekin maydonlari tarkibini va ishlab chiqarish hajmini mustaqil belgilash huquqi berildi.

Don mustaqilligiga erishish va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashni tiklash yo‘li izchil amalga oshirilishi natijasida donli ekinlar maydoni ancha kengaydi, paxta ekiladigan maydonlar esa tegishli ravishda qisqardi. Don yetishtirishni ko‘paytirib borish, uni chetdan keltirishni qisqartirish va qisqa davrda to‘liq don mustaqilligiga erishish imkonini berdi.

Respublikada agrar islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichida xo‘jalik yuritish mexanizmini takomillashtirishga ham katta ahamiyat berildi.

Bunga dastlab umumdavlat ehtiyojlari uchun yetkazib berilayotgan mahsulotlarga oqilona xarid narxlarini belgilash, keyinchalik mahsulotlarning ko‘pchilik turlariga davlat buyurtmasini asta-sekin bekor qilish (1995-yildan faqat-paxta va donga davlat buyurtmasi saqlanib qoldi) hamda qishloq xo‘jalik korxonalarini qo‘llab-quvvatlash (soliqlardan ozod qilish, kreditlarni qaytarish muddatini cho‘zish va boshqalar) orqali erishildi.

Agrar islohotni tubdan hal etishni taqozo qilgan g‘oyat muhim yo‘nalish – qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan ortiqcha ishchi kuchini bo‘shatib olish va ularni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga (sanoat, xizmat ko‘rsatish sohalariga) jalb etishdan iboratdir. Bunda qishloq joylarda faoliyat shaklini tez o‘zgartira oluvchi, zamonaviy

³⁶ Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2002-2009. г. -Т., 2003-2009. 43-стр.

texnologiyaga ega bo'lgan, qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlaydigan, kasanachilik va xalq hunarmandchiligiga asoslangan kichik korxonalarini va keng tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil qilish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish – agrar islohotning hozirgi kundagi ustuvor yo'nalishidir.

Bu yo'nalishda kommunal va injenerlik tizimlarining keng tarmog'ini yaratish, servis va maishiy xizmat tarmog'ini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Shu vazifani bajarish yo'lida keyingi yillarda ham qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish hamda qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish ishlari davom ettirildi. Mamlakatimizda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi (2009 y) da qishloqlarni zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o'zgartirish va yangilash, uy-joy, ijtimoiy va kommunal obyektlar, kommunikatsiyalarni barpo etish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan, aniq vazifalarni amalga oshirishga qaratildi. Qishloq joylarda qurilish ishlarini amalga oshirish uchun loyihalashtirish, sanoat-qurilish, muhandislik-texnik jihatdan kuchli baza yaratishga erishildi. «Qishloq qurilish bank» va «Qishloq qurilish loyiha» kabi ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etildi.

Mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor munosabatlariga o'sib o'tishida moliya-kredit sohasini isloh qilish alohida o'rin tutadi. Moliyaviy munosabatlarda davlat budjeti taqchilligini kamaytirib borish, budjetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirish, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchungina budjetdan mablag' ajratish, milliy xo'jalikni rivojlantirishda investitsiya kreditlaridan keng foydalanish islohotlarning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Kredit sohasidagi islohotlar bank tizimini takomillashtirish, banklarning mustaqilligini va pul muomalasi uchun javobgarligini oshirishga qaratildi. Shu maqsadda Respublikada Markaziy bank hamda keng tarmoqli tijorat va xususiy banklardan iborat ikki bosqichli bank tizimi vujudga keltirildi. Markaziy bank zimmasiga federal rezerv tizimiga xos bo'lgan vazifalar yuklatildi. Ixtisos-

lashgan aksiyadorlik – tijorat banklari «Gʻalla bank», «Mikrokredit bank» va boshqa banklar shakllantirildi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning eng asosiy muammolaridan biri narxlarni erkinlashtirishdir. Narxlarning erkin shakllanishi uchun dastlab davlat xarid narxlarining amal qilish doirasi qisqartiriladi va keyin ichki narxlar jahon narxlariga muvofiqlashtirib boriladi. Shuningdek, narxlarni erkinlashtirishda xomashyo va mahsulot ayrim turlarining, narx-navo bilan aholi va korxonalar daromadlari oʻrtasidagi mutanosiblikka erishishga harakat qilinadi.

Respublikada islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish prinsipi, ayniqsa narxlarni erkinlashtirishga yondashishda yorqin namoyon boʻladi.

Islohotlar boshlanishdan oldingi davrda respublikada narx-navoning nomutanosib tizimi tarkib topgan boʻlib, xomashyo va qishloq xoʻjalik mahsulotlari narxi pasaytirilib, ishlov beruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar tovarlarining narxi sunʼiy ravishda oshirib borilgan. Bundan koʻrilgan katta zarar respublikani dotatsiya oluvchi mintaqaga aylantirib qoʻygan.

Narx belgilashdagi nomutanosibliklar tufayli butun tarmoqlar, shu jumladan qishloq xoʻjaligidagi koʻplab korxonalar zarar koʻrib ishlagan. Iqtisodiyot tarmoqlari koʻrgan zarar, ayrim mahsulot turlari (don, un va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari) yetishtirishga qilingan xarajatlar va turli ijtimoiy imtiyozlar berishdan koʻrilgan zarar budjet mablagʻlari hisobidan qoplangan.

Bularning hammasi narxlar islohotini amalga oshirishga real vaziyatni va aholining mavjud turmush darajasini hisobga olib, oldindan ishlab chiqilgan dastur asosida yondashishni talab qiladi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish boshqarishning tegishli tizimini yaratishni talab qiladi. Shunga asosan respublikada butun iqtisodiyot, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va hozirgi davrga mos boʻlgan tuzilmalari ishlab chiqildi.

Koʻplab markaziy iqtisodiy organlar va vazirliklar tugatildi yoki ularning faoliyati tubdan qayta qurildi. Faoliyati tugatilgan maʼmuriy apparatlar oʻrniga yangi boshqarish boʻgʻinlari tuzildi.

Masalan, Iqtisodiyot vazirligi, respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik uyushmasi, antimonopol va narx-navo siyosatini o‘tkazish qo‘mitasi kabilar shular jumlasidandir.

Respublika Moliya vazirligi va Markaziy bankining vazifalari hamda tarkibiy tuzilishi ancha o‘zgartirildi.

Masalan, Moliya vazirligi zimmasiga Respublika budjetini vujudga keltirish bilan bir qatorda, davlat soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari va qoidalarini ishlab chiqish, valuta ishlarini boshqarish vazifasi yuklatildi.

Nazorat organlari faoliyatini tartibga solish, davlatning yagona soliq va bojxona siyosatini o‘tkazish maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi va Bojxona qo‘mitasi tuzildi. O‘tkaziladigan iqtisodiy islohotlarni muvofiqlashtirib turish uchun Prezident huzurida iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo‘yicha idoralararo kengash tuzildi.

Ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqish kabi vazifalarni bajarish uchun Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi tuzildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish va shu soha korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirib turish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi.

Respublika iqtisodiyotining tarmoqlari va ayrim sohalarini boshqarish tizimida ham chuqur tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tarmoq vazirliklari uyushmalarga, konsernlarga, korporatsiyalar va boshqa xo‘jalik birlashmalariga aylantirish bilan batamom tugatildi. Transport, turizm, madaniyat, kinolashtirish kabi faoliyat sohalarida milliy kompaniyalar tuzildi.

Boshqarishning mahalliy darajasida (viloyat, tuman, shahar) ijroiya - boshqaruv vazifalarini bajarish uchun hokimlik joriy qilindi. Quyi bo‘g‘in boshqaruvida korxonalar va tashkilotlarga iqtisodiy erkinlik berilib, ular yangicha ish uslubiga o‘tdi.

Bozor islohotlari bozor infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlarini ham qamrab oladi. Bunda moliya, bank-kredit tizimi muassasalari, sug‘urta, auditorlik, yuridik va konsalting firmalari hamda kompaniyalarini, birja tizimini yaratish taqozo qilinadi.

Respublikada bozor infratuzilmasini yaratish bir qator yoʻnalishlar boʻyicha bordi. Birinchi yoʻnalish boʻyicha tovar xom-ashyo birjasi tizimi rivojlandi. Bu, oʻz navbatida, brokerlik va dilerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo boʻlishiga olib keldi.

Ikkinchi yoʻnalishda kapital bozorining ishini taʼminlaydigan tuzilmalar vujudga keltirildi. Kredit resurslari bozori va valuta bozori vujudga keltirildi hamda davlatga qarashli boʻlmagan sugʻurta kompaniyalari tuzildi.

Uchinchi yoʻnalish mehnat bozorini shakllantirishdan iborat boʻlib, bu sohada 240 dan ortiq mehnat birjasini oʻz ichiga oluvchi katta tarmoq shakllantirildi.

Bozor islohotlari tashqi iqtisodiy aloqalarga ham tegishlidir. Bu sohada islohotlarni amalga oshirish borasida respublikaning zamonaviy tashqi iqtisodiy majmuasi mutlaqo yangidan shakllantirildi, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning yangi mexanizmi vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shugʻullanishi zarur boʻlgan muassasalar (Tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmati) barpo etildi. Respublikaning barcha vazirliklari va idoralari, korxonalarida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shugʻullanuvchi maxsus boʻlimlar, tashkilotlar va firmalar tuzildi.

Tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish asosiy maqsad emas. Barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib yashash va faoliyat koʻrsatish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat. Shu sababli, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning butun davri davomida aholini ijtimoiy himoyalash boʻyicha chora-tadbirlar koʻrish obyektiv zaruriyatdir.

Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha amalga oshirildi.

Birinchi yoʻnalish – narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va oʻrtacha darajasini muntazam oshirib borish.

Ikkinchi yoʻnalish – respublikaning ichki isteʼmol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari asosiy turlari isteʼmolini muayyan darajada saqlab turish.

Uchinchi yoʻnalish – islohotlarning dastlabki bosqichida aholi-ning kam taʼminlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qoʻllab-quvvatlash.

Respublika uchun ijtimoiy himoyalash tizimini tanlab olishda xalqning uzoq yillar davomida qaror topgan maʼnaviy-axloqiy qadriyatlari, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlari hisobga olinadi.

Shunday qilib, islohotlarning barcha yoʻnalishlari mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor iqtisodiyotiga oʻsib oʻtishiga qaratildi. Bu islohotlar Oʻzbekistonning mustaqilligini iqtisodiy jihatdan taʼminlash, uni iqtisodiy jihatdan rivojlangan va xalqaro miqyosda obroʻ-eʼtiborli mamlakatga aylantirishga xizmat qildi.

4. Oʻzbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari

Respublikada bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrida, iqtisodiyotni rivojlantirish borasida bir qator vazifalar qoʻyiladi. Bular xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish; makroiqtisodiy barqarorlikka erishish; milliy valutani mustahkamlash; iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan oʻzgartirish; ijtimoiy kafolatlari kuchli boʻlgan demokratik davlatni shakllantirish vazifalaridir³⁷.

Bozor munosabatlariga oʻtish davrida davlat mulkini xususiylashtirish natijasida ikkita asosiy vazifa hal qilinadi.

Birinchidan, davlat ixtiyorida boʻlgan mulk oʻzining haqiqiy egalari qoʻliga topshiriladi.

Ikkinchidan, koʻp ukladli iqtisodiyot va ragʻbatlantiruvchi raqobatchilik muhiti vujudga keltiriladi.

Mulkni haqiqiy egalari qoʻliga topshirish tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratilishini bildiradi. Raqobatchilik muhitini vujudga keltirish esa, eng avvalo, mulkning davlat monopoliyasi ekanligiga barham berish va bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi (xizmat koʻrsatuvchi), ammo mulkchilikning

³⁷ Bu vazifalarni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslari hamda ustuvor yoʻnalishlari Respublika Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida» kitobida ifodalab berilgan.

turli shakllariga asoslangan ko‘pdan-ko‘p korxonalar tashkil qilishdan iborat.

Xususiylashtirish jarayonida mulkchilik shakllari o‘zgarishi bilan birga, iqtisodiyotning yagona majmuasi tarkib topgan tor ixtisoslashgan tarmoq monopoliya tuzilmalariga barham berish imkoniyati ham tug‘iladi. Monopoliyalashtirilgan tuzilmalarni xususiylashtirishda ishlab chiqarishning o‘zini nisbatan ixchamlashtirish, korxonalarni texnikaviy, texnologik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan qayta o‘zgartirish loyihalarini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Tashabbuskorlikka asoslangan, shuningdek turli xil koope-rativlar, shirkatlar, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ko‘rinishidagi yangi kichik korxonalarni tashkil qilish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo‘lmagan qismini shakllantirishning ikkinchi qudratli jarayonidir.

O‘z-o‘zidan aniqki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ham davlat korxonalari saqlanib qolib, iqtisodiyotda sezilarli rol o‘ynayveradi. Shu sababli, bunday korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga moslashuviga imkon beradigan xo‘jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqish talab qilinadi, ular tijoratlashtiriladi, ya’ni foyda uchun ishlaydigan korxonalarga aylantiriladi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish bozor munosabatlarini shakllantirish yo‘lidagi muqarrar jarayondir. U eng avvalo, tanglik holatlariga barham berishga qaratiladi. Tanglik holati inqirozga uchrashning oldini olish uchun ishlab chiqarish, chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning sifati va turini o‘zgartirish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rishga undaydi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, mahsulotning sifati va iste’mol xossalarini yaxshilashga, uning raqobatbardoshligini oshirishga majbur qiladi. Bularning barchasi pirovard natijada bozorda talab va taklif o‘rtasida qulay muvozanatni ta’minlashga olib keladi. Kengroq ma’noda barqarorlashtirish – bu eng avvalo, makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo‘l qo‘ymaslikdir. Shuningdek, u pul qadrsizlanishining oldini olish, to‘lov balansini bir me’yorda saqlash sohasida aniq maqsadni ko‘zlab olib boriladigan davlat siyosatidir.

Jahon tajribasida barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishda bir necha xil yondashuvlar tarkib topgan. Bulardan birinchisi

monetar yondashuv deb ataladi. U pulning qadrsizlanish darajasini pasaytirib turishga, pul massasini hamda to'lovga qodir bo'lgan jami talabni keskin kamaytirish hisobiga pul muomalasini barqarorlashtirishga asoslanadi. Bu yondashuvning kamchiligi shuki, u ishlab chiqarishning jismoniy hajmi kamayishiga va investitsiya faoliyatining to'xtab qolishiga olib keladi.

Ikkinchisi – ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga, tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishga yordamlashish, iqtisodiyotda nomutanosibliklarga barham berishga asoslangan yondashuv. Bunda bir me'yordagi qattiq moliyaviy va pul-kredit siyosati tovar bilan qoplashning iloji bo'lmagan ortiqcha talablarni cheklash bo'yicha tadbirlar bilan uzviy bog'lab olib boriladi.

Respublikada o'tish davrida makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda ikkinchi yondashuvga ustunlik beriladi. Bu ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga erishish uchun ustunlikka, istiqbolga ega bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni har tomonlama rag'batlantirish, eng muhim bo'g'inlarni aniqlash (neft, energetika, don, paxtani qayta ishlash sanoati va h.k.) va shu orqali iqtisodiyotni tarkiban qayta tashkil qilish bo'yicha amalga oshiriladigan yondashuvdir. Boshqalardan ustun hisoblangan yetakchi tarmoqlar belgilab olinishi bilan birga, ularning ichki tuzilishini qayta o'zgartirish ham hisobga olinadi.

Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda, muvozanatga keltirilgan monetar siyosat asosiy tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni tarkiban qayta tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan birga qo'shib olib borilishi zarur.

Ana shu yondashuvlar negizida iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

Ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga yo'l qo'ymaslik;

Boshqalardan ustun bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish va rag'batlantirish;

Davlat budjeti va korxonalar moliyaviy ahvolining barqarorligini ta'minlash;

Pulning qadrsizlanishini to'xtatish;

To'lov balansi va davlat valuta rezervlarining holatini yaxshilash;

Muvozanatlashtirilgan ijtimoiy siyosat asosida aholi turmush darajasini yaxshilash.

Budjet intizomiga rioya qilish va uning kamomadini cheklash barqarorlashtirishning hal qiluvchi omillaridan biridir. Bunda soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi bosqichda iqtisodiyotni barqarorlashtirishda kredit-bank tizimini, pul muomalasini mustahkamlash, valuta munosabatlarini tartibga solish ham alohida o'rin tutadi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida milliy valutani mustahkamlash umummilliy vazifa hisoblanadi. Shu sababli, milliy valutaning barqarorligi, uning ichki bozorda erkin almashinuvini ta'minlash uchun respublikada bir qator dasturlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Birinchi, milliy valutaning tovar (xizmat) lar bilan barqaror ta'minlanishiga erishish. Bunda bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirish va ularning umumiy hajmida respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlar hissasini oshirib borish hal qiluvchi o'ringa ega bo'ladi.

Ikkinchi, yetarli barqaror valuta zaxiralariga ega bo'lish. Bunga respublika eksport imkoniyatini kengaytirish, eksport uchun mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar sonini ko'paytirish va ularning jahon bozoridagi mavqeini oshirish orqali erishiladi.

Uchinchi, ishlab topilgan har bir so'mni qadrlash va iqtisodiyotga sarflangan har bir so'mning foyda bilan qaytishiga erishish. Buning uchun qat'iy moliya-kredit siyosatini izchillik bilan o'tkazish zarur.

To'rtinchi, pul qadrsizlanishiga, inflatsiyaga qarshi puxta o'ylangan siyosat o'tkazish. Bunda ichki bozorni mollar bilan to'ldirish, naqd pul va kredit emissiyasining o'sishiga, aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik birinchi darajali ahamiyatga ega.

Respublikaning bozor iqtisodiyotiga o'tishida iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish vazifasi butunlay yangi milliy xo'jalik majmuasini bunyod etishga qaratiladi. Bu esa iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilishini, ishlab chiqarilayotgan

mahsulot, eksport va import tarkibini qayta qurish, shuningdek, eng muhim makroiqtisodiy va takror ishlab chiqarish nisbatlarini tartibga solishni talab qiladi.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tish jarayonida: «Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini yanada oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish – bu sohadagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridir»³⁸.

Shunday qilib, Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiyotda yangi bozor munosabatlariga asos soladi, iqtisodiy faoliyat erkinligi va tadbirkorlikni namoyon etish uchun sharoit yaratib berildi, ijtimoiy-ma'naviy sohadagi ijtimoiy kafolatlar mustahkamlandi.

O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni qayd qilib o'tish mumkin:

Birinchi ustuvor yo'nalish – mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlab borish.

Ikkinchi ustuvor yo'nalish – mamlakatda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatning huquqiy yaxlitligini, tinchlik va osoyishtaligini ta'minlash.

Uchinchi ustuvor yo'nalish – bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish va erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etib borish.

To'rtinchi ustuvor yo'nalish – inson huquqlari va erkinliklarini, shuningdek, oshkoralikni amaliy hayotga joriy qilish.

Beshinchi ustuvor yo'nalish – nodavlat va jamoat tashkilotlarning jamiyat hayotidagi o'рни va ahamiyatini keskin kuchaytirish.

Oltinchi ustuvor yo'nalish – sud-huquq sohasini isloh qilishni davom ettirish.

³⁸ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Мазъруза матнлари учун материаллар. Тошкент, «Янги аср авлоди», 2001, 9-бет.

Yettinchi ustuvor yo‘nalish – kuchli ijtimoiy siyosat olib borish.

5. Hozirgi sharoitda va yaqin istiqbolda respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvorliklari

Mamlakatimizda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi shu davrda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoldi.

Mamlakatimizda, milliy iqtisodiyotni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta‘siridan himoya qiladigan kuchli to‘siq, mustahkam va ishonchli himoya vositalari yaratildi.

Inqirozga qarshi choralar dasturida – belgilangan chora-tadbirlar quyidagi beshta asosiy vazifani hal etishga qaratildi.


Birinchidan – korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalambor, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo‘naltilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir.

Ikkinchidan – joriy konyunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha omillar yaratish.

Uchinchidan – qat‘iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish.

To‘rtinchidan – elektrenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste‘molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish.

Beshinchidan – jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag‘batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash. Bu vazifani bajarishda ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini kengaytirish katta o‘rin tutadi. Ushbu dastur doirasidagi loyihalar hajmini 3-4 barobar ko‘paytirish ko‘zda tutiladi.



Harakatlar strategiyasi
2017-2021

Respublikamizda yaqin istiqbol yillarida ham “izchil yuqori o‘shish sur‘atlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish eng muhim ustuvor yo‘nalishimizga aylanishi darkor”³⁹ Bu davrda iqtisodiyot va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik yangilashni jaddallashtirish va uning ko‘lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversi-

fikatsiya qilish markaziy o‘rin tutadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan “Harakatlar strategiyasi” ga asoslanadi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.

II. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari.

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

³⁹ I.Karimov. Bosh maqsadimiz–keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish. Toshkent, “O‘zbekiston”nashriyoti, 2013.

Tayanch tushunchalar

O‘tish davri – bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga, mavjud iqtisodiy munosabatlardan butunlay boshqa, yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tish taqozo qilinadigan davrdir.

Bozor islohotlari – bozor iqtisodiyotini va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Iqtisodiy islohotlar – iqtisodiyotda tub (yoki qisman) o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlardir.

Iqtisodiy uklad – turli mulkchilikka asoslangan xo‘jalik yuritishning shakllari va turlari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish – iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarini erkinlashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi va mustaqilligini ta‘minlash, tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish.

Islohotlar konsepsiyasi – ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo‘nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo‘llarining umumiy g‘oyasidir.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishdir.

Muhokama uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning jahon tajribasida sinalgan asosiy yo‘llarini ta‘riflab bering. Ularning umumiy va o‘ziga xos tomonlarini ko‘rsating.

2. O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘li qanday xususiyatlarga ega? Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?

3. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish prinsipining mazmunini batafsil tushuntiring. Har bir bosqichning maqsad va vazifalarini to‘laroq bayon qiling.

4. Respublikada iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha o‘zingizning fikr-mulohazalaringizni bildiring.

5. Bozor munosabatlariga o'tishda iqtisodiy islohotlar o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadi? Bu vazifalarning to'laroq tavsifini bering.

6. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish davrida davlatning yetakchilik faoliyati nimadan iborat ekanligini tushuntirib bering.

7. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirishning qanday davlat dasturlarini bilasiz? Ular bir-biri bilan qanday bog'langanligini tahlil qiling.

8. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning mazmunini tushuntiring. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadi?

9. O'zbekiston iqtisodiyotining istiqboldagi rivojlanishida "Harakatlar strategiyasi"ning o'rnini baholang.

VIII bob. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI

1. Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab qonuni.

2. Taklif tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Taklif qonuni.

3. Talab va taklif nisbati hamda uning o'zgarishi. Bozor muvozanati.

4. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning shakllanish xususiyatlari.

1. Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab qonuni

Ehtiyoj tushunchasi kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir.

Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanishi mumkin. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «xohish», «istak» bo'lib qolaveradi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi, chunki narx o'zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o'zgaradi. Shu bog'liqlikdan kelib chiqib, talabga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Talab – iste'molchi tovar va xizmatlarning aniq turini ma'lum vaqt oralig'ida narxlarning har xil darajasida sotib olishga qodir bo'lgan miqdoridir. Bu ta'rif talabning miqdor tavsifini ham ifodalaydi. Talabning sifat tavsifi shundaki, u iste'molchining tovarlarga bo'lgan pul bilan ta'minlangan ehtiyojini ifodalaydi.

Tovar yoki xizmatlarga bo'lgan talabning ikki turi farq qiladi: **individual talab va bozor talabi.** Har bir iste'molchining tovarlarning shu biror turiga bo'lgan talabi **individual talab** deyiladi. Bir

qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning bir turdagi tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi bozor talabi deyiladi.

Individual va bozor talabi ham miqdor jihatdan aniqlanadi. Lekin bu miqdor har doim ham bir xil bo'lib turmaydi, balki o'zgaruvchan bo'ladi. Talab miqdorining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Ularning ichida eng ko'p ta'sir qiladigan omil narxdir.

Narx va sotib olinadigan tovarlar miqdori o'rtasidagi mavjud bog'liqlikni quyidagicha tasvirlash mumkin.

Narx va sotib olinadigan tovar miqdori o'rtasidagi bog'liqlik *8.1-jadval*


Bir kg unning narxi (so'm)	Talab qilinadigan unning miqdori (kg)
500	10
400	15
300	20
200	30
100	50

Jadval ma'lumotlari tovarga narxning pasayishi sotib olinadigan miqdorining o'sishiga va aksincha, narxning o'sishi uning miqdorini kamayishiga olib kelishini ko'rsatadi. **Mahsulot narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o'rtasidagi teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik talab qonuni deyiladi.**

Grafikda D egri chiziqda beshta narx-miqdor ko'rsatkichlari aks etgan. Tobora pasayib boruvchi egri chiziq va kishilarni narx past bo'lganda tovar, xizmat yoki resurslarni ko'proq miqdorda sotib olishini ko'rsatadi⁴⁰.

Iste'molchilar ma'lum bir tovarni uning narxi past bo'lsa, ko'proq sotib ola boshlaydi. Iste'molchi uchun narx to'siq sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, yuqori narx iste'molchining xarid qilish istagini so'ndiradi, past narx esa bu istakni kuchaytiradi.

⁴⁰ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 45



8.1-chizma. Talab egri chizig'i. Tovar miqdori.

Real iqtisodiy hayotda ba'zan narxlar o'ssa-da, ayrim tovarlarga talabning ortishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar ham uchraydi. Bu vaziyat Giffen samarasi deb ataladi (ingliz iqtisodchisi R.Giffen nomi bilan). Giffen kambag'al ishchi oilalari kartoshka qimmatlashishiga qaramasdan uni iste'mol qilish kengayishini kuzatib, bu samarani izohlab bergan. Tushuntirish shunga asoslanadiki, kartoshka kambag'al oila iste'molida mahsulotlarning asosiy qismini egallaydi. Agar go'sht narxining o'sishi ro'y bersa, bunda kambag'al oila go'sht sotib olishdan umuman voz kechishga majbur bo'ladi, o'zining ko'p bo'lmagan daromadining barchasini narxi ortsa ham kartoshka sotib olishga sarflaydi.

Demak, bunday vaziyatda narxlarning oshishi ayrim tovarlarga talabning kamaymasdan, aksincha uning oshishiga olib kelishi mumkin.


Tovar narxi va uning xarid qilinadigan miqdori (talabning) o'rtasidagi teskari bog'liqlikni oddiy ikki o'lchamli grafikda tasvirlash mumkin: yotiq chiziq talab miqdorini, tik chiziq narxni ko'rsatadi.

Grafikdagi D chiziq narx va talab hajmi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni aks ettiradi.

Bunda har bir nuqta tovarning aniq narxi va iste'molchi shu narxda sotib olishi mumkin bo'lgan tovar miqdorini ko'rsatadi.

Narx va talabning hajmi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi bu chiziq talab egri chizig'i deyiladi.

Agar talab egri chizig'i o'zining oldingi holatida qolsa va bunda u yoki bu tovarni sotib olishdagi har qanday miqdoriy o'zgarish talab miqdorining o'zgaruvchanligini bildiradi.



8.2-chizma. Talabning narxdan tashqari omillar ta'sirida o'zgaruvchanligi⁴¹.

Talab miqdoriga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi omillar. Talab hajmining o'zgarishi faqat tovar narxiga emas, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liq bo'ladi. Bu omillar talabning narxdan tashqari omillari deyiladi.

Talabga narxdan tashqari quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) Iste'molchining didi; 2) Bozordagi iste'molchilar soni; 3) Iste'molchining daromadlari; 4) Bir-biriga bog'liq tovarlarning narxi; 5) Kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishi kutilishi.

Bu omillarning o'zgarishi talab hajmining o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini qarab chiqamiz.

Biror mahsulotga nisbatan iste'molchi didida ijobiy o'zgarish ro'y bersa, narxning tegishli darajasida unga bo'lgan talab ortadi. Iste'molchi didiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar talabning qisqarishiga olib keladi.

O'z-o'zidan aniqki, bozorda iste'molchilar soni ko'paysa, talab ortadi, ularning soni kamaysa, talab qisqaradi. Masalan, aloqa

⁴¹ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 48.

vositalarining takomillashuvi xalqaro moliyaviy bozor doirasini mislsiz kengaytiradi hamda aksiya va obligatsiya kabi moliyaviy aktivlarga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi. Tug'ilish darajasining pasayishi bolalar bog'chasi va maktabga bo'lgan talabni kamaytiradi.

Pul daromadi o'zgarishining talab hajmiga ta'siri boshqa omillarga qaraganda ancha murakkab. Pul daromadining ortishi juda ko'p tovarlarga talabni nisbatan oshiradi, daromadning kamayishi esa bunday tovarlarga talabni kamaytiradi. Daromad oshsa, uning o'sishiga qarab iste'molchilar narxi yuqori bo'lsada, ko'proq sifatli tovarlarni xarid qiladi, bunda ular kamroq non, kartoshka, karam sotib olishi mumkin. Ortiqcha daromad unga ancha yuqori oqsil tarkibiga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari masalan, go'sht va sut mahsulotlari xarid qilish imkonini beradi. Daromadning o'zgarishi bilan talab to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradigan tovarlar oliy toifali tovarlar deyiladi.

Daromadlar kamayganda talab oshadigan tovarlar past toifali tovarlar deyiladi (masalan, kartoshka).

O'zaro bog'liq tovarlarga talabning ortishi yoki kamayishi, ularning bir-birining o'rnini bosish darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli, sariyog' narxi oshsa, bu margaringa bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Agar sariyog' narxi tushsa bu margaringa bo'lgan talabni kamaytiradi. Demak, agar ikki tovar o'rnini bosuvchi tovarlar hisoblansa, ulardan birining narxi bilan boshqasiga bo'lgan talab hajmi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'ladi. Ikkita tovar bir-birini to'ldiruvchi hisoblansa, ularga bir vaqtda talab paydo bo'ladi. Masalan, agar benzin narxi pasaysa, bu motor yog'iga bo'lgan talabni qisqartiradi. Shunday qilib, benzin va motor yog'iga talab o'zaro bog'liq bo'lib, ular bir-birining narxi va boshqasiga bo'lgan talab hajmi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi.

Kelgusida iste'molchi daromadlari va tovar narxi o'zgarishining kutilishi, tovarlarning mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligi kabi omillar talab hajmini o'zgartirishi mumkin. Kelgusida narxning nisbatan oshishining kutilishi, iste'molchi joriy talabning oshishiga olib keladi. Aksincha, narxning pasayishi va daromadning

ko‘payishining kutilishi tovarlarga bo‘lgan joriy talab hajmining qisqarishiga sabab bo‘ladi.

Iste‘molchi xohish-istaklari. Iste‘molchi xohish-istaklaridagi o‘zgarishlar talabni o‘zgartirishi mumkin. Kelajakda narxlarni ko‘tarilishini ehtimolligi iste‘molchilarni hozirning o‘zida sotib olishga undaydi, bu holat hozirgi talab darajasini oshirib yuboradi. Ayni shu holat tez sur‘atda faoliyat ko‘rsatadigan ko‘chmas mulk bozorlarida bo‘lib o‘tadi. Xaridorlar yangi uy-joylarni narxlari oshib ketishi mumkinligidan xavotirga tushib qolishadi. Ba‘zi xaridorlar agar o‘zlari xohlagan uylarni sotib olmasalar, “modadan orqada qolish”dan qo‘rqishadi. Boshqa xaridorlar bu uylarni keyinroq sotib yuborishni rejalashtiradilar⁴².

2. Taklif tushunchasi va uning miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar. Taklif qonuni

Taklif deb, ishlab chiqaruvchilar ma’lum vaqt oralig‘ida narxning har bir darajasida tovar yoki xizmatlarning bozorga sotishga chiqaradigan miqdoriga aytiladi⁴³.

Narx o‘zgarishi bilan sotishga chiqariladigan mahsulot miqdori ham o‘zgarishi sababli talab kabi taklifning ham bir qator muqobil variantlari mavjud bo‘ladi.

Taklif har xil narxlarda sotishga qancha miqdorda mahsulot chiqarilishini ko‘rsatadi.

Narxning oshishi bilan shunga mos ravishda sotishga chiqariladigan tovar (taklif) miqdori ham ortadi, narxning tushishi bilan taklif hajmi qisqaradi. Bu o‘zaro, to‘g‘ridan- to‘g‘ri bog‘liqlik taklif qonuni deyiladi⁴⁴.

Ishlab chiqaruvchi uchun narxning oshishi rag‘batlantiruvchi vazifani bajaradi.



⁴² McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 45-50

⁴³ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 52


⁴⁴ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 50-53

Narx darajasi va taklif miqdori o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni ko'rsatuvchi jadvaldagi ma'lumotlarni grafikda ifodalab, taklif egri chizig'ini tasvirlash mumkin.

Alohida ishlab chiqaruvchining mahsulot taklifi

8.2-jadval

1 kg un narxi (so'm)	Taklif qilinadigan un miqdori (kg)
500	60
400	50
300	40
200	20
100	5




8.3-chizma. Taklif egri chizig'i⁴⁵.

Bozorda taklif qilinadigan tovar hajmiga narxdan tashqari bir qator omillar ta'sir qiladi. Bu omillarning asosiylari quyidagilar:

- 1) Resurslarning narxi; 2) Ishlab chiqarish texnologiyasi;
- 3) Soliq va dotatsiyalar; 4) Boshqa tovarlarning narxi;
- 5) Narx o'zgarishining kutilishi; 6) Bozordagi sotuvchilar soni.

⁴⁵ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 51

Taklifning shu omillardan bir yoki bir nechtasining o'zgarishi taklif hajmining o'zgarishini taqozo qiladi.



8.4-chizma. Taklifning narxdan tashqari omillar ta'sirida o'zgarishi⁴⁶.

Taklifga ta'sir qiluvchi omillarni alohida qarab chiqamiz.

1. *Resurslarning narxi.* Ishlab chiqarish xarajatlari va taklif o'rtasida mustahkam o'zaro bog'liqlik mavjud. Resurs narxlarining pasayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va taklifni oshiradi. Aksincha, resurslarga narxning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, mineral o'g'itlar narxining pasayishi bug'doy taklifini oshiradi, yomg'irliq sug'orish xarajatlarining oshishi makkajo'xori doni taklifini qisqartiradi.

2. *Ishlab chiqarish texnologiyasi.* Texnologiyalarning takomillashuvi mahsulot birligini ancha samarali ishlab chiqarishga imkon beradi. Resurslarning mavjud narxida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va taklif ko'payadi. Masalan, paxta zararkunandalariga qarshi kurashishning ancha samarali biologik usullarning yaratilishi paxta tolasining miqdorini va sifatini, binobarin taklifini oshiradi.

3. *Soliqlar va dotatsiyalar darajasi.* Ko'pchilik soliqlar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi. Shu sababli, soliqlarning

⁴⁶ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 52

oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, import tovarlarga boj to'lovlarining oshishi uning taklifini qisqartiradi. Aksincha, davlat qandaydir tovar ishlab chiqarish yoki biror sohaga subsidiya bersa, bu amalda xarajatlarni kamaytiradi va uning taklifini oshiradi.

4. *Boshqa tovar narxi.* Boshqa tovarlar narxining o'zgarishi ham mazkur tovar taklifini o'zgartiradi. Masalan, qo'y go'shti narxining pasayishi mol go'shti taklifini oshiradi. Aksincha, mol go'shti narxining tushishi qo'y go'shti taklifini oshiradi.

5. *Narx o'zgarishining kutilishi.* Kelgusida mahsulot narxi o'zgarishining kutilishi ham ishlab chiqaruvchining bugungi kundagi bozorga mahsulot yetkazib berish xohishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, kelajakda neft narxining keskin pasayishining kutilishi neftning taklifini kamaytiradi.

6. *Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) soni.* Tovar ishlab chiqaruvchilar qanchalik ko'p bo'lsa, taklif qilinadigan mahsulot miqdori shunchalik ko'p bo'ladi. Tarmoqdagi ishlab chiqaruvchilar soni ortib borishi taklifni ko'paytiradi, chunki tovar ishlab chiqarish ko'payadi.

Taklif hajmining o'zgarishiga tovarning saqlanish xususiyati, saqlash va transport tashish xarajatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, uzoq vaqt saqlab bo'lmaydigan qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari uchun taklif kamdan-kam o'zgaruvchan bo'ladi.


Ishlab chiqarish jarayonining xususiyati, tabiiy resurslarning mavjud darajasi ham taklifga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, narxning o'zgarishiga javoban ishlab chiqarishni kengaytirish yoki boshqa xil mahsulot ishlab chiqarishga o'tish imkoniyati mavjud bo'lsa taklif o'zgaradi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlar cheklangan bo'lsa, uning narxi (renta) qanchalik oshmasin, yer taklifini oshirib bo'lmaydi.

Ijodiy soha xodimlarining (masalan, olimlar, shoirlar, yozuvchilar, musavvirlar va boshqalar) mehnat mahsuli va noyob san'at asarlarining taklifi ham o'zgarmas bo'ladi.


3. Talab va taklif nisbati hamda uning o'zgarishi.

Bozor muvozanati

Narx va boshqa omillar ta'sirida talab va taklif miqdori o'zgarib, ular bir-biri bilan doimo ma'lum nisbatda bo'ladi hamda bu nisbatlar ham muqarrar o'zgarib turadi. O'z navbatida talab va taklif bozor narxini belgilab beradigan holatlar ham mavjud bo'ladi. Ba'zan talab taklif miqdoridan oshib ketib, narx ko'tirilsa, ayrim hollarda taklif talab miqdoridan oshib ketib, narx pasayadi. Talab bilan taklif miqdori o'rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo'lgan holat bozor muvozanati deyiladi⁴⁷. Bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx bozor narxi deyiladi.



8.5-chizma. Bozor muvozanati⁴⁸.



⁴⁷ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 54

⁴⁸ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 54

8.6-chizma. Talab va taklifning narxga nisbatan o'zgarishi⁴⁹.


Ba'zan muvozanatlashgan narx ham deb yuritiladi. Bozor muvozanati va muvozanatli narx har doim mavjud bo'lib turmaydi, ularga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar muvozanatlikning buzilishiga sabab bo'ladi. Ammo iqtisodiyotda ushbu muvozanatga doimo intilish mavjud bo'ladi.

«Talab va taklif» tushunchalari tahlili, bizga sotuvchi va xaridorlar manfaatlari mos kelishini qarab chiqishga o'tish imkonini beradi. Mos kelishlik o'z ifodasini muvozanatli narxda topadi.

Talab va taklif egri chiziqlarini bitta grafikka joylashtirib bozorning muvozanatli nuqtasini hosil qilamiz:

$T_b = T_f = S_m = Q_m$, bu yerda: T_b - talab, T_f - taklif, S_m = muvozanatli baho, Q_m – tovarning muvozanatli miqdori.

Grafikda K nuqtaga muvozanatli baho (S_m) va mahsulotning muvozanatli miqdori (Q_m) mos keladi. Muvozanatli nuqta (K) yoki muvozanatli narx (S_m)ga tasvirlanganidek sotuvchi va xaridorlar manfaatlarning spiral bo'yicha harakati natijasida bir-biriga yaqinlashish yo'li bilan erishiladi. Xususan, bizning misolda, narx 50 so'm bo'lganda, xaridor mazkur tovar (un) dan 10 kg sotib olishga, sotuvchi esa 60 kg bozorga chiqarishiga tayyor bo'ladi. 100 so'mlik narxda sotuvchi va xaridorlar ahvoli butunlay qarama-qarshi tomonga o'zgaradi: sotuvchi faqat 5 kg un chiqarishga, xaridor esa 80 kg sotib olishga tayyor bo'ladi va hokazo.



⁴⁹ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 57

8.7-chizma. Muvozanatli narx.

Talab va taklifning o'zgarishi spiral bo'yicha har bir harakatida ularning manfaati muvozanatli nuqtaga erishilguncha bir-biriga yaqinlashib borishini va muvozanatli nuqta ular talab va taklifi tengligini ko'rsatadi.

Grafikda 1 va 2 nuqtalar o'rtasidagi farq tovarlar ortiqcha ishlab chiqarilishini ko'rsatadi va to'yingan bozorni xarakterlaydi. Aksincha, 3 va 4 nuqtalar o'rtasidagi farqda tovar kamyoqligi vujudga keladi va bu taqchil tovar bozorini tavsiflaydi.

Muvozanatli narxni tushunib olish uchun vaqt omili katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli, bozordagi bir zumlik, qisqa davrli va uzoq davrli muvozanatlik holatni farqlash zarur.

Bir zumlik muvozanat uchun taqdim qilinadigan tovarlarning o'zgarish yoki doimiy miqdori xos. Bu ishlab chiqarishning bozor vaziyatiga tez, birdaniga moslasha olmasligi bilan bog'liq.

Qisqa davrli muvozanatlik, ishlab chiqarish va taklifni vaqtinchalik amal qiluvchi omillardan foydalanish asosida ko'paytirish imkoniyatini taqozo qiladi.

Bunday vaqtinchalik omillarga ish vaqtidan tashqari, dam olish va bayram kunlari ishlash, ish smenasini ko'paytirishlar kiradi.

Uzoq davrli muvozanatlik o'zgarishi uzoq muddatli davrdagi omillardan foydalanishni taqozo qiladi. Bunda ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangilash va qo'shimcha quvvatlarni vujudga keltirish bilan bog'liq investitsiyalar haqida so'z boradi. Bu davrda yangi korxonalar qurish hamda mazkur bozorda yangi sotuvchilarning paydo bo'lishi ham mumkin bo'ladi.

Iste'molchining tovar narxlarining o'zgarishiga sezgirlik darajasini aniqlashda narxli egiluvchanlik tushunchasidan foydalaniladi. Ayrim mahsulotlar narxidagi uncha sezilarli bo'lmagan o'zgarishlar sotib olinadigan mahsulot miqdorida katta o'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday mahsulotlarga talab nisbatan egiluvchan deyiladi. Boshqa xil mahsulotlar narxidagi sezilarli o'zgarish xarid miqdorida faqat katta bo'lmagan o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Talab hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolganda, narx 1% o'zgarganda talab necha foizga o'zgarishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich talabning narxli egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi⁵⁰. Bu ko'rsatkich ko'pincha oddiy qilib talabning egiluvchanligi deb ataladi.

Talabning narxli egiluvchanlik (E_t) darajasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E_t = \frac{\Delta Q}{\Delta S}$$

Bu yerda, ΔQ – talab miqdorining foizli o'zgarishi;

ΔS – narxlarning foizli o'zgarishi.

Talabning narxli egiluvchanligini belgilab beruvchi bir qator omillar mavjud bo'ladi. Ularning asosiylari quyidagilar:

1. Mahsulotlarning o'rnini bosuvchanligi.

Iste'molchiga biror mahsulotning o'rnini bosuvchi boshqa mahsulotlar ko'proq tavsiya qilinsa, unga talab shuncha egiluvchan bo'ladi. Masalan, sof raqobatli bozorda taklif qilinadigan mahsulotlarning juda ko'p o'rnini bosuvchilari mavjud bo'ladi, shu sababli har bir alohida sotuvchi mahsulotlariga talab butunlay egiluvchan bo'ladi.

2. Mahsulot qiymati (narxi) ning iste'molchi daromadidagi salmog'i.

Iste'molchi daromadida mahsulotlar narxi qanchalik katta o'rinni egallasa, unga talab shuncha yuqori egiluvchan bo'ladi. Masalan, daftar yoki qalam narxining 10 foizga o'sishi, bir necha so'mni tashkil qiladi va bu talab bildirgan mahsulot miqdorida juda kam o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, avtomobil yoki uy narxining 10 foizli o'sishi, mos ravishda 50 yoki 150 mln. so'mni tashkil qiladi. Narxlarning bunday oshishi juda ko'p oilalar daromadining katta qismini tashkil qiladi va aytish mumkinki, bu sotib olinadigan mahsulot miqdorini sezilarli kamaytiradi.

3. Mahsulotlarning iste'mol xususiyatlari.

Zebu-ziynat buyumlariga talab odatda egiluvchan, hayotiy zarur buyumlarga esa talab noegiluvchan hisoblanadi. Masalan, non va elektr energiya zaruriy iste'mol buyumlari hisoblanadi, Shu sababli,

⁵⁰ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 57-58

ularga narxning oshishi non yoki elektr energiyani iste'mol qilishning keskin kamayishiga olib kelmaydi. Boshqa tomondan zebu - ziynat buyumlariga narxlar oshganda ularni qiyinchiliksiz iste'moldan chiqarib tashlash mumkin.

4. *Vaqt omili.* Qaror qabul qilish uchun vaqt oralig'i qancha uzoq bo'lsa, mahsulotga talab shuncha egiluvchan bo'ladi. Masalan, agar mol go'shtining narxi 10% ga ko'tarilsa, iste'molchi uni xarid qilishni birdaniga qisqartirmasligi mumkin. Lekin bir qancha vaqt o'tishi bilan u o'zining moyilligini tovuq yoki baliq go'shtiga o'tkazishi mumkin.

Talabga nafaqat tovarlar narxi, balki boshqa omillar, jumladan iste'molchi daromadlari va boshqa tovarlar narxi ham ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, talab egiluvchanligi bu barcha boshqa omillar bo'yicha ham yuqorida qarab chiqilgan tartibda aniqlanadi.

Muayyan tovarga talab boshqa tovarlar narxi o'zgarishiga sezgirlik darajasi talabning kesishmali egiluvchanligi (EK) deyiladi. Mazkur ko'rsatkich A tovarga bo'lgan talab V tovar narxi 1% ga o'zgariganda necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi.

$$EK = \frac{A \text{ tovarga talab hajmining o'zgarishi}}{V \text{ tovar narxining nisbiy o'zgarishi}}$$

Kesishmali egiluvchanlik nisbiy ($EK < 0$), ijobiy ($EK > 0$) va nolga yaqin yoki teng ($EK = 0$) bo'lishi mumkin. Birinchi holda V tovarga narxning o'sishi A tovarga talabning qisqarishiga olib keladi. Bunda A va V tovarlar bir-birini to'ldiruvchi (avtomashina va benzin, fotoapparat va fotoplyonka) hisoblanadi. Ikkinchi holda, A va V tovarlar bir-birining o'rnini bosuvchi (konfet va tort, sovun va shampun, choy yoki kofe) hisoblanadi. Uchinchi holda, esa A va V tovarlar bir-biriga bog'liq bo'lmagan yoki daxlsiz hisoblanadi.

Shu sababli, V tovarga narxning o'zgarishi A tovarga talabga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi yoki bu ta'sir sezilarsiz bo'ladi.

Umumiy holda narx tizimida o'zaro bog'liqlikning uchta asosiy turi mavjud bo'ladi:

To'ldiruvchanlik samarasi – bir-birini to'ldiruvchi tovarlar narxlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Bir-birini to'ldiruvchi tovarlar narxi qarama-qarshi yo'nalishda o'zgaradi.

O'rnini bosish samarasi – o'zlarining iste'molchilik xususiyatlari bo'yicha bir-birining o'rnini bosadigan tovarlar narxi o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etadi, ya'ni bunda biror tovar mavjud bo'lmaganda uning o'rnini bosadigan tovardan foydalanish mumkin. Mazkur holda narxlar bir xil yo'nalishda o'zgaradi.

Daromad samarasi – iste'molchilar sarflari orqali iste'mol xususiyatlari bo'yicha bog'liq bo'lmagan tovarlar narxlari o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Iste'molchi daromadi cheklanganligi tufayli tovarlar narxi ortganda talab noegiluvchanligi sababli boshqa tovarlarga pul kam qoladi, ularga talab kamayadi va demak, narx pasayadi. Tovarlarning narxi pasayganda talab noegiluvchan tovarga iste'molchilik sarflari kamayadi, boshqa tovarlarni sotib olish uchun ko'proq pul qoladi, ularga talab ortadi va demak, narxlar o'sadi.

Yuqorida qarab chiqilgan formulalardan taklifning egiluvchanlik darajasini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin. Faqat formuladagi «Talab miqdorining foizli o'zgarishi» jumlasini «Taklif qilingan mahsulot miqdorining foizli o'zgarishi» jumlasiga almashtirish zarur.

Taklif egiluvchanligi talabning shunday ko'rsatkichidan farq qilib, har doim ijobiy ahamiyat kasb etadi, chunki narx va taklif hajmi bir xil yo'nalishda o'zgaradi, ya'ni narx o'sganda tovar taklifi ham ortadi. Agar narxning o'zgarishi taklifning o'zgarishiga olib kelmasa taklif noegiluvchan hisoblanadi. Narxdagi sezilarsiz o'zgarish (pasayish yoki ortishi) taklif kamayishi yoki ko'payishiga sabab bo'lsa, taklif mutlaq egiluvchan hisoblanadi.

Taklifning egiluvchanligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil, mahsulotga narxning mavjud o'zgarishini hisobga olish uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'i hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi narxning mavjud o'zgarishiga moslashish uchun qanchalik uzoqroq vaqtga ega bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi shunchalik katta o'zgaradi va shunga mos ravishda talabning egiluvchanligi ham yuqori bo'ladi. Biz yuqorida vaqt omilining juda qisqa, qisqaroq va uzoq muddatli davrlaridagi taklifning o'zgarishiga ta'sirini tahlil qilib bergan edik.

Bu ta'sir taklifning egiluvchanligida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Taklif egiluvchanligi tovarning saqlanish muddati va saqlashga qilinadigan xarajatlar darajasiga ham bog'liq. Uzoq saqlanmaydigan tovarlarga taklifning egiluvchanligi nisbatan past bo'ladi.

Talab funksiyasi – talab hajmining uning miqdorini belgilovchi omillariga bog'liqligidir.

Talab funksiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$QT I = P \dots PK; I; T; \dots$$

Bu yerda,

QT I – i chi tovarlarga talab hajmi;

P. . . PK – barcha tovarlar narxi;

I – pul daromadlari;

T – iste'molchi didi va afzal ko'rishi.

4. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning shakllanish xususiyatlari

Resurslar bozorida talab va taklifning qaror topishini o'rganish shuning uchun muhimki, aynan shu bozorda, aholi pul daromadlari shakllanadi. O'z tasarrufidagi mavjud resurslarni taqdim qilib, uy xo'jaliklari, ish haqi, foyda, foiz va renta shaklidagi daromadni oladi.

Iqtisodiy resurslar bozori – bu eng avvalo, mazkur omillar xizmati bozoridir. Ularning sotib olinishi ko'rsatishi mumkin bo'lgan xizmatlarining xarid qilinishini anglatadi. O'z-o'zidan aniqki, iqtisodiy resurslarning bir qismi (yer, kapital) haqiqiy ma'noda sotib olinib, o'z aktivlariga aylantirilishi mumkin, boshqalari (ishchi kuchi, tadbirkorlik layoqati) ularning xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish uchun xarid qilinadi.

Iqtisodiy resurslar bozorida talab va taklifning shakllanishi tovarlar bozoriga taqqoslanganda o'z xususiyatlariga ega bo'ladi.

Birinchidan, resurslarga talab hosila talab hisoblanadi, ya'ni ularga bo'lgan talabni mazkur resurs yordamida ishlab chiqariladigan tovar yoki xizmatga bo'lgan talab belgilab beradi. Ehtiyojni qondirish uchun qaysi tovar, xizmat ko'p miqdorda talab

qilinsa, uni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurs turiga ham talab shunchalik katta bo'ladi.

Ikkinchidan, iqtisodiy resurslarga talab ularning unumdorligiga bog'liq bo'ladi. Resurslar unumdorligi o'sib borishi bilan ularga bo'lgan talab ham ortib boradi va aksincha.

Uchinchidan, resurslarga talab ular yordamida ishlab chiqariladigan tovarlar narxiga bog'liq bo'ladi. Agar tovar narxi o'ssa, resurslarga talab ham ortadi va aksincha.

To'rtinchidan, resurslarga bo'lgan talab birgalikda foydalaniladigan boshqa resurslar narxi va unumdorligiga bog'liq bo'ladi. Birgalikda foydalaniladigan resurs narxi esa, uning o'rnini bosish darajasi va mahsulot chiqarish hajmi ta'siriga bog'liqlikda o'zgarib turadi.

Iqtisodiy resurslar taklifi ularning xususiyatidan kelib chiqib shakllanadi.

Birinchi, barcha iqtisodiy resurslarga xos bo'lgan umumiy xususiyat, ularning ehtiyojlarga nisbatan cheklanganligi hisoblanadi. Shu sababli, iqtisodiy resurslar taklifini ularga talab o'sishiga mos ravishda ko'paytirib borish mumkin bo'lmaydi.

Ikkinchi, har xil iqtisodiy resurslar bir xil bo'lmagan harakatchanlikka, uning oqibatida taklifi turlicha egiluvchanlikka ega bo'ladi. Agar iqtisodiy resurslar harakatchan bo'lsa, nisbatan kuchsiz rag'batlar ta'sirida bir sohadan boshqasiga osonlik bilan almashadi, bunday resursning taklifi ham egiluvchan, ya'ni unga narxning sezilarsiz oshishi natijasida faoliyatning mazkur sohasiga boshqa sohalardan yetarlicha miqdordagi resurslar jalb qilinadi.

Uchinchi, resurslarning harakatchanligi vaqt bo'yicha ortib boradi. Vaqt o'tishi bilan resurslarning umumiy miqdori ham nisbatan ortadi.

Tayanch tushunchalar

Talab – iste'molchi ma'lum vaqtda narxlarning har bir darajasida sotib olishga qodir bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdoridir.

Talab egri chizig'i – grafikda narx va talabning hajmi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatadi.

Talab qonuni – tovarlar narxi bilan uning sotib olinadigan miqdori o‘rtasidagi teskari yoki qarama-qarshi bog‘liqlikni ifodalaydi.

Taklif – ishlab chiqaruvchi ma’lum vaqtda ishlab chiqarishga qodir bo‘lgan narxning har bir darajasida bozorga sotishga chiqaradigan tovarlar miqdoridir.

Taklif egri chizig‘i – narx va taklifning hajmi o‘rtasidagi to‘g‘ridan - to‘g‘ri bog‘liqlikning grafikdagi tasviridir.

Taklif qonuni – narx bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdori o‘rtasidagi bevosita yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni ifodalaydi.

Taklif (talab) ning egiluvchanligi – narx 1% o‘zgarganda talab necha foiz o‘zgarishini ko‘rsatadi. Bu talabning narx bo‘yicha egiluvchanligi ham deyiladi.

Daromad samarasi – narx pasayganda iste’molchi pul daromadlarining sotib olish layoqatining ortishidir.

Muhokama uchun savollar

1. Talab qonunini tushuntiring. Talabga qanday omillar ta’sir qiladi? Bu omillardan har biri o‘zgarsa, talab egri chizig‘ida qanday o‘zgarish ro‘y beradi?

2. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta’sir qiladi? Bu omillardan har biri o‘zgarsa, talab egri chizig‘ida qanday o‘zgarish ro‘y beradi?

3. Don birjasida bug‘doyga bo‘lgan talab va taklifning umumiy hajmi quyidagi ma’lumotlar bilan xarakterlanadi deb faraz qilamiz:

Talab, ming sentner hisobida	Bir sentner narxi (so‘m) hisobida	Taklif ming sentner hisobida	Ortiqcha (+) yoki kam (-)
85	3400	72	
80	3700	73	
75	4000	75	
70	4300	77	
65	4600	79	
60	4900	81	

a) bozor narxi yoki muvozanatli narx qanday bo‘ladi?

Bugʻdoyning muvozanatli miqdori qancha? 4-ustunni toʻldiring va natijalarini tushuntirib bering; b) shu maʼlumotlardan foydalanib bugʻdoyga boʻlgan talab va taklifning grafik shaklidagi tasvirini bering. Muvozanatli narx va muvozanatli miqdorni aniqlang. Bunday narx qanday oqibatlarga olib kelishini batafsil tushuntiring. Oʻz javoblaringizni grafikda tasvirlang.

4. Talab va taklifning quyidagi oʻzgarishlarining har biri raqobatli bozorda muvozanatli narx va mahsulotlarning muvozanatli miqdoriga qanday taʼsir koʻrsatadi? Javoblaringizning toʻgʻriligini tekshirish uchun talab va taklif diagrammasidan foydalaning.

a) taklif qisqaradi, talab esa oʻzgarishsiz qoladi; b) talab qisqaradi, taklif esa oʻzgarishsiz qoladi; d) taklif koʻpayadi, talab esa oʻzgarishsiz qoladi; e) talab ortadi va taklif ham koʻpayadi; f) talab ortadi, taklif esa oʻzgarishsiz qoladi; g) taklif koʻpayadi, talab esa qisqaradi; h) talab ortadi, taklif esa qisqaradi; i) talab qisqaradi va taklif ham qisqaradi.

IX bob. NARXNING MOHIYATI VA SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

- 1. Narxning mazmuni va vazifalari.**
- 2. Raqobatning turli ko‘rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari.**
- 3. Narxning turlari. O‘zbekistonda davlatning narx siyosati.**

1. Narxning mazmuni va vazifalari

Tovarlar qiymati va ularning nafliligi o‘zlarining namoyon bo‘lishini narxda topadi. Amaliy hayotda qiymat tovar ishlab chiqaruvchilarni, naflilik esa iste’molchilarni rag‘batlantiruvchi, ularni harakatga keltiruvchi kuch sifatida amal qiladi.

Tovarning doimo bir-birini taqozo etadigan, ikki xususiyatga, ya’ni ma’lum bir naflilikka va qiymatga ega ekanligi sababli narx mazmuni turlicha talqin qilinadi va unga turlicha ta’rif beriladi. Bunga qo‘shimcha narxning darajasiga uning o‘zgarishiga turli omillar ta’sir qiladiki, bu ham masalani to‘g‘ri tushunishni biroz chigallashtiradi. Masalan, ingliz klassik siyosiy iqtisod maktabi vakillari g‘oyalarida narxning asosini qiymat tashkil qiladi deyilgan bo‘lsa, marjinalizm yo‘nalishidagi oqimlar qarashlarida tovar narxining asosini uning nafliligi, aniqroq aytganda, qo‘shilgan miqdor nafliligi tashkil qiladi deyiladi. Bunda so‘nggi qo‘shilgan miqdor nafliligiga alohida e’tibor beriladi. Uchinchi guruh toifa-dagilar esa narx talab va taklif asosida tashkil topadi deyishadi. Ularning har biri o‘zlaricha turli dalillar topib, o‘z g‘oyalarini isbotlashga harakat qiladilar⁵¹.

Bozor iqtisodiyotida narx butun tizimni harakatga keltiruvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Tovarlar narxi bozor mexanizmining asosiy iqtisodiy dastagi hisoblanadi.

⁵¹ McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page . 436-437

Ayni vaqtda ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar (sotuvchi va xaridor)ning, tadbirkorlar, butun jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlari narx orqali ro'yobga chiqariladi. Bu narxning mazmuniga turlicha qarashlarni qaror toptiradi.

Narxning mazmuniga turli qarashlardan A.Marshall tomonidan sintezlashtiriladi.

A.Marshall narxga keyingi naflilik, ishlab chiqarish xarajatlari hamda talab va taklif nisbatining pulda mujassamlashishi sifatida qaraydi.

A. Marshall o'zining narx konsepsiyasida A.Smit, D.Rikardo, J.B.Sey, Bem-Bavrik va boshqalarning nazariyalariga tayanadi hamda ularni umumlashtiradi.

U o'z qarashlarida **keyingi qo'shilgan naflilik, ishlab chiqarish xarajatlari, talab va taklif** nazariyasini uyg'unlashtirib narxning mazmunini ochishga harakat qiladi. U qiymatning amal qilishini inkor qilib, faqat almashuv qiymatni tan oladi. Uning fikri bo'yicha shu almashuv qiymat – narxdir.

A. Marshall fikricha narx – bu tovar va xizmatlarning foydaliligini, ya'ni kishilarga naf keltirishini baholash vositasi bo'lib, tovar birligi uchun to'lanadigan pul miqdori bilan o'lchanadi.

Bunda ikki xil narxni ajratib ko'rsatishadi.

a) talab narxi. Bu – narx har bir tovar birligining xaridorlarni o'ziga jalb qila olish qobiliyatidir, istaklar ko'paysa u ortadi.

b) taklif narxi – bu tovarning sotuvga kelib tushgan narxidir.

Narx – talab va taklifning muayyan nisbatida, tovar (xizmati)ni ishlab chiqarishga ketgan iqtisodiy resurs xarajatlari hamda uning naflilikining pul ko'rinishida mujassamlashtiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx bir qator vazifalarni bajaradi:

1. Bozor muvozanatini ta'minlash. Bunda narx bozordagi talab va taklifga ta'sir ko'rsatish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi. Bozor narxi – bu muvozanatli narx bo'lib, u bozorda talab va takliflarning mos tushganligini bildiradi.

2. Iqtisodiyotni tartibga solish. Narx bozor iqtisodiyotining asosiy tartibga solish mexanizmidir. Ayni vaqtda davlat ham uning quyi va yuqori chegarasini belgilab iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqaruvchilar narx o'zgarishiga qarab ish yuritadilar. U bozor holatini ko'rsatib turadi. Masalan: «A» tovarga

bo'lgan talab oshsa narx ham oshadi, bu esa tadbirkorlarni shu tovarni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi va aksincha.

3. Raqobat vositasi. Ma'lumki, raqobat ham bozor iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Raqobat usullaridan biri bu narx vositasidagi kurashdir. Narxni pasaytirish orqali bu kurashda yutib chiqish mumkin.

4. Hisob - kitob vazifasi. Narx – bu almashuv qiymat, boshqacha qilib aytganda, tovar uchun to'lanadigan pul miqdoridir. Shu asosida u hisob-kitob vazifasini bajaradi.

5. Ijtimoiy himoya vazifasi. Bozor iqtisodiyotining o'tish bosqichida ijtimoiy himoya vazifasini o'tovchi narxlar, aholining keng qatlamlarini hayotiy zarur iste'mol tovarlari bilan eng kam darajada ta'minlash maqsadida ham qo'llaniladi. Masalan, bizning mamlakatimizda 1991-yildan 1995-yilgacha un va un mahsulotlari, qand-shakar, go'sht, o'simlik moyi, choy, sovun kabi mahsulotlar dotatsiyalashgan narxlarda cheklangan miqdorda sotildi. Ularning dotatsion va haqiqiy narxlari o'rtasidagi farq budget mablag'lari hisobiga qoplab borildi.

6. Qiymat va naflilikni o'lchash vazifasi Narx qiymat va naflilikning puldagi ifodasi deb aytamiz, Chunki qilingan sarf-xarajatlar va olingan natijalar (foйда yoki zarar) narxlar asosida hisob-kitob qilinadi. Ishlab chiqarish va uning natijalarining natural ko'rsatkichlari ham mavjud (tonna, kg, m², m³, kvt-soat va hokazo). Bu ko'rsatkichlarni shu holicha taqqoslab, bitta umumiy ko'rsatkichga keltirib bo'lmaydi. Barcha natural ko'rsatkichlarning umumiy o'lchovi ularning pulda ifodalangan narxidir. Hisob-kitob uchun joriy va qiyosiy narxlar qo'llaniladi. **Joriy narxlar amaldagi narxlar bo'lib, ular yordamida yil davomidagi ishlab chiqarish natijalari hisoblanadi. Qiyosiy narxlarda ma'lum yil (basis yil) asos qilib olinib, ishlab chiqarishning natijalari shu narxda hisoblanadi va boshqa yillar bilan taqqoslanadi.** Yalpi milliy mahsulot, milliy daromad, real ish haqi va shu kabi ko'rsatkichlar dinamikasi qiyosiy narxlarda hisoblanadi. Chunki joriy narxlar inflatsiya tufayli o'zgarishi va real iqtisodiy natijani ko'rsatmasligi mumkin⁵².

⁵² McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 20th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2014. page 436-437

7. Taqsimlash vazifasi. Narx vositasida daromadlar, mahsulotlar va iqtisodiy resurslar mulkdorlar, tarmoqlar, sohalar hamda hududlar o'rtasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

2. Raqobatning turli ko'rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari

Narxning shakllanishiga bozorning holati bevosita ta'sir ko'rsatadi, Chunki narxning shakllanishida bozordagi talab va taklif nisbati asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, talab va taklif miqdoriga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatiga ko'ra bozordagi raqobatning turli ko'rinishlari farqlanadi.



Erkin raqobat sharoitida ishlab chiqaruvchi (yoki sotuvchi) hamda iste'molchi (yoki xaridor)larning soni juda

ko'p bo'lib, ularning ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish orqali narx shakllanishiga ta'siri umuman sezilmaydi.

Raqobat cheklangan sharoitida esa ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) yoki iste'molchilar (xaridorlar)dan birining soni cheklangan bo'lishi ularning bozordagi ishlab chiqarish hajmiga va pirovardida, bozordagi narxning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bunday raqobat turli darajalardagi narxlarning shakllanish xususiyatlari bir-biridan farq qiladi.

Shu sababli, biz quyida sof raqobat, sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya sharoitida narxlarning shakllanish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.



Erkin yoki sof raqobat sharoitida narxning shakllanishi. Erkin raqobat kurashi sharoitida narxning tashkil topish xususiyatlarini tadqiq etgan dastlabki iqtisodchilardan biri A.Marshall


hisoblanadi. Uning fikricha, tovarning oldi-sotdi jarayoniga qadar ikki xil, ya'ni sotuvchi va xaridor narxlari mavjud bo'ladi. Nazariy jihatdan har ikki narxning yuqori va quyi darajalari mavjud. Sotuvchi o'z tovari narxining imkon qadar yuqori bo'lishidan manfaatdor, chunki bunday narx uning foydasi hajmini oshiradi. Biroq erkin raqobat sharoitida narxni boshqalardan yuqori darajada belgilashga intilish mazkur sotuvchining bozordan siqib chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Sotuvchi narxining eng past darajasi shu tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarni qoplashi kerak. Xaridor tovarni eng past narxda sotib olishdan manfaatdor, biroq erkin raqobatli bozor sharoitida uning ham tovar sotib ololmay qolish xavfi mavjud bo'ladi. Xaridor narxining yuqori darajasi esa, Marshall ta'biricha, so'nggi qo'shilgan miqdor nafliligiga teng bo'lishi kerak.

Sotuvchi va xaridor o'rtasidagi qulay narxga erishish borasidagi kurash har ikki narxning mosligi ta'minlanguncha, ya'ni bozor narxi paydo bo'lguncha davom etadi. Shunday qilib, sotuvchining narxi tomonidan ishlab chiqarish xarajatlari, xaridor narxi tomonidan esa so'nggi qo'shilgan miqdor nafliligi maydonga chiqib, ularning nisbati asosida bozor narxi paydo bo'ladi. Bu holatni Marshall shunday ifodalaydi: «ishlab chiqarish xarajatlari» prinsipi hamda «so'nggi qo'shilgan naflilik» prinsipi, shubhasiz, yagona talab va taklif umumiy qonunining tarkibiy qismi hisoblanib, ulardan har birini qaychining bitta kesuvchi tomoniga qiyoslash mumkin»⁵³.

⁵³ Маршалл А. Принципы экономической науки. В 3 т. М., 1993. Т.III. С.282.

Erkin raqobatli bozor sharoitida narxning shakllanishiga talab va taklif ta'sir ko'rsatadi, A.Marshall ta'kidlaganidek, uning asosida ijtimoiy zaruriy naflilik va ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari yotadi.

Talab va taklifning muvozanati erkin raqobat bozoridagi narxning shakllanishiga muvofiq keladi (1-rasm).



9.1-chizma. Erkin raqobatli bozor sharoitida narxning shakllanishi.

Chizmadan ko'rinadiki, faqat narxning RE darajasidagi talab miqdoriga ishlab chiqaruvchilar tomonidan taklif miqdori muvofiq keladi. Narxning bu darajadan har qanday pasayishi talabning taklifdan oshib ketishini, narxning bu darajadan har qanday yuqori bo'lishi esa, taklifning talabdan oshib ketishini keltirib chiqaradi.

Narxning RA darajasidagi holat uzoq vaqt mavjud bo'la olmaydi. Chunki, tovarlarning sotilmay, to'planib qolishi bilan sotuvchilar o'rtasidagi raqobat kuchayib, ular o'z tovarlarini tezroq sotish maqsadida narxni tushira boshlaydilar.

Narxning RV darajasidagi holat ham barqaror turmaydi. Chunki, bu holatda talab taklifdan oshib ketib, tovarlar taqchilligi boshlanadi. Taqchil tovarga ega bo'lish uchun bir-biri bilan raqobatga kirishgan xaridorlar uning narxini oshira boshlaydilar.

Bozordagi yagona muvozanatlashgan, nisbatan uzoq vaqt barqaror amal qiluvchi narx sifatida talab hajmi taklif hajmiga muvofiq kelgan holdagi narx RE hisoblanadi. Raqobatlashuv asosida paydo bo'lgan muvozanat doimo talab va taklif egri chiziqlarining


kesishuv nuqtasida joylashadi. Muvozanat narxi har doim ham darhol, bir zumda tarkib topmaydi. Unga erishishda toki talab va taklif muvozanatga kelgunga qadar narx atrofidagi tebranishlarni o'z ichiga oluvchi ma'lum davrlar taqozo etilishi mumkin.

Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Monopoliya sharoitida narx shakllanishining o'ziga xos jihati shundaki, agar mayda tovar ishlab chiqaruvchilar faqat o'zlarining individual narxlarini o'zgartira olsalar, ulardan farqli o'laroq bozor ishtirokchilari sifatidagi monopoliyalar bozor narxlarini o'zlari belgilay oladilar. Bunda monopoliyalar talabning umumiy oshishi bilan narxning o'sishi hamda taklifning umumiy oshishi bilan narxning pasayib borishidan o'ziga xos tarzda foydalanadilar.

Ommaviy tartibda tovarlarni sotuvchi monopoliyalar o'z manfaatlari yo'lida taklif cheklanganda narxning oshishi tendensiyasidan foydalanadilar.

Umumiy taklif bo'yicha narx o'zgarishi quyidagi miqdoriy bog'liqlikni aks ettiradi: talabga nisbatan tovarlar taklifi qanchalik yuqori bo'lsa, bozor narxi darajasi shunchalik past bo'ladi va aksincha, taklif kamayishi bilan narx oshib boradi. Bu bog'liqlik rasmda yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Chizmadan ko'rinadiki, yotiq o'qda muayyan tovarlar taklifi hajmining ko'payib borishi, tik o'qda esa mahsulot birligiga bo'lgan narx darajasining oshib borishi aks ettirilgan. Taklif bo'yicha narx egri chizig'i (R_1R_2) bozor narxining tovarlar umumiy taklifiga bog'liqligini ifodalaydi.



9.2-chizma. Taklif bo'yicha narx egri chizig'i.

Monopolistlar mahsulotlarning sun'iy taqchilligini vujudga keltirish maqsadida o'z tovarlarini sotish hajmini ataylab qisqartiradilar. Bozorda tovarlarning yetishmasligi monopol yuqori narxlarning o'sishiga olib keladi.


Monopoliyalar narxni oshirishning har bir yangi jarayonida tovarlarni ishlab chiqarish va sotish hajmini qisqartirishdan ko'rilgan zararni hisobga oladi. Daromaddan bunday yo'qotishlarning oldini olish maqsadida ular narxlarni yanada yuqori darajada belgilaydilar. Shu bilan bir vaqtda monopoliyalar mahsulotlarning qisqargan hajmini sotishdan olingan tushum yo'l qo'yilgan yo'qotishni qoplashi hamda daromad miqdorining o'sishini ta'minlashini nazorat qilib turadilar.

Umumiy talab bo'yicha narxning o'zgarishi quyidagi miqdoriy bog'liqlikni aks ettiradi: taklifga nisbatan xaridorlarning ommaviy talabi qanchalik katta bo'lsa, bozor narxi darajasi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha, talabning kamayishi bilan bozor narxi pasayib boradi. Bu bog'liqlik rasmda yaqqolroq aks ettirilgan.

Chizmadan ko'rinadiki, tik o'qda muayyan tovarlarga talab hajmining ko'payib borishi, yotiq o'qda esa mahsulot birligiga bo'lgan narx darajasining oshib borishi aks ettirilgan. Talab bo'yicha narx egri chizig'i (R1R2) bozor narxining xaridorlarning ommaviy talabiga bog'liqligini ifodalaydi.

Monopolist o'zi uchun zarur bo'lgan tovarni, masalan, qishloq xo'jaligi xomashyosini oldindan past narxlarda sotib olib, uning

katta miqdordagi zaxirasini tayyorlab qo‘yadi. Bu esa unga yangi hosilning yig‘im-terimi davrida o‘zi sotib olayotgan xomashyoga monopol past narxlarni o‘rnatish imkonini beradi. Bunday past narxlarda monopolist juda katta foyda oladi. Bunga g‘arb mamlakatlari monopsoniyalari tomonidan ancha vaqtdan buyon Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari tadbirkorlari va mayda tovar ishlab chiqaruvchilaridan sotib olinayotgan arzon xomashyoni misol tariqasida keltirish mumkin. Afrikadan an‘anaviy tarzda eksport qilinuvchi bir qator tovarlar (choy, kofe, kakao va h.k.)ga ham azaldan o‘ta past narxlar o‘rnatib kelinadi.



9.3-chizma. Talab bo‘yicha narx egri chizig‘i.

Bir vaqtning o‘zida monopoliya va monopsoniya hisoblanuvchi firma o‘zining daromadini «narxlar qaychisi» usuli orqali ahamiyatli darajada oshiradi. Bunda monopol yuqori va monopol past narxlardan foydalanilib, ular o‘rtasidagi farq xuddi qaychining ikkita kesuvchi tomoni bir-biridan uzoqlashgandagi singari kattalashib boradi. Narxlarning bunday harakati tovarlar ortiqchaligi va taqchilligi hududining kengayishiga asoslanadi. U sanoatning ko‘plab qayta ishlovchi korxonalar uchun xosdir. Bu korxonalar o‘zlarining tayyor mahsulotlariga undirma sanoat tarmoqlarida

oʻrnatilgan narxlarga nisbatan bir necha marta yuqori narxlarni belgilaydi.


XX asrning ikkinchi yarmida AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa gʻarb mamlakatlarida agrobiznes sohasining kengayishi bilan narxlar qaychisi asosiy usullardan biriga aylanib, uning yordamida yirik firmalar oʻrta va mayda fermerlarni qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishidan siqib chiqardilar.

Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi tarmoqdagi tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan qoʻllaniluvchi «ergashish» hamda «inkor etish» xatti-harakatlari orqali izohlanadi.

«Ergashish» holatida bir oligopolist tomonidan narx boʻyicha qilingan oʻzgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga qolgan oligopolistlar ham ergashadi, yaʼni shunday oʻzgarishlar qilish kuzatiladi. Odatda, bozorda oʻz tovarlariga narxni pasaytirish orqali isteʼmolchilari soni hamda sotish hajmini oshirishga qaror qilgan oligopolist xatti-harakatiga javoban qolgan oligopolistlar ham narxlarni pasaytiradilar. Natijada narxning umumiy pasayishi roʻy berib, bozordagi ulush oldingi holda qoladi, yaʼni oligopolistning xatti-harakati samara bermaydi.

«Inkor etish» holatida bir oligopolist tomonidan narx boʻyicha qilingan oʻzgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga qolgan oligopolistlar tomonidan inkor etish, yaʼni hech qanday javob oʻzgarishlari qilmaslik kuzatiladi. Koʻpincha bunday holat oligopolist tomonidan oʻz tovariga narxni oshirgan chogʻida roʻy beradi, yaʼni qolgan oligopolistlar tovarlari narxlarini oshirmaydilar. Natijada, narxni oshirgan oligopolist oʻz isteʼmolchilarini yoʻqotib, bozordan siqib chiqariladi.

Yuqorida bayon etilgan holatlar natijasida oligopolist-firmaning talab egri chizigʻi «siniq egri chiziq» koʻrinishini oladi. Bunday holatni birinchi boʻlib XX asrning 40-yillarida amerikalik iqtisodchi P.Suizi tavsiflab bergan.



9.4-chizma. Oligopolistik bozordagi narxning shakllanishida talab egri chizig‘ining «sinishi».

Chizmadan ko‘rinadiki, dastlab oligopolist firmaning mahsulotiga talab egri chizig‘i D1D1 ko‘rinishida bo‘lib, R_0 narx darajasida Q_0 sotish hajmini ta‘minlaydi. Oligopolist-firma o‘z tovari narxini R_1 darajaga pasaytirishi talabni o‘stirib, mahsulot hajmini Q_1 ga qadar oshirishi ko‘zda tutiladi. Biroq boshqa oligopolistlarning «ergashish»ga harakat qilishi, ya‘ni ularning ham o‘z tovarlari narxini pasaytirishi natijasida talab egri chizig‘ining «sinishi» ro‘y berib, u endi D1ED2 ko‘rinishini oladi. Oqibatda sotish hajmi oldingi Q_0 darajasida qolgani holda tovarning narxi pasayib, oligopolistlar o‘z foydalarining ma‘lum bir qismini yo‘qotadilar.

Oligopolist-firma o‘z tovari narxini R_0 dan R_2 ga oshirgan taqdirda qolgan oligopolistlar «inkor etish» harakatini qo‘llashlari natijasida talab egri chizig‘i yana «sinadi». Oldingi D1D1 ko‘rinishdagi talab egri chizig‘i endi D3ED1 ko‘rinishini oladi. Agar boshqa oligopolistlar ham o‘z tovarlari narxini oshirganlarida, mazkur oligopolist-firmaning tovariga bo‘lgan talab hajmi Q_2 ga qadar qisqarishi lozim bo‘lsa, bunday harakatning amalga oshirilmashligi natijasida bu qisqarish Q_3 ga qadar davom etadi, ya‘ni bozordagi sotish hajmini yo‘qotish darajasi oshib ketadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko‘rinadiki, oligopoliya sharoitida ishlab chiqaruvchilar narxni ko‘proq o‘zaro kelishish orqali belgilashga harakat qiladilar.

O‘z mahsulotlariga bozor narxini o‘rnatishda oligopolistlar tomonidan «narx bo‘yicha yetakchilik» xatti-harakati keng qo‘llaniladi. Bu xatti-harakat narx vositasida raqobatlashuvni inkor etib, mazkur tarmoqqa kiruvchi barcha oligopolist-firmalarning narxni shakllantirish va uni o‘zgartirishda yetakchi oligopolist-firmaga ergashishlarini taqozo etadi. Odatda, tarmoqdagi eng yirik firma yetakchi sifatida chiqadi. Narx bo‘yicha yetakchi firma boshqalarga qaraganda iqtisodiy jihatdan ancha ustun bo‘lsa-da, u o‘zining harakatini faqat narx bo‘yicha tazyiq o‘tkazish asosida amalga oshira olmaydi. Narxni shakllantirishda yetakchi firma boshqa ergashuvchi firmalarning ham manfaatlarini e‘tiborga olmog‘i lozim. Bu manfaatlar ularning xarajatlarini qoplash, me‘yordagi foydani ta‘minlash, mahsulotlarni sotishga sharoit yaratish kabi holatlar orqali namoyon bo‘ladi. Agar talab yoki ishlab chiqarish xarajatlarining o‘zgarishi natijasida bozor narxi oligopolistik kelishuv doirasidagi firmalarning manfaatlariga muvofiq kelmay qolsa, yetakchi firma darhol narxlarni o‘zgartirishi lozim bo‘ladi.

3. Narxning turlari. O‘zbekistonda davlatning narx siyosati

Narxlarni turkumlashga bir qator mezonlar asos qilib olinadi. Bular narxlarning iqtisodiy mazmuni, tartibga solinish darajasi va amal qilish doirasidir.

Iqtisodiy mazmuniga ko‘ra narxlar quyidagi turlarga ajratiladi.

Ulgurji narxlar. Bu narxlarda tovarlar katta partiyalarda, ko‘tarasiga sotiladi. U tarkiban ishlab chiqarish xarajatlari hamda ulgurji-savdo tashkilotlari xarajatlari va foydasini o‘z ichiga oladi.

Chakana narxlar. Bu tovarlar bevosita iste‘molchilarga sotiladigan narxlar. Chakana narx o‘z tarkibiga tovarning ulgurji narxi hamda chakana savdo tashkilotlari xarajatlari va foydasini oladi.



Xarid narxlari. Bu narxlar davlat buyurtmasi bo'yicha ishlab chiqarilgan tovarlarga belgilanadi. Ayrim hollarda bunday narxlarga muayyan ustama va imtiyozlar bo'lishi ko'zda tutiladi.

Dotatsion narxlar. Davlat budjeti hisobidan arzonlashtirilgan narxlardir.

Demping narxlar. Bunday narxlarda ishlab chiqaruvchilar bozordagi mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarishda foydalanadi. U bozorga «suqilib kirish» narxi deb ham ataladi.

Nufuzli narxlar. Allohining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli (obro'-talab) tovarlarga belgilanadi.

Ta'riflar. Turli xil xizmatlar (telefon, transport, kommunal va h.k.) narxi sifatida chiqadi.

Tartibga solinishi darajasiga ko'ra narxining quyidagi turlari mavjud bo'lishi ko'zda tutiladi.

Qat'iy belgilangan narxlar. Ma'muriy tarzda belgilanib, bozor kuchlari ta'sir ko'rsatmaydi va muayyan davr davomida doimiy bo'lib qoladi.

Erkin narxlar. Talab va taklif ta'siri ostida vujudga keladigan bozor narxlaridir.

Tartibga solinadigan narxlar. Ayrim tovarlarga davlat narxlarning yuqori (iste'molchi manfaatini ko'zlab) va quyi (ishlab chiqaruvchi manfaatini ko'zlab) chegarasini belgilanganda hamda moliyaviy va kreditli dastaklardan foydalanib, narxga ta'sir ko'rsatganda o'z o'rniga ega bo'ladi.

Tartibga solinadigan narxlarga limitlangan va dotatsiyalangan narxlarni kiritish mumkin. Limitlangan narxlarda davlat tomonidan belgilangan yuqori va quyi chegara doirada o'zgarishi mumkin. Bunday narxlar yordamida davlat inflatsiyani jilovlaydi, uning o'sishini nazorat qiladi. Dotatsiyalashgan narxlarni bozori kasod bo'lganida firmalar arzonlashtiradigan narxlar bilan o'xshatmaslik kerak. Dotatsiyali narxlar daromadi past oilalar, aholining ishsiz va nogiron qatlamlarini minimal darajada ta'minlab turish uchun ishlatiladi. Maxsus arzonlashtirilgan, ammo dotatsiyasi bo'lmagan

narxlar ham borki, ularni belgilashda firmalar, xayri-ehson tashkilotlari qatnashadi. Mazkur homiyalar tovarlarning odatdagi narxi bilan arzonlashtirilgan narxi o'rtasidagi farqni o'z mablag'lari hisobidan qoplaydilar.

Shartnoma narxlari. Ishlab chiqaruvchi va iste'molchi tomonidan shartnomada qayd qilingan narxlardir.

Amal qilish doirasi (bozor ko'lami)ga ko'ra hududiy, milliy va jahon narxlari ajratiladi.

Hududiy (mintaqaviy) narxlar muayyan hududiy bozorlarda uning doirasida amal qiluvchi omillar ta'sirida shakllanadi.

Milliy narxlar alohida mamlakatlar doirasida o'rtacha ijtimoiy sarf-xarajatlar, milliy bozordagi talab va taklif ta'sirida shakllanadi.

Jahon narxlari muayyan tovarlarni ishlab chiqarishga ketgan baynalmilal xarajatlarni, tovarlarning jahon andozasi talablariga mos kelishi darajasini hamda xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini o'zida aks ettiradi.

O'zgaruvchanlik darajasiga ko'ra standart va o'zgaruvchan narxlar farqlanadi.

Bozor sharoitiga qarab o'zgarmaydigan narxlar standart narxlar deyiladi. Bunda narx o'zgarishida, foyda ko'payishi mumkin, ya'ni bu narx xaridorga qulaylik tug'diruvchi xarajatlarni qisqartirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Masalan: Avtobusda yo'l haqi o'zgarmaydi, lekin avtobuslar soni qisqaradi yoki bekatlar qisqartiriladi, muzqaymoq tarkibida sariyog' yoki qaymoq ulushi kamaytiriladi.

O'zgaruvchan narxlar – bozor sharoitiga qarab oshib yoki pasayib turadi. Bunda talabning o'zgarishi hisobga olinadi. Masalan: yangi tovar rusumga kirayotganda, unga talab yuqori, shunga ko'ra narxi baland bo'ladi. U kundalik zarur tovarga aylangach narxi ham arzonlashadi. O'zgaruvchan narxlar yana shunda ko'rinadiki, qish mavsumi boshlanganida qishki kiyimlar qimmat bo'lib, bahorga borib ular arzonlashadi. Narxlarning o'zgarishi ma'lum chegarada yuz beradi. Narxlar o'rtasidagi farqning miqdoriy o'lchami narx diapazoni deyiladi.

Narx diapazoni – turli narxlar oralig'ining puldagi ifodasidir.

Shakllanish sharoitidan kelib chiqib, erkin bozor narxlari va monopoliy narxlarni ajratish mumkin.

Monopol narxlar monopol mavqeiga ega bo'lgan tovarlarga belgilanib, u ishlab chiqarish narxidan yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

Erkin bozor narxlari – sof raqobatli bozor sharoitida vujudga keladi.

Yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tibiiy resurslarga belgilanadigan narxlarni irratsion narxlar deyiladi.

Yashirin narxlar xufiyona bozorlarda shakllanadigan narxlarni anglatadi.

Narxlar darajasi va nisbati bozor holatini ko'rsatadi. Narxlar darajasi ularning mutlaq o'lchamidir. Narx darajasi ikki turga bo'linadi: 1) Mutlaq daraja – bu narxning umumiy miqdori bo'lib, ma'lum tovarning qancha turishini ko'rsatadi. 2) Nisbiy daraja – bu narxning iste'molchi daromadi xarid qobiliyatidagi ulushini ko'rsatadi. U tovar narxi iste'molchi pul daromadining necha foizini tashkil etishini ko'rsatadi. Masalan: iste'molchining bir oylik maoshi 1,5 mln deb faraz qilaylik, 1 kg go'sht narxi 30 ming so'm. Demak, go'sht narxining dehqon bir oylik daromadidagi nisbiy ulushi 2% ($30:1500 \times 100$)ga teng.

Davlatning narx siyosati – bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida narxlarni erkinlashtirish va milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirishga qaratiladi.

Narxlarni erkinlashtirishdan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

xomashyo bilan mahsulot ayrim turlari narxlari o'rtasidagi nomutanosiblikni yumshatish;

narx bilan aholi daromadlari va korxonalar foydasi o'rtasidagi mutanosiblikka erishish;

investitsion tovarlar, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxlarining oqilona nisbatini ta'minlash;

ishlab chiqarish vositalari, xalq iste'mol tovarlari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari hamda tariflariga o'tish;

milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish.

Narxlarni erkinlashtirish-iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ko'p jihatdan shu muammoning hal etilishiga bog'liq bo'ladi. Narxlarni erkinlashtirish xomashyo bilan mahsulot ayrim turlarining narxlari, narx bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasida mutanosiblikka

erishishga qanday yondashilishi bilan farqlanadi. Shu yondashuvlarga asoslanib, narxlar quyidagi yo‘llar bilan erkinlashtiriladi:

a) narxlarni birdaniga yoki «esankiratadigan» tarzda qo‘yib yuborish; b) narxlar o‘shishini sun‘iy ravishda to‘xtatib qo‘yish; d) narxni davlat tomonidan boshqarish va nazorat qilishni ma‘lum darajada saqlab qolish.

Bozor munosabatlariga o‘tayotgan har bir mamlakat, shu yo‘llardan birini tanlashda ulardan har birining mavjud real shart-sharoitlarga qanchalik mos kelishi, aholi asosiy qismining moddiy ahvoriga qanday darajada ta‘sir ko‘rsatishi, isloh qilishning tanlab olingan yo‘liga qanchalik darajada javob berishi va kutiladigan salbiy oqibatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda MDH ning bir qator mustaqil davlatlar narxlarni erkinlashtirishning «tezkor» yo‘lini tanlab oldi. Barcha turdagi xomashyo resurslari, iste‘mol mollari hamda xizmatlar narxini bir yo‘la erkin qo‘yib yubordi. Natijada narxlar keskin oshdi. Bu aholi keng qatlamining birdaniga qashshoqlashuviga, ijtimoiy ahvolning keskinlashuviga olib keldi, ishlab chiqarishning pasayishiga, milliy sanoat va qishloq xo‘jaligining izdan chiqishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning o‘ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo‘li tanlab olindi. Shu yo‘l bilan narxlarni erkinlashtirishning dastlabki bosqichida (1992-yilning boshida) keng doiradagi ishlab chiqarish, texnika vositasi bo‘lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste‘moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari va tariflariga o‘tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo‘yildi, ayrim turdagi xizmatlarning eng yuqori tariflari joriy qilindi.

Narxlarni erkinlashtirishning keyingi bosqichida (1993-yil) keli-shilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to‘xtatildi. Qat’iy belgilangan va davlat tomonidan tartibga solib turiladigan narxlarda sotiladigan tovarlar va ko‘rsatiladigan xizmatlarning soni ancha qisqardi.

Narxlarni erkinlashtirishning navbatdagi bosqichida (1994-yil, oktabr, noyabr) xalq iste’mol mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo‘yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarning

tariflari oshirildi. Shunday qilib, respublikada iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni bosqichma-bosqich (uch bosqichda) to‘liq erkinlashtirish bilan tugadi.



Narxlarni erkinlashtirish aholini

ishonchli iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash tadbirlari bilan birga olib borildi. Respublika iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida: “... makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo‘lishini ta‘minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir”.

Tayanch tushunchalar

Narx – bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarga talab va taklif, ular qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi mujassam-lashishidir.

Ulgurji narxlar – ishlab chiqaruvchilar tomonidan tovarlar katta partiyalarda bir yo‘la ko‘tarasiga sotilganda mavjud bo‘ladi.

Chakana narxlar – tovarlar bevosita iste’molchilarga sotiladigan narxlardir.

Dotatsiyalashgan narx – davlat budjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxdir.

Demping narx – bozorda o‘z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun foydalanilib, bozorga kirib olish narxi deb ham ataladi.

Nufuzli narx – aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan tovarlarni sotishda qo‘llaniladi.

Narx diapazoni – narxlar oralig‘idagi farqning puldagi ifodasi.

Erkin narxlar – talab va taklif ta‘sirida shakllanadigan narxlaridir.

Muhokama uchun savollar

1. Narxning iqtisodiy mazmunini izohlang.
2. Narxning ahamiyati nimada va u qanday vazifalarni bajaradi?
3. A.Marshallning «Narx konsepsiyasi»ning mohiyati nimadan iborat?
4. Talab narxi va taklif narxini tushuntirib bering?
5. Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida narx qanday shakllanadi?
6. Narx qanday omillar ta‘sirida shakllanadi?
7. Monopollashgan bozorda narx qanday shakllanish xususiyatlariga ega?
8. Narxning qanday turlarini bilasiz?
9. Narxning quyi va yuqori chegarasi deganda nimani tushunsiz?
10. Narxning mutlaq va nisbiy darajasini tushuntirib bering.
11. Narx paritetini izohlab bering.
12. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi narx siyosatining o‘ziga xos xususiyatlarini aytib bering.

X bob. RAQOBAT VA MONOPOLIYA

- 1. Raqobatning iqtisodiy mazmuni.**
- 2. Raqobat shakllari va usullari.**
- 3. Monopoliya, uning vujudga kelishi va turlari.**
- 4. Monopoliyalarning afzalliklari va ijtimoiy - iqtisodiy oqibatlari.**

1. Raqobatning iqtisodiy mazmuni

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo‘jaligining eng muhim belgisi, rivojlantirish usuli va tartibga solish mexanizmi hisoblanadi.

Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondashib tahlil qilishni talab qiladi.

Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o‘rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat oxir-oqibatda iste’molchilar uchun kurashdir.


Resurslarni yetkazib beruvchilar o‘zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, yer-suv, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun raqobat qiladilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to‘liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo‘ladi.

Raqobat iste’molchilar o‘rtasida ham yuz beradi, ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar, ya’ni xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga ko‘proq naflilikka ega bo‘lishga harakat qiladi. Arzon va sifatli tovarni tezroq sotib olish uchun kurashadi.

Shunday qilib, raqobat ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u bozorning barcha subyektlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi.

Raqobat (lotincha, “concurrere” – qochish, to‘qnashish) – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashishidan iborat bo‘lib,

ular oʻrtasidagi yuqori foyda, koʻproq naflilik va omilli daromadga ega boʻlish uchun kurashni anglatadi.



10.1-chizma. Raqobat ishtirokchilarining asosiy maqsadlari.

Bunda ishlab chiqaruvchilar oʻrtasida sarflangan xarajatlarning har bir birligi evaziga koʻproq foyda olish uchun kurash boradi. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, yaʼni qulay bozorlar uchun, arzon xomashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun ular orasida kurash boradi.

Oʻz navbatida xaridorlar, yaʼni isteʼmolchilar sarflagan har bir soʻmi evaziga koʻproq naflilikka ega boʻlish uchun kurashadilar, ularning har biri arzon va sifatli tovar va xizmatlarga ega boʻlishga harakat qiladi.

Iqtisodiy resurs egalari taqdim qilingan resurslari hisobiga koʻproq omilli daromadga ega boʻlish uchun kurashadilar.

Ishlab chiqaruvchilarning faoliyat koʻrsatuvchi tadbirkor resurs egalarining mulk egasi va isteʼmolchilarning daromad egasi sifatida erkin va mustaqil boʻlishi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Chunki har bir bozor subyekting oʻz manfaati boʻlib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulk egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa sohalardagi faoliyati shu manfaatga boʻysundirilgan boʻladi. Bu jihatdan qaraganda raqobat erkin iqtisodiy faoliyat qiluvchi subyektlar manfaatlarining toʻqnashuvidan iborat boʻlishi aniq tavsiflanadi. Raqobat mavjud

bo'lishining boshqa sharti tovar-pul munosabatlarining ma'lum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidir.

Raqobatning rivojlanish bosqichlari:

Oddiy tovar xo'jaligiga xos bo'lgan raqobatchilik bosqichi.

Sof yoki erkin raqobatga asoslangan bosqich.

Monopolistik raqobat bosqich.

Hozirgi zamon madaniy jihatdan rivojlangan raqobatchilik bosqichi.

2. Raqobat shakllari va usullari

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur. O'z miqyosiga ko'ra raqobat eng avvalo, ikki turga – tarmoq ichidagi raqobatga va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.



Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir.

Erkin raqobat ikki darajada namoyon bo'ladi: tarmoq ichida, ya'ni bir xil tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasidagi raqobat va tarmoqlaro, ya'ni turli tarmoqlardagi korxonalar o'rtasidagi raqobat. Tarmoqlar ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli mazkur korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o'rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat natijasida texnikaviy darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda

oladi va aks holda, ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadi va zarar ko'radi.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalarini o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan uning normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Yangi kapitallar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Shuningdek, foyda normasi ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga bo'lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda normasi oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat obyektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qayerga sarflanganligidan qat'i nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta'minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa solinmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o'rtacha foyda normasiga «baravarlantiradi».

Erkin raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar.

Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli, alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak, mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarining paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Monopolistik raqobat o‘z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o‘nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini tabaqalashtirish, ya’ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo‘yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo‘lganligi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy bo‘lib, u mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko‘p bo‘lmagan korxonalarining mavjud bo‘lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko‘pchilik sanoat mahsulotlari – po‘lat, mis, aluminiy, qo‘rg‘oshin, temir va shu kabilar fizik ma’noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste’mol tovarlari – avtomobillar, kir yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.



Oligopoliya sharoitida korxonalar o‘rtasidagi raqobat o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o‘zining narx siyosatini mustaqil o‘zgartirishga botina olmaydi.

Biz qarab chiqqan raqobatning to‘rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya’ni sof holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohalarini batafsil o‘rganish, cheksiz ko‘p har xil raqobatli

vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko'rsatadi.

Hozirda turli darajadagi monopolistik tuzilmalar rivojlanib borishi bilan ular o'rtasidagi raqobatning shakllari ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib bormoqda. Jumladan, turli monopollashuv darajasidagi tuzilmalar o'rtasida mavjud bo'lishiga ko'ra quyidagi raqobat turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- monopollashmagan korxonalar o'rtasidagi raqobat;
- monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat;
- turli monopoliyalar o'rtasidagi raqobat;
- monopolistik birlashmalar ichidagi raqobat.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda g'irrom va halol raqobatlashuv turlari ham ajratib ko'rsatiladi. Raqobatlashuvning noan'anaviy, jamiyat tomonidan e'tirof etilmagan, ijtimoiy axloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya'ni jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro'siga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish g'irrom raqobat deb yuritiladi. G'irrom raqobat orqali firmalar o'z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Banklarni, moddiy resurs ta'minotchilarini kredit va materiallar yetkazib berishdan voz kechishga majburlash, yetakchi mutaxassislarni og'irib olish, narxni keskin pasaytirish g'irrom raqobatning oddiy usullaridir. Halol raqobat – raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo'llash, o'zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo'llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi. Shu o'rinda halol raqobatning quyidagi belgilarini ham ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- qalbaki bellashuv, majburiy safarbarlikni tan olmaydi;
- boqimandalik, farqsizlik, yuzakichilik, ko'zbo'yamachilik kabi salbiy holatlarga barham beradi;
- qarindosh-urug'chilikni, oshna-og'aynigarchilikni, tanish-bilishlikni, ma'muriy-buyruqbozlikni tan olmaydi⁵⁴.

⁵⁴ Абдуллаев Ё. Бозор иқтисодиёти асослари: 100 савол ва жавоб. – Т.: «Меҳнат», 1997, 58-59-б.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxlarini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlarinikiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi.

Uning asosiy va eng ko'p qo'llaniladigan ko'rinishi - «narxlar jangi» deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti-vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo'llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi kerak bo'ladi. Faqat shundagina tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxini tushirish imkoniyatini beradi.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri – demping narxlarni qo'llashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlar bo'yicha chiqaradi.

Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo'qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi.

Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy xarid qilingan tovarlarga boshqa tovarlarini qo'shib berish, muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullaridan ham foydalaniladi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda narx yordamida raqobat qilish o'z o'rniga ega emas, chunki ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsulotiga narxni pasaytirishi raqobatchilarining ham shunday harakat qilishini taqozo qiladi. Bu bozorda firmalarning mavqeini o'zgartirmaydi, faqat tarmoq bo'yicha foydani kamaytiradi.

Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmati ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'e'tibori hisoblanadi.

Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda yashirin narx yordamidagi raqobat ham bo'lishi mumkin. Buning uchun yangi tovarlarning sifati oshishi va iste'mol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarining oshishiga qaraganda tez ro'y berishi kerak. Hozirgi davrda bir turdagi mahsulotlarning ko'payishi ularning sotishni rag'batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va fabrika muhrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste'molchilik bozorida qo'shimcha xizmat ko'rsatish orqali xaridorlarni o'ziga jalb qilish keng tarqalmoqda.

Narxsiz raqobatning tovar sifatini tabaqalashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda tovarlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo'lishi, lekin turli-tuman iste'mol xossalariga ega bo'lishi mumkin.

Taklif talabga nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar tovarlarini kreditga sotish usulidan foydalanib raqiblaridan ustun kelishlari mumkin. Bunda dastlab tovar narxining faqat bir qismi to'lanadi, uning qolgan qismi esa shartnomada kelishilgan aniq muddatlarda qoplanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar xaridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan iste'molchilik tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishni amalga oshirmoqdalar. Masalan, kompyuter ishlab chiqaruvchi firma, o'z mahsulotini sotibgina qolmasdan, balki uni o'rnatadi, korxonada xodimlarini ulardan foydalanishga o'rgatadi, kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda ta'mir ishlarini bajaradi, texnikaviy xizmatni amalga oshiradi; mahsulotlari o'lchamlarini buyurtmachi ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Narxsiz raqobat usullari ichida marketing muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talabni yaxshi o'rgangan va iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondira oladigan korxonalar har doim raqobat kurashida yutib chiqadi.

Yirik ishlab chiqaruvchilar bozordagi vaziyatni o'zgartirish uchun o'zlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni kamaytirib tovar taklifini qisqartiradilar. Shu sababli, iqtisodiy beqarorlik davrlarida ham narx barqarorligicha qolaveradi. Bunda "ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash"⁵⁵ muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, monopoliyalar hukmron bo'lgan sharoitda narxsiz raqobat muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, monopoliyalar tovar sifatini oshirish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'li bilan sotiladigan tovar hajmini ko'paytirishi mumkin. Ikkinchidan, ular moliyaviy jihatdan kuchli bo'lganligi sababli mahsulotini yangilash, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va reklamaga zarur bo'lgan mablag'ni sarflay oladilar.

3. Monopoliya, uning vujudga kelishi va turlari

Iqtisodiyotda bozor mexanizmining samarali amal qilishi va raqobat muhitining ta'minlanishiga monopoliyalar, to'siq bo'ladi.

«Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya'ni yunoncha «monoc» - yagona, bitta va «poleo» - cotaman) tarkib topsa-da, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi.

Monopoliya – iqtisodiy faoliyatining biror sohasida (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tijorat va h.k.) korxonalar yoki davlatning tanho hukmronligini ifodalaydi.

Monopoliyalar bir qator yo'llar orqali kelib chiqadi. Bular:

- ishlab chiqarishning to'planishi;
- kapitalning to'planishi va markazlashuvi;
- fan texnika taraqqiyoti;
- davlatning ayrim faoliyat sohaslarini qo'llab-quvvatlashi;
- o'zaro kelishish.

Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda jamlanishida namoyon bo'ladi.

⁵⁵ 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

Ishlab chiqarish to'planishining asosiy sababi bo'lib, olinayotgan foyda hajmining ko'payishi hisoblanadi. Foydani muntazam ravishda ko'paytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo'shimcha mahsulot (foyda)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya'ni unga qo'shimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi. Bu esa ba'zi bir korxonalar ko'lamining o'sishi hamda ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga, raqobat amaldagi kapitalarning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tamoyilini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish to'planishining moddiy asosi bo'lib, kapitalning to'planishi va markazlashuvi hisoblanadi.



Kapitalning to'planishi – bu foydaning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Bu jarayon quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish

quvvati, qayta ishlanayotgan xomashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi.

Kapitalning to'planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to'ldiriladi. Kapitalning markazlashuvi – bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitalarning aksiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining umumiy o'sishidir.

Ishlab chiqarishning gorizontaal va vertikal to'planishi farqlanadi.

Ishlab chiqarishning gorizontaal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotning ma'lum tarmog'i doirasidagi korxonalarning yiriklashuvidir. U erkin raqobat davri, shuningdek, XX asrning boshlarida ishlab chiqarish to'planishining asosiy shakli sifatida namoyon bo'lgan.

Ishlab chiqarishning vertikal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotdagi bir necha o'zaro bog'liq tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishning to'planishidir. U ilmiy-texnika inqilobi sharoitlarida keng rivojlandi.

Ishlab chiqarishning to'planishi o'z rivojining ma'lum darajasida monopoliyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning to'planishi hamda monopoliyalarning paydo bo'lishi o'rtasidagi ichki aloqalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) tarmoqlarda bir necha yirik korxonalarining hukmron mavqega ega bo'lishi ularning bir-biri bilan kelishuviga hamda monopolistik birlashmalar tuzishiga imkon yaratadi;

2) yirik korxonalar o'rtasidagi raqobat juda qaltis bo'lib, ular uchun katta miqyosdagi yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shunga ko'ra, raqobatni cheklash, tovarlarga yuqori narxlar belgilash va yuqori foyda olish uchun yirik ishlab chiqaruvchilarning monopolistik ittifoqlarga birlashishi lozim bo'ladi.

Monopoliya bir qator turlarda mavjud bo'ladi.

Ularning kelib chiqishi va shakllanish yo'llariga bog'liqligi bo'yicha asosiy turlarini qarab chiqamiz:

Tabiiy monopoliyalar – iqtisodiy faoliyatning texnikaviy va texnologik xususiyatlarini taqozo etib, ular raqobatni qo'llash mumkin bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan sohalarda vujudga keladi. Bular: Suv, energiya, gaz ta'minoti korxonalari, temir yo'l transporti; Harbiy-mudofaa majmuasi korxonalari.

Tabiiy monopoliyalar obyektiv shart-sharoitlarga ko'ra ayrim sohalarda ham qonuniy tartibda vujudga keladi va amal qiladi. Masalan, kamyob yer osti boyliklarni qazib olishda, choy, uzumning alohida navlarini yetishtirishda takror ishlab chiqarilmaydigan tabiiy resurslar, jumladan alohida unumdor yer uchastkalarga yegalik ishlab chiqaruvchiga monopol mavqeini ta'minlaydi.

Iqtisodiy (sun'iy) monopoliyalar – ishlab chiqarish va kapitalning to'planishi hamda korxonalarining turli yo'llar bilan birlashishi natijasida vujudga keladi.

Iqtisodiy monopoliyalarga kartel, sindikat, trest va konsernlarni kiritish mumkin.

Kartel – sanoatning bir tarmog'idagi bir nechta korxonalar uyushmasi bo'lib, qatnashchilar ishlab chiqarish va tijorat sohasida to'liq xo'jalik mustaqilligini saqlab qoladi. Ular ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi, sotish narxlari, bozorlarning taqsimlanishi va boshqa shu kabilar bo'yicha kelishib oladi.

Neft eksport qiluvchi mamlakatlar (OPEK) tashkiloti – xalqaro ko‘lamdagi kartelga misol bo‘la oladi. U 1960-yilda tashkil qilingan bo‘lib, a‘zo mamlakatlar (XX asr oxirida 11 mamlakat) neftni qazib olish va eksport qilish sohasida yagona siyosat yuritishga harakat qiladi.

Sindikat – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar birlashmasi bo‘lib, qatnashchilar xo‘jalik yuritishning moddiy shart-sharoitlariga mulkdorlik huquqini saqlab qoladi, ular provard mahsuloti esa umumiy mulk sifatida alohida tashkil qilingan muassasa tomonidan sotiladi.

Trest – tadbirkorlarning birlikdagi mulki asosida tashkil qilinib, unga kiruvchi korxonalar o‘zlarining ishlab chiqarish va tijorat sohasidagi mustaqilligini yo‘qotadi hamda yagona boshqaruv tizimiga birlashadi. Bunga “O‘zbekiston havo yo‘llari” DAK, umumiy ovqatlanishi va maishiy xizmat korxonalarining shahar birlashmalari, tarmoq vazirlik va qo‘mitalari misol bo‘la oladi.

Konsern – formal mustaqil korxonalar ittifoqi bo‘lib, uning doirasida bosh firma barcha qatnashchilar ustidan moliyaviy nazoratni tashkil qiladi.

Hozirgi zamon konserni – bu yirik ko‘p tarmoqli majmua bo‘lib, unga turli mamlakatlarda joylashgan sanoat, savdo, bank va boshqa korxonalar kiradi. Konsern qatnashchilarni aksiyalariga egalik qiluvchi kompaniya ular faoliyatiga ta’sir

ko‘rsatishi sababli “xolding” (inglz. hold – ushlab, egallash) deb nomlanadi.

Konsorium – hamkorlikda yirik tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish uchun sanoat, bank va boshqa kompaniyalarning vaqtinchalik birlashmasidir.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. U mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan



nazorat qiladi hamda o'ziga foydali bozor narxini o'rnatishga harakat qiladi. Buning uchun monopolistda bir qator imkoniyatlar mavjud bo'ladi:

Monopolist korxonaga o'z tovarining sotish hajmini kamaytirib, mahsulotning sun'iy taqchilligini vujudga keltiradi va bu taklif narxining o'sishiga olib keladi.

Mutlaq monopoliya kichik ishlab chiqaruvchilardan tovarlarning katta partiyasini (masalan, qishloq xo'jalik xomashyosini) oldindan past narxlarda sotib olib ularning ortiqcha zaxirasini vujudga keltiradi. Monopol past xarid narxlari yanada kamayishi bilan monopsoniya foydasi shunga mos ravishda o'sib boradi.

Bir vaqtda monopolist va monopsonist hisoblangan korxonaga "narxlar qaychisi" yordamida o'z daromadini ko'paytirib boradi. Bunda gap monopol yuqori va monopol past narxlar to'g'risida ketadi. Jumladan, qayta ishlash sanoatidagi ko'plab korxonalar o'zlarining tayyor mahsulotlariga sanoatning qayta ishlash tarmoqlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlaridan bir necha barobar yuqori narxni o'rnatadi.

Monopolist birlashmalar bozordagi hukmron mavqeini ushlab turish uchun raqobatning mumkin bo'lgan barcha usullaridan foydalanadi. Bular:

A) xo'jalik – autsayder (monopolistik birlashmaga kirmagan korxonalar) lar bilan iqtisodiy aloqalarni to'liq yoki qisman bekor qilish;

B) demping – raqibini sindirish maqsadida tovarlarini oldindan "pasaytirilgan" (xarajatlar darajasida) narxlarda sotish;

D) monopoliyaga kirmagan korxonalariga tovarlar sotishni cheklash (masalan, neftni qayta ishlash zavodlariga neft yetkazib berishni kamaytirish);

E) narxni tartibga solish – monopolist mahsulotlarining kichik mulkdorlarga sotiladigan narxini oshirib va bir vaqtda yirik korxonalar uchun uni pasaytiradi;

F) Qonunchilikda tan olinmagan vositalar yordamida (yutib yuborish va qo'shib olish maqsadida buyurtma asosida jismoniy yo'qotishgacha bo'lgan) raqibini sindirish va sanoat josusligi.

Monopoliyaning yana bir keng tarqalgan turi qonuniy (legal) monopoliya hisoblanadi. Ular raqobat yoʻlida qonuniy cheklashlar paydo boʻlishi natijasida qaror topadi. Masalan, eksportni litsenziyalash, mualliflik huquqini himoyalash, tovar belgilaridan foydalanish va patent tizimlarining mutlaq huquqini taʼminlashda davlat ularga tegishli imtiyozlar beradi. Bunday monopoliyalar huquqiy taqiqlashlardan himoyalanaadi va yopiq hisoblanadi.

Monopoliyaning mavjud boʻlish tarmoqqa kirish uchun toʻsiqlarning mavjud boʻlishiga sabab boʻladi. Iqtisodiy, texnik, huquqiy yoki boshqa toʻsiqlar yangi raqobatchilarning tarmoqqa kirishiga yoʻl qoʻymaydi. Tarmoqqa kirish uchun toʻsiqlar har xil koʻrinishlarni oladi. Bularning asosiylari quyidagilar:

a) Ishlab chiqarish miqyosi keltirib chiqaradigan toʻsiqlar. Jumladan, moliyaviy toʻsiqlar koʻp holatlarda shunchalik katta boʻladiki, bu tarmoqqa kirishni taqiqlash bilan barobar. Masalan, yirik ishlab chiqaruvchi hisoblangan avtomobil sanoatiga kirish, yangi texnologiyaga asoslangan zarur uskunalarni sotib olish juda katta pul-kapitalini talab qiladi.

b) Tabiiy monopoliyalar vujudga keltiradigan toʻsiqlar. Buning mazmuni shundan iboratki, bir qancha tarmoqlarda raqobat mavjud boʻlmaydi, uni amalga oshirish mumkin emas. Ijtimoiy foydalanishdagi bunday tarmoq korxonalarini tabiiy monopoliyalar deyiladi. Tabiiy monopoliyalarga elektr, gaz, suv taʼminoti va aloqa korxonalarini misol boʻla oladi. Davlat bunday monopoliyalar faoliyatini tartibga solishda oʻz huquqini saqlab qoladi. Agar tarmoqlar davlat mulkchiligiga asoslangan boʻlsa, bunday ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar tartibga solinadigan yoki davlat tomonidan tuzilgan monopoliyalar deyiladi.

d) Patent va litsenziyalar kabi qonuniy toʻsiqlar. Davlat patent va litsenziyalar berib tarmoqqa kirish uchun qonuniy toʻsiqlar ham yaratadi. Patentlar uning egasiga mahsulotini toʻliq nazorat qilish huquqini beradi. Tarmoqqa kirish yoki faoliyat turi bilan shugʻullanish davlat tomonidan litsenziya berish yoʻli bilan cheklanishi mumkin. Masalan, davlat miqyosida radio va televizion eshittirishlarga tegishli vazirlik (mahkama) litsenziya beradi.

e) Xomashyoning muhim turlariga xususiy mulkchilik monopoliyalar tomonidan potensial raqobatchilar uchun samarali to‘siq yaratish vositasi sifatida foydalanishi mumkin.

f) G‘irrom raqobat. Firmalar o‘z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Bank va resurslarni yetkazib beruvchilarni material va kredit berishdan voz kechirish, yetakchi mutaxassislarni og‘dirib olish, narxni keskin tushirish g‘irrom raqobatning oddiy usullaridir.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko‘p bo‘lmagan korxonalarining mavjud bo‘lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko‘pchilik sanoat mahsulotlari: po‘lat, mis, aluminiy, qo‘rg‘oshin, temir va shu kabilar – jismoniy ma’noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste’molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvuvchi vositalar, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

Oligopoliya sharoitida korxonalar o‘rtasidagi raqobat o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o‘zining narx siyosatini mustaqil o‘zgartirishga botina olmaydi.

Uncha ko‘p bo‘lmagan firmalarning umumiy o‘zaro bog‘lilikda joylashishi yashirincha kelishishga qulaylik tug‘diradi. Yashirincha kelishish narxlarni qayd qilish, bozorni bo‘lish yoki taqsimlash va boshqacha yo‘llar bilan o‘zlari o‘rtasidagi raqobatni cheklashdan iborat. Yashirincha kelishish bir qator shakllarda bo‘lishi mumkin. Uning eng oddiy shakli kartel bitimi hisoblanadi. Kartel bitimiga kirgan firmalar narxlar va ishlab chiqarish hajmini kelishib oladi. Kelishilgan narxni ushlab turish mumkin bo‘lishi uchun ishlab chiqarish hajmi tartibga solinishi, ya’ni bozorlar bo‘lingan bo‘lishi zarur.

Narxlarni belgilashdagi rahnamolik yashirincha kelishishda ham o‘z o‘rnini tutadigan norasmiy vosita hisoblanadi. Bunda tarmoqdagi katta yoki ancha samarali firma narxni o‘zgartirishi, boshqa firmalar esa uning orqasidan ergashishi mumkin.

Oligopolistlar narxsiz raqobatga asosiy o‘rin beradi, Chunki birinchidan, raqobatchilarga reklama va mahsulotni o‘zgartirish ancha murakkab, ikkinchidan, oligopolistlar kamdan-kam holda narxsiz raqobatni moliyalashtirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega bo‘ladi.

Biz qarab chiqqan raqobatning to‘rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya’ni sof holda uchramaydi.

Shu sababli, erkin raqobatli bozorning xarakterli belgilari bilan, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyaning xususiyatlari o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatib berish foydali. Bunday taqqoslashni yengillashtirish uchun bozorning keyingi uchta modelini bildirish uchun «takomillashmagan» yoki «nomukammal» raqobat degan umumiy nomdan foydalaniladi.

Raqobatning qarab chiqilgan to‘rtta shaklidan tashqari, ko‘plab bozor tuzilmalari ham mavjud bo‘ladi. Jumladan, bular monopsoniya, duopoliya, ikki tomonlama monopoliya.

Monopsoniya bozorda faqat bitta iste’molchi mavjud bo‘lganda vujudga keladi. Masalan, qurol-aslaha ishlab chiqaruvchilar mahsulotining yagona iste’molchi – davlatdir. Duopoliya – bozorda faqat ikkita monopoliya faoliyat qilgan sharoitda kuzatiladi. Ikki tomonlama monopoliya bozorda monopolist ishlab chiqaruvchi va monopolist iste’molchi to‘qnash kelganda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish bizga nisbatan ancha oldin boshlangan mamlakatlarda raqobat munosabatlarini rivojlantirish ancha murakkab va uzoq davrni oladigan jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

Agar g‘arb mamlakatlari iqtisodiyotida raqobat bozor xo‘jaligining ajralmas qismi (xususiyati) sifatida tabiiy paydo bo‘lsa, o‘nlab yillar davomida ma’muriy buyruqbozlik tartibi hukmron bo‘lgan, raqobatni va bozorning boshqa belgilarini tan olmagan mamlakatlarda ko‘p narsani «joriy qilish» va hatto majburan qabul qilishga to‘g‘ri keladi. Shu munosabat bilan iqtisodiyotimizning hozirgi holatida raqobat munosabatlarini rivojlantirishning mavjud real imkoniyatlarini hisobga olish muhim rol o‘ynaydi.

4. Monopoliyalarning afzalliklari va ijtimoiy - iqtisodiy oqibatlari

Monopoliyalar to'g'risida qayd qilinganlarni hisobga olib, aytish mumkinki, unda tuzilmaning ijobiy va salbiy jihatlari mujassamlashgan. Monopoliyaning ijobiy tomonlari sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

Mahsuloti odatda, yuqori sifat bilan ajralib turadi;

Yirik ko'lami ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va resurslarni tejash imkonini beradi;

Ishlab chiqarishni fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida rivojlantirish uchun katta moliyaviy mablag'larga va iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Monopoliyaning salbiy tomoni sifatida quyidagi jihatlarni ko'rsatish mumkin:

1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi. Monopoliyalarning yuqori foyda ketidan quvib, sun'iy ravishda ishlab chiqarishni cheklashi narxlarning ko'tarishi, pirovard natijada resurslardan foydalanish va ularni taqsimlash samaradorligining pasayishiga olib keladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorlikni bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi.

Monopoliyalar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatlar erkin hamda oqilona tanlov imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Oqibatda ishlab chiqarish qisqarib, ishsizlik va inflatsiya o'sadi, xo'jalikning izdan chiqishi kuchayadi. Jamiyat boyligi resurslarning oqilona raqobatli-bozor taqsimoti sharoitida qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan potensial miqdoriga qaraganda kamayib ketadi;

2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi. Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foyda olinishi bilan bog'liq bo'lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi;

3) iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi. Bunday holatning vujudga kelishi monopolistlarning raqobatchilar bosimini sezmasliklari hamda aksariyat hollarda yuqori foydani qo'shimcha urinishlarsiz o'zlarining bozordagi hukmronliklari hisobiga olishlari mumkin. Bu esa ularni ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish, mahsulot sifatini oshirish, assortimentini

kengaytirish, FTTni rivojlantirish va xaridorlar manfaatlari to'g'risida qayg'urish kabi xatti-harakatlardan qaytaradi;

4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi. Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to'sqinlik qilib, nisbatan kuchsiz bo'lgan korxonalarni o'zlariga bo'ysundirishlari, o'z xodimlarining mehnatiga pasaytirilgan miqdorda haq to'lash, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarish, o'ta darajada oshirib yuborilgan sotish narxlari (yoki pasaytirilgan xarid narxlari), o'z mahsulotini iste'mol qilishga bilvosita usul orqali majburlash kabi kamsituvchi shartlarini ko'ndalang qo'yishlari mumkin.

Bundan ko'rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi, taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lishi ham mumkin.

Tayanch tushunchalar

Raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda, omilli daromad va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat – tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman yuqori foyda olish, iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat.

Raqobat shakllari – raqobatchilik muhitning etuklik darajasi bilan farqlanib, sof (erkin) raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyani o'z ichiga oladi.

Raqobat usullari – raqobat kurashida qo'llaniladigan vosita va dastaklardan iborat bo'lib, bunda raqobat narx vositasida va narxsiz raqobatlashish usullari orqali amalga oshiriladi.

Muhokama uchun savollar

1. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
2. Raqobatchilik munosabatlarining rivojlanishi qanday bosqichlardan iborat? Har bir bosqichda raqobatning xarakteri va asosiy belgilarini ajratib ko'rsating.

3. Raqobat shakllariga tushuncha bering va ularning har biriga xos belgilarini ko'rsating.

4. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatning farqini tushuntirib bering.

5. Sof raqobat va cheklangan raqobat shakllari amal qilish mexanizmini tushuntirib bering.

XI bob. ANTIMONOPOL QONUNCHILIK VA MONOPOLIYALARNI TARTIBGA SOLISH

1. Antimonopol qonunchilikning kelib chiqishi. Antimonopol siyosat.

2. O'zbekistonda antimonopol qonunchilikning vujudga kelishi.

3. Tabiiy monopoliyalar, ularning belgilari va tartibga solinish xususiyatlari.

4. Monopol faoliyatni tartibga solish chora-tadbirlari.

1. Antimonopol qonunchilikning zarurligi va kelib chiqishi. Antimonopol siyosat

Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to'sqinlik qilib, iqtisodiy rivojlanishga ancha jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi, taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lishi ham mumkin. Shunga ko'ra, deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo'llanilib, bu monopoliyaga qarshi siyosatning mazmunini tashkil etadi.

Davlatning antimonopol siyosati – monopoliyalar faoliyatini cheklash, tartibga solish va raqobatchilik muhitini vujudga keltirishga qaratiladi.

Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini monopoliyaga qarshi qonunchilik tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan.

Iqtisodiyotda monopollashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi, uning miqyosi va xarakteriga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi. Bular asosan antimonopol qonunchilik yordamida hal qilinadi. Jahon tajribasida bunday qonunchilik 120 yildan ortiq davr davomida rivojlanib kelgan. Jumladan, u birinchi bo'lib, AQSHda monopoliyalar gurkirab tashkil topa boshlagan davrda paydo bo'lgan.

Hozirgi davrda, erkin raqobatni himoya qiluvchi qonunchilik bitimlari G'arbiy Yevropaning barcha mamlakatlarida mavjud. Ularda mazkur qonunchilik ikki yo'nalishga ega: narxlar va kompaniyalar qo'shilishi ustidan nazorat qilish.



Antimonopol tartibga solish takomillashmagan va muayyan xarajatlar bilan birga borsa-da, ular bozor iqtisodiyotida monopolistik tamoyillarni cheklashga olib keladi.

Monopoliyalarga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar boshqa mamlakatlarda ham sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi.

Odatda AQSHdagi monopoliyaga qarshi qonunchilik nisbatan ilgariroq va mukammalroq ishlab chiqilgan, deb hisoblanadi. U quyidagi qonunchilik hujjatlariga asoslanadi:

1. Sherman qonuni (1890 y.) Bu qonun kartel bitimlarini noqonuniy deb hisoblaydi, savdoni yashirin monopollashtirish, u yoki bu tarmoqdagi yakka nazoratni qo'lga olish, narxlar bo'yicha kelishuvlarni taqiqlaydi. Bu qonun asosan savdo va tijorat faoliyatining monopollashuviga qarshi yo'naltiriladi. Hamda erkin savdoni cheklashga qaratilgan kelishuvlarning har qanday shakliga taqiq qo'yadi. Mazkur qonunda jazo chorasi sifatida jarimalar, zararni qoplash, qamoqqa olish va hatto aybdor firmani tugatishni ham ko'zda tutadi. Bu qonunning eng muhim xususiyati mavjud

faoliyat qilib turgan monopoliyalarga qarshi kurashga qaratiladi. Uning kamchiligi asosiy qoidalar noaniqligi, qonunning bajarilishini nazorat qiluvchi doimiy muassasa yo'qligi va antimonopolistik tadbirlarning profilaktik xarakterga ega bo'lganligidir.

2. Kleyton qonuni (1914 y.) Bu qonun savdo amaliyotida kamsitishni, mahsulot sotish sohasidagi cheklovchi faoliyatlarni, narx bo'yicha kamsitish, ma'lum ko'rinisdagi birlashib ketishlar, o'zaro bog'lanib ketuvchi direktoratlar va boshqalarni taqiqlaydi. Bu kamchiliklar ma'lum darajada bartaraf qilinib qolinmasdan, balki trestlarga qarshi qonunchilikka doir asosiy tushunchalar aniqlashtirildi va monopoliyalarga qarshi faoliyat tushunchasi kengaytirildi. Xususan, monopolistlar o'zaro ta'sirining moliyaviy jihatlariga hamda monopol hokimiyatchilikni tiklashga asosiy e'tibor qaratildi. Trestlarga qarshi qonunlarning bajarilishini nazorat qilish hukumat Federal savdo komissiyasiga yuklatiladi. Shu qonun tufayli "monopol kasallik" deb nomlangan profilaktik tadbir kengaydi.

3. Robinson-Payman qonuni (1936 y.) Bu qonun savdo sohasidagi cheklovchi faoliyatlar, «narxlar qaychisi», narx bo'yicha kamsitishlar va boshqa shu kabilarni taqiqlaydi. AQSHdagi trestlarga qarshi mavjud qonunchilik ko'proq darajada boshqa mamlakatlarda ham antimonopol qonunchilikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

4. Unler-Li qonuni (1938 y.) Savdo bo'yicha federal komissiyaga "savdoda chalg'itishga olib keladigan harakatlarni" nazorat qilish bo'yicha qo'shimcha majburiyat qo'ydi. Natijada komissiya iste'molchini reklama va yolg'on ma'lumot natijasida jabr ko'rishdan himoya qilish vazifasini oldi. Unler-Li qonuni iste'molchilar huquqini himoya qilishga qaratilgan. Mazkur qonun yolg'on reklama va ma'lumotlarni soxtalashtirishga qarshi qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

5. 1950-yilda Kleyton qonuniga Keller-Kefover tuzatishi kiritildi. Unda noqonuniy birlashib ketishlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, aktivlarni sotib olish orqali birlashib ketish taqiqlandi. Agar Kleyton qonuni yirik firmalarning gorizontal ravishdagi birlashib ketishlariga to'siq qo'ygan bo'lsa, Keller-Kefover tuzatishi vertikal

ravishdagi birlashib ketishlarga cheklov kiritdi⁵⁶. Unda moddiy aktivlar sohasida monopoliyalar o‘zaro ta’siriga e’tibor qaratadi. AQSHda XXasr 80-yillarining birinchi yarmida monopoliyalarga qarshi qabul qilingan yo‘riqnoma hujjatlarida Xerfindal-Xirshman indeksidan foydalanib tarmoqlar konsentratsiyalashuvining normativlarini o‘rnatdi. Agar bu indeks 1000 dan yuqori bo‘lmasa, bozor kuchsiz konsentratsiyalashgan, 1800 dan yuqori bo‘lsa kuchli darajada konsentratsiyalashgan deb tan olingan.

Xerfindal-Xirshman indeksi

$$I = S_1^2 + S_2^2 + \dots + S_n^2$$

$S_{1, 2, \dots, n}$ – korxonalarining bozordagi ulushi.

Ayni vaqtda bir qator tarmoqlarda (gaz-ta’minoti, elektr-ta’minoti va h.k.) tabiiy monopoliyalardan holi bo‘lish qiyin. Shu sababli, davlat ularga nisbatan bevosita yoki bilvosita tartibga solish dastak va vositalarini qo‘llashga majbur bo‘ladi.

2. O‘zbekistonda antimonopol qonunchilikning vujudga kelishi

Raqobatning amal qilishi ma’lum shart-sharoitlar mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o‘z-o‘zidan, evolutsion yo‘l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Buyruqli iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, bizning respublikada sog‘lom raqobatga shart-sharoit hozirlash, iqtisodiy subyektlar mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhim jihatlari hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganlaridek: «Iqtisodiyotni erkinlashtirilishi haqiqiy raqobat muhitini shakl-

⁵⁶ Campbell R. McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 17 th edition. America, New York: McGraw-Hill, 2008. page 583-597.

lantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Raqobat bo‘lmasa bozor iqtisodiyotini barpo etib bo‘lmaydi».

Raqobat bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir.

O‘zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o‘rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o‘z egalari qo‘liga topshirilsa, ikkinchidan, ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi.

Raqobatchilik muhitini vujudga keltirish xo‘jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etishni anglatadi. Bu iqtisodiyotda monopol tuzilmalar faoliyatini tartibga solishni ham taqozo etadi. Bunday tartibga solishning zaruriy sharti uning me‘yoriy huquqiy asoslarining yaratilishidir.

«Monopol faoliyatni cheklash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga (1992-yil) ko‘ra, bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatchilarning bozorga kirib borishiga to‘sqinlik qilish, raqobatning g‘irrom usullarini qo‘llash man etiladi. Qonunni buzuvchilar raqibiga yetkazgan zararni qoplashlari, jarima to‘lashlari, g‘irromlik bilan olgan foydadan mahrum etilishlari shart.

Respublikada monopoliyaga qarshi faol choralarni amalga oshirish uchun Moliya vazirligi tizimida monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish bosh boshqarmasi tuzildi. Boshqarmaga ro‘yxatga kiritilgan monopoliya mavqeidagi korxonalar mahsuloti bo‘yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turish huquqi berildi.

Respublikada monopol mavqega ega bo‘lgan korxonalarni Davlat Reestriga kiritish uchun mezonlar belgilashda jahon tajribasi hamda o‘tish davrining o‘ziga xos jihatlari hisobga olinadi.

Iqtisodiyot va monopoliyaga qarshi amaliyot sohasidagi ahamiyatli o‘zgarishlar tegishli qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan (1996-yil 27-dekabrda) «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat

to'g'risida»gi yangi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun monopolistik faoliyat va g'irrom raqobatning oldini olish, uni cheklash, to'xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilab berib, respublikaning tovar bozorlarida raqobat munosabatlarini shakllantirish va samarali amal qilishini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, mazkur qonunda mavjud va saqlanib qolgan monopolistlar tomonidan bozorda hukmronlik mavqeini suiiste'mol qilishning oldini olish va unga barham berishni ko'zda tutsa, ikkinchidan, eng asosiy muhim masalalardan hisoblangan monopoliyadan chiqarish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish zarurligi belgilab qo'yilgan.

Mazkur qonun monopoliyalarning amal qilishini taqiqlamay, balki bozorda ularning hukmronligi oqibatida kelib chiquvchi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan. Qonunda ko'zda tutilgan taqiqlar ham rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun, ham, O'zbekiston va boshqa o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari uchun xos bo'lgan monopolist tuzilmalar xatti-harakatiga qarshi o'rnatilgan.

Quyidagi xatti-harakatlar monopoliyaga qarshi qonunchilikka zid hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan bozordagi ustunlik mavqeining suiiste'mol qilinishi (5-modda);
- xo'jalik subyektlarining raqobatni cheklashga qaratilgan bitimlari (o'zaro kelishilgan xatti-harakatlari) (6-modda);
- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy hokimiyat organlarining raqobatni cheklashga yo'naltirilgan xatti-harakatlari (7-modda);
- g'irrom raqobat (8-modda).

Respublikada agar korxonada ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar bozordagi shu turdagi tovarlarning 35 foizidan ortiq bo'lsa, bu korxonada monopolistik korxonada sifatida Davlat Reestriga kiritiladi. Oziq-ovqat tovarlari guruhi uchun bunday mezon darajasi 20 foiz deb belgilangan.

Respublikada monopoliyalar ro'yxatiga kirgan korxonalar (tarmoq)larning bozordagi mavqeini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko'rsatish lozim:

1. Monopol mavqeidagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo'yish.

2. O'z monopol mavqeini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Vazirlar Mahkamasining (1994-yil 18-iyuldagi 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Obyektlarning xo'jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi. Respublikada faqat 1994-1996-yillar davomida monopol mavqeidagi aksiyadorlar jamiyatlari, ijara va boshqa jamoa korxonalari tarkibidan 14972 obyekt chiqarilib, mustaqil korxonalariga aylantirilgan bo'lsa, 2000-yilda xususiylashtirilgan obyektlar bazasida 154 ochiq turdagi aksionerlik jamiyatlari tashkil qilingan. 2002-yilda 1912 ta korxonalar va obyekt xususiylashtirilib ularning, 65,5 foizi xususiy mulk ulushiga to'g'ri kelgan. 2010-yilda xususiylashtirilgan korxonalar va obyektlar soni 387 tani tashkil qilgan bo'lib, ulardan olingan mablag'lar 129862,7 mln. so'mga yetgan. 2012-yilda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 83ta korxonalar va obyekt dan hamda 32052,8 mln. so'mdan iborat bo'lgan. 2015-yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonda Monopol korxonalar Davlat Reestrda 127 ta monopol korxonalar ro'yxatga olingan bo'lib, ular 122 turdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi» (1996-yil, aprel) qonuni asosida g'irrom raqobatga, shu jumladan respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo'l qo'ymaydigan mexanizmni yaratishga ham alohida e'tibor beriladi.

Respublikada raqobatchilik muhitini shakllantirish maqsadida va davlatga qarashli bo'lmagan sektorni qo'llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondi tashkil etildi. Raqobatchilik muhitini shakllantirishga ko'plab xalqaro tashkilotlar ham faol qatnashmoqda. Jumladan, YUNIDO yordamida bir nechta biznes inkubatorlar tashkil etildi. Yevropa jamiyati Komissiyasi Amaliy aloqalar markazi, Germaniya texnikaviy ko'maklashuv jamiyati kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash markazi tashkil etildi. Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga

oshirilayotgan barcha ishlar rivojlangan bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda monopol korxonalar faoliyati

11.1-jadval

T/r	Tarmoqlar	Umumiy soni					
		Monopol-korxonalar			Monopol-mahsulotlar turlari		
		2013	2014	2015	2013	2014	2015
I.	Don	1	1	1	2	2	2
II.	Oziq-ovqat mahsulotlari	6	6	6	3	3	3
III.	Ko‘mir	3	3	3	2	2	2

11.1-jadvalning davomi

IV.	Neft-gaz sanoati	11	11	11	5	5	5
V.	Kimyo sanoati	8	9	9	20	21	21
VI.	Mashinasozlik va metallurgiya	13	12	11	12	12	12
VII.	Elektrotexnika sanoati	4	2	2	4	2	2
VIII.	Qurilish materiallari sanoati	11	11	11	9	9	8
IX.	Xizmatlar	65	65	61	63	59	56
X.	Boshqa tarmoqlar	8	8	12	12	11	11
	Jami	130	128	127	132	126	122

3. Tabiiy monopoliyalar, ularning belgilari va tartibga solinish xususiyatlari

Tabiiy monopoliyalar – ishlab chiqarishning texnologik xususiyatiga ko‘ra raqobat mavjud bo‘lmagan sharoitda talabni qondirishning o‘ziga xos bozor tuzilmasidir.

Tabiiy monopoliyalar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar iste’molda boshqa tovarlar bilan almashtirilishi mumkin emas. Bunday tovarlarga talabning o‘zgarishiga ular narxining o‘zgarishi kam darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Tabiiy monopoliyalar obyektiv sabablarga ko‘ra vujudga keladi. U aynan olingan biron-bir tovarga talab bir yoki bir nechta ishlab chiqaruvchilar tomonidan samarali darajada qondiriladigan vaziyatni ifodalaydi. Tabiiy monopoliyalarning asosi – ishlab chiqarish texnologiyalari va iste’molchilarga xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlaridir. Bu yerda raqobatni qo‘llash mumkin emas yoki uni qo‘llash samarasiz. Masalan, energiya ta’minoti, aloqa xizmati ko‘rsatish va shu kabilar o‘z tabiatiga ko‘ra bozorda monopol mavqeni egallaydi.

Tabiiy monopoliyalar quyidagi sohalarda faoliyat ko‘rsatadi:

– magistral truba o‘tkazgichlarda gaz, neft va neft mahsulotlarini jo‘natish;

– elektr va issiqlik energiyasini uzatish xizmati;

– temir yo‘l transporti;

– transport terminallari, aeroport, suv portlari xizmati.

– aloqa, pochta xizmati va h.k.

Qayd qilingan monopol tuzilmalarning asosiy belgilari quyidagilar:

– faoliyat qilish tartibini o‘rnatish, ro‘yobga chiqarish va to‘xtatish huquqiy asoslanganligi;

– tarmoqlar va xo‘jalik yuritish sohalari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishining chegaralanganligi;

– monopoliya subyektlari umumiy huquqiy mavqega ega bo‘lgan holda, ular huquq va majburiyatlarining o‘ziga xosligi;

– monopoliyalar faoliyatini tartibga solishning yaxlit tizimi mavjudligi;

– tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqariladigan tovar(xizmat) lar boshqalari bilan almashtirilishi mumkin emasligi, ularning o‘rnini bosuvchisi mavjud bo‘lmasligi;

– mazkur tovarlar bozorida talabning noegiluvchanligi, uning doimiy barqarorligi. Bu ularga narx (ta'rif) oshgan taqdirda ham, talab o'zgarmay qolishini anglatadi.

Umumiy holda tabiiy monopoliyalar texnologiyalardagi xususiyatlar tufayli tarmoq yoki sohaga raqobatchilarning kirishi uchun to'siqlarning mavjud bo'lishi yoki davlat yaratib bergan imtiyozlar natijasida vujudga keladi va faoliyat ko'rsatadi.


Tabiiy monopoliyalar ishlab chiqarish ko'lami hisobiga uzoq muddatli o'rtacha xarajatlarni kamaytirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sohada yangi ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishi ko'lam samarasi yo'qolishi tufayli xarajatlarning o'sib, samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Grafik tabiiy monopoliyalar sharoitida narx va ishlab chiqarish hajmining aniqlanishini tasvirlaydi. Bu yerda:

LAC va LMC – korxonaning uzoq muddatli davrda o'rtacha va keyingi xarajatlari egri chizig'i;

MR – keyingi daromad egri chizig'i;

D – talab egri chizig'i.



11.1-chizma. Tabiiy monopoliyalarda ishlab chiqarish hajmi va narxning aniqlanishi.

Ishlab chiqarish hajmi qanchalik yuqori bo'lsa-da, o'rtacha xarajatlar darajasi shunchalik past bo'ladi. Ishlab chiqarishning har qanday hajmida keyingi xarajatlar har doim uning o'rtachasidan past darajani tashkil etadi.

Korxonada uchun ishlab chiqarishning optimal hajmi (Q_1) uzoq muddatli keyingi xarajatlar va keyingi daromad ($LMC=MR$) egri

chiziqlari kesishgan nuqtada oʻrnatiladi. Bunda narx mos ravishda P_4 boʻlib, P_3P_4EM toʻgʻri burchak maydoni korxonaga foydasini tashkil qiladi.

Mahsulot chiqarish hajmi Q_2 darajasigacha ortsa, shunga mos ravishda narx P_1 ga teng boʻladi va narxning bu darajasi korxonaga ishlab chiqarish xarajatlarini qoplamaydi. Bunday holda korxonaga P_1 P_2 N, F toʻgʻri burchak maydoniga teng miqdorda zarar koʻradi.

Tabiiy monopoliyalar faoliyatini tegishli ijro etuvchi organlar tomonidan tartibga solishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:


narx yordamida tartibga solish. Bu narxlarni oʻrnatish yoki uning chegarasini (quyi va yuqori) belgilash orqali amalga oshiriladi;

tabiiy monopoliyalar subyekti tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar bilan taʼminlashning minimal darajasini oʻrnatish. Aniqlangan isteʼmolchilarni aynan olingan tovar (xizmat) lar bilan toʻliq hajmda qondirish imkoniyati boʻlmaganda bu usul qoʻllaniladi.

Tabiiy monopoliyalar faoliyatini narx yordamida tartibga solish turlicha variantlarda qoʻllanilishi mumkin.

Qayd qilingan narxlarni P_1 darajada oʻrnatish. Bunda Q ga teng boʻlgan barcha talabni qondirish uchun, davlat ishlab chiqaruvchilarga $AC - MC$ miqdorida dotatsiya berishi zarur boʻladi.

Qayd qilingan narxlar P_2 darajada oʻrnatilsa, tabiiy monopoliyalar mahsulotiga talab toʻliq qondiriladi. Bu holda dotatsiya talab qilinmaydi, biroq mahsulot chiqarishning tarkibiy samaradorligiga erishilmaydi, monopolist “juda kam” mahsulot ishlab chiqaradi, xarajatlarni kamaytirishga ragʻbat boʻlmaydi, chunki xarajatlarning kamaytirilishi davlat narxlarining pasaytirilishi bilan birga borishi mumkin.



11.2-chizma. Davlatning qayd qilingan narxlarni o‘rnatish orqali tabiiy monopoliya faoliyatini tartibga solishi.

Qayd qilingan narxlarni o‘rnatmaslik. Bunda davlat auksion o‘tkazib, mahsulotning mazkur turini ishlab chiqarish huquqini budjetga qayd qilingan to‘lovning maksimal summasini tushirish majburiyatini olgan korxonalariga beradi. Bunda davlat narxlar va mahsulot chiqarish hajmini to‘g‘ridan - to‘g‘ri tartibga solmaydi. Korxonalar monopoliya sifatida faoliyat yuritadi, mahsulotiga narxni P_n darajada o‘rnatilib, ishlab chiqarishning Q_n hajmini tanlaydi.

Tabiiy monopoliyalar obyektiv shart-sharoitlarga ko‘ra ayrim sohalarda ham qonuniy tartibda vujudga keladi va amal qiladi. Masalan, kamyob yer osti boyliklarni qazib olishda, choy, uzumning alohida navlarini yetishtirishda takror ishlab chiqarilmaydigan tabiiy resurslar, jumladan alohida unumdor yer uchastkalarga egalik ishlab chiqaruvchiga monopol mavqeini ta‘minlaydi.

Davlat tabiiy monopoliyalarni tartibga solish maqsadida ularning mahsulot(xizmat)lariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek, taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko‘rsatkichlarni nazorat qiladi.

Davlatning tabiiy monopoliyalarni tartibga solish usullarini qo‘llashidan maqsad quyidagilardan iborat:

- tabiiy monopoliyalarning sodir etishi mumkin bo‘lgan monopol holatini suiiste‘mol qilishini oldini olish;
- iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish;

– jamiyat manfaatlari yo‘lida monopol tarmoq ishlab chiqarishining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu maqsadlarga erishish iqtisodiyotda joriy etilgan tartibga solish usullarining qanchalik samarali ishlashini hamda har qanday davlatda qabul qilingan nazorat qilish mexanizmlarining optimal tashkil etilganligiga bog‘liq.

O‘zbekiston iqtisodiyotida tabiiy monopoliya subyektlari faoliyati ustidan nazorat qilishning bir qator usullari qo‘llaniladi. Ularning huquqiy asosi va tartibi O‘zbekiston Respublikasi «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida»gi qonun (9-moddasi)da belgilangan bo‘lib, «tabiiy monopoliya subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan amalga oshiriladi».

O‘zbekistonda barcha monopoliyalar faoliyati ustidan nazorat qiluvchi organ bu – O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi hisoblanadi.

Monopoliyaga qarshi davlat organlari tabiiy monopoliyalarning quyidagi faoliyatlari ustidan nazorat qiladi:

1) tabiiy monopoliya subyekti asosiy vositalarga nisbatan mulk huquqini yoki foydalanish huquqini qo‘lga kiritadigan bitimlar ustidan (agar bunday asosiy vositalarning balans qiymati tabiiy monopoliya subyekti o‘z kapitali qiymatining 10 foizdan ortiq bo‘lsa);

2) tabiiy monopoliya subyekti asosiy vositalarning bir qismiga nisbatan mulk huquqini yoxud ularga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini xo‘jalik yurituvchi boshqa subyektga o‘tkazadigan bitimlar ustidan (agar bunday asosiy vositalarning balans qiymati tabiiy monopoliya subyekti o‘z kapitali qiymatining 10 foizdan ortiq bo‘lsa);

3) iste‘molchilarga realizatsiya qilinadigan tovarlar hajmi bo‘yicha shartnomalarga rioya etilishi ustidan;

4) tovarlar narxini chiqarish hamda narxlar (tariflar)ni qo‘llash tartibiga rioya etish ustidan;

5) tabiiy monopoliya subyektlarining tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi ustidan.

Nazoratning boshqa bir xil usuli – bu tabiiy monopoliya subyektlarining qiladigan ayrim xatti-harakatlari uchun tegishli ruxsat olish yo‘li bilan amalga oshirilib turiladi. Ya’ni yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, agar tabiiy monopoliya subyektlari o‘zining o‘n foizdan ortiq balans qiymatiga ega bo‘lgan asosiy vositalarini tasarruf etish yuzasidan tuziladigan bitimlari, yoxud ularni egalik qilish bilan bog‘liq harakatlari uchun oldindan monopoliyaga qarshi davlat organiga tegishli axborot hamda bunday harakatlarni amalga oshirishga rozilik so‘rab iltimosnoma taqdim etishi shart, deb belgilab qo‘yilgan.

Agar bunday harakatlar monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan muvofiq emas deb topilsa, rad etilishi ham qonunda o‘z aksini topgan.

Bunday nazoratning o‘rnatilishidan maqsad, tovar bozorlaridagi kompaniyalar monopol mavqeining yanada oshib ketishi, mutlaq hukmronligiga olib kelishi, iste’molchilarning haq-huquqlariga ziyon keltirish xavfining kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston iqtisodiyotida tabiiy monopoliya subyektlariga nisbatan o‘rnatilgan bunday nazorat usullari jahon amaliyotiga mos keladi va ular tabiiy monopoliya subyektlarining o‘z ustun mavqeini suiiste’mol qilishlarini oldini olishga, belgilangan narxlarni asossiz oshirishlarini oldini olishga, iste’molchi manfaatlariga mos ravishda sifatli xizmat qilishga, tovar bozorlaridagi ularning ustun mavqeni qattiq boshqarib turishga qaratilgan.

4. Monopol faoliyatni tartibga solish chora-tadbirlari

Monopol faoliyatni tartibga solish – bu davlatning ishlab chiqaruvchilarning bozorni monopollashtirish imkoniyatini cheklash maqsadida amalga oshiradigan qonunchilik, ma’muriy va iqtisodiy tavsifdagi chora-tadbirlaridir.

Antimonopol qonunchilik dastlab AQSHda qabul qilinib, keyin barcha industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlarga keng yoyilgan. Mazkur qonunchilik asosida maxsus antimonopol muassasa (qo‘mita) tashkil qilinib, u davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatini amalga oshiradi. Uning asosiy vazifalariga quyidagilardan iborat bozor tuzilishini joriy tahlil qilish; monopollashuv omillarini

aniqlash; antimonopol qonunchilikni amalga oshirish; sohaga tegishli qonun va hukumat qarorlarini ekspertizadan o'tkazish; monopolist korxonalariga sanksiyalar qo'llash; monopoliyalarni bo'lish va qayta tashkil qilish bo'yicha takliflar berish.

Ma'muriy chora-tadbirlar dekartel va detrest tavsifiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Germaniya va Yaponiya iqtisodiyotida ikkinchi jahon urushidan keyin ana shunday tadbirlar qo'llanilgan. Iqtisodiy tadbirlar odatda monopol ishlab chiqaruvchilar mahsulotlariga narx o'sishini cheklashga qaratiladi va tegishli narx siyosatini taqozo etadi. Narx siyosati ijtimoiy xizmatlardan tashqari tovarlarning ko'pchilik guruhiga narxlarni erkinlashtirishni ko'zda tutadi. Bu siyosatning asosiy maqsadi milliy bozorga chet ellik ishlab chiqaruvchilarning kirib kelishini yo'l qo'yiladigan darajada nazorat qilish asosida raqobatni rag'batlantirish, mavjud monopoliyalarga qarshi turuvchi raqobatchi korxonalarni moliyaviy, soliq va kreditli vositalar orqali rag'batlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash uchun shart-sharoit yaratishdir.

Raqobatchilik muhitini shakllantirishda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va ijtimoiy muhitni qaror toptirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli qo'llab-quvvatlash istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.

Davlatning monopoliyalarga qarshi amalga oshiradigan iqtisodiy chora-tadbirlarini quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

monopol mahsulotning o'rnini bosuvchilarini, ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, qo'shma korxonalar va erkin savdo zonalarini tashkil qilish;

taqchil tovarlarni ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha tadbirlarni davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtirish.

Davlatning monopoliyalar faoliyatini tartibga solish usullari quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga qaratiladi:

bozorning monopollashuvini cheklash;

doimiy davlat monitoringini amalga oshirish;

monopol narxlar o'rnatilishini taqiqlash;

raqobatni saqlash va qo‘llab-quvvatlash, ya’ni raqobatchi kompaniyalar qo‘shilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

raqobat zamonaviy shakllarda amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlash.

Davlat monopoliyalar faoliyatini tartibga solishda uning ijobiy tomonlari va salbiy oqibatlarini hisobga olish taqozo qilinadi. Monopoliyalarning ijobiy tomonlari bu, eng avvalo, ular mahsulotining yuqori sifat bilan farqlanishidir. Bundan tashqari, monopoliyalarning yirik ko‘lami harakatlar va barcha turdagi resurslarni tejash imkonini beradi. Monopolistik tuzilmalar ishlab chiqarishga katta miqdordagi moddiy va moliyaviy xarajatlarni taqozo qiladigan fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini tez joriy qilish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

Monopoliyalarning salbiy tomonlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

Bozordagi mavqei va monopol narxlar tufayli yuqori foydaga egalik qilib, mahsulot chiqarish hajmini cheklaydi, raqobat kuchsiz bo‘lgan yoki umuman mavjud bo‘lmagan sharoitda fan-texnika taraqqiyoti hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun rag‘batlarni ham yo‘qotadi.

Jamiyatda daromadlar tengsizligini kuchaytiradi. Bunga qo‘shimcha monopol yuqori foydani o‘zlashtirish aholi boshqa qatlamlari daromadlarining nisbatan kamayib borishini anglatadi.

Monopoliyalar iqtisodiy sohada nomonopol tizimlarni o‘zlarining kamsitilgan sharoitlariga bog‘lab erkin va sof raqobat qarshi turadi. Siyosiy sohada oligarxlar ommaviy axborot vositalarini sotib olib, saylovoldi kompaniyalari paytida siyosiy partiyalarni moliyalashtirib, parlament va hukumatga o‘zlarining tarafdorlarini kiritib qulay shartnomalar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqa qulayliklarga ega bo‘lib jamiyat boshqa qatlamlarining manfaatlari, huquq va erkinliklari kamsitilishiga olib keladi.

Monopoliyalar mavjud bo‘lishining ijobiy va salbiy jihatlari tahlili, ular ham bozor iqtisodiyotining zaruriy tarkibiy qismi ekanligini anglatadi. Shundan kelib chiqib, davlatning vazifasi monopoliyalarni siqib chiqarish emas, balki monopoliya va raqobatni jamiyat manfaatlari uchun oqilona uyg‘unlashtirishga qaratilishi zarur.

Hozirgi davrda: “iqtisodiy tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulotlar va xizmatlar ko‘rsatish bozorlarida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish”⁵⁷ davlat antimonopol siyosatining negizini tashkil qiladi.

Tayanch tushunchalar

Davlat antimonopol siyosati – monopoliyalar faoliyatini cheklash, tartibga solish va raqobatchilik muhitini vujudga keltirishga qaratiladi.

Tabiiy monopoliyalar – ishlab chiqarishning texnologik xususiyatiga ko‘ra raqobat mavjud bo‘lmagan sharoitda talabni qondirishning o‘ziga xos bozor tuzilmasi.

Monopol faoliyatni tartibga solish – bu davlatning ishlab chiqaruvchilarning bozorni monopollashtirish imkoniyatini cheklash maqsadida amalga oshiradigan qonunchilik, ma‘muriy va iqtisodiy tavsifdagi chora-tadbirlari.

Muhokama uchun savollar

1. Tabiiy monopoliya subyektlari tarkibiga qanday korxonalar va tashkilotlarni kiritish mumkin?
2. Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solish zarurati nima bilan izohlanadi?
3. O‘zbekistonda tabiiy monopoliyalar faoliyati qanday me‘yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
4. O‘zbekistonda tabiiy monopoliya sohasini belgilash qaysi mezonlarga asoslanadi?
5. Mamlakatimizda tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solishda xorijiy mamlakatlardagi qaysi usullardan foydalanish mumkin?
6. O‘zbekistondagi tabiiy monopoliyalar subyektlarining vujudga kelishi, amal qilishi xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalariga baho bering.

⁵⁷ 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

7. O‘zbekistondagi tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solish usullari samaradorligini baholang va ularni xorijiy mamlakatlardagi mavjud usullar imkoniyatlari bilan taqqoslang.

XII bob. ISH HAQINING SHAKLLANISHI VA AMAL QILISH

1. Ish haqining iqtisodiy mazmuni va uning darajasini belgilovchi omillar.

2. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari.

3. Ishchi kuchi bozorida ish haqi.

4. Mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va uning tartibga solinish xususiyatlari.

1. Ish haqining iqtisodiy mazmuni va uning darajasini belgilovchi omillar

Mehnat haqi qilingan mehnatning har qanday turi hisobiga olingan daromad shaklini anglatadi.

Yaratilgan yalpi ichki mahsulotning uning ishlab chiqaruvchilari o'rtasida ular mehnatning miqdori, sifati va unumdorligiga qarab taqsimlanadigan qismi ish haqi deb yuritiladi.

«Yashash uchun vosita minimumi» (D.Rikardo va T.Maltuslarning) konsepsiyasida ish haqini yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimumi bilan bir xil deb hisoblaydi. Biroq bu minimum o'z ichiga ishchi kuchi shakllanadigan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar tug'dirgan ehtiyojlarni ham oladi. Bunga qo'shimcha iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchi bozorida real ish haqining o'rtacha darajasi yashash uchun zarur jismoniy vositalar minimumiga qaraganda ancha yuqori darajani tashkil qiladi.

Qiymatning mehnat nazariyasi (klassik siyosiy iqtisod maktabi) ishchi kuchini alohida, o'ziga xos tovar deb hisoblaydi. Shu sababli, bu nazariya ish haqiga tovar bo'lgan ishchi kuchi qiymatining o'zgargan shakli, ya'ni puldagi ifodasi sifatida qaraydi va uni ishchi kuchini takror hosil qilish uchun zarur bo'lgan tirikchilik vositalari qiymati sifatida aniqlaydi. Mazkur g'oya tarafdorlari ishchi kuchi qiymatiga bir qator omillar, avvalo, tabiiy shart-sharoitlar, aholining

madaniy rivojlanishi, ularning malakasi va ishchi oilasini saqlash hamda ularning tabiiy takror ishlab chiqarish sharoitlari ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Lekin ish haqiga «ishchi kuchi qiymatining puldagi ifodasi» sifatida qarash, aniq ishchi kuchi bozorida ish haqi darajasiga uning unumdorligi, mehnat intensivligi, talab va taklif kabi omillarning ta'sirini yetarli hisobga olmaydi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasida⁵⁸ ish haqi ishchi kuchi bozorida mehnat bahosi sifatida talqin qilinadi. Bunda ish haqi darajasi unga bo'lgan talab va taklif nisbatiga ishchining malakasi, mehnatining intensivligi va ishlab chiqarish natijasiga bog'liq bo'ladi.



Ish haqi iqtisodiy kate-goriya sifatida xodimlar meh-natining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushi-ning puldagi ifodasidir.

Ish haqidan farqli ra-vishda mehnat haqi turli xodimlar, shu jumladan aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi (sartarosh, maishiy texnikani ta'mirlovchi master va boshqa.) mayda mulk egalarining mehnat haqi hamda gonorar, mukofot va ular mehnatini rag'batlantirishning boshqa turlarini o'z ichiga oladi.

Ishchi kuchining aniq bozorida ish haqi uning stavkasini yoki resurslar bozorida mehnatning aniq turi narxini anglatadi.

Albatta ishchi kuchini takror hosil qilishda ish haqidan tashqari foiz, renta, foyda, dividend, turli imtiyozlar va nafaqalarning ham roli bor. Ishchi uchun qancha miqdorda ish haqi olishi emas, balki unga qancha miqdorda tovarlar va xizmatlar sotib olishi mumkinligi muhim. Shu sababli, nominal va real ish haqi farqlanadi. Nominal ish haqi bu ma'lum vaqt davomida pul shaklida olingan ish haqi.

⁵⁸ jumladan Ekonomiks darsliklarida, 1998 yilda Moskvada V.D.Kamayev rahbarligida chiqarilgan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida, 1997 yilda Toshkentda chop qilingan A. O'lmasovning «Iqtisodiyot asoslari» o'quv qo'llanmasida va boshqalarda.

Real ish haqi – bu nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori. Boshqacha aytganda, real ish haqi – bu nominal ish haqining «xarid etish layoqati». O‘z-o‘zidan aniqki, real ish haqi nominal ish haqiga va xarid qilinadigan tovarlar (va xizmatlar) narxiga bog‘liq. Shunday ekan, real ish haqi boshqa sharoitlar bir xil bo‘lganda, nominal ish haqiga to‘g‘ri va iste’mol buyumlari va xizmatlar narxining darajasiga teskari mutanosibdir. Bu miqdorlar nisbatini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$V_p = \frac{V_n}{P}$$

bu yerda, V_p –real ish haqi ; V_n –nominal ish haqi ;
 P –iste’mol buyumlari va xizmatlarga narx darajasi.

Nominal ish haqi – ishlab topilgan pul daromadi darajasini, real ish haqi esa xodimlarning haqiqiy iste’moli va farovonlik darajasini tavsiflaydi.

Mamlakatda ish haqining umumiy darajasini belgilab beruvchi asosiy omillar quyidagilar:

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi;

Mehnatning asosiy kapital bilan qurollanish darajasi

Mehnatning tabiiy resurslar bilan ta’minlanganligi;

Mavjud ishlab chiqarish texnologiyasi;

Mehnatning umumiy malakaviy darajasi;

Taqsimotning tarkib topgan tizimi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy omillar.

2. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari

Ishlab chiqarishning texnik va texnologik asoslaridagi, ishchilar mehnatining mazmuni va unumdorligidagi ularga bilim berish va kasbga o‘rgatish borasidagi o‘zgarishlar natijasida ish haqi shakli va tizimlari ham o‘zgarib boradi. Ish haqini tashkil etishda uning ikkita vaqtbay va ishbay shakllari farqlanadi. Vaqtbay ish haqi xodimning ishlagan vaqtiga qarab to‘lanadi. U odatda mehnatning natijalarini aniq hisoblab bo‘lmaydigan, balki ular aniq vazifalarni bajargan hollarda (masalan, injener-texnik xodimlar va xizmatchilar, sozlovchilar, elektromontyorlar va shu kabilarga haq to‘lashda) yoki

mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonining borishi bilan belgilanadigan va bevosita ishchi mehnatiga bog'liq bo'lmagan paytlarda (masalan konveyerlar va avtomat liniyalarida ishlash) qo'llaniladi.

Ishbay ish haqi ishlab chiqargan mahsuloti miqdori yoki bajargan ishining hajmiga qarab beriladi. Mahsulot birligi uchun uning miqdori, ta'rif stavkasidagi haqni ishlab chiqarish normasiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Haq to'lash shakllarining aniq mehnat sharoitlarini hisobga oladigan turlari ish haqining tizimini tashkil qiladi. Chunonchi, ishchilarning bir qismiga to'g'ri ishbay tizimi bo'yicha haq to'lanadi. Bunda ishlab chiqarish normasi qay darajada bajarilishidan qat'i nazar, ish haqi mahsulot birligi uchun belgilangan rasenka bo'yicha to'lanadi.

Ishbay-mukofot tizimi bir qancha ko'rsatkichlar uchun mukofot berishni nazarda tutadi. Ishbay-progressiv haq to'lashda belgilab qo'yilgan norma doirasida ishlab chiqargan mahsulotga uning birligi uchun belgilangan rasenka bo'yicha ish haqi beriladi, normadan yuqorisiga esa oshirilgan rasenka bo'yicha pul to'lanadi. Ishbay-ish haqining tizimida yakka tartibdagi, jamoa va ijara pudratida qo'llaniladigan mehnatga haq to'lash farqlanadi. Bunda olingan tayyor mahsulot uchun uning sifati va ishlab chiqarish chiqimlarini hisobga olib haq to'lanadi. Haq to'lashning jamoa shaklida ish haqi brigada, sex va boshqa bo'linmaning pirovard faoliyati natijalariga bog'liq qilib qo'yiladi. Bunda har bir xodim faqat o'ziga berilgan shaxsiy topshiriqlargagina emas, balki shu bilan birga bo'linmaning butun ish hajmini ham bajarishdan manfaatdor bo'ladi.

Ishchilarning ish haqini tabaqalashtirish eng avvalo, ta'rif tizimi yordamida amalga oshiriladi. Ta'rif tizimi yordamida tarmoqlar va mamlakat mintaqasi bo'yicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab ish haqi darajasi tartibga solib turiladi.

Ta'rif tizimi ta'rif-malaka spravochniklarini va ish haqiga har xil koeffitsiyentlarini o'z ichiga oladi.

Ta'rif-malaka spravochniklari, ta'rif setkasi ayrim kasblar va mehnat turlarining batafsil ta'rifi, u yoki bu aniq ishni bajaruvchining bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablardan iborat bo'ladi, shuningdek, unda bu ishni ta'riflash uchun

qo‘yiladigan razryadlar ham ko‘rsatiladi. Ta’rif setkasida razryadlardan tashqari ta’rif koeffitsiyentlari ham bo‘lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq to‘lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to‘lashning o‘zaro nisbatini ko‘rsatadi (birinchi razryadning ta’rif koeffitsiyenti hamma vaqt birga teng).

Ta’rif stavkalari tegishli razryadga ega bo‘lganlar mehnatiga to‘lanadigan haq miqdorini belgilab beradi.

Mehnat qilish sharoiti og‘ir va zararli bo‘lganda ishchilarga ta’rif stavkasiga qo‘shimcha haqlar belgilanadi. Ta’rif stavkalariga ustamalar shaklidagi haq (razryadlar bo‘yicha farqlantirilgan) professional mahorat uchun belgilanadi.

Alohida tarmoqning iqtisodiyotdagi ahamiyatiga qarab amalda ish haqini va mansab maoshlarini farqlantirish ishlari amalga oshiriladi. Bunda mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yetakchi tarmoqlarga tajribali, malakali kadrlarni jalb etish, bu tarmoqlarda ishchi va xizmatchilar tarkibi barqaror bo‘lishini ta’minlaydigan sharoitlarni vujudga keltirish maqsadi ko‘zlanadi.

Respublikamizda ham ta’rif tizimi orqali ish haqi tabaqalash-tirilib, turli kasblar va ish turlari uchun ish haqi to‘lashning yagona razryadlari aniqlangan. Narxlar o‘sishi bilan minimal ish haqi darajasi hamda barcha razryadlar ular o‘rtasidagi nisbat saqlangan holda oshirib boriladi.

O‘zbekistonda mehnatga haq to‘lashning yagona ta’rif setkasi

12.1-jadval

Mehnatga haq to‘lash razryadlari	Ta’rif koeffitsiyentlari
1	2,476
2	2,725
3	2,998
4	3,297
5	3,612
6	3,941
7	4,284

8	4,640
---	-------

12.1-jadvalning davomi

9	4,997
10	5,362
11	5,733
12	6,115
13	6,503
14	6,893
15	7,292
16	7,697
17	8,106
18	8,522
19	8,943
20	9,371
21	9,804
22	10,240

O‘zbekistonda davlat muassasalari tibbiyot va farmasevtika xodimlari mehnatiga haq to‘lashning ta’rif setkasi

12.2-jadval

Mehnatga haq to‘lash razryadlari	Ta’rif koeffitsiyentlari
1	3,148
2	3,464
3	3,809
4	4,191
5	4,609
6	5,070
7	5,578
8	6,191
9	6,872
10	7,629
11	8,320

Mehnatga haq to'lashning tegishli razryadlari bo'yicha ish haqini hisoblashda u eng kam ish haqi miqdoriga ko'paytiriladi.

Agar biron kasb 18-razryadga kiritilsa, unga to'lanadigan ish haqi shu razryad tarif koeffitsiyenti (8,522)ni eng kam ish haqi miqdori (2017-yil 1 dekabrda 172240 so'm) ga ko'paytiriladi, ya'ni $8,522 \times 172240 = 1467829$ so'm 28 tiyin.

3. Ishchi kuchi bozorida ish haqi

Mehnatning alohida turlariga talab darajasining aniqlanishi va ish haqi darajasini belgilovchi bir qator umumiy omillar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilar:

- mehnatning aniq turi taklifining cheklanganligi;
- bajariladigan ishlarning jozibadorligi;
- ishlovchilarning malakasi, kasbiy tayyorgarligi va mahorati.

Mamlakatdagi ishchi kuchi umumiy taklifini quyidagi omillar belgilab beradi:

- mamlakat aholisining soni;
- aholining umumiy sonida mehnatga yaroqli bo'lganlar salmog'i;
- aholining jinsi va yosh tarkibi.

Mehnatning sof raqobatli bozorida ish haqi darajasining shakllanishi quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- ish haqi darajasi alohida mehnat turiga yalpi talab va uning yalpi taklifi ta'sirida shakllanadi;

- alohida ishga yollanuvchilar va ishga yollovchilar ish haqi darajasiga ta'sir ko'rsata olmaydi;

- mehnatga umumiy talab yoki uning umumiy taklifidagi ancha katta o'zgarishlar ish haqi darajasida o'zgarish bo'lishiga olib keladi.

Monopsoniya sharoitida ish haqi darajasi quyidagicha aniqlanadi:

- ishga yollovchilar ish haqi darajasini belgilashda nisbiy hukmronlikka ega bo'ladi;


- alohida mehnat turi taklifining cheklanishi ish haqi o'rtacha darajasining ko'tarilishiga olib keladi;

- mehnat turiga talab kamayganda ish haqi darajasi pasayadi.

Ishchi kuchi bozorida ish haqi darajasi (W) va band bo'lganlar soni (L) talab (D) va taklif (S) ning o'zaro ta'siri natijasida aniqlanadi

Mazkur bozorda muvozanatlik barcha tadbirkorlar W_0 darajasida ish haqi to'lashga roziligini, yetarli miqdorda bo'sh qo'llar mavjudligini va ishchi kuchiga talab to'liq qondirilganligini anglatadi.

Bozor muvozanati holatida barcha xodimlar to'liq ish bilan ta'minlangan va ish haqining W_0 darajasida o'zlarining mehnatini tavsiya qilishga tayyor bo'ladi. Shu sababli, E nuqta to'liq bandlik holatini ko'rsatadi. Boshqa har qanday sharoitda ish haqi W_0 darajadan farq qilib ishchi kuchi bozoridagi muvozanatlik buziladi. Real ish haqi muvozanatlik W_0 dan W_1 darajaga ortganda ish kuchi bozorida taklif ($0 S_1$) talab ($0 D_1$)dan $D_1 S_1$ miqdorga ortadi. Bunday sharoitda to'liq bandlikdan foydalanish ro'y beradi, ish o'rinlari barcha xohlovchilarning ish haqining W_1 darajasida ishchi kuchini sotishi uchun yetarli bo'lmaydi. Yotiq o'qda $D_1 S_1$ kesma bilan aniqlanadigan ishchi kuchi taklifi ortiqchaligi vujudga keladi. Real ish haqi muvozanatlik darajasiga nisbatan pasayganda ishchi kuchiga talab uning taklifidan $S_{11} D_{11}$ miqdorga ortadi. Har ikki vaziyatda (ishsizlik va band bo'lmagan ish o'rinlari mavjud bo'lgan) sof raqobat bozor sharoitlari barqaror bo'lishi mumkin emas. Haqiqatda, agar ishchi kuchi taklifi unga bo'lgan talabdan ortsa, ishsizlik vujudga keladi, ishlab chiqarishda band bo'lganlar, ish o'rinlarini yo'qotib qo'ymaslik uchun, o'zlarining mehnat qilish layoqatini ancha past ish haqi darajasida ham taqdim qilishga tayyor turadi.



12.1-chizma. Ishchi kuchi bozori modeli.

Tadbirkorlar ham ish haqi pasayib borishi sharoitida ko‘proq xodimlarni ishga yollashga harakat qiladi. Shunday qilib, ish haqining pasayish tamoyili ishchi kuchi taklifi va unga bo‘lgan talab sohasida ham qaror topadi.

Ish haqi muvozanatli darajaga nisbatan pasaygan sharoitda ishchi kuchiga talab uning taklifidan ortsa, ish beruvchilar bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirish uchun ish haqini oshirishga tayyor bo‘ladi. Ish haqining bunday ortishi tufayli ishchi kuchini taklif qilishga tayyor xodimlar doirasi kengayadi. Ham birinchi, ham ikkinchi holatda ishchi kuchi bozorida muvozanatlilik tiklandi va to‘liq bandlik holatiga keladi.


Ishchi kuchi taklifining yana bir xususiyati shundaki, u kishilarning shaxsiy erki va afzal ko‘rishiga bog‘liq bo‘ladi. Xodim qancha vaqt ishlashini hamda vaqtning qancha qismini dam olish va boshqa muqobil ishlarga ajratishini o‘zi hal qiladi.

Ishchi kuchi bozoriga tatbiqan o‘rnini bosish samarasi shunda namoyon bo‘ladiki, xodim tomonidan bo‘sh vaqtning har bir soati yo‘qotilgan naf sifatida qaraladi.

Shundan kelib chiqib, u bo‘sh vaqtini qo‘shimcha ish bilan to‘ldirishga harakat qiladi va demak, ish haqining o‘sgan qismiga boshqa tovar (xizmat) larni ham sotib olish mumkin bo‘ladi.

Daromad samarasi shunda namoyon bo‘ladiki, xodim moddiy ta‘minlanishning yetarlicha yuqori darajasiga erishganda ish

haqining yanada oshishi bo‘sh vaqt foydasiga mehnat taklifining qisqarishiga olib keladi.



12.2-chizma. Individual ishchi kuchi taklifi.

Ishchi kuchi bozorida kishilar xulqidagi aynan shunday qonuniyat uzoq vaqt davomida ish haftasi qisqarish tamoyili asosida yotadi. Rivojlangan g‘arb davlatlarida oxirgi 100 yil davomida ish haftasi 40% ga qisqarib, uning hisobiga bo‘sh vaqt keskin ortgan. Inson hayot davri cheklanganligi sababli bo‘sh vaqt eng qadrli ne‘mat hisoblangan sharoitda uning ortishi nihoyatda ahamiyatli.

Grafikda LS egri chiziq ish haqi o‘sib borganda ishchi kuchi taklifi L nuqttagacha ortib borishini, biroq keyin o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib, tik o‘qqa yaqinlashib borishini, ya’ni uning taklifi ish haqi oshganda qisqarishini ko‘rsatadi.

4. Mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va uning tartibga solinish xususiyatlari

Ishga yollash bo‘yicha korxonada ma‘muriyati va ishchilar o‘rtasidagi munosabat mehnat shartnomalari yordamida shakllanadi. Mehnat shartnomalari avvalo, ish haqi stavkasi, normadan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka, dam olish kunlari va tanaffuslar, pensiya fondlari va sog‘liqni saqlashga ajratmalar hamda narxlarning o‘zgarishini hisobga olib iste‘molchilik savati qiymatini tartibga solish kabi paketlarni o‘z ichiga oladi.

Ko‘pchilik mamlakatlarda mehnat munosabatlarining rivojlanishida bosh masala ishsizlikni ijtimoiy kafolatlashga, ishlovchi-

larning mehnat sharoitini yaxshilash va ish haqini oshirish imkoniyatlari bilan bog‘liq masalalar hisoblanadi. Bu muammolarni hal qilishda asosiy rol kasaba uyushmalariga tegishli bo‘ladi.

Ko‘pchilik bozorlarda ishchilar o‘zlarining ish kuchini kasaba uyushmalari orqali jamoa bo‘lib «sotadi». Kasaba uyushmalari nisbatan ko‘p sonli ishga yollovchilar bilan muzokaralar olib boradi va ularning asosiy iqtisodiy vazifasi ish haqini oshirishdan iborat bo‘ladi. Kasaba uyushmalari bu maqsadga turli xil yo‘llar bilan erishishi mumkin.

1. Ishchi kuchiga bo‘lgan talabni oshirish. Kasaba uyushmalar nuqtayi nazaridan ish haqini oshirishning eng qulay usuli mehnatga bo‘lgan talabni kengaytirish hisoblanadi. Ishchi kuchiga bo‘lgan talabning ortishi natijasida ish haqi stavkasi ham, ishchi o‘rinlari soni ham ortadi. Kasaba uyushmalari bu talabni belgilovchi bir yoki bir necha omillarni o‘zgartirish yo‘li bilan ishchi kuchiga bo‘lgan talabni ko‘paytirishi mumkin. Xususan, ular quyidagilarga erishishga harakat qiladi: 1) ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko‘rsatiladigan xizmatga talabni oshirish; 2) mehnat unumdorligini oshirish va 3) ishchi kuchi bilan birgalikda foydalanadigan boshqa ishlab chiqarish omillari narxlarini o‘zgartirish.

2. Ishchi kuchi taklifini qisqartirish. Kasaba uyushmalari ishchi kuchi taklifini qisqartirish yo‘li bilan ish haqi stavkasini oshirishi mumkin. Bunga quyidagi yo‘llar bilan erishiladi: a) immigratsiyani cheklash; b) bolalar mehnatini qisqartirish; d) pensiyaga muddatida chiqishni qo‘llab-quvvatlash; e) ish haftasini qisqartirishga yordam berish.

Bulardan tashqari kasaba uyushmalari tadbirkorlarni o‘z a‘zolarini ishga yollashga majbur qilib, ishchi kuchi taklifi ustidan to‘liq nazorat o‘rnatadi. Kasaba uyushmalari o‘z a‘zolari sonini qisqartirish siyosati orqali (masalan, uzoq muddatli o‘qitish, yangi a‘zolari qabul qilishni cheklash yoki taqiqlash) ishchi kuchi taklifini sun‘iy ravishda qisqartiradi. Bu, o‘z navbatida, ish haqi stavkasining ortishiga olib keladi.

3. Kasbni malakali litsenziyalash. Bu ma‘lum mehnat turi taklifini cheklash vositasi hisoblanadi. Bunda kasaba uyushmalari korxonaga ma‘muriyatiga ma‘lum kasbdagi ishchilar aniq ko‘rsatilgan talablarga javob bergan taqdirda ishga qabul qilishga ta‘sir

ko'rsatadi. Bu talablar o'z ichiga ishchining ta'lim darajasi, mutaxassislik bo'yicha ish staji, imtihon natijasi va shaxsiy tavsiflarini oladi.

4. Kasaba uyushmalari jamoa shartnomalari tuzishda monopol holatga ega bo'lgan tadbirkorlarga qarshilik ko'rsatish yo'li bilan ham ish haqi stavkasini oshirishga erishish mumkin. Buning natijasida ish haqini oshirish bilan bog'liq qo'shimcha sarflar, yangi ishchi kuchini yollash natijasida olinadigan mahsulot hajmidan ortiq bo'ladi.

Hozirgi zamon mehnat munosabatlari o'zida davlatning ta'sirini ham aks ettiradi. Davlatning qonunchilik faoliyati mehnat munosabatlarining barcha tomonlarini qamrab oladi. U nafaqat iqtisodiyot davlat sektorining ishchi kuchiga bo'lgan talabini bildiradi, balki uning xususiy sektorda ham tartibga soladi, milliy iqtisodiyot miqyosida ishga yollashning asosiy o'lchamlarini aniqlaydi.

Mehnat munosabatlariga davlatning ijtimoiy dasturlari (kam ta'minlangan oilalarga yordam, ishsizlik bo'yicha nafaqa, har xil ijtimoiy to'lovlar, pensiya ta'minoti va boshqalar) katta ta'sir ko'rsatadi. Bu dasturlar bozor tahlikasi yuqori bo'lgan davlatlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini barqarorlashtirishga ma'lum bir darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning mehnat munosabatlariga ta'sir ko'rsatish yo'llari sifatida yana quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

ish haqining eng kam darajasi (minimal ish haqi)ni aniqlash va o'zgartirish;

ishga yollashning umumiy shart-sharoitlarini belgilash;

bandlik xizmati (mehnat birjalari) faoliyatini amalga oshirish;

davlat ta'lim tizimi orqali ishchilarni o'qitish va qayta tayyorlashni tashkil qilish.

Davlatning ish kuchi bozoridagi vositachilik roli ham mehnat munosabatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, o'ziga qisman ishchi o'rinlarini qidirish va tavsiya qilish hamda ishga joylashtirish bo'yicha umummilliy dasturlarni ishlab chiqish vazifalarini oladi. Ishchilarni o'qitish va qayta tayyorlashning davlat tizimi, bozorning o'zgaruvchan talablariga tez moslashishga imkon beradi.

Ishchi kuchi bozorining barcha qarab chiqilgan xususiyatlari, uning yetarli darajada takomillashmagani, ya'ni unda raqobatdan tashqari omillar – davlat, kasaba uyushmalari va yirik korporatsiyalar ishtirok etishini ko'rsatadi.

Tayanch tushunchalar

Ish haqi – ishlab chiqaruvchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi.

Vaqtbay ish haqi – ishchining ishlagan vaqti (kun, hafta, oy) hisobga olinib to'lanadi.

Ishbay ish haqi – ishlab chiqargan mahsuloti miqdoriga yoki bajargan ishi hajmiga qarab to'lanadi.

Nominal ish haqi – pul shaklida olingan ish haqi summasi.

Real ish haqi – nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining sotib olish layoqati.

Muhokama uchun savollar

1. Yaratilgan milliy mahsulotning qanday qismi ish haqi shaklini oladi?

2. Ish haqining turlicha nazariyalarini tahlil qilib, ularga o'z qarashingizni bildiring.

3. Real ish haqi darajasi qanday omillar ta'siri ostida o'zgaradi?

4. Nima uchun ish haqining umumiy darajasi har xil mamlakatlarda turlicha?

5. Tarif tizimi o'z ichiga qanday tarkibiy qismlarni oladi? Ularning har birining ahamiyati va farqlanishini tushuntirib bering.

6. Mehnat munosabatlari deganda nimani tushunasiz? Mehnat munosabatlari kimlar tomonidan tartibga solinadi?

7. Kasaba uyushmalari ish haqini oshirishning qanday usullaridan foydalanadilar?

8. Mehnat shartnomasi nima va unda qanday masalalar o'z ifodasini topadi?

XIII bob. ISTE'MOLCHI XULQI NAZARIYASI: NAFLILIK VA UNI MAKSIMALLASHTIRISH QOIDASI

- 1. Naflilik, yalpi naflilik va keyingi naflilik tushunchalari.**
- 2. Iste'molchi budjeti, uning cheklanganligi va omillari.**
- 3. Iste'molchi tanlovi nazariyasi. Natlilikni maksimallashtirish qoidasi.**

1. Naflilik, yalpi naflilik va so'nggi qo'shilgan naflilik tushunchalari

Bozor vaziyatining o'zgarishida talabning rolini iste'molchi nuqtayi nazaridan qarab chiqilsa, aynan olingan tovarga talab qanday shakllanadi, uning xulqi nimadan iborat, iste'molchi tanlovi qanday tartibda amalga oshiriladi kabi savollarga mantiqiy javob topish mumkin bo'ladi.

Talabning o'zgarish qonuniyatlari va iste'molchi tanlovi masalalariga marjinalistlar keyingi naflilik konsepsiyasi va iste'molchi xulqi nazariyasi bilan o'zlarining hissalarini qo'shdi.

Iste'molchi xulqi bu ularning turli xil tovar va xizmatlarga talabning shakllanish jarayonidir. Iste'molchi xulqi quyidagi mantiq asosiga quriladi:

Iste'molchi imkoniyati cheklangan sharoitda harakat qiladi, shu sababli uning qarori tovarlarning mavjud muqobil variantlaridan birini tanlashga qaratiladi.

Iste'molchi maqsadi – tovarlarni iste'mol qilish natijasida maksimal qoniqish olishdir.

Iste'molchi xulqi oqilona, ya'ni u barcha cheklanishlarni baholaydi va o'z maqsadiga yetishishning eng yaxshi variantini tanlaydi.

Iste'molchi xulqini miqdoriy aniqlashda keyingi naflilik nazariyasi va farqsizlik egri chizig'i usuli yordamida amalga oshiriladi.

Naflilik – subyektiv qoniqish, ya'ni tovar (xizmat) ni iste'mol qilishdan ko'riladigan naf.

“Umumiy tarzda naflilikni insonning ehtiyojini qondira olish qobiliyati deb ta’riflashimiz mumkin”⁵⁹.

Iste’molchining bozordagi xatti-harakati so‘nggi qo‘shilgan naflilik nazariyasi hamda iste’molchi tanlovi nazariyasi orqali izohlanadi. Bu nazariya yordamida iste’molchining manfaati nuqtayi nazaridan uning afzal ko‘rishi qoidalari bayon etiladi.

Agar naflilikka iste’molchi nuqtayi nazari bilan qaralsa, u iste’molchining biron-bir ne‘matni iste’mol qilishidan olinadigan qoniqishni anglatadi. Iste’molchi tomonidan o‘zi uchun turli tovarlarning naflilik darajasining baholanishi iste’molchining afzal ko‘rishi deyiladi.⁶⁰

Naflilik funksiyasi ma’lum miqdordagi tovarlarga boshqa bir miqdordagi tovarlarni taqqoslash orqali ro‘yobga chiqadi. Naflilikni mutlaq ko‘rsatkichlarda aniqlash ahamiyatga ega emas. Faqat iste’molchi tanlovini naflilik darajasining ketma-ket joylashuvi bilan izohlash mumkin. Bir to‘plamdagi tovarlar nafliligi boshqasidan qay darajada afzalligini miqdoriy baholash mumkin emas.

Naflilik funksiyasi iste’mol qilinayotgan tovarlar(X,Y) dan olinayotgan naflilikning hosilasini ifodalaydi:

$$U(X,Y) = XY$$

“Naflilik” atamasini ilmiy sohaga birinchi bo‘lib, ingliz filosofi I.Bentam (1748-1832) kiritgan.

Naflilik va narx o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilk bor ingliz iqtisodchi olimi U.Djevons (1835-1882) ko‘rsatib, keyingi naflilik konsepsiyasini ilgari suradi va aynan u bozor narxida o‘z o‘rniga ega bo‘lishini isbotlaydi.

Naflilikni miqdoriy aniqlash ancha qiyin, chunki u subyektiv tushuncha. Iqtisodiyot nazariyasida naflilikni aniqlashda ikkita yondashuv qaror topgan.

Kardinalistik yondashuvda naflilik miqdorini mutlaq aniq hisoblash talab qilinadi. Bunda uni aniqlashning sharti birligi “yutil” (inglizcha – utility – naflilik) dan foydalaniladi.

Ordinalistik yondashuvda qator tovarlarni afzal ko‘rish tartibi bo‘yicha joylashtirishda naflilikning ma’lum ketma-ketligiga yo‘l

⁵⁹ Economics: principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 360 bet.

⁶⁰ Economics: principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 362 bet.

qo'yiladi. Bunda iste'molchi tovarning bir-biriga qiyosan muhimlik darajasi bo'yicha xulosa chiqarish mumkin. Masalan, birinchi tovar ikkinchisiga, ikkinchisi uchunchisiga nisbatan afzal ko'riladi va h.k.

Iste'molchi uchun naflilikning ikki turi: umumiy va keyingi naflilik muhim.

Keyingi naflilik (marginal utility) – muayyan ne'matning navbatdagi birligini iste'mol qilishdan olingan qo'shimcha naflilikdir.

Keyingi naflilik umumiy naflilikning o'sgan qismidan iborat bo'lib, u naflilik funksiyasining natijasi hisoblanadi. Muayyan ehtiyojni qondiruvchi har bir navbatdagi ne'mat oldingisiga qaraganda kamroq naflilikka ega bo'ladi. Ne'matlarning cheklangan miqdori sharoitida esa doimo ehtiyojni eng kam darajada qondiruvchi «so'nggi nusxasi» mavjud bo'ladi⁶¹.

“So'nggi qo'shilgan naflilik pasayib borish tamoyiliga ega bo'lib, bu iqtisodiy tamoyil sifatida ifoda etiladi. Mazkur tamoyilning mohiyati shundan iboratki, agar alohida olingan iste'molchining holatidan kelib chiqilsa, ne'matlarni iste'mol qilish hajmining ko'payib borishi bilan, ma'lum vaqtdan boshlab, muayyan ne'matning navbatdagi birligini iste'mol qilishdan olingan qo'shimcha naflilik oldingisiga nisbatan kamayib boradi⁶².”

Kishi qanchalik ko'p miqdordagi tovarni iste'mol qilsa, u shunchalik ko'p umumiy naflilikka ega bo'ladi.

Umumiy naflilik (total utility) so'nggi qo'shilgan naflilik ko'rsatkichlarini jamlash orqali aniqlanadi.

Agar iste'molchi kamayib boruvchi keyingi qo'shilgan naflilikka ega bo'lsa, u holda yalpi naflilik kamayadi.

Keyingi qo'shilgan naflilikning pasayib borish qonunini iste'mol qilingan muzqaymoq misolida ifodalash mumkin.

⁶¹ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 360 bet.

⁶² Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 360 bet.


Muzqaymoq iste'mol qilishdan olingan keyingi qo'shilgan va yalpi naflilik

13.1-jadval

Iste'mol qilingan muzqaymoqlar soni	Keyingi qo'shilgan naflilik (MU)	Umumiy naflilik (TU)
0	-	0
1	10	10
2	8	18
3	6	24
4	4	28
5	2	30
6	0	30
7	-2	28

Jadval ma'lumotlariga ko'ra kamayib boruvchi keyingi qo'shilgan naflilik hisobiga umumiy naflilik miqdoran o'sib boradi. Biroq bu o'sish sur'ati muzqaymoqlarning navbatdagi soni qo'shilihi bilan pasayib borish tamoyiliga ega. Natijasi salbiy ahamiyatli qo'shilgan naflilik umumiy naflilikning qisqarishiga olib keladi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni grafikka joylashtirib, keyingi va umumiy naflilikning ko'rgazmali tasvirini hosil qilish mumkin.



13.1-chizma. Umumiy va keyingi qo‘shilgan naflilik egri chiziqlari⁶³.

Keyingi qo‘shilgan naflilikning grafik tasviri iste‘molchi aynan olingan bir tovarning qo‘shimcha birligidan kamayib boruvchi naflilikka ega bo‘lishini aniq ko‘rsatadi. Umumiy naflilik (“TU”) egri chizig‘i bir turdagi tovarning eng oxirgi birligidan iste‘molchi salbiy samarali naf ko‘rishi oqibatida bu turdagi naflilik ham pasayib borishini ko‘rgazmali aks ettiradi.

Iste‘molchi biron bir tovarning keyingi iste‘mol qilingan birligidan kamroq qo‘shimcha nafga ega bo‘lishi sababli, u aynan shu tovarning navbatdakisini narxi tushgan taqdirdagina sotib oladi. Bu esa naflilik egri chizig‘ining pasayib borish tavsifiga ega bo‘lishini bildiradi.

Biron-bir tovarning (x) keyingi qo‘shilgan naflilik (MU_x) ni miqdoriy jihatdan quyidagicha ifodalash mumkin:

$$MU_x = \frac{\Delta TU_x}{\Delta Q_x}$$

Bu yerda, ΔTU_x – ortib borgan umumiy naflilik;

ΔQ_x – iste‘mol qilingan ne‘matning ko‘paygan miqdori.

Keyingi va umumiy naflilikni bir-biri orqali ifodalash mumkin. Umumiy naflilik iste‘mol qilingan biron-bir ne‘matning keyingi nafliliklari yig‘indisi:

$$TU_n = MU_1 + MU_2 + MU_n$$


Keyingi naflilik esa umumiy yoki qo‘shimcha naflilikning o‘sgan qismi

$$MU_n = TU_n - TU_{n-1}$$

Iste‘molchi qandaydir tovarning navbatdagi birligini (porsiya, qismi, kg, dona va h.k.) iste‘mol qila borib, har bir navbatdagi birligidan kamayib boruvchi qoniqish oladi. Buning sababi shuki, iste‘molchi aynan bir tovarga asta-sekin to‘yinib, pirovardida uning qoniqishi o‘zining oxirgi chegarasiga yetadi. Boshqacha aytganda, mazkur tovarning keyingi nafliligi uni iste‘mol qilish hajmi ortib borishi bilan kamayib borish tamoyiliga ega bo‘ladi. Bu keyingi

⁶³ Economics: principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 361 bet.

(qo‘shilgan) naflilikning pasayib borish qonuni deb nom olgan. Agar iste‘molchiga tamadi qilingan biror ovqatning birinchisi 10 «yutil» naf keltirsa, ikkinchisi -7, uchinchisi -4 va to‘rtinchisi faqat 1 ga teng shunday naf keltiradi. (13.1-chizma Bir ne‘matning iste‘mol qilinadigan miqdori qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning navbatdagi yangi birligini iste‘mol qilish natijasida shuncha kam keyingi naflilik olinadi.



13.2-chizma. Keyingi naflilikning pasayib borish qonuni.

Bir qancha tovarlar to‘plami bo‘yicha keyingi naflilikning pasayib borish o‘z ifodasini Menger jadvalida topadi. K.Menger jadvalida ustunlariga iste‘molchi uchun muhimligini hisobga olib tovarlar to‘plami ketma-ketlikda joylashtirib chiqiladi. Masalan, 1-ustun suv, V –avtomobil va X- dala hovli

Menger jadvali. Tovarlar turlari

	I.	II.	III.	IV.	V.	VI.	VII.	VIII.	IX.	X.
	10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
	9	8	7	6	5	4	3	2	1	0
	8	7	6	5	4	3	2	1	0	
Keyingi qo‘shilgan	7	6	5	4	3	2	1	0		
	6	5	4	3	2	1	0			
	5	4	3	2	1	0				

4	3	2	1	0
3	2	1	0	
2	1	0		
1	0			
0				

Jadval qatorlari yuqoridan pastga tomon aynan bir tovar qo‘shimcha birligining nafliligi pasayib borishini ko‘rsatadi.

Zarurligi jihatdan har qanday darajali tovarning birinchi birligining nafliligi yuqori, har bir navbatdagi qo‘shimcha ketma-ketlikda iste‘mol qilinadiganlarining keyingi nafliligi oldingilariga nisbatan kamayib boradi.

Iste‘molchi uchun har bir keyingi iste‘mol qilinadigan tovardan kamroq qo‘shimcha naflilik olishi sababli u aynan shu tovarning navbatdagi birligini narxi tushsagina sotib oladi. Bu esa talab egri chizig‘ining pasayib boruvchi ko‘rinishda bo‘lishini taqozo etadi.

Iste‘molchi narxlarning mavjud darajasida va mablag‘lari cheklanganligidan kelib chiqib, tanlangan tovar (xizmat)laridan yuqori naf olishni hohlaydi. Iste‘molchi ratsiotnal harakat qiladi, shu sababli u subyektiv sezgilariga asoslanib xarid qilinadigan mahsulotlar to‘plamini naflilikning o‘shishini ta‘minlaydigan darajaga yetgunicha o‘zgartiradi. Va nihoyat iste‘molchi A tovarning navbatdagi birligidan V tovar foydasiga voz kechib, ularning umumiy nafliligini ko‘paytirib berishi mumkinki, bu uning tanlovi muvozanatli nuqtaga erishilganligini anglatadi.

Muvozanatli nuqta iste‘molchi budjetining mavjud darajasida umumiy naflilikni ko‘paytira olmasligini anglatadi va u o‘z iste‘molida “nimani”dir o‘zgartirishdan to‘xtaydi. Bu bir tovarga sarflangan pul hisobiga olingan keyingi naflilik boshqa tovarga sarflangan shunday pulga olingan keyingi naflilikka teng bo‘lib qolganda ro‘y beradi. Shu holda keyingi naflilik tengligi qoidasining amal qilishi namoyon bo‘ladi.

$$\begin{array}{ccc}
 \text{A tovarning} & & \text{V tovarning} \\
 \text{keyingi nafliligi} & & \text{keyingi nafliligi} \\
 \hline
 \text{A tovar narxi} & = & \text{V tovar narxi}
 \end{array}$$

Bu qoida sarflangan pul birligiga to‘g‘ri keladigan keyingi naflilikka ega tovar xuddi shunday pul birligiga sotib olinadigan boshqa tovar keyingi nafliligiga teng bo‘lmagunicha yuqori talab bilan foydalanishini anglatadi.

$$\frac{MU_1}{P_1} = \frac{MU_2}{P_2} = \frac{MU_3}{P_3} = \dots = \frac{MU_n}{P_n} = \text{pul birligiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha MU}$$

Keyingi naflilikning barqaror pasayib borish tamoyili talab qonunini ancha chuqur bilishiga yordam beradi. Keyingi naflilik pasayib borganda aynan bir tovar xaridning keyingi o‘lishi iste‘molchiga mos ravishda kamroq va yanada kamroq qoniqish keltiradi. Demak, iste‘molchi tovar yoki xizmatning ketma-ketlikda xarid qilingan ikkinchi, uchinchi va keyingi birliklariga kamroq va yana kamroq to‘lashni xohlaydi.

2. Iste‘molchi budjeti, uning cheklanganligi va omillari

Iste‘molchi xulqini tahlil qilishning asosiy dastagi bo‘lib farqsiz egri chizig‘i xizmat qiladi. Farqsizlik egri chizig‘i iste‘molchi uchun A va B tovarlarning u yoki bu teng qiymatli to‘plamini aks ettiruvchi nuqtalarning geometrik joylashishidir.


Farqsizlik egri chizig‘i tegishli nuqtalarga mos keluvchi ikki tovarning barcha to‘plami (muqobil variantlari) iste‘molchi uchun bir xil naflidir. Shu sababli, iste‘molchi ularning bir to‘plamdan boshqasiga oson o‘tishi mumkin.

Farqsizlik egri chizig‘i ehtiyojlarni bir xil darajada qondirilishini ta‘minlovchi iste‘mol tovarlari to‘plamlari yig‘indisini namoyon etadi.

Ya‘ni iste‘molchi uchun farqsizlik egri chizig‘ida joylashgan tovarlar to‘plamini tanlashda farq mavjud bo‘lmaydi⁶⁴.

⁶⁴ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 372 bet.

X nuqtadagi A va B tovarlari kombinatsiyasi I1 darajadagi naflilikni beradi, Z nuqtada joylashgan A va B tovarlari kombinatsiyasi X nuqtadagi A va B tovarlar kombinatsiyasi bilan bitta I1 farqsizlik egri chizig'ida joylashganligi uchun ulardan iste'molchi tarafidan olinadigan naflilik miqdori bir-biriga tengdir. Shuning uchun




13.3-chizma. Farqsizlik egri chizig'i⁶⁵.

iste'molchi uchun nafliligini maksimallashtiruvchi subyekt sifatida ana shu ikki xil kombinatsiyadan birini tanlashning farqi yo'q. Farqsizlik egri chizig'i pasayib boruvchi ko'rinishda bo'ladi. Uning pasayib borishi shu bilan izohlanadiki, tanlanishi lozim bo'lgan har ikkala tovar ham iste'molchi uchun bir xil nafli hisoblanadi. Shunga ko'ra, bir tovarlar to'plami Z dan boshqa bir tovarlar to'plami X ga tomon harakat qilsa, A tovari iste'moli oshib boradi, aksincha B tovari iste'moli esa kamayib boradi. Iste'molchi bir xil farqsizlik egri chizig'ida bo'lganligi sababli qo'shimcha A tovarini iste'mol qilishdan olingan naflilik B tovarining bir qismidan voz kechilgani uchun yo'qotilgan naflilikka teng bo'lishi kerak. Farqsizlik egri chizig'i bo'ylab iste'molchi o'z tanlovini o'zgartirgan sari iste'molning umumiy naflilik darajasi o'zgarmaydi, lekin A yoki B tovarlari iste'moli kombinatsiyasi o'zgaradi. Qisqasi, B tovar qanchalik ko'p bo'lsa, A tovar shunchalik oz bo'ladi, chunki A va B

⁶⁵ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 373 bet.

tovarlar o'rtasida teskari aloqa mavjud. O'zgaruvchilari o'rtasida teskari aloqa mavjud bo'lgan har qanday egri chiziq esa pasayib boruvchi ko'rinishda bo'ladi.⁶⁶

Agar iste'molchining A va B tovarlarning barcha to'plamlari bo'yicha afzal ko'rishlarini egri chiziqlar orqali tasvirlansa, farqsizlik xaritasi hosil bo'ladi. Naflilik darajasi bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi farqsiz egri chiziqlar yig'indisi farqsizlik xaritasini tashkil qiladi. Undagi egri chiziqlarning har biri iste'molchi bir xilda qaraydigan tovarlar to'plamini ifodalaydi. Farqsizlik xaritasining tarkibini aks ettiruvchi uchta farqsizlik egri chiziqdan. I_3 farqsizlik egri chizig'i ehtiyojlarni qondirilishining eng yuqori darajasini aks ettiradi.⁶⁷



13.4-chizma. Farqsizlik xaritasi.


Ehtiyojlarning har bir darajasiga ko'ra cheksiz farqsizlik egri chizig'i mavjud bo'lishi mumkin. Biz sodda ko'rinishda faqat uchta egri chiziqni ifodaladik. Bu uch egri chiziq tovarlar to'plamining ranjirovkasi (tartibini) ta'minlaydi. Ranjirlash to'plamlarni afzallikning eng yuqori darajasidan eng kam tomonga yo'naltirilgan

⁶⁶ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 373 bet.


⁶⁷ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 374 bet.

tartibda qo‘yib chiqiladi. Biroq, bu tartib bir to‘plamning boshqa biridan nechog‘lik afzalligini ko‘rsatib bera olmaydi⁶⁸.

Farqsizlik xaritasidagi D₁, D₂ va D₃, D₃ egri chiziqlari A va B tovarlarning boshqacha uyg‘unlashuvini aks ettiradi. Bu egri chiziqlarning har birida yotuvchi tovarlar to‘plami o‘zaro teng qiymatli, biroq D₁, D₁ egri chiziqdagi D₂, D₂ va D₃, D₃ egri chiziqdagi tovarlar to‘plami bilan teng qiymatli emas.




13.5-chizma. Farqsizlik egri chizig‘i.



13.6-chizma. Farqsizlik xaritasi.

Boshqa sharoitlar teng bo‘lganda iste‘molchi ko‘proq tovarlar to‘plamini sotib olishni afzal ko‘radi. Biroq kutilgan natija uning xarid qilish imkoniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Bozor tovarlar narxini belgilaydi, afzal ko‘rishni esa iste‘molchi daromadlari darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Iste‘molchilik tanloviga “budjeti cheklanganligi” to‘siq bo‘ladi va unda avvalo, imkoniyatlar chizig‘ini tasvirlash zaruriyati paydo bo‘ladi. U “budjet chizig‘i” deb nomlanib, narx va daromadlarning mavjud darajasida ikki tovarning sotib olish mumkin bo‘lgan har xil uyg‘unlashuvini aks ettiradi. Bu chiziqning chetki nuqtalari koordinata o‘qlarida joylashadi.

⁶⁸ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 374 bet.



13.7-chizma. Budget chizig‘i.

Agar barcha daromad A tovarni sotib olishga sarflansa, narxlarning mavjud darajasida iste‘molchi uning K nuqtaga teng bo‘lgan miqdoriga ega bo‘ladi, bunda u B tovarning biror donasini ham xarid qila olmaydi. Boshqa shunday vaziyat yotiq o‘qning M nuqtasida aks etadi.

K va M nuqtalarni bog‘lovchi chiziq budget cheklanganligini ifodalaydi. Narx va daromadlarning mavjud darajasida iste‘molchi ikki tovarning budget chizig‘i tashqarisidagi har qanday uyg‘unlashgan miqdorini xarid qila olmaydi.

Iste‘molchi tovarlarni xarid qilishning muvozanati nuqtasi mavjud cheklangan daromadlar darajasida mumkin bo‘lgan maksimal naflilikni ifodalaydi. Muvozanatli nuqtaga erishgach iste‘molchi o‘z xaridining tarkibini o‘zgartirishga har qanday rag‘batni yo‘qotadi, chunki bu naflilikning yo‘qotilishini bildiradi.


Shunday qilib, iste‘molchi xatti-harakatini tushunishda iste‘molchi budjetining cheklanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Budget cheklanganligi iste‘molchining muayyan pul daromadlari mavjudligi sharoitida narxlarning muayyan darajasida u yoki bu turdagi tovarlarning ma‘lum cheklangan miqdorini sotib olish imkoniyati orqali ifodalanadi⁶⁹. Iste‘molchi budjetining cheklanganligini

⁶⁹ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 362, 372 bet.

grafikda ikki turdagi tovarni sotib olishning turli kombinatsiyalarini ko'rsatuvchi budjet chizig'i (budget line) shaklida ifodalanadi.

Iste'molchi budjeti chizig'ining holatiga uning daromadlari va tovarlar narxining o'zgarishi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Misol uchun, iste'molchi daromadining muayyan miqdorida 20 birlik A tovar yoki 10 birlik B tovar sotib olish mumkin bo'lsin. Birdaniga sotib olinishi mumkin bo'lgan har ikkala tovarning turli kombinatsiyalari G budjet chizig'ida joylashadi. Agar iste'molchi daromadi 2 baravar oshsa, u holda uning budjet chizig'i ham tegishli ravishda G1 holatiga siljiydi. Aksincha, daromadning kamayishi, budjet chizig'ining ham qisqarishiga va G2 holatiga siljishiga olib keladi.



13.8-chizma. Daromad o'zgarishining budjet chizig'iga ta'siri.


O'z navbatida narxning o'zgarishi ham budjet chizig'idagi turli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Jumladan:

1) B tovar narxining pasayishi budjet chizig'i burchagining o'zgargan holda yangi chiziq hosil bo'lishiga olib keladi (M chiziq);

2) B tovar narxining oshishi budjet chizig'i burchagining o'zgargan holda yangi chiziq hosil bo'lishiga olib keladi (N chiziq):

3) A va B tovarlar narxi ilgari nisbat saqlangan holda oshsa, u holda eski chiziqqa parallel bo'lgan yangi chiziq hosil bo'ladi (L chiziq).



13.9-chizma. Narx o'zgarishining budjet chizig'iga ta'siri.

Bozorda tovarlar narxi hamda iste'molchi daromadlari darajasi o'zgarib turadi.

Iste'molchining narx o'zgarishiga ta'sirchanligi o'rnini bosish samarasi deyiladi. Bunda bir tovar narx o'sganda xaridor uchun o'rnini bosuvchi boshqa tovar nisbatan arzon bo'lib qoladi hamda u ancha qimmatli tovarni mazkur tovar bilan almashtiradi. Jumladan, margarin va sariyog' shunday o'rnini bosuvchi tovarlar hisoblanadi. Ulardan biriga narxning o'sishi boshqasining xarid qilinadigan miqdori ortishi bilan birga boradi.

Daromad samarasi narx o'zgarishi oqibatida iste'molchi pul daromadi xarid qilish layoqati tebranishi natijasida tovarlarga talabning o'zgarishidir. Daromad samarasi turli xaridorlar toifasi uchun har xil o'ringa ega bo'ladi.

Iqtisodiyot nazariyasida iste'molchi tanlovini o'rganishda mazkur tanlov oqilona ravishda amalga oshiriladi va quyidagi shartlar ta'minlanadi deb faraz qilinadi:


- mavjud va cheklangan budjetdan to'liq foydalaniladi;
- ehtiyojlar maksimal darajada qondiriladi.

Ma'lum olingan tovarning narxi o'zgarsa, u budjet chizig'iga ikkala turdagi o'zgarish orqali ta'sir qiladi. Bu daromad samarasi va o'rnini bosish samarasi. Bizning misolimizda olingan ikki tovardan aytaylik B tovarning narxi oshsa, unda budjetimizning real qiymati pasayadi, natijada iste'molchi nominal qiymati o'zgarmagan xuddi shu budjet darajasida har ikkala tovardan kamroq sotib olishi

mumkin va bu budjet chizig‘i chap tarafga parallel ravishda ko‘chib o‘tib, Q_{a1} Q_{b1} to‘g‘ri chizig‘i shaklini oladi. Bu narx o‘zgarishining daromad samarasi deyiladi. Ammo narx o‘zgarishi natijasida o‘rnini bosish samarasi yuz beradi. A tovarning narxi o‘zgarmay turib va ikkala tovarlarning nafliliklari o‘zgarmay turib V tovarning narxi oshishi uning narxiga nisbatan so‘nggi qo‘shilgan nafliligini kamaytiradi va iste‘molchi o‘z tanlovini A tovarga tomon o‘zgartiradi. Bu esa budjet chizig‘ining o‘zgarishiga olib keladi va iste‘molchi daromadi darajasini o‘zgartirmagan holatda Q_{a1} Q_{b1} budjet chizig‘i Q_{a0} Q_{b2} to‘g‘ri chizig‘i shaklini oladi. Bu narx o‘zgarishining o‘rnini bosish samarasi deyiladi⁷⁰

Normal tovarlar uchun quyidagilar xarakterli: xaridor o‘sgan real daromadining bir qismini mazkur tovarlar iste‘molini ko‘paytirishga sarflaydi, ya‘ni o‘rnini bosish va daromad samarasi bir xil yo‘nalishda ta‘sir ko‘rsatadi.

Daromad samarasi ko‘p darajada oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklar, tamaki mahsulotlari va boshqa shu kabi tovarlarga nisbatan o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Mazkur tovarlar uchun sarflar iste‘molchi budjetining sezilarli qismini tashkil qiladi, shu bilan bir vaqtda tovar birligi narxlari unchalik katta emas.



13.10-chizma. Narx o‘zgarishining daromad va o‘rnini bosish samarasi.

⁷⁰ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 365-366 bet.

Hayotiy zarur tovarlarga narxning oʻsishi ularga boʻlgan talab miqdorining qisqarishiga emas, balki oʻsishiga olib kelishi mumkin, chunki odamlar boshqa xaridorlardan voz kechib narxi oʻsganda ham hayotiy zarur tovarlarni sotib ola boshlaydi. Bu Giffen samarasi deb ataladi. Giffen samarasi koʻpincha sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarda kuzatiladi, u namoyon boʻladigan tovarlar Giffen tovarlari deb nomlanadi.

3. Iste'molchi tanlovi nazariyasi. Naflilikni maksimallashtirish qoidasi

Iste'molchi tovarlarning turli to'plamini xarid qilishda doimo naflilikni maksimallashtirish qoidasiga amal qiladi. Bu qoidaning mazmuni quyidagicha bayon etiladi:

Iste'molchi o'zining daromadini shunday sarflashi kerakki, daromad to'liq sarflangan holatda tovarni xarid qilishdan olingan so'nggi qo'shilgan naflilikning tovar narxiga nisbati barcha tovarlar uchun bir xil qiymatga ega bo'lishi lozim.

ya'ni⁷¹:

$$\frac{MU_x}{P_x} = \frac{MU_y}{P_y}$$

bu yerda, MU – x va y tovarlarning so'nggi qo'shilgan nafliligi;
P – ularning narxi.

Bu qoida iste'molchining muvozanatli holatini ifodalaydi.⁷²

Iste'molchi o'zining didi va ruhiyatiga ko'ra turli xil tovarlar to'plamini ma'qul ko'rishi mumkin. Bunda u tovarlarning ma'lum bir to'plamini boshqa biriga taqqoslab ko'radi. Iste'molchi tanlovini tushuntirishda farqsizlik egri chizig'i muhim rol o'ynaydi.


Optimal tanlov quyidagi shartlarni keltirib chiqaradi:

birinchidan, tanlov nuqtasining budjet chizig'ida yotishi. Iste'molchi amalda barcha daromadini iste'molga sarflamay, ma'lum qismini kelgusidagi iste'molga qoldirsa-da, nazariy jihatdan biz uni barchasi sarflanadi, deb faraz qilamiz. Agar nuqta budjet chizig'idan chapda yotsa – daromadining to'liq sarflanmaganligini, o'ngda yotsa – sarflar imkoniyat darajasidan chetga chiqilganligini tushunamiz;

ikkinchidan, tanlangan iste'mol tovarlari to'plami eng ma'qul ko'rilgan kombinatsiyada bo'lishi lozim.

⁷¹ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 363 bet.

⁷² Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 375 bet.



13.11-chizma. Iste'molchining optimal tanlovi⁷³.

13.11-chizmada uchta farqsizlik egri chizig'i ifodalangan bo'lib, ular iste'molchiga turli darajadagi qoniqish beradi: I₃ – eng yuqori darajadagi qoniqish; I₂ – o'rtacha qoniqish; I₁ – eng kam qoniqish. Har bir egri chiziqda iste'molchi tanlovini ifodalovchi bittadan nuqta joylashgan: I₁ da – C; I₂ da – D; I₃ da – F nuqtalar. S va D nuqtalar bir xil budjet chizig'ida joylashganligi uchun ikkala kombinatsiyaga ham bir xil budjet sarflanadi. Iste'molchining S nuqtani tanlashi oqilona emas, chunki D nuqta unga nisbatan ko'proq ehtiyojni qondiradi; F nuqta eng ko'p ehtiyojni qondirishi mumkin, biroq u budjet imkoniyatidan tashqariga chiqish hisoblanadi.

D nuqtada iste'molchi ehtiyojlarining qondirilishi maksimumlashadi, chunki bu nuqta ehtiyojlarning yuqori darajada qondirilishini ta'minlovchi tovar va xizmatlar to'plami eng ko'p qoniqish beruvchi farqsizlik egri chizig'ining budjet chizig'i bilan kesishgan joyida yotadi. D nuqta ayni paytda budjet chizig'ining va farqsizlik egri chizig'i joylashishining bir xil darajasini ko'rsatadi. D nuqtada budjet A va B tovarlar narxlariga teng, farqsizlik egri chizig'ida esa A va B tovarlar so'nggi qo'shilgan nafliliklari nisbatiga teng. Bundan kelib chiqib quyidagi formulani keltirishimiz mumkin⁷⁴:

⁷³ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 375 bet.

⁷⁴ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 375 p.

$$\frac{MU_x}{MU_y} = \frac{P_x}{P_y} \quad \text{yoki} \quad \frac{MU_x}{P_x} = \frac{MU_y}{P_y}$$

Suv va brilliant paradoksi

A.Smit o‘z davrida ayrim real hayotimizdagi jumboqlarni yecha olmagan. Xususan bizning yashashimiz uchun muhim, demakki, nafliligi juda baland bo‘lgan narsalarning narxi ancha past, aksincha, biz uchun unchalik muhim bo‘lmagan, nafliligi kam bo‘lgan narsalarning narxi esa baland, bo‘lishini tushuntirib bera olmagan. Masalan, suvning nafliligi juda baland, ammo narxi past, brilliantning narxi juda baland, lekin nafliligi juda past. Bu paradoksning yechimi shundaki, suv taklifi unga bo‘lgan talabga nisbatan ancha ko‘p, shuning uchun narxi past. Brilliantlarni ishlab chiqarish qiyin bo‘lganligi sababli uning taklifi unga bo‘lgan talabga nisbatan kam. Shuning uchun uning narxi baland. Suvning oxirgi birligining sunggi qo‘shilgan nafliligi juda ham past. Brilliantlarniki esa baland. Ammo bu uning umumiy nafliliklari ham shu nisbatda bo‘ladi degani emas. Aslida, suvning umumiy nafliligi biz uchun juda ham baland, faqatgina uni ko‘p miqdorda iste‘mol qilganimiz uchungina uning so‘nggi qo‘shilgan nafliligi brilliantnikidan pastga tushib ketadi. Brilliantning narxi baland bo‘lganligi sababli uni kam iste‘mol qilamiz va shuning uchun uning umumiy nafliligi kam⁷⁵.

$$\frac{MU_{suv(past)}}{P_{suv(past)}} = \frac{MU_{brilliant(baland)}}{P_{brilliant(baland)}}$$

Bu suv va brilliant paradoksi deyiladi.

Tayanch tushunchalar

Iste‘molchi xulqi – bu ularning turli xil tovar va xizmatlarga talabning shakllanish jarayonidir.

Naflilik – subyektiv qoniqish, ya‘ni tovar (xizmat) ni iste‘mol qilishdan ko‘riladigan naf.

⁷⁵ Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 366 bet

Keyingi naflilik (margial utility) – muayyan neʼmatning navbatdagi birligini isteʼmol qilishdan olingan qoʻshimcha naflilikdir.

Umumiy naflilik (total utility) – soʻnggi qoʻshilgan naflilik koʻrsatkichlarini jamlash orqali aniqlanadi.

Farqsiz egri chizigʻi – isteʼmolchi uchun A va B tovarlarning u yoki bu teng qiymatli toʻplamini aks ettiruvchi nuqtalarning geometrik joylashishidir.

Farqsizlik xaritasi – naflilik darajasi boʻyicha bir-biridan farq qiluvchi farqsiz egri chiziqlar yigʻindisidir.

Oʻrnini bosish samarasi – bunda bir tovar narxi oʻsganda xaridor uchun oʻrnini bosuvchi boshqa tovar nisbatan arzon boʻlib qoladi hamda u ancha qimmatli tovarni mazkur tovar bilan almashtiradi.

Daromad samarasi – narx oʻzgarishi oqibatida isteʼmolchi pul daromadi xarid qilish layoqati tebranishi natijasida tovarlarga talabning oʻzgarishidir.

Giffen samarasi – hayotiy zarur tovarlarga narxning oʻsishi ularga boʻlgan talab miqdorining qisqarishiga emas, balki oʻsishiga olib kelishi mumkinligini koʻrsatadi.

Naflilikni maksimallashtirish qoidasi – bunda isteʼmolchi oʻzining daromadini shunday sarflashi kerakki, u toʻliq sarflanganda tovarni xarid qilishdan olingan keyingi naflilikning tovar narxiga nisbati barcha tovarlar uchun bir xil qiymatga ega boʻlishi lozim.

Muhokama uchun savollar

1. Engel qonunining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Isteʼmolchi xatti-harakati nazariyasining asosida nimalar yotadi? Bu nazariyaning asosiy qonun-qoidalarini izohlang.
3. Isteʼmolchining afzal koʻrishi nima? U isteʼmolchi tanloviga qanday taʼsir koʻrsatadi?
4. Yalpi (umumiy) naflilik va soʻnggi qoʻshilgan naflilik tushunchalari oʻrtasida qanday bogʻliqlik mavjud?
5. Farqsizlik egri chizigʻi nimani ifodalaydi? Farqsizlik kartasichi? Ularning isteʼmolchi xatti-harakatini tushuntirishdagi ahamiyatini izohlang.

6. Iste'molchi budjeti chizig'iga narx va daromaddagi o'zgarishlar qanday ta'sir ko'rsatadi?

XIV bob. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA TADBIRKORLIK KAPITALI

1. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va uning asosiy belgilari.

2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari va tamoyillari.

3. Tadbirkorlik kapitalining mohiyati, doiraviy aylanishi va uning bosqichlari.

4. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital.

5. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish samaradorligi.

1. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va uning asosiy belgilari

Tadbirkorlikning tarixi juda uzoq o'tmishga borib taqalsa-da, uning hozirgi zamon tushunchasi XVIII asrda paydo bo'lgan va ko'pincha «Mulkdor» iborasi bilan bir xil tushunilgan.

Keyinchalik real xo'jalik hayotida ishtirok etuvchi kapitalning mulkdor kapitaldan ajralib chiqishi natijasida «tadbirkorlik» tushunchasi «mulkdor» tushunchasiga to'g'ri kelmay qoladi.

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati to'g'risidagi qarashlar ham o'zining evolutsion rivojlanishiga ega. Jumladan, R.Kontilon Tadbirkor, bu noaniq daromadga ega kishilar. Tavakkalchilik xatari uning bosh xususiyatidir, deb bu atamani iqtisodiy fanga ham olib kirgan bo'lsa, A.Smit Tadbirkorga tijorat bilan shug'ullanib, foyda olish maqsadida tavakkalchilik qiluvchi mulk egasi sifatida qaraydi.

J.B.Sey fikricha tadbirkor, iqtisodiy agent sifatida foyda olish uchun o'z tajribasi va bilimini tavakkalchilik xataridan qo'rqmay ishga soluvchi.

V.Zamberg qarashicha, u foydaning o‘lishini maqsad qilib qo‘yadigan, xatarga tayyor turadigan va kishilarni birlashtira oladigan tashabbuskor shaxs.

Tadbirkorlik to‘g‘risidagi g‘oyalar asoschilaridan hisoblangan I.Shumpeter tadbirkor, ishlab chiqarish omillari uyg‘unlashuvining yangi nisbatini izlovchi, iqtisodiy o‘lishi ta‘minlovchi va novatorlik xususiyatlari yuqori darajada rivojlangan shaxs deb e‘tirof etadi.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida ham tadbirkorlikka foyda olish maqsadini ko‘zlab xo‘jalik yuritish san‘ati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik, tashabbusning erkin namoyon bo‘lishi, novatorlik, xavf-xatarga nisbatan tayyor bo‘lish va shu kabi ko‘p qirrali tomonlari bilan qaraladi.

Tadbirkorlik faoliyati – mulkiy mas‘uliyat ostida, mavjud qonunlar doirasida, daromad olish maqsadida, tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun albatta mulk egasi bo‘lish shart emas, u zarur vositalarni ijaraga yoki qarzga olishi va boshqalar mulki asosida ish yuritishi mumkin.

Tadbirkor bozordagi talabni qondirish imkoniyatlarini oldindan ko‘ra oladi va buning uchun zarur bo‘lgan sarmoyalarni jalb qiladi, ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish jarayonida birlashtiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishda foydalaniladigan mulk va boshqa boyliklar tadbirkorlik faoliyatisiz o‘zini iqtisodiy jihatdan to‘la ro‘yobga chiqara olmaydi va shubhasiz, yetarlicha daromad keltirmaydi. Tadbirkor foyda olish maqsadida ishlab chiqarishning yagona jarayonida iqtisodiy resurslarini birlashtirish tashabbusini oladi. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasining mazmuni uning belgilarida yanada aniqroq ifodalanadi.

Tadbirkor biznesni yuritish, foydani ko‘paytirish bo‘yicha asosiy qarorlar qabul qiladi, bu qarorlar korxonada faoliyatining maqsadini aniqlab beradi.

Tadbirkor biznes g‘oyasini ishlab chiqishda iqtisodiy resurslar uchun to‘lovlarni amalga oshirishda va xo‘jalik faoliyatini tashkil qilishda mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Tadbirkor – yuqori foyda ketidan quvib, yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyasi yoki hatto biznesni tashkil qilishning yangi shakllarini tijorat asosida joriy qilishga harakat qiluvchi tashabbuskor shaxs hisoblanadi.

Tadbirkorlik – bu tahlikaga boruvchi faoliyatdir. Tahlika daromad olmaslik yoki zarar ko‘rish ehtimolini bildiradi. Bunda tahlikaning ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy, kredit va foizli turlari farqlanadi.



Hozirgi zamon tadbirkori yangiliklarni joriy eta oladigan, ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanib iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlaydigan, o‘zi va butun jamiyat boyligini oshira oladigan bo‘lishi zarur.

Tadbirkorlikning rivojlanishi, o‘z navbatida, bir qator sharoitlarning mavjud bo‘lishini taqozo etadi, ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi.

Birinchidan, tadbirkor xo‘jalik yuritishda uning biron turini tanlash, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish, uni o‘zgarishlarga moslashtirish, manbalarni tanlash, resurs topish, mahsulot sotish, ularga narx belgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar bo‘yicha ma‘lum huquq va erkinliklar mavjud bo‘lishini taqozo etadi.

Ikkinchidan, tadbirkor ishlab chiqarish vositalariga, ishlab chiqarilgan mahsulot va olingan daromadga mulkchilik huquqiga ega bo'lishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o'zi tomonidan ham, uning mol-mulki asosida ish yurituvchi subyekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyatining vazifasi nafaqat foyda olishga, balki uni qaysi maqsadlarda ishlatish va samarali sarflash yo'llarini topishga qaratiladi, bunda yuqori raqobatbardoshlikni saqlab turish, xo'jalikni takomillashtirish, kengaytirish va shu kabilarni amalga oshirishga asoslanadi.

Uchinchidan, xo'jalik yuritish yo'lini erkin tanlash, daromadni investitsiyalash imkoniyati va shu kabilarni real ta'minlaydigan ma'lum iqtisodiy muhit va ijtimoiy siyosiy sharoitlar yaratilishi zarur.

To'rtinchidan, erkin tadbirkorlik, mulkchilik va o'zlashtirishning turli-tuman shakllari va turlarini taqozo qiladi.

Yetarli moliyaviy manbalarga, yaxshi ma'lumot va malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lish, umumiy tijorat qonunchiligi, soliq bo'yicha imtiyozlar, tadbirkorlik muhiti va uni rivojlantirishda jamiyat manfaatdorligining mavjud bo'lishi tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi shart-sharoitlari hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan davlatlarda tadbirkorlik yaxshi rivojlanadi, aks holda faoliyatning bu turi xufyona iqtisodiyot sohasiga o'tib ketadi.

2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari va tamoyillari

Tadbirkorlik deganda uni o'tmishdagi qo'pol yovvoyi shakllari emas, balki uning zamonaviy, ya'ni madaniylashgan shakllari haqida gap ketadi.

Hozir jahonda xo'jalik yuritish shakllarining turli-tumanligiga mos ravishda tadbirkorlikning davlat, jamoa, shaxsiy, xususiy, aralash va boshqa hosila shakllari mavjud.

Hozir jahonning ko'pchilik mamlakatlarida davlat tadbirkorligiga, milliy daromadning 20 foizidan 50 foizigacha ulushi to'g'ri keladi. Davlat korxonalari ko'pincha mamlakat iqtisodiyoti uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yoki katta kapital qo'yilmalar

talab qiladigan tarmoqlarda tuziladi. Masalan, Angliyada davlat sektori qora metallurgiya, koʻmir qazib chiqarish, aero-kosmik sanoat, aloqa vositalari, temir-yoʻl transporti, elektr va gaz bilan taʼminlash kabi sohalarni qamrab oladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat korxonalarini milliy lashtirilgan chet el kompaniyalari bazasida asosan sanoatning konchilik tarmoqlarida tuziladi. Rivojlanayotgan va rivojlangan koʻpchilik mamlakatlarda davlat kompaniyalari sanoat firmalari orasida peshqadam hisoblanadi.

Turli mamlakatlarda davlat korxonalarining huquqiy maqomi turli-tumanligi bilan ancha farqlanadi. Hatto biror-bir mamlakatda barcha davlat korxonalarini faoliyatini tartibga soluvchi yagona qonuniy hujjat mavjud emas.

Yuqorida koʻrib oʻtilgan sharoitlar asosida davlat korxonalarini uchta guruhga boʻlish mumkin:

- budjet korxonalarini;
- davlat ishlab chiqarish korxonalarini;
- aralash kompaniyalar.

Budjet korxonalarini huquqiy va xoʻjalik mustaqilligiga ega boʻlmagan korxonalaridir. Ular davlatning maʼmuriy-boshqarish tizimiga kiradi va biron-bir vazirlik, mahkama yoki mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlariga bevosita boʻysunadi yoki ularning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular olgan foydadan soliq toʻlamaydi. Barcha daromad va xarajatlar davlat budjeti orqali oʻtadi.

Davlat ishlab chiqarish korxonalarini – bu korxonalarining ancha keng tarqalgan tashkiliy, huquqiy shaklidir. Ular mol-mulkka ega boʻlib, xoʻjalik faoliyati bilan birga davlat tomonidan belgilangan doirada boshqarish va tartibga solish vazifalarini ham bajaradi, yaʼni davlat korporatsiyalari oʻzida tijorat korxonalarini va davlat organlarini belgilarini mujassamlashtiradi.

Aralash kompaniyalar. Ular hissadorlik jamiyatlari va majburiyatlari cheklangan shirkatlar shaklida tashkil qilinib, aksiyalar paketi davlatga taalluqli boʻladi. Aralash kompaniyalar hissadorlik jamiyatlari toʻgʻrisidagi qonun asosida ish yuritadi va yuridik shaxs hisoblanadi, xoʻjalik faoliyatida xususiy firmalar bilan barobar tijorat asosida qatnashadi. Shu bilan birga, ular xususiy firmalarga nisbatan maʼlum imtiyozlardan foydalanadi. Bular davlat tomonidan pul va dotatsiyalar berilishi, chet el litsenziyalarini yengil shartlar

bilan olish, boshqa davlat korxonalari bilan xomashyo va yarim fabrikatlarni qat'iy belgilangan narxlarda o'zaro yetkazib berish, ishlab chiqargan mahsulotni sotish uchun bozor bilan ta'minlanganlik va shu kabilar.

Jamoa tadbirkorligi jamoa mulkiga asoslanadi va uning a'zolari faoliyatida o'z mehnati bilan ishtirok etishini taqozo qiladi. Jamoa mulkchilikka asoslangan tadbirkorlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: ishlovchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan bevosita qo'shilishi; jamoa a'zolarining ishlab chiqarish vositalaridan keng foydalana olishi; ularning iqtisodiy jihatdan teng huquqliligi; jamoaning o'z-o'zini boshqarishni amalga oshirishi; jamoa va shaxsiy manfaatlarning uyg'unligi yuzaga kelishi va h.k.

Xususiy tadbirkorlik alohida shaxs yoki korxonadan tomonidan xususiy tashabbus asosida tashkil qilinadi. Tadbirkorlikning bu shaklida mulk va ishlab chiqarish natijalari xususiy shaxslarga tegishli bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil qilish yollanma mehnatga asoslanadi.

Shaxsiy tadbirkorlik shaxsiy mulkka asoslanadi, ishlab chiqarishni tashkil qilish o'zi yoki oila a'zolari mehnati asosida amalga oshiriladi. Shaxsiy korxonada egasi uning menejeri ham hisoblanib, korxonaning barcha majburiyatlari uchun shaxsiy javobgar bo'ladi. Xo'jalik huquqi nuqtayi nazaridan shaxsiy tadbirkorlik huquqiy shaxs hisoblanmaydi, shu sababli, uning egasi cheklanmagan mas'uliyatga ega bo'lib, faqat fuqarolardan olinadigan daromad solig'ini to'laydi. Bu odatda kichik savdo shahobchalari xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar, dehqon xo'jaliklari hamda huquqshunos va hakamlarning malakaviy kasbi doirasida tashkil qilingan tadbirkorlikdir.

Faoliyat turining mazmuniga bog'liqlikda tadbirkorlikning quyidagi turlari farqlanadi:

Ishlab chiqarish sohasidagi tadbirkorlik. Tadbirkorlikning mazkur shaklida tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, axborot berish va ma'naviy qimmatliklar yaratish amalga oshiriladi. Bunda ishlab chiqarish vazifasi asosiy hisoblanadi.

Tijorat sohasidagi tadbirkorlik tovar va xizmatlarni sotish bo'yicha bitimlarni amalga oshirishga qaratiladi.

Moliyaviy tadbirkorlikda sotish-xarid qilish vositasi pul, valuta, qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Vositachilik tadbirkorligi tomonlarning o'zaro bitimlaridan manfaatdorligini bog'lovchi faoliyatda namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlikning tashkiliy-iqtisodiy shakllari tadbirkorlar faoliyatini tashkil qilish sohasi bo'yicha kelishuvlarni tavsiflaydi. Ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Kartel – bir tarmoq tadbirkorlari o'rtasidagi narxlar, mahsulot sotish bozorlari, ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ularning ulushlari, mahsulot o'lchamlari va shu kabilar haqidagi kelishuvdir.

Sindikat – bir tarmoq tadbirkorlari tomonidan ortiqcha raqobatni bartaraf qilish, barqaror foyda olish maqsadida mahsulot sotishning birlashtirilishi.

Konsorsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarni birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi.

Konsern – qatnashish tizimi orqali korxonalarni nazorat qiluvchi ko'p tarmoqli hissadorlik jamiyati.

Tabdirkorlik faoliyatini amalga oshirishning muhim shakllaridan biri hissadorlik (aksionerlik) jamiyatlaridir.

Ancha katta va yirik ishlarni bajarishlari uchun qatnashchilar o'zlarining mehnatini, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurslarini birlashtirishlari lozim bo'ladi. Jamoa kuchini shu asosda birlashtirish natijasida turli xil ittifoqlar (uyushmalar) vujudga keladiki, ular ilmiy adabiyotlarda, qonuniy bitimlarda «jamiyat» deb atala boshlandi.

Jamiyat umumiy tushuncha; ularning shakli iqtisodiy mazmuni, faoliyatining maqsadi va huquqiy majburiyatlari har xil bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda korxonalarni hissadorlik shaklda tashkil qilish jahon xo'jaligi va avvalo, yirik ishlab chiqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. AQSH, Yaponiya va G'arbiy Yevropadagi barcha yetakchi mamlakatlarda hissadorlik jamiyatlari sanoat, savdo, sug'urta ishi va iqtisodiyotning boshqa sohalarida korxonalarning yetakchi tashkiliy-huquqiy shakli bo'lib qoldi.

Aksiya chiqarish va uni erkin joylashtirish hissadorlik munosabatlarning muhim tomonlaridan birini tashkil qiladi.

Aksiya – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o‘zining ma’lum hissasini qo‘shganligiga va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog‘ozdir. Bundan tashqari, aksiya korxonani boshqarishda qatnashish huquqini ham beradi.

Aksiya kursi. Aksiyada ifodalangan pul summasi uning nominal qiymati deyiladi, aksiya bozorida sotiladigan narx aksiya kursi deyiladi.

Aksiya kursi olinadigan dividend miqdoriga to‘g‘ri mutanosiblikda foiz stavkasiga esa teskari mutanosiblikda bo‘ladi. Aksiya bo‘yicha olinadigan daromadi bankka qo‘yilgan puldan keladigan foizdan kam bo‘lmasa, u sotib olinadi.

Aksiya kursi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Aksiya kursi} = \frac{\text{divident}}{\text{ssuda foiz}} \times 100$$

Ssuda foizi o‘sganda aksiya kursi tushadi. Agar dividend ssuda foiziga qaraganda yuqori darajada ortsa, aksiya kursi ko‘tariladi.

Aksiyaning haqiqiy bozor kursiga dividend va ssuda foizi darajasi bilan birga, unga bo‘lgan talab va taklif nisbati ham ta’sir qiladi.

Hissadorlik jamiyatlari aksiya bilan birga obligatsiya ham chiqaradi.

Obligatsiya – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo‘yganligini tasdiqlaydi. Obligatsiya hissadorlik jamiyati moliyaviy mablag‘larini ko‘paytirish uchun chiqariladi.

Aksiya egasi korxonada mulkdori, obligatsiya egasi esa uning kreditori hisoblanadi. Undan tashqari, obligatsiya aksiyadan farq qilib, o‘z egasiga yillik kafolatlangan daromad keltiradi, ammo hissadorlik jamiyati ishlarini hal qilishda ovoz berish huquqini bermaydi. Obligatsiyalar bo‘yicha to‘lanadigan daromad odatdagi ssuda foizi miqdoridan ortiq bo‘lmaydi. Uning qiymati hissadorlik jamiyati tomonidan ma’lum muddat o‘tishi bilan to‘lanadi. Aksiyaga qo‘yilgan mablag‘ obligatsiyaga joylashtirilgandan farq qilib, aksioner talabi bo‘yicha qaytarilishi mumkin emas va faqat sotish orqali qoplanadi.

Ta’sischiлик foydasi. Hissadorlik jamiyatining tashkil topishi ta’sischiлик foydasi kabi daromad turining paydo bo‘lishi bilan bog‘-

liq. Ta'rischilik foydasi sotilgan aksiyalar summasi va hissadorlik korxonasi haqiqatda qo'yilgan mablag' miqdori o'rtasidagi farqdan iborat.



Dividend. Hissadorlik korxonasi ta'rischilik foydasi bilan bir qatorda dividend ham shakllanadi.

Dividend (lotincha *dividendus* – bo'lishga tegishli) – aksiya egasiga to'lanadigan daromad. Dividend vositasida aksiya egasi qimmatli qog'ozning shu turiga qo'yilgan pul mablag'lari (kapital) ning tegishli qismiga o'zining mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqaradi. Dividend orqali faqat hissadorlik jamiyati olgan foydaning bir qismi taqsimlanadi. Uning boshqa qismi jamg'arishga, soliq to'lashga va shu kabilarga ketadi. Dividend miqdori olinadigan foyda va chiqarilgan aksiya miqdoriga bog'liq va hamda odatda ssuda foizidan yuqori bo'ladi.

Odatdagi aksiyalar bo'yicha dividend miqdori hissadorlik jamiyati joriy yilda olgan foyda miqdoriga bog'liq. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend miqdori esa joriy yildagi foyda miqdoridan qat'i nazar qayd qilingan foiz shaklida o'rnatiladi. Jamiyat tugatilgan taqdirda imtiyozli aksiya egasiga shu maqsadda qo'yilgan mablag' uning nominal qiymati bo'yicha qaytariladi.

Hozirgi kunda respublikamizda korxonalarni aksionerlashtirishning ikkita yo'nalishi tarkib topdi: birinchi yo'nalishda o'zining huquqiy maqomini o'zgartirmaydigan, davlat mulki bo'lib qoladigan korxonalar, ikkinchi yo'nalishda o'zining huquqiy statusini o'zgartirib to'liq aksionerlik jamiyatiga aylangan korxonalar aksiya chiqaradi.

Respublikada aksionerlik jamiyatlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi davlat mulkchiligidagi yirik va o'rta korxonalar negizida ochiq hissadorlik jamiyatlari tuzish hisoblanadi. Shu bilan birga ilgari tuzilgan yopiq turdagi jamiyatlar ochiq turdagi aksionerlik jamiyatlar qilib qayta tuzilishi ko'zda tutilgan. Buning ma'nosi shuki, aksionerlik jamiyatiga o'tish jarayoni respublika aholisining

keng qatlamlari uchun, shuningdek, xorijiy jismoniy va huquqiy shaxslar uchun ochiq bo'lishi lozim. Bunga qimmatli qog'ozlarning ochiq savdosini o'tkazib turish, fond birjasining faoliyatini kengaytirish, investitsiya kompaniyalari, investitsiya fondlari, kliring va agentlik tarmoqlarini tashkil qilish orqali qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini vujudga keltirish orqali erishiladi.

3. Tadbirkorlik kapitalining mohiyati, doiraviy aylanishi va uning bosqichlari

Tadbirkorlik faoliyati kapital sarfini talab qiladi. Kapital lotincha so'z bo'lib, mablag', boylik degan ma'noni anglatadi. Uning iqtisodiy ne'mat yaratish omili sifatida namoyon bo'ladigan moddiylik qismi jismoniy ma'noda kapital deb ataladi.


Umumiy ma'nodagi kapital qanday shaklda amal qilmasin bu uning daromad keltirish xususiyatidir.

Shu ma'noda tadbirkor ixtiyoridagi barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag'lari birgalikda tadbirkorlik kapitali qisqacha kapital deb ataladi. Tadbirkorlik kapitali takror ishlab chiqarish jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tadi.




Pul kapitalning iqtisodiy faoliyat omillariga sarflanishi, ularning ishlab chiqarishda foydalanilishi yaratilgan tovarlarning sotilishi va mablag'larning dastlabki shakliga qaytishi kabi bosqichlarni o'z ichiga olgan harakati uning doiraviy aylanishini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishga sarflanadigan har qanday mablag' o'z harakatini pul shaklidan boshlaydi. Pul (P) tegishli resurslar bozori (Rb)dan ishlab chiqarish vositalari (Iv) va ishchi kuchi (Ik) sotib olishga sarflanadi va shu orqali tadbirkorlik kapitali o'z harakatining birinchi bosqichidan o'tadi.



Mazkur jarayon natijasida pul shaklidagi mablag‘lar unumli kapital shakliga, ya’ni ishlab chiqarish jarayonining omiliga aylanadi. Kapital harakatida ikkinchi bosqich ishlab chiqarish (Ich) jarayoni hisoblanib, uning natijasi tovar (T) shaklini oladi. Bu yerda hosil qilingan tovarlar qiymati ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchiga sarflangan qiymatdan ortiq bo‘ladi, ya’ni



Chunki hosil qilingan tovarlar qiymatida ishlab chiqarish vositalarining ko‘chgan qiymati, ishchi kuchi qiymatining ekvivalenti va ular tomonidan vujudga keltirilgan qo‘shilgan qiymat ham mavjud bo‘ladi.


Uchinchi bosqichda ishlab chiqarilgan tovarlar sotilib ($T' \rightarrow P'$), tovar pulga aylanadi va o‘zining dastlabki shakliga qaytib keladi. Dastlab, pul shaklida sarflangan mablag‘ yana pul shaklida, ammo miqdor jihatidan ko‘proq bo‘lib qaytadi.

Shu sababli, uni $P' = P + p$ ko‘rinishida ifodalash mumkin.

Tovarlarni sotishdan tushgan pul kapitali yana ishlab chiqarish omillari sotib olish uchun sarflanadi va shu tariqa yuqoridagi harakat to‘xtovsiz takrorlanaveradi.

Tadbirkorlik kapitalining o‘z harakatida uch bosqichni izchil bosib o‘tib, muntazam ravishda bir shakldan boshqa bir shakliga aylanib, yana dastlabki shakliga qaytib kelishi uning doiraviy aylanishi deyiladi.

Tadbirkorlik kapitali doiraviy aylanishining yaxlit ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:



Doiraviy aylanishning birinchi va uchinchi bosqichlari muomala sohasida, ya'ni resurslar va tovarlar bozorida ikkinchi bosqichi ishlab chiqarishda ro'y beradi.

Har bir bosqichda kapital muayyan harakat shakliga kiradi. Birinchi bosqichda u pul shaklida, ikkinchi bosqichda unumli yoki ishlab chiqarish omillari va uchinchi bosqichda tovar shaklida yuzaga chiqadi. Kapital doiraviy aylanish jarayonida, uning har bir



shakli alohida vazifani bajaradi va shunga ko'ra, ular kapitalning harakat shakllari deyiladi.

Kapital pul shaklining harakati iqtisodiy faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bunga pulni ishlab chiqarish

vositalari va ish kuchi sotib olishga avanslash orqali erishiladi. Kapital unumli shaklining harakati tovarlar ishlab chiqarish va xuddi shu jarayonda qiymatning o'sishiga erishishni ta'minlash vazifasiga qaratiladi.


Kapital tovar shaklining harakati orqali ishlab chiqarilgan tovarlar qiymatining pul shaklida ro'yobga chiqishi sodir bo'ladi va o'sgan qiymatning pulga aylanishi bilan tadbirkorning foyda olish maqsadi ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish uzluksiz davom etishi uchun tadbirkorlik kapitali o'zining bir shaklidan boshqa bir shakliga aylanib turishi va ayni paytda har uchala shaklda ham mavjud bo'lmog'i lozim. Agar tadbirkorlik kapitali bu shakllarning birortasida to'xtab qolgudek bo'lsa, uning harakatidagi uzluksizlik buziladi.


Mablag'larning pul shaklining doiraviy aylanishi uchun bosqichlarning shunday izchillikda (bozor-ishlab chiqarish- bozor) bo'lishi xoski, bunda ishlab chiqarish va muomala jarayonida bir-birini to'ldirib turadigan ikki bosqichi ($P \rightarrow T$ va $T \rightarrow P$) o'rtasida

bo‘ladi, shuningdek, doiraviy aylanish boshlarida pul shaklida avanslangan mablag‘ uning oxirida yana o‘sha shaklga qaytadi.


Tadbirkorlik kapitalining har uchala funksional shakli bir vaqtda o‘z doiraviy aylanishiga ega bo‘ladi. Tadbirkorlik kapitali pul shaklining doiraviy aylanishi:



Unumli kapitalning doiraviy aylanishi:



Tadbirkorlik kapitali tovar shaklining doiraviy aylanishi:



Tadbirkorlik kapitali unumli shaklining doiraviy aylanishi ishlab chiqarishning muomalaga nisbatan yetakchi rol o‘ynashini ochib beradi: ishlab chiqarish birinchi o‘ringa qo‘yiladi, ishlab chiqarish jarayonida qiymat va naflilik vujudga keladi.

Kapital o‘z harakatini qanday ijtimoiy-iqtisodiy shakllarda amalga oshirmasin, ular uchun doiraviy aylanish va uning bosqichlarining harakat ko‘rinishi umumiy. Shu bilan birga iqtisodiyotning turli tarmoqlari va xo‘jalik yuritishning ayrim shakllarida tadbirkorlik kapitalining doiraviy aylanishi, ularning bosqichlari va harakat shakllari turlicha mazmun kasb etishi mumkin.

4. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital

Tadbirkorlik kapitalining harakati bir doiraviy aylanish bilan to‘xtab qolmaydi, balki u uzluksiz davom etib, takrorlanib turadi. Doiraviy aylanishlarning bunday uzluksiz takrorlanib, yangilanib turishi tadbirkorlik kapitalining aylanishi deyiladi.

Kapitalning ayrim qismlari turli tezlikda harakat qilishi tufayli ularga sarflangan mablag'larning aylanish tezligi turlicha bo'ladi. Masalan, unumli iste'molda bo'lgan xomashyo va materiallar qiymati, bir doiraviy aylanishdan keyin boshqa qismi masalan, mehnat qurollari qiymati bir necha doiraviy aylanishdan keyin o'zining boshlang'ich shakliga qaytadi.

Kapital o'zining aylanish xususiyatiga qarab asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi.

Asosiy kapital – ishlab chiqarish jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashadi, o'zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo'lib-bo'lib o'tkazib boradi va ashyoviy - buyum shaklini o'zgartirmaydi.

Aylanma kapital – bir doiraviy aylanish davomida to'liq iste'mol qilinadi, o'zining qiymatini ishlab chiqarish natijalariga to'liq o'tkazadi va ashyoviy – buyum shaklini ham yo'qotadi.

Asosiy va aylanma kapitallar farqlanishi asosida quyidagi belgilar yotadi.

Ishlab chiqarish jarayonida harakat qilish xususiyatlari. Asosiy kapital tayyorlanayotgan mahsulot moddiy tarkibiga buyum jihatdan kirmaydi, uzoq davr davomida faoliyat qiladi (masalan stanok-10 yil, bino-50-100 yil), o'zining oldingi natural – buyum shaklini bir nechta doiraviy aylanishlar davomida saqlab qoladi. Aksincha aylanma kapital (masalan paxta, jun, metall) har bir doiraviy aylanishda to'liq unumli iste'mol qilinadi, o'zining buyum shaklini yo'qotadi.

Qiymatini ishlab chiqarish natijalariga o'tkazish xususiyati. Asosiy kapital ishlab chiqarish jarayonida qator yillar davomida faoliyat ko'rsatadi, ularning qiymati tovarlarga qisman o'tib boradi. Agar stanok 10 yil, binolar esa 50 yil davomida foydalanilsa, bunda har yili mahsulot qiymatiga ular qiymatining 1/10 va 1/50 qismi ko'chadi. Xomashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya kabi aylanma kapital turlari har bir doiraviy aylanishda to'lig'icha unumli iste'mol qilinadi va ularning qiymati xom mahsulotlar qiymatiga to'liq ko'chadi.

Kapital qiymatining aylanish usuli. Qiymatning aylanish usuli bo'yicha asosiy kapital qiymati ikkiga bo'linadi; qiymatning mahsulotga o'tgan qismi tovarlar va xizmatlar bilan birga

muomalada bo‘ladi va doiraviy aylanish jarayonida tovar shaklidan pul shakliga o‘tadi hamda qoplash fondi shaklida asta-sekin jamg‘ariladi: mahsulotga o‘tmagan qismi ishlab chiqarish doirasida mavjud bo‘lgan asosiy kapitalda gavdalanganicha qolaveradi. Iste’mol qilingan aylanma kapital qiymati to‘liq aylanib, yaratilgan mahsulotlar qiymati tarkibiga kiradi. Asosiy kapital o‘z aylanishi davomida bir qator izchil doiraviy aylanishlarda ishtirok etadi, aylanma capitallarning aylanish vaqti bir doiraviy aylanish davriga to‘g‘ri keladi.

Qayta tiklanish usuli. Qayta tiklanish usulida asosiy kapitalning ishlab chiqarish natijlariga o‘tkazilgan qiymati, bu vositalar bir qator doiraviy aylanishlarni o‘z ichiga olgan muayyan davr davomida eskirib, ishdan chiqqandan keyin pul shaklidan yangi asosiy kapital shakliga aylanadi. Aylanma kapital har bir doiraviy aylanishdan keyin ashyoviy buyum shaklida qayta tiklanadi.

Barcha mehnat vositalari asosiy kapital tarkibiga kirmasdan faqat ularning inson mehnati bilan vujudga keltirilgan qismi shunday kapital hisoblanadi. Shu sababli, yer, o‘rmonlar va boshqa tabiiy resurslar mehnat vositalari hisoblansa-da, odatda, asosiy kapital tarkibiga kirmaydi.

Faqat unumli kapital asosiy va aylanma kapital shaklini oladi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonidagina o‘z qiymatini mahsulotga o‘tkazadi. Shu bilan birga muomala doirasida ishlab chiqarish jarayoni ma’lum darajada davom etganligi tufayli bu yerda ham qo‘shimcha unumli kapital masalan, muzlatish uskunalari, qadoqlash, o‘lchash mashinalari, saqlash va uzatish vositalari va boshqalar mavjud bo‘ladiki, bular ham asosiy va aylanma kapitalga bo‘linadi.

Tadbirkorlik kapitali o‘z harakatida ishlab chiqarish va muomala bosqichlarini bosib o‘tadi. Shu sababli, uning aylanish vaqti (A_v) ishlab chiqarish vaqti (I_v) va muomala vaqti (M_v) yig‘indisidan iborat:

$$A_v = I_v + M_v$$

Sarflangan mablag‘larning ishlab chiqarish jarayonida bo‘lish vaqti, ya’ni ishlab chiqarish vositalari sotib olingandan tovar tayyor bo‘lgan davrgacha o‘tgan vaqt ishlab chiqarish vaqtini, muomala jarayonida bo‘lish vaqti, ya’ni ishlab chiqarish vositalari sotib olish

va tayyor tovarlarni sotish uchun ketgan vaqt muomala vaqtini tashkil etadi. Ishlab chiqarish vaqti uch qismdan iborat bo‘ladi.

Bevosita mehnat jarayoni yoki ish davri (Id).

Turli tanaffuslar davri (Td).

Ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarish zaxiralarida bo‘lish davri (Zd)

$Iv=Id+Td+Zd$.

Ish davri – ishlab chiqarish vaqtining asosiy tarkibiy qismidir. Bu vaqt davomida mahsulot mehnatning bevosita ta’siri ostida bo‘ladi. Ish davrining uzunligi ishlab chiqariladigan mahsulot xarakteriga, qo‘llaniladigan mehnatning miqdori va uning unumdorligi darajasiga bog‘liqdir.

Tanaffuslarni tabiiy jarayonlarning mehnat buyumlariga ta’sir ko‘rsatish zarurligi va tashkiliy xarakterdagi sabablar taqozo etadi. Birinchi holda, mehnat buyumlari u yoki bu darajada uzoq davom etadigan jismoniy, kimyoviy va biologik jarayonlarning ta’siri ostida bo‘ladi. Buning natijasida muayyan foydali samaraga erishiladi yoki naflilikning shakli o‘zgaradi. Bunda mehnat jarayoni qisman yoki to‘liq to‘xtaydi, ishlab chiqarish jarayoni esa davom etadi. Tashkiliy sabablarga ko‘ra tanaffuslar vaqti korxonalarining ish rejimi bilan, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil qilish xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish vositalarining zaxira va ehtiyotlar sifatida bo‘lish vaqti bu, ularning ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan davrdir. Tez quritadigan, tez achitadigan, umuman texnologik jarayonlarni tezlashtiradigan yangi texnika va texnologiyalarning qo‘llanilishi tanaffus davrining va binobarin ishlab chiqarish vaqtining qisqarishiga olib keladi. Transport shaxobchalarini rivojlantirish, xo‘jalik aloqalarining samarali tizimini belgilash, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirish, ehtiyojlarni puxta hisobga olish muomala vaqtini qisqartirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kapitalning aylanish tezligi ulardan foydalanish samardorligiga jiddiy ta’sir qiladi. Aylanish tezligi muayyan davr ichida (A) qilingan aylanishlar soni (p) yoki bir aylanishning uzun-qisqaligi (a) bilan belgilanadi: $P=A/a$; $a=A/P$

Agar kapital aylanish uzunligi uch oyni (90 kunni) tashkil etsa, u vaqtda $p=12/3=4$; $a=360/4=90$ kun bo‘ladi.

Turli sohalarda kapitalning aylanish vaqti ulardagi ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining xususiyatidan kelib chiqib turlicha bo‘ladi. Masalan, yengil sanoatda band bo‘lgan kapitalning aylanish vaqti, mashinasozlik sanoatlaridagi kapitalning aylanishiga nisbatan qisqa bo‘ladi.

Avanslangan qiymatning aylanish tezligi ko‘pgina omillarga bog‘liq. Bulardan eng muhimlari: unumli kapitalning qanday nisbatda asosiy va aylanma kapitalga bo‘linishidir.

5. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish samaradorligi

Tadbirkorlik kapitali tarkibida asosiy kapital, belgilovchi rol o‘ynaydi. Uning miqdor va sifat jihatdan o‘shishi, takomillashib borishi ishlab chiqarishning yuksak texnika darajasini ta‘minlaydi va shu asosda samaradorligini o‘stiradi.

Asosiy kapitalning miqdor jihatdan o‘shishi unga qo‘yiladigan investitsiyalar hajmiga, sifat jihatdan takomillashishi esa uning tarkibiga bog‘liq bo‘ladi.

Asosiy kapitalning tarmoq tarkibi ularning ayrim tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi va kapitalning umumiy qiymatida har bir tarmoqning ulushi bilan tavsiflanadi. Agar asosiy kapital tarkibida ko‘proq texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish samaradorligini belgilaydigan tarmoqlarning ulushi oshsa, ularning tarmoq tarkibining yaxshilanganligini bildiradi.

Asosiy kapitalning turlari bo‘yicha tarkibi ularning umumiy qiymatida, har bir turlarining hissasi va nisbati bilan tavsiflanadi.

Asosiy kapitalning ayrim turlari ishlab chiqarishda o‘z ishtiroki bo‘yicha bir xil rol o‘ynamaydi. Agar binolar asosan ishlab chiqarish jarayonining bir me‘yorda borishini ta‘minlab mehnatning umumiy sharoitini tashkil qilib, ishlab chiqarish samaradorligiga bilvosita ta‘sir ko‘rsatsa mehnat qurollari (ish mashinalari, uskunalari va boshqalar) ishlab chiqarish jarayonida faol rol o‘ynaydi va ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Asosiy kapitalning mulk shakllari bo'yicha tarkibi, kapitalning umumiy qiymatida har bir mulk shaklining ulushi bilan tavsiflanadi.

Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida asosiy kapitalning mulk tarkibida davlat mulkining ulushi kamayib, boshqa mulkchilik shakllari va shu jumladan, xususiy mulkning ulushi ortib boradi.

Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish asosiy kapital eskirishi, amortizatsiya jarayoni va amortizatsiya fondidan mehnat vositalarini jismoniy shaklda tiklash uchun foydalanishga tayanadi.

Mehnat vositalari jismoniy eskirishining ikki shakli mavjud: ulardan foydalanish jarayonida va harakatsiz turish natijasida, tabiiy kuchlarning ta'sirida jismoniy eskirish.

Mehnat vositalari ishlab chiqarish jarayonida foydalanish natijasida jismoniy eskirganda, ular texnik, ishlab chiqarish xossasini va iste'mol qiymatini asta-sekin yo'qotib boradi. Ayni vaqtda asosiy kapital tabiiy kuchlarning ta'sirida jismoniy eskirishi ham mumkin. Bunday eskirish qiymati qoplanmaydi va uning yo'qotilishni bildiradi. Bu yo'qotish asosiy kapitalning harakatsiz turish natijasidagi eskirishiga teng bo'ladi.

Mehnat vositalari jismoniy eskirish bilan birga ma'naviy jihatdan ham eskiradi. Ma'naviy eskirishning ikki xil turi mavjud bo'lib, u bir-biridan farq qiladi.

Ma'naviy eskirishning birinchi turi mehnat vositalari tayyorlanadigan tarmoqlarda mehnat unumdorligi oshganligi natijasida ular qiymatining pasayishida ifodalanadi. Bu ishlab turgan uskunalarni yangilari bilan almashtirishni zarur qilib qo'ymaydi, chunki ishlab turgan va yangi uskunalarining texnika darajasi bir xil bo'lib qolaveradi. Biroq ancha past qiymatga ega bo'lgan mehnat vositalarining keng qo'llanishi shunga olib keladiki, ilgari sotib olingan mehnat vositalari qiymatining bir qismi yo'qoladi. Masalan: agar oldin bironta uskuna bir million so'mga olib kelib o'rnatilgan bo'lsa, bu yil uni 700 ming so'mga sotib olish mumkin bo'ladi. Shunda oldingi uskunaga sarflangan qiymatning 30 foizi yo'qoladi.

Ma'naviy eskirishning ikkinchi turida ancha mukammal va unumli mashinalarning ishlab chiqarishga kirib kelishi bilan ilgari o'rnatilgan mehnat vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq

bo'lmay qoladi va natijada ular yangilari bilan almashtiriladi. Ma'naviy eskirishdan ko'riladigan zararining oldini olishning asosiy yo'li mehnat qurollaridan ancha samarali foydalanish hisoblanadi.

Amortizatsiya va uning normasi. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarning bir qismi amortizatsiya fondi yordamida qoplanadi. Amortizatsiya asosiy kapital eskirib borishiga qarab, uning qiymatini asta-sekin ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkazish, keyinchalik ularni qayta tiklash maqsadlarida mahsulot qiymatining amortizatsiya miqdoriga teng qismini jang'arish jarayonidan iborat. Asosiy kapitalning eskirishi bilan



amortizatsiya o'rtasida mustahkam aloqa bor. Biroq bular bir xil tushunchalar emas. Eskirish mehnat vositalaridan foydalanish vaqtida ularning texnik-ishlab chiqarish xossalarini asta-sekin yo'qotish jarayonini aks ettiradi. Amortizatsiya

ancha murakkab jarayon bo'lib, iste'mol qilingan mehnat vositalari qiymatini ularning eskirishiga muvofiq ravishda mahsulotga o'tkazish, iste'mol qilingan mehnat vositalarining o'rnini qoplash maqsadida pul fondini jang'arish jarayonini aks ettiradi. Shunday qilib, eskirish amortizatsiyaning dastlabki shart-sharoitidir.

Amortizatsiya normasi amortizatsiya ajratmalari yillik summasining shu asosiy kapital qiymatiga nisbatan aniqlanadi va foizda ifodalanadi. Amortizatsiya ajratmalarining umumiy normasi asosiy kapitalni takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq ravishda ikki qismdan iborat bo'ladi: bir qismi asosiy kapitalni to'liq qoplashga (qayta tiklashga), ikkinchisi ularni qisman qoplashga (kapital remont qilishga) mo'ljallanadi.

Amaliyotda umumiy yillik amortizatsiya normalarini (A_n) belgilashda: asosiy kapital qiymati (K_n), asosiy kapitalning harakat qilish muddati davomida kapital ta'mirlash uchun sarflar, (T_n) eskirgan mehnat vositalarini tugatishdan olingan mablag' (To) va shu vositaning xizmat davri (X_d) hisobga olinadi:

$$A_n = \frac{K_{as} + T_s - T_o}{X_d} \times 100$$

Amortizatsiya normalari mehnat vositalari jismoniy va ma'naviy eskirishining haqiqiy miqdorini aks ettirishi kerak. Oshirilgan normalar mahsulot tannarxini sun'iy ravishda oshirib yuboradi, pasaytirilgan normalar esa asosiy kapital tiklanish davrini kechiktiradi va shu tariqa texnika taraqqiyotiga to'siq bo'ladi.

Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligining oshishi, avvalo, qo'shimcha kapital mablag' sarfalanmasdan mahsulot hajmini ko'paytirishda o'z ifodasini topadi.

Bir tomondan, milliy mahsulot yoki milliy daromadning o'sish sur'atlari bilan, ikkinchi tomondan, asosiy kapitalning o'sish sur'atlari o'rtasidagi nisbat milliy iqtisodiyot miqyosida asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan asosiy kapital qiymati o'rtasidagi aloqani aks ettiradi, u o'zaro bog'langan ikki ko'rsatkich kapitaldan olinadigan samara (K_s) va mahsulotning kapital sig'imi (K_{sig}) ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi. Milliy iqtisodiyot miqyosida asosiy kapitaldan olinadigan samara darajasi ishlab turgan asosiy kapitalning har bir so'miga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YaIM) yoki milliy daromad (MD)ni, kapital sig'imi darajasi esa ishlab chiqarilgan milliy daromad yoki yalpi ichki mahsulotning bir so'mi hisobiga asosiy kapital qiymatining to'g'ri kelishini tavsiflab beradi:

$$K_s = \frac{YaIM}{K_{as}} \quad \text{yoki} \quad K_s = \frac{Md}{K_{as}}$$

$$K_{sig} = \frac{K_{as}}{YaIM} \quad \text{yoki} \quad K_{sig} = \frac{K_{as}}{Md}$$

Korxonada miqyosida kapitaldan olinadigan samara darajasi asosiy kapitalning bir soʻmi evaziga korxonada ishlab chiqaradigan mahsulot miqdori (M) bilan, kapital sigʻimi esa korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotning (M) bir soʻm hisobiga qancha asosiy kapital qiymati toʻgʻri kelishi bilan xarakterlanadi.

$$K_{\text{samara}} = \frac{M}{K_{\text{as}}}; \quad K_{\text{sig, kor}} = \frac{K_{\text{as}}}{M}$$

Mehnat vositalarining ayrim turlaridan foydalanish samaradorligi natural koʻrsatkichlar yordami bilan aniqlanadi. Masalan, bir toʻquv dastgohida metr hisobida bir kunda toʻqilgan mato, bir avtomobilda bir kunda tonna hisobida tashilgan yuk va hokazo.

Aylanma kapital harakati va samaradorligi.

Asosiy kapital (fondlar) harakati aylanma kapital va muomala mablagʻlari harakati bilan uzviy bogʻliq. Shu sababli, aylanma kapital va aylanma mablagʻlardan foydalanish samaradorligini aniqlash va uni oshirish omillarini koʻrsatib berish muhim ahamiyatga ega.

Aylanma kapitaldan foydalanishning umumlashtiruvchi koʻrsatkichi milliy xoʻjalik miqyosida mahsulotning material sigʻimi, (Msigʻ) mahsulot yaratishda isteʼmol qilingan aylanma kapital qiymatining yalpi ichki mahsulot (YaIM) yoki milliy daromadga (Md) nisbati sifatida aniqlanadi:

$$M_{\text{sig}'} = \frac{A_k}{M_d}$$

Korxonada miqyosidagi material sigʻimi (Msigʻ kor) unda isteʼmol qilingan aylanma kapital qiymatining ishlab chiqaradigan mahsulot qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

$$M_{\text{sig}'} \text{ kor} = \frac{A_k}{M}$$

Sarflangan aylanma kapital birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori material sigʻimi koʻrsatkichiga teskari miqdordir.

Aylanma mablagʻlardan foydalanish samaradorligi u bilan aylanma kapital oʻrtasidagi nisbatga bogʻliqdir. Bevosita ishlab

chiqarish jarayonida band bo'lgan aylanma kapitalning salmog'i qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lardan shunchalik samarali foydalaniladi.

Amaliyotda aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish koeffitsiyenti bilan o'lchanadi. Bu koeffitsiyent bir yil ichida sotilgan mahsulot qiymatining aylanma mablag'larning o'rtacha yillik summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Aylanish davri (a) yildagi kunlar sonining aylanishlar soniga (p) nisbati bilan aniqlanadi.

$$a = \frac{360}{p}$$

Agar bir yilda aylanma mablag'larning o'rtacha yillik miqdori 10 mln. so'm bo'lganida 60 mln. so'mlik mahsulot sotilgan bo'lsa, aylanish koeffitsiyenti 6 ni ($p=60/10$) tashkil qiladi. Aylanma mablag'lar 6 aylanish qilib, bir aylanish davri 60 kunga ($360/6$) teng bo'ladi.

Aylanma mablag'lar tezligini oshirish ularga bo'lgan talabni kamaytirdi. Masalan, yuqoridagi misolda aylanish soni 6 dan 8 ga ($p=360/45$) o'zgarsa, aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoj 10 million so'm o'rniga, 7,5 mln. so'mni tashkil etadi ($(60 \times 4)/360$).

Binobarin, aylanma mablag'larning aylanishini 15 kunga tezlatish 2,5 mln. so'mlik aylanma mablag'larni bo'shatib beradi va korxonaga aylanma mablag'larining o'sha summasida mahsulot chiqarishni 20 mln. so'mga ko'paytirishni $[(8 \times 10) - 60]$ ta'minlaydi.

Aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtiradigan asosiy omil ishlab chiqarish vaqtini avvalo, ish davrini, shuningdek, muomala vaqtini qisqartirishdir.

Tayanch tushunchalar

Tadbirkorlik faoliyati – mavjud qonunlar doirasida mulkiy javobgarlik ostida foyda olish maqsadida tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir.

Aksionerlik jamiyati – ishchi kuchi, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital) larini birlashtirishning o‘ziga xos shakli.

Aksiya – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o‘zining ma’lum hissasini qo‘shganligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog‘oz.

Aksiya kursi – qimmatli qog‘ozlar bozorida aksiyalarning sotiladigan narxi.

Obligatsiya – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo‘yganligini tasdiqlovchi qimmatli qog‘oz.

Ta’rischilik foydasi – sotilgan aksiyalar va hissadorlik korxonasiga haqiqatda qo‘yilgan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farqdan iborat bo‘lib, uni jamiyatni ta’ris etuvchilar o‘zlashtiradi.

Dividend – aksiya egasi o‘zlashtiradigan daromad turi.

Tadbirkorlik kapitali – bu tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag‘lari.

Asosiy kapital – ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashib, o‘zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo‘lib-bo‘lib o‘tkazib boradi va ashyoviy-buyum shaklini o‘zgartirmaydi.

Aylanma kapital – bu unumli kapitalning bir doiraviy aylanish davomidagi ishlab chiqarish jarayonida to‘liq iste’mol qilinadigan o‘z qiymatini yaratilgan mahsulotga to‘liq o‘tkazadigan va ashyoviy-buyum shaklini ham yo‘qotadigan qismi.

Amortizatsiya normasi – amortizatsiya ajratmalari yillik summasining asosiy kapital qiymatiga nisbatining foizdagi ifodasi.

Muhokama uchun savollar

1. Tadbirkorlik faoliyatiga ta’rif bering. «Tadbirkor» va «mulkdor» tushunchalarini izohlang.
2. Tadbirkorlikning vazifalarini sanab ko‘rsating. Nima uchun tadbirkor tahlika (tavakkalchilik) bilan faoliyat ko‘rsatadi?
3. Tadbirkorlikning rivojlanish shart-sharoitlari nimalardan iborat?

4. Tadbirkorlikning shakllarini va ularning xususiyatlarini ko'rsating.

5. Hissadorlik jamiyatiga ta'rif bering. Aksiya nima, aksiya kursi qanday aniqlanadi? Aksiya kursiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating.

6. Tadbirkorlik kapitali nima? Uning tarkibiy tuzilishi qanday?

7. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida qanday bosqichlardan o'tadi hamda qanday shakllarga kiradi?

8. Kapitalning aylanishiga tavsif bering. «Aylanish vaqti qanday vaqtlarni o'z ichiga oladi? Ularga tushuncha bering.

9. Kapitalning aylanish tezligi qanday aniqlanadi? Kapitalning aylanish davri ikki oyni tashkil qiladi deb faraz qilsak, bir yilda necha marta aylanadi va bir aylanishining davomiyligi qanchani tashkil etadi?

10. Unumli kapital asosiy va aylanma kapitalga qanday mezonlar bo'yicha ajratiladi? Asosiy va aylanma kapitalga tavsif bering.

11. Amortizatsiyaning iqtisodiy mazmuni nimadan iborat? Uning normasi qanday aniqlanadi?

12. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi qanday ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi? Aylanma kapital va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini tushuntiring.

XV bob. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA FOYDA

- 1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning turlari.**
- 2. Qisqa va uzoq davrda ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarish tamoyillari.**
- 3. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi.**

1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning turlari

Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklari (korxonalar, firma) o'z faoliyati natijalaridan ko'proq daromad olishga harakat qiladi. Har qanday korxonalar nafaqat o'zining tovarini ancha yuqori baholarda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga ham intiladi.

Tovarlarni sotish narxlari asosan korxonalar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi sharoitlar bilan belgilansa, ishlab chiqarish sarf-xarajatlari ularning ishlab chiqarish va tayyor tovarlarni sotish jarayonlarini tashkil qilish samaradorligi darajasiga bog'liq. Lekin har qanday tovarni ishlab chiqarish va sotish uchun ma'lum sarf-xarajatlarni talab etiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha iqtisodiy resurs sarflarini anglatadi. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari

tarkibiga xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'ich va energiya uchun qilingan xarajatlarni, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlarni kiradi. Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi.



Hozirgi zamon xarajatlar nazariyasiga ko'ra korxonada ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslarni o'z resurslari yoki



jalb qilingan resurslarga bo'lish mumkin. Shunga ko'ra xarajatlar ichki yoki tashqi xarajatlarga bo'linadi. Tashqi xarajatlar korxonada o'zi uchun zarur resurs va xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirishi natijasida vujudga keladigan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga yollanma ishchilar ish

haqi, xom-ashyo va materiallar uchun to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari, ijaraga olingan yer uchun renta, transport xizmati va boshqa har xil xizmatlar uchun to'lovlar kiradi. Tashqi xarajatlar to'lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgalteriya xarajatlari deb ataladi.

Jalb qilinish manbaiga ko'ra xarajatlarning turkumlanishi

15.1-jadval

ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI

Tashqi xarajatlar	Ichki xarajatlar
Ishchi kuchiga sarflar	Bino-inshoot amortizatsiyasi
Xomashyo xarajatlari	Mashina-uskuna amortizatsiyasi
Yonilg'i-energiyaga xarajatlar	Ijara haqi
Transport-aloqa xizmatlariga xarajatlar	Qarz pul mablag'lari va uning uchun foizlar
Bank tijorat xizmatlari uchun sarf-xarajatlar	Me'yordagi foyda

Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanishi bilan bog'liq xarajatlar ichki xarajatlar deyiladi. Bunday xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu sababli, ichki xarajatlar

darajasini baholash o‘z resurslari qiymatini shunga o‘xshash resurslarning bozor narxlariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Mazkur korxonada tadbirkorlik faoliyatini ushlab turish uchun zarur bo‘lgan to‘lov-normal (me‘yorida) foyda ham, renta



va ish haqi bilan birga xarajatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.


Xarajatlarni ichki va tashqi xarajatlarga ajratish, korxonada iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llarini qiyosiy tahlil qilish

imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga bog‘liqlik darajasiga qarab doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlar farqlanadi.

Ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga qarab xarajatlarni turkumlash

15.2-jadval



Ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi.

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinchida ham mavjud bo‘ladi. Bunga korxonaning to‘lov majburiyatlari (zayomlar

bo'yicha foiz va boshqa), soliqlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo'riqlash xizmatiga to'lov, uskunalariga xizmat ko'rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.



O'zgaruvchi xarajatlar deb ishlab chiqariladigan tovar miqdorining oshishiga yoki kamayishiga bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlarga aytiladi. Unga xomashyo, material, yonilg'i-transport xizmati, ishchilar ish haqi va shu kabilarga qilinadigan

sarflar kiradi.

Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisi umumiy yoki yalpi xarajatlarni tashkil qiladi.

Mahsulot narxiga qo'shilish xarakteriga ko'ra to'g'ri va egri xarajatlar farqlanadi:

To'g'ri xarajatlar – bevosita tannarxda aks etib, mahsulot narxi tarkibiga kiradi.

Egri xarajatlar – tannarxda aks etmaydi va mahsulot narxiga ustama hisoblanadi.

Mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf-xarajatlarni hisoblash uchun o'rtacha umumiy, o'rtacha doimiy va o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar tushunchalaridan foydalaniladi. O'rtacha umumiy xarajatlar umumiy xarajatlarning ishlab chiqarilgan tovar miqdori nisbatiga teng. O'rtacha doimiy xarajatlar doimiy xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. O'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar o'zgaruvchi xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Eng yuqori darajada foyda olishga erishish uchun tovar ishlab chiqarishning zarur miqdorini aniqlash zarur. Bunda iqtisodiy tahlil vositasi bo'lib keyingi (qo'shilgan) xarajat tushunchasi xizmat qiladi. Keyingi (qo'shilgan) xarajat, keyingi qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulotning navbatdagi birligiga qilingan xarajatlarni anglatadi. Qo'shimcha xarajatlarni har bir navbatdagi qo'shimcha chiqarilgan mahsulot birligi yoki partiyasi uchun aniqlash mumkin.

R.Krouz iqtisodiyot nazariyasiga Transaksion xarajatlar degan tushunchani kiritgan. Bu xarajatlar ishlab chiqarish bilan emas, balki ana shu ishlab chiqarishni boshlash uchun zarur bo'lgan xarajatlar, ya'ni narxlar, kontragentlar haqida axborot to'plash, xo'jalik bitimlari tuzish va ularning bajarilishini nazorat qilish xarajatlari va boshqa shunga o'xshash xarajatlarda ifodalanadi.

2. Qisqa va uzoq davrda ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarish tamoyillari

Korxonada foydalanadigan ko'plab resurslar miqdori, ya'ni inson mehnati, xomashyo, yonilg'i va energiya sarflari o'zgarishi tovar hajmining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Boshqa resurslar miqdorini o'zgartirish orqali tovar hajmining o'zgarishi uchun uzoq vaqt talab qilinadi. Masalan, og'ir sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish quvvatlarini ancha uzoq vaqt oralig'ida kengaytirib mahsulot chiqarish hajmini ko'paytirish mumkin. Demak, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishga vaqt omili, ya'ni xarajat qilingandan pirovard natija olinguncha o'tgan davr sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, vaqt omilidan kelib chiqib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqa va uzoq muddatli davrda alohida tahlil qilinadi.



Korxonada ishlab chiqarish hajmini o'stirish uchun qisqa davrda faqat o'zining o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirishi mumkin. Ishlab chiqarish quvvatlari esa (ishlab chiqarish inshootlari maydoni, mashina va uskunalarning miqdori) doimiy bo'lib qoladi hamda bu davr faqat ulardan foydalanish darajasini o'zgartirish uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Boshqacha aytganda qisqa davr oralig'ida korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari o'zgarishsiz qoladi, ishlab chiqarish hajmi jonli mehnat, xomashyo va boshqa resurslar miqdorini ko'paytirish orqali

ortishi mumkin. Bunda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish intensivligi oshiriladi.

Uzoq muddatli davr – bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini va butun band bo‘lgan resurslari miqdorini ko‘paytirish uchun yetarli bo‘lgan davrdir.

Bu yerda shuni ta’kidlash lozimki, ishlab chiqarish quvvatlarining ko‘payishini taqozo qiladigan davr davomiyligi ayrim tarmoq va korxonalar xususiyatidan kelib chiqib farqlanishi mumkin. Masalan, yengil sanoat tarmog‘ida kiyim-kechak ishlab chiqaradigan kichkina firma, bir nechta qo‘shimcha tikuv mashinasi o‘rnatish bilan o‘zining ishlab chiqarish quvvatlarini qisqa vaqtda (bir necha kunda) oshirishi mumkin. Og‘ir sanoat tarmoqlarida yangi quvvatlarni ishga tushirish uchun bir necha yil talab qilinadi.



Demak, qisqa muddatli vaqt davomida korxonalar o‘zining doimiy (qayd qilingan) quvvatlariga o‘zgaruvchi resurslar miqdorini qo‘shib borish yo‘li bilan ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishi mumkin. Bu yerda shunday savol tug‘iladi: korxonaning ishlab chiqarish quvvatlariga (doimiy resurslarga) ko‘proq va yanada ko‘proq miqdorda o‘zgaruvchi resurslarni qo‘shib borish yo‘li bilan ishlab chiqarish hajmi qaysi “nuqta” gacha ortib boradi?

Bu savolga javobni eng umumiy holda samaraning kamayib borishi qonuni beradi. Bu qonunga binoan, ma’lum davrdan boshlab; korxonaning ishlab chiqarish quvvatlariga (masalan kapital yoki yerga) o‘zgaruvchi resurslar birligini ketma-ket qo‘shib borish, har bir keyingi o‘zgaruvchi resurs birligi qiymatiga kamayib boruvchi qo‘shimcha mahsulot beradi. Boshqacha aytganda, agar asosiy kapitalga xizmat ko‘rsatuvchi ishchilar soni ko‘payib borsa, ishlab chiqarishga ko‘proq ishchini jalb qilib borish bilan ishlab chiqarish hajmini o‘sishi tobora sekinlik bilan ro‘y beradi. Bu qonunni tasvirlash uchun quyidagi misolni keltiramiz. Faraz qilaylik, fermer foydalanadigan yer doimiy miqdoriga ega bo‘lib,

unda don yetishtiradi. Agar fermer ekinga ishlov bermasa, bir gektar yerdan 40 sentner hosil oladi deb hisoblaymiz. Agar ekinga qo‘shimcha bir marta ishlov berilsa, hosil 50 ts.ga ko‘tarilishi mumkin. Ikkinchi ishlov berish hosilni 57 ts. ga, uchinchi - 61 ts.ga, to‘rtinchi, aytaylik 63 ts.gacha oshiradi. Ekinga keyingi ishlov berishlar faqat juda kam yoki nolga teng bo‘lgan qo‘shimcha hosil beradi.

Bu yerda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, samaraning kamayib borish qonuni, o‘zgaruvchi resurslarning barcha birligi sifat jihatdan bir xil degan farazga asoslanadi. Ya’ni har bir qo‘shimcha jalb qilingan ishchi bir xil aqliy layoqatga, bilimga, malakaga, harakat tezligi va shu kabilarga ega deb hisoblanadi.

Demak, qo‘shimcha mahsulot, keyingi jalb qilingan ishchi kam malakaga ega bo‘lgani uchun emas, balki kapital (fondlar) ning mavjud miqdoriga nisbatan ko‘p miqdorda ishchilarni band qilish sababli kamayib boradi.

Qulay iqtisodiy muhit tufayli, ishlab chiqarish quvvatlarining to‘xtovsiz kengayib borishi natijasida korxonada o‘rtacha umumiy xarajatlarida qanday o‘zgarish ro‘y beradi? Dastlab qandaydir vaqt oralig‘ida ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi o‘rtacha umumiy xarajatlarning pasayishi bilan birga boradi. Ammo oxiri oqibatda ko‘proq va yanada ko‘proq quvvatlarni ishga tushirish o‘rtacha umumiy xarajatlarning o‘sishiga olib keladi. Bunday hol-larni samaraning kamayib borish qonuni tushuntirib berolmaydi, chunki uning amal qilish shart-sharoiti ishlab chiqarishda foydalanadigan resurslardan bittasi miqdorining o‘zgarmasligi hisoblanadi. Uzoq muddatli davrda barcha resurslar miqdori o‘zgaradi. Shu sababli, uzoq muddatli davrda o‘rtacha xarajatlarning o‘zgarishi tamoyilini ishlab chiqarish miqyosi o‘sishining ijobiy va salbiy samarasi yordamida tushuntirish mumkin.

Ishlab chiqarish miqyosining ijobiy samarasi shunda namoyon bo‘ladiki, korxonada ishlab chiqarish hajmi o‘sib borishi bilan, bir qator omillar ishlab chiqarish o‘rtacha xarajatlarning pasayishiga ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Bu omillar quyidagilar: 1) mehnatning ixtisoslashuvi; 2) boshqaruv xodimlarining ixtisoslashuvi; 3) kapitaldan samarali foydalanish; 4) ikkilamchi mahsulotlar ishlab chiqarish.

Korxonada ishlab chiqarish hajmi o'sib borishi bilan qo'llaniladigan mehnatning ixtisoslashuv darajasini oshirish imkoniyati ortib boradi. Ishlab chiqarish jarayonida besh yoki oltita operatsiyani bajarish o'rniga, endi har bir ishchi bitta yagona vazifani oladi. Bitta vazifani bajarish imkoniyatini oshirish esa, ishchining mehnat unumdorligini o'stiradi. Bu ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish miqyosining kengayib borishi chuqur ixtisoslashuv tufayli boshqarish bo'yicha mutaxassislar mehnatidan ancha yaxshi foydalanish imkoniyatini beradi. Bu oxir oqibatda samaradorlikning oshishi va mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga olib keladi.

Korxonaning iqtisodiy ahvoli u ishlab chiqarayotgan tovarlarning narxiga bog'liq bo'ladi. Agar narx o'rtacha iqtisodiy xarajatlarni qoplasa, bunda iqtisodiy foyda nolga teng bo'ladi. Agar o'rtacha iqtisodiy xarajatlar mahsulot narxidan past bo'lsa, korxonada qo'shimcha iqtisodiy foyda oladi. Bunda ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyati ham mavjud bo'ladi.

3. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi

Korxonalarining faoliyatiga baho berishda sotilgan mahsulotdan olingan yalpi pul tushumi unga qilingan sarf-xarajatlar va foyda tushunchalaridan keng foydalaniladi. Korxonalarda mahsulotlarni sotishdan olingan mablag'lar, ularning pul tushumlari yoki pul daromadlari deyiladi. Korxonada, pul daromadlaridan sarflangan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi foyda yoki iqtisodiy foyda deyiladi.

Tovar va xizmatlar sotilganda ularning qiymati pul daromadlariga, undagi qo'shilgan qiymat esa foydaga aylanadi. Bundan ko'rinib turibdiki foydaning haqiqiy manbai qo'shilgan qiymatdir. Butun iqtisodiyotda foyda massasi bilan qo'shilgan qiymat massasi miqdor jihatdan bir-biriga teng bo'lishi mumkin. Lekin alohida olingan korxonada va tarmoqlarda yaratilgan qo'shilgan qiymat olingan foyda miqdoran teng bo'lmasligi mumkin. Chunki talab va taklif nisbatining va bahoning o'zgarishi ta'sirida bir tarmoqda yoki

korxonada yaratilgan qo‘shilgan qiymat boshqa korxonaga va tarmoqlarga foyda shaklida o‘tib ketadi.

Korxonaning umumiy foydasidan majburiy to‘lovlar asosan, soliqlar va boshqa majburiyatlar chiqarib tashlansa korxonaga sof foydasi qoladi.

Buxgalteriya foydasi sotilgan mahsulot uchun tushgan umumiy pul summasidan ishlab chiqarishning tashqi xarajatlari chiqarib tashlanishi natijasida hosil qilinadi. Shu sababli, buxgalteriya foydasi iqtisodiy foydadan ichki xarajatlar miqdoriga ko‘proqdir. Bunda ichki xarajatlar har doim o‘z ichiga normal foydani ham oladi.

Korxonaga foydasining mutlaq miqdori uning massasini tashkil qiladi. Foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatining foizda ifodalanishi foyda normasi deyiladi.

Amaliyotda foyda normasini hisoblashning ikki usulidan foydalaniladi. Bular foydaning joriy sarflarga-korxonaga xarajatlariga yoki avanslangan mablag‘larga (asosiy va aylanma kapital) nisbatidir.

Bular quyidagicha aniqlanadi:

$$1. R' = (P/W) * 100$$

bu yerda: R' – foyda normasi; P – foyda massasi;
 W – iqtisodiy yoki ishlab chiqarish xarajatlari.

$$2. R' = (P/K_{avans}) * 100$$

bu yerda: R' – foyda normasi; P – foyda massasi; K_{avans} – korxonaga avanslangan mablag‘lari yoki asosiy va aylanma kapitalning o‘rtacha yillik qiymati.

Foyda normasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga to‘g‘ri mutanosib hamda foydalanilgan avanslangan mablag‘lar qiymatiga teskari mutanosibdir. Shu tufayli foyda normasi korxonaga ish samaradorligini integral ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Foydaning o‘shishiga, chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o‘zgarmagan holda ikki yo‘l bilan: ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yoki narxni oshirish hisobiga erishish mumkin.

Tayanch tushunchalar

Ishlab chiqarish xarajatlari – mahsulot ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha iqtisodiy resurs sarflari.

Ichki xarajatlar – korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanish natijasida vujudga keladigan xarajatlar.

Tashqi xarajatlar – tashqaridan jalb qilingan resurslarga to'lovlarni amalga oshirishga qilingan xarajatlar.

Doimiy xarajat – ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi ta'sir etmaydigan, uning har qanday hatto “nol”inchi darajasida ham mavjud bo'ladigan xarajatlar.

O'zgaruvchi xarajat – ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga mutanosib o'zgaradigan xarajatlar.

O'rtacha xarajatlar – mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar.

Qo'shimcha xarajatlar – mahsulotning navbatdagi qo'shimcha birligini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlar.

To'g'ri xarajatlar – mahsulot tannarxiga bevosita qo'shib, uning tarkibiga kiradigan xarajatlar.

Egri xarajat – mahsulot tannarxiga ustama bo'lib, narxda aks etadigan xarajatlar.

Iqtisodiy yoki sof foyda – yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi.

Transaksion xarajatlar – ishlab chiqarish bilan emas, balki ana shu ishlab chiqarishni boshlash uchun zarur bo'lgan xarajatlar.

Foyda normasi – foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlari bo'lgan nisbatining foizdagi ifodasi.

Muhokama uchun savollar

1. Ishlab chiqarish xarajatlarning mohiyatini va tarkibini tushuntiring.

2. Ichki va tashqi xarajatlar o'rtasidagi farq nimadan iboratligini misol orqali tushuntiring.

3. Ishlab chiqarish resurslari tarkibidagi quyidagi o'zgarishlardan qaysilari uzoq muddatli davrdagi xarajatlarga kiradi: a) Kompaniya neftni qayta ishlovchi yangi uskunani o'rnatadi; b) Korxonaga yana 200 ishchini yollaydi; d) Fermer o'z uchastkasida

qo'llaniladigan o'g'it miqdorini ko'paytiradi; e) Fabrikada uchinchi smena joriy qilinadi.

4. Sarflarning quyidagi turlari xarajatlarning qaysi turkumiga tegishli ekanligini aniqlang: mahsulot reklamasiga sarflar, korxonada chiqargan zayomlar bo'yicha foiz to'lovlari; xomashyoga sarflar, ko'chmas mulkka soliq to'lovlari, boshqaruv xodimlari maoshi; ishchilarga ish haqi to'lovlari; amortizatsiya ajratmasi.

5. Foydaning mazmunini va manbaini tushuntiring.

6. Quyidagi keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib foyda normasini har ikkala usulda hisoblang.

Umumiy foyda — 250 ming so'm.

Ishlab chiqarish xarajatlari — 1250 ming so'm.

Avanslangan mablag'lar (asosiy va aylanma kapital) — 2500 ming so'm.

Natijalarni taqqoslab, izohlab bering.

XVI bob. AGRAR MUNOSABATLAR: IJARA HAQI VA RENTA

- 1. Yerning ishlab chiqarish omili sifatidagi xususiyatlari. Agrar va renta munosabatlari.**
- 2. Yer rentasi va uning turlari.**
- 3. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi.**
- 4. Agrobiznes va uning turlari. Respublikada qishloq xo‘jaligini rivojlantirish vazifalari.**

1. Yerning ishlab chiqarish omili sifatidagi xususiyatlari.

Agrar va renta munosabatlari

“Yer” tushunchasi keng ma’nodagi qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish faoliyatining umumiy shart-sharoiti sifatida qo‘llaniladi.

Jismoniy ma’nodagi yerning xususiyati shundan iboratki, uning umumiy miqdori o‘zgarmas, maydoni cheklangan va inson o‘z xohishiga ko‘ra bu o‘lchamni o‘zgartirishga layoqatli emas.



Qishloq xo‘jaligida yer undan foydalanilganda boshqa tarmoqlardan farq qilib, ishlab chiqarishning asosiy vositasi hisoblanadi va mulk bu shaklining iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarilishi undan renta daromadi olish orqali amalga oshadi.

Yer qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda vosita bo‘lib xizmat qilishi sababli, shu yerdagi tuproq muayyan unumdorlikka ega bo‘lishi zarur. Yerning tabiiy va iqtisodiy unumdorligi farqlanadi. Bunda uning tabiiy unumdorligi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, yer mulkdori o‘zlashtiradigan daromadning darajasini

belgilab beradi. Yerning iqtisodiy unumdorligi unga qo‘shimcha ishlov berishi, (organik va mineral o‘g‘itlar solish) natijasida oshirilib boriladi.

Insonning tuproq unumdorligiga ta’siri chegarasiz emas. Qachonki yerga qo‘shimcha qo‘yilgan mehnat va kapital hisobiga olingan qo‘shimcha samara (daromad) kamayib borsa, keyingi iqtisodiy resurslar taklifini rag‘batlantirishdan to‘xtaydi. Bu unumdorlikning pasayib borish qonuni mazmunini ifodalaydi.

Yerning tabiiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

tabiiy unumdorligi va sotish bozorlariga nisbatan joylashgan joyi. Mazkur o‘lchamlar bo‘yicha yerlar sifati va raqobatbardoshligi jihatdan bir-biridan farqlanadi;

yerlarning tabiiy (tuproq tipi, relyefi) va iqlim sharoitlari. Turli geografik hududlardagi yer uchastkalari shu sharoitlar tufayli bir xil unumdorlikka ega bo‘lmaydi.

Agrar sohada insoniyat hayoti uchun eng zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat tarmoqlari uchun xomashyo ishlab chiqariladi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. Karimov ta’kidlab o‘tganlaridek, «Respublika sanoatining ko‘pgina tarmoqlarini, jumladan, paxta tozalash, to‘qimachilik, kimyo sanoatini, qishloq xo‘jaligi mashinasozligini va boshqalarni... rivojlantirish istiqbollari, ularning murakkab o‘tish davridagi iqtisodiy ahvoli bevosita qishloq xo‘jaligiga bog‘liqdir»⁷⁶. Boshqa sohalar kabi qishloq xo‘jaligida ham takror ishlab chiqarish jarayonida kishilar o‘rtasida muayyan iqtisodiy aloqa va munosabatlar sodir bo‘ladi. Bu agrar munosabatlarning negizini tashkil qiladi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish ko‘p jihatdan yer bilan bog‘liq, shuning uchun ham yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish hamda yer rentasining hosil bo‘lishi, taqsimlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi.

Yer rentasi orqali yerga bo‘lgan mulkchilik huquqi ro‘yobga chiqariladi. O‘zbekistonda «yer – davlat mulki – umummilliy boylik...» bo‘lganligi sababli yerga bo‘lgan mulkchilik, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalari alohida ajratib tahlil qilinishi lozim.

⁷⁶ Каримов И.А. “Ўзбекистон буюк келажак сари”. Т.: «Ўзбекистон», 1998, 225–226-бетлар.

Yerga egalik jismoniy va huquqiy shaxslarning ma'lum yer uchastkasiga tarixan tarkib topgan asoslardagi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi egalik huquqini tan olishini bildiradi. Yerga egalik deganda, avvalo, yerga bo'lgan mulkchilik huquqi ko'zda tutiladi. Yerga egalikni yeri bo'lgan mulkdor amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksida ta'kidlangani-dek: «Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin»⁷⁷.

Yerdan foydalanish huquqi – bu o'rnatilgan urf-odatlar yoki qonuniy tartibda undan foydalanishni bildiradi. Yerdan foydalanuvchi yer egasi bo'lishi shart emas. Real xo'jalik hayotida yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ko'pincha har xil jismoniy va huquqiy shaxslar amalga oshiradi.

Agrar munosabatlarning asosini renta munosabatlari tashkil qiladi.


Iqtisodchilar o'rtasida renta nazariyasini tushuntirish bo'yicha turlicha qarashlar mavjud. Mazkur nazariyalar rentani miqdoriy aniqlash va uning mohiyatini tushuntirish bo'yicha ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi mazmunga ega.

Qiymat nazariyasi tarafdorlari rentaning vujudga kelishini qiymat qonuni doirasida tushuntirsa. Hozirgi zamon renta nazariyasida uning mohiyati iqtisodiy resurs hisoblangan yerga bo'lgan talab va taklifning harakati hamda muvozanatli narxning hosil bo'lishi orqali asoslanadi. Bunda rentaning manbai to'g'risidagi qarashlar ham farqlanadi. Birinchi yondashuvga ko'ra – u ishchi mehnati bilan yaratiladi deyilsa, ikkinchisida renta yer mahsuli deb hisoblanadi. Biroq har ikki holda ham rentani tushuntirish uchun qo'shimcha miqdor tushunchasidan foydalaniladi.

Rentaning zamon yondashuvida yer va boshqa tabiiy resurslar miqdorining doimiyligi hamda rentaning daromadning boshqa turlari (ish haqi, foyda va foiz)dan farqlanishiga e'tibor qaratiladi. Bu farqlanishning mazmuni miqdori cheklangan yerga bo'lgan talab va taklif nisbatidan foydalanib izohlanadi. Tahlilni soddalashtirish maqsadida, birinchidan, barcha yerlar bir xil sifatga ega, ya'ni

⁷⁷ «Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси». Т. «Ўзбекистон», 1999 й. 20-модда.

unumdorligi jihatidan bir xil deb faraz qilingan. Ikkinchidan, barcha yerlar bir xil mahsulot, (masalan, don) yetishtirishda foydalaniladi va nihoyat uchinchidan yer raqobatli bozorda ijaraga olinadi deb hisoblaydi. Yerga bo‘lgan talab va taklif ta’sirida rentaning vujudga kelishini tushuntirishda grafik tahlildan foydalanadi. Grafikdagi S chiziq foydalaniladigan yer taklifini, D egri chiziq esa shu yerga bo‘lgan talabni ko‘rsatadi.



16.1-chizma. Yer rentasining aniqlanishi.

Yer taklifining doimiy xarakteri shuni bildiradiki, talab yer rentasini belgilovchi yagona omil bo‘lib chiqadi, taklif passiv rol o‘ynaydi. Yerga bo‘lgan talabni o‘z navbatida ikkita asosiy omil belgilab beradi. Bular shu yerda yetishtirilgan mahsulot narxi va yerning unumdorligi. Agar yerga bo‘lgan talab D2 dan D1 ga ortsa yoki D2 dan D3 ga pasaysa, yer rentasi R2 dan R1 ga yoki R3 ga o‘zgarishi mumkin, yerga talab miqdorining o‘zgarishi mavjud yer miqdoriga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Agar yerga talab faqat R4 ga teng bo‘lsa, yer rentasi nolga teng bo‘ladi, ya’ni yer «tekin tovar» hisoblanadi.

Turli yer uchastkalari o‘zlarining unumdorligi bo‘yicha keskin farqlanishi sababli bu yerlarda rentaning vujudga kelishida ham farq bo‘lishiga olib keladi. Yerning unumdorligidagi farqlar yomg‘ir va harorat kabi tabiiy-iqlim omillar tufayli ham ro‘y beradi. Yer

unumdorligidagi bu farqlar, unga boʻlgan talabda oʻz aksini topadi. Narxning raqobatli bozor sharoitida tashkil topishi juda unumdor yerlarga yuqori rentaning, past unumdor yerlarga birmuncha kamroq rentaning oʻrnatilishiga sabab boʻladi. Yerning oʻrnashgan oʻrni (bozorlarga, temir yoʻllarga, suv manbalariga va shu kabilarga) ham yer rentasidagi farqlarni tushuntirishda muhim omil hisoblanadi. Boshqa sharoitlar bir xil boʻlganda ijarachi mehnat va moddiy resurslarga nisbatan qulay joylashgan yer birligi uchun, bozordan uzoq joylashgan yerlarga nisbatan koʻproq ijara haqi toʻlaydi.

Shunday qilib, yerga boʻlgan talab va renta miqdoriga taʼsir qiluvchi omillar quydagilar:

Yerlarning unumdorligi. Bir turdagi ekinlar ekilganda unumdorligi yuqori boʻlgan yerlarga talab katta boʻladi va bu rentaning ham yuqori boʻlishiga olib keladi.

Foydalanishda boʻlgan yerlarda yetishtiriladigan qishloq xoʻjalik mahsulotlarining bozor narxi. Qaysi mahsulotning bozor narxi yuqori boʻlsa, shu ekin ekiladigan yerlarda renta ham yuqori boʻladi.

Birgalikda foydalaniladigan boshqa resurslarning narxlari va unumdorligi. Masalan, qishloq xoʻjalik mashina va uskunalarning narxi hamda unumdorligi renta miqdoriga taʼsir koʻrsatadi.

Yer maydonlarining shahar markazlari, bozorlar, yoʻllar va suv manbalariga joylashishining uzoq-yaqinligi.

Yerlardan sanoat, qurilish va boshqa maqsadlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi.

Yerlarda ekin turlarini joylashtirish imkoniyatlari darajasi.

Unumdorligi bir xil boʻlmagan yerlarda vujudga keladigan renta miqdoridagi farqlarni yuqoridagi grafikda, faqat birmuncha boshqa nuqtayi nazaridan oson kuzatish mumkin. Bunda har xil unumdorlikka ega boʻlgan yer uchastkasida oldingidek faqat bitta qishloq xoʻjalik mahsuloti, aytaylik don yetishtiriladi, har bir yer uchastkasining hajmi doimiy va SS ga teng deb faraz qilinadi. Kapital, mehnat va oʻzaro bogʻliq boshqa resurslar miqdorini barcha uchastkalariga bir xil sarflaganda ularning unumdorligi yoki yanada aniqroq, pulda ifodalangan keyingi unumdorligi har bir uchastka uchun D1, D2, D3, D4 talab egri chizigʻining holatidan koʻrinadi. 1-, 2-, 3- yer uchastkalariga mos keluvchi iqtisodiy renta R1, R2 va

R3dan iborat bo‘ladi, bunda rentalardagi farq uchta yer uchastkasining sifati, bir xil emasligini ko‘rsatadi. 4-yer uchastkasining unumdorligi shunchalik pastki, ijarachilar uchun uni to‘liq qishloq xo‘jalik aylanmasiga kiritish foydasiz. Rentaning vujudga kelishini tahlil qilishda yerdan foydalanishning muqobil variantlari mavjud bo‘lishini ham hisobga olish lozim. Ma‘lum yer uchastkasidan nafaqat don, balki boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish, mol boqish, uy yoki boshqa obyektlar qurish hamda sanoat ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish mumkin. Yerdan foydalanishning bu muqobil variantlari ham renta miqdorida farqlar bo‘lishiga olib keladi.

Renta iqtisodiy kategoriya sifatida, taklifi noegiluvchan bo‘lgan har qanday omil hisobiga olingan daromadni anglatadi. Renta turidagi daromad taklifi cheklangan boshqa tabiiy resurslarda ham uchraydiki, ular ko‘pincha kvazirenta deb ataladi.

Kvazirenta – bu qandaydir ishlab chiqarish omili taklifi kam yoki ko‘p darajada cheklanganligini keltirib chiqaradigan daromaddir.

Daromadlarga bunday yondashuv, masalan, nima uchun bir kasbdagi kishilar ish haqida juda katta farqlar mavjud bo‘lishini tushunib olish imkonini beradi. Agar gap taklifini ko‘paytirish mumkin bo‘lmagan beqiyos talant, noodatiy tug‘ma layoqat haqida ketsa, ish haqi ko‘p marta ortadi. Shu sababli, kinoyulduz yoki gipnozchi daromadini ish haqidan ko‘ra renta deb hisoblash maqsadga muvofiq.

2. Yer rentasi va uning turlari

Yer rentasi yer egaligini iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarishning shaklidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer rentasi yerga ishlab chiqarish omili sifatida egalik qiluvchilarning oladigan daromadidir. Yer rentasining bir qancha tarixiy ko‘rinishlari ham mavjud bo‘lgan. Jumladan, uch shakldagi: barshchina (ishlab berish), obrok (natural soliq) va pul solig‘i shakllaridagi feodal rentalari shular jumlasidandir. Hozirgi paytda turli mamlakatlarda mavjud renta vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlariga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

Absolyut yer rentasi, differensial renta (– 1, va – 2,) monopol renta, qazilma boyliklar, qurilishlar joylashgan yerlardan olinadigan renta.

Yer uchastkalarining unumdorligi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo‘shimcha daromadning bir qismi renta shaklini oladi hamda u differensial renta deb ataladi.

Qishloq xo‘jaligida eng muhim ishlab chiqarish vositasi – yerning miqdori va sifatini tabiatning o‘zi cheklab qo‘ygan, uni inson ko‘paytirishga qodir emas.

Shuning uchun qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini faqat yaxshi unumdor yer uchastkalarida yuritish orqali jamiyat ehtiyojlarini qondirish mumkin emas. Agar ishlab chiqarilgan mahsulot to‘lovga qodir talab bilan ta‘minlangan bo‘lsa, yerning mahsuldorligi yoki joylashuvi jihatidan yomon sharoit qishloq xo‘jalik tovarlariga narx shakllanishini tartibga soluvchi ijtimoiy normal sharoit hisoblanadi.

Natijada o‘rtacha yoki yaxshi yerlarda xo‘jalik yurituvchi ishlab chiqaruvchilar ko‘proq mahsulot va binobarin foyda oladilar.

Bu foyda qisqa muddatli emas, balki ozmi-ko‘pmi doimiy xarakterga ega. Barcha yerlar mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan egallab olinganligi sababli, bu ishlab chiqaruvchilarda yerga xo‘jalik obyekti sifatidagi monopoliya vujudga keladi. Bu hol differensial rentaning vujudga kelishiga shart-sharoit yaratadi.

Shunday qilib, differensial renta hosil bo‘lishining shart-sharoiti miqdori cheklangan, unumdorligida farqlar bo‘lgan yerlarda iqtisodiy jihatdan alohidalashgan tarzda mustaqil xo‘jalik yuritishdir.

Differensial renta o‘zining kelib chiqish sharoitlariga qarab differensial renta – I va differensial renta – II ga bo‘linadi.

Differensial renta – I yerning tabiiy unumdorligi bilan bog‘liq bo‘lgan, serunum yer uchastkalarida vujudga keladi. Chunki bunday yer uchastkalarida mahsulot birligiga sarf-xarajatlar darajasi unumdorligi past, yer uchastkalari nisbatan kam bo‘ladi.

Differensial renta I xo‘jaliklar faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan tabiiy sharoitda vujudga keladi. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligi korxonalarida hosil qilingan bu xildagi renta yer davlat mulki bo‘lishi sababli uning manfaatlari yo‘lida sarf qilish maqsadida markazlashtirilgan davlat fondida (budjetida) to‘planishi

lozim. Bu hol oʻrta va yaxshi unumli yerda joylashgan xoʻjaliklarning iqtisodiy manfaatdorligiga putur yetkazmaydi, balki boshqa xoʻjaliklar bilan ozmi-koʻpmi iqtisodiy sharoitlarni tenglashtirish imkonini beradi. Markazlashtirilgan davlat fondiga oʻtgan bu mablagʻlarni, mamlakat oldida turgan vazifalarni amalga oshirish, xususan yangi yerlarni oʻzlashtirish va yer unumdorligini oshirish bilan bogʻliq boʻlgan tadbirlarni amalga oshirish uchun yoʻnaltirilishi mumkin boʻladi.

Differensial renta – I ning hosil boʻlishi
(shartli misol)

16.1-jadval

Yer uchastkalari	Ishlab chiqarish xarajatlari (ming soʻm)	Oʻrtacha foyda (ming soʻm)	Umumiy qiymat (ming soʻm)	Yalpi hosil (tonna)	Alohida ishlab chiqaruvchilar mahsuloti qiymati (soʻm)	Bozor narxi (soʻm)	Yalpi sotilgan tushum	Differensial renta- I. (ming soʻm)
A yuqori unumli	8000	2000	10000	30	333	500	15000	5000
B oʻrtacha unumli	8000	2000	10000	25	400	500	12500	2500
V past unumli	8000	2000	10000	20	500	500	10000	x

Differensial renta – I yer uchastkalarining shaharlarga, bozorlarga, yoʻllarga va suv manbalariga joylashgan joydagi farqlar natijasida ham vujudga keladi.

Differensial renta – I qishloq xoʻjaligini ekstensiv, differensial renta – II esa intensiv rivojlantirish natijasida hosil boʻladi.

Differensial renta II yerdan intensiv foydalanish, ya'ni uning iqtisodiy unumdorligini oshirish orqali sifati past bo'lgan yerlarda ham hosil bo'lishi mumkin. Bunday yerlarning iqtisodiy unumdorligi xo'jalik yurituvchilar tomonidan oshirilishi sababli bu xildagi rentaning asosiy qismi xo'jaliklarning o'zlarida qoldirilishi mantiqan to'g'ri bo'ladi. Uning faqat bir qismi davlat fondiga jalb qilinishi mumkin, chunki davlat ma'lum darajada bu rentani hosil qilishda o'z hissasini qo'shadi, ya'ni transport yo'llari qurilishiga, irrigatsiya-melioratsiya ishlarini amalga oshirish uchun kapital mablag'lar sarflaydi. Shunday qilib, differensial renta I va differensial renta II yer egasi bo'lgan davlat bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida taqsimlanadi.

**Differensial renta – II ning hosil bo'lishi
(shartli misol)**

16.2-jadval

Yer uchastkasi (V past unumli)	Umumiy qiymat (ming so'm)	Yalpi hosil. (tonna)	Mahsulot birligi bahosi (tonna)	Bozor narxi (tonna)	Yalpi sotilgan mahsulot (ming so'm)	Differensial renta II
1-yil	10000	20	500	500	10000	X
2-yil	12000	40	300	500	20000	8000

Absolyut renta. Ko'pgina mamlakatlarda qishloq xo'jaligida yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi sharoitida ishlab chiqarishni olib borishga to'g'ri keladi. Bu monopoliya ijaraga beriladigan barcha yer uchastkalarining unumdorligidan qat'i nazar, yer egalari absolyut rentani olishga imkon beradi. Absolyut yer rentasining vujudga kelish mexanizmi shundan iboratki, xususiy mulk sababli kapitallarning qishloq xo'jaligiga kirib kelishi cheklanadi: natijada qishloq xo'jaligida vujudga keltirilgan sof daromad (foyda) tarmoqlar o'rtasida taqsimlanmasdan o'zida qoladi. Pirovardida bu qo'shimcha daromad absolyut yer rentasiga aylanadi.

Renta nazariyasiga ko'ra qishloq xo'jaligida rentaning yana bir turi – monopol renta ham mavjud bo'ladi. Boshqa yerda uchramaydigan tabiiy sharoit, ba'zan noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari (uzumning alohida navlarini, sitrus ekinlari, choy va hokazolarning alohida turlarini) yetishtirish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday tovarlar monopol narxlarda sotiladi. Bu narxlarning yuqori bo'lishi ko'pincha to'lovga qodir talab darajasi bilan belgilanadi. Natijada monopol narxlar shunday mahsulotlarning individual qiymatidan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Bu esa yer egalariga monopol renta olish imkonini beradi.

Faqat qishloq xo'jaligida emas, balki undirma sanoatda ham differensial renta hosil bo'ladi. Ma'lumki foydali qazilma konlari joylashuvi (yer yuza qatlamiga nisbatan) va konning boyligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Xuddi qishloq xo'jaligidagi singari, sharoiti o'rta va yaxshi konlardagi korxonalar qo'shimcha foyda oladilarki, u ham differensial rentaga aylanadi.

Ijara haqi. Renta munosabatlarini qarab chiqishda uning ijara haqidani farqini e'tiborga olish zarur. Agar ijaraga beriladigan yerga oldin irrigatsiya va melioratsiya inshootlar qurish hamda yerning iqtisodiy unumdorligini oshirish bilan bog'liq ravishda kapital qo'yilmalar sarflanmagan bo'lsa, ijara haqi va renta miqdoran bir-biriga to'g'ri keladi. Aks holda, ijara haqi yer rentasidan farq qiladi. Ijara haqi quyidagilardan iborat: yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan renta (R), yerga ilgari sarflangan kapital uchun foiz (r); yer uchastkasini ijaraga bergunga qadar unga qurilgan inshootlar amortizatsiyasi (A). Buni formulada quyidagicha yozish mumkin: $IH = R+r+A$.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida yer faqat ijara obyektidir emas, balki oldi-sotdi obyektidir hamdir. Yer ham qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish va tabiiy qazilma boyliklar qazib olish, har xil ishlab chiqarish inshootlari, yo'llar va shu kabilar qurish uchun sotib olinadi. Bu yerning narxini aniqlashni taqozo qiladi.



Yer va boshqa tabiat in'omlari narxini nazariyotchilar irratsional narxlar deb ataydilar. Yer ham irratsional narxga ega. Qishloq xo'jaligida ish yurituvchi tadbirkor bankka qo'yilgan puldan foiz tarzida olinadigan daromadidan yer hisobiga olinadigan renta yuqori bo'lgan taqdirda shu yerni sotib oladi. Boshqacha aytganda, yerning narxi kapitallashtirilgan rentadir. Boshqa sharoitlar teng bo'lganda, xuddi shu renta miqdori yer narxini belgilaydi. U renta miqdoriga to'g'ri mutanosib va ssuda foizi normasiga teskari mutanosibdir. Shunday qilib, yerning narxi ikkita miqdorga bog'liq: 1) yer uchastkasi egasi olish mumkin bo'lgan yer rentasi miqdoriga; 2) ssuda foizi normasiga.

Shundan kelib chiqib yerning narxi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi. $B = \frac{R}{r'} * 100\%$ bunda R – renta r^1 – ssuda foizi normasi, B - yer bahosi.

Renta miqdori o'sib, ssuda foizi normasi pasayib borgan taqdirda erning narxi o'sib boradi.

Yer narxini aniqlashning bu usuli nazariy ahamiyatga ega. Amalda yer narxi, yer uchastkasiga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillarga bog'liq. Jumladan, yerga narxning o'sishini, unga noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun foydalanishga bo'lgan talabning o'sishi bilan tushuntirilishi mumkin. Inflatsiya va asosan giperinflatsiya sharoitida yerga talab keskin ortadi, bu tegishli ravishda yer narxining o'sishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan g'arb mamlakatlarida XX asr boshlaridan to hozirgi davrgacha yer narxi barqaror o'sish tamoyiliga ega bo'lib, faqat ayrim davrlardagina uning pasayishi kuzatiladi.

3. Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi

Mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlariga va qishloq xo'jalik xomashyosidan tayyorlangan tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish nafaqat agrar sohaning holatiga, balki uning sanoat tarmoqlari bilan uyg'un rivojlanishiga ham bog'liq bo'ladi. Aynan shu iqtisodiy tizimda agrosanoat majmuasini bitta pirovard natijani

ro'yobga chiqarishga bo'ysundirilgan tarmoqlarning yagona, yaxlit tizimi sifatida vujudga kelishi uchun asos bo'ladi.

Agrosanoat integratsiyasi – qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir.

Agrosanoat integratsiyasi ko'p qirrali bo'lib, u g'oyat xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bular eng avvalo, ana shu jarayon qaysi darajada, ya'ni butun mamlakat ko'lamida, viloyat doirasida yoki korxonada darajasida yuz berishiga bog'liq.

Shundan kelib chiqib agrosanoat integratsiyasining ko'lami qo'yidagi darajalarda yuzaga chiqadi:

Korxonada (firma) va birlashmalar darajasida.

Hududlar va mintaqalar doirasida.

Alohida mamlakatlar doirasida.

Butun mamlakat va mintaqalar ko'lamida agrosanoat integratsiyasi qishloq xo'jaligining tarmoqlararo aloqalari kuchayishida, iqtisodiyotning oziq-ovqat (tarmoq) va mintaqada agrosanoat majmualari tashkil bo'lishi va rivojlanishida ifodalanadi.

Agrosanoat majmuasi (ASM) – bu qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiyot tarmoqlaridir. ASM to'rtta sohani o'z ichiga oladi. Birinchisi, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, agrar sohaga ishlab chiqarish texnika xizmati ko'rsatish bilan band bo'lgan tarmoqlar; ikkinchisi – qishloq xo'jaligi; uchinchisi – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish).

Agrosanoat majmuasi tarkibida to'rtinchi soha odamlar hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan infratuzilma muhim o'rin tutadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiladigan tarmoqlarni, ijtimoiy infratuzilma odamlar turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalarni (uy-joy, madaniy – maishiy xizmat, savdo, umumiy ovqatlanish va hokazo) o'z ichiga oladi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: «qishloqni yangilash va qayta qurish chora-tadbirlari tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega»⁷⁸. Shu sababli, Respublikada qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish hamda qishloq aholisini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlash Dasturlarini amalga oshirish uzluksiz davom ettirilmogda. Qishloqda istiqbolga mo'ljallangan muhim vazifalardan biri – bu “Zamonaviy muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo'lgan yangi va ko'rkam uy-joy massivlarini barpo etish”dir. Bunda “2017-2021-yillarga mo'ljallangan 12 ta ijtimoiy va infratuzilma dasturlarini amalda bajarish yaqin vaqt ichida transport va savdo xizmatini yaxshilash, avtomobil yo'llarini va ichimlik suv ta'minoti tizimini rekonstruksiya qilish”⁷⁹ imkonini beradi.

4. Agrobiznes va uning turlari. Respublikada qishloq xo'jaligini rivojlantirish vazifalari

Tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jalik sohalaridagi shakli agrobiznes ko'rinishida namoyon bo'ladi. Agrobiznes tushunchasiga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha tadbirkorlik turlari kiritiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnikaviy, ta'mirlash xizmati ko'rsatish, uning mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Qisqacha qilib aytganda, agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarini qamrab oladi.

Agrobiznesning asosiy turlari quyidagilar:

Fermer va dehqon xo'jaliklari.

Agrofirmalar.

Agrosanoat birlashmalari.

Agrosanoat kombinatlari.

Shirkatlar va boshqa jamoa xo'jaliklari.

⁷⁸ Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish.T.: “O'zbekiston” 2013 y.

⁷⁹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: «O'zbekiston», 2017 14-yanvar.22-bet.

Qo'shma korxonalari (agrar sohadagi)

Agrobiznes faoliyatining maqsadi iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Agrobiznesning asosiy shakli va birlamchi bo'g'ini fermer va dehqon xo'jaliklaridir. Chunki ular bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Bu xo'jaliklar o'z yerida yoki ijaraga olingan yerda ish yuritib, ishlab chiqaruvchi fermer va uning oila a'zolari hisoblanib, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanish ham mumkin. Fermer xo'jaligining afzalligi shundan iboratki, undan mulk va mehnat bevosita qo'shiladi, bu esa yuqori samarani ta'minlaydi. Fermer xo'jaliklari mustaqil tuzilma bo'lishi sababli o'z faoliyatini bozor konyunkturasiga tez moslashtira oladi. Unda iqtisodiy manfaat va pirovard natija uchun mas'uliyat o'zaro qo'shib ketadi. Bularning hammasi fermer xo'jaligining yashovchanligini ta'minlaydi.

Respublikada islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichlaridayoq, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi sifatida faoliyat ko'rsatishi lozimligini ta'kidlab o'tgan edi. Shu sababli, respublikamizda qishloq xo'jaligini fermerlashtirish agrar islohotlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublikada bu jarayon zarar ko'rib ishlash natijasida og'ir ahvolga tushib qolgan davlat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklaridan iborat shirkatlar uyushmasiga aylantirish, mavjud davlat va jamoa xo'jaliklari tarkibida ular resurslari hisobidan fermer xo'jaliklarini uyushtirish hamda dehqonning o'z mol-mulki negizidan dehqon xo'jaligi tashkil qilish yo'li bilan bordi. Fermer xo'jaligi barcha tashkiliy shakllarining umumiy tomoni shundaki, ular ijaraga olingan davlat yerida faoliyat ko'rsatadi. Fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil qilish, rivojlantirish va ular faoliyatini tartibga solish O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi, «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonunlarga hamda qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan boshqa huquqiy bitimlarga va hukumat qarorlariga asoslanadi.

Bu qonuniy bitimlarda fermerlarga ajratilgan yerlarni meros qilib qoldirish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga olish huquqi mustahkamlab qo'yildi. Shu bilan birga, bu xo'jalik uchun yerlarning unumdorligini saqlash va oshirishda davlat tomonidan kafolatlar yaratish yo'li bilan ularni himoyalash tizimi vujudga keltirildi. Shunday qilib, fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun ham huquqiy, ham tashkiliy shart-sharoitlar yaratildi. Natijada Respublikada 2016-yil boshiga kelib, fermer xo'jaliklar biriktirilgan yer maydoni barcha haydaladigan yerlarning 85 foizini tashkil qilgan. 2016-yilda fermer xo'jaliklarida butun qishloq xo'jalik mahsulotlarining 32,9 foizi yetishtirilgan⁸⁰. Respublikada fermer xo'jaliklari samarali ishlashi uchun zarur xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma – agrofimlar, mashina – traktor parklari, ta'mirlash ustaxonalari, tayyorlov punktlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalar tizimi shakllandi.

Agrobiznes turlaridan biri agrofimlardir. Ular ma'lum turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va uni pirovard mahsulot darajasigacha qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonalaridir.

Agrofimlar ham qishloq xo'jaligi, ham sanoatga xos resurslarni ishlatib, iste'molga tayyor bo'lgan mahsulot yaratadi. Mazkur turdagi korxonalar turli mulkchilikka asoslanishi, chunonchi oilaviy xo'jalik asosida ham tashkil topib, kichik zavodlar bilan birikishi mumkin. Agrosanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning yangi turlaridir.

Agrosanoat birlashmalari bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir qancha korxonalarni birlashtiradi. Masalan, Bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar, ular mahsulotini qayta ishlovchi sex va zavodlar, yetkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalari bir texnologik jarayonga birlashib agrosanoat birlashmalarini tashkil qiladi. Birlashma ishtirokchilari ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy mustaqilliklarini saqlab qolishi bilan birga, ularning umumiy mulki ham tarkib topib boradi.

⁸⁰ O'zbekiston raqamlarda T.: 2016, 35-bet.

Agrosanoat kombinatlari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va iste‘molchilarga yetkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo‘jalik va korxonalarining ma‘lum bir hududida birlashuvdir. Agrobiznes turiga ko‘ngilli va paychilik mablag‘lari asosida tashkil qilingan turli xil uyushma va ittifoqlarni ham kiritish mumkin.

Qishloq xo‘jaligidagi davlat korxonalari, jamoa xo‘jaliklari va shirkatlari, turli xil mulkchilik asosida tashkil qilingan qo‘shma korxonalar ham agrobiznes turlari sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Respublikada iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ustuvor vazifalari sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;

- oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash;

- ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish;

- eksport salohiyatini oshirish;

- ekin maydonlarini yanada maqbullashtirish;

- yangi seleksiya navlarini, chorva turlarini yaratish;

- ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish;

- qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi yangi korxonalarini qurish;

- zamonaviy bozor xizmatlarini ko‘rsatish infratuzilmasini, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash;

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, zamonaviy suv va resurslarni tejaydigan agrotexnologiyalarni joriy etish;

- unumdorligi yuqori qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish;

- global iqlim o‘zgarishi va Orol dengizi qurib qolishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni ko‘rish⁸¹.

Tayanch tushunchalar

⁸¹ 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

Agrar munosabatlar – yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Renta munosabatlari – Yer omiliga egalik qilinganligi va undan foydalanish natijasida vujudga keladigan daromadni taqsimlash va o‘zlashtirish bilan bog‘liqlikda vujudga keladigan munosabatlar.

Differensial renta – yer uchastkalarining unumdorligi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan daromad.

Differensial renta I – yerlarning tabiiy unumdorligidagi farqlar natijasida vujudga keladigan daromad.

Differensial renta II – yerlarning iqtisodiy unumdorligini oshirish natijasida vujudga keladigan daromad.

Absolyut renta – qishloq xo‘jaligida yerga bo‘lgan xususiy mulkchilik monopoliyasi natijasida vujudga kelib, hamma turdagi yerlardan olinadigan daromad.

Monopol renta – alohida tabiiy sharoitga ega bo‘lgan, noyob qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtiriladigan yerlardan olinadigan renta.

Undurma sanoatda renta – foydali qazilma konlarining joylashishi (yer yuzasiga nisbatan) va ularning boyligi jihatdan farqlar natijasida vujudga keladigan daromad.

Agrosanoat majmuasi – qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste‘molchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq xo‘jalik tarmoqlarining birligi.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi – bevosita qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar.

Ijtimoiy infratuzilma – odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta‘minlaydigan sohalar.

Agrosanoat integratsiyasi – qishloq xo‘jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste‘molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir.

Agrobiznes – tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq sohalardagi namoyon bo‘lish shakli.

Muhokama uchun savollar

1. Agrar munosabatlarning mazmuni, iqtisodiy munosabatlarda tutgan oʻrni va xususiyatlarini koʻrsatib bering.

2. «Yerga egalik» va «yerdan foydalanish» tushunchalarini izohlang. Yer rentasi nazariyalarining umumiy tomonlari va tub farqlarini koʻrsatib bering. Yer rentasining asl mazmunini tushuntiring.

3. Differensial (I va II) va absolyut rentaning hosil boʻlish shart-sharoitlari, manbalari va taqsimlanishini tushuntirib bering. Monopol renta nima? Qazib oluvchi va undirma sanoatda renta qanday hosil boʻladi?

4. «Ijara haqi» va «yer rentasi» ning farqlarini izohlang.

5. Agrobiznesning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning asosiy turlariga tavsif bering.

6. Agrosanoat majmuasi va agrosanoat integratsiyasi tushunchalari iqtisodiy mazmuniga oʻz fikringizni bildiring.

IKKINCHI BO‘LIM MAKROIQTISODIYOTNING AMAL QILISHI VA UNING QONUNIYATLARI

XVII bob. YALPI ICHKI MAHSULOT VA UNI HISOBLASH USULLARI

- 1. Makroiqtisodiyot tushunchasining mazmuni uning o‘lchami va ko‘rsatkichlari.**
- 2. Nominal va real yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlari.**
- 3. Milliy mahsulotni hisoblash tizimi. YaIMni hisoblash usullari.**

1. Makroiqtisodiyot tushunchasining mazmuni uning o‘lchami va ko‘rsatkichlari

Makroiqtisodiyot – bu milliy iqtisodiyot, uning alohida mulkiy sektorlari va jahon xo‘jaligi darajasida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohaslarini bir butun qilib birlashtirgan iqtisodiyot tuzilmasidir.

Makroiqtisodiyotning har qanday darajasidagi tarkib topgan tuzilmasi ijtimoiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv rivojining natijasi hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot – alohida mamlakat miqyosida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan hamda mehnat taqsimoti orqali o‘zaro bog‘langan tarmoqlar, sohalar va infratuzilma muassalaridan iborat yaxlit iqtisodiy tuzilmadir.

Iqtisodiyot sektorlari – iqtisodiyotning mulkiy tavsifiga ko‘ra alohidalashgan xususiy, kooperativ, davlat va aralash sektorlardan iborat bo‘g‘inlaridir.

Jahon xo‘jaligi – xalqaro mehnat taqsimoti orqali tashqi iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisiga aylangan alohida milliy davlatlar iqtisodiyotlari majmuasidir.

Har qanday darajadagi makroiqtisodiyot o‘zining turli xil o‘lchamlariga ega.

Jumladan, milliy iqtisodiyotning mulkiy, hududiy, tarmoq, takror ishlab chiqarish o‘lchamlari farqlanadi. Milliy xo‘jalikning iqtisodiy o‘lchamlari makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini topadi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar milliy (yoki jahon) iqtisodiyot va uning tarkibiy qismlarining holatini, faoliyat qilishi va natijalarini ifodalaydi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar. Bular mamlakatning iqtisodiy resurs salohiyatini, yer osti va yer usti boyliklari zaxiralari hamda tabiiy resurslari hajmini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.

Milliy iqtisodiyot faoliyat qilishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar. Bular bandlik, ishsizlik, inflyatsiya, iste‘mol, jamg‘arma va investitsiyalar darajasi, narxlar darajasi va uning o‘zgarishi, savdo aylanmasi, to‘lov balansi holati va boshqalar.



Milliy iqtisodiyot faoliyatining natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Ishlab chiqarishning yillik hajmi (YaMM va uning harakat shakllari).

Milliy iqtisodiyot natijalaridan foydalanish holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Bular YaIM da iste'mol va jamg'arma nisbati, ish haqi va boshqa omilli daromadlar darajasi, YaIM da investitsiyalar ulushi va boshqalar.

Milliy iqtisodiyotni o'rganishda makroiqtisodiy tahlildan foydalaniladi. Makroiqtisodiy tahlilda iqtisodiy hodisa, jarayon va natijalarning makrodarajadagi umumiy holati hamda rivojlanish qonuniyatlariga e'tibor qaratiladi.

Har qanday iqtisodiyot oldida muayyan maqsadlar turadiki, ular ham makroiqtisodiy tahlil obyekti hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish – bu milliy ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sishini taqozo qiladi.

Narxning barqaror darajasi. Bu narxning doimiylikni bildirmaydi, faqat me'yorida faoliyat qiluvchi iqtisodiyotda narxlarning sezilarli tez o'sishi mumkin emas.

To'liq bandlik-ishlashni xohlagan va unga layoqatli bo'lgan barchaning ish bilan ta'minlanishini anglatadi.

Iqtisodiy ta'minlanganlik milliy xo'jalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar nafaqat mehnatga layoqatlilar, balki o'zlarining yoshi yoki sog'lig'iga ko'ra ishlash imkoniyatiga ega bo'lmaganlarni ham ta'minlashi zarurligini bildiradi.

Iqtisodiy samaradorlik – milliy xo'jalikda foydalanishdagi cheklangan ishlab chiqarish resurslarining eng kam xarajat qilib yuqori samara bilan faoliyat qilish layoqatidir.

Oqilona savdo balansi. Ichki bozorning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun mamlakat oqilona savdo balansini, ya'ni eksport va import bitimlari nisbatini ushlab turish zarur.

Makroiqtisodiy tahlil resurslarning to'liq bandligiga erishish, inflatsiyani eng kam darajaga keltirish, ishsizlikni kamaytirish orqali makroiqtisodiy muvozanatlikni va pirovard natijada iqtisodiy o'sishni ta'minlash muammolariga qaratiladi.

Makroiqtisodiy tahlilda yaxlit iqtisodiyotga tegishli o'rtacha miqdorlardan foydalaniladi. Bular narxlarning o'rtacha darajasi,

foizning bozor stavkasi, inflatsiya, bandlik, ishsizlikning o'rtacha darajasi va h.k.

Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda iqtisodiy modellardan ham foydalaniladi. Makroiqtisodiy modellar-iqtisodiyot va unda ro'y beradigan real voqelikning mantiqiy (nazariy), miqdoriy (matematik) va grafik o'lchamlarda abstrakt tasvirlanishidir.

Asosiy makroiqtisodiy modellar quyidagilar:

doiraviy oqimlar (aylanishlar) modeli;

yalpi talab va yalpi taklif (AD-AS) modeli;

tovarlar miqdori va pul massasi IS-NM) modeli;

Fillips, Laffer egri chiziqlari.

Milliy iqtisodiyot me'yorida faoliyat qilish va barqaror o'sishi uchun barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro bog'liqligi va muvozanatli rivojlanishi talab qilinadi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi va ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali, tahlil qilinadi. Agar mikro ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga baho berilib va ularning rivojlanish tamoyillari aniqlansa, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning o'sish yoki pasayishi sabablari tahlil qilinib, xulosa chiqariladi. Ular yordamida davlat o'z iqtisodiy siyosatini belgilaydi. Bu tizimga kiruvchi turli xil ko'rsatkichlar, birinchidan, ma'lum vaqt oralig'idagi ishlab chiqarish hajmini hisoblash va milliy iqtisodiyotning faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, YaMM ning harakatini ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va pirovard foydalanish bosqichlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirishga imkon beradi.

Nihoyat mazkur ko'rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan foydalanishning ishlab chiqarish natijalariga mos kelishi (tengligi) kuzatilganda, mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi.

Butun milliy iqtisodiyotning natijalarini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – yalpi milliy mahsulot (YaMM), yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD), bandlik, ishsizlik, inflatsiya darajasi va boshqa shu kabilar hisoblanadi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yil davomida mamlakat ichida va chet ellarda yaratilgan barcha pirovard mahsulot (tovar va xizmat)larning bozor narxlari summasi sifatida aniqlanadi.

Joriy yilda ishlab chiqilgan barcha mahsulotlar sotilmasligi mumkin, ularning bir qismi zaxiralarni to'ldiradi. YaMM hajmini hisoblab topishda zaxiralarning har qanday o'sishi hisobga olinadi, chunki u joriy yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar (sotilgan va sotilmagan) ni aks ettiradi.

Milliy ishlab chiqarishning yalpi hajmini to'g'ri aniqlash uchun, mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar bir marta hisobga olinishi zarur. YaMM hajmida sotilgan va qayta sotilgan mahsulotlarni ko'p marta hisobga olishlarni bartaraf etish uchun, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat – bu biron bir subyekt tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan yetkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xomashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

Boshqacha aytganda qo'shilgan qiymat – bu korxonaga yalpi mahsulotidan yoki ishlab chiqargan mahsulotining bozor narxidan (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) joriy moddiy xarajatlar chiqarib tashlangan miqdoriga teng.

YaMM ko'rsatkichiga sof eksport (eksport va import o'rtasidagi farq) summasi kiradi. Ammo turli mamlakatlarda tashqi savdo faoliyatining salmog'i keskin farqlanadi. Shu sababli, milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini taqqoslash uchun yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichidan foydalaniladi. YaIM ma'lum vaqt davomida (bir yilda) mamlakat hududida ishlab chiqarilgan va iste'mol qilishga tayyor pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymatidir. U barcha ishlab chiqarish subyektlarida qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida chiqadi.

“Pirovard mahsulot” – bu iste'molga tayyor bo'lgan tovar va xizmatlardir.

Oraliq mahsulot – qayta ishlash, ishlov berishga va qayta sotishga mo'ljallangan, tovar (xizmat)larni ishlab chiqarishda to'liq iste'mol qilinadigan mahsulotlardir.

YaIM (YaMM)ni miqdoriy aniqlashda oraliq mahsulotlar qiymati chiqarilib, ishlab chiqaruvchilar qo‘shilgan qiymati hisoblab chiqiladi.

YaIM (YaMM) ishlab chiqarish yalpi hajmining ko‘rsatkichi sifatida bitta muhim kamchilikka ega. Ular mazkur yilda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan, asosiy kapitalning o‘rnini qoplash uchun zarur bo‘lgan qiymatni ham o‘z ichiga oladi.

YaIM (YaMM)dan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste‘mol qilingan asosiy kapital qiymati yoki yillik moddiy xarajatlar summasi ayirib tashlansa sof milliy mahsulot (SMM) ko‘rsatkichi hosil bo‘ladi.

O‘zbekistonda umumiy ishlab chiqarish hajmida oraliq iste‘mol va yalpi qo‘shilgan qiymat nisbati (2016y.foizda)

17.1-jadval

	Ishlab chiqarish hajmi	Oraliq iste‘mol	Yalpi qo‘shilgan qiymat
Yalpi ichki mahsulot, bozor narxlarida	100,0	42,9	57,1
Ishlab chiqarish, asosiy narxlarida	100,0	45,2	54,8
Shu jumladan:			
Tovarlarni ishlab chiqarish	100,0	51,4	48,6
Xizmatlarni ishlab chiqarish	100,0	36,8	63,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	100,0	-	100,0

YaIM (YaMM) – moddiy xarajatlar yillik summasi = SMM

Shunday qilib, SMM amortizatsiya ajratmasi summasiga kamaytirilgan YaMM sifatida chiqadi.

SMM qiymatiga egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar narxga ustama xarajat hisoblanadi. Bunday soliqlar yuki iste‘molchi zimmasiga tushadi va uning hisobiga o‘zlarining daromadining bir qismini sarflaydi. SMMdan egri soliqlar chiqarib tashlansa milliy daromad (MD) ko‘rsatkichi hosil bo‘ladi.

Milliy daromad – bu ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi barcha ishtirokchilar o‘zlashtirgan omilli daromadlari summasidir.

SMM – biznesga egri soliq= milliy daromad (MD).

Amaliyotda ishlab chiqarilgan va foydalanilgan MD farqlanadi. Ishlab chiqarilgan MD – bu yangidan yaratilgan tovar va xizmatlar qiymatining butun hajmi. Foydalanilgan MD – bu ishlab chiqarilgan MDdan yo‘qotishlar (tabiiy ofatlar, saqlashdagi yo‘qotishlar va h. k.) va tashqi savdo qoldig‘i chiqarib tashlangan miqdorga teng.

Milliy daromadni, omilli daromadlar barcha turlarini (amortizatsiya ajratmasi va biznesda egri solıqlardan tashqari) qo‘shib chiqish yo‘li bilan ham aniqlash mumkin.

Shaxsiy dapromad ko‘rsatkichini topish uchun milliy daromaddan uy xo‘jaliklari qo‘liga kelib tushmaydigan daromadlar chiqarib tashlanib, joriy mehnat faoliyatining natijasi hisoblanmagan daromadlar unga qo‘shiladi.

Milliy daromad - ijtimoiy sug‘urta ajratmasi - korxonada foydasiga solıqlar - korxonaning taqsimlanmaydigan foydasi – sof foizlar (davlatning transfert to‘lovlari) + foizlar shaklida olingan daromad + davlat qarzlari bo‘yicha foiz = shaxsiy daromad.

Shaxsiy daromaddan daromad solıqlari to‘langandan keyin, uy xo‘jaliklarining to‘liq tasarrufida qoladigan daromad shakllanadi.

Solıqlar to‘langandan keyingi daromad shaxsiy daromaddan uning hisobidan to‘lanadigan solıqlar miqdorini chiqarib tashlash yo‘li bilan hisoblanadi.

Shaxsiy daromad – shu daromad hisobidan to‘lanadigan solıqlar – majburiy to‘lovlar = solıqlar to‘langandan keyingi ixtiyoridagi shaxsiy daromad.

Solıqlar to‘langandan keyingi daromad uy xo‘jaliklari pirovardida ega bo‘ladigan daromad hisoblanib, ular bu daromadlarning



bir qismini iste'mol uchun sarflaydi va boshqa qismini jamg'armaga yo'naltiradi.

Ixtiyorida qoladigan daromad = iste'mol sarflari + jamg'arma miqdori.

Narxlarning o'rtacha darajasi tovarlar ancha keng turlari narxlarining o'rtacha darajasini narx indeksi yordamida hisoblash orqali aniqlanadi. Narx indeksi tovar va xizmatlarning ikki davridagi narxlari nisbati sifatida aniqlanadi. Makroiqtisodiyot darajasida narxlarning ancha umumlashgan indeksi YaIM deflyatori hisoblanadi.

Milliy sarf-xarajatlar – bu pirovard tovar va xizmatlarni yaratish, ishlab chiqarishni rivojlantirish (investitsiyalash) va iste'mol uchun zaruriy sarf-xarajatlarning barcha turlaridir.

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:

17.2-jadval

Yalpi milliy mahsulot		Sof eksport
Yalpi ichki mahsulot		Amortizatsiya
Sof milliy mahsulot	Egri soliqlar	
Milliy daromad		

Jahon amaliyotida iqtisodiy tahlilda yalpi milliy daromad (YaMD) ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. YaMD ko'rsatkichi YaIMga mamlakat fuqarolarining chet ellardan olgan daromadlarini qo'shib, chet elliklarning mamlakatdan chiqarib ketgan daromadlari hajmini ayirib tashlash orqali aniqlanadi yoki $YaMD = YaIM + \text{chet ellardan olingan va tashqariga chiqarilgan birlamchi daromadlar saldos} (\text{pul o'tkazmalar bo'yicha sof qoldiq})$


Bunday birlamchi daromadlarga odatda mehnat haqi, mulkdan dividend shaklida olinadigan daromad kabilar kiradi.

2. Nominal va real yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari

YaIM yordamida milliy iqtisodiyotda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish yillik hajmi qiymat o'lchovida hisobga olinadi.

YaIM yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard tovarlar va xizmatlarning bozor narxidagi summasi bo'lganligi uchun tovarlarning nafliligi ko'paymagan holda narxlar oshishi evaziga uning qiymati ortib ketishi mumkin. Shuning uchun yalpi ichki mahsulot hajmiga baho berishda nominal va real ko'rsatkichlar hisobga olinadi. Uning joriy bozor narxlarida hisoblangan hajmi nominal, o'zgarmas narxlarda hisoblangani esa real mahsulot deb yuritiladi. Har xil yillarda ishlab chiqarilgan YaIM qiymatini faqat narx o'zgarmagan taqdirda o'zaro taqqoslash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari narx darajasi bizga iqtisodiyotda inflatsiya (narx darajasining o'sishi) yoki deflatsiya (narx darajasining kamayishi) o'rin tutganligini va uning miqyosi qandayligini bilish imkonini beradi.

O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish tarkibi (2016y. 100,0 foizda)



indeksi joriy yildagi ma'lum guruh tovarlar va xizmatlar to'plami narxlari summasini, ularning bazis davrdagi narxlar summasiga taqqoslash orqali hisoblanadi. Taqqoslashning boshlang'ich davri "bazis yil" deyiladi. Agar aytilganlarni formula shakliga keltirsak, u quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\text{Narx indeksi} = \frac{\text{joriy yildagi tovarlarning narxi}}{\text{bazis yildagi tovarlarning narxi}} * 100$$

Amaliyotda qator har xil tovar va xizmatlar to'plami yoki iste'mol savatining narx indeksi hisoblanadi. G'arb mamlakatlari va xususan AQSHda bu indekslar ichida eng keng qo'llaniladigani

iste'molchilik tovarlari savati narxlari indeksi hisoblanadi. Uning yordamida odatda shahar aholisi sotib oladigan, iste'molchilik tovar va xizmatlarning 300 turini o'z ichiga oluvchi bozor savatining qayd qilingan narxlari hisoblanadi. Ammo narxning umumiy darajasini hisoblash uchun YaIM narx indeksidan foydalaniladi. YaIM narx indeksi ancha keng tushuncha bo'lib, u o'z ichiga nafaqat iste'molchilik tovarlari, balki investitsion tovarlar, davlat tomonidan sotib olinadigan hamda xalqaro bozorda ayribosh qilingan tovarlar va xizmatlar narxlarini ham oladi. YaIM narx indeksi, nominal YaIM ni real YaIMga aylantirib hisoblash imkoniyatini beradi.

Nominal YaIM shu mahsulot ishlab chiqarilgan davrda amal qilib turgan narxlarda ifodalangan ishlab chiqarish hajmini bildiradi.

Agar biz YaIM narx indeksini qator yillar uchun hisoblasak, olingan indekslar bizga ularni solishtirib tahlil qilish imkonini beradi.

Joriy yildagi nominal YaIMni real YaIMga aylantirishning ancha oddiy usuli nominal YaIMni narx indeksiga bo'lishdir, ya'ni

$$\text{Real YaIM} = \text{nominal YaIM} / R_i;$$

Narx indeksini aniqlash formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$P_i = \frac{P_1 - P_0}{P_0};$$

P_i – narx indeksi;

P_1 – joriy yildagi narx;

P_0 – bazis davrdagi narx.

Joriy yilda bazis yilga nisbatan narx darajasining o'sishi inflatsiyaning pasayishi esa deflatsiyani ko'rsatadi.

Real YaIM ko'lami va o'sish sur'ati hamda uning tarkibiy tuzilmasi jamiyat a'zolarining iqtisodiy farovonligi va turmush darajasini belgilab beradi. YaIM (YaIM) hajmi kamayishi va o'sish sur'atining pasayishi ishsizlikning ortishi aholi turmush darajasining pasayishi va boshqa beqarorliklarga olib keladi.

Ayni vaqtda, YaIM mutlaq miqdori va o'sish sur'atiga asoslanib mamlakat aholisi hayot sifati va farovonlik darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish mumkin emas. Hayot sifatining shunday ko'rsatkichlari ham borki, ularni faqat YaIM orqali aniqlash mumkin emas. Masalan, pirovard mahsulot sifati, mahsulot tarkibi va taqsimlanishi,

tovarlar ishlab chiqarish samaradorligi, nobozor bitimlar hajmi, bo'sh vaqtning mavjudligi atrof-muhit holati, urbanizatsiya sifati, yashirish iqtisodiyot ko'lami va boshqa shu kabi ko'rsatkichlar YaIMda o'z ifodasini topmaydi. Bu barcha holatlar "sof iqtisodiy farovonlik" deb nomlangan maxsus ko'rsatkichdan foydalanishi zarurligini anglatadi. Mazkur shartli ko'rsatkich yuqorida qayd qilingan omillar ta'sirini qo'shish (agar hayot sifati ortsa) yoki ayirish (agar turmush sifati pasaysa) yo'li bilan YaIM miqdorini korrektirovka qilish orqali aniqlanadi.

3. Milliy mahsulotni hisoblash tizimi. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari

Milliy ishlab chiqarish natijalarini hisoblashda milliy hisoblar tizimidan foydalaniladi.

Milliy hisoblar – bu YaMM (YaIM) ni ishlab chiqarish, (milliy daromadni taqsimlash) hamda ulardan foydalanishni tavsiflaydigan o'zaro bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidir. Milliy hisoblar tizimi deganda, mamlakatdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar sarf-xarajatlarini va ishlab chiqargan mahsulot (va xizmatlarni) lardan olinadigan daromadlarni hisoblash tizimini tushunish zarur.

Milliy hisoblar tizimi (MHT) ikki tomonlama yozuv qoidasiga asoslangan balanslashgan jadvallar to'plami bo'lib, unda makrodarajadagi bir iqtisodiy bitim natijalari ham xarajatlar va ham daromadlar sifatida aks etadi.

MXT BMTning statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni o'z ichiga olib, ular standart hisoblar va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan iboratdir.

MXTning bosh ko'rsatkichi - YaMM (YaIM) bo'lib, uning barcha bosqichlaridagi harakati bo'yicha ma'lumotlar MHT orqali hisobga olinadi.

Bunday hisoblar xalqaro statistikaning standart tizimi sifatida hozirgi davrda dunyoning yuzdan oshiq mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda ham keng qo'llaniladi.

MHT g'oyasining vujudga kelishi, ishlab chiqilishi va amalga oshirilish bosqichlari quyidagilardan iborat.

Milliy hisoblarning dastlabki uslubiy asoslari F.Kene tomonidan ijtimoiy takror ishlab chiqarishning natural va qiymat ko'rsatkichlari o'rtasidagi nisbatlar nuqtayi nazaridan ilgari surilgan.

MXTning nazariy asoslarini ishlab chiqishga J.Keyns, A.Bouli, J.Klark, S.Kuznes, R.Stoun, R.Fisher kabi iqtisodchilar katta hissa qo'shgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining statistika byurosi «Milliy daromadni aniqlash va Milliy hisobni tashkil qilish» to'g'risidagi ma'ruzasini e'lon qilgan (1947y.) hamda shu asosda R.Stoun rahbarligida rivojlangan mamlakatlar tajribasi hisobga olinib MXT ishlab chiqilgan.

Milliy hisoblar standart tizimi BMT statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, 1953-yildan boshlab qo'llanila boshlagan.

1968-yilda MXTning ancha takomillashgan andozasi kiritilgan. Unda xarajatlar va ishlab chiqarish jadvali, moliyaviy hisobot, bozor va nobozor sektorlar ajratib ko'rsatilgan.

1993-yilda BMT MXTning takomillashgan yangi standartini tasdiqlagan. Unda iqtisodiyot sektorlari, standart hisoblar va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning nomlanishi birmuncha o'zgartirilgan.

Milliy hisoblar asosini yig'ma balanslar tashkil qiladi. Bunga daromad va xarajatlar balansi misol bo'lishi mumkin. Daromadlar xo'jalik birliklari va aholi umumiy daromadlari (ish haqi, foyda, daromadlarning boshqa turlari, amortizatsiya) summasini aks ettiradi. Xarajatlar to'rta guruhdan iborat bo'ladi: iste'mol sarflari, investitsiyalar, davlat xaridi, sof eksport. Milliy hisoblar makroiqtisodiyotning me'yoridagi – muvozanatli holatga erishish darajasini aniqlashga yordam beradi.

MHTning asosiy kamchiligi – bu milliy ishlab chiqarishning umumiy natijasi hisoblangan YaMM (YaIM) real hajmi oshishi yoki kamayishini taqozo qiluvchi bir qator omillarning oqibatlarini hisobga olmaydi. Bular quyidagilar:

– bozordan tashqarida amalga oshiriladigan operatsiyalar. Masalan, uy qurish bilan va shaxsiy uy ta'miri bilan shug'ullanuvchi duradgor mehnatining natijalari;

– bo‘sh vaqtning ko‘payishi hisobiga farovonlik darajasi ortishi. Jumladan, haq to‘lanadigan ta‘til va bayram kunlari ko‘payishi oqibatida farovonlikning ortishi;

- mahsulot sifat tavsifining yaxshilanishi;
- alohida shaxs va oilalar turmush darajasidagi o‘zgarishlar;
- suv, havo va atrof-muhitning ifloslanishi;
- yashirin (xufyona) iqtisodiyot va faoliyatning natijalari.

Amaliyotda YaMM (YaIM)ni hisoblashning bir xil ahamiyatli usullari mavjud, bu uni sarf-xarajatlar va daromadlar bo‘yicha hisoblash usullaridir.

Iqtisodiy resurs egalari uchun ularni sotilishi bu shu resurslar (kapital, ishchi kuchi, tabiiy resurslar) hisobiga tegishli daromad turlarini olishlarini bildiradi. Ishlab chiqaruvchilar uchun bu xarajat hisoblanadi. Xaridor (iste‘molchi)lar nuqtayi nazaridan tovar va xizmatlarni sotib olish sarf-xarajatlar sifatida chiqsa sotuvchi uchun bu pul daromadi hisoblanadi. Shu sababli, YaMM (YaIM)ni iste‘molchilar barcha guruhi sarf-xarajatlarini yoki iqtisodiy resurs egalari barcha guruhi omilli daromadlarini qo‘shish yo‘li bilan hisoblash mumkin.

Birinchi usul – bu YaMM (YaIM)ni hisoblashga sarf-xarajatlar bo‘yicha yondashuvdir.

Bunda mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot (xizmat)lar hajmini sotib olishga qilingan butun sarflar qo‘shib chiqiladi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotlarni mamlakat ichida xo‘jalikning uchta subyekti – uy xo‘jaliklari, davlat, tadbirkorlar hamda uning tashqarisida chet elliklar sotib olishi mumkin.

YaMM (YaIM)ni hisoblashga sarflar va daromadlar bo‘yicha yondashuv


17.4-jadval

Milliy mahsulot hajmini sarflar summasi bo‘yicha hisoblash	Milliy mahsulot hajmini daromadlar summasi bo‘yicha hisoblash
--	---

1. Uy xo‘jaliklarining iste‘molchilik sarflari +	1. Daromad olish bilan bog‘liq bo‘lmagan sarf va to‘lovlar a) amortizasiya, b) egri soliqlar +
2. Tadbirkorlarning investitsion sarflari +	2. Ish haqi +
3. Tovar va xizmatlarning davlat xarid +	3. Renta to‘lovlari +
4. Chet elliklar sarflari +	4. Foiz +
5. Notijorat muassasalari sarflari +	5. Foyda
6. Moddiy aylanma vositalar zaxirasidagi o‘zgarishlar	
YaMM (YaIM)	YaMM (YaIM)

Uy xo‘jaliklarining iste‘molchilik sarflari. Bu kundalik tovarlarga, xizmatlarga, uzoq muddat foydalaniladigan iste‘mol buyumlariga va boshqa shu kabilarga qilinadigan sarflardir.

Investitsion sarflar tadbirkorlik sektorining asosiy kapitalni yalpi jamg‘arishga qiladigan sarflardir. Investitsion sarflar asosan uchta qismdan iborat: a) tadbirkorlar tomonidan mashina, uskuna va jihozlarning barcha xaridi; b) barcha qurilishlar; d) zaxiralarning o‘zgarishi.



Birinchi guruh elementlarning “investitsion sarflar” tarkibiga kiritilish sababi aniq, qurilishning uning tarkibiga kiritilishi, shu bilan izohlana-diki, yangi fabrika, ombor yoki elevator qurilishi investitsion tovarlar shakli hisoblanadi.

YaIM tarkibiga, ishlab chiqarilgan, lekin mazkur yilda sotilmagan barcha mahsulotlar zaxiralarning ko‘payishi kiritiladi. Boshqacha aytganda, YaIM o‘z

ichiga yil davomidagi zaxiralar va ehtiyojlar barcha o'sishining bozor qiymatini oladi. Zaxiralarning bu o'sishi YaIMga joriy ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichi sifatida qo'shiladi.

Zaxiralar kamayganda, u YaIM hajmidan chiqarilishi zarur. Zaxiralarning kamayishi yil davomida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgandan ko'proq mahsulot sotilganlarini bildiradi. Boshqacha aytganda, jamiyat mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotni va bunga qo'shimcha oldingi yillardan qolgan zaxiralarning bir qismini iste'mol qilgan bo'ladi.

Milliy hisoblar tizimida YaIMni hisoblashda yalpi, xususiy va ichki investitsiyalar tushunchasidan foydalaniladi. Xususiy va ichki investitsiyalar mos ravishda xususiy va milliy kompaniyalar amalga oshiradigan investitsion sarflarni bildiradi. Yalpi investitsiyalar o'z ichiga joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan mashina, uskuna va qurilmalarning o'rnini qoplash uchun mo'ljallangan barcha investitsion tovarlar ishlab chiqarishni hamda iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar hajmiga har qanday sof qo'shimchalarni oladi. Yalpi investitsiyalar mohiyatiga ko'ra, iste'mol qilingan asosiy kapitalni qoplash summasidan va investitsiyalarning o'sgan qismidan iborat bo'ladi. Boshqa tomondan sof xususiy ichki investitsiyalar tushunchasi joriy yil davomida qo'shilgan investitsion tovarlar summasini tavsiflash uchun ishlatiladi. Buni oddiy misolda ancha aniq tushuntirish mumkin. Faraz qilaylik, iqtisodiyotda joriy yilda 20000 mlrd. so'mlik, investitsion tovarlar (ishlab chiqarish vositalari) ishlab chiqarilgan bo'lsin. Ammo YaIMni ishlab chiqarish jarayonida shu yili 15000 mlrd. so'mlik mashina, uskuna va boshqa investitsion tovarlar iste'mol qilingan. Natijada bizning iqtisodiyotga 5000 mlrd. so'mlik jamg'arilgan kapital qiymati qo'shiladi. Shu yili yalpi investitsiyalar 20000 mlrd. so'mni sof investitsiyalar faqat 5000 mlrd, so'mni tashkil qiladi. Ikki ko'rsatkich o'rtasidagi farq, joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan va iste'mol qilingan kapital qiymatini ifodalaydi.

Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya (shu yili ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital hajmi) o'rtasidagi nisbat, iqtisodiyot yuksalish, turg'unlik yoki tanazzul holatida joylashganligini tavsiflab beruvchi ko'rsatkich (indikator) hisoblanadi.

Yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq bo'lsa, iqtisodiyot yuksalish bosqichida joylashadi, uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi. Masalan, bizning yuqoridagi misolda investitsion tovarlar taklifining 5000 mlrd. so'mga ko'payishi, iqtisodiyot ishlab chiqarish quvvatlarining ham shuncha miqdorga ko'paytirishga olib keladi.

Turg'un iqtisodiyot yalpi investitsiyalar va amortizatsiya teng bo'lgan vaziyatni aks ettiradi. Bu iqtisodiyotda mazkur yilda YaIMni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan vositalarni qoplash uchun zarur bo'lgan miqdorda asosiy kapital ishlab chiqarilishni bildiradi. Boshqacha aytganda, sof investitsiyalar taxminan nolga teng bo'ladi, ishlab chiqarish quvvatlari kengaymaydi.

Yalpi investitsiyalar amortizatsiyaga nisbatan kam bo'lsa, ya'ni iqtisodiyotda ishlab chiqarilganga qaraganda kapital ko'proq iste'mol qilinsa, iqtisodiyotda investitsiyalarning qisqarishi ro'y beradi. Bu yil oxirida asosiy kapital hajmi yil boshida mavjud bo'lgandan kam bo'lib qolishga olib keladi. Masalan, "Buyuk turg'unlik" davrida, aniqrog'i 1933-iyil AQSHda yalpi investitsiyalar hammasi bo'lib 1,6 mlrd. dol. ni, yil davomida iste'mol qilingan kapital - 7,6 mlrd. dol. ni tashkil qilgan. Shunday qilib, investitsiyalarning sof qisqarishi 6 mlrd. dol. ga teng bo'lgan.

Davlat sarflari – bu mahsulotlarni va iqtisodiy resurslarni, sotib olishga davlatning qilgan barcha sarflarini o'z ichiga oladi.

Chet elliklarning milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan tovarlarini sotib olishga qilgan sarflari xuddi mamlakat ichidagi iste'molchilik sarflari kabi milliy xo'jalikning rivojlanish darajasiga bog'liq. Shu sababli, YaIMni sarflar bo'yicha hisoblashda tovar va xizmatlarga chet elliklarning sarflari, ya'ni eksport qiymati ham qo'shiladi. Boshqa tomondan, iste'molchilik va investitsion sarflar hamda davlat mablag'larining bir qismi importga, ya'ni chet elda ishlab chiqarilgan tovarlarni xarid qilishga sarflanadi. Milliy ishlab chiqarish umumiy hajmi asossiz oshib ketmasligi uchun import hajmi YaIMdan chiqariladi. Buning uchun eksport va import miqdorlari o'rtasidagi farq aniqlanadi. Bu farq tovar va xizmatlarning sof eksporti yoki oddiy qilib "sof eksport" deyiladi. Sof eksport ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Agar eksport

importdan ortiq bo'lsa, bu ijobiy, eksportdan import ortiq bo'lsa salbiy bo'ladi.

Qarab chiqilgan sarflarning to'rt toifasiga notijorat muassasalar (kasaba uyushmalar, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar va ijtimoiy tashkilotlar) sarflari va moddiy aylanma vositalari zaxirasidagi o'zgarishlarni qo'shib chiqish yo'li bilan YaIM (YaIM) hajmi aniqlanadi.

Ikkinchi usul – bu YaMM (YaIM) ni daromadlar bo'yicha hisoblash.

Mazkur yilda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot hajmidan olingan barcha daromadlar resurs egalari ixtiyoriga ish haqi, renta to'lovlari, foiz va foyda shaklida kelib tushadi. Shu sababli, bu usulda YaMM pirovard mahsulot hisobidan olingan ana shu barcha daromadlarni qo'shib chiqish orqali aniqlanadi.

YaIMni daromadlar bo'yicha hisoblashda uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat muassasalarining dastlabki daromadlarini mehnat haqi va yalpi foyda (renta, ssuda foizi va tadbirkorlik foydasi va h.k.)ga ajratish mumkin. YaMM (YaIM)ni mazkur usul bo'yicha hisoblashda daromadlarning barcha summasiga joriy yilda iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati (amortizatsiya ajratmasi) va biznesga egri soliqlar miqdori ham qo'shiladi.

Agar YaMMni hisoblashning oxirgi ikki usulini oddiy tenglik shaklida tasvirlasak:

YaIMni sotib olishga qilingan sarflar = Mazkur yilda ishlab chiqarilgan YaIM hisobidan olingan pul daromadlari.

Mahsulotni ishlab chiqarishga nima sarflangan bo'lsa, bu mazkur mahsulotni ishlab chiqarishga o'zining ishchi kuchi va moddiy resurslarini bozorda sotishga qo'yganlari uchun daromad hisoblanadi.

YaMM (YaIM)ni hisoblashda uning tarkibiga kirgan daromadlar va daromad bilan bog'liq bo'lmagan sarflar (amortizatsiya va egri soliqlar) ning alohida turlarini to'laroq qarab chiqamiz.

Asosiy kapital ko'pchilik turlarining foydali xizmat muddati uzoq davrni tashkil qiladi. Investitsion tovarlarni sotib olishga qilinadigan sarflar va ularning unumli xizmat muddati amalda bir davrga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli, korxonalar investitsion tovarlarning foydali xizmat muddatini hisoblaydi va ularning

umumiy qiymatini butun xizmat muddatiga teng taqsimlaydi. Asosiy kapitalning yil davomida ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan va yaratilayotgan mahsulotga ko'chgan qiymati amortizatsiya ajratmasi deyiladi. Amortizatsiya ajratmasi asosiy kapital turlari bo'yicha har yili ajratib boriladi. Masalan, to'quv dastgohining qiymati 5 mln. so'm, xizmat muddati 10 yilga teng. Yillik amortizatsiya ajratmasi 0,5 mln. so'mni (5:10) tashkil qiladi.

Amortizatsiya ajratmasi ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati tarkibiga ishlab chiqarish xarajatlari sifatida kirib, mahsulot sotilishi natijasida pul shaklida qaytib keladi va amortizatsiya fondi hisobida to'planib boradi. Bu fond mablag'laridan iste'mol qilingan asosiy kapitalni qayta tiklash, ya'ni yangi investitsion tovarlar sotib olish va amal qilib turganlarini kapital ta'mirlash uchun foydalaniladi. U ishlab chiqarishni kengaytirish va kredit resurslarining manbai ham hisoblanadi.

Egri soliqlar, ya'ni aksiz to'lovlari, sotishdan olinadigan soliqlar, mulk solig'i, litsenziya va bojxona to'lovlari ishlab chiqarish xarajatlari sifatida chiqmasada, mahsulot narxiga ustama bo'lib, uni oshiradi.

Daromadlarning eng muhim turi ish haqi tadbirkorlar va davlat tomonidan ishchi kuchini taqdim qilganlarga to'lanadi. Daromadlar ijtimoiy sug'urta to'lovlari va nafaqa ta'minotining har xil xususiy fondlari, ishcizlik nafaqalari va boshqa ko'plab har xil qo'shimchalar, mukofot hamda imtiyozlarni ham o'z ichiga oladi. Bu qo'shimcha daromadlar ish kuchini yollash bilan bog'liq bo'lgan xarajatning bir qismi sifatida chiqadi va shu sababli ish haqiga umumiy sarflarning tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Uchinchi usul – bu YaIMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. Bunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatlar hisoblab chiqiladi (YaIM tarmoq va ishlab chiqarishlar bo'yicha).

O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning tarmoq tarkibi (2016y. foizda)

17.5-jadval

Jami YaIM	100,0
-----------	-------

Shu jumladan:	
Tarmoqlar yalpi qo‘shilgan qiymati	91,3
Mahsulotlarga sof soliqlar	8,7
Tarmoqlar yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	17,6
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	32,9
Sanoat	25,7
Qurilish	7,2
Xizmatlar	49,5
Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	10,5
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	12,5
Boshqa xizmat tarmoqlari	26,5

Bu usul bilan hisoblangan YaIM alohida tarmoqlarning shu mahsulotni yaratishdagi ulushini aniqlash imkonini beradi.

YaMM (YaIM)ni qo‘shilgan qiymatlar bo‘yicha hisoblash (shartli misol)

17.6-jadval

№ T/ r	Ishlab chiqarish bosqichlari	Oraliq mahsulot narxi (so‘m)	Qo‘shilgan qiymat (so‘m)
1.	Paxta tolasini yetishtiruvchilar	600	600 (=600-0)
2.	Paxtani qayta ishlovchi korxonalar	1000	400 (=1000-600)
3.	Ko‘ylak ishlab chiqaruvchi	1250	250 (=1250-1000)
4.	Ulgurji savdo	1750	500 (=1750-1250)
5.	Chakana savdo	2500	750 (=2500-1750)
	Sotish umumiy qiymati	7100	

Qo‘shilgan qiymat	2500
-------------------	------

Oraliq mahsulot va qo‘shilgan qiymat yig‘indisi milliy iqtisodiyotning yalpi (umumiy) ishlab chiqarish hajmi ko‘rsatkichini beradi.

Tayanch tushunchalar

Makroiqtisodiyot – ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot uning alohida sektorlari va jahon xo‘jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.

Milliy hisoblar tizimi – YaIM va milliy daromadni ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanishni xarakterlaydigan hamda o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadigan hisoblar andozasi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – milliy iqtisodiyot suyektlari tomonidan mamlakat ichida va tashqarisida bir yil davomida vujudga keltirilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi summasi.

Qo‘shilgan qiymat – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste‘mol qilingan xomashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlardagi qiymati.

Sof milliy mahsulot (SMM) – Yalpi ichki mahsulotdan uni ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy xarajatlarni chiqargandan keyin qolgan qismi.

Milliy daromad – yangidan vujudga keltirilgan qiymat bo‘lib, SMMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Shaxsiy daromad – milliy daromaddan ijtimoiy sug‘urta ajratmalari, korxonada foydasidan olinadigan soliqlar va uning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo‘liga kelib tushadigan ijtimoiy (davlatning transfert to‘lovlari) to‘lovlar summasini qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi.

Nominal YaIM – joriy narxlarda hisoblangan YaMM.

Real YaIM – narxlarning o‘zgarishini hisobga olib, doimiy narxlarda hisoblangan YaIM.

Oraliq mahsulot – ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan mahsulotlar.

Pirovard mahsulot – ishlab chiqarish jarayoni yakunlangan, shaxsiy va unumli iste’mol qilishga tayyor bo‘lgan mahsulotlar.

Xufyona iqtisodiyot – YaMMni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foydalanishning rasmiy iqtisodiyotdan yashirin harakatda bo‘lgan qismi.

Muhokama uchun savollar

1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi nimani ifodalaydi? Uning qanday tarkibiy qismlari mavjud?

2. Oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning farqi nimada? Ular iqtisodiyotning qanday ko‘rinishlari uchun xos ekanligini izohlang.

3. Milliy hisoblar tizimining mohiyati nimada? U o‘z ichiga qanday ko‘rsatkichlarni oladi.

4. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar nima va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o‘ynaydi?

5. YaIM va SMM bir-biridan nima bilan farqlanadi? SMM va milliy daromad-chi?

6. Milliy mahsulot harakat shakllari tavsifini bering.

7. YaIM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat.

8. Nominal va real YaIM tushunchalarini izohlang. Ularning farqini ko‘rsating.

9. Agar joriy yildagi nominal YaIM hajmi 700 mlrd. so‘mga, narx indeksi 1,5 ga teng bo‘lsa, real YaIM hajmi qancha bo‘ladi? Agar narx indeksi 0,8 ga teng bo‘lsa-chi?

10. Sof iqtisodiy farovonlik ko‘rsatkichining mohiyati hamda hisoblash tartibini tushuntirib bering.

XVIII bob. YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF

1. Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.

2. Yalpi taklif tushunchasi. Yalpi taklif tarkibi va unga ta'sir qiluvchi omillar.

3. Yalpi talab va taklif o'rtasidagi muvozanatlik hamda uning o'zgarishi.


4. Yalpi talab va yalpi taklif modellari.

1. Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar

Narx darajasi va milliy ishlab chiqarish real hajmini birlashtirish ularning yalpi jamlanmasini (agregati)ni anglatadi. Yalpi talab va yalpi taklif, shunday kursatkichlardan hisoblanadi.

Yalpi talab – bu barcha iste'molchilar, (uy xo'jaliklari, korxonalar davlat va chet elliklar) narxlarning o'rtacha darajasida sotib olishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmini yoki milliy iqtisodiyotdagi yalpi sarflar miqdorini bildiradi. Boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, narx darajasi qancha past bo'lsa, iste'molchilar (mamlakat ichidagi hamda chet eldagi) milliy ishlab chiqarish real hajmining shuncha katta qismini va aksincha, narx darajasi qancha yuqori bo'lsa, shuncha kam qismini sotib oladi. Shunday qilib, narx darajasining oshishi, boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda yalpi talab hajmining kamayishiga sabab bo'ladi. Aksincha, narx darajasining pasayishi yalpi talabning oshishiga olib keladi. Yalpi talabga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi omillarning o'zgarishi ham yalpi talab hajmining o'zgarishiga olib keladi.

Narx darajasi va talab bildirgan milliy ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bu teskari bog'liqlik 18.1-chizmada aniq ifodalangan.



18.1-chizma. Talab bildirilgan ishlab chiqarishning real hajmi.

Yalpi talab egri chizig‘i.

Yalpi talab hajmiga ta‘sir etuvchi narxdan tashqari omillar quyidagilardir:

1. *Iste‘molchilik sarflaridagi o‘zgarishlar.* Narx darajasining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmagan holda, narxdan tashqari bir yoki bir nechta omillar ta‘sirida iste‘molchilar xaridi hajmida o‘zgarish ro‘y

berishi mumkin. Bu iste‘molchi farovonligi, iste‘molchining kutishi, iste‘molchining qarzlari va soliqlarning o‘zgarishi natijasi hisoblanadi. Aholi sonining o‘zgarishi ham mazkur sarflarga ta‘sir ko‘rsatadi.



Iste‘molchining farovonligi iste‘molchi ega bo‘lgan barcha moliyaviy aktivlarga (aksiya va

obligatsiya) hamda uy va yer kabi ko‘chmas mulklarga egaligiga bog‘liq bo‘ladi. Ularning real qiymatining keskin kamayishi tovar xarid qilishining kamayishiga olib keladi. Iste‘molchilik sarflarining qisqarishi natijasida yalpi talab kamayadi. Aksincha moddiy va moliyaviy qimmatliklar real qiymatining oshishi natijasida, narxlarning mavjud darajasida iste‘molchilik sarflari o‘sadi. Bunga, aksiya kursining keskin oshishi natijasida hatto narxlar darajasi o‘zgarmay qolganda iste‘molchi farovonligining o‘sishiga olib kelishini misol qilib keltirish mumkin. Uy va yer real qiymatining

keskin kamayishi, narx umumiy darajasining o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holda iste'molchi farovonligining pasayishiga olib keladi.

Iste'molchining kutishi. Iste'molchilik sarflari hajmidagi o'zgarish, iste'molchining narxlar va daromadlar darajasidagi kelajakdagi o'zgarishlarni oldindan bilishiga bog'liq. Masalan, agar odamlar kelajakda o'zlarining real daromadi ko'payadi, deb hisoblasa, ular joriy daromadlarining ko'proq qismini sarflashga tayyor bo'ladi. Natijada bu davrda iste'molchilik sarflari ko'payadi, jamg'arish esa kamayadi va yalpi talab ortadi. Aksincha, agar odamlar kelajakda o'zlarining real daromadlari kamayadi deb hisoblasa, ularning iste'molchilik sarflari va demak, yalpi talabi qisqaradi. Xuddi shunday inflatsiyaning kutilishi bugungi yalpi talabni oshiradi. Chunki iste'molchilar narxlar oshguncha tovarlarni xarid qilib qolishga harakat qiladi. Aksincha, yaqin kelajakda narxlar pasayishining kutilishi, bugungi iste'mol miqdorining kamayishiga olib keladi.

Iste'molchi qarzlari. Iste'molchi qarzlari ko'p bo'lganda, u joriy daromadini unga to'lab, o'zlarining bugungi sarflarini qisqartirishi mumkin. Aksincha, iste'molchi qarzlari bo'lmasa, ular bugungi sarflarini ko'paytirishga tayyor bo'ladi.

Soliq. Daromad solig'i stavkasining kamayishi, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilik sarflarini ko'paytiradi, soliqlarning oshishi esa iste'molchilik sarflarini kamaytiradi.

2. Investitsion sarflar. Investitsion sarflar, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish, yalpi talabning narxdan tashqari muhim omili hisoblanadi. Narxlarning mavjud darajasida sotib olish mumkin bo'lgan yangi ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalarning kamayishi yalpi talabning kamayishiga, teskari hol uning ko'payishiga olib keladi. Investitsion sarflarni o'zgartirish mumkin bo'lgan narxdan tashqari omillarni alohida - alohida qarab chiqamiz.

Foiz stavkalari. Boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, foiz stavkasining oshishi, investitsion sarflarning kamayishiga va yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Mamlakatdagi pul massasining o'zgarishi oqibatida foiz stavkalarining o'zgarishi ro'y beradi. Pul massasining ko'payishi foiz stavkasini kamaytiradi va shu orqali

kapital qo'yilmalar hajmini ko'paytiradi. Aksincha, pul massasining kamayishi foiz stavkasining oshishiga va investitsiyalarning qisqarishiga olib keladi.

Investitsiyalardan kutiladigan foyda. Kapital qo'yimlardan yuqori foyda olishning kutilishi investitsion tovarlarga talabni oshiradi va aksincha, istiqbolda investitsion loyihalardan foyda olish noaniq bo'lsa, investitsiyalarga sarflar kamayish tamoyiliga ega bo'ladi, demak, yalpi talab ham kamayadi.

Soliqlar. Korxonadan olinadigan soliqlarning ko'payishi kapital qo'yimlardan olinadigan foydaning kamayishiga va demak, investitsion sarflar va yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Aksincha, soliqlarning qisqarishi bunday foydani va investitsion sarflarni ko'paytiradi.

Texnologiya. Yangi va takomillashgan texnologiya investitsion sarflarni va shu orqali yalpi talabni rag'batlantirish tamoyiliga ega bo'ladi.

Ortiqcha quvvatlar. Ortiqcha quvvatlar, ya'ni mavjud foydalanilmaydigan asosiy kapitalning ko'payishi, yangi investitsion tovarlarga talabni va natijada yalpi talabni kamaytiradi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilganda tadbirkorlar ko'proq mashina va uskunalar sotib olishga tayyor bo'ladi, demak, investitsion sarflari ko'payadi.



3. *Davlat sarflari.* Narxlarning mavjud darajasida, milliy mahsulotda davlat xaridining ko'payishi yalpi talabning o'sishiga olib keladi. Bunga mustaqillikka erishilgach davlatning o'z armiyamizni tuzish to'g'risidagi qarori misol bo'la oladi. Davlat sarflarining kamayishi yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Masalan, yangi avtomobil yo'li qurishga davlat sarflarining qisqarishi shunday natijaga olib keladi.

4. *Sof eksportdagi o'zgarish.* Sof eksportning ko'payishi yalpi talabni ham ko'paytiradi. Birinchidan, eksportning yuqori darajasi, chet ellarda bizning tovarlarga bo'lgan talabni oshiradi. Ikkinchidan,

importning qisqarishi o'z tovarlarimizga ichki talabning ko'payishini taqozo qiladi. Sof eksport hajmini avvalo, chet davlatlardagi milliy daromad va valuta kurslari o'zgartiradi. Chet mamlakatlarda daromadlar darajasi oshganda, ular ham o'zlarining tovarlarini va ham chet ellarda ishlab chiqarilgan tovarlarni ko'proq miqdorda sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chet ellarda milliy daromadning kamayishi esa qarama-qarshi natija beradi: bizning eksportning sof hajmi qisqaradi.

Valuta kurslari. Boshqa valutilarga nisbatan milliy pul kursining o'zgarishi sof eksportga va demak, yalpi talabga ta'sir ko'rsatadi. Faraz qilaylik, ienaning dollardagi narxi o'sadi. Bu shuni bildiradiki, dollar ienaga nisbatan qadrsizlanadi va iena kursi ko'tariladi. Dollar va iena o'rtasidagi yangi nisbat natijasida yaponiyalik iste'molchilar ienaning ma'lum summasiga ko'proq dollar olishi mumkin. Demak, yaponiyalik iste'molchilar uchun amerika tovarlari yaponiyalikiga qaraganda arzonroq bo'ladi. Shu bilan birga amerikalik iste'molchilar dollarning ma'lum summasiga kamroq yaponiya tovarlarini sotib olishi mumkin. Bunday holda kutish mumkinki, Amerika eksporti o'sadi, importi kamayadi. Sof eksportning ko'payishi o'z navbatida AQSH yalpi talabining ko'payishiga olib kelishini bildiradi.

2. Yalpi taklif tushunchasi. Yalpi taklif tarkibi va unga ta'sir qiluvchi omillar


Yalpi taklif – narxlarning mavjud darajasi mamlakatda sotishga chiqariladigan pirovard tovarlar va xizmatlar miqdori yoki milliy ishlab chiqarishning real hajmidir. Agar xalqaro savdo ta'siri hisobga olinmasa, yalpi taklifni (AS) YaIM yoki yalpi milliy daromad miqdoriga tenglashtirish mumkin.

$$AS = YaIM, \text{ yoki } AS = MD$$

Umumiy holda yalpi taklif bu narxlarning har xil mumkin bo'lgan o'rtacha darajasida milliy ishlab chiqarishning mavjud real hajmini ko'rsatadi. Ancha yuqori narxlar qo'shimcha tovarlar ishlab chiqarish uchun rag'bat yaratadi. Narxlarning past darajasi tovar ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi. Shu sababli,

narxlar umumiy darajasi va milliy ishlab chiqarish hajmi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita bog'liqlik mavjud bo'ladi.

Bu bog'liqlik taklif egri chizig'ida aniq aks etadi. Yalpi taklif egri chizig'i uchta kesmalardan iborat.



18.2-chizma. Ishlab chiqarish real hajmi. Taklif egri chizig'i.

I. Yotiq kesma. Rasmdagi Q_t nuqta to'liq bandlilik sharoitida milliy ishlab chiqarish hajmining potensial darajasini ko'rsatadi. Yotiq kesma milliy ishlab chiqarish potensial hajmidan ancha kam bo'lgan ishlab chiqarishning real hajmini o'z ichiga oladi. Bu kesma iqtisodiyot chuqur tanazzul yoki depressiya holatida ekanligini, ko'plab mashina, uskuna va ishchi kuchi foydalanilmayotganligidan guvohlik beradi. Foydalanilmayotgan resurslar harakatga kelishi mumkin, lekin bu narx darajasiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Bu kesma yana ishlab chiqarish real hajmi qisqarganda ham tovarlar va resurslarga narxi oldingi darajada qolishini bildiradi. Shunday qilib, yotiq kesma milliy ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda ham narx darajasi doimiy qolishini ko'rsatadi.

II. Q_1 va Q_t nuqta o'rtasidagi oraliq kesma milliy ishlab chiqarishning real hajmining ko'payishi, narx darajasining o'sishi bilan birga borishini ko'rsatadi. Bu ishlab chiqarishning to'liq quvvat bilan ishlay boshlaganidan, korxonalarining ancha eski va kam samarali uskunalardan foydalana boshlaganligidan guvohlik beradi. Ishlab chiqarish hajmining kengayib borishi bilan

qo‘shimcha ishchilar ham ishga jalb qilinadi. Shu barcha sabablarga ko‘ra mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlar ortadi, korxonalar ishlab chiqarishining rentabelli bo‘lishi uchun tovarlarga ancha yuqori narx belgilaydi. Shu sababli, oraliq kesmada milliy mahsulot real hajmining ko‘payishi narxlarning o‘sishi bilan birga boradi.

III. Tik kesma iqtisodiyot o‘zining to‘liq yoki tabiiy bandlik darajasiga erishganligini ko‘rsatadi. Bunda iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatining shunday nuqtasida joylashadiki, qisqa muddatda ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytirishga erishish mumkin emas. Narxning to‘xtovsiz oshib borishi ham ishlab chiqarish real hajmining ko‘payishiga olib kelmaydi, chunki iqtisodiyot to‘liq quvvat bilan ishlay boshlaydi. Qisqacha aytganda, bu kesma milliy ishlab chiqarish hajmi doimiy bo‘lib qolishi, narx darajasi esa o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Yalpi taklif hajmiga ta’sir qiluvchi omillar. Yalpi taklifga narxdan tashqari bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillardan bir yoki bir nechtasining o‘zgarishi yalpi taklifning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Yalpi taklifning narxdan tashqari bu omillari bitta umumiy xususiyatga ega: agar ular o‘zgarsa, mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlari ham o‘zgaradi. Natijada yalpi taklif egri chizig‘i joyini o‘zgartiradi.

Yalpi taklifga narxdan tashqari ta’sir qiluvchi omillar:

1. Resurslar narxining o‘zgarishi. Resurslar narxi – tayyor mahsulot narxidan farq qilib, yalpi taklifning muhim omili hisoblanadi. Boshqa sharoitlar o‘zgarmay qolganda, resurslar narxining oshishi mahsulot birligiga xarajatlarning ko‘payishiga, resurs narxlarining pasayishi esa xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Resurs narxlariga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Resurslar taklifining ko‘payishi ular narxini pasaytiradi va natijada mahsulot birligiga xarajatlar kamayadi. Resurslar taklifining kamayishi esa qarama-qarshi natijaga olib keladi. Endi alohida resurslar taklifi o‘zgarishining yalpi taklifga ta’sirini qarab chiqamiz.

Yer resurslari yangi yerlarning ochilishi, sug‘orish, yangi texnik takomillashuvlar tufayli ko‘payishi mumkin. Yer resurslari taklifining ko‘payishi yerga bo‘lgan sarflarning kamayishiga olib keladi va shu orqali mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarni pasaytiradi. Irrigatsiya qurilmalari shahobchalarining kengayishi, intensiv

dehqonchilikni qo‘llash tufayli yer resurslarining kamayishi qarama-qarshi natijaga olib keladi.

Mehnat resurslari. Ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismi ishchi va xizmatchilarga to‘langan haqidan tarkib topadi. Boshqa sharoitlar o‘zgarmay qolganda, ish haqining o‘zgarishi mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar darajasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Mavjud ishchi kuchi (mehnat) resurslarining ko‘payishi ish haqining pasayishiga, ularning kamayishi esa ish haqining oshishiga olib keladi.

Kapital. Agar jamiyat asosiy kapital zaxirasini o‘stirib borsa, yalpi taklif o‘shish tamoyiliga ega bo‘ladi. Masalan, agar jamiyat o‘z daromadining asosiy qismini tejab, uni investitsion tovarlar sotib olishga yo‘naltirsa, yalpi taklif o‘sadi. Xuddi shunday asosiy kapital sifati yaxshilanganda ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va yalpi taklif ko‘payadi. Korxonalar o‘zining eski, sifati past bo‘lgan qurilmalarini, yangi va ancha takomillashgan uskunalar bilan almashtirishi bunga misol bo‘la oladi. Agar mamlakatda asosiy kapitalning miqdori kamaysa va sifati yomonlashsa, yalpi taklif qisqaradi.



Tadbirkorlik layoqati.

Vaqt o‘tishi bilan mamlakatda tadbirkor kishilar soni ko‘payadi va bu yalpi taklifga ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan keyingi vaqtda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga asosiy e‘tiborning qaratilishi bunday faoliyat

bilan shug‘ullanishga harakat qiluvchi kishilar sonining ko‘payishiga olib kelishi muqarrar va bu o‘z navbatida yalpi taklifni oshiradi.

Import resurslar narxlari. Chet ellardan resurslar importi milliy iqtisodiyotda yalpi taklifning ko‘payishiga olib keladi. Import resurslariga narxlarning pasayishi milliy



iqtisodiyotda yalpi taklifni oshiradi, narxning oshishi esa yalpi taklifni kamaytiradi. Keyingi davrda import resurslarga narxning o'zgarishiga olib kelayotgan asosiy omillardan biri – valuta kurslarining o'zgarib turishi hisoblanadi. Bu qanday ro'y berishini tushunib olish uchun chet el valutarining so'mga nisbatan narxi tushadi, ya'ni so'mning qiymati ko'tariladi deb faraz qilamiz. Bunda korxonalariga



har bir so'm uchun ko'proq chet el valutarini olish imkoniyati vujudga keldi va bu milliy ishlab chiqaruvchilar uchun chet el resurslarining so'mda ifodalangan narxi tushganligini bildiradi. Bunday sharoitda milliy korxonalar chet el resurslari importini ko'paytiradi va ishlab chiqarishning mavjud darajasida mahsulot birligiga xarajatlarni kamaytirishga erishadi. Aksincha, chet el valutarining so'mga nisbatan narxlari oshgan taqdirda, ya'ni so'm qadrsizlanganda import resurslari narxlari ko'tariladi. Natijada bu resurslarning importi kamayadi, mahsulot birligiga xarajatlari ortadi.

Bozordagi hukmronlik. Resurslarni yetkazib beruvchilarning bozordagi hukmronligining susayishi yoki kuchayishi ham resurs narxlariga va yalpi taklifga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bozordagi hukmronlik bu – narxlarni raqobat mavjud bo'lgan sharoitdagidan ancha yuqori o'rnatish imkoniyatidir. Keyingi 20 yil davomida OPEK mamlakatlari bozor monopoliyasining vujudga kelishi va halokatga uchrashi buning ishonchli misoli bo'lib xizmat qilishi mumkin. 70-yillarda OPEK mamlakatlari neft narxini o'n martalab oshirishga erishdi, bu mahsulot birligiga xarajatlarni keskin ko'paytirdi. 80-yil o'rtalarida OPEK mamlakatlarining bozordagi hukmronligining sezilarli susayishi, aksincha ishlab chiqarish qiymatining kamayishiga olib keldi.

2. **Unumdorlik** – bu milliy ishlab chiqarish real hajmining foydalanilgan resurs miqdoriga nisbati, boshqacha aytganda, xarajat birligiga ishlab chiqarishning o'rtacha hajmi yoki ishlab chiqarish real hajmi ko'rsatkichidir.

$$\text{Unumdorlik} = \frac{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot real hajmi}}{\text{Iqtisodiy resurs xarajatlari}}$$

Boshqa sharoitlar o'zgarib qolganda bir ishchi hisobiga ko'proq miqdorda mashina va uskunalardan foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, ancha bilimli va malakali ishchi kuchini qo'llash kabi omillarning o'zaro ta'siri unumdorlikning o'sishi va yalpi taklifning oshishiga olib keladi.

Mahsulot birligiga xarajatlar kamayganda unumdorlikning oshishi yalpi taklifning oshishiga, aksincha, unumdorlikning kamayishi natijasida mahsulot birligiga xarajatlarning ko'payishi yalpi taklifning qisqarishiga olib keladi.

3. Huquqiy normalarning o'zgarishi. Korxonalar o'z faoliyatida amal qiladigan huquqiy normalarning o'zgarishi, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni va yalpi taklifni o'zgartirishi mumkin.

Xuquqiy normalar o'zgarishining ikki turi mavjud:

- a) soliq va subsidiyalarning o'zgarishi,
- b) davlat tomonidan tartibga solish maqsadi va usullarining o'zgarishi.

Korxonalardan olinadigan soliqlarning ko'payishi mahsulot birligiga xarajatlarni ko'paytirishi va yalpi taklifni qisqartirishi mumkin.

Korxonaga davlat tomonidan beriladigan subsidiyalarning ortishi yoki soliq yukining kamayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va yalpi taklifni oshiradi.

Davlat tomonidan tartibga solish usullarining o'zgarishi ham ko'p hollarda mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarini va shu orqali yalpi taklifni o'zgartiradi.

3. Yalpi talab va taklif o'rtasidagi muvozanatlik hamda uning o'zgarishi

Bozor iqtisodiyotida barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar tovar shaklini olib sotilishi, barcha daromadlar esa sarflangan bo'lishi zarur. Faqat shunday holatda to'lovga layoqatli talabning yalpi


miqdori va tovarlar taklifi o‘zaro mos keladi. Bozor iqtisodiyotining amalda erishib bo‘lmaydigan bunday holati nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, uning “iqtisodiy muvozanatini” anglatadi.

Makroiqtisodiy muvozanatlik milliy iqtisodiyotning shunday holatiki, bunda mavjud resurslar va ulardan foydalanish o‘rtasida, ishlab chiqarish va iste‘mol hajmi, moddiy va moliyaviy oqimlar, jamg‘arma va investitsiyalar o‘rtasida mutanosiblik mavjud bo‘ladi.

Amaliy hayotda bu jamiyatning tovar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojining ortiqcha resurs sarflarsiz to‘liq qondirilishini bildiradi. Uni inflatsiya, ishsizlik va inqiroz mavjud bo‘lmagan sog‘lom iqtisodiyotga qiyoslash mumkin. Rivojlanishda bunday muvozanatlikka erishish har qanday davlat iqtisodiy siyosatining maqsadi hisoblanadi.

Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti o‘zgaruvchan hisoblanadi, bu yalpi talab va yalpi taklif muvozanati buzilib turishini keltirib chiqaradi. Bu milliy iqtisodiyotning tarmoqlari, sohalari faoliyati natijalari va uning tarkibida mutanosiblik mavjud bo‘lmashligini bildiradi.

Yalpi talab egri chizig‘i va yalpi taklif egri chizig‘i kesishgan nuqta narxning muvozanatli darajasi va milliy ishlab chiqarishning muvozanatli real hajmini ko‘rsatadi.



a) oralik kesmasidagi muvozanatlik

b) yotiq kesmasidagi muvozanatlik

18.3-chizma. Yalpi talab va yalpi taklif muvozanati.

Ishlab chiqarilgan va sotib olingan mahsulot real hajmi teng bo‘lganda, iqtisodiyotda muvozanatlikka erishiladi.

Yalpi talab o'zgaray qolganda, yalpi taklifning o'zgarishi iqtisodiyotda ikkita har xil oqibatlarga olib keladi.

Birinchi, yalpi taklifning qisqarishi narx darajasining o'sishini taqozo qilib, inflatsiyaga olib keladi.

Ikkinchi, milliy ishlab chiqarish real hajmining ko'payishi narx darajasining pasayishiga sabab bo'ladi.

Yalpi talab egri chizig'i yalpi taklif egri chizig'ini yotiq kesmada kesib o'tsa, narx darajasi milliy ishlab chiqarish muvozanatli real hajmining shakllanishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Tik kesmada ishchi kuchi va ishlab chiqarish quvvatlari to'liq foydalaniladi, shu sababli yalpi talabning kengayishi faqat narx darajasiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni uni oshiradi. Milliy ishlab chiqarishning real hajmi esa o'zgarishsiz qoladi. Oraliq kesmada yalpi talabning kengayishi milliy ishlab chiqarish real hajmining ko'payishiga va narx darajasining oshishiga olib keladi.

Agar yotiq kesmada yalpi talab kamaysa, milliy ishlab chiqarishning real hajmi kamayadi, narx darajasi esa o'zgarishsiz qoladi. Tik kesmada narx tushganda, milliy ishlab chiqarishning real hajmi to'liq bandlik darajasida qoladi. Oraliq kesmada milliy ishlab chiqarishning real hajmi qisqaradi va narx darajasi pasayadi. Ayni paytda bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, oraliq va tik kesmalarda yalpi talabning qisqarish vaziyatni murakkablashtiruvchi omillar ta'sirida birdaniga narxning pasayishiga olib kelmasligi mumkin. Bu murakkablik shundan iboratki, tovarlar va resurslar narxi pasayish tamoyiliga ega bo'lmaydi. Shu sababli, ayrim iqtisodchilar bunday tamoyilga xrapovikli samara sifatida qaraydi. (xrapovik – bu mexanizm bo'lib g'ildirakni orqaga emas, oldinga harakat qilishga yordam beradi). Xrapovik samarasi shunga asoslanadiki, narx osonlik bilan oshadi, lekin qiyinchilik bilan pasayadi. Shu sababli, yalpi talabning oshishi narx darajasini ko'taradi, lekin talab kamayganda, qisqa davr ichida narxning tushishini kutish mumkin emas. Nima uchun narx pasayishi tamoyiliga ega emas degan savolga javob berish qiyin bo'lsa-da, uning ayrim sabablarini ko'rsatish mumkin. Birinchi, ish haqi korxonada umumiy xarajatlarning asosiy qismini (70-75 foiz) tashkil qilib, qandaydir davr ichida pasayishi tamoyiliga ega bo'lmaydi. Chunki

ishchilarning asosiy qismi shartnoma bo'yicha ishlaydi va uning muddati tugaguncha ish haqini pasaytirish taqiqlanadi. Boshqa tomondan, tadbirkorlar ish haqi darajasini pasaytirishni xohlamasligi mumkin. Buning ikkita sababi bor. Bir tomondan ancha past ish haqi ishchilarning mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga ancha past ish haqi mahsulot birligiga mehnat sarflarini kamaytirsada, ancha past mehnat unumdorligi esa mehnat sarflarini oshiradi. Agar ular ish haqini pasaytirishga qaror qilsa, malakali ishchi kuchidan ajrab qolishi mumkin. Narxning pasayish tamoyiliga ega emasligining keyingi sababi shundan iboratki, juda ko'pchilik korxonalar yetarli darajada monopol mavqega ega bo'ladi va bu ularga talab kamayganda ham narxning pasayishiga qarshi turish imkonini beradi.

4. Yalpi talab va yalpi taklif modellari

Yalpi talab va yalpi taklif muvozanatligidan kelib chiqib, uning uchta modeli ajratiladi. Bunga yalpi talab va yalpi taklifni muvozanatga keltirishga turli xil yondashuvlar asos qilib olinadi.

Klassik model.

Bu modelning "klassik" deb nomlanishiga sabab shuki, uning asosi klassik iqtisodiy maktab vakillari A. Smit, D. Rikardo, Dj. St Mill va J.B. Sey tomonidan ishlab chiqiladi. Ular muvozanatlik modelini faqat qisqa muddatli davrda qarab chiqadi va qarashlarini quyidagilar bilan izohlaydi.

Talab hajmi har doim amalga oshiriladigan taklif hajmiga teng keladi. Uning asosida J.B. Seyning "bozor qonuni" yotadi, ya'ni tovarlar taklifi o'zining xususiy talabini vujudga keltiradi yoki boshqacha aytganda, mahsulotning ishlab chiqarilgan hajmi barcha yaratilgan tovarlar qiymatiga teng daromadlarni (ularni to'liq sotish uchun yetarlicha bo'lgan) avtomatik ravishda ta'minlaydi.

Sey fikricha, ijtimoiy mehnat taqsimoti sharoitida har bir ishlab chiqaruvchi o'z tovarlarini o'zida ishlab chiqarilmaydigan boshqa tovarlarni xarid qilish uchun sotadi. Shunday ekan, u faqat sotilgan hajmdagi tovarlarni miqdorini xarid qilishi mumkin. Shu sababli, talab har doim taklif hajmiga teng keladi.

Bunday model uchta shartni taqozo etadi:

olingan daromad to'liq sarflanadi;
faqat o'z pul mablag'lari sarflanadi;
jamiyat bir vaqtda ham iste'molchi hisoblangan ishlab chiqaruvchilardan iborat bo'ladi.

Biroq amalda har qanday iqtisodiyotda olingan daromadning qandaydir qismi uning egasi tomonidan sarflanmaydi va jamg'arma shaklini oladi. Bu yalpi talab hajmi va bandlikning tegishli qisqarishiga olib keldi. "Daromad -xarajat" oqimidan mablag'lar bir qismining olib qo'yilishi iste'molning qisqarishiga va demak, yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi mavjud muvozanatlik buzilishiga olib keladi.

Shu sababli, klassik maktab vakillari to'liq bandlik sharoitida daromad va xarajatlarning tengligini avtomatik ravishda ta'minlaydigan umum iqtisodiy muvozanatlikning yetarlicha asosli nazariyasini ishlab chiqdi. Klassiklar fikricha, moslashuvchan miqdorlar hisoblangan foiz stavkasi, ish haqi, narx darajasi kapital, ish kuchi, pul bozorida talab va taklif muvozanatligini ta'minlaydi. Muomaladagi pul massasining ortishi esa tovar va xizmatlar real oqimida hech narsani o'zgartirmaydi, faqat miqdorlar nominal qiymati o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

Agar pul foiz keltirsa, daromadlarning bir qismi likvidli (tez sarflanuvchi) shaklda saqlanmasdan qimmatli qog'ozlarga yoki bank tizimiga jamg'arma sifatida joylashtiriladi. Foiz olish maqsadida qo'yilgan pul odatda investitsiyalar manbai hisoblanadi. Agar jamg'armalar investitsiya qilinmasa, yalpi talab va yalpi takliflar o'rtasidagi muvozanatlik buzilmaydi.

Klassik modelning asosiy qoidalaridan ko'rinib turibdiki, bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi mexanizm zanjirida namoyon bo'ladi, daromadlar o'sishi jamg'armaning o'sishini rag'batlantiradi

"daromad → jamg'arma → investitsiya"

hamda investitsiyaga aylanib, ishlab chiqarish hajmi va bandlikni oshiradi. Natijada

daromadning umumiy miqdori yana ortadi va bu jamg'armani kupaytiradi va h.k.

Agar bozor tartibga solish mexanizmiga ega bo'lsa, davlat iqtisodiyotiga aralashmaslik siyosatini qo'llab iqtisodiy faollikka ta'sir ko'rsatishdan saqlanadi.

Klassiklar fikricha, iqtisodiyot ishlab chiqarish omillari to‘liq bandligi sharoitida faoliyat qiladi. Shu sababli, ishlab chiqarish hajmi o‘zining potensial darajasiga teng keladi.

Narx, foiz stavkasi va ish haqi moslashuvchan bo‘lib, ularning o‘zgarishi bozor muvozanatini saqlab turadi.

Ishlab chiqarish omillari miqdori sekin o‘zgarishi sababli, to‘liq bandlik sharoitida yalpi taklif real ishlab chiqarish hajmini, yalpi talab esa narx darajasini belgilaydi.

Keynscha model

Klassik modelda aks etgan iqtisodiy voqelik bir asr o‘tib “Buyuk depressiya” davrida sinovdan o‘tmadi va yangi paydo bo‘lgan omillar ta’sirini nazariy umumlashtirishni taqozo etdi. Bu bozordagi jarayonlarni narxsiz mexanizmlar bilan tushuntirishni zarur qilib qo‘ydi.

Bu vazifa iqtisodiyot nazariyasida yangi yo‘nalishni boshlab bergan Dj. M. Keynes tomonidan hal qilindi. Uning nazariyasi makro darajadagi tahlil zarurligini tasdiqladi va XX asrning 30-yillaridan iqtisodiyot nazariyasining rasmiy mikro va makroiqtisodga bo‘linishiga sabab bo‘ldi.

Dj.M. Keynes birinchi bo‘lib bozor iqtisodiyotining o‘z- o‘zini tartibga solishiga layoqatliligi to‘g‘risidagi hukmron qarashdan voz kechib, makrodarajada uni davlat tomonidan tartibga solish zarurligini asosladi.

U o‘z-o‘zini tartibga solish dastagi hisoblangan narx, ish haqi va foiz stavkasi egiluvchanligini inkor etdi. Shu sababli, Keynes talabni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan faol makroiqtisodiy siyosat zarurligi to‘g‘risidagi qarashida qattiq turdi. U ishlab chiqarish va bandlikning o‘zgarishi taklif omillariga emas, balki yalpi talabga bog‘liqligini isbotladi. Keynes fikricha, yalpi sarflar tarkibiy qismlaridan har biri, asosan iste’mol va investitsiyalar o‘z-o‘zicha o‘zgarib turishi mumkin.

Bandlikning ortishi milliy daromad (MD) o‘shishiga olib keladi va u iste’molni belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. MD hajmi qanchalik ko‘p bo‘lsa, yalpi talab ham shunchalik katta bo‘lishi zarur. Biroq iste’molga sarflar daromadlar o‘sgan darajaga mos ravishda ko‘paymaydi. Buning sababi Keynes fikricha, “asosiy


psixologik qonun” hisoblanib daromadlar o‘sib borishi bilan iste’molga moyillik pasayadi va daromadning jamg‘armaga yo‘naltiriladigan ulushi nisbatan ko‘proq ortadi. Natijada MD hajmi qanchalik katta bo‘lsa iste’molchi real talabi nisbatan shunchalik kam bo‘ladi.

Aynan u ishlab chiqarish hajmi va shu orqali bandlik darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Iste’molchilik sarflaridagi “etishmovchilik” investitsiyalar bilan qoplanishi zarur. Biroq Keynes qarashicha jamg‘armaning o‘sishi o‘z-o‘zidan investitsiyalar ko‘payishiga olib kelmaydi. Investitsiyalar o‘sishiga 1) kapital unumdorligi kamayib borish qonuni amal qilishi tufayli kutilayotgan foyda normasi pasayishi va 2) foiz normasiga bevosita bog‘liq yuqori likvidlikning (zaxirada naqd pulga ega bo‘lishiga intilish) afzal ko‘rilishi to‘siq bo‘ladi.

Keyns narxning kam harakatchanligi dalilini hisobga olib uning o‘rniga “sotish hajmi” ko‘rsatkichini ilgari suradi.

Bu yalpi talab va yalpi taklif muvozanatli hajmi shakllanish mexanizmini yangicha tasavvur qilish imkonini beradi. MD hajmining har qanday o‘sishi ishlab chiqarish va shu orqali yalpi taklif hajmi ortishining natijasi hisoblanadi.

Yalpi talab chizig‘ining boshlanish nuqtasi “nol” belgisidan yuqoriroq joylashadiki, iste’molning ayrim eng muhim turlarini kishilar hatto daromadi eng kam darajada bo‘lganda ham amalga oshiradi.



18.4-chizma. “Milliy daromad-yalpi sarflar” (Dj. Keyns muvozanatli) modeli.

Dj.M. Keyns kishilar tasarrufidagi pul daromadi o‘sib borishi bilan iste‘molga keyingi moyillik tushib borish qoidasini ochib berdi. Bu daromadlar ortib borishi bilan jamg‘arma ulushi o‘sib borishini anglatadi. Agar olingan barcha daromad to‘liq sarflansa talab va taklif chiziqlari o‘zaro mos tushgan bo‘lardi.

AS va AD chiziqlari kesishgan nuqta (A) tik o‘qda yalpi talab va yalpi taklif tengligini (OS kesma), yotiq o‘qda MDning mavjud miqdori (ON kesma) bu muvozanatlikni, ya‘ni iqtisodiyot muvozanatli holatini ta‘minlashini ko‘rsatadi.

Agar MD muvozanatli hajm (ON)dan ko‘p (ON2) bo‘lsa, yalpi talab (OS 2) va yalpi taklif hajmi (ON2) ham ortadi. Bunda yalpi taklif hajmi o‘zining o‘sishida yalpi talab hajmidan ortib ketadi, chunki MD o‘sib borishi bilan uning ko‘proq qismi jamg‘armaga “chiqib ketadi”

Shunday qilib, yalpi talab va yalpi taklif hajmi o‘rtasidagi muvozanatlik talabning orqada qolishi tufayli buziladi.

Keyns fikricha, rivojlangan bozor iqtisodiyotida monopoliyalar mavjudligi, ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida uzoq muddatli shartnomalar amal qilishi, kasaba uyushmalarining ish haqi stavkasi barqaror bo‘lishiga harakatlari tufayli narx mexanizmi ishlamaydi. Shu sababli, narx emas sotish hajmi kamayadi va bu ishlab chiqarish hajmi qisqarishiga olib keladi. Mazkur qisqarish yuqori narxlar va ishsizlikning o‘sishi saqlanib qolganda ro‘y beradi. Demak, tadbirkorlar yalpi talabning narx va ish haqi pasayishi hisobiga emas, ishlab chiqarish hajmi qisqarishi va band bo‘lganlar bir qismining bo‘shatilishi hisobiga kamayishiga e‘tibor qaratadi. Shu tariqa, makroiqtisodiy muvozanatlik tiklanadi, biroq bunda ishsizlar saqlanib qoladi.

MD muvozanatli miqdordan (N1) kam bo‘lganda yalpi talab (OS1) yalpi taklifdan (ON1) ortib ketadi. Bunday sharoitda, sotish hajmi ko‘payadi, ishlab chiqarishning o‘sishi “talab” orqali rag‘bat oladi. Biroq bu nafaqat ishsizlikning kamayishiga, balki narx o‘sishi (inflatsiya)ga olib keladi.

Yalpi talabning tarkibiy qismlaridan biri investitsiyalar hisoblanadi. Keyns fikricha, investitsion sarflar yoki yalpi talabning



boshqa qandaydir tarkiblaridagi o'zgarishlar tasavvur qilingandan ko'ra ancha katta xavf tug'dirishi mumkin. Jumladan, investitsiyalar hajmining 100 birlikka kamayishi daromadlarining 400, 500 va undan ko'p birlikka qisqarishiga olib kelishi mumkin va aksincha.

Bunday holat iqtisodiy fanda multiplikator samarasi yoki ko'-

paytiruvchi samara nomini olgan.


Multiplikator samarasi asosida bir kishining sarflari tezlikda boshqalarning daromadi bo'lib qolish mumkinligi g'oyasi yotadi.

Mulkdorlar o'z daromadlarining bir qismini sarflaydi, boshqa qismni jamg'aradi. Daromadni sarflab, ular o'z pullarini ishlab chiqaruvchilarga uzatadi. Yalpi sarflarning bir qismidagi o'zgarish milliy daromadning muvozanatli darajasi ko'paytirilgan (multiplikativ) yo'nalishida o'zgarishiga olib keladi. Boshqacha aytganda iqtisodiyotga "tashlangan" investitsiyalar milliy daromadning o'sishi shaklidagi zanjirli reaksiyasini keltirib chiqaradi.

Multiplikator – daromadning o'sishi va mazkur o'sishni vujudga keltirgan investitsiyalar hajmi ortishi o'rtasidagi nisbatni ifodalovchi koeffitsiyentdir.

Keynsning nazariy qarashlari mazmunan davlat makrodarajada barqarorlashtiruvchi siyosat yuritish zarur degan amaliy xulosa chiqarishga olib keladi.

Bunda davlatning vazifasi, mos keluvchi siyosat yordamida muvozanatli darajani to'liq bandlik darajasiga "ko'chirish"dan iborat rag'batlantirishdan keyingi talab



18.5-chizma. Milliy daromad.

Yalpi talabni kengaytirish ekspansiya siyosati

Agar resurslardan to'liq foydalanishni ta'minlovchi ishlab chiqarish darajasi, muvozanatli nuqtadan (N1) dan past bo'lsa, davlat yalpi talabni kengaytirishni rag'batlantirish zarur, bu taklif o'sishi va ishsizlik pasayishini keltirib chiqaradi. Davlat yalpi talabni uchta usulda ko'paytirishi mumkinki ular "ekspansiya siyosati" deb nomlanadi. Bular:

- davlat sarflarini ko'paytirish;
- soliqlarni kamaytirish;
- foiz stavkasini pasaytirish.

Davlat sarflarining o'sishi amalda aholiga pul to'lovlari-pensiya, nafaqa, stipendiya va eng asosiysi minimal ish haqi darajasi oshirilishini bildiradi.

Resurslardan to'liq foydalanishni ta'minlovchi ishlab chiqarish darajasi muvozanatli nuqtadan yuqorida joylashsa davlat yalpi talab hajmini sun'iy "ushlab turuvchi siyosat" yuritadiki, bu inflatsiyani pasaytiradi. Bunga ekspansiya siyosatiga teskari tadbirlarni qo'llash orqali erishiladi. Ya'ni davlat sarflari kamaytiriladi (ijtimoiy dasturlar, transfert to'lovlari qisqartiriladi), soliq stavkalari oshiriladi, foiz stavkasi ko'tariladi.

Davlat sarflarining kamayishi aholi sotib olish layoqatining pasayishiga olib kelsa, soliq va foiz stavkasining ortishi investitsion faollikni pasaytiradi. Bular pirovard natijada yalpi talabni qisqartiradi, muvozanatli nuqtani "pastga" surib, inflatsion farqni bartaraf qiladi.

Muvozanatli monetaristik model

XX asr 70-yillarida bozor iqtisodiyotiga davlatning aralashuvi inflatsiya va iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayishining asosiy sababi deb e'tirof etiladi. Bu xulosa Fridmenga tegishlidir. Uning nazariyasidagi asosiy g'oya: xo'jalik hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim dastak pul hisoblanadi, barcha iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari pul massasi miqdoriga bog'liq bo'ladi.

M.Fridmen erkin bozor g'oyasiga tayanadi, narxning stixiyali mexanizmga aralashmaslik zarurligini qayd qiladi. Uning

makroiqtisodiy monetaristik modelida stagflatsiyaga qarshi kurashda asosiy tadbir sifatida pul massasi o‘shini cheklash g‘oyasi ilgari suriladi.

Keynschilikda asosiy dalil “ekspansiya siyosati” hisoblansa, Fridmen birinchi o‘ringa “ushlab turish siyosati”ni qo‘yadi, ya’ni daromadlar o‘shini maqsadga muvofiq cheklash, o‘z-o‘zidan yalpi talab miqdori kamayishini va inflatsiya pasayishini keltirib chiqaradi. Yalpi talabning kamayishi – bu ishchi kuchiga talabning ham qisqarishini anglatadi.

Fridmen inflatsiyaning pasayishini “ushlab turish” siyosatining asosiy natijasi deb hisoblaydi, uni “erkinlashtirish siyosati” bilan almashtirish zarurligini qayd qiladi.

Monetaristik model asoslangan asosiy dalillar quyidagilar:

Bozor iqtisodiyoti barqarorlikka, ya’ni o‘zini-o‘zi tartibga solishga intiladi. Nomutanosiblikning vujudga kelishi odatda davlat tomonidan tartibga solishning natijasi hisoblanadi.

Muvozanatlik buzilganda narxlar uni to‘g‘rilashni ta’minlovchi asosiy dastak hisoblanadi. Pul taklifning ortishi mahsulotlar narxi o‘shiga olib keladi, lekin u bir tekis ro‘y bermaydi. Talab dastlab arzon tovarlarga, keyin yangi tovarlarga, oxirida xizmatlarga qaratiladi. Narxdagi o‘zgarishlar tarkibiy o‘zgarishlarni taqozo qiladi, natijada uzoq muddatli davrda barqaror rivojlanish uchun shart-sharoit vujudga keladi.

Pul dastaklari orqali tartibga solishning bosh maqsadi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga erishishdir. Biroq bunda muomaladagi pul miqdorida narxlarning o‘shiga mos ravishda unchalik katta bo‘lmagan ko‘payishi ro‘y bersa, tovar miqdori va pul massasi o‘rtasida muvozanatlik vujudga keladi. Agar narxlar tez o‘ssa, nazorat qilib bo‘lmaydigan inflatsiya boshlanadi.

Pulning harakati va YaMM o‘shisi sur’ati o‘rtasida muqarrar uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘ladi: pul massasi ko‘payishi bilan narxlar o‘shisi ro‘y beradi, bu esa ishlab chiqarishni kengaytirishni rag‘batlantiradi.

Tartibga solish uzoq muddatli vazifalarga yo‘naltirilishi zarur. Chunki pul massasidagi tebranishlar oqibati asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarda birdaniga emas, balki birmuncha vaqt o‘tgandan

keyin aks etadi. U turli mamlakatlar uchun bir xil bo'lmagan konyunktura holati va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Keynscha va monetaristik yondashuv bir-biridan farq qilib ba'zan ziddiyatlarga ham ega bo'ladi. Biroq har ikki model daromadlarni aniqlashning umumiy nazariyasini tashkil qilib, ma'lum darajada bir-birini to'ldiradi. Keyns daromadlarning sarflarga, Fridmen esa uning pul taklifiga miqdoriy bog'liqligini asoslaydi.

Fridmen shunday xulosaga keladi: davlatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohaga aralashuvi darajasi pul taklifining nazoratiga tayanish zarur. Monetar nazariya Markaziy bankning pul massasi o'sish sur'atini doimiy ushlab turish qoidasiga so'zsiz amal qilishi zarurligini qayd qiladi. Bu o'sish me'yoridagi inflatsiyani (2.5dan 8% gacha) ushlab turish uchun yetarlicha past bo'lishi zarur. Biroq u mazkur chegaradan pasayib ketmasligi lozim, chunki aks holda ishlab chiqarishning qisqarishi ro'y beradi.

Mazkur konsepsiya XX asrning 80-yillarida ko'plab rivojlangan mamlakatlar, xususan AQSH va Angliyada qo'llanila boshlandi. Natijada inflatsiya sur'ati sezilarli darajada qisqardi. Ayni vaqtda ijtimoiy dasturlarga sarflarning sezilarli qisqarishi aholi bir qismining iqtisodiy farovonligi pasayishida o'zining salbiy natijasini topadi. Biroq budget taqchiligi muammosi hal qilinmadi. G'arb mamlakatlari uchun keyingi davrlarda nafaqat inflatsiya, balki bandlik, iqtisodiy rivojlanish sur'ati va daromadlar tengsizligi ham asosiy muammo bo'lib qoldi.

Qarab chiqilgan makroiqtisodiy modellarning har biri ma'lum darajada haqiqiy real voqelikdagi bog'liqliklarni aks ettiradi, lekin ularning birortasi ham mutlaq to'g'ri nazariya bo'la olmaydi. Har qanday model muayyan davrda ko'p omilli va ko'p qirrali iqtisodiy reallik bilan ziddiyatga kirishadi.

Hozirgi davrda turli davlatlarda klassiklar, keynschilar va monetaristlar yonodashuvlarini uyg'unlashtirib, tartibga solishning yetarlicha har xil dastaklaridan foydalanildi. Shu sababli, iqtisodiy modellar hozirgi zamon bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmining ilmiy asoslarini tashqil qilishi tushunarli holdir.

Tayanch tushunchalar

Yalpi talab – bu barcha iste'molchilar, ya'ni aholi, korxonalar va davlat narxlarining o'rtacha darajasida sotib olishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmini yoki milliy iqtisodiyotdagi yalpi sarflar miqdorini bildiradi.

Yalpi taklif – narxlarning mavjud darajasida sotishga chiqariladigan pirovard tovarlar va xizmatlar miqdori yoki milliy ishlab chiqarishning real hajmidir.

Xrapovik samarasi – yalpi talab oshganda narxning o'rtacha darajasi ko'tarilishi, lekin talab kamayganda, qisqa davr ichida narx pasayish tamoyiliga ega bo'lmasligini ko'rsatadi.

Unumdorlik – bu milliy ishlab chiqarish real hajmining foydalanilgan resurslar miqdoriga yoki xarajat birligiga to'g'ri keladigan nisbiy miqdori.

Muhokama uchun savollar

1. Yalpi talab va yalpi taklifni tahlil qilish nima uchun zarur?
2. Yalpi talab qanday tushuncha? Nima uchun yalpi talab egri chizig'i o'zgaradi? Yalpi talabga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Yalpi taklif tushunchasini izohlang? Yalpi taklif egri chizig'idagi uchta kesmani tasvirlang va ular nimani ko'rsatishini tushuntiring?
4. Yalpi taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

XIX bob. ISTE'MOL VA JAMG'ARMA

1. Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni hamda omillari.

2. Iste'mol va jamg'armaning ko'rsatkichlari hamda uning darajasini belgilovchi omillar.

3. Iqtisodiy jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi.

1. Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni hamda omillari

Milliy iqtisodiyotda yangidan vujudga keltirilgan qiymat, iste'mol va iqtisodiy jamg'arish maqsadlarida ishlatiladi. Iste'mol keng ma'noda jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan hamda iqtisodiy resurslardan foydalanishni, uning iste'mol qilinishini bildiradi. Bunda unumli, shaxsiy va ijtimoiy iste'mol farqlanadi.

Unumli iste'mol bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lib, ishlab chiqarish vositalari va inson ishchi kuchining iste'mol qilinishini, ya'ni ulardan foydalanish jarayonini anglatadi.

Shaxsiy iste'mol ishlab chiqarish sohasidan tashqarida ro'y berib, bunda iste'mol buyumlaridan bevosita foydalaniladi yoki ular to'liq iste'mol qilinadi.

Iqtisodiy tahlilda individual yoki jamoa iste'moli tushunchalari ham farqlanadi. Alohida oila yoki uning a'zolari ixtiyorida bo'lgan iqtisodiy ne'matlarni iste'mol qilish individual iste'molga, jamiyat a'zolarining birgalikda tovar va xizmatlardan foydalanishi ijtimoiy iste'molni anglatadi.

Iste'mol maqsadidagi mablag'lardan butun iqtisodiyot doirasida band bo'lgan xodimlarning moddiy va madaniy ehtiyojlarini, shu jumladan boshqarish va mudofaa ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi. U butun aholining shaxsiy iste'molini, aholiga ijtimoiy xizmat qiladigan muassasalardagi, shuningdek, ilmiy

muassasalar va boshqarishdagi moddiy sarflarni ham o'z ichiga oladi.

Unumli iste'mol iqtisodiy resurslarga sarf-xarajatlar qilish orqali, ijtimoiy iste'mol ijtimoiy sohalarni davlat tomonidan moliyalashtirish hamda turli xil ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish yo'li bilan ro'yobga chiqariladi.

Uning shaxsiy daromad shaklida xodimlar qo'liga kelib tushadigan qismi iste'molchilik sarflari maqsadida ishlatiladi.

Iste'molchilik sarflari – bu aholi joriy daromadlarining iste'mol ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismidir. Iste'molchilik sarflari mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'lib, unga hududiy demografik omillar, aholining yosh va jins tarkibi, urf- odat va an'analari, tabiiy-iqlim sharoitlari kabilar ta'sir ko'rsatadi.

Daromadlarning iste'mol sarflaridan qolgan qismi turli majburiy to'lovlar chegirib tashlangandan keyin jamg'arma maqsadlarida foydalaniladi.

Jamg'arma – bu uy xo'jaliklari ixtiyoridagi joriy daromadlarining foizli daromad olish va kelajakdagi iste'molini qondirish maqsadida to'planib (jamg'arilib) boriladigan qismidir.

Jamg'armani amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadlar:

- foiz shaklida daromad olish;
- uzoq muddat foydalaniladigan qimmatbaho iste'mol tovarlari (uy-joylar, avtomashina va boshqa zebu ziynat buyumlari) sotib olish;
- kasallik, ishsizlik va baxtsiz hodisalar kabi oldindan bilib bo'lmaydigan holatlardan iqtisodiy himoyalaniish;
- qarilik davrini moddiy ta'minlash;
- farzandlarining kelajagini ta'minlash;
- kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarni qondirish.

Iste'mol va jamg'arma shaxsiy daromadning tarkibiy qismlarini tashkil qilishi sababli, ular darajasini belgilab beruvchi umumiy omillar mavjud bo'ladi. Bular quyidagilar:

- shaxsiy daromad hajmi;
- uy xo'jaliklari jamg'argan boylik miqdori;
- narxlar darajasi;



narxlar, daromadlar va tovarlar taklifi o'zgarishi kutilishi;
iste'molchi qarzlari miqdori;
solliqlar darajasi.

Jamg'arma hajmi uy xo'jaliklari daromadidan iste'molchilik sarflarini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Shaxsiy daromadda iste'molchilik sarflari ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, jamg'arma hajmi shunchalik kam bo'ladi. Jamg'armaning o'sishi esa sof iqtisodiy ma'noda mablag'larning iste'mol buyumlari xarid qilishdan investitsion tovarlarga yo'naltirilishini bildiradi.

Shu sababli, daromadda iste'molchilik sarflari va jamg'arma nisbatining o'zgarishi bir qator, ba'zan qarama-qarshi oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Birinchidan, daromadlarning qandaydir qismini jamg'armaga qo'yish oqibatida u tovarlarda bo'lgan talabda o'z aksini topmaydi. Mahsulotning har qanday hajmini ishlab chiqarishdan olingan daromad to'liq sarflangandagina jami talabni ta'minlash uchun yetarli bo'ladi. Demak, jamg'arma daromadlar – xarajatlar oqimida nomutanosiblik bo'lishiga olib keladi.

Jamg'arma daromatlardan mablag'larni olib qo'yishni bildirib iste'molchilik sarflari barcha ishlab chiqarilgan mahsulotni sotib olish uchun yetarli bo'lmay qolishini bildiradi. Agar aholi o'z daromadining qandaydir qismini jamg'arsa, o'zining xususiy talabini vujudga keltirmaydi. Buning natijasida sotilmay qolgan tovarlar ko'payishi, ishlab chiqarish qisqarishi, ishsizlik va daromadlarning pasayishi ro'y berishi mumkin.

Boshqa tomondan jamg'arma talabning yetishmasligiga olib kelmasligi ham mumkin, chunki jamg'arilgan mablag'lar tadbirkorlar tomonidan investitsion maqsadlarda ishlatiladi. Bu iste'molchilik sarflarining har qanday yetishmasligini qoplaydi va jamg'arma keltirib chiqaradigan iste'moldagi har qanday yetishmaslikni to'ldiradi. Uchinchidan, korxonalar ham o'zining barcha mahsulotini iste'molchilarga sotishni ko'zda tutmaydi, balki uning bir qismidan ishlab chiqarish vositalari shaklida foydalanishi

mumkin. Shunday qilib, agar tadbirkorlar aholining jamg'armalariga teng miqdordagi mablag'larni investitsiyalarga qo'yishni ko'zda tutsa, ishlab chiqarish darajasi doimiy bo'lib qoladi.

Iste'mol va jamg'arma darajasini aniqlab beruvchi asosiy omil milliy daromad hisoblanadi. Lekin milliy daromad tarkibida to'g'ri soliqlar ham mavjud bo'ladi. Shu sababli, soliqlar to'langandan keyin aholi qo'lida qoladigan daromad iste'molchilik sarflari va shaxsiy jamg'arma yig'indisiga teng bo'ladi. Iste'mol va shaxsiy jamg'armaning darajasi bevosita soliqlar to'langandan keyingi qolgan daromad bilan aniqlanadi. Demak, bu daromad iste'molning ham, jamg'armaning ham umumiy omili hisoblanadi. Chunki jamg'arma daromadning iste'mol qilinmaydigan qismi hisoblansa, soliqlar to'langandan keyingi daromad shaxsiy jamg'armani aniqlab beradigan asosiy omil bo'lib chiqadi. Har yilgi haqiqiy iste'mol miqdori va soliqlar to'langandan keyingi daromad o'rtasidagi farq shu yildagi jamg'arma miqdorini ko'rsatadi.


Shaxsiy daromad hajmiga bog'liq ravishda iste'mol va jamg'arma darajasining o'zgarishini jadval va grafikda shartli ma'lumotlar asosida tushuntirish mumkin.

**Iste'mol va jamg'arma darajasi, mlrd., so'm
(shartli ma'lumotlar)**

19.1-jadval

Yillar	Daromad darajasi (D)	Iste'mol (I)	Jamg'arma (J)	IO'M	JO'M	IKM	JKM
1-yil	1500	1300	200	0,87	0,13	-	-
2-yil	1800	1500	300	0,83	0,17	0,67	0,33
3-yil	2200	1700	500	0,77	0,23	0,50	0,50
	1	2	3 (1-2)	4(2:1)	5(3:1)	6(2:1)	7 (3:1)

Jadval ma'lumotlari, iste'mol va jamg'arma chizmasidan xulosa chiqarib aytish mumkinki, birinchidan, aholi daromadining asosiy qismi iste'molga sarflanadi, qolgan qismi jamg'armaga ajratiladi. Ikkinchidan, iste'mol ham, jamg'arish ham daromadlar darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi.



19.1-chizma. Shaxsiy daromad, iste'mol va jamg'arma grafigi.

2. Iste'mol va jamg'armaning ko'rsatkichlari hamda uning darajasini belgilovchi omillar

Iste'mol va jamg'arma bo'yicha bir qator ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Aholi daromadining iste'molga ketadigan ulushi iste'molga o'rtacha moyillik deyiladi (IO'M).

Aholi daromadining jamg'armaga ketadigan ulushi esa jamg'armaga o'rtacha moyillik (JO'M) deyiladi. Ya'ni:

$$IO'M = \frac{\text{iste'mol}}{\text{daromad}} \times 100 \text{ va } JO'M = \frac{\text{jamg'arma}}{\text{daromad}} = 100$$

Daromadning iste'mol qilinadigan va jamg'armaga ketadigan qismlari daromad har qanday darajasining butun miqdorini qamrab oladi, ya'ni $IO'M + JO'M = 1,0$ yoki 100% bo'ladi.

Daromad o'simining iste'mol qilinadigan qismi yoki hissasi iste'molga keyingi moyillik deyiladi (IKM), yoki

iste'moldagi o'zgarish

$$IKM = \frac{\text{iste'molning o'zgarishi}}{\text{daromadning o'zgarishi}}$$

daromaddagi o'zgarish

Daromad har qanday o'sishning jamg'armaga ketadigan hissasi, jamg'armaga keyingi moyillik deyiladi (JKM), ya'ni

jamg'armadagi o'zgarish

$$JKM = \frac{\text{jamg'armadagi o'zgarish}}{\text{iste'moldagi o'zgarish}}$$

Masalan, agar 1500 mlrd. so'mni tashkil qiluvchi soliqlar to'langandan keyingi daromad 300 mlrd. so'mga ko'payib 1800 mlrd. so'mga yetsa daromadning shu o'sgan qismining 2/3 qismi iste'mol qilinadi va 1/3 qismi jamg'armaga ketadi. Boshqacha aytganda, IKM - 0,666 ni, JKM esa 0,333 ni tashkil qiladi. Daromaddagi har qanday o'zgarish uchun IKM va JKM yig'indisi har doim 1 ga teng bo'lishi zarur yoki $IKM + JKM = 1$. Bizning misolda $0,666 + 0,333 = 1,0$

Shaxsiy daromaddan tashqari iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka ta'sir ko'rsatuvchi boshqa bir qator omillar ham mavjud bo'ladi. Bu omillarning asosiylari quyidagilar:

- uy xo'jaliklari jamg'argan boylik darajasi;
- narxlar darajasi;
- narxlar, daromadlar va tovarlar taklifi o'zgarishining kutilishi;
- iste'molchi qarzlari;
- soliq stavkalari o'zgarishi.

3. Iqtisodiy jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi



Jamg'arish investitsion tavsifidagi tovarlarga talab darajasini belgilab beradi. Ayni vaqtda jamg'arishning amalda namoyon bo'lish shakli investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar hisoblanadi.

Jamg'arish bu, milliy daromad bir qismining ishlab chiqarishni kengaytirish, ya'ni asosiy va aylanma

kapitallarni, shuningdek, ehtiyot zaxiralarini ko'paytirish uchun sarflanish jarayonidir.

Amalda jamg'arish kapital mablag'lar yoki investitsion sarflar shaklida yuzaga chiqib, u yangi asosiy kapitalni hosil qilish, ishlab turganlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash va yangilashga qilinadigan xarajatlarni ifodalaydi. "Jamg'arish" va "kapital mablag'" yoki "investitsion sarflar" tushunchalari bir xil mazmunga ega emas. Bir tomondan, kapital mablag' yoki investitsiyalarning chegaralari jamg'arish fondiga qaraganda kengroq, chunki renovatsiyaga (ya'ni eskirgan obyektlarni batamom almashtirishga) sarflanadigan amortizatsiya fondining bir qismi ham uning manbai bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, "jamg'arish" tushunchasi investitsion sarflar doirasidan chiqib ketadi, chunki u faqat asosiy kapitalning emas, balki aylanma kapitalning, shuningdek, ehtiyot zaxiralarining kengayishini ham anglatadi.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy-madaniy sohalardagi jamg'arish bir-biridan farqlanadi. Jamg'arilgan mablag'larning iqtisodiyot real sektori asosiy kapitallari va aylanma mablag'larini kengaytirishga ketadigan qismi ishlab chiqarish sohasidagi jamg'arishni hosil qiladi. Ishlab chiqarish sohasidagi jamg'arish iqtisodiy o'sishning muhim omilidir.

Ijtimoiy - madaniy sohadagi jamg'arish (noishlab chiqarish jamg'arishi) uy-joy fondini, kasalxonalar, o'quv muassasalari, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport muassasalari, ya'ni ijtimoiy soha tarmoqlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash, yangilashga sarflanadi. Mazkur sohalarni kengaytirish ham ishlab chiqarishni rivojlantirishning zarur shartidir.

Jamg'arishning hajmi va tarkibi iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilab berishda hal qiluvchi omildir. Jamg'arish normasi jamg'arish fondining butun milliy daromad hajmiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$JN = JF/MD \times 100,$$

Bunda, JN – jamg'arish normasi, JF – jamg'arish fondi, MD–milliy daromad.

Jamg'arish normasining ham o'z chegarasi bo'lib, uni oshirish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lib chiqishi va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, uning haddan tashqari ortishi natijasida investitsion sarflar samaradorligi pasayib ketishi mumkin,

chunki kapital mablag‘lar hajmi bilan qurilish tashkilotlarining quvvatlari, materiallar va uskunalar yetkazib berish imkoniyatlari, infratuzilmaning rivojlanishi o‘rtasida nomutanosiblik paydo bo‘ladi. Mablag‘larning sochilib ketishi natijasida obyektlarni barpo etish muddatlarining cho‘zilib ketish xavfi oshadi, oqibatda ular qimmatlashadi, barpo etish jarayonidayoq ma’naviy jihatdan eskiradi, tugallanmagan qurilishlar ko‘payadi. Oqibatda iqtisodiy o‘sish sur‘atlari pasayib ketish tamoyiliga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, jamg‘arish iqtisodiy o‘sish sur‘atlari va sifatiga faqat o‘zining miqdori bilangina hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatib qolmaydi. Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida ulardan foydalanish samaradorligi birinchi o‘ringa chiqadi.

Jamg‘arish milliy daromadning bir qismi hisobiga amalga oshadi va shu sababli uning hajmi ko‘payishini belgilaydigan omillar, jamg‘arish miqdorini ham belgilab beradi. Bu omillardan asosiylari mavjud texnologiya qo‘llaniladigan resurslar massasi va ularning unumdorligidir. Jamg‘arish miqdori ishlab chiqarish jarayonida xomashyo, materiallar, energiyani tejab-tergab sarflashga ham bog‘liq. Mahsulot birligiga ular sarfini kamaytirish moddiy vositalarning muayyan miqdorida mahsulotlarni ko‘proq hajmda ishlab chiqarishga imkon beradi.

Jamg‘arishning miqdori milliy daromaddagi jamg‘arish va iste’mol mablag‘lari o‘rtasidagi nisbatga ham bog‘liq bo‘ladi.

Tayanch tushunchalar

Iste’mol – jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalaridan va ishlab chiqarish omillari (ishchi kuchi)dan foydalanish jarayonini bildiradi.

Shaxsiy iste’mol – iste’molchilik tavsifidagi ne’matlar va xizmatlardan bevosita foydalanishni, ya’ni ularning individual tarzda iste’mol qilinishini bildiradi.

Unumli iste’mol – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanishni anglatadi.

Iste’molchilik sarflari – aholi daromadlarining tirikchilik ne’matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi.

Jamg'arma – aholi, joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to'planib borilishi.

Iste'molga o'rtacha moyillik – shaxsiy daromadning iste'molga ketadigan ulushi.

Jamg'armaga o'rtacha moyillik – shaxsiy daromadning jamg'armaga ketadigan ulushi.

Iste'molga keyingi qo'shilgan moyillik – shaxsiy daromad o'sgan qismining iste'mol qilinadigan qismi ulushi.

Jamg'armaga keyingi qo'shilgan moyillik – shaxsiy daromad o'sgan qismining jamg'armaga ketadigan hissasi.

Iqtisodiy jamg'arish – milliy daromadning bir qismidan asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyot va zaxiralarni ko'paytirish uchun foydalanish.

Jamg'arish normasi – jamg'arish fondining milliy daromadga nisbatining foizdagi ifodasi.

Muhokama uchun savollar

1. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta'riflang.

2. Iste'mol va jamg'armaning miqdorini aniqlovchi asosiy omillarni sanab ko'rsating.

3. Jamg'arish normasi qanday aniqlanadi? Unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

4. Iste'molga va jamg'armaga o'rtacha moyillik deganda nimani tushunasiz? Iste'mol va jamg'armaga qo'shilgan moyillik qanday aniqlanadi?

5. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi? Ularning qisqacha tavsiflab bering.

XX bob. INVESTITSİYALAR VA INVESTITSION SIYOSAT

- 1. Investitsiyalar, uning turlari, tarkibi va omillari.**
- 2. Investitsiyalar samaradorligi. Multiplikator samarasi.**
- 3. Investitsion resurslar bozorida muvozanatlik va foiz stavkasi hosil bo'lishi.**
- 4. Investitsion siyosat va uning asosiy yo'nalishlari.**

1. Investitsiyalar, uning turlari, tarkibi va omillari

Yalpi sarflarning tarkibiy qismlaridan biri investitsiyalar hisoblanadi. Investitsiyalar darajasi jamiyat milliy daromadi hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, milliy iqtisodiyotdagi ko'plab mutanosibliklar uning o'sish sur'atiga bog'liq bo'ladi. Investitsiyalar mamlakat miqyosida yangi ishlab chiqarish obyektlari qurish, mashina, uskuna va shu kabi uzoq muddatli foydalaniladigan asosiy kapitallarni sotib olish, ishga tushirish bilan bog'liq sarflarni bildiradi.

Investitsiyalar – ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga, asosiy kapitalni ko'paytirishga va aylanma kapital hamda moddiy zaxiralarga pul shaklidagi qo'yilmadir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi.

Investitsiyalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha amaliy harakatlar – investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs investor deyiladi. Investitsion faollik uning amalga oshirilish yoki jadalligini ifodalaydi.

Investitsiyalar bir qator turlarda amalga oshiriladi:

Ishlab chiqarish maqsadidagi investitsiyalar. Iqtisodiyotning iqtisodiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi real tarmoq hamda sohalaridagi asosiy va aylanma kapitallar uchun sarflardir.

Ijtimoiy-ma'daniy maqsaddagi investitsiyalar. Ijtimoiy madaniy sohalar (uy-joy qurilishi, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport va shu kabi muassasalar)ni kengaytirish uchun sarflardir.



Tovar – moddiy zaxiralarga investitsiyalar. Ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlaridan kelib chiqib va turli favqulodda holatlardan sug'urtalanish uchun tovar va boshqa moddiy zaxiralar uchun qilinadigan sarflardir.

Investitsiyalar tarkibida asosiy kapitalga qo'yilmalar asosiy va hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar bir qator mezonlar bo'yicha turkumlanadi.

Investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tuzilishi uning umumiy miqdorida alohida manbalar ulushini ko'rsatadi.

Investitsiyalar quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin:

- investorlarning o'z moliyaviy resurslari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va h.k.);
- qarz olingan moliyaviy mablag'lar (obligatsiya zayomlari, bank kreditlari);
- jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (aksiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, jismoniy va huquqiy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari);
- budget mablag'lari;
- chet el investitsiyalari va kreditlari;
- aholi mablag'lari.

2016-yilda O'zbekistonda investitsion qo'yilmalarning 53,0%i korxonalar va aholining o'z moliyaviy mablag'lari hisobiga, 4,5%i budget mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan. 2000 yilga taqqoslaganda budget mablag'lari 6 barobardan ko'proq qisqargan.

Investitsiyalarning manbalaridan biri aholi keng qatlamlari jamg'armalari hisoblanadi. Bunda, jamg'arma xo'jalik yurituvchi

bir guruh tomonidan investitsiyalar esa shaxslar yoki xo‘jalik yurituvchi subyektlarning butunlay boshqa guruhi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. O‘z-o‘zidan aniqki, investitsiyalar manbai bo‘lib iqtisodiyotda faoliyat qiluvchi sanoat, qishloq xo‘jalik va boshqa korxonalar foydasi ham hisoblanadi. Bu yerda “jamg‘aruvchi” va “investor” bir-biriga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonda moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (2016 y.)

Investitsiyalar manbalar	(%)
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - jami	100,0
Shu jumladan:	
Respublika budjeti mablag‘lari	4,5
Korxonalar va aholi mablag‘lari	53,0
Bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	11,1
Chet el investitsiyalari va kreditlari	21,3
Davlat maqsadli jamg‘armasi	10,1

Investitsiyalarning muhim manbai hisoblangan “Xorijiy investitsiyalarni, birinchi navbatda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha ishlar qanday ahvolda ekani tanqidiy tahlilni talab etadi. Bunday investitsiyalarning ulushi 30 foizga tushib qolgan”⁸².

Asosiy kapitalga investitsiyalarning mulkiy tuzilishi uning jami hajmida davlat va nodavlat investitsiyalari ulushini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda jami investitsiyalarda nodavlat sektorining ulushi 1991-yildagi 24 %dan, 2000-yilda 34,7%, 2002-yilda 59,2%, 2008-yilda 79,8% va 2012-yilda 77,5% ga yetgan. 2016-yilda nodavlat investitsiyalarda xususiy sektor 21,8% ni, xo‘jalik birlashmalari 36,4% ni, chet ellik qo‘yilmalari 21,3% ni tashkil qilgan.

Investitsiyalarning ishlab chiqarish tuzilishi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi mablag‘lar ulushini aks ettiradi. 2016-yilda O‘zbekistonda jami investitsiyalarning 70 foizidan

⁸² Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: «O‘zbekiston», 2017 14-yanvar. 27-bet.

ortig'i ishlab chiqarish obyektlarini qurish va kengaytirishga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda so'nggi besh yil mobaynida investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati o'rtacha 10% dan ortiqni tashkil etadi va bu dunyodagi yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 17 martadan ziyod oshdi.

Jami investitsiyalardagi alohida tarmoq va sohalar ulushi uning tarmoq tuzilishini ko'rsatadi.

Respublikamiz iqtisodiyotida sanoat tarmog'ining jami investitsiyalardagi ulushi barqaror yuqori bo'lib, 2016-yilda 39,3% ga yetgan 2000-yilga taqqoslaganda bu ulush 10%ga yaqin ortgan.

Investitsiyalarning texnologik tuzilishi uning qurilish-montaj ishlariga, uskuna, jihoz va inventarlarga, boshqa kapital ishlar va xarajatlarga qo'yilgan ulushini ifodalaydi.

Investitsiyalarning asosiy kapitalning alohida turlari bo'yicha tuzilishi ham ajratiladi. Bu jami investitsiyalarda bino va inshootlar qurilishiga, mashina, uskuna va inventarlar sotib olishga yo'naltirilgan kapital mablag'larning salmog'ini ko'rsatadi.

Investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tuzilishi korxonalarni texnik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilishga, ularni kengaytirishga, ya'ni qurilishlarga va ayrim obyektlarga yo'naltirilgan mablag'lar ulushini aks ettiradi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududiy tuzilishi alohida ma'muriy – hududiy bo'linmalar (viloyat, shahar, tuman)ning mazkur mablag'lardagi salmog'ini ko'rsatadi. Hozirgi kunda "mamlakatimiz hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish o'ta qoniqarsiz ahvolda qolmoqda"⁸³. Shu bilan birga "Jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish" dolzarb bo'lib qolaveradi⁸⁴.

Investitsiyalarga sarflar darajasini ikkita asosiy omil belgilab beradi:

⁸³ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: «O'zbekiston», 2017 14-yanvar. 28-bet.

⁸⁴ 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

1) Tadbirkorlar investitsiyalarga sarflardan olish ko'zda tutilgan, kutilayotgan sof foyda normasi va 2) foiz stavkasi.

Investitsiyalarga qilinadigan sarflarning harakatlantiruvchi motivi foyda hisoblanadi. Tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini qachonki, ular foyda keltiradigan bo'lsa sotib oladi.

Investitsiyalar darajasini belgilaydigan ikkinchi omil foizning real stavkasi hisoblanadi. Foiz stavkasi – real asosiy kapitalni sotib olish uchun zarur bo'lgan band qilingan pul kapitali uchun to'lash zarur bo'lgan pul miqdori hisoblanadi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi foiz stavkasidan ortiq bo'lsa, investitsiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan sof foyda normasidan ortiq bo'lsa, investitsiyalash samarasiz hisoblanadi.

Investitsiya darajasiga kutilayotgan sof foyda normasi va foiz stavkasidan tashqari quyidagi omillar ham ta'sir ko'rsatadi:

1. Mashina va uskunalarni xarid qilish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

2. Tadbirkorlardan olinadigan soliq miqdori.

3. Ishlab chiqarish texnologiyasi.

4. Asosiy kapitalarning mavjud hajmi.

5. Bozor konyunkturasidagi ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar.

Investitsion sarflar o'zgaruvchan bo'lib, bu uni belgilab beruvchi omillar mavjudligi bilan izohlanadi.



Bular quyidagilar:

investitsion tovarlar (asosiy kapital)ning noaniq xizmat muddatiga ega bo'lishi;

innovatsiyalar, texnika va texnologiyalar sohasidagi ancha katta kashfiyotlar doimiy paydo bo'lib turmasligi;

iqtisodiyot siklli rivojlanish tamoyiliga ega bo'lishi;

tadbirkorlar oladigan foyda doimiy barqaror emasligi;

ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda holatlar (siyosiy vaziyat, davlat iqtisodiy siyosatidagi o‘zgarishlar va h.k.).

2. Investitsiyalar samaradorligi. Multiplikator samarasi



Investitsiyalar samaradorligi barcha iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari kabi “natija” va “xarajat” nisbati orqali aniqlanadi. Milliy iqtisodiyotga qo‘yilgan investitsiyalar jamiyat mahsulotining o‘shishiga olib keladi yoki kelajakda shunday o‘shish uchun shart-sharoit yaratadi.

Shu sababli, investitsiyalarning umumiy samaradorligi investitsiya qaytimi (I_k) va mahsulotning investitsiya sig‘imi (I_c) ko‘rsatkichlarida ifodalanadi. Har ikkala ko‘rsatkichni hisoblashda milliy ishlab chiqarish natijasi sifatida yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD) yoki foyda (F) hajmi kabi makroiqtisodiy miqdorlardan foydalaniladi.

$$I_k = \frac{YaIM(SMM, MD, F)}{I_n} \quad \text{yoki} \quad I_c = \frac{I_n}{YaIM(SMM, MD, F)}$$

Bu yerda, I_n – jami investitsiyalar.

Investitsiyalar samaradorligi joriy va bazis davrida $YaIM(SMM, MD, F)$ o‘sgan qismining investitsiyalarning xuddi shunday o‘sgan miqdoriga (ΔI_n) nisbatini taqqoslash orqali yoki uning teskari ko‘rsatkichi bilan ham baholanadi, ya’ni

$$\Delta I_k = \frac{\Delta YaIM(SMM, MD, F)}{\Delta I_n} \quad \text{yoki} \quad \Delta I_c = \frac{\Delta I_n}{\Delta YaIM(SMM, MD, F)}$$

Bu yerda, ΔI_k qo‘shimcha sarflangan investitsiyalar qaytimi, ΔI_c - $YaIM(SMM, MD, F)$ o‘sgan qismining investitsiya sig‘imi.

Investitsiyalar iqtisodiy samaradorligining muhim ko'rsatkichi jami sarflangan investitsion mablag'larning qoplanish muddati $I k. m. = \frac{\ln}{F}$ ko'rsatkichi hisoblanadi. U jami investitsiyalar summasini foydaning yillik miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi, ya'ni

$$I k. m. = \frac{\ln}{F} (\text{yil,oy})$$

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi yuqorida qayd qilingan ko'rsatkichlarda tarmoqlar, sohalar, hududlar bo'yicha ham aniqlanadi.

Sof milliy mahsulot (milliy daromad) hajmidagi o'zgarishning yalpi sarflarning alohida turlari, shu jumladan investitsiyalardagi o'zgarishlarga nisbati – multiplikator samarasi deyiladi.

$$\text{Multiplikator samarasi} = \frac{\text{SMM (milliy daromad)}}{\text{Investitsiyalardagi o'zgarish}}$$

Investitsiyalarning 5 mlrd. so'mga ko'payishi sof milliy mahsulotning 20 mlrd. so'm miqdorga o'sishiga olib kelsa multiplikator samarasi 4 ga (20:5) teng bo'ladi.

SMMdagi o'zgarish	=	Multiplikator	x	Investitsiyalardagi o'zgarishlar
-------------------	---	---------------	---	----------------------------------

yoki $20=4 \times 5$

Multiplikator samarasiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- iste'molchilik sarflaridagi o'zgarish;
- davlat xarididagi o'zgarish;
- sof eksport hajmidagi o'zgarish.

Multiplikator samarasining mazmunini ikkita holat bilan izohlanadi.

Iqtisodiyotda bir subyekt tomonidan qilingan sarflar boshqasi uchun daromad shaklini oladi.

Daromaddagi har qanday o'zgarish iste'mol va jamg'armada ham xuddi shunday yo'nalishda o'zgarish bo'lishiga olib keladi.

Multiplikator samarasi mlrd so'm

(shartli ma'lumotlar)

20.1-jadval

Sikllar	SMM (daromad) dagi o'zga- rish	Iste'moldagi o'zgarish ($Io' = 3/4$)	Jamg'arma- dagi o'zgarish ($Jo' = 1/4$)
	1(2+3)	2(1-3)	3(1-2)
Investitsiyalarining o'zgarishi	5,0	37,5	1,25
2-sikl	3,75	2,81	0,94
3-sikl	2,81	2,11	0,70
4-sikl	2,11	1,58	0,58
5-sikl	1,58	1,19	0,39
qolgan sikllar	4,75	3,66	1,19
Jami:	20,0	15,0	5,0

Jadval ma'lumotlari investitsiyalarning 5 mlrd so'mga o'sishi, SMM hajmining 20 mlrd so'mga ko'payishiga olib kelishini ko'rsatadi.

$Io' + Jo' = 1$ bo'lgani uchun $Jo' = 1 - Io'$

Shunga mos ravishda:

$$\text{Multiplikator} = \frac{1}{1 - uy} = \frac{1}{1,0 - 0,75} = \frac{1}{0,25} = 4;$$

Investitsiyalar o'sishini daromadlar o'sishi bilan bog'laydigan ko'rsatkich akselerator koeffitsiyenti (Akoef) deyiladi. Akselerator (lot. Akselero-tezlashtiruvchi) koeffitsiyenti investitsiyalar (Ln) joriy yildagi o'sishining milliy daromadning o'tgan yildagi o'sishiga nisbati tarzida aniqlanadi, ya'ni

$$\text{Akoef} = \frac{\text{Ln (joriy yilda)}}{\text{MD (o'tgan yilda)}}$$

3. Investitsion resurslar bozorida muvozanatlik va foiz stavkasi hosil bo'lishi



Investitsion resurslar bozorida pul kapitaliga talab subyektii tadbirkorlar, taklif subyektii esa uy xo'jaliklari hisoblanadi. Mazkur bozorda tadbirkorlar "pulning sotib olish layoqati"ni qo'lga kiritadi, ya'ni pul yordamida talab qilinadigan kapital resurslar – uskunalar, material, energiya, ishchi kuchi, ya'ni tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun zarur barcha vositalarni xarid qilish


imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday ekan, pul kapitaliga talab – bu investitsion vositalarga talabdir.

Kapital taklifini shunday ma'noda tushunish zarurki, uy xo'jaliklari (korxonalar) o'z jamg'armalari hisobidan pul mablag'larini tavsiya qiladi, undan tadbirkorlar investitsion vositalarni sotib olish maqsadida foydalanadi. Bu jarayon vositachilar (investitsion fondlar, tijorat banklari) yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli, bozor xo'jaligi amaliyotida pul kapitaliga talab kreditga talab shakliga ega bo'ladi.

Foizning yuqori bo'lmagan normasida kreditga talab ortishi kuzatiladi. Qarz oluvchi uchun foiz normasi – xarajat sifatida chiqadi. U qanchalik past bo'lsa, mijozda qarz olishga moyillik shunchalik yuqori bo'ladi.

Foiz normasi yuqori bo'lganda esa pul kapitali egalarining qarz berishdan manfaatdorligi ortib boradi, uni unumli foydalanishga taqdim etadi. Ma'lum vaqtga qarz berilgan pul kapitali o'sgan qiymatda, foiz bilan qaytib keladi. Foiz normasi – bu pul kapitali egasiga uning mablag'idan ma'lum vaqt davomida foydalanganligi uchun to'lanadigan resurs narxi.



20.1-chizma. Pul kapitali bozorida muvozanatlik.

Bunda pul kapitalini taqdim qiluvchi subyektlar mohiyatan undan mustaqil muqobil foydalanishdan (o‘z shaxsiy biznesini tashkil qilib foyda olish, ko‘chmas mulk (yer) xarid qilib renta olish va boshqa nafliliklarga ega bo‘lishdan voz kechadi.

Iqtisodiy subyektlar xatti-harakatida bugungi ne‘mat kelgusida kutiladiganidan yuqori baholanadi. Bozor xo‘jaligida kishilar xatti-harakatidagi bu xususiyati “vaqtincha afzal ko‘rish” deb nom olgan.

Foiz normasini aniqlashda vaqt omili muhim rol o‘ynaydi. Pulni qarzga berish o‘z kapitalidan joriy foydalanishdan voz kechish va bu imkoniyatni boshqa subyektlarga berishdir. Shu sababli, bugun qarz olingan mablag‘lardan kim foydalansa, buning uchun kapital egasiga to‘lovni amalga oshirish zarur bo‘ladi.

$$\text{Foiz normasi (stavkasi)} = \frac{\text{Qarzga berilgan kapital hisobiga daromad}}{\text{Ssuda kapital miqdori}} * 100$$

Foiz stavkasi darajasi quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

kredit maqsadidagi pulga talab;

tahlika darajasi. Bunda, puldan joriy davrda foydalanish imkoniyati kechiktiriladi va shu orqali kelgusida mamlakatda siyosiy muhit, soliq qonunchiligi va boshqa sharoitlar o‘zgarish mumkinligi ko‘zda tutiladi;

qarz berish muddati;

qarz beriladigan pul miqdori;
kapital bozoridagi raqobat.

Investitsion loyihalar samaradorligini asoslash ikkita uslubga asoslanadi.

Kapitalga olingan daromad darajasini foiz stavkasi bilan taqqoslash.

Vaqt omili bilan bog'liq bo'lgan diskontlash. Investitsion loyihalarni amalga oshirishda (uskunalar sotib olish, yangi zavodlar qurish va h.k.) bugungi xarajat miqdori va bo'lg'usi pul summasining bugungi qiymatini aniqlash muhimdir.

Diskontlash formulasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$V_p = \frac{V_t}{(1+r)^t} \quad \text{bu yerda:}$$

V_p – bo'lg'usi pul summasining bugungi qiymati;

V_t – bugungi pul summasining kelgusidagi qiymati;

t – yillar soni;

r – foiz stavkasi.

Diskontlashni amalga oshirishda foizning nominal va real stavkasini farqlash muhim hisoblanadi. Nominal stavka joriy narxlarda, real stavka doimiy narxlarda hisoblanadi.

4. Investitsion siyosat va uning asosiy yo'nalishlari

Investitsion siyosat. Bu investitsion resurslarini shakllantirish, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish, uning samaradorligini oshirish, iqtisodiy o'sishga va milliy boylikni ko'paytirishni erishishni va uning ustuvor sohalarga yo'nalishini tanlash ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Mazkur siyosat investitsion faollikni oshirishga yoki kamaytirishga qaratiladi. Bu davlatning tarkibiy siyosati bilan bog'liq bo'lib ishlab chiqarishning yangi, eksportga yo'naltirilgan sohalarini o'stirib borishni anglatadi.

Investitsiya siyosatiga ko'ra yangi istiqbolli sohalarga investitsiya qilinganda foydadan soliq olinmaydi yoki ma'lum imtiyozlar ko'zda tutiladi.

Investitsiya siyosati texnika taraqqiyotini jadallashtirishga ham qaratiladi. Yangi texnologiyalarga mablag'ini investitsiya qilayotgan korxonalariga subsidiyalar ajratiladi, soliq imtiyozlar

beriladi. Katta investitsiya mablagʻlarni talab qiluvchi va oʻzini tezda oqlamaydigan sohalarni moliyalashtirishni davlat oʻz zimmasiga oladi.

Ayni vaqtda davlat xususiy investitsiyalarni umumdavlat ahamiyatiga molik sohalarga yuborilishini moliya-kredit vositalari bilan ragʻbatlantiradi.

Investitsion siyosat avvalo, qulay investitsion muhitni vujudga keltirishga qaratiladi. Investitsion muhit-investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmuidir. U asosan milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning samarali faoliyat qilishni taʼminlash maqsadida vujudga keltiriladi.

Respublika iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida davlat investitsiya siyosatining asosiy yoʻnalishlari sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

tarkibiy oʻzgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga;

transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga;

sanoatning yuqori texnologiyali qayta ishlovchi tarmoqlariga, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni jadallashtirishni taʼminlovchi tarmoqlarga;

qishloq xoʻjaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishga.

Bunda “istiqbolli investitsion loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish; yangi turlardagi sugʻurta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hisobiga ularning hajmini kengaytirish va sifatini oshirish”ga eʼtibor qaratiladi⁸⁵;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga; hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish koʻlamini kengaytirishga;

turizmning zamonaviy sohasini rivojlantirishga.

⁸⁵ 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha Harakatlar strategiyasi.

Investisiya qo'yilish shakliga qarab moliyaviy (portfel) va real (ishlab chiqarish) investitsiyaga bo'linadi. Moliyaviy (portfel) investitsiya — aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qo'yiladigan investitsiya; real investitsiya — moddiy ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqalar) sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzoq muddatli mablag'lar qo'yish shakllarida amalga oshiriladi.

Tayanch tushunchalar

Investitsiyalar – ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ni kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo'yilmalar.

Investitsion faoliyat – investitsiyalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha qilinadigan amaliy harakatlar.

Investor – investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs.

Investitsiyalar samaradorligi – milliy daromad (foyda) investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.

Muhokama uchun savollar

1. Investitsiyalar turlarini aytib bering.
2. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalariga tushuncha bering va milliy iqtisodiyotdagi ularning ulushini tavsiflab bering.
3. Investitsion kutilish nima?
4. Investitsiyalar darajasini belgilovchi omillarga tushuncha bering.

XXI bob. IQTISODIY O‘SISH VA MILLIY BOYLIK

- 1. Iqtisodiy o‘shning mazmuni, turlari va ko‘rsatkichlari.**
- 2. Iqtisodiy o‘shning omillari.**
- 3. Iqtisodiy o‘sh modellari. Iqtisodiy taraqqiyotda innovatsiyalarning o‘rni.**
- 4. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi.**
- 5. Milliy hisoblar tizimida milliy boylikni hisoblashning xususiyatlari.**

1. Iqtisodiy o‘shning mazmuni, turlari va ko‘rsatkichlari

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko‘p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq ko‘rinishida ro‘y bermaydi.

Har qanday jamiyatda o‘sh borayotgan ehtiyojlarni qondirish va farovonlikka erishish uchun iqtisodiy o‘sh yuz berishi kerak. Iqtisodiy o‘sh deganda iqtisodiy ravnaqni, ya’ni iqtisodiyotning dinamik rivojlanishini, yaratilgan tovarlar va xizmatlarning ko‘payib borishini tushunamiz. Shunday ekan iqtisodiy o‘sh milliy iqtisodiyot, ya’ni muayyan mamlakat miqyosidagi iqtisodiy taraqqiyotni ifoda etadi va yalpi ichki mahsulotning (YaIM) ko‘payishini bildiradi. YaIM hajmining ortishi iqtisodiy o‘shning umumlashgan pulda ifodalangan ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiy rivojlanish o‘z ichiga siklning yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o‘zgarishlarni, ijobiy va salbiy natijalarni olib notekis boradi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo‘lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo‘lgan iqtisodiy o‘sh ko‘proq tahlil qilinadi.

«Iqtisodiy o‘sh» tushunchasi dastlab fransuz iqtisodchisi S.B.Sey (1767-1832) va nemis iqtisodchisi I. G. fon Tyunen (1783-1850) asarlarida tadqiq qilingan bo‘lsa, keyinchalik mazkur tushun-

chaning mazmunini yoritib berishga amerikalik iqtisodchi B. Klark (1847-1938) va ingliz iqtisodchisi U.Jevons salmoqli hissa qoʻshgan.

Iqtisodiy oʻsish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi boʻlib, oʻz ifodasini real YaIM hajmi va uning aholi jon boshi hamda sarflangan resurs birligiga koʻpayishida topadi. Shuni aniq tasavvur qilish kerakki, mahsulotlar va xizmatlar gʻoyat xilma-xil oʻlchamli boʻlganligidan ularning yagona jismoniy oʻlchami mavjud boʻlmaydi. Yagona oʻlcham vazifasini bozor narxi bajaradi. Qanday ish bajarilmasin yoki mahsulot yaratilmasin, uning hajmi muayyan miqdordagi pulga teng deb hisoblanadi.

Iqtisodiy oʻsish esa, YaMMning real hajmi bilan aniqlanadi. Uning qiymat – pul shaklidagi real hajmi doimiy narxlarda yoki qatʼiy valutalar hisoblanadi. Chunki joriy narxlarda YaMMning moddiy hajmi oʻsmasa-da, inflatsiya taʼsirida, uning qiymat miqdori ortib ketadi. Iqtisodiy oʻsishga davriy jihatdan yondashilganda, u bir




xil suratlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy oʻsish surʼatlarining jadal-lashish, jiddiy pasayish va hatto cheklanish davrlari maʼlum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan boʻlsa, jahon yoki milliy davlatlar iqtisodiyotida, barqaror iqtisodiy oʻsish, ishlab chiqarishning har

tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil boʻladi. Shu bilan birga iqtisodiy oʻsish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat oʻzgarishlari shaklida ham namoyon boʻladi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.Karimov taʼkidlab oʻtganlaridek: «Iqtisodiy rivojlanish surʼatlari haqida gapirganda... uning mezonlariga va eng avvalo, sifat koʻrsatkichlariga koʻproq eʼtibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday oʻsishlar iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy oʻzgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi,

xalqimizning hayot darajasini yuksaltirishga, bir soʻz bilan aytganda, amaliy hayotimizni yaxshilashga olib kelishi lozim»⁸⁶.

Shunday ekan iqtisodiy oʻsish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs sarflari birligi hisobiga koʻpayishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

Respublikamizda 2004-yildan boshlab barqaror iqtisodiy oʻsish surʼatlariga erishildi, soʻnggi yillarda 8,0 foizdan ziyod barqaror iqtisodiy oʻsish surʼatlari saqlanib qolmoqda.



YaIM qoʻshimcha oʻsish surʼatlari

Biroq respublikamizda “iqtisodiyot oʻsishining yuqori surʼatlari va investitsiya resurslariga oʻsib borayotgan talabni qanoatlantirish bir-biriga muvofiq emas”⁸⁷. Faqat avtomobilsozlik sanoatida ishlab chiqarish hajmi keyingi uch yilda 2,8 barobar kamaygan. Bu nafaqat sanoat mahsuloti oʻsish surʼatiga, balki mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti oʻsishiga ham jiddiy taʼsir koʻrsatmoqda. Bu sohada import hajmi eksportdan bir necha barobar yuqori boʻlib,

⁸⁶ Каримов И.А. “Ватан равнаки учун ҳар биримиз масулмиз” “Халқ сўзи ” 2001 йил 17 феврал №37.

⁸⁷ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. T.: «Oʻzbekiston», 2017. 14-yanvar. 33-bet.

mahalliyashtirish darajasi esa importga nisbatan 20 foizdan ham past bo‘lib qolmoqda⁸⁸.

Mahsulotning o‘shish sur‘ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o‘zgarishi o‘rtasidagi nisbiy bog‘liqlik iqtisodiy o‘shishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o‘shishga ishlab chiqarishning oldingi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko‘paytirish uchun mavjud korxonalar bilan bir qatorda o‘rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni hamda malaka tarkibi bo‘yicha xuddi o‘shanday yana bir korxonalar quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o‘zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o‘shishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo‘llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan yaxshiroq foydalanish yo‘li bilan erishiladi. Intensiv yo‘l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan

samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o‘shishida, mahsulot sifatining oshishida o‘z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirishga, ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.



⁸⁸ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: «O‘zbekiston», 2017. 14-yanvar. 13-bet

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda emas, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli, uni baholash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida jismoniy va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi.

Iqtisodiy o'sishning jismoniy ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflatsiya ta'siriga berilmaydi), lekin universal emas (iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashda har xil ne'matlar ishlab chiqarishni umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin). Qiymat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo har doim ham uni inflatsiyadan to'liq «tozalash» mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli, iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki doimiy narxlarda hisoblanadi.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy qiymat ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

YaIM yoki milliy daromadning mutlaq hajmining o'sish sur'ati;

YaIM yoki milliy daromadning aholi jon boshi hisobiga to'g'ri keladigan miqdorining o'sish sur'ati;

YaIM (IMM) yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga to'g'ri keladigan miqdorining o'sish sur'ati;

Iqtisodiy o'sishni aniqlashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha.

Masalan: agar tahlil markazida iqtisodiy salohiyat muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan foydalanish ko'proq mos keladi. Alohida mamlakat va regionlardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustuvorlik beriladi.

Odatda iqtisodiy o'sish % (foiz) da o'sishning yillik sur'ati sifatida aniqlanadi. Masalan, agar o'tgan yili real YaIM 600 mlrd. so'mni va joriy yilda 700 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'sish sur'atini joriy yildagi real YaIM ning bazis davrdagi hajmiga bo'lish

yo'li bilan aniqlash mumkin. Bu holda o'sish sur'ati 116,6% ni $(700/600 \cdot 100)$ tashkil qiladi.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar (real YaIM, aholi jon boshiga va iqtisodiy resurs birligiga real YaIMning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular:

– birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy holatini to'liq tavsiflab berolmaydi;

– ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi;

– uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi. Shu sababli, tahlilda iqtisodiy o'sishning shart-sharoitlari va alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, iqtisodiy resurslar unumdorligi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi, ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda miqdorining oshishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- a) ishlab chiqarish vositalari va texnologiyaning rivojlanish darajasi;
- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;
- d) ishlab chiqarishning moddiy va inson omillari nisbati;
- e) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan

boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi o'zgarishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YaIM ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. YaIMda industrial va qayta ishlovchi sanoat



tarmoqlari ulushining ortib borishi nafaqat uning miqdoran o'sib borishi, balki sifat jihatdan yaxshilanayotganini ham anglatadi.

Aholi shaxsiy daromadi va tadbirkorlik sektori foyda miqdori mutlaq hamda nisbiy ko'rsatkichlarda ortib borishi ham iqtisodiy o'sish sur'ati va sifati to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Iqtisodiy resurs va texnikaviy vositalar birligi unumdorligi ortishi iqtisodiy o'sishning jismoniy ko'rsatkichlari jumlasiga kiradi. Jumladan, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligi ortishi, bir kombayn hisobiga yig'ib olingan g'alla yoki paxta hosili miqdori o'sishi, to'quv dastgohi birligiga ishlab chiqarilgan material miqdorining ko'payib borishi shular jumlasidandir.

2. Iqtisodiy o'sishning omillari

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartlilik asosida ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning jismoniy o'sish layoqatini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataladi. Bu omillar quyidagilar:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) mehnat resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida amalga oshirilayotgan «tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda»⁸⁹.

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan samarali foydalanishda ularni kerakli mahsulotning mutlaq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi.

⁸⁹ Каримов И.А. Иқтисодийотни эркинлаштириш ва ислохотларни чуқурлаштириш – энг муҳим вазифамиз. “Халқ сўзи” 2000-йил, 15-феврал.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi, taklif va taqsimlash omillari o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o'sishi va sifatining yaxshilanishi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash bunday o'sishni ro'yobga chiqaradi.

Iqtisodiy o'sishga talab omillari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Iste'mol tovarlari, xizmatlar yoki investitsion tovarlarga talabning ortishi ularni ishlab chiqarishni rag'batlantirib, pirovardida iqtisodiy o'sishga




olib keladi. Shunday ekan talab omillari iqtisodiy o'sishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy o'sishda resurslarni taqsimlash va talab omillari o'z o'rniga ega bo'lsa-da, bu muammoni tahlil qilishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur. Shu sababli, mehnat unumdorligining o'sishiga olib keluvchi taklif omillarini to'laroq qarab chiqamiz.

Fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti o'z ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi. Umuman aytganda, fan-texnika taraqqiyoti deyilganda provard mahsulot chiqarishni ko'paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg'unlashtirishni taqozo qiluvchi yangi usullarning topilishi ham tushuniladi. Amaliyotda texnika taraqqiyoti va (investitsion) sarflar o'zaro bog'liq, texnika taraqqiyoti ko'pincha yangi mashina va uskunalarga investitsiyalar qo'yishga olib keladi. Masalan, atom energiyasidan foydalanish bo'yicha texnologiyani qo'llash uchun atom elektrostansiyalarini

qurish zarur bo‘ladi. Birinchi qarashda texnika taraqqiyoti tarixiy va shiddatli ro‘y berish xarakteriga ega bo‘ladi. Gaz va yoqilg‘i dvigatellari, konveyer va yig‘ma liniyalar bizning hayotga o‘tmishning eng muhim yutuqlari sifatida kirib keldi.

Mahsulotning real hajmi ikki asosiy usulda ko‘paytirilishi mumkin: Resurslarning ko‘proq hajmini jalb etilishi va ulardan ancha unumli foydalanish yo‘li bilan.



21.1-chizma. Real mahsulot o‘rishini aniqlab beruvchi omillar.


Respublika oldida texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo‘llash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi.

Mehnat unumdorligining o‘rishini aniqlab beruvchi muhim omil har bir ishlovchiga to‘g‘ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma‘lum vaqt ichida, kapitalning hajmi mutlaq ko‘payishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq o‘ssa, mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir xodimning asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi.

Ta‘lim va malakali tayyorgarlik, mehnat unumdorligini oshiradi va natijada ancha yuqori ish haqiga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qo‘yish mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O‘z-o‘zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko‘rsatkichi ta‘lim darajasi hisoblanadi. Hozirgi davrda respublikamiz iqtisodiyotida band bo‘lganlarning 30% ga yaqini oliy va o‘rta maxsus ta‘limga ega. Lekin oliy va yoki o‘rta maxsus ta‘limga ega bo‘lganlar, aniq sohalardagi ko‘nikmalari darajasi bo‘yicha boshqa rivojlangan mamlakatlardagilardan

birmuncha orqada va ko'pchiligi ta'lim olgan sohasi bo'yicha faoliyat turida band emas. Shu sababli, keyingi yillarda respublikamiz ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya berishning progressiv tizimlari joriy qilinmoqda. Shu orqali kadrlar tayyorlashning milliy dasturida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ijobiy natijalarga erishib boriladi. Iqtisodiy o'sish mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari darajasiga ham bog'liq.

Tabiiy, mehnat resurslari va asosiy kaptalning mavjud darajasida ishlab chiqariladigan turli-tuman mahsulotlar miqdorining o'zgarishini ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ida ifodalash mumkin.



AQSHlik iqtisodchi E.Denison har xil (ekstensiv va intensiv) omillarning iqtisodiy o'sishga miqdoriy ta'sirini aniqlashga harakat qiladi.

AQSH real milliy daromadi o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar (1929-1982yy.)

21.1-jadval

Iqtisodiy o'sish omillari	Har bir omil salmog'i (%)
1. Mehnat xarajatlarining ortishi	32
2. Unumdorlikning o'sishi	68
3. Texnika taraqqiyoti	28
4. Kapital xarajatlari	19
5. Ta'lim va professional tayyorgarlik	14
6. Ishlab chiqarish miqyosi taqozo qiladigan tejash	9
7. Resurslarni taqsimlashning yaxshilanishi	8

8. Qonunchilik – muassaviy va boshqa omillar	-9
Jami	100

Amaliy hayotda iqtisodiy o‘shni to‘xtatib turuvchi omillar ham mavjud bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘shni sekinlashtiruvchi asosiy omillar quyidagilar:

mehnat muhofazasi;

atrof-muhitning ifloslanishi;

ekologik muammolar;

ishlovchilar mehnat sharoitini yaxshilash;

xodimlarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish;

tabiiy ofatlar va favqulodda ro‘y beradigan iqtisodiy-siyosiy o‘zgarishlar.

Keyingi yillarda Respublikada davlat tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tartibga solishda muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘z navbatida iqtisodiy o‘sh sur‘atiga so‘zsiz salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki bunday tadbirlarni amalga oshirish tegishli xarajatlarni taqozo qiladi. Shu orqali mehnat unumdorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar boshqa tomonga jalb qilinadi.

3. Iqtisodiy o‘sh modellari. Iqtisodiy taraqqiyotda innovatsiyalarning o‘rni



Iqtisodiy o‘shning barcha modellari «ishlab chiqarish funksiyasi» kabi mahsulot chiqarish hajmi va sarf qilingan iqtisodiy resurslar miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Shundan kelib chiqib, iqtisodiy o‘shning ko‘pchilik modellarida ishlab chiqarish

real hajmining ko‘payishi ishlab chiqarish asosiy omillari – mehnat (L) va kapital (K) miqdorining o‘zgarishi bilan bog‘lanadi.

Yalpi talab, yalpi taklif modeli

E.Domar modeli - Bu model mehnat bozorida ortiqcha taklif mavjud bo'lishi, narx darajasining doimiy taqozo qilishini va mahsulot chiqarish hajmi faqat yagona resurs – kapital miqdoriga bog'liq bo'lishini ko'rsatadi. Unga ko'ra investitsiyalarning o'sish sur'ati iqtisodiyotda talab va taklif ko'payishining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

R.F.Xarrod modeli – bu modelga «tabiiy» o'sish sur'ati tushunchasi kiritiladi. Bu faol aholi soni ko'payishi va texnika taraqqiyoti natijasida kelib chiqadigan o'sish sur'ati bo'lib, u mehnat va kapital omillarining to'liq bandligini ta'minlaydi.

R.Solou modelida – ishlab chiqarish omillarining o'zaro o'rnini bosish mumkinligi hisobga olinadi. Bu modelda iqtisodiy tahlilning asosiy shart-sharoitlari: kapital keyingi unumdorligining pasayib borishi, ishlab chiqarish miqyosidan olinadigan samara va kapital xizmat qilish davrining doimiylik kabilar hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv iqtisodiy o'sish va umuman iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili innovatsiyalar hisoblanib, u YaIMning miqdoriy ortishi va sifatining yaxshilanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiya so'zi (lotincha -innovationem) mazmunan “o'zgartirish” yoki “zamonaviylashtirish” degan ma'noni anglatib, bir tomondan ishlab chiqarish jarayonini boshqa tomondan uning pirovard natijasi hisoblangan mahsulotning yangilanishini bildiradi.

Avstriya iqtisodchisi I.Shumpeter innovatsiya tushunchasini ilmiy atamashunoslikka kiritib, unga “beshta odatiy o'zgarish” sifatida tavsif beradi. Bular:

- yangi mahsulotni joriy qilish;
- ishlab chiqarishning yangi usullarini qo'llash;
- yangi bozorlarning ochilishi;
- xomashyo va yarim fabrikatlar yangi manbalari topilishi;
- ishlab chiqarishni tashkil qilishdagi yangi o'zgarishlar.

Shunday ekan innovatsiya, Y.Shumpeter fikricha, ishlab chiqarish sharoitlarini yangicha uyg'unlashtirish.



Xalqaro standartlarga ko‘ra innovatsiya, innovatsion faoliyatning natijasi sifatida aniqlanadi.

Aytilgan yondashuvlarni umumlashtirib innovatsiyani quyidagi tarkibda qayd qilish mumkin:

innovatsiya – yangi mahsulot va xizmat;

innovatsiya – ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi usullari va yangi texnologik jarayonlar.

Innovatsion jarayon – innovatsiyalarning yaratilishi, o‘zlashtirilishi va tarqalish jarayonlaridir. Boshqacha aytganda, innovatsion jarayon – bu milliy bilimlarning innovatsiyalarga asoslanib borishining uzluksiz amalga oshadigan jarayoni.

Innovatsion jarayon o‘z ichiga har doim ikki bosqichni qamrab oladi:

Yangi mahsulotning ishlab chiqarishga tayyor bo‘lgan andozasi yaratilish jarayoni;

O‘zlashtirish, ishlab chiqarish va tarqatilish jarayoni. Buning natijasida yaratilgan mahsulot innovatsiyaga aylanadi.

Innovatsiyalar bir qator mezonlar asosida turkumlanadi. Bular: yangilikning darajasi, bozorga ta‘sir ko‘rsatishi, texnik o‘lchamlari, tarqalish sohasi, qamrab olish ko‘lami, bozordagi mavqei va h.k.

Jumladan, yangilikning darajasiga ko‘ra erali, bazisli (radikal), yaxshilanib boruvchi innovatsiyalar farqlanadi. Erali innovatsiyalarga dehqonchilik va chorvachilikning o‘zlashtirilishi, yozuvning kashf qilinishi, o‘z qurollari va termoyadro qurollar kashf etilishi, davlatlarning qaror topishi va boshqa shu kabilarni kiritish mumkin. Bazisli innovatsiya natijasida jarayon, mahsulot yoki xizmatlarda shunday katta o‘zgarish kashf qilinadiki, bu mavjud tarmoq yoki bozorning butunlay transformatsiyalashuviga olib keladi. Bunga internet tufayli elektron biznes sohasining paydo bo‘lishini misol qilib keltirish mumkin.

Yaxshilanib boruvchi innovatsiyalar sezilarsiz, noinqilobiy o‘zgarishlarni ifodalaydi va ancha qisqa hayot shakliga ega bo‘ladi.

Innovatsiyalar paydo bo‘lishining muhim shart-sharoiti innovatsion muhit hisoblanadi. Innovatsion muhit innovatsion g‘oyalarning tug‘ilishi va amalga oshirilishi uchun qulay sharoit yaratadi. Innovatsion muhit innovatsion potensial mavjud bo‘lganda qaror

topadi. Innovatsion potensial turli xil resurslar (intellektual, moddiy “moliyaviy, infratuzilmaviy”) ning yaxlitligini tavsiflaydi.

Milliy innovatsion tizim (MIT) – milliy hudud doirasida ilmiy bilim va texnologiyalarni yaratish, ro‘yobga chiqarish va tijoratlash-tirishga xizmat qiluvchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tuzilmalar majmuasidir.

MIT o‘ziga ikki tarkibiy bo‘linmani qamrab oladi: ilmiy ishlab chiqarish va institusional. O‘z navbatida ilmiy ishlab chiqarish tizimi a) fan va ta’lim; b) tadbirkorlik sektori; d) innovatsion infratuzilmadan iborat bo‘ladi. Institusional muhit davlatning fan-texnika sohasidagi faoliyatini va innovatsion siyosatini ta’minlaydi.

Innovatsion infratuzilma ishlab chiqarish – texnologik, moliyaviy va eksport-konsalting tuzilmalardan iborat bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish – texnologik infratuzilma;
texnoparklar;
innovatsion – texnologik markazlar;
biznes inkubatorlar;
texnologiyalar transferi markazlari;
innovatsion –sanoat klasterlari;
maxsus iqtisodiy zonalar;
moliyaviy infratuzilma;
turli tipdagi fondlar (budjet, venchur, sug‘urta, investitsion);
xususiy investorlar;
fond bozorlari;
eksport – konsalting infratuzilma;
konsalting markazlari (moliya, investitsiya, marketing, boshqaruv va h.k.);
xizmat ko‘rsatish bo‘yicha muassasalar (intellektual mulk, standartlashtirish, sertifikatlash);
axborot – analitik markazlar, internet resurslar.

Innovatsion jarayonlarning jadalligi va samaradorligi davlatning innovatsion siyosatiga bog‘liq. Davlatning bu siyosati asosan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

milliy mahsulot raqobatbardoshligini ta’minlaydigan innovatsion faoliyatni kuchaytirishi;

zamonaviy texnologiyalar asosidagi innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash;

yangi mahsulotlar va ilg‘or texnikaviy ishlanmalarga yo‘naltilgan ilmiy tadqiqot va konstruktorlik loyihalarni moliyalashtirish;

davlat tomonidan tartibga solishni bozor innovatsion mexanizm samarali amal qilishi va intellektual mulkni himoyalash bilan qo‘shib olib borish;

innovatsiyalar asosida rivojlanishning qonunchilik va axborot bazasini yaratishni kengaytirish;

texnologiyalarning jahon bozoriga transfertida xalqaro innovatsion hamkorlik va milliy innovatsion tadbirkorlikni himoya qilishga

Davlatning amalga oshiradigan maqsadli innovatsion siyosati natijasida respublikada 2020-yilda yuqori texnologik tarmoqlar mahsuloti 31%ga o‘sib, yalpi ichki mahsulotda innovatsion mahsulotlar ulushi 22% gacha ortishi zarur⁹⁰.

4. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi

Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg‘arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir.

Milliy boylikning bir qismi inson mehnatining natijasi hisob-lansa, boshqa qismi tabiat boyliklaridan iborat bo‘ladi. Shunday ekan milliy boylik keng ma‘noda o‘z ichiga nafaqat moddiy va nomoddiy ne‘matlar, yaratilgan san‘at asarlari, intellektual salohiyatni, balki barcha tabiat resurslari va boyliklari hamda takror ishlab chiqarishning tabiiy iqlim sharoitlarini ham oladi. Milliy boylikning bu barcha tarkibiy qismlarini miqdoran, qiymat o‘lchovlarida hisoblab chiqish bir qator obyektiv sabablarga ko‘ra ancha qiyin, jumladan uning tabiat in‘omlaridan iborat qismi ishlab chiqarishning natijasi hisoblanmaydi va qiymat o‘lchovlariga ega emas. Shu sababli, iqtisodiy tahlil amaliyotida milliy boylikning tor ma‘nodagi tushunchasidan foydalaniladi. Tor ma‘noda milliy boylik insoniyat mehnati bilan yaratilgan va takror ishlab chiqarilishi

⁹⁰ Концепция инновационного развития Республики Узбекистан за 2012-2020 г. Т.: 2011. Стр 12.

mumkin bo'lgan barcha moddiy boyliklardan iborat bo'ladi. Milliy boylikning bu qismi milliy iqtisodiyot rivojining butun tarixi davomida doimiy takrorlanib turuvchi ishlab chiqarish jarayonining umumiy natijasi sifatida chiqadi va moddiy buyumlashgan shaklda namoyon bo'ladi. U kishilarning ko'plab avlodi mehnati natijasi hisoblanadi.

Aytilganlardan kelib chiqib, milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Moddiy buyumlashgan boylik.
2. Nomoddiy boylik.
3. Tabiiy boylik.

Moddiy buyumlashgan boylik oxiri oqibatda ishlab chiqarishning, natijasi hisoblanadi. U ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulotlarning joriy iste'mol qilishdan ortiqcha qismini jamg'arish oqibatida vujudga keladi va o'sib boradi.

Ammo moddiy buyumlashgan boylikni qator yillardagi yillik yalpi mahsulotlar yig'indisi sifatida tasavvur qilish noto'g'ri bo'lur edi. Chunki bu boylikning bir qismi har yili iste'mol qilinib, qaytadan yangilanib turadi (ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari). Shu sababli, ishlab chiqarish vositalarining o'rnini qoplash bilan bir vaqtda yalpi mahsulotning faqat bir qismi moddiy buyumlashgan boylik sifatida jamg'arilib boriladi. Demak, qoplash fondi va moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan moddiy qismi qiymat shakliga ega bo'lib, qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

– ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy kapital. Bular butun milliy boylikning tarkibida ancha katta salmoqqa ega bo'ladi hamda o'zining texnikaviy darajasi bo'yicha yalpi milliy mahsulotning o'sish imkoniyatini belgilab beradi;

– noishlab chiqarish tavsifidagi asosiy kapital. Asosiy kapitalning bu turiga mamlakatning uy-joy fondi, ijtimoiy madaniy tavsifdagi obyektlar kiradi;

– aylanma kapital. Milliy boylikning bu qismi mehnat predmetlaridan iborat bo'lib, asosiy kapitalning taxminan 1/4 qismini tashkil qiladi;

– tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan qismi. Ular ishlab chiqarish bosqichida mehnat jarayoni ta'siri ostida bo'lib, potensial pirovard mahsulot hisoblanadi;

– moddiy zaxiralar va ehtiyotlar. Bunga tayyor mahsulot, korxonalar va savdo tarmoqlaridagi moddiy zaxiralar, davlat ehtiyotlari va rezerv fondlari kiradi. Moddiy zaxiralar iqtisodiyotda ro'y berishi mumkin bo'lgan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulodda holatlardan kafolatlanish maqsadida ushlab turiladi.

Davlat ehtiyotlariga oltin zaxiralari, sug'urta va mudofaa ehtiyotlari uchun zarur zaxiralar kiradi.

– aholining uy, tomorqa va yordamchi xo'jaligida jamg'arilgan mol-mulk. Bunga uy-joy, avtomobil, madaniy-maishiy buyumlar, kiyim-kechaklar va shu kabilarning qiymati kiradi.

Moddiy buyumlashgan boylik tarkibiy qismlarining mazmuni va ularning salmog'i o'zgarishsiz qolmaydi. Asosan fan-texnika taraqqiyoti sharoitida moddiy, buyumlashgan boylik tarkibida yirik o'zgarishlar ro'y beradi. Sanoat tarmoqlarining asosiy kapitali tez ko'payadi va yangilanadi, noishlab chiqarish sohasining asosiy kapitali tarkibida ilmiy, o'quv, sog'liqni saqlash muassasalarining ulushi tobora ko'proq hissasini egallaydi. Tabiiy resurslarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish suratlari o'sib boradi.

Moddiy buyumlashgan boylik o'sishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mehnat unumdorligining o'sishi;
- ishlab chiqarish samaradorligining ortishi;
- milliy daromadga jamg'arish normasining ortishi.

Moddiy buyumlashgan boylik nafaqat ishlab chiqarishning natijasi, balki uning shart-sharoiti hamdir. Buning ma'nosi shuki, bir tomondan mahsulotdan milliy boylik tomon harakatda boylikning iste'mol qilingan qismining qoplanishi va uning ko'payishi ro'y beradi. Boshqa tomondan milliy boylik ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoiti, uning moddiy texnikaviy asosi hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati va miqyosi milliy boylikdan foydalanish xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Moddiy buyumlashgan boylikni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish farqlansa-da, har ikkalasi ham yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning boshqa qismi tabiiy boyliklar ishlab chiqarishning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladi. Tabiiy boylikning vujudga kelishi insoniyat jamiyat rivojiga bogʻliq emas, u tabiat qonunlari asosida roʻy beradi. Foydali qazilma boyliklar, oʻrmonlar, suv va yer resurslari xuddi shunday vujudga kelib ishlab chiqarishdan tashqarida turadi.

Tabiat inʼomlari oʻzining dastlabki koʻrinishida tabiiy boylik boʻlib, shu holatda inson faoliyatining natijasi hisoblangan milliy boylik tarkibiga kirmaydi. Buning maʼnosi shuki, tabiiy boyliklar jamiyat uchun faqatgina potensial boylik hisoblanadi. Ular real boylikka inson mehnatining taʼsiri oqibatida aylanadi.

Milliy boylik nafaqat ishlab chiqarish sohalarida yaratiladi, uning bir qismi xizmat koʻrsatish sohalarida vujudga keltiriladi va jamiyatning nomoddiy boyligi hisoblanadi. Mazkur sohalarida ashyoviy buyum shakl bilan bogʻliq boʻlmagan alohida turdagi isteʼmol qiymatlar hosil qilinadi. Ular ham ishlab chiqarish sohalarining faoliyat qilishi va rivojlanishi uchun shuningdek bevosita aholining turmush darajasini taʼminlash va oshirib borish uchun zarur boʻladi. Bunday boyliklarga taʼlim, sogʻliqni saqlash, fan, madaniyat, sanʼat, sport sohalarida vujudga keltiriladigan nomoddiy qimmatliklar kiradi. Uning tarkibida tarixiy yodgorliklar, arxitektura obidalari, noyob adabiyot va sanʼat asarlari alohida oʻrin tutadi.

Jamiyatning nomoddiy boyliklarida madaniyat va sanʼatning rivojlanish darajasi, jamiyat aʼzolarining toʻplagan ilmiy bilimlari va intellektual darajasi, ishlovchilarning ixtisosligi va malakaviy bilim darajasi, sogʻliqni saqlash, taʼlim va sportning rivojlanish darajasi oʻz ifodasini topadi.

Moddiy buyumlashgan boylikning oʻsishi jamiyat moddiy qimmatliklari koʻpayishining asosi hisoblanadi. Agar fan-texnika taraqqiyoti yuqori surʼatlar bilan rivojlansa madaniyat, sanʼat, fan kabi sohalar ham oʻsib va takomillashib boradi. Shunday qilib, milliy boylik moddiy buyumlashgan va tabiiy boyliklardan ancha keng tushuncha boʻlib, oʻz tarkibiga jamiyatning nomoddiy xarakterdagi qimmatliklarini ham oladi.

5. Milliy hisoblar tizimida milliy boylikni hisoblashning xususiyatlari

Milliy hisoblar tizimi (MHT) bo'yicha milliy boylik barcha majburiyatlar chiqarib tashlangan aktivlar qiymati summasi sifatida aniqlanadi. Aktivlar miqdorlarga egalik qilish yoki foydalanish natijasida iqtisodiy naf keltiruvchi mavjud jamg'arilgan qiymatlardir. U monopoliyaviy va moliyaviy aktivlarga ajratiladi. Moliyaviy aktivlar bu kreditorlarning debitorlarga moliyaviy talablari sifatida chiqadi, uning vujudga kelishi debitorlarda tegishli majburiyatlar paydo bo'lganligini anglatadi.

Bu ma'lumotlar hisoblarning ikki turi: aktiv va passiv balansi hamda aktivlar hisobida aks etadi. Aktivlar va passivlar balansida aktivlar va majburiyatlarning barcha turlari ko'rsatilib, ular asosida milliy boylik aniqlanadi.

Aktivlar va passivlar balansi

Aktivlar	Majburiyatlar va kapital sof qiymati
Nomoliyaviy aktivlar	Majburiyatlar
Moliyaviy aktivlar	Kapital sof qiymati
$1+2-3=4$	

Aktivlar hisobi iqtisodiyot barcha subyektlarida mavjud bo'lgan aktivlarning har bir alohida turlari uchun tuziladi. Aktivlar va passivlar balansi ham vaqtning ma'lum davri (yil boshi va oxiri)da alohida sektorlar va butun iqtisodiyot uchun tuziladi.

Iqtisodiyotning har bir sektori uchun barcha aktivlar qiymati va barcha majburiyatlar o'rtasidagi farq – kapitalning sof qiymatini hosil qiladi. Bu miqdor butun iqtisodiyot uchun milliy boylik sifatida chiqadi. Boshqacha aytganda, u iqtisodiyot barcha sektorlari sof kapitallari summasiga teng keladi. Iqtisodiyot rezidentlarining o'zaro moliyaviy talablari ulardan biri uchun moliyaviy aktivlar, boshqasi uchun majburiyatlar hisoblanishi sababli, ular bir-birini qoplaydi, milliy boylik esa nomoliyaviy aktivlar va kapital sof qiymati umumiy summasi sifatida aniqlanadi.

Yil boshi va oxirida aktivlar va passivlar balansi hamda jamg'armalar hisobi o'zaro bir-biri bilan bog'lanadi.

Aktivlar hisobida zaxiralar va oqimlar o'zaro bog'liqligi

Zaxiralar va oqimlar ko'rsatkichi	MHTdagi hisoblar
Davr boshida aktivlar qiymati	Aktiv va passivlarning dastlabki balansi
Sotib olingan aktivlarning sof qiymati (kirim-chiqim)	Kapital bilan operatsiyalar hisobi (nomoliyaviy aktivlar) moliyaviy hisob (moliyaviy aktivlar)
Aktivlar hajmida boshqa o'zgarishlar qiymati	Aktivlar hajmida boshqa o'zgarishlar hisobi
Narx o'zgarishi natijasida aktivlar qiymatining o'zgarishi	Qayta baholashlar hisobi
Davr oxirida aktivlar qiymati $(1+2+3+4)=5$	Aktivlar va passivlarning davr oxiridagi balansi

Majburiyatlarga nisbatan ham xuddi shunday tartib amal qiladi. Shunday qilib, MHT aktivlar va majburiyatlar qiymatidagi o'zgarishlarni qayd qilishni ko'zda tutadi ayni vaqtda bu o'zgarishlar iqtisodiyot sektorlaridagi kapital qiymatida va butun milliy boylikda qanday tarkibiy qismlar hamda qaysi omillar hisobiga ro'y berganligini tahlil qilish imkonini beradi.

MHTda barcha aktivlar va majburiyatlarni baholashda joriy bozor narxlaridan foydalaniladi. Asosiy kapital qiymatini MHTda aks ettirishda qayta tiklash qiymatini aniqlash usuli ham qo'llaniladi. Yana bir usul aktivlardan foydalanishdan kutilayotgan bo'lg'usi daromadlar tushumining haqiqiy (diskontlashgan) qiymatini aniqlash hisoblanadi.

Chet el valutalarida qayd qilingan aktivlar va majburiyatlar bozor ayriboshlash kursi bo'yicha milliy pul birligida baholanishi zarur.

MHTda nomoliyaviy aktivlar ikki turga ajratiladi: ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarilmagan aktivlar. Ishlab chiqarilgan aktivlarga asosiy kapital, moddiy aylanma vositalar va qimmatliklar kiritiladi⁹¹.

Ishlab chiqarilmaydigan aktivlar uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: tabiiy resurslar; ijara va litsenziya shartnomalari; xarid qilingan gudvill⁹² va marketing aktivlari⁹³.

MHTda moliyaviy aktivlar va majburiyatlar sifatida quyidagilar hisobga olinadi:

- monetar oltin va qarz olishning maxsus huquqi;
- naqd valutalar va o'tkazilgan depozitlar;
- qarzli qiymatli qog'ozlar va ssudalar;
- aksionerlik kapitali va investitsion fondlar aksiyalari;
- sug'urta, pensiya ta'minoti va standartlashtirilgan kafolatlar dasturlari;
- boshqa debitorlik va kreditorlik qarzdorlik (tovarlarni yetkazib berish bilan bog'liq tijorat kreditlari, soliqlar, dividend, ish haqi to'lash, qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish bilan bog'liq qarzdorlik).

Tayanch tushunchalar

Iqtisodiy rivojlanish – ko'p o'lchamli jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy o'sish – YaMM (YaIM, SMM, MD) miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi.

⁹¹ Asosiy kapital qiymatida quyidagilar ham aks etadi: yerlarni yaxshilashga xarajatlar, harbiy qurollar; madaniylashtirilgan biologik resurslar; ishlab chiqarilmagan aktivlarga mulkchilik huquqini boshqaga berish bilan bog'liq xarajatlar; intellektual mulk mahsulotlari; ilmiy tadqiqot va ishlanmalar qiymati; foydali qazilmalarni qidirish va baholash xarajatlari; ko'ngilochar, ilmiy va badiiy asarlar asl nusxalari. moddiy aylanma vositalar: xomashyo va materiallar zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati, tayyor mahsulotlar, qayta sotishga mo'ljallangan tovarlar va xarbiy maqsadda ishlatiladigan materiallar zaxirasi. qimmatliklar: qimmatbaho metallar va toshlar, zargarlik buyumlari, san'at asarlari va h.k.

⁹² Institutsional birlik (ishchi kuchi, boshqarish, korporativ madaniyat, mahsulotni tarqatish tizimi)lar kapitallari sof qiymatidan sotish qiymati oshib ketishini ifodalaydi. Ular alohida qiymatga ega bo'lmasada, birgalikda aktivlar birligi qiymatini ko'paytiradi;

⁹³ Marketing aktivlari-brendlar savdo markalari logotiplar qiymatini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy o‘shish mezonini – iqtisodiy o‘shishni nisbatan to‘liq darajada baholash imkonini beradigan ko‘rsatkichni xarakterlaydi.

Iqtisodiy o‘shishning ko‘rsatkichlari – iqtisodiy o‘shishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat va natural (jismoniy) ko‘rsatkichlar tizimidan iborat.

Ekstensiv iqtisodiy o‘shish – ishlab chiqarishga qo‘shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.

Intensiv iqtisodiy o‘shish – ishlab chiqarish omillarining mavjud darajasida, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko‘payib borishi.

Ustuvor ekstensiv iqtisodiy o‘shish – iqtisodiy o‘shishda ekstensiv omillarning ustuvor o‘ringa ega ekanligini bildiradi.

Ustuvor intensiv iqtisodiy o‘shish – iqtisodiy o‘shishda intensiv omillarning yuqori o‘ringa egaligini bildiradi.

Iqtisodiy o‘shish omillari – iqtisodiy o‘shishga ta‘sir ko‘rsatishda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.

Milliy boylik – insoniyat jamiyati taraqqiyotida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg‘arilgan moddiy va ma‘naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tabiat in‘omlari.

Moddiy buyumlashgan boylik – milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan ashyoviy – buyum ko‘rinishga ega bo‘lgan qismi.

Tabiiy boylik – milliy boylikning tabiat in‘omlaridan iborat bo‘lgan, foydalanishga jalb qilingan, ishlab chiqarishning shart – sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladigan qismi.

Ma‘naviy boylik – ashyoviy-buyum ko‘rinishiga ega bo‘lmagan nomoddiy qimmatliklardan va insoniyatning intellektual salohiyati natijalaridan iborat.

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o‘shish tushunchalarining ta’rifini berib hamda ularning umumiy tomonlari va farqlarini ko‘rsating.

2. Iqtisodiy o‘shishning ekstensiv va intensiv turlari qanday aniqlanadi? Nima uchun real hayotda sof ekstensiv yoki sof intensiv iqtisodiy o‘shish turlari uchramaydi?

3. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishning samaradorligiga baho berishda iqtisodiy o‘shishning qanday ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi?

4. Iqtisodiy o‘shishga ta’sir qiluvchi taklif, taqsimlash va talab omillarini tushuntiring hamda ularning ahamiyatini baholang.

5. Milliy boylik tushunchasining ta’rifini berib va tarkibiy tuzilishini ko‘rsating.

6. Milliy boylik tarkibida moddiy – buyumlashgan boylik qanday o‘ringa ega va u qanday tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi?

7. Nima uchun yer, suv kabi tabiiy boyliklarni qiymat o‘lchovida baholab, milliy boylik tarkibiga kiritish mumkin emas?

8. Madaniy, tarixiy obidalar va arxitektura yodgorliklarining milliy boylik tarkibida aks etishini qanday izohlaymiz? Ularning har biriga misollar keltiring.

XXII bob. MILLIY IQTISODIYOTNING MUVOZANATI VA NISBATLARI

- 1. Iqtisodiy muvozanatlikning mazmuni va uning turlari.**
- 2. Iqtisodiy muvozanatlikni aniqlash usullari. Resession va inflatsion farq.**
- 3. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari.**
- 4. O‘zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o‘zgartirish vazifalari.**

1. Iqtisodiy muvozanatlikning mazmuni va uning turlari

Milliy iqtisodiyot darajasida to‘liq bandlikka va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish, inflatsiyani eng kam darajaga keltirish makroiqtisodiy muvozanatlikni taqozo etadi. Iqtisodiyot fan tarixida iqtisodiy muvozanatlik tushunchasiga turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, ularni umumlashtirilgan holda ikkita yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish bevosita «iqtisodiy muvozanatlik» tushunchasining vujudga kelish va rivojlanishining tarixiy bosqichlari bilan bog‘liq bo‘lib, bunda mazkur tushuncha «umumiy bozor muvozanati» sifatida talqin qilinishi darajasigacha yetib keladi. Bu yo‘nalishda iqtisodiy muvozanatlikning ko‘plab modellari mavjud bo‘lib, ular turli davrlarda bu muammoga har xil qarashlarni aks ettirgan:

Oddiy takror ishlab chiqarish modeli. (F. Kene tomonidan XVIII asrda Fransiya misolida tushuntirilib berilgan).

Oddiy va kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish nazariyasi. (XIX asrda klassik iqtisodchilar tomonidan asoslab berilgan).

Erkin raqobat qonuni amal qilgan sharoitda umumiy iqtisodiy muvozanatlik modeli. (L. Valras tomonidan asoslagan).

«Xarajatlar – mahsulot ishlab chiqarish» modeli. (V. Lontev asos solgan).

Qisqa davrli iqtisodiy muvozanatlik modeli. (D.Keyns siklik rivojlanishni tahlil qilish orqali ko'rsatib bergan).

Kengayib boruvchi iqtisodiyotda muvozanatlik modeli (Dj. Neyman tahlil qilgan).

Iqtisodiy muvozanat nazariyasiga ilk fikrlar klassik siyosiy iqtisod asoschilaridan biri A. Smit⁹⁴ tomonidan «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» nomli asarida berilgan bo'lib, unda iqtisodiy munosabatlarning barchasi bozor mexanizmi yordamida tartibga solinishi, talab va taklif o'rtasidagi muvozanat faqat bozor mexanizmi yoki «ko'rinmas qo'l» yordamida ta'minlanishi ta'kidlab o'tilgan. Uning mashhur «Alohida olingan har bir odam faqat o'zini o'ylagan holda, o'zining shaxsiy manfaatlari yo'lida qilgan harakatlari ko'rinmas qo'l orqali uning qiziqishi doirasiga mutlaqo kirmagan boshqa maqsadlarga yo'naltiriladi va bu harakat ongli ravishda jamiyat manfaatlariga xizmat



qilgandagiga qaraganda ko'proq samara beradi»⁹⁵ - degan fikri hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ammo, u iqtisodiy muvozanatlikni ta'minlash jarayonlariga davlat ishtirokini mutlaqo inkor etgan.

Iqtisodiy muvozanat nazariyasini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shganlardan - J.S. Mill fikricha, «Jamiyat ortiqcha puldan o'z kuchi bilan qutula olmaydi, shu sababli yagona yo'l narxning o'sishi bo'lib, faqat shu yo'l bilan talab va taklif o'rtasidagi muvozanatlikni ta'minlash mumkin». Narx o'sishini talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagunga qadar davom ettirish zarur⁹⁶.

XX asr boshlaridayoq shveysariyalik Nobel mukofoti sovrindori L. Valras birinchilardan bo'lib yaxlit olingan umumiy bozor muvozanati modelini yaratishga hamda mazkur tushunchaning

⁹⁴ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов.

⁹⁵ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Москва, 1962. Стр. 332.

⁹⁶ Mill J.S. On the Defintion of Political Economy; and on the Method of Invtstigation Proper to it. In: Tssays on Some Unsettled Questions of Political Economy. L., p 133-137.

mazmunini ancha to'liq ilmiy yoritib berishga erishdi. Lekin L.Valras umumiy bozor muvozanati modeliga matematik usuldagi tengliklar orqali juda oddiy yondashgan. Umumiy bozor muvozanati ishlab chiqarish hajmi va narxlar o'zgarishi hamda boshqa bir qator omillarning ta'sirida buzilishiga olib kelishini hisobga olmagan⁹⁷.

XX asrning 20 - yillar oxirlari va 30 - yillar boshlarida G'arbdagi bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti «Buyuk depressiya» nomi bilan mashhur bo'lgan barqaror va uzoq davom etgan, makroiqtisodiy beqarorlikka duchor bo'ldi. Bundan yuz yil oldin shakllantirilgan klassik nazariya ta'limoti ro'y bergan inqiroz jarayonlarining barcha jihatlarini tushuntirib berishga layoqatsiz bo'lib qoldi.

Bu barcha iqtisodchilarning iqtisodiy muvozanatlik to'g'risidagi g'oyalari o'zlari yashagan muhit sharoitidan kelib chiqqan holda yaratilganligi va hozirgi davr uchun kam ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Avvalo, ularning iqtisodiy g'oyalari umumiy bozor muvozanatini tahlil qilish bilangina cheklanadi. Iqtisodiyotning umumiy muvozanati uning asosiy shart-sharoitlari va namoyon bo'lish shakllarini ko'rsatib berolmagan.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti doimiy inflatsiya va ishsizlik sharoitida rivojlanib, makroiqtisodiy beqarorlik tavsifi kuchayib borishi natijasida iqtisodiy muvozanatlikni ta'minlash ham ancha murakkab kechib, davlatning samarali makroiqtisodiy siyosat olib borishini taqozo etadi.

Shu sababli, hozirgi zamon nazariy fanlarda iqtisodiy muvozanatlik tushunchasi barcha jihatlarini (sabablari, oqibatlarini, natijalari) bilan birgalikda ancha keng tadqiq qilinadi. Jumladan, iqtisodiy muvozanatlik muammosi ko'pchilik manbalarda yopiq va ochiq iqtisodiyot uchun yalpi talab va yalpi taklifning muvozanatligi orqali tushuntirilib beriladi. Bunda ko'plab alohida olingan bozorlardagi muvozanatli narx va ishlab chiqarish hajmini o'rganish orqali xususiy muvozanatlikni, barcha bozorlardagi yalpi taklif hajmi va narxlarning o'rtacha darajasi o'rtasidagi o'zaro

⁹⁷ Walras L. Elements of pure Economics. Translated by Jaffe W.Homewood, Richard D.Irwin, 1954. rr. 88-89.

bog‘liqliklar orqali umumiy bozor muvozanatini ko‘rsatib berishga harakat qiladilar.

Biroq bu tahlilda ham “umumiy bozor muvozanati” yalpi talab va yalpi taklif muvozanati doirasi bilan cheklanadi. Bundan tashqari, bu tushunchalar ancha mavhumlashtirilib, murakkab matematik tenglashtirishlar va grafikli tahlil usullari orqali bayon qilinadi. Bu esa iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mazmunini ilg‘ab olishni ancha qiyinlashtiradi.

Iqtisodiy muvozanatlik nazariyasidagi ikkinchi yo‘nalish sobiq sotsialistik iqtisodiy tizimning inqirozga uchrashi oqibatida vujudga keldi. Bu mamlakatlarda shiddatli tarzda ro‘y bergan ijtimoiy-iqtisodiy beqarorliklar, ya’ni iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va bandlik darajasining surunkali pasayib borishi, inflatsion jarayonlarning noxush oqibatlari hamda takror ishlab chiqarishdagi doimiy ravishda vujudga kelib turgan boshqa nomutanosibliklar, makroiqtisodiy muvozanatlikka erishish orqali iqtisodiy o‘shishni ta’minlashni zarur qilib qo‘ydi. Bu iqtisodiy fanlar oldiga «iqtisodiy muvozanatlik» tushunchasining iqtisodiy mazmunini, uni ta’minlashning shart-sharoitlarini va namoyon bo‘lish shakllarini ilmiy-nazariy tadqiq qilish vazifasini qo‘ydi.

Shu sababli, iqtisodchi olimlar tomonidan «iqtisodiy muvozanatlik tushunchasi» turlicha talqin qilina boshlandi.

Jumladan, ayrimlar iqtisodiy muvozanatlikni cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish usullari va ularni jamiyat a’zolari o‘rtasidagi taqsimlashning o‘zaro mos kelishi sifatida tavsiflasa⁹⁸, boshqalari resurslar va ulardan foydalanish natijalari, ishlab chiqarish va iste’mol, talab va taklif, moddiy buyumlashgan va moliyaviy oqimlar o‘rtasida yalpi mutanosiblik mavjud bo‘lishi zarur degan fikrni ilgari suradi⁹⁹.

Birinchi yondashuvda jamiyat ehtiyojlari bilan milliy ishlab chiqarish imkoniyatlari, ya’ni iqtisodiy resurslarning miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlik tushuntirib berilmaydi;

⁹⁸ Экономическая теория: Учебное пособие //Под общ.ред. Н.И.Базылева Минск, БГЕУ, 2000г стр.126.

⁹⁹ Сажина М.А., Чибриков Г.Г. Экономическая теория. Учебник для вузов – М: Изд.гр NORMA-INFRA. М; 1998, стр. 267.

Ikkinchi yondashuvda ishlab chiqarishning natijalari «jamiyat ehtiyojlari» bilan bog‘lanmagan¹⁰⁰. Ko‘pchilik hollarda makroiqtisodiy muvozanatlik tushunchasiga bir tomonlama yondashib, umumiy ta’rif berilsa ayrim manbalarda unga milliy mahsulot va milliy daromad alohida qismlari, mahsulotlar va daromadlar o‘rtasidagi nisbat sifatida qaraladi¹⁰¹.

Ko‘pincha iqtisodiy muvozanatlik bozor muvozanatini tavsiflovchi yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi nisbat sifatida ham talqin qilinadi.

Iqtisodiy muvozanatlik – bu jamiyat ehtiyojlariga mavjud iqtisodiy resurslar miqdorining va milliy ishlab chiqarish natijalari hajmi hamda tarkibining o‘zaro mos kelishligini tavsiflaydi.

Iqtisodiy muvozanatlik milliy iqtisodiyotning turli darajasidagi har xil muvozanatliklarni qamrab oladi. Bu barcha muvozanatliklarni shartli ravishda umumiy va xususiy muvozanatliklarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Umumiy muvozanatlik – bu jamiyatning barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish real hajmining o‘zaro mos kelishlik darajasini bildiradi. Qiymat ifodasida bu muvozanatlik yalpi talab va yalpi taklifning nisbati orqali namoyon bo‘ladi. Milliy iqtisodiyotda ro‘y beradigan barcha o‘zgarishlar pirovard natijada yalpi talab va yalpi taklifdagi o‘zgarishlar orqali ifodalanadi.

Yalpi talab tovarlar bozorida taqdim qilingan pirovard tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan barcha subyektlar talablari yig‘indisidan iborat. Iqtisodiy muvozanatlik yalpi talab va yalpi taklifning tengligini taqozo etsa ham, amaliyotda ularning nisbati o‘rtasidagi o‘zgarishning mumkin bo‘lgan har xil variantlari mavjud bo‘ladi. Jumladan:

Bu barcha shart-sharoitlar nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, potensial imkoniyat shaklida mavjud bo‘ladi. Real hayotda esa umumiy muvozanatlik tarkibiy nomutanosibliklar, resurslardan samarasiz foydalanish, narxlarning beqarorligi, iqtisodiy sikl fazalarining o‘zgarishi, bozor konyunkturasi, bozor subyektlari daromadlari va talab tarkibidagi o‘zgarishlar ta’siri ostida bo‘ladi.

¹⁰⁰ Экономическая теория. Учебник для студентов высших заведений // кол.авт. Абдурахманов К. и др. 1. – Т: "Sharq", 1999, стр. 338.

¹⁰¹ Меншиков. П. Новая экономика. Москва, изд. "Бек", 1999, стр. 1999.

Yalpi talabning ortishi, ishlab chiqarish hajmi, milliy daromad va narxlarning oʻsishi bilan birga boradi.


Yalpi talabning kamayishi, ishlab chiqarish hajmi, milliy daromad va narxlarning pasayishi natijasida roʻy beradi.

Yalpi taklifning ortishi - ishlab chiqarish hajmining oʻsishi bilan birga boradi va narxlarning tushishini keltirib chiqaradi.

Yalpi taklifning kamayishi, mos ravishda ishlab chiqarishning qisqarishi, narxlarning oʻsishiga olib keladi.

Makroiqtisodiy muvozanatlik va uning turlari

22.1-jadval



Umumiy muvozanatlik barcha tarmoqlar, sohalar va iqtisodiyot birlamchi bo‘g‘inlarining bir me’yorda rivojlanishi ta’minlagan sharoitda iqtisodiy faoliyatning barcha qatnashchilari, barcha bozorlar va iqtisodiy jarayonlarning turli tomonlari o‘rtasidagi barqarorlik tavsifidagi bir qator muvozanatliklar tizimini o‘z ichiga oladi.

Bu muvozanatlik shakllari turli-tuman bo‘lganligi sababli, ular alohida holda xususiy muvozanatliklar sifatida yuzaga chiqadi.

Xususiy iqtisodiy muvozanatlik – bu ikkita o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy miqdorlar yoki iqtisodiyot tomonlari o‘lchamlarining o‘zaro mos kelishidir. Xususiy muvozanatlik ishlab chiqarish va iste’mol, aholining sotib olish layoqati va tovarlar taklifi, budjet daromadlari va xarajatlari, alohida tovarlarga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi bog‘liqliklar ko‘rilgandagina yuzaga chiqadi. Bu muvozanatliklar ichida mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek: “...ichki bozorda talab va taklif o‘rtasidagi mutanosiblikka erishish, ya’ni chiqarilgan pul miqdori bilan unga sotib olinadigan mollar salmog‘i o‘rtasidagi nisbatni ta’minlash g‘oyat katta rol o‘ynaydi”¹⁰².

Shunday qilib, iqtisodiy muvozanatlik o‘zining barcha shakllari bilan birgalikda inqirozsiz va ijtimoiy iqtisodiy larzalarsiz rivojlanishni tavsiflaydigan iqtisodiy idealdir. Amaliy hayotda makroiqtisodiy muvozanatlik talablari turli-tuman beqarorliklar ta’sirida buzilib turadi, biroq uning nazariy modelini bilish, real jarayonlar o‘zining ideal andozasidan farq qilinishini keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash, iqtisodiyotning bir me’yorda faoliyat qilishini ta’minlash yo‘llarini topish imkonini beradi.

Milliy iqtisodiyot muvozanatligini ta’minlash bir qator shart-sharoitlarni taqozo qiladi. Ular quyidagilar:

mavjud iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda jamiyat ehtiyojlarini to‘laroq qondirib borish;

mehnat resurslarining to‘liq va samarali bandligini ta’minlash;

narxlarni barqarorlashtirish va uni inflatsiya ta’siridan xoli qilish;

iqtisodiy o‘rishni yetarli miqdordagi investitsiyalar bilan ta’minlash va uni muomaladagi pul massasiga bog‘lash;

¹⁰² Каримов И.А. “Ўзбекистон буюк келажак сари” Т.: “Ўзбекистон” 1999-й. 348-бет.

eksport va importni o‘zaro muvofiqlashtirish asosida tashqi savdo balansining ijobiy qoldig‘iga erishish.

Iqtisodiy muvozanatlik erkin raqobatli bozorda barcha xaridorlar tengligi, iqtisodiy vaziyat barqarorligi kabi shart-sharoitlarni ham taqozo qiladi.

Amalda iqtisodiyot doimiy harakatda va to‘xtovsiz rivojlanish holatida bo‘ladi. Iqtisodiy sikl fazalari, bozor konyunkturasi, bozor subyektlari daromadlari va talabi tarkibida doimiy o‘zgarishlar ro‘y berib turadi. Bularning hammasi muvozanatli holatni turg‘un iqtisodiyotdagi shartli umumiy muvozanatlik sifatida qarab chiqishni taqozo qiladi.

2. Iqtisodiy muvozanatlikni aniqlash usullari. Resession va inflatsion farq

Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlashda asosan ikkita o‘zaro bog‘liq usuldan foydalaniladi:

1. Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash.
2. Jamg‘arma va investitsiyalarni taqqoslash.

Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash uchun ishlab chiqarish umumiy hajmining miqdoriy ko‘rsatkichi sifatida sof milliy mahsulot (SMM), iqtisodiyotda yalpi sarflar sifatida iste‘mol hajmi va investitsiyalarga sarflarning umumiy summasi ($S+Ip$) olinadi. Iqtisodiyotning muvozanatli darajasi — bu ishlab chiqarishning shunday hajmiki, u ishlab chiqarish mazkur hajmini sotib olish uchun yetarli umumiy sarflarni ta‘minlaydi. Boshqacha aytganda, sof milliy mahsulot muvozanatli darajasida ishlab chiqarilgan tovarlarning umumiy miqdori (SMM) xarid qilingan tovarlar shunday miqdoriga ($S+Ip$) teng bo‘ladi.

To‘liq bandlik sharoitida yalpi sarflar SMM hajmi bilan mos kelmasligi mumkin. Bu mos kelmaslik resession yoki inflatsion farqda ifodalanadi. Yalpi sarflarning SMM hajmidan kam bo‘lgan miqdori resession, yalpi sarflarning SMM hajmidan ortiqcha bo‘lgan miqdori inflatsion farq deyiladi.

Jamg‘arma va investitsiyalarni taqqoslash usulining mohiyati shundaki, ishlab chiqarilgan mahsulotning har qanday hajmi shunga mos daromad hajmini beradi. Biroq aholi bu daromadning bir

qismini iste'mol qilmasdan jamg'armaga qo'yish mumkin. Jamg'arma, sarflar - daromadlar oqimidan potensial sarflarni olib qo'yish hisoblanadi. Bunda jamg'armaga qo'yilgan mablag'lar investitsiya sifatida ifodalanilsa, yalpi sarflar ishlab chiqarish hajmiga teng bo'ladi.

Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlashda yuqoridagi usullardan tashqari balans usulidan hamda "Xarajat va natija" larni taqqoslash usulidan ham foydalaniladi.

Balans usulida tarmoqlararo balans, moddiy, moliyaviy va ishchi kuchi balanslaridan foydalanilib iqtisodiyotdagi muvozanatlik darajasiga baho beriladi.

"Xarajat va natija"larni taqqoslash usulida ishlab chiqarishga qilingan iqtisodiy resurs sarflari olingan mahsulot qiymati bilan taqqoslanib muvozanatlik darajasi tahlil qilinadi. Bunda mahsulot birligiga qilingan iqtisodiy xarajatlar uning narxi bilan taqqoslanadi.

3. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari

Milliy iqtisodiyotdagi muvozanatlik uning turli tomonlari va sohalari o'rtasida mutanosiblik bo'lishini taqozo qiladi.

Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat ko'rsatkichlarda ifodalangan ma'lum nisbatlarning bo'lishidir.

Makroiqtisodiy jarayon g'oyat murakkab va ko'p qirrali bo'lishi sababli mutanosiblik turlari ham xilma-xildir. Ularning barchasini umumlashtirib mutanosiblikning quyidagi guruhlarini tarkibiga kiritish mumkin.

1. Umumiqtisodiy tavsifdagi mutanosibliklar. Bunga YaIM va milliy daromad tarkibiy qismlar; iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar miqdori bilan pul massasi o'rtasidagi; aholining daromadlari bilan xarajatlar o'rtasidagi mutanosibliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

2. Tarmoqlararo mutanosibliklar. Milliy iqtisodiyotda muvozanatlikni ta'minlashda tarmoqlararo mutanosibliklar alohida o'rin tutadi. Mamlakat iqtisodiyoti juda ko'p tarmoq va sohalardan iborat bo'lib, ularning rivojlanishi bir-biri bilan bog'liq. Bir tarmoqda yaratilgan mahsulot boshqa tarmoqda iste'mol qilinadi yoki

pirovard mahsulotga aylantiriladi. Masalan, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ko‘pgina qismi (paxta, g‘alla, pilla, sut va shu kabilar) sanoatning tegishli tarmoqlarida qayta ishlanib, pirovard mahsulotga aylantiriladi va iste‘mol tovarlari bozoriga chiqariladi. O‘z navbatida sanoatda yaratilgan ishlab chiqarish vositalari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qishloq xo‘jaligi, qurilish va shu kabilarda unumli iste‘mol qilinadi. Tarmoqlararo mutanosibliklarga sanoat bilan qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o‘rtasidagi mutanosibliklar misol bo‘ladi.

3. Tarmoq ichidagi mutanosibliklar. Tarmoqlararo mutanosiblik ular ichidagi tarkibiy qismlar mutanosiblik orqali ta‘minlanadi.

Tarmoqlar ichidagi mutanosiblik alohida olingan tarmoq tarkibidagi soha va ishlab chiqarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Masalan, sanoatning ishlab chiqarish vositalari va iste‘mol buyumlari ishlab chiqaradigan sohalari, qishloq xo‘jaligining dehqonchilik va chorvachilik sohalari o‘rtasidagi mutanosiblik va boshqalar. Shu bilan birga ta‘kidlab o‘tilgan sohalarning ichidagi tarkibiy tuzilmalar o‘rtasida ham bog‘liqlik bo‘lishi zarur. Masalan, sanoatning qazib olish va qayta ishlash tarmoqlari, chorvachilikda sut va go‘sht ishlab chiqarish sohalari o‘rtasidagi va boshqalar

4. Hududiy mutanosibliklar. Iqtisodiy rivojlanish mamlakat ayrim hududlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham taqozo qiladi. Yuzaki qaraganda hududlar o‘rtasidagi mutanosibliklarning mamlakat iqtisodiy rivojidagi roli to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Lekin alohida hududiy bo‘linmalar (viloyat, tuman, shahar va boshqa hududiy birliklar) ning bir-biriga iqtisodiy va tashkiliy jihatdan bog‘liqligi, ixtisoslashish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va kommunikatsiya nuqtayi nazaridan qaralsa, bu bog‘liqlikning ahamiyati yaqqol ko‘rinadi.

5. Davlatlararo mutanosibliklar. Bu mutanosiblikni ikki holat taqozo qiladi. Birinchidan, dunyoning ko‘pchilik mamlakatlari xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-biri bilan bog‘langan, ikkinchidan, shu bog‘liqlik orqali milliy ishlab chiqarish natijalari bir qismi chet elliklar tomonidan xarid qilinadi yoki milliy ishlab chiqaruvchilar o‘z iste‘molining bir qismini chetdan keltirilgan mahsulotlar hisobiga qondiradi. Bu bog‘liqlik qanchalik katta

bo'lsa, sof eksport hajmi orqali makroiqtisodiy muvozanatlikka shunchalik kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Qarab chiqilgan mutanosibliklarga erishish orqali milliy ishlab chiqarishning muvozanatli rivojini ta'minlab borishdan quyidagilar ko'zda tutiladi:

Mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda jamiyatning ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish;

To'liq bandlilikka erishish, ya'ni mehnat qilishga layoqatli bo'lgan va ishlashni xohlaganlarni to'liq va samarali ish bilan ta'minlash;

Narxning nisbiy barqarorligiga erishish va uni inflatsiya ta'siridan xoli qilish;

Iqtisodiyotning bir maromda o'sib borishini yetarli darajada investitsiya bilan ta'minlash va muomaladagi pul massasiga bog'lab borish;

Eksport va importni muvofiqlashtirish asosida ijobiy tashqi savdo balansiga erishish.

Bu maqsadlar faqatgina ularga intilish bo'lib, bunga erishish muqarrar ekanligini bildirmaydi. Chunki mutlaq muvozanatga erishish mumkin emas, u buzilib va qaytadan tiklanib turishi orqali iqtisodiy rivojlanish sikli ro'y beradi.

4. O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish vazifalari

Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga mos tartiblar asosida isloh qilish uning rivojida nomutanosibliklar bo'lishi va tanglik holatlarning kelib chiqishini muqarrar qilib qo'yadi. Shu sababli, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida uni jonlantirish va bir tekis rivojlantirish yo'lidagi qonuniy bosqichdir. U iqtisodiy rivojlanishda inqirozli holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun ishlab chiqarish va chiqarilayotgan mahsulot tarkibini o'zgartirishga, ya'ni tanglik holatlarga barham berishga yo'naltiriladi. Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki davrida barqarorlashtirish siyosatidan ko'zda tutilgan maqsad eng avvalo, makroiqtisodiyotda muvozanatlikni saqlash,

ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishini oldini olish va ommaviy ishsizlikning kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat bo‘ldi. Shu bilan birga bu siyosat pul emissiyasini boshqarish, uning qadrsizlanishini oldini olish, mamlakat to‘lov balansini bir me‘yorda saqlash kabi maqsadlarni ham o‘z ichiga oladi.

Respublikada barqarorlashtirish siyosatini ishlab chiqishda jahon tajribasida sinalgan yondashuvlar hisobga olinib ishlab chiqarish sohalariga ustunlik berildi. Bu sohalarning rivojlanishida ularni tarkiban qayta qurish talablari ham ko‘zda tutildi. Bunda asosiy e‘tibor katta istiqbolga ega bo‘lgan, butun iqtisodiyotning rivojlanish tamoyillarini belgilab beradigan yetakchi tarmoq va sohalarga qaratildi.

Iqtisodiyotda zaruriy tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilguncha ishlab chiqarishning orqaga ketishiga barham berish eng muhim maqsad bo‘lib qoladi. Shu sababli, respublikada 90-yillarning o‘rtalaridayoq makroiqtisodiy barqarorlik sohasida ishlab chiqarish sur‘atlarining pasayishini sekinlashtirishga moyillik ko‘zga tashlandi, ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha esa o‘sishga erishildi. Iqtisodiyotning ikki yetakchi tarmog‘i sanoat va qishloq xo‘jaligini isloh qilish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar natijasida sanoatda 1996-yildayoq qishloq xo‘jaligida 1997-yilda ishlab chiqarishning orqaga ketishi to‘xtatildi.

Makroiqtisodiy barqarorlik siyosatida 1997-yil keskin burilish davri bo‘ldi, islohotlar amalga oshirilgan davr davomida birinchi marta yalpi ichki mahsulotning o‘sishi (105,2%) aholi sonining o‘sishidan (101,8%) yuqori bo‘ldi¹⁰³. Bu ijobiy tamoyillar keyingi yillarda yanada mustahkamlanib bordi. Natijada butun milliy iqtisodiyot va uning barcha tarmoqlarida barqaror o‘sish tamoyillari kuzatildi. Jumladan, 2016-yilda YaIM – 7,8 foizga, sanoat ishlab chiqarish hajmi – 6,2 foizga, qishloq xo‘jalik mahsulotlari – 6,6 foizga ko‘paydi. Chakana tovar aylanishi - 14,4 foizga, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish hajmi esa 14,5 foizga ortdi. Davlat budjeti ko‘zda tutilgan defitsit o‘rniga YaIM ga nisbatan 0,7 foiz miqdorida profisitga erishildi.

¹⁰³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Respublikamizda izchil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan birga YaIMning umumiy hajmida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatiladi. Jumladan, 2000-yilda bu ko‘rsatkich 30,1foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilda faqatgina 16,8 atrofida bo‘lgan.

“Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o‘zgarishlarning mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig‘i sifatida qabul qilishimiz darkor”¹⁰⁴.

Respublika milliy iqtisodiyotida erishilgan bu ijobiy natijalar tarkibiy qayta qurishlar asosida butunlay yangi iqtisodiyot majmuasining bunyod etilganligi, birinchi navbatda eng muhim makroiqtisodiy va ishlab chiqarish nisbatlarini davlat tomonidan samarali tartibga solishning natijasi hisoblanadi. Bunda asosiy e‘tibor iqtisodiyotning tarmoq va hududlarining tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga qaratiladi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev qayd qilib o‘tganlaridek, “Agar hududlarning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlarini solishtirsak, ular kun va tunde bir-biridan farq qiladi”¹⁰⁵. Bunda “...respublikaga bo‘ysunadigan yirik korxonalar ko‘rsatkichini chiqarib tashlasak, viloyatlar yalpi hududiy mahsuloti hajmi juda kichik bo‘lib qoladi”¹⁰⁶.

“Harakatlar strategiyasi”da 2017–2021-yillarda respublika hududiy tuzilishini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarga e‘tibor qaratiladi:

– viloyatlar, tumanlar va shaharlarning kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularni salohiyatidan samarali foydalanish;

¹⁰⁴ Karimov I.A. 2014-yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. T.: O‘zbekiston 2014. 9-bet.

¹⁰⁵ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: «O‘zbekiston», 2017 14-yanvar. 49-bet.

¹⁰⁶ O‘sha joyda 49-bet.

– har bir hududning tabiiy, mineral va xomashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish;

– hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish masshtablarini kengaytirish hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasidagi farqni kamaytirish, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini o‘stirish yo‘li bilan qiyoslangan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish;

– yangi sanoat ishlab chiqarish va servis markazlarini tashkil etish hisobiga shahar tipidagi kichik shaharlar va shaharchalarni aktiv rivojlantirish;

– yirik xo‘jalik birlashmalarining mablag‘larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

– suvbensiyali tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

– sanoat va boshqa ishlab chiqarish obyektlarni joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

Tarkibiy siyosatning hududiy jihatlarini ta‘minlash odamlar turmush darajasida vujudga kelgan hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish, resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Respublika iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishini qayta qurishda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turini o‘zgartirish, uning sifatini yaxshilash va mahsulot tayyorlashga ketadigan jami xarajatlarni kamaytirish talablari ham hisobga olinadi. “Tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta‘minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish”¹⁰⁷ni nazarda tutadi.

¹⁰⁷ 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz

Iqtisodiyot tuzilishidagi o'zgartirishlar, chetdan mahsulot olib kelishni qisqartirish, iqtisodiyotning xomashyo yetishtirishga qaratilgan bir tomonlama yo'nalishini bartaraf etish va uning eksport imkoniyatini kengaytirish, tarmoqlar ichidagi va hududiy jihatdan vujudga kelgan nomutanosibliklarni bartaraf etish asosida iqtisodiyotning mutanosib va barqaror rivojlanishini ta'minlash vazifalarini hal etish bilan bog'liqlikda amalga oshirildi.

Shu vazifalardan kelib chiqib, iqtisodiyot ichki tuzilishidagi o'zgarishlar - respublikaning energetika va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlovchi tarmoqlarni rivojlantirishga qaratildi. Bunda birinchi navbatda eng muhim o'zak tarmoqlarni – neft va gaz sanoatini, energetikani, rangli metallurgiya sanoatini, mashinasozlik majmuasini, qishloq xo'jalik va agrosanoat majmuasining boshqa sohalarini rivojlantirishga ustunlik beriladi.

Iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish tuzilishini tubdan o'zgartirish asosida umumiy iqtisodiy barqarorlikka erishishda iste'mol bilan jamg'arish o'rtasidagi eng maqbul nisbatni ta'minlash asosiy o'rin tutadi. Iste'mol fondining eng maqbul darajasiga erishishda - ichki bozorda talab bilan taklif o'rtasida mutanosiblikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, davlat eng muhim makroiqtisodiy nisbatlarini tartibga solib turuvchi omillarga ko'proq e'tibor berdi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish darida iqtisodiyotni barqarorlashtirish muammosini hal etishda ishlab chiqarish infra-tuzilmasining muhandislik kommunikatsiyalari, transport va aloqa tizimi singari tarmoqlarini ustuvor rivojlantirishga ham alohida e'tibor beriladi.

Ijtimoiy sohalardagi tarkibiy qayta qurishlar ham faol investitsiya siyosatini o'tkazish orqali amalga oshirildi. Shu sababli, respublika investitsiya bazasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, bunda o'z sarmoyalarimiz, tashqi kreditlar, bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalaridan o'rinli foydalanish ko'zda tutildi. Tashqi investitsiyalarni jalb qilishda bevosita investitsiyalar tarzida, davlat qarzlari, xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar, qarz beruvchi mamlakatlar moliyaviy-kredit resurslari shakllarida amalga oshirish mumkinligi hisobga olinadi.

Shunday qilib, respublikada iqtisodiy islohotlar davomida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurish vazifalariga aholining real turmush darajasini yaxshilash uchun zaruriy shart-sharoitlar sifatida qaraldi.

Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga yo'l tutilgan hozirgi sharoitda ham iqtisodiyot sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu o'z navbatida boy tabiiy zaxiralar, mineral xomashyo, mehnat resurslari, intellektual hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatdan to'liq va samarali foydalanishni taqozo etadi.

Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mahalliy xomashyo va tabiiy imkoniyatlar asosida ishlaydigan, ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan holda, nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham raqobatga bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga qaratilishi zarur.

Bunda eng avvalo: "...sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya diversifikatsiya qilish"ga qaratiladi¹⁰⁸.

Yangi bosqichda xizmat ko'rsatish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohaslarini rivojlantirish, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini kuchaytirishga alohida e'tibor beriladi. Chunki, bu soha yangi ish joylarini yaratishning muhim omili bo'lishi bilan birga, aholi turmush darajasining o'sishi ham uning rivojlanish darajasiga bog'liq.

Umumiy holda tarkibiy o'zgarishlar ustuvorlik beriladigan yo'nalishlariga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

– iste'molga yo'naltirilgan. Bunda tarkibiy o'zgarishlarning maqsadi aholining turmush darajasiga bevosita daxldor bo'lgan tarmoq va sohalarni ustuvor rivojlantirishga qaratiladi;

¹⁰⁸ 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz

- eksportga yoʻnaltirilgan tarkibiy oʻzgarishlar. Bunda qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini ustuvor rivojlantirish asosida ishlab chiqarish hajmini eksport hisobiga kengaytirish koʻzda tutiladi;
- iqtisodiyotning tarmoq va texnologik tuzilishini takomillash-tirishga qaratilgan tarkibiy oʻzgarishlar.

Tayanch tushunchalar

Iqtisodiy muvozanatlik – bu makroiqtisodiyot darajasida jamiyat ehtiyojlariga mavjud iqtisodiy resurslar miqdorining va milliy ishlab chiqarish natijalari hajmi hamda tarkibining oʻzaro mos kelishligini tavsiflaydi.

Xususiy muvozanatlik – bu ikkita oʻzaro bogʻliq boʻlgan iqtiso-diy miqdorlar yoki iqtisodiyot tomonlarining oʻzaro teng kelishidir.

Umumiy muvozanatlik – bu jamiyatning barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish real hajmining oʻzaro mos kelishlik darajasini bildiradi.

Resession farq – yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan kam boʻlgan miqdori.

Inflatsion farq – yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan ortiqcha boʻlgan miqdori.

Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari va soha-lari oʻrtasida miqdor va sifat oʻlchamlarning mos kelishlik darajasi.

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy muvozanatlik, xususiy va umumiy muvoza-natliklarga tavsif bering. Ularga misollar keltiring.

2. Muvozanatli SMM quyidagi ikki usul yordamida qanday aniqlanishini tushuntiring: a) yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmi-ning taqqoslash usuli; b) jamgʻarma va investitsiyalarni taqqoslash usuli.

3. Milliy iqtisodiyotning muvozanatlik darajasiga erishishda xususiy mutanosibliklarning roli qanday? Mutanosiblikning qanday turini bilasiz? Ularga qisqacha taʼrif bering.

4. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishish yo‘llari qanday? Respublikada iqtisodiyot tarkibiy tuzilishi o‘zgarish tamoyillariga tavsif bering.

XXIII bob. MAKROIQTISODIY BEQARORLIK: INQIROZ, ISHSIZLIK VA INFLATSIYA

- 1. Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotning siklliligi.**
- 2. Sikl to‘g‘risidagi nazariyalar, uning asosiy turlari.**
- 3. Inqirozlarning mazmuni va turlari.**
- 4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va iqtisodiy faollikka ta‘siri.**
- 5. Ishsizlik va uning turlari.**
- 6. Inflatsiya, uning kelib chiqish sabablari va turlari.**
- 7. Inflatsiyaning oqibatlari. Davlatning inflatsiyaga qarshi tadbirlari.**
- 8. O‘zbekistonda milliy valuta-so‘mning barqarorligini ta‘minlash vazifalari.**

1. Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotning siklliligi

Har qanday mamlakat iqtisodiy o‘shiga, iqtisodiy resurslarning to‘liq bandligi va narxlarning barqaror darajasiga erishishga harakat qiladi. Ammo uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish bir tekis va uzluksiz bormaydi, u iqtisodiy beqarorlik davrlari ta‘sirida tebranib turadi. Vaqt-vaqti bilan obyektiv qonunlarning o‘zgartirib bo‘lmaydigan ta‘siri ostida milliy ishlab chiqarish va uning ayrim bo‘g‘inlarida uzilishlar paydo bo‘ladi va bu uzilish iqtisodiyot nomutanosibliklarining keskin shaklda namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Milliy xo‘jalikda iqtisodiy o‘sh asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – YaIM, milliy daromad, bandlik va narx darajasidagi iqtisodiy tebranishlar bilan birga ro‘y beradi.

Iqtisodiy tebranishlar – bu muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zlarining barqaror holatidan farqlanishidir. Davriy o‘sh ishlab chiqarishdagi tanazzullik bilan almashinadi va iqtisodiy sikllar vujudga keladi. Bu holat iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotning siklli rivojlanishi deb ataladi.

Ko‘plab iqtisodchilar ortiqcha ishlab chiqarish sabablarini ochib berishga harakat qilib, talabning ko‘payishi va kamayishi, ishlab chiqarish hajmining o‘shishi yoki qisqarishi kabi hodisalarning davriy tavsifiga e‘tibor qaratdilar.

Iqtisodiy sikl deganda, odatda iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlanib, birin-ketin bir necha fazalarni bosib o‘tib, o‘zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o‘tgan davr tushuniladi¹⁰⁹.



Iqtisodiy sikl milliy iqtisodiyotning bir inqiroz boshlangandan keyingi inqiroz boshlanguncha davrdagi harakat shaklidir. Iqtisodiyotning rivojlanishidagi harakati bir sikl bilan to‘xtab qolmaydi, balki u to‘xtovsiz to‘lqinsimon harakat sifatida davom etadi. Siklli harakat milliy xo‘jalik turli tarkibiy qismlarining amal qilishidagi nomuta-

nosiblikni, uning rivojlanishidagi inqilobiy va tadrijiy bosqichlarni, iqtisodiy taraqqiyot jarayonidagi chuqur o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Iqtisodiy sikl alohida fazalar o‘rin almashishi orqali amalga oshadi. Har bir faza iqtisodiy rivojlanishdagi muayyan davrni ifodalab, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Odatda iqtisodiy siklning inqiroz, turg‘unlik, jonlanish, yuksalish fazalari ajratiladi. Ana shu fazalarning har biri rivojlanishi jaryonida navbatdagi fazaga o‘tish uchun sharoit yuzaga keladi.

Iqtisodiy siklning inqiroz fazasi ishlab chiqarish hajmi va boshqa iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlarining pasayishida ifodalanadi.


Inqirozdan keyin turg‘unlik fazasi boshlanib, u nisbatan uzoqroq davom etadi. Bu fazada ishlab chiqarish darajasining barqarorligi ta‘minlansa-da, u inqiroz boshlanishidan oldingi darajaga nisbatan ancha past bo‘ladi. Narxlarning o‘shishi to‘xtab, ssuda foiz normalari pasayadi, tovar zaxiralari barqarorlashadi.

¹⁰⁹ McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 157

Biroq ishsizlikning yuqori darajasi saqlanib qoladi. Turg'unlik fazasi davomida iqtisodiy faollik jonlanishi uchun sharoitlar vujudga kelishi nihoyasiga yetadi.

Jonlanish fazasida ishsizlik darajasi bir oz qisqarib, ishlab chiqarish darajasi sekin-asta o'sib boradi. Narxlar ham sekin ko'tarilib, ssuda foiz normasi o'sa boshlaydi. Iqtisodiyotda bandlik darajasining ortishi va foyda hajmining tezlik bilan o'sishi jonlanish fazasining yuksalish bosqichiga o'sib o'tishiga imkoniyat yaratadi. Yangi sikl yuksalishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

Yuksalish fazasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kengayishi ishsizlikning birmuncha kamayishiga hamda ish haqining o'sishiga olib keladiki, buning oqibatida iste'mol tovarlariga to'lovga qodir talab kengayadi. Pirovardida talabning ortishi, o'z navbatida, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga, bozorni kengaytirish uchun turtki beradi. Raqobat va foyda ketidan quvish oqibatida nomutanosibliklarning to'planib borishidan iborat zanjirli reaksiya tezlashadi. Bu bilan yangi inqiroz muqarrar bo'lib qoladi.




23.1-chizma. Iqtisodiy sikl fazalari.

Alohida iqtisodiy sikllar bir-biridan davomiyligi va intensivligi bo'yicha keskin farqlanadi. Shunga qaramay, ularning hammasi bir xil fazalarga ega bo'ladi.

Hozirgi zamon iqtisodiy sikllari XIX va XX asr birinchi yarmidagi sikllardan sezilarli farq qiladi. Shu sababli, hozirgi zamon iqtisodiy qarashlarda sikl faqat ikki fazaga: resessiya va yuksalish ajratiladi. Resessiya fazasi inqiroz va turg'unlikni, yuksalish fazasi esa jonlanish va o'sishni qamrab oladi.

Milliy ishlab chiqarish hajmining me'yorida pasayishi resessiya deb nomlanadi.



23.2-chizma. Siklning resessiya va yuksalish orqali ro'y berishi.

Sikllilik, ya'ni ishlab chiqarishning davriy tebranishi deyarli 200 yil davomida bozor iqtisodiyotiga ega barcha mamlakatlarga xos bo'lgan.

Iqtisodiy sikllarning kelib chiqish sabablari va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning va izchil tadqiq etilishi turli ko'rinishdagi nazariyalarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Ko'pchilik hozirgi zamon iqtisodchilari iqtisodiy sikllarning obyektiv tavsifini tan olib, bu hodisani unga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish orqali o'rganishni tavsiya qiladi. Iqtisodiy sikllarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariya eksternal nazariya deb ataladi¹¹⁰.

¹¹⁰ McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 197

Tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi. Bu tashqi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- urushlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar;
- oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarining ochilishi;
- yangi hududlarning ochilishi va bu bilan bog'liq ravishda aholi migratsiyasi, yer shari aholisi sonining o'zgarib turishi;
- ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o'zgarishlar.



Iqtisodiy sikllarni iqtisodiy tizimning o'ziga xos ichki omillari ta'sirida vujudga kelishini asoslovchi nazariya internal nazariya deb ataladi¹¹¹.

Asosiy kapitalning jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirib, xizmat muddati tugashi va uning yangilanishi ko'pchilik iqtisod-

chilar tomonidan iqtisodiy siklni keltirib chiqaruvchi muhim ichki omillardan biri sifatida qaraladi.

Agar bir yoki bir necha tarmoqda mashina-uskunalarga talabning keskin ortishini keltirib chiqaradigan iqtisodiy o'sish boshlansa, tabiiyki, bu hol mashina va uskunalarga to'liq eskiradigan har 10-15 yildan keyin takrorlanadi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida bu muddat qisqarib boradi va inqirozlar tez takrorlanadi.

Shuningdek, siklni keltirib chiqaruvchi boshqa ichki omillar sifatida quyidagilar ham ajratib ko'rsatiladi:

- shaxsiy iste'molning o'zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi);
- investitsiyalar, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi;
- ishlab chiqarish, talab va taklif hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining o'zgarishi.

¹¹¹ McConnell, Campbell R. Economics : principles, problems, and policies 17th ed. 2008 page 197

Iqtisodiy siklning kelib chiqishini faqat eksternal yoki internal nazariya orqali tushuntirish ko‘pam to‘g‘ri bo‘lmaydi. Iqtisodiy sikl va umuman iqtisodiy tizimdagi miqdoriy va sifat o‘zgarishlar tashqi va ichki omillarning birgalikdagi ta’siri oqibatida kelib chiqishi mumkin.

2. Sikl to‘g‘risidagi nazariyalar, uning asosiy turlari

Iqtisodiyotning siklli rivojlanish sabablarini izohlash orqali bir qator nazariyalar vujudga kelgan.

Sof monetar nazariya. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha bozor iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarda markaziy o‘rinni pul va kredit resurslari harakatidagi o‘zgarishlar egallaydi.

Ular fikricha, iqtisodiy faollikning o‘ssishi, iqtisodiyotning ravnaq topishi, uning turg‘unlik bilan almashinib turishiga yagona sabab pul oqimining o‘zgarishidir. Tovarlariga talabning ortishi natijasida savdo hajmi, chakana narx o‘sib, ishlab chiqarishning kengayishiga olib keladi.

Pul oqimi (iste’mol sarflari summasi) pul miqdorining o‘zgarishi natijasida o‘zgaradi. Pul miqdorining kamayishi iqtisodiy faoliyat faolligini pasaytiradi.

Pul va kredit tizimi beqaror tavsifga ega ekanligi sababli pul oqimini barqarorlashtirish qiyinlashadi. Hozirgi paytda kredit pullari to‘lov va muomala vositasi sifatida asosiy rol ni o‘ynaydi. Aynan bank tizimi kredit pullarni yaratadi, shunga ko‘ra, pul oqimining o‘zgarishida banklarning hisob stavkalari katta ahamiyat kasb etadi. Bu nazariyaning ayrim tarafdorlari pulni iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch sifatida qarab, uni muvozanat buzilishiga asosiy sabab deb ko‘rsatadi.

Ikkinchi guruh iqtisodchilar esa pul tizimi mutanosiblikni buzmaydi, faqat uning buzilishiga olib keluvchi boshqa omillar uchun sharoit yaratadi, degan fikrni ilgari suradilar. Shunga mos ravishda monetar va nomonetar yo‘nalish vujudga keldi. Monetar nazariyada jamg‘arishning davriy ravishda oshib ketishi va mutanosiblik buzilishining asosiy sababi sifatida pulning harakatini ko‘rsatadi. Nomonetar nazariya tarafdorlari esa texnologik o‘zgarishlar, yangiliklar, ixtirolarning ahamiyatini alohida ta’kidlab,

ularning pul jamg'arishning ko'payib ketishidagi rolini asoslaydi. Monetar va nomonetar nazariyalar o'rtasidagi farq uncha katta bo'lmasdan, biri ikkinchisini to'ldiradi.

Har ikkala nazariya ham oxir-oqibat iqtisodiy faollikning o'zgarishiga iste'mol emas, balki investitsiya sabab bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Yetarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi. Bu nazariyada daromadlarni ko'proq jamg'arib, yetarli darajada iste'mol qilmaslik iqtisodiyot siklli rivojlanishning asosiy sababi qilib ko'rsatiladi:

mablag'ni jamg'arish, boshqacha aytganda xazinaga aylantirish turg'unlikka olib kelishi mumkin, chunki bu mablag' investitsiyalash uchun foydalanilmaydi;

pulni jamg'arish iste'molga sarflarini qisqartirib, iste'mol tovarlariga talabning qisqarishiga olib keladi;

investitsiyaga nisbatan pul shaklidagi jamg'arish hajmi o'sib, iste'mol tovarlariga talab kamayib borishi sharoitida, taklif ortganda, narx pasayadi, iste'mol tovarlari bozoridagi nomutanosiblik inqirozga olib keladi.



Jamg'arish nazariyasi.

Bu nazariya iqtisodiy siklni mehnat vositalari yoki kapitallashgan investitsion tovarlarni ishlab chiqarish hajmi bilan bog'laydi. Kunlik va uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari hamda investitsion tovarlar ishlab chiqarish sikllari o'rtasida katta farq mavjud bo'ladi. Kunlik iste'mol tovarlari doimiy iste'mol qilinishi sababli, ularni hajmi o'zgargan taqdirda ham iqtisodiy faollikda uncha katta o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.

Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar domiy ravishda emas, balki iste'molchi daromadi ko'paygan taqdirda sotib olinadi. Shu sababli, bunday tovarlarga talab barqaror emas. Ishlab chiqarishni uzluksiz davom ettirish talabi esa investitsion tovarlarni doimiy ravishda ishlab chiqarishni zarur qilib qo'yadi.

Iste'mol o'sib borishi bilan investitsion tovarlarga talab ham ortadi. Bunda ishlab chiqarish tarkibida nomutanosibliklar yuz beradi, ya'ni kundalik va uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari hamda investitsion tovarlarni ishlab chiqarish o'rtasida nisbatlar buziladi.

Inqirozning sababi ana shu nisbatlarning buzilishidir. Lekin ko'pchilik iqtisodchilar yetarli darajada iste'mol qilmaslik inqirozning sababi emas, balki uning oqibatidir, deb ta'kidlaydilar. Ya'ni iste'molchilar daromadlarini ko'proq jamg'armaga ajratganlari uchun emas, balki to'lov qobiliyatining yetarli emasligi, ya'ni xarid qilish uchun pulning yetishmasligidan bunday inqiroz kelib chiqadi.

Psixologik nazariya. Iqtisodiyotning siklli rivojlanishini tushuntirishda psixologik nazariyalar ham o'z o'rniga ega. Psixologik nazariya tarafdorlari (J.M.Keyns, U.Mitchell, F.Xaek va boshqalarni kiritish mumkin.) fikricha, in-



sondagi optimizm va pessimizm faoliyat aktivligiga obyektiv iqtisodiy omillar: foiz me'yori, pul oqimi, foyda va boshqa shu kabilar ta'sir ko'rsatib, buning natijasida ishlab chiqarishning qisqarishi yoki kengayishi ro'y beradi. Kredit tizimining rivojlanishi talab va ishlab chiqarishning o'sishi odamlarning ruhiyatini ko'taradi va aksincha. Bundan tashqari, kishilarda likvidligi yuqori bo'lgan pul jamg'arishga moyillik ortib borishi o'z navbatida iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi zamon iqtisodiy fanida iqtisodiy siklning 1380 dan ortiq turlari mavjudligi ta'kidlanadi¹¹². Iqtisodiy fanda ularni qisqa, o'rta va uzoq muddatli sikllarga ajratish qabul qilingan. Mazkur sikllarning barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, uzoq muddatli sikllar

¹¹² Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 469 стр.

oqimida o‘rta va qisqa muddatli, o‘rta muddatli sikllar to‘lqinida esa bir nechta qisqa muddatli sikllar mavjud bo‘ladi. Ularning ko‘pchilik iqtisodchilar tomonidan tan olingan asosiy turlari 23.1-jadvalda ifodalangan.

Kitchin sikli zaxiralar sikli deb ham nomlanadi. Bunda Jozef Kitchin (1926 y.) o‘zining e‘tiborini tovar zaxiralarining harakat chog‘idagi moliyaviy hisoblar va sotish narxlarini tahlil qilish asosida 2 - 4 yilgacha davr davomidagi qisqa to‘lqinlarni tadqiq qilishga qaratadi. Ayniqsa u siklning davomiyligini jahondagi oltin zaxiralarining tebranishlari bilan bog‘lab, uni 3 yil u 4 oyga teng, deb hisoblaydi. Biroq qisqa muddatli sikllar sabablarining bunday izohi bugungi kunda ko‘pchilik iqtisodchilarni qoniqtirmaydi. Kitchin sikli iste‘mol tovarlari bozorida muvozanatlik buzilishi va tiklanishi davridan iborat bo‘ladi. Har bir sikl iste‘mol tovarlariga talab nisbatlari o‘zgargandagi yangi muvozanatlik bilan tugallanadi.

Sikllarning asosiy turlari

23.1-jadval

Sikl turlari	Siklning davomiyligi	Asosiy xususiyatlari
Kitchin sikli	2-4 yil	Zaxiralar miqdori: YaMM, inflatsiya, bandlikning tebranishi, tijorat sikllari
Jyuglar sikli	7-12 yil	Investitsion sikl: YaMM, inflatsiya va bandlikning tebranishi
Kuznes sikli	16-25 yil	Daromad → investitsiya → uy-joy qurilishi → yalpi talab
Kondratev sikli	40-60 yil	Texnika taraqqiyoti, tarkibiy o‘zgarishlar
Forrester sikli	200 yil	Energiya va materiallar
Toffler sikli	1000-2000 yil	Sivilizatsiyalarning rivojlanishi

Jyuglar sikli «biznes-sikl», «sanoat sikli», «o‘rtacha sikl» va «katta sikl» kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda

iqtisodiy fan 7-12 yillik sikllarni ajratib ko'rsatganligi tufayli, aynan shu sikl Fransiya, Angliya va AQSHda foiz stavkalari va narxdagi tebranishlarni tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o'rganishga katta hissa qo'shgan Kleman Jyuglar (1819-1905 yy.) nomi bilan ataladi. Jyuglar siklining davomiyligi ayrim iqtisodchilar qayd qilgan asosiy kapital faol qismining jismoniy eskirishi ro'y beradigan davrga mos keladi.

Birinchi sanoat sikli 1825-yili Angliyada metallurgiya va boshqa yetakchi tarmoqlarda mashinali ishlab chiqarish hukmron mavqeni egallagan davrda kuzatiladi. 1836-yildagi inqiroz dastlab Angliyada boshlanib, keyin AQSHga ham tarqaladi, 1847–1848-yillarda AQSH va qator Yevropa davlatlarida boshlangan inqiroz tub mohiyatiga ko'ra birinchi jahon sanoat inqirozi bo'lgan.

Agar XIX asrda sanoat sikli 10-12 yilni tashkil qilgan bo'lsa, XX asrda uning davomiyligi 7-9 yil va undan ham kam davrgacha qisqargan.

AQSH va Yevropaning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat siklini boshdan kechirgan bo'lib, ulardan yettitasi ikkinchi jahon urushidan keyin ro'y bergan.

1857-yilda qator G'arbiy Yevropa davlatlarini qamrab olgan birinchi jahon siklik inqirozi ro'y bergan. 1873-yilda XIX asrdagi eng uzoq va talafotli inqirozdan keyin 1882- va 1990-yillarda yana yangi inqiroz kuzatilgan.

1900–1901-yillarda bir vaqtda Rossiya va AQSHda metallurgiya sanoatida boshlangan inqiroz shiddatli ravishda barcha Yevropa davlatlariga tarqalgan.



30-40 mln. kishiga yetgan.

Iqtisodiyot tarixiga “Buyuk depressiya” nomi bilan kirgan 1929–1933-yillardagi inqiroz eng talafotli va uzoq davom etgan inqiroz hisoblanadi. Bu inqiroz davrida jahon ishlab chiqarishi hajmi 44%ga, jahon savdosi 62%ga kamaygan. Inqiroz kuchaygan davrda yetakchi davlatlarda ishsizlikning umumiy soni

“Buyuk depressiya”dan keyin 1974–1975-yillardagi inqiroz bir vaqtda deyarli butun rivojlangan mamlakatlarni qamrab olib, ishlab chiqarish 12% ga qisqargan.

Urushdan keyingi yillarda bir qator mamlakatlar uchun 1980–1982-yillardagi inqiroz eng talafotli hisoblanib, bu davrda band qilinmagan ishlab chiqarish quvvatlari Italiyada 30%ni, Kanadada 30%dan ortiqni, AQSH qayta ishlash sanoatida 32,4%ni tashkil qilgan.

Kuznes sikli ko‘p hollarda «qurilish sikli» deb ham nomlanib, 20 yilgacha bo‘lgan iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. Kuznes Saymon o‘zining «Milliy daromad» (1946 y.) nomli kitobida milliy daromad, iste‘mol sarflari, ishlab chiqarish maqsadidagi uskunalar hamda bino va inshootlarga yalpi investitsiyalar ko‘rsatkichlarida 20 yillik o‘zaro bog‘liq tebranishlar mavjud bo‘lishini ko‘rsatib bergan. 1955-yilda amerikalik iqtisodchining xizmatlarini tan olish ramzi sifatida sanoat siklini Kuznes sikli deb nomlashga qaror qilinadi.

Kondratev sikli «uzoq to‘lqinlar» sikli deb ham ataladi. Sikllilikning bu nazariyasini ishlab chiqishga rus olimi N.D.Kondratev katta hissa qo‘shgan. Uning tadqiqoti Angliya, Fransiya va AQSHning 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab olgan. Bunda u iqtisodiy o‘rta davrning ko‘p omilli tahlilini o‘tkazib, ya‘ni tovar narxlari, kapital uchun foiz, nominal ish haqi, tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘rtacha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta sikllarni ajratib ko‘rsatadi.

I-sikl: 1787–1814-yillar – ko‘taruvchi to‘lqin; 1844–1851-yillar – pasaytiruvchi to‘lqin.

II-sikl: 1844–1851-yillar – ko‘taruvchi to‘lqin; 1890–1896-yillar – pasaytiruvchi to‘lqin.

III-sikl: 1896–1920-yillar – ko‘taruvchi to‘lqin.

Kondratev siklining davomiyligi o‘rtacha 40-60 yilni tashkil qiladi va uning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirishi hisoblanadi.

Kondratev birinchi katta siklning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolutsiyasi, ikkinchisini – temir yo‘l transportining rivojlanishi, uchinchisini – elektr energiyasi, telefon va radioning kashf etilishi, to‘rtinchisini – avtomobil sanoatining rivojlanishi

bilan bog'laydi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari beshinchi siklni elektronika, gen injenerligi va mikroprosessorlar rivojlanishi taqozo qilishini ko'rsatadi.

Kondratevdan bir necha yillar keyin fransuz iqtisodchisi Fransua Semyan ham katta iqtisodiy sikllar bo'yicha bir xil xulosaga kelgan. Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida katta iqtisodiy sikllar konsepsiyasi makroiqtisodiy prognozlash muammosiga tatbiqan qarab chiqiladi.

Tahlilchilar "uzoq to'lqinlarni" yaxlit texnologik davrlar almashinishi, fandagi texnika, ishlab chiqarish va hatto madaniyat, ta'lim, kishilar turmush tarzidagi katta tub o'zgarishlar bilan ham bog'laydi. Bunday katta o'zgarishlar ichki yonish dvigatellari, elektr-energiyasi, kompyuterlar kashf qilinishi natijasida vujudga kelgan.

Iqtisodiy sikl barcha tomonlari bilan namoyon bo'lib, amalda iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi sababli uning hech bir sohasi inflatsiya to'lqini yoki turg'unlikning noxush oqibatlaridan chetda qolmaydi. Ammo shuni e'tiborga olish zarurki, iqtisodiy sikl alohida shaxslar turmush darajasi va korxonalar iqtisodiy faolligiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Odatda iqtisodiy inqirozlardan sanoatning ishlab chiqarish vositalari va uzoq muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlari ko'proq zarar ko'radi.

Uy-joy va sanoat binolari qurilishi, og'ir mashinasozlik hamda investitsion tovarlar, avtomobillar, maishiy xo'jalik buyumlari va shunga o'xshash tovarlar ishlab chiqarish bilan bog'liq sanoat tarmoqlari va ularda band bo'lgan ishchilar siklning inqiroz fazasida og'ir yo'qotishga uchraydi. Biroq, bu tarmoqlar siklning yuksalish fazasida o'zining rivojlanishi uchun yuqori darajada rag'bat oladi.

Iqtisodiyot qiyinchilikni boshdan kechira boshlaganda ishlab chiqaruvchilar ko'pincha zamonaviy uskunalarni sotib olishni va yangi zavodlar qurishni to'xtatadi yoki qandaydir muddatga kechiktirishi mumkin. Bunday konyunktura sharoitida investitsion tovarlar zaxiralarini ko'paytirish hech qanday iqtisodiy mazmunga ega emas, aksincha korxonalar mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan ancha to'laroq foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy jihatdan qulay vaziyatlarda, ya'ni siklning jonlanish va yuksalish fazalarida ishlab chiqarish vositalari odatda ular to'liq eskirgunga qadar almashtiriladi. Ammo tanazzul davri kelganida, korxonalar o'zining eskirgan uskunalarni ta'mirlab, ularni ishga tushiradi. Shu sababli, bu davrda ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalar keskin qisqaradi. Ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo'lgan ayrim korxonalar, hatto iste'mol qilingan asosiy kapitalning o'rnini qoplashga ham harakat qilmaydi.

Qisqa muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari iqtisodiy siklning oqibatlarini nisbatan kamroq darajada sezadi.

Aholi yoki keng iste'molchilar qatlamiga iqtisodiy sikl turlicha ta'sir ko'rsatadi. Tanazzul davri boshlanganda, doimiy daromad



oluvchi iste'molchilar oila budjetini qisqartirishga to'g'ri keladi, maishiy texnika va avtomashina kabi uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishni to'xtatadi. Har qanday sharoitda ham oila a'zolari yeb-ichishi va kiyinishi zarurligi tufayli, oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechaklar, ya'ni qisqa muddatda foydalanadigan iste'mol tovarla-

rini xarid qilishni to'xtatish mumkin emas. Faqat, bunday tovarlarni xarid qilish miqdori qandaydir darajada kamayishi mumkin.

Investitsion tovarlar va uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi ko'pchilik sanoat tarmoqlari yuqori darajada monopol mavqega egaligi bilan farqlanadi va natijada bozorda nisbatan ko'p bo'lmagan yirik firmalar ma'lum davr davomida narxning pasayishiga qarshi turishi, talabning kamayishi sababli mahsulot chiqarish hajmini cheklash uchun yetarlicha monopol hukmronlikka ega bo'lishi mumkin. Shu sababli, talabning kamayishi birinchi navbatda ishlab chiqarish va bandlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bunga teskari bo'lgan holatni qisqa muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarida kuzatish mumkin. Bu tarmoqlarning ko'pchiligi

o'zlarining raqobatga layoqatsizligi va ishlab chiqarish markazlashuv darajasining pastligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli, ular siklning salbiy oqibatlariga qarshi tura olmasligi mumkin va mahsulotlarga talabning pasayishi ishlab chiqarish darajasiga qaraganda narxlarda ko'proq aks etadi.

Demak, kapitalning to'planishi yuqori darajada bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining keskin pasayishi va narxlarning nisbatan sekin tushishi, uning darajasi past bo'lgan tarmoqlarda narxlarning sezilarli tushishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining nisbatan kam qisqarishi kuzatiladi.

3. Inqirozlarning mazmuni va turlari

Sikli rivojlanishning dastlabki va asosiy fazasi inqiroz hisoblanadi. Inqiroz bir siklni nihoyasiga yetkazib, yana muqarrar ravishda inqiroz bilan tugaydigan yangisining boshlanishiga asos soladi; inqiroz ro'y berganda asosiy kapitalning ortiqcha jamg'arilishi uning hamma funksional shakllarida namoyon bo'ladi.

Inqiroz paytida ishlab chiqarish va bandlik qisqaradi, ammo narxlar har doim pasayish tamoyiliga berilmaydi. Bu fazaning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik o'zining eng past darajasiga tushib ketishi orqali tavsiflanadi. Shunga ko'ra, iqtisodiy inqiroz ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmining keskin tushib ketishini anglatadi.



Inqirozning sababi shundan iboratki, jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlar massasi to'lovga qobil talabga mos kelmay (undan oshib ketadi yoki kam bo'ladi) qoladi. Natijada ishlab chiqarishning bir qismi to'xtab

qoladi, tovarlar taklifi kamayadi, ishlab chiqarishning o'sish davri uning tushkunligi bilan almashinadi. Iqtisodiyotning o'sishi inflatsiya, ya'ni narxlar umumiy darajasining keskin ko'tarilishi

sababli orqaga ketadi. Shunday davrlar ham bo‘ladiki, bunda iqtisodiy o‘shish bandlik va ishlab chiqarishning past darajasiga o‘rin beradi, ayrim hollarda narx darajasining ko‘tarilishi bilan birga ishsizlik ham keskin ortadi. Iqtisodiy o‘shishning uzoq muddatli tamoyillari ham ishsizlik, ham inflatsiya oqibatida uzilib qoladi va murakkablashadi. Inqirozlarning asosiy sababi – takror ishlab chiqarishdagi beqarorlik va nomutanosibliklardir. Bu avvalo, ishlab chiqarish va uning natijalarini o‘zlashtirish o‘rtasidagi nomutanosiblik bo‘lib, u turli ishlab chiqarish usullari va iqtisodiy tizimning har xil nusxalarida turli shakllarda namoyon bo‘ladi.

Ishlab chiqarish bilan iste‘mol, talab va taklif o‘rtasidagi vaqt-vaqti bilan yuzaga kelib turadigan nomutanosibliklar ham iqtisodiy inqirozlarning yuzaga chiqish imkoniyatini saqlaydi.

Rivojlangan tovar xo‘jaligi paydo bo‘lgunga qadar ishlab chiqarishning keskin qisqarishi odatda tabiiy ofatlar (qurg‘oqchilik, toshqinlar va h.k.) yoki urushlar va ular keltiradigan vayronagarchiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan. Yirik mashinali ishlab chiqarishga o‘tilgan davrdan keyingi vaqt-vaqti bilan iqtisodiyotni larzaga solib turuvchi iqtisodiy inqirozlar takror ishlab chiqarishga siklik tavsifni kasb etadi. Inqirozlar turli-tuman tarzda ro‘y bersa-da, ularni umumiy, o‘xshash tomonlarini nazarda tutib, guruhlariga ajratish mumkin.

1. Xo‘jalik tizimida muvozanatning buzilish ko‘lamiga ko‘ra inqirozlarni umumiy hamda ayrim sohalarda yuz beradigan turlarga ajratish mumkin. Umumiy inqirozlar butun milliy xo‘jalikni qamrab olsa, ikkinchisi qisman, ya‘ni ayrim sohalarda yoki tarmoqlardagi tanglik sifatida ro‘y beradi.

Ayrim sohalardagi inqirozlar orasida moliyaviy inqiroz muhim o‘rin tutib, u o‘z ichiga pul-kredit va valuta sohasidagi inqirozlarni oladi. AQSH va Yevropaning aksariyat mamlakatlarida 2008-yilda boshlangan inqiroz ham dastlab moliya sohasini, keyinchalik ishlab chiqarish sohasini ham qamrab olib, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozga aylandi.



Pul-kredit sohasidagi inqiroz. Mamlakatda pul-kredit tizimining tang ahvolga tushishi bo‘lib, bunda tijorat va bank krediti taklifi qisqaradi. Aksiya va obligatsiyalarning kursi, bank foiz stavkasi tushib ketishi natijasida banklar sinib, bankrotlikka uchraydi.

Valuta inqirozi. Bunda banklarda valuta zaxirasi tugab, milliy valuta kursi keskin tushib ketadi.



Birja inqirozi. Bu qimmatli qog‘ozlar kursining tezda keskin tushib ketishi, ularni emissiya qilishning qisqarishi natijasida fond birjalari faoliyatidagi chuqur tangligini ifodalaydi.

Ekologik inqiroz. Atrof-muhitning keskin buzilishi natijasida eng avvalo, kishilar sog‘lig‘ini yo‘qotish, umrini qisqartirishga olib keladigan darajadagi vaziyatning vujudga kelishida ifodalanadi.

Tarkibiy inqirozlar. Bu inqirozlarni ishlab chiqarishning ayrim sohalari bilan tarmoqlar rivojlanishi o‘rtasidagi chuqur nomutanosibliklar keltirib chiqaradi. Tarkibiy inqirozlar milliy xo‘jalikning biron-bir tarmog‘ini qamrab olib, ishlab chiqarishning tarkibiy o‘zgarishini taqozo qilsa-da, aks holda me‘yordagi xo‘jalik aloqalarning buzilishiga sabab bo‘ladi.

Tarkibiy inqirozlar bilan iqtisodiy tebranishlar va shu jumladan iqtisodiy faollikning mavsumiy tebranishlari ham mavjud bo‘ladi. Masalan, bayramlar arafasida ommaviy ravishda xarid qilish, iste‘mol tovarlarining faollik sur‘atida, asosan chakana savdoda sezilarli har yillik tebranishlarga olib keladi. Qishloq xo‘jaligi, avtomobil sanoati, qurilish ham qandaydir darajada mavsumiy tebranishlarga duchor bo‘ladi.

Iqtisodiy faollik iqtisodiyotdagi uzoq muddatli tamoyillarga, ya‘ni uzoq muddatli davr, masalan, 25, 50 yoki 100 yil davomida iqtisodiy faollikning o‘zgarishi (ortishi yoki pasayishi) ga bog‘liq. Bu yerda shuni ta‘kidlash lozimki, ayrim mamlakatlarda (masalan AQSH) uzoq muddatli tamoyil sezilarli iqtisodiy o‘sish bilan tavsiflansa, boshqalarda iqtisodiy o‘sishning sekinlashuvi kuzatiladi.

Iqtisodiy faollikning tebranishini tushuntiruvchi ko‘plab qarashlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, ko‘pchilik iqtisodchilar

ishlab chiqarish va bandlik darajasini belgilovchi asosiy omil umumiy yoki yalpi sarflar darajasi deb hisoblashdi.

Agrar inqirozlar. Qishloq xo‘jaligida ro‘y beradigan agrar inqirozlar quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: 1) qishloq xo‘jalik mahsulotlarining nisbiy ortiqcha ishlab chiqarilishi, uning sotilmay qolgan juda katta zaxiralarining to‘planishi; 2) narxlarning pasayishi, daromadlar va foydalarning kamayishi; 3) fermerlarning ommaviy ravishda xonavayron bo‘lishi, ular qarzlarning ortishi; 4) qishloq aholisi o‘rtasida ishsizlarning ko‘payishi.

Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, agrar inqirozlar o‘ziga xos tavsif kasb etadi. Agrar inqirozlar sanoat sikllariga qaraganda odatda ancha uzoq vaqt cho‘zilib ketadi. Birinchi agrar inqiroz XIX asrning 70-yillarida boshlanib, har xil shakllarda 90-yillar o‘rtasigacha davom etgan.

Birinchi jahon urushidan keyin, aholining xarid qobiliyati juda pasayib ketgan sharoitda, 1920-yil bahorida keskin agrar inqiroz boshlanib, ikkinchi jahon urushining boshlanishga qadar, uchinchi agrar inqiroz 1948-yildan 80-yillargacha davom etgan.

Agrar inqirozlarning cho‘zilib ketishining asosiy sabablari quyidagilar: a) yerga xususiy mulk monopoliyasi qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining rivojlanishida sanoatga nisbatan orqada qolishiga sabab bo‘ladi; b) yer rentasining mavjud bo‘lishi va uning uzluksiz sur‘atda o‘sib borishi. Yer rentasining, avvalo, absolyut rentaning o‘sib borishi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qimmatlashtirib yuboradi, buning natijasida ularni sotish qiyinlashadi; d) ko‘plab mayda dehqon xo‘jaliklarining mavjud bo‘lishi. Mayda ishlab chiqaruvchilar xo‘jalikni asosan o‘zi va oilasi uchun zarur tirikchilik vositalari bilan ta‘minlash maqsadida yuritadi. Inqiroz sharoitida ham ular ishlab chiqarishni qisqartira olmaydilar. Oilasini ta‘minlash va ijara haqini to‘lash uchun ishlab chiqarishni ilgarigi miqyoslarda olib boraveradi. Bu hol qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni yana ham ko‘paytirib yuboradi.

Agrar inqirozlar siklli tavsifga ega bo‘lmaydi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarish mutlaq emas, balki nisbiy tavsifga ega. Chunki inqiroz ro‘y bergan mamlakatlarda million-million kishilar doimiy suratda ochlikda yashaydi.



2. Iqtisodiyotda muvozanatlik buzilishining muntazam yoki onda-sonda yuz berishiga ko'ra davriy, oraliq, beqaror inqirozlarga ajratish mumkin.

Davriy inqirozlar ma'lum vaqt mobaynida takrorlanib turadi.

Oraliq inqirozlar to'liq sikl bo'yicha yuz bermaydi. Siklning biron-bir fazasida to'xtatiladi. Ular nisbatan uncha shiddatli bo'lmay, qisqa davr davom etadi.

Beqaror inqirozlar biron-bir alohida sabablarga ko'ra yuz beradi. Masalan, tabiiy ofat, sel, to'fon, qurg'oqchilik tufayli iqtisodiyot tang ahvolga tushib qolishi mumkin.

3. Takror ishlab chiqarish nisbatlarining buzilish tavsifiga ko'ra: ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish inqirozlariga bo'linadi. Tovarlarini ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi turli naf keltiradigan ne'matlarning ko'p miqdorda ishlab chiqarilishi, lekin ularning to'liq sotilmasligida namoyon bo'ladi.

Taqchil ishlab chiqarish inqirozi davrida iqtisodiyotda muvozanat buzilib, tovarlar yetishmasligi natijasida tang ahvol kelib chiqadi. Shunday ekan, iqtisodiyotning tang ahvolga tushishiga faqat ortiqcha ishlab chiqarish emas, balki taqchil ishlab chiqarish ham sabab bo'ladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va iqtisodiy faollikka ta'siri.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning keskinlashuviga va har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Biroq jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashtiruvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ma'lum salbiy oqibatlari ham o'z o'rniga ega. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, ular o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanish jihatidan farqlar mavjudligi, ekologik tahdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo'jaligining yaxlit tizim sifatida barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarining yana bir xususiyatli jihati – jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi. Jahon hamjamiyatida yaqin o'tmishda boshlangan va hozirda ham o'z o'rniga ega bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz aynan shu ma'noda globallashtiruv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo'ladi.

«Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi»¹¹³.

Bundan ko'rinadiki, dastlab AQSH ipoteka bozorlarida namoyon bo'lgan mazkur inqiroz yetarlicha to'lov layoqatiga ega bo'lmagan, qarzlarni qaytarish qobiliyati shubhali bo'lganlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashtiruv natijasida ro'y bergan.

Ipoteka krediti o'zining mohiyati bo'yicha ko'chmas mulk garovi hisobiga beriladigan kreditlar bo'lsa-da, AQSH bozorlari bunday likvidli ko'chmas mulklarga yetarlicha «to'yingani» oqibatida ularning narxlari keskin tusha boshlagan.

AQSH iqtisodiyoti yaratilgan shart-sharoitlar tufayli arzon kredit resurslariga to'yindi va bu Federal zaxira tizimi amalga oshirayotgan pul-kredit siyosatini o'zgartirishga olib keldi. Jumladan, Federal zaxira tizimi foiz stavkalarini keskin ko'tardi.

¹¹³ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.. – T.:O'zbekiston 2009, 4-b.

Kreditlarning qimmatlashuvi aholining ipoteka kreditiga talabining pasayishiga va kreditlarni qaytarish bo'yicha qarzdorlar to'lovining kamayishiga olib keldi. Boshqa tomondan, oziq-ovqat mahsulotlari va energiya resurslari narxlarining o'sishi aholining kreditni qaytarish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarining cheklanishiga sabab bo'ladi. 2000–2007-yillar mobaynida jahon bozoridagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxi o'rtacha ikki barobarga, benzin narxi esa 3,5 barobarga oshgan. Neft narxi rekord darajada ko'tarilgan, ya'ni bir barreli 147 dollardan ortdi.

Pirovard natijada 2007-yil boshida AQSHda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaygan. Qarzdorlarning ko'chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko'ra to'lovlarni to'lashdan bosh tortish holati kengaygan. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib kelgan.



Ko'pchilik mutaxassislar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning haqiqiy sabablaridan biri rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosati ekanligini, ya'ni «o'z-o'zini boshqaruvchi bozor» g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvining cheklanganligi bilan ham izohlaydilar.

Jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishining asosiy sabablaridan biri – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini qayd qilish lozim. Pul muomalasi qonuniga asosan, iqtisodiyot sog'lom va barqaror amal qilishi uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallashuvi va globallashtirish jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, biroq

dastlab ayrim mamlakatlar, (AQSHda) keyinchalik ko‘plab mamlakatlarda mazkur qonun talablarini e‘tiborga olmaslik holatlari kuzatiladi. O‘tgan asrning 70-yillariga qadar amal qilib kelgan jahon valuta tizimlari pullarning oltin yoki tovar mazmunini ta‘minlash orqali iqtisodiy rivojlanishning barqarorligiga zamin yaratib kelgan. Biroq jahon amaliyotida boshqariladigan, suzib yuruvchi valuta tizimiga o‘tgach, pulning oltin mazmuni yo‘qolib, asosan AQSH dollari yetakchi valutaga aylanib, uning muomalaga chiqarilishini nazorat qilish qiyin bo‘lib qoldi. Keyingi yillarda globallashuv jarayonining jadallashuvi ta‘sirida xalqaro iqtisodiy aloqalarda qat‘iy valutaga bo‘lgan talabning yanada ortishi AQSH tomonidan hech qanday tovar bilan ta‘minlanmagan pullarning muomalaga chiqarilish jarayonini yanada tezlatib yubordi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, muomaladagi pul massasi (naqd, kredit pullar va turli to‘lov vositalari)ning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmidan deyarli 10 baravar, agar pulning aylanish tezligi ham hisobga olinsa, uning miqdori pulga bo‘lgan talabdan bir necha o‘n baravar ko‘payib ketganligini anglatadi.

Shu bilan bir qatorda, asosan yetakchi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi salbiy holatlar ham moliyaviy inqirozning vujudga kelishining asosiy sabablaridan hisoblanadi:

noratsiotnal pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalash stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi;

moliyaviy institutlarning majburiyatlari bilan ustav mablag‘lari o‘rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi;

qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;

moliyaviy audit va professional etika tamoyillarining buzilishi va soxta audit xulosalari taqdim etilishi;

moliyaviy rag‘batlantirish uslubi sifat ko‘rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko‘rsatkichlarga asoslanganligi;

yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatli qog‘ozlarning vujudga kelishi va hokazo.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi milliy xo‘jalik rivojidadagi iqtisodiy faollikning turli shakllari va ishlab chiqarish natijalariga o‘z ta‘sir kuchiga ega bo‘ladi. Jumladan, keyingi yillarda

rivojlangan mamlakatlarda surunkali budjet taqchilligi va salbiy tashqi savdo saldosingiz kuzatilayotganligi jahon moliyaviy inqirozining vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri ayni vaqtda uning salbiy oqibati hisoblanadi.

«...moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, resessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko‘lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko‘plab mamlakatlari ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofatlar sodir bo‘lishi mumkinligi o‘z tasdig‘ini topmoqda»¹¹⁴.

Keyingi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi savdo balansida ijobiy qoldiq o‘sayotgan sharoitda ayrim rivojlangan mamlakatlarda surunkali budjet taqchilligi va salbiy tashqi savdo saldosingiz kuzatilayotganligi jahon moliyaviy inqirozining vujudga



kelishining asosiy omillaridan biri hisoblangan. Xususan, keyingi yillarda Xitoy, Yaponiya, Yaqin Sharq mamlakatlari valuta zaxiralari keskin o‘ydi. Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi paytlarda xalqaro valuta zaxiralarning 3,4 trln. dollari, ya’ni jami zaxiralarning

qariyb 59% Osiyoning 10 ta yirik mamlakati hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, AQSH davlat tashqi qarzi miqdorining o‘tib borganligi va uning YaIMga nisbatan salmog‘i ortganligi inqiroz kuchayishining asosiy omillaridan biri bo‘lgan.

Inqiroz boshlangan davrda AQSH va ayrim Mustaqil hamdo‘stlik davlatlari tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotlariga nisbatan salmog‘i ortib borgan. Xususan, 2008-yilda AQSH tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog‘i qariyb 90% ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich Rossiyada 37% ni, Qozog‘istonda 102% ni, Ukrainada 64% ni va Qirg‘izistonda 81% ni tashkil etgan.

¹¹⁴ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston 2009, 5-bet.

2008-yilda jahon miqyosida bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining 20% gacha pasayishi jahon yalpi ichki mahsulotining sezilarli kamayishi hamda xalqaro savdo hajmining pasayishi kuzatilgan. Bu dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ishsizlik darajasining ortishi bilan birga borgan.

Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ishsizlik darajasining o'sib borishi inqirozdan chiqish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda bandlik, talabni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishga qaratilgan keskin choralarni ko'rish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

Rivojlangan mamlakatlar hissasiga 1996-yilda 46,2 mlrd. dollar hajmdagi ijobiy tashqi savdo saldosini to'g'ri kelgan bo'lsa, 2007-yilga kelib bu ko'rsatkich 798,8 mlrd. dollarlik salbiy miqdorni tashkil qilgan. Aksincha, bu davrda rivojlanayotgan mamlakatlarning 87,5 mlrd. doll. hajmdagi salbiy tashqi savdo saldosini 509,7 mlrd. doll.lik hajmdagi ijobiy tashqi savdo saldosiga aylangan.

Xalqaro ekspertlarning qayd qilishlaricha, AQSH ipoteka bozorlarida boshlangan inqirozning avj olib, uning jahon moliyaviy va keyin iqtisodiy inqiroziga aylanib borishining sabablardan biri bu AQSHning jahon yalpi ichki mahsulotining asosiy iste'mol qiluvchisi hisoblanganidir. AQSHning jahon yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqishdagi hisyasi 20% ni, uning iste'moldagi ulushi qariyb 40% ni tashkil qilgan.



O'z vaqtida Respublika Birinchi Prezidenti I. Karimov moliyaviy inqiroz holati va oqibatlarga doir quyidagi xulosani bayon qilgandi: «...avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliyabank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh

qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va

qimmatbaho qogʻozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yoʻqligini ham tasdiqladi»¹¹⁵.

AQSH Federal zaxira tizimi tomonidan olib borilgan noratsional pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalashtirish stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida banklar tomonidan kredit berish koʻlami keskin oʻsgan.

Natijada bozorda koʻchmas mulklarga talab ortgan va uy-joy narxlarining qisqa muddat ichida keskin oʻsishi kuzatilgan.

«...moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, koʻlami va oqibatlari... bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valuta tizimi nechogʻliq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi, ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada – mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, diversifikatsiyalash va raqobatga bardoshlik darajasiga bogʻliq»¹¹⁶.

Milliy bozorlarning globallashuvi, kapitallar xalqaro harakatining erkinlashtirilishi natijasida AQSHda vujudga kelgan inqiroz jahonning asosiy moliyaviy markazlari hisoblangan yirik fond bozorlarini oʻz ichiga oluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga jiddiy taʼsir koʻrsatgan. Natijada, rivojlangan mamlakatlar YaIMning oʻsish surʼatlari bu davrda sezilarli darajada pasayib ketgan.

Jahon moliyaviy inqirozi MDH mamlakatlarini ham chetda qoldirmadi. Inqiroz Rossiya, Ukraina va Qozogʻiston iqtisodiyotida oʻzining jiddiy salbiy oqibatlarini namoyon qildi.

Rossiyada asosan iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yurituvchi yetakchi kompaniyalar aksiyalarining narxlari keskin tushib ketdi. Bu holat birinchi navbatda jahon energetika resurslari bozoridagi nobarqaror konyunkturaning vujudga kelishi natijasida sodir boʻldi.

“Qozogʻiston iqtisodiy moʻjizasi” degan nom bilan tanilayotgan “ochiq iqtisodiyot” siyosati va uning stixiyali tarzda jahon iqtiso-

¹¹⁵ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. – T.: Oʻzbekiston 2009, 5-bet.

¹¹⁶ oʻsha joyda. 5-bet.

diyotiga integratsiyalashuv jarayoni global moliyaviy inqiroz sharoitida o'zining jiddiy kamchiliklariga egaligini ko'rsatdi.

Jahon moliyaviy inqirozining o'ziga xos xususiyati – bu uning iqtisodiyot moliyaviy sektoridan boshlanib, real sektoriga o'tganligidir. «... jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilina-yotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq»¹¹⁷.

Shunga ko'ra, AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'zlari-ning bank tizimlarini inqirozdan qutqarish uchun yirik tijorat bank-larining aksiyalarini sotib olib, ularni budjet mablag'lari hisobiga likvidli aktivlar bilan ta'minlay boshladi yoki tijorat banklari kreditlari uchun davlat kafolatlari tizimidan foydalanish joriy qilinadi.

Masalan, AQSHda Federal zaxira tizimi qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali xususiy sektorni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirgan bo'lsa, Buyuk Britaniya hukumati banklar va moliyaviy muassasalar aksiyalariga 37 mlrd. funt sterling mablag'larini investitsiya qilgan. Germaniya hukumati esa, bank tizimini qo'llab-quvvatlash uchun investitsiya va kreditlar shaklida 500 mlrd. yevro ajratgan. Bu davrda Yevropaning ko'pchilik yirik banklari milliyashtirildi, ya'ni davlat tomonidan sotib olindi.

Inqiroz oqibatlarini yumshatish uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullaridan keng foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Dunyoning ko'pchilik rivojlangan mamlakatlari inqirozni bartara-raf qilish uchun yirik miqdorda moliyaviy resurslar ajrata boshladi.

Jumladan, AQSH hukumati sarflagan mablag'larining hajmi 3539 mlrd. dollar bo'lib, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25% ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shu davrda O'zbekiston ham xalqaro hamjamiyatning va global moliya-viy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanishi sababli

¹¹⁷ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston 2009, 6-bet.

Uzbekistan



inqiroz oqibatlarining ma'lum darajada iqtisodiyotimizga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkinligini qayd qilib o'tgan edi.

Biroq moliyaviy inqirozning respublikamiz iqtisodiyotiga ta'siri boshqa rivojlangan va ayrim qo'shni davlatlardagiga qaraganda

mazmunan farq qiladi. Agar boshqa mamlakatlarda bu jarayonlar bevosita moliya tizimining izdan chiqishi va ishlab chiqarish hajmlarining keskin qisqarib ketishi, ko'plab yirik korxonalarining yopilishi orqali namoyon bo'lsa, bizda jahon xomashyo bozorlarida talabning susayishi tufayli narxlarning keskin pasayishi hamda buning oqibatida eksport tushumlarining sezilarli kamayishi, asosiy savdo hamkorlarimiz xarid qobiliyatining pasayishi natijasida tashqi savdo aylanmasining qisqarishi orqali namoyon bo'ladi.

Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekistonga ta'sirining jiddiy bo'lmaganligini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon xo'jaligiga inqiroz oqibatlari ahamiyatli ta'sir ko'rsatadigan darajada integratsiyalashmaganligi, Respublikamizda katta hajmdagi xorijiy kapitalni ushlab turuvchi kompaniya va moliyaviy institutlarning yo'qligi;

xususiylashtirish mexanizmi va shart-sharoitlari natijasida deyarli barcha ustav fondlarining korxonalarining real xususiy aktivlari bilan ta'minlanganligi;

ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'li tanlanganligi;

davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligining aniq belgilab olinganligi;

O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, budjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi;

oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi;

aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda

o‘shining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi;

davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining barqaror va ishonchli ekani, ularning himoya mexanizmlari kuchliligi.

O‘zbekistonning jami umumiy tashqi qarzi inqiroz davrida ham, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 16,0% foizdan oshmagan, bu ko‘rsatkich esa xalqaro mezonlar bo‘yicha “o‘rtachadan ham kam” baholangan. Bu o‘z navbatida mamlakatimizning xalqaro darajadagi to‘lov qobiliyatiga egaligini ko‘rsatadi.

Respublikamizda doimo qisqa muddatli spekuliyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalari uzoq muddatlarga, imtiyozli foiz stavkalari bo‘yicha jalb etildi. Natijada milliy iqtisodiyotimizning xalqaro kreditlar bozoridagi konyunkturaga keskin bog‘liqligi va moliyaviy inqiroz salbiy oqibatlarining oldi olindi.

Bularning barchasi, jahon hamjamiyatiga a‘zo ko‘pchilik mamlakatlarda iqtisodiy beqarorliklar kuzatilayotgan sharoitda respublikada investitsion faollikni oshirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash va aholi turmush farovonligini oshirib borish imkonini beradi.

5. Ishsizlik va uning turlari



Ishsizlar – bu mehnatga layoqatli bo‘lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta‘minlanmaganlardir.

Ishsizlik kelib chiqishining asosiy sababi– ishchi kuchi (mehnat)ning aniq bozorida taklifning unga

bo‘lgan talabdan ortib ketishi va buning natijasida iqtisodiy faol aholi bir qismining ish bilan ta‘minlanmasligidir.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq 16 yoshdan boshlab pensiyaga chiqish huquqini olish yoshigacha ish joyiga va ish haqi (mehnat daromadi)ga ega bo‘lmagan, haqiqatda ish qidirayotgan, mehnat qilishga layoqatli, kasb-korga ega va qayta

tayyorgarlikdan o'tishga tayyor, davlat bandlik xizmati muassasalari maqbul keladigan ishni taklif qilmagan, shaxslar ishsizlar deb yuritiladi. Ishsizlik kelib chiqish sabablariga ko'ra: friksion, tarkibiy va siklik ishsizlikka bo'linadi.

Friksion ishsizlikka yangi joyga ko'chib o'tishi natijasida asosiy ish joyini vaqtincha yo'qotgan, lekin faol ish qidirayotganlar kiradi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'z xohishi bilan ish joyini o'zgartirganlar;
- ishdan bo'shatilganligi tufayli yangi ish joyi qidirayotganlar;
- vaqtinchalik ish joyini yo'qotganlar;
- birinchi marta ishga joylashish uchun ish qidirib yurgan yoshlar.

Bu turdagi ishsizlar u yoki bu sababga ko'ra ish joyini yo'qotganlar bo'lib, har doim mavjud bo'ladi va mehnat bozorini to'ldiradi.

Friksion ishsizlik muqarrar hisoblanadi, chunki ko'pchilik ishlovchilarda kam haq to'lanadigan ish joyidan, ko'proq haq oladigan ishga o'tishga xohish bo'ladi. Bu ish kuchining malakasini va mahoratini oshirishga undaydi shu bilan birga mehnat resurslarining samarali taqsimlanishi real milliy mahsulotlarning ko'payishiga olib keladi.

Tarkibiy ishsizlik – iste'molchi talabi va texnologiyadagi o'zgarishlar oqibati hisoblangan tarkibiy o'zgarishlar natijasida kelib chiqadi. Tarkibiy ishsizlar maxsus tayyorgarlik qilmasdan, yangi ish turiga ko'nikma hosil qilmasdan ish topa olmaydilar.

Friksion ishsizlik qisqa muddatli tavsifga ega bo'lsa, tarkibiy ishsizlik esa uzoq muddatga cho'zilib jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Siklik ishsizlik – iqtisodiy inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadi va majburiy ishsizlik hisoblanadi. Masalan, AQSHda 1982-yildagi krizis davrida ishsizlik darajasi 9,7% ga ko'tarilgan, "Buyuk



turg'unlik" davri – 1933-yilda esa siklli ishsizlik darajasi 25%ga yetgan. 2008-yilgi jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi natijasida bu turdagi ishsizlik darajasi 5 - 6%ni tashkil qilgan.

Ishsizlik namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra ixtiyoriy, muassasaviy (Institutsional), texnologik, hududiy, yashirin va turg'un turlarga bo'linadi.

Ixtiyoriy ishsizlikka – odatda o'z xohishi bilan ishlamayotganlar kiritiladi. Kishilar ish haqining pasayishi sababli yoki uy xo'jaligi bilan mashg'ul bo'lishi, bola boqish va boshqa sabablarga ko'ra ixtiyoriy ravishda ishlamasliklari mumkin.

Muassasaviy ishsizlik – bu mehnat bozorlarining samarali tashkil etilmasligi natijasida kelib chiqadi. Masalan, vakantli joylar to'g'risida ma'lumot yetarli bo'lmay kishilar bo'sh ish o'rinlaridan xabarsiz qoladi.

Texnologik ishsizlik – ishlab chiqarishning texnologik usuli o'zgarishi, xususan mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, robotlashtirish va informatsion texnologiyalarning qo'llash natijasida vujudga keladi.

Hududiy ishsizlik – hududiy, tarixiy, demografik, madaniy, milliy va ijtimoiy-ruhiy omillar bilan bog'liq holda mavjud bo'ladi.

Yashirin ishsizlik – faol aholining ish kuni yoki ish haftasi davomida to'liq band bo'lmagan qismidir.

Turg'un ishsizlik – mehnatga layoqatli aholining ish joyini yo'qotgan, ishsizlik nafaqasini olishdan mahrum bo'lgan va mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi bo'lmagan qismi.

Ishsizlik davom etish vaqtiga qarab qisqa va uzoq muddatli ishsizlikka bo'linadi. Ko'pgina mamlakatlarda 6 oygacha ishsizlikni qisqa muddatli, undan ortiq muddatga cho'zilganda uzoq muddatli ishsizlik hisoblanadi. Iqtisodiy faol aholining ish bilan bandligini tahlil qilish maqsadida ishsizlik darajasi aniqlanadi. Ishsizlik darajasi ishsizlar sonining ishchi kuchi umumiy soniga nisbatining foizdagi ifodasidir:

Ishsizlik darajasi = ishsizlar soni/ishchi kuchi soni •100%

Ishchi kuchi soni=Ishlovchilar yoki band bo'lganlar + faol ish qidiruvchilar yoki ishsizlar.

To'liq bandlilik ishsizlikning tabiiy darajada mavjud bo'lishini ko'zda tutadi va u quyidagicha aniqlanadi. Ishsizlikning tabiiy yoki muqarrar darajasi = friksion ishsizlar + tarkibiy ishsizlar. Friksion va tarkibiy ishsizlik muqarrar mavjud bo'lib turadigan ishsizlikdir.

Ishsizlarning bunday tabiiy darajada muqarrar mavjud bo'lishi, hamma resurslarning zaxirasi bo'lganligi kabi, mehnat resurslarining ham zaxirasi sifatida qaraladi. Shunga ko'ra ishsizlar soni siklik ishsizlarga teng bo'ladi.

Iqtisodchilarning fikriga ko'ra ishsizlikning "tabiiy" darajasi 3-5% atrofida bo'lishi kerak. Lekin bu ko'rsatkich turli mamlakatlarda o'zining obyektiv sharoitidan kelib chiqib, farq qiladi. Masalan, AQSHda u 7% atrofida, chunki bu mamlakatda ishchi kuchining safarbarligi juda yuqori. Yaponiyada esa ishsizlik 1% atrofida bo'lsa to'liq bandlikka erishilgan deb qaraladi. Yaponiyada bir umrlik



asosida ishlash keng tarqalgan, demak, ish kuchini safarbarligi past.

Ishsizlik kishilarni zarur malakaga ega bo'lishga, o'z ustilarida ko'proq ishlashga undaydi. Shuning uchun, iqtisodchilar fikriga ko'ra ma'lum darajada ishsizlik bozor iqtisodiyotining doimiy yo'ldoshi bo'lib qolishi kerak. Ishsizlik ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlariga ega.

Ishsizlikning ijtimoiy oqibati shunda ko'rinadiki, uzoq vaqt ishsiz yurish kasbiy malaka va mahoratning yo'qolishiga olib keladi. Ishsizlik kishilarni ruhan zo'rliqtiradi, ba'zi hollarda ishsizlar orasida jinoyatchilik keskin ortishi ham mumkin.

Amerikalik iqtisodchi A.Ouken ishsizlik darajasi va YaMM orqada qolishi o'rtasidagi bog'liqlik orqali uning iqtisodiy oqibatini miqdoriy aniqlagan.

Ouken qonuniga ko'ra ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 1%ga yuqori bo'lsa, YaMM (YaIM)ning orqada qolishi 2.5%ni tashkil qiladi, ya'ni ular o'rtasidagi nisbat quyidagicha bo'ladi - 1:2.5; 2:5; 3:7.5 va h.k.

Ishsizlikning tabiiy darajasidan yuqori bo'lishi natijasida jamiyat tomonidan ma'lum miqdordagi mahsulotning ishlab chiqarilmasligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\boxed{\text{Ishlab chiqarilmagan mahsulot}} = \boxed{\text{Potensial YaMM (YaIM)}} - \boxed{\text{Haqiqiy YaMM (YaIM)}}$$

Ingliz iqtisodchisi A.U. Filipp Buyuk Britaniya iqtisodiyotining 1861–1956-yillardagi rivojlanishini tavsiflovchi statistik ma'lumotlardan foydalanib, inflatsiya bilan ishsizlik o'rtasidagi mustahkam bog'liqlik mavjudligini qayd qilgan. U bu davrda Angliyada ish haqi sekin sur'atlar bilan o'sganda ishsizlikning yuqori darajada bo'lganligini va ish haqi tez o'sganda esa ishsizlik pasayganligini ko'rsatib berdi. Buni quyidagicha izohlash mumkin,




ishchi kuchiga talab yuqori bo'lganda tadbirkorlar yangi ishlovchilarni ishga jalb qilish uchun yoki ishlayotganlarni ish joylarida ushlab turish uchun ish haqi stavkasini oshiradi. Ishsizlik ortganda esa, ya'ni ishchi kuchining taklifi talabdan ancha oshib ketganda, ish haqi stavkalari kamayadi. Bundan

xulosa, chiqarib aytish mumkinki, ishsizlikning kamayishi narxlar va ish haqining ortishi bilan birga boradi. Boshqacha aytganda, inflatsiya sur'atini tezlashtirish hisobiga ishsizlik darajasini pasaytirish mumkin.

Keyinchalik Fillips egri chizig'iga amerikalik iqtisodchilar P.Samuelson va R.Solou o'zgartirishlar kiritib, ish haqi stavkasini narxlarning o'sish sur'ati bilan almashtirdi. Agar davlat ishsizlik darajasini juda yuqori deb hisoblasa, o'zining fiskal va budjet-pul siyosati orqali yangi talabni qondirish zaruratini hisobga olib ishlab chiqarishni rivojlantirishga va yangi ish joylarini vujudga keltirishga harakat qiladi.

Fillips egri chizig'ida ishsizlik va inflatsiya o'rtasidagi bog'liqlik qisqa davradagina amal qiladi. Agar inflatsiya 5 yildan ortiq vaqt davom etsa, ishsizlik darajasi yanada oshib ketishi mumkin. Buni

grafikda egri chiziqning o'ng tomonga siljishida ko'rish mumkin, bunda stagflatsiya holati kelib chiqadi (Stagflatsiyaning ma'nosi inflatsiya davrida ishsizlikning o'sishidir).



23.4-chizma. Fillips egri chizig'i.

Hozirda, nisbatan uzoq davrlar uchun Fillips egri chizig'i o'rniga ishsizlikning tabiiy darajasi nazariyasidan foydalanilmoqda. Bu nazariya uzoq davr mobaynida faqat tabiiy ishsizlik darajasidagina inflatsiyani o'rtacha sur'atda ushlab turish mumkinligini bildiradi. Bu nazariya keyingi yillarda AQSH va Angliya hukumatlari tomonidan muvaffaqiyatli qo'llanildi va buning natijasida mazkur mamlakatlarda inflatsiyaning o'sish sur'atlarini ancha pasaytirishga erishildi.

6. Inflatsiya, uning kelib chiqish sabablari va turlari

Inflatsiya makroiqtisodiy beqarorlikning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Inflatsiya (lotincha·inflatio-shishirilgan) tushunchasi birinchi marta shimoliy Amerikada 1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi

davrida ishlatilgan va muomaladagi qog‘oz pullarning ko‘payib ketishini anglatgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda “inflatsiya” tushunchasi XX asrda, birinchi jahon urushidan keyin keng qo‘llanila boshlagan.

Inflatsiya – bu pul aylanish kanallarining ortiqcha pul massasi bilan to‘lib ketishi oqibatida narxlar o‘rtacha (umumiy) darajasining ko‘tarilib borishini va natijada milliy pul birligining qadrsizlanishi, ya’ni uning sotib olish layoqati pasayishini anglatadi.

Inflatsiya narx darajasining barqaror o‘shishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu barcha narxlarning bir vaqtda muqarrar o‘shib borishini bildirmaydi. Narxlar nomutanosib o‘shish tamoyiliga ega bo‘ladi. Biri tez o‘ssa, boshqasi ancha me’yoriy sur’atda ortadi, uchinchi umuman ko‘tarilmaydi.

Deflatsiya – inflatsiyaga qarama-qarshi jarayonni, ya’ni narxlarning umumiy darajasining pasayib borishini bildiradi.

Inflatsiya quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

tovar (xizmat)larning mavjud taklifiga nisbatan muomaladagi naqd pullar yoki moliyaviy aktivlar hajmining haddan tashqari ortib ketishida;

pulning sotib olish layoqatining pasayib borishida;

narxlarning uzoq muddatli umumiy o‘shishida.

Inflatsiya – bu pul birligining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o‘shishidir.

Muomalada bo‘lgan pul birligi miqdorining tovarlar narxi summasidan oshib ketishi va buning natijasida tovarlar bilan ta’minlanmagan pulning paydo bo‘lishi pulning qadrsizlanishi, ya’ni inflatsiyani bildiradi.

Inflatsiya bozor xo‘jaligining har xil sohalarida takror ishlab chiqarish nomutanosibliklari tug‘diradigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir.

Qog‘oz pul tovarlarga, oltinga va o‘z qadrini, barqarorligini saqlab qolgan chet el valutalariga nisbatan qadrsizlanadi.



Inflatsiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan aniqlanadi.

Narx indeksi – bu joriy davrdagi narxlarning (R_j) bazis davrdagi narxlarga (R_b) nisbatidir.

$$Pi = \frac{R_j - R_b}{R_b} \cdot 100$$

Masalan, iste'molchilik tovarlariga narx indeksi 2015-yil 113,6; 2016-yil - 118,3 ga teng bo'lsa, inflatsiya sur'ati quyidagicha bo'ladi:

$$\text{Inflatsiya sur'ati} = \frac{118,3 - 113,6}{113,6} \cdot 100 = 4,1\%$$

Iqtisodiy fanda va amaliy hayotda iste'mol va investitsion tovarlar, YaIM, eksport va import tovarlari narx indekslaridan foydalaniladi.

Iste'mol tovarlari narx indeksi – iste'mol savatiga kirgan tovarlarning joriy va bazis davrdagi narxlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Investitsion tovarlar narxlari indeksi – korxonalar tomonidan an'anaviy ravishda sotib olinadigan investitsion tovarlar to'plami narxlar bo'yicha aniqlanadi.

YaIM deflyatori indeksi – nominal va real YaIM hajmining ikki davrdagi nisbatlari bilan aniqlanadi.

Eksport va import tovarlar narxi indeksi – asosiy eksport va import tovarlari narxlarining o'zgarishini aks ettiradi.

Narx indeksning boshqa bir qator turlari ham mavjud.

Laspeyres indeksi. Unda o'zgarmaydigan tovarlar to'plami uchun narxlarning o'sish sur'ati aniqlanadi.

$$n = (P_t x Q_t) = (P_b x Q_b) \text{ bunda}$$

R_t – joriy yildagi narxlar

P_b – bazis davrdagi narxlar

Q_t va Q_b – joriy va bazis davrda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi.

Kamchiligi: ancha qimmat tovarlarni arzonroq tovarlar bilan almashtirish imkoniyatini hisobga olmaydi.

Paashe indeksi. Unda narxlar indeksi tovarlarning bir-birining o'rnini bosish imkoniyati hisobga olib aniqlanadi.

$$I_p = (P_t \times Q_t) / (P_b \times Q_t)$$

Kamchiligi: farovonlik darajasining pasayishida ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettirmaydi

Fisher indeksi. $I_f = I_x I_p$ Unda yuqoridagi har ikkala formulaning kamchiliklari bartaraf qilinadi.

Bir qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda inflatsiya sur'ati ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Inflatsiya sur'ati ko'rsatkichi;

$$n = (I_t - I_{t-1}) \times 100$$

bu yerda, I_t – bazis davrdagi narx indeksi; I_{t-1} – bazis va joriy davrlardagi narx indeksidagi farq.

Inflatsiyaning kelib chiqish sabablari.

Inflatsiya beqarorlikning ko'p qirrali shakli bo'lganligi sababli, uni keltirib chiqaradigan sabablar ham har xil bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda narx o'sishini keltirib chiqaradigan barcha omillar ham inflatsion hisoblanavermaydi.

Jumladan, konyunkturaning siklli tebranishi, tabiiy ofatlar (suv toshqini, yong'in, zilzila va h.k.) natijasida narx o'sishini inflatsion deb hisoblash mumkin emas.

Inflatsiya yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi hisoblanishi sababli, bu ko'pchilik bozorlarda uzoq vaqt talab foydasiga muvozanatlikning buzilishi tufayli vujudga keladigan narxlar umumiy darajasi o'sishiga olib keluvchi omillardir. Bularning asosiylari quyidagilar:

Pul emissiyasining asossiz ko'paytirilishi;

Davlat budjeti taqchilligi; Agar taqchilik mamlakat banki tizimi qarzlari hisobiga moliyalashtirilsa, bu muomaladagi pul massasi o'sishiga olib keladi. Investitsiyalarni moliyalashtirish ham xuddi shu usulda amalga oshirilsa narxlarning inflatsion o'sishi ro'y berishi mumkin.

Iqtisodiyotning harbiylashtirilishi:

Iqtisodiyotni harbiylashtirish bilan bog'liq investitsiyalar alohida inflatsion xavfli hisoblanadi. Milliy daromadni harbiy maqsadlarda ishlatilish nafaqat milliy boylik yo'qotilishini bildiradi, balki harbiy sohaga qo'yilgan mablag'lar bir vaqtda qo'shimcha to'lovga layoqatli talabni vujudga keltirib, pul massasining tegishli tovarlar bilan qoplanmagan o'sishiga olib keladi.

Bozorning holati, unda raqobat mexanizmining amal qilish darajasi; hozirgi davrda bozor holati, uning tuzilishidagi o'zgarishlar ko'proq erkin raqobat sharoitlari buzilishini, oligopolistik tuzilmalar vujudga kelishini anglatadi.



ushlab turadi.

Oligopolist ma'lum darajada narxlar ustidan hukmronlikka ega bo'ladi. Tarmoqqa yangi ishlab chiqaruvchilar kirib kelishining cheklanishi uzoq vaqt yalpi talab va taklif mos kelmasligini

ushlab turadi.

Davlatning oshirilgan soliq solishga qaratilgan siyosati;

Ishlab chiqarish xarajatlarining ortib borishi;

Talabning nisbatan ortiqchaligi va uning o'sib borishi.

Iqtisodiyotning «ochiqligi» darajasi o'sishi. Bu milliy iqtisodiyotning jahon xo'jalik aloqalariga ko'proq tortilishi orqali "import qilinadigan" inflatsiya xavfini kuchaytiradi.

Inflatsion kutilish. Aholi va ishlab chiqaruvchilarning inflatsion kutilishini bartaraf qilishga erishishi inflatsiyaga qarshi siyosatning muhim vazifasi hisoblandi. Inflatsion kutilish kishilarning joriy iste'molidan ortiqcha tovarlarni xarid qilishiga olib keladi. Ishlab chiqaruvchilar ham tez orada xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar yanada qimmatlashishini kutib, mahsulotlariga yuqori narxlarni o'rnatib boradi. Inflatsion kutilish natijasida joriy talabning kengayishi narxlarning yanada o'sishini rag'batlantiradi. Bir vaqtda jamg'armalar qisqaradi va kredit resurslar kamayadi, bu ishlab chiqarish maqsadidagi investitsiyalar o'sishini, tovar va xizmatlar taklifini kamaytiradi. Bunday iqtisodiy vaziyat yalpi taklif sekin va yalpi talab tez o'sishi bilan tavsiflanadi. Natijasi, narxlarning umumiy o'sishi ro'y beradi.

Inflatsiyani turkumlashga bir qator mezonlar asos qilib olinadi.

I. Kelib chiqish sabablariga ko'ra inflatsiya quyidagi turlarga ajratiladi:

a) Talab inflatsiyasi. Narx darajasining surunkali oʻsishi jami talab ortiqchaligi bilan tushuntiriladi. Bu iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi mahsulotining real hajmini koʻpaytirish ortiqcha talabni qondira olmasligini anglatadi. Chunki barcha mavjud resurslar toʻliq foydalanishga jalb qilingan boʻladi. Shu sababli, bu ortiqcha talab narxning oshishiga olib keladi va talab inflatsiyasini keltirib chiqaradi.



b) Taklif inflatsiyasi. Inflatsiya ishlab chiqarish xarajatlari va bozordagi taklifning oʻzgarishi natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining oʻsishi keltirib chiqadigan inflatsiya, mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarning koʻpayishi hisobiga narxlarning oshishini bildiradi.

Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi iqtisodiyotda foydani va mahsulot hajmini qisqartiradi. Natijada tovarlar taklifi ham qisqaradi. Bu oʻz navbatida narx darajasini oshiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari nominal ish haqi, xomashyo va energiya narxlarining oʻsishi hisobiga ham ortib boradi. Jumladan, 1973–1974- va 1979–1980-yillarda AQSH va boshqa koʻpchilik mamlakatlarda neft hamda import xomashyolarga narxning bir necha marta oshishi yuqori inflatsiyaning sababi boʻlgan. 1992–1995-yillarda Rossiyada neft, gaz va koʻmir narxining koʻp martaga oshishi yuqori surʼatdagi inflatsiyaning boshlangʻich sababi hisoblangan.

Maʼlum holatlarda ish haqining oʻsishi inflatsiyaning kelib chiqishiga sabab boʻlishi mumkin. Agar ish haqining ortishi mehnat unumdorligining oʻsishidan yuqori surʼatlarda roʻy bersa, mahsulot birligiga xarajatlari ortib boradi.

Ayni vaqtda, bu vaziyatni inflatsiya sharoitida ish haqini indeksatsiyalash bilan bir xil maʼnoda tushunish kerak emas. Boshqa tomondan, inflatsiya ish haqini indeksatsiyalashga sabab boʻladi. Demak, mazkur holat inflatsiyani keltirib chiqaruvchi

sabablarga kirmasa-da, bu tarkib topgan inflatsion vaziyat sharoitidagi muqarrar amalga oshiriladigan zaruriyatdir.

Ba'zan xarajatlar o'sishi zanjirli reaksiya tavsifini kasb etadi. Aytaylik energetiklar ish haqining o'sishi dastlab soha xarajatlari va elektr energiya ta'riflarini oshiradi, keyin bu jarayon zanjirli tarzda tarqaladi: telefon xizmatlari qiymati, transport xizmatlari ta'rifi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa shu kabilar narxining o'sishiga olib kelishi mumkin.

II. Narxlarning o'sish sur'atlariga ko'ra inflatsiyaning a) me'yoridagi; b) o'rta; c) giperinflatsiya kabi turlari ajratiladi. Inflatsiyaning birinchi turida narxlar yiliga 10 foizgacha, ikkinchisida 20 dan 200 foizgacha, uchinchisida, astronomik miqdorda o'sishi kuzatiladi.

Giperinflatsiya aholi va hatto jamiyatning yuqori ta'minlangan qatlamiga juda katta yo'qotish keltiradi, savdo barter ayriboshlashga o'tadi, milliy xo'jalik izdan chiqadi.

Giperinflatsiya 1970–1980-yillar arafasida Boliviya yiliga 2400% ga, 1992-yilda Rossiyada 2600% ga yetgan.

III. Bashorat qilish mumkinligiga qarab kutilayotgan va kutilmagan inflatsiya farqlanadi. Kutilayotgan inflatsiya va uning oqibatlarini oldindan bashorat qilish mumkin, kutilmagan inflatsiyani oldindan aytib bo'lmaydi. Birinchi holda inflatsiyaning kutilayotgan salbiy oqibatlariga tayyorlanib uni sezilarli darajada yumshatish mumkin. Ikkinchi holda narxlarning kutilmagan o'sishi natijasida mamlakat iqtisodiy ahvolidan sezilarli yomonlashuvi ro'y berishi mumkin.

IV. Namoyon bo'lish darajasiga ko'ra oshkora va yashirin inflatsiya ajratiladi.

Oshkora inflatsiya narxlar o'sishida namoyon bo'ladi. Yashirin inflatsiyada narxlar go'yo ki barqaror ko'rinadi, ortiqcha pul tovar taqchilligida transformatsiyalashadi.

V. Qamrov doirasi bo'yicha



bir mamlakat miqyosidagi va jahon xo‘jaligi doirasidagi inflatsiya farq qiladi.

VI. Asosiy ko‘pchilik tovarlarga narxlarning o‘shish sur‘atidagi farqlarga ko‘ra muvozanatlashgan va muvozanatlashmagan inflatsiya ajratiladi.

Muvozanatlashgan inflatsiyada narxlar bir vaqtda ko‘pchilik tovarlarga bir me‘yorda o‘sadi, muvozanatlashmagan inflatsiyada har xil tovarlar guruhiga narxlar turlicha o‘sadi.

Pigu effekti. Bu ingliz iqtisodchisi Artur Pigu (1877–1959y) nomi bilan bog‘liq, Unga ko‘ra me‘yorida amal qiladigan bozor iqtisodiyoti sharoitida inflatsiyaning kutilishi aholi tomonidan narxlarning o‘shishiga qisqa vaqtda ro‘y beradigan holat deb qaralishiga va oqibatda narxlar pasayguncha ularning pul sarflarining kamayishiga sabab bo‘ladi. Bu o‘z navbatida talabni kamaytiradi va oxiri oqibatda narxlar pasayishi kuzatiladi.

7. Inflatsiyaning oqibatlari. Davlatning inflatsiyaga qarshi tadbirlari

Inflatsiya oqibatlari murakkab, turli-turfa va ziddiyatlidir. Me‘yoridagi inflatsiya iqtisodiyot uchun foydali ekanligi, pul massasining o‘shishi iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishi, iqtisodiy o‘shishga turtki berishi va investitsiya jarayonini jadallashtirishini o‘z vaqtida Keynes isbotladi va dunyo mamlakatlari tajribasi buni tasdiqladi. Inflatsiya chuqurlashib borishi bilan ishlab chiqarish jarayoni uchun jiddiy to‘siqqa aylanadi, jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keskinlashtiradi.

Bu inflatsiyaning bir qator iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarida o‘z ifodasini topadi. Ularning asosiylari quyidagilar:

Aholining o‘rtacha turmush darajasi pasayadi.

Qayd qilingan (doimiy) daromad oluvchilar real daromadi kamayadi, pul jamg‘armalari qadrsizlanadi va pulga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar real qiymati pasayadi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlari o‘rtasidagi nomutanosiblik kuchayadi, xo‘jalik aloqalari buziladi.

Investitsion tovarlar va uzoq muddat foydalaniladigan iste‘mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar iqtisodiy ahvoli og‘irlashadi.

Investitsiyalar foizining real stavkasi va foizli daromadlari kamayadi.

Bo'sh pul mablag'larining ishlab chiqarish sohasidan muomala sohasiga oqimi kuchayadi.

Budjet daromadlari qadrsizlanadi va budjet taqchilligi kuchayadi.

Davlatning ichki va tashqi qarzlari miqdori o'sib boradi.

Milliy pul o'z vazifasini bajarishdan to'xtaydi, barter ayriboshlash o'z o'rniga ega bo'ladi.

Aholining ijtimoiy tabaqalashuvi, ijtimoiy-siyosiy tartibsizlik kuchayadi.

Inflatsiya sharoitida ham uning oqibatlaridan aholining ayrim qatlamlari va iqtisodiy munosabatlarining ayrim ishtirokchilari naf ko'rishi ham mumkin.

Inflatsiyadan yutqazmaydigan yoki undan naf ko'radigan qatlamlar quyidagilar:

tovarlar, xomashyo, fond birjasida va valuta bozorlarida vositachilik qiluvchilar;

qarz olgan jismoniy va huquqiy shaxslar;

pulni o'z vaqtida ko'chmas mulk, qimmatbaho va noyob buyumlar hamda barqaror chet el valutalariga almashtirganlar;

davlat tuzilmasida va bozorda monopol mavqega ega bo'lganlar;

kundalik zaruriy iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchilar.

Davlatning inflatsiyaga qarshi siyosati, inflatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatish, ya'ni inflatsiya ustidan nazorat o'rnatish va narxlar o'sishini nisbatan past darajada ushlab turishga qaratiladi. Bu o'z ifodasini inflatsiyani jilovlashga qaratilgan chora-tadbirlarda topadi. Mazkur chora-tadbirlar uzoq muddatli, qisqa davrli yoki majburiy tartibdagi tavsifga ega bo'lishi mumkin.

Davlatning inflatsiyani jilovlashga qaratilgan uzoq muddatli (strategik) chora-tadbirlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

I. Ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlar:



foydaga imtiyozli soliqlar belgilash;
ishlab chiqarish maqsadlariga imtiyozli kreditlar ajratish;
yangi ish boshlagan korxonalariga subsidiyalar berish;
tashqi savdo (eksport-import)ga imtiyozlar kiritish;
samarali antimonopol tadbirlarni amalga oshirish.

II. Budget taqchilligini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar:
budget daromadlarini ko'paytirish (soliq bazasini kengaytirish orqali);

budget xarajatlarini kamaytirib borish.

investitsion jarayonlarga davlatning aralashuvini nisbatan cheklash, asoslanmagan subsidiya ham dotatsiyalarni kamaytirish va h.k.

fan-texnika taraqqiyotini, iqtisodiyotdagi ijobiy tarkibiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash.



III. Pul massasini tartibga solishga qaratilgan tadbirlar.

pul daromadlarining o'sishini cheklash yoki to'xtatib qo'yish;
pul emissiyasini cheklash;

davlat kreditlarini qat'iy chegaralash;

banklararo kredit resurslarining auksionlarini kengaytirish;

davlatning oltin va valuta zaxiralarini ko'paytirish;

korxonalarni xususiylashtirish jarayonini kengaytirish va shu kabilar.

IV. Tashqi omillarning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar. Bu tadbirlar chet el kapitallari, qisqa muddatli kreditlari va qarzlariqa inflatsiyaning ta'sirini kamaytirishga qaratiladi.

Davlatning inflatsiyani jilovlashga qaratilgan qisqa muddatli tadbirlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

qo'shimcha turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalariga imtiyozlar berish;

iste'mol tovarlari importini kengaytirish;

yangi xususiy korxonalar aksiyalarini sotishni rag'batlantirish;

muddatli omonatlarga yuqori foiz stavkalarini belgilash;

ichki bozor raqobatbardosh bo'lgan sharoitda milliy valuta kursini oshirish; davlat oltin va valuta zaxiralaridan qisman inflatsiyani jilovlashda foydalanish.

Davlat tomonidan surunkali giperinflatsiya sharoitida uni yumshatishga qarata qo'llaniladigan majburiy tadbir – bu pul islohotlarini o'tkazish hisoblanadi.



Pul islohotlarining quyidagi turlari mavjud:

Nullifikatsiya

Inflatsiya sur'ati juda yuqori darajada bo'lganda qo'llanilib, bunda qadrsizlangan pul o'rniga muomalaga yangi pul birliklari chiqariladi.

Bu tadbir 1797-yilda Fransiyada qo'llanilib, muomalaga qog'oz pullar o'rniga real pullar, ya'ni qimmatbaho metallardan ishlangan tangalar chiqarilgan.

Devalvatsiya

Bunda eksportni rag'batlantirish, importni cheklash va to'lov muvozanatini yaxshilash maqsadida milliy valuta kursi rasmiy ravishda pasaytiriladi.

Masalan, 1986-yil AQSHda dollarning Yaponiya ieniga nisbatan kursi 2 barobar pasaytirilgan.

Denominatsiya

Bunda eski pul birliklari ma'lum bir nisbatda yangi pul birliklari bilan almashtiriladi. Denominatsiya 1961-yil sobiq SSSRda (10:1 nisbatda), 1994-yil O'zbekistonda (so'm-kuponga 1000:1 nisbatda) va 1998-yil Rossiyada (1000:1 nisbatda) qo'llanilgan.

8. O'zbekistonda milliy valuta-so'mning barqarorligini ta'minlash vazifalari

Respublikada milliy valutani mustahkamlashda so'mning xarid quvvatini oshirib borish va uning barqarorligini ta'minlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bunga bozorni raqobatdosh mahsulotlar bilan to'ldirish va zarur ehtiyotlar hosil qilish orqali erishiladi.

Bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirishda milliy ishlab chiqarishni imkoni boricha kengaytirib borish, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki shu orqali iste'mol tovarlari sotishning umumiy hajmida milliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari hissasi oshirib boriladi. Ayni vaqtda, milliy ishlab chiqarishni kengaytirish orqali so'mning barqarorligini ta'minlash chetdan mahsulot keltirishni inkor qilmaydi. Aholini sifatli chet el mollari bilan ta'minlash maqsadida import ham rag'batlantirib boriladi.



So'mning barqaror amal qilishi, uning har qanday valutaga erkin almashilishi yetarli valuta zaxirasi bo'lishiga bog'liq. Unga erishishda korxonalar va barcha subyektlarning jahon bozo-

riga raqobatga bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan rag'batlantiruvchi omillarni vujudga keltirish alohida ahamiyatga ega.

So'mning barqarorligini ta'minlashda undan ehtiyotkorona va tejab-tergab foydalanish, ishlab chiqarishga sarflangan mablag'larining eng ko'p samara berishiga, olingan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishiga erishish muhim o'rin tutadi.

Inflatsiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish milliy valutani mustahkamlanishning muhim shartlaridan biridir. Bu siyosat eng avvalo, inflatsiya darajasini keskin kamaytirishga qaratilishi lozim. Bunda pulning qadrsizlanish darajasi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish hamda unga qarshi samarali tadbirlarni qo'llash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Inflatsiyaga qarshi siyosat negizini pul taklifining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borishga qaratilgan tadbirlar tashkil qilish zarur. Chunki xarid qilish uchun mollar yetarli bo'lmagan holda aholi qo'lida pulning ortiqcha ko'payib ketishi inflatsiyaning yanada avj olib ketishiga sabab bo'ladi. Pul miqdori bilan birga narxlarning ham tobora o'sib borishi muqarrar ravishda uzoq davom etadigan giperinflatsiyani keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida, milliy ishlab

chiqarishning izdan chiqishi, aholi keng tabaqalarining qashshoqlashishi va butun ijtimoiy tizimning barbod bo'lishi xavfini tug'diradi.

Tovarlar taqchilligi mavjud bo'lib turgan sharoitida giperinflatsiyaning oldini olish uchun aholi iste'mol sarflarining o'sishini ishlab chiqariladigan mahsulot, ko'rsatiladigan xizmatning moddiy hajmi ko'payishiga bevosita bog'liq qilib qo'yish zarur bo'ladi. Ichki bozorni mollar va xizmatlar bilan to'ldirish, muomalaga o'rinsiz ortiqcha pul chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik, milliy valuta barqarorligini ta'minlash va xalq turmush darajasini o'stirishning muhim shartidir.

So'mning barqarorligini ta'minlashda naqd pul emissiyasining o'sishiga, aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik birinchi darajali ahamiyatga ega. Bunda muomalaga chiqarilgan pul miqdorining o'z vaqtida qaytarilishiga erishishi, mahsulot ishlab chiqarishning o'sishini ta'minlamagan korxonalariga kreditlar berilishini cheklash choralari ko'rilishi kerak. Boshqacha aytganda qattiq pul-kredit siyosatini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Respublikamizda keyingi yillarda puxta o'ylangan pul-kredit siyosatini izchil olib borish tufayli inflatsiya ko'zda tutilgan prognoz ko'rsatkichlar chegarasida saqlanib qolinmoqda. Jumladan, 2008–2016-yillardan uning darajasi o'rtacha 7,0 foizdan ko'proqni tashkil etgan. Bu avvalo, puxta o'ylangan pul-kredit siyosati va inqirozga qarshi ko'rilgan samarali chora-tadbirlarimizning natijasidir¹¹⁸.

Inflatsiyani pasaytiruvchi qudratli omil milliy valuta almashuv kursining barqarorlashuviga erishishdir. Bu o'z navbatida import narxlarning barqarorlashuviga olib keladiki, natijada ichki bozordagi narxlar o'zgaradi.

Valuta birjalarida valuta operatsiyalarining barcha turlari uchun talab va taklif natijasida shakllanadigan yagona almashuv kursini belgilash, valuta kursi barqarorligiga erishishning dastlabki shartidir.

Milliy valuta kursi barqarorligini ta'minlashning navbatdagi sharti valutani naqd pulsiz almashtirish hajmini ko'paytirishga

¹¹⁸ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Toshkent, "O'zbekiston" 2011-yil.

ustunlik berishdir. Istiqbolda esa bu sohadagi siyosat banklararo valuta birjasidagi aylanma miqdorini korxonalar va fuqarolar o'z pulini kerakli miqdorda, xohlagan valutaga erkin almashtirish imkoniyatini beradigan darajaga yetkazishga qaratiladi. Bunga erishishda milliy ishlab chiqarishda eksport ulushini kengaytirish bilan birga «... milliy valutamizning joriy operatsiyalar bo'yicha erkin almashuvini, ya'ni konvertatsiyasini ta'minlash uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish»¹¹⁹ alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib, yuqorida qarab chiqilgan chora va tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi milliy valutamiz almashuv kursining barqarorlashuviga, uning xarid qilish quvvatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tayanch tushunchalar

Iqtisodiy inqiroz – ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy faollikning keskin tushib ketishi.

Iqtisodiy sikl – ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to'liqsimon harakati.

Turg'unlik (depressiya) – ishlab chiqarishning bir joyda muqim turishini anglatuvchi hamda iqtisodiy faollik jonlanishi uchun shart-sharoitlarning vujudga kelishiga imkon yaratiluvchi iqtisodiy sikl fazasi.

Jonlanish – iqtisodiy siklning ishlab chiqarishning barqaror kengayib borishiga o'tishini tavsiflovchi fazasi.

Yuksalish – iqtisodiy siklning iqtisodiyotda to'liq bandlikka erishilishi, ishlab chiqarishning inqirozdan oldingi darajadan ham ortib ketishi va to'lovga layoqatli talabning kengayib borishini tavsiflovchi fazasi.

Tarkibiy inqirozlar – iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalari rivojlanishidagi chuqur nomutanosibliklarni ifodalovchi iqtisodiy holat.

Agrar inqirozlar – qishloq xo'jaligida ro'y beradigan iqtisodiy inqirozlar bo'lib, siklli tavsifga ega bo'lmaydi va sanoat sikllariga qaraganda ancha uzoq davr davom etadi.

¹¹⁹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.: «Ўзбекистон», 2000, 18-бет.

Ishsizlik – mehnatga layoqatli bo‘lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta’minlanmaganlar.

Friksion ishsizlik – malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o‘rinlar bo‘shashini kutayotganlar.

Tarkibiy ishsizlik – ishlab chiqarish va yalpi talab tarkibidagi o‘zgarishlar natijasida vujudga keladigan ishsizlik.

Siklik ishsizlik – iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog‘liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik.

Ishsizlik darajasi – ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati.

Ouken qonuni – ishsizlik darajasi va YaMM hajmining orqada qolishi o‘rtasidagi nisbatning matematik ifodasi.

Inflatsiya – pul aylanish kanallarining ortiqcha pul massasi bilan to‘lib ketishi oqibatida narxlar o‘rtacha (umumiy) darajasining ko‘tarilib borishini va natijada milliy pul birligining qadrsizlanishi, ya’ni uning sotib olish layoqati pasayishi.

Deflatsiya – inflatsiyaga qarama-qarshi jarayonni, ya’ni narxlarning umumiy darajasining pasayib borishini bildiradi.

Nullifikatsiya inflatsiya sur’ati juda yuqori darajada bo‘lganda qo‘llanilib, bunda qadrsizlangan pul o‘rniga muomalaga yangi pul birliklari chiqariladi.

Devalvatsiya. Bunda eksportni rag‘batlantirish, importni cheklash va to‘lov muvozanatini yaxshilash maqsadida milliy valuta kursi rasmiy ravishda pasaytiriladi.

Denominatsiya. Bunda eski pul birliklari ma’lum bir nisbatda yangi pul birliklari bilan almashtiriladi.

Muhokama uchun savollar

1. Makroiqtisodiy beqarqarorlik nima? Uni bartaraf etish yo‘llari qanday?

2. Iqtisodiy inqirozlar mohiyati nimada ifodalanadi?

3. Iqtisodiy sikl bo‘yicha qanday nazariyalar mavjud? Eksternal va internal nazariyalarning farqi nimada?

4. Iqtisodiy siklning ta’rifini bering va uning har bir fazasining o‘ziga xos belgilarini ko‘rsating.

5. Iqtisodiy sikl asosiy turlariga tavsif bering va muhim belgilarini ko'rsating.

6. Iqtisodiy siklning oqibatlarini baholang.

7. Tarkibiy inqirozlarni tushuntiring. Siklli tebranishlar vujudga kelishining sabablarini ko'rsating.

8. Agrar inqirozlarning xususiyatlarini bayon qiling.

9. Ortiqcha va taqchil ishlab chiqarish inqirozlarining kelib chiqish sabablarini ko'rsating va o'zaro taqqoslang. Ushbu inqirozlarni bartaraf etish chora-tadbirlaridagi farqlarni bayon eting.

10. 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi vujudga kelishining asosiy sabablarini tushuntirib bering.

11. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mazmuni va ko'lamlari to'g'risida jahonning yetakchi ekspert va tahlil markazlari tomonidan qanday xulosalar chiqarildi?

12. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining rivojlangan mamlakatlarga ta'sir yo'nalishlari va darajasini tavsiflang.

13. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri nimalarda namoyon bo'ldi? Uning ta'sir oqibatlarini yumshatuvchi omillarni izohlab bering.

14. Ishsizlikni ta'riflang va uning asosiy turlari mazmunini bayon qiling.

15. Ishsizlik darajasi qanday aniqlanadi? Ishsizlikning tabiiy darajasi nima?

16. Ishsizlikning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tushuntiring.

17. Inflatsiya va uning kelib chiqish sabablarini izohlang.

18. Inflatsiya qanday mezonlar bo'yicha turkumlanadi?

19. Davlatning inflatsiyaga qarshi chora-tadbirlari nimalarni o'z ichiga oladi?

20. So'mning barqarorligini ta'minlash tadbirlariga o'z fikringizni bildiring.

XXIV bob. MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY SIYOSAT

- 1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi.**
- 2. Davlat budjeti va uning taqchilligi.**
- 3. Soliqlar, ularning turlari va takomillashtirish vazifalari.**
- 4. Davlatning fiskal siyosati, uning maqsadi va iqtisodiy dastaklari.**

1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi

Moliya va moliyaviy munosabatlarning vujudga kelish tarixi insoniyat jamiyati rivoji bilan bog‘liq bo‘lib, ming yillar avval paydo bo‘lgan. Qadimgi Babil davlatida amal qilgan Xamurapi qonunlari yoki Qadimgi Hindistonning Manu qonunlari, Xitoy, Yunoniston yoki Turon, Rim imperiyasi qonunlarining barchasida boj-xiroj, soliqlar to‘plash, davlat xazinasini hisob-kitobi kabi masalalar o‘z aksini topgan. Ularda jamiyat hayotida mustahkam o‘rin tutgan pul hisob-kitobi bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlarga katta ahamiyat berilgan. Chunki moliya sohasida, soliq-boj sohasida to‘g‘ri siyosat yuritilishi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo‘lgan.

Sohibqiron Amir Temur o‘z tuzuklarida: “Amr etdimki, raiyatdan mol-hiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yosh mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kam-bag‘allashishiga olib keladi” deya soliqlarning, moliyaning davlat va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga egaligini ta’kidlab o‘tgan.

Shunday qilib, uzoq o‘tmishda va hozirda ham, har qanday mamlakatda, moliyaviy munosabatlar ko‘p qirrali bo‘lib, iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Chunki iqtisodiy subyektlar o‘rtasida yuzaga keluvchi pul munosabatlari bozor iqtisodiyotining zarur tarkibi hisoblanadi. Bu munosabatlar tizimida moliya munosabatlari alohida muhim o‘rin egallaydi.

Moliya – bu turli darajada markazlashgan pul fondlari vositasida iqtisodiyot subyektlari pul daromadlarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo‘yicha vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir¹²⁰. Boshqacha qilib aytganda, moliya iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag‘laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimi bo‘lib, uning vositasida turli darajada pul fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Korxonalar, uy xo‘jaliklari va davlat moliyaviy munosabatlar subyektlari pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar uning obyekti hisoblanadi.

Moliyaning boshqa pul munosabatlaridan farqlab turuvchi belgilari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

Iqtisodiy munosabatlar pulning harakati bilan tavsiflanishi;

Moliya munosabatlarining taqsimlovchilik tavsifga egaligi;

Moliya munosabatlarning fond tavsifga (YaIM taqsimoti pul fondlari orqali amalga oshiriladi) ega bo‘lishi;

Moliyaning mohiyati uning vazifalarida to‘laroq namoyon bo‘ladi. Bular, moliyaviy resurslarni jalb qilish, nazorat qilish, rag‘batlantirish va taqsimlash vazifalaridir.

Moliyaviy resurslarni jalb qilish vazifasi shunda ko‘rinadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o‘z vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni markazlashgan tartibda to‘planishiga harakat qiladi.

2. Davlat moliyaviy dastak va vositalar yordamida ishlab chiqarish, iqtisodiyotda yaratilgan mahsulotni taqsimlash, ayri-boshlash va iste‘mol ustidan nazorat o‘rnatadi. Moliyaviy nazorat korxonalarining moliya intizomiga rioya qilish uchun moddiy javobgar bo‘lishi, turli soliqlar undirib olish va mablag‘ bilan ta‘minlash tizimi orqali amalga oshiriladi. Davlat moliya vositasida zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida, iqtisodiyot subyektlar tasarrufiga moliyaviy mablag‘lar qanchalik o‘z vaqtida tushayotganligi, shuningdek, ulardan foydalanish samaradorligini nazorat qiladi;

¹²⁰ Economics : principles, problems, and policies / Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue.– 17th ed. P-209

3. Moliyaning taqsimlash vazifasi aniq iqtisodiy vaziyatda jamg'arish va iste'molni optimallashtirish maqsadida milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Bu real ishlab chiqarish sohaslarida yaratilgan yalpi mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadini tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish sohalari, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi. Bunda milliy daromadning bir qismi korxonalar va aholi daromadlaridan turli xil soliqlar olish, renta va bojxona to'lov-lari, aksiz yig'imlari kabilar orqali davlat budjetida to'planadi. Davlat to'plangan milliy daromadning katta qismini moliyaviy vositalar orqali



aholining ijtimoiy-madaniy ehtiyojlariga (uy-joy qurilish, tibbiyot xizmati, maorif, nafaqa, stipendiya va shu kabilarga), daromadlar darajasini ushlab turishga, milliy mudofaaga, atrof-muhitni muhofaza qilish va shu kabilarga sarflaydi.

Shuni aytish lozimki, moliyaviy munosabatlar tizimida davlat moliyasi alohida o'rin tutadi. Bunda nafaqat davlat, balki xususiy sektor korxonalari daromadining bir qismini undirish yo'li bilan davlat pul fondlarini shakllantiradi.

4. Moliya iqtisodiy jarayonlarni, turli tadbirlarni moliyalash va unga xizmat ko'rsatish vazifasini ham bajaradi;

5. Moliyaning rag'batlantiruvchilik vazifasi, birinchidan, yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayonida, ikkinchidan, foizli daromadlarni tashkil qilish va taqdim qilish mexanizmi vositasida amalga oshiriladi. Ikki holda ham moliya ishlab chiqarish samaradorligiga, uning pirovard natijasiga, mahsulot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

6. Ijtimoiy himoyalash ham moliya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki, aholining muhtoj qatlamlari qariyalar, nogironlar,

kam daromadli oilalar o‘z tirikchiligini yuritishni minimal darajada ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Ijtimoiy himoyalash esa ularni moliyaviy ta‘minlash, boshqacha aytganda, moliyaviy kafoflashni talab etadi. Bu asosan davlat moliyasi yordamida amalga oshiriladi. Davlat maxsus fondlar tashkil etib, bunday himoyalashni tizimli amalga oshirib boradi. Ishsizlik nafaqalari, bolalar uchun nafaqa, nogironlar pensiyasi kabilar shular jumlasiga kiradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy iste‘mol orqali amalga oshadigan fondlar ham mavjud bo‘lib, bularga bepul tibbiy xizmat, maorif, atrof muhitni muhofazalash kabilar kiradi.

Moddiy va mehnat resurslarining to‘g‘ri taqsimlanishi va ulardan samarali foydalanish uning vazifalari real bajarilishiga bog‘liq. Takror ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘shishni pul mablag‘lari bilan ta‘minlashda ham moliyaning roli beqiyos. Moliya o‘z vazifalarini bajarish bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni tartibga soladi, samarali xo‘jalik faoliyatini rag‘batlantirishni ham ta‘minlaydi.

Moliya tizimi – Umumdavlat moliyasi - davlat budjeti, ijtimoiy sug‘urta hamda mol-mulk va boshqa sug‘urta fondlarini o‘z ichiga oladi.

Davlat pul mablag‘larining asosiy markazlashgan fondi bo‘lmish davlat budjeti moliya tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladi. Davlatning markazlashgan budjeti bilan birga hokimiyat quyi organlarining (viloyat, tuman va shahar) budjeti ham mavjud bo‘ladi. Bu joylarda mavjud moliyaviy resurslarni ancha to‘laroq jalb qilish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Hokimiyat quyi organlari budjetning daromadlari o‘z hududidagi korxonalar daromadidan, aholidan olinadigan soliqlar, mulk soliqlari va shu kabilar orqali shakllanadi. Ularning daro-



madi qisman davlat budjetidan beriladigan subsidiyalar hisobiga ham to'ldiriladi. Hokimiyat quyi organlari budjet mablag'lari tegishli hududda ta'lim, sog'liqni saqlash, obodonchilik, yo'l qurilishi va shu kabilarga sarflanadi.

Mol-mulk va shaxsiy sug'urta moliya tizimining keyingi bo'g'ini hisoblanib, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar va fuqarolarga joriy qilinadi. U majburiy va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Bu maqsadlar uchun fondlar korxonalar va aholining to'lovlari hisobiga shakllanadi. Fond mablag'lari mol-mulkiy sug'urtasiga va shaxsiy sug'urtaga pul to'lashni ko'zda tutadi.

Shaxsiy sug'urta aholining pul jamg'armalarining tashkil qilishning shakllaridan biri bo'lib ham xizmat qiladi.

Jamiyat moliya tizimi ijtimoiy siyosiy va ma'rifat ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilot va muassasalarning moliyasini ham o'z



ichiga oladi. Kasaba uyushmalar, siyosiy partiya, yoshlar, xotin-qizlar, faxriylar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, sport tashkilotlari va boshqa ilmiy ma'rifiy jamiyatlarning ham o'ziga xos moliyasi mavjud bo'ladi. Bunday ijtimoiy tashkilotlarning moliyaviy

resurslarining manbai, tashkilot a'zolarining kirish puli va badallari, tijorat faoliyatidan kelgan daromad, homiylar ajratgan yoki xayriya qilgan mablag'lardan iborat bo'ladi. Jamiyat moliya tizimida maxsus va xayriya fondli xo'jalik subyektlari va aholining pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birlashtiradi va ular maqsadli ishlatiladi.

2. Davlat budjeti va uning taqchilligi

Davlat budjeti – bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir.

Davlat budjeti tushunchasi, umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida to'plangan va sarflanadigan moliyaviy resurslar harakatini anglatadi.

Budjetning qaysi darajada ekanligidan qat'i nazar unga uch jihatdan yondashish mumkin: Iqtisodiy kategoriya, moliyaviy dastak va huquqiy kategoriya sifatida.

Iqtisodiy kategoriya sifatida budjet turli darajada markazlashgan fondlarini shakllantirish, taqsimlash, foydalanish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlardir.

Moliyaviy dastak sifatida budjet – tegishli darajadagi davlat va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidan iboratdir. Davlat tomonidan rejalashtirilgan tadbirlarni budjet hisobidan moliyaviy ta'minlashda undan moliyaviy dastak sifatida foydalanish ko'zda tutiladi.

Huquqiy kategoriya sifatida budjet mamlakatga tegishli hududlar doirasida markazlashtirilgan pul mablag'larini shakllantirish, ularni taqsimlash va foydalanishga qaratilgan hamda tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat muassasalari tomonidan tasdiqlangan asosiy moliyaviy rejadan iboratligi nazarda tutiladi.

Belgilangan tartibda ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan budjet davlat yoki mahalliy hokimliklar moliyaviy rejasiga, davlat me'yoriy hujjatiga aylanadi.

Davlat xarajatlari asosan davlat budjeti orqali amalga oshadi. Bular davlatning investitsiya sarflari, mudofaa xarajatlari, ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar va davlat boshqaruvining moliyaviy manbalaridir. Davlat budjeti xarajatlarining asosiy to'rt turi ajratiladi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishga investitsiyalar;

Ijtimoiy sohalarni (maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, madaniyat) pul bilan ta'minlash;

Davlat idoralarining xarajatlarini qoplash;

Mamlakat mudofaasini ta'minlash. Davlat budjetining daromad qismi, albatta, birinchi navbatda, ana shu xarajatlarni to'liq qoplashi zarur bo'ladi.

Budjet taqchilligi bu daromadlarning xarajatlarni qoplay olmasligi bo'lib, budjet kamomadini yuzaga keltiradi. U qo'shimcha

solliqlar kiritish, pul emissiyasidan foydalanish, zayomlar chiqarish va chet mamlakatlardan qarz olish orqali qoplanadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti tuzilishi (2016-y. foizda)


DAROMADLAR		XARAJATLAR	
Daromadlar jami	100,0	Xarajatlar jami	100,0
Bevosita soliqlar	24,0	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	55,6
Bilvosita soliqlar	51,5	Iqtisodiyotga xarajatlar	10,6
Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	12,9	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	5,1
Boshqa daromadlar	11,6	Davlat hokimiyati organlarini saqlash xarajatlari	4,5
YaIMga nisbatan	20,6	Boshqa xarajatlar	21,0
		YaIMga nisbatan	20,5

Davlat budjetining daromadlari xarajatlardan ortiqcha bajarilishini profitsit ko‘rsatkichi ifodalaydi. Profitsitga ega budjet sog‘lom iqtisodiyotini ifodalaydi.

3. Soliqlar, ularning turlari va takomillashtirish vazifalari

Soliq iqtisodiy tushuncha sifatida, sof daromadning bir qismini budjetga jalb qilish shakli bo‘lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Soliq Davlat va mahalliy hokimiyat tarafidan huquqiy va jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini majburiy ravishda budjetga jalb qilish shaklidir. Soliq bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil kategoriya sifatida amal qiladi va moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi bo‘lib, uni yig‘ish davlat tomonidan belgilangan tartib va qonunlar asosida amalga oshiriladi. Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil

qilinish shakli va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi.



Davlat sarflari soliq tushumlari hisobiga amalga oshirilishi sababli uning o'sishi soliqlarning o'sishini taqozo qiladi va uning darajasini belgilab beradi.

Hozirgi davrda davlat sarflarining va shunga mos ravishda soliq hajmining

o'sib borishini quyidagi omillar taqozo qiladi:

Aholi sonining o'sishi. Aholi jon boshiga davlat sarflari darajasi o'zgaray qolgan taqdirda ham aholining o'sgan qismini ijtimoiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlash qo'shimcha mablag'larni zarur qilib qo'yadi.

Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi kishilar turmush darajasining ortishi ijtimoiy soha xizmatlari hajmiga va sifatiga talabni oshiradi.

Atrof-muhitning ifloslanishi. Aholi sonining o'sishi va urbanizatsiyaning kuchayishi atrof-muhitning sifati muammosini keskinlashtiradi. Juda ko'p miqdordagi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish, havo, suv va yerning ifloslanishi shaklidagi qo'shimcha xarajatlarning o'sishini keltirib chiqaradi. Atrof-muhit muammosini hal qilishda asosiy rol davlat zimmasiga tushadi.

Daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish. Bularga xususan ijtimoiy sug'urtani rivojlantirish, ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ijtimoiy ta'minot, tekin meditsina yordamlari davlat dasturi, oziq-ovqat mahsulotlariga dotatsiyalar, davlat uy-joy qurilishi kabilar kiradi.



Milliy mudofaa, davlat xavfsizligining ta'minlash xarajatlari hajmining o'sishi.

Iqtisodiyot subyektlari faoliyatini soliq yordamida tartibga solish quyidagi umumiy tamoyillari asosida amalga oshiriladi:

barcha daromadlardan, ularning manbalariga bog'liq bo'lmagan holda soliq undirishning majburiyligi;

soliq undirishda barcha uchun yagona umumdavlat siyosati;

samarali ishlovchi korxonalarda hamda xo'jalik yuritishning progressiv shakllari uchun soliq me'yorlarining rag'batlantiruvchi rolini ta'minlash;

soliq to'lovi bo'yicha barcha subyektlar majburiyati ustidan moliyaviy nazorat.

Olinadigan soliq summasining (R) soliq olinadigan daromad summasiga (D) nisbatining foizdagi ifodasi soliq stavkasi (R`) deyiladi yoki:

$$R` = \frac{R}{D} \cdot 100 \text{ foiz}$$

Soliq stavkasini belgilash bir qator tamoyillarga asoslanadi.

Naflilik tamoyili – har xil subyektlardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dasturlardan foydalanishi darajasiga qarab turlicha soliq undirilishi kerakligini bildiradi.

To'lovga layoqatlilik tamoyili – soliq miqdori soliq to'lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi zarur. Boshqacha aytganda, soliq solish daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilish zarur.

Adolatlilik tamoyili – daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo'yicha teng bo'lgan kishilar teng miqdorda soliq to'lashi zarur.

Soliq bo'yicha imtiyozlar qonunchilik bitimlarida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o'rnatiladi. Soliq imtiyozlarining amaliyotda quyidagi turlari keng tarqalgan:

obyektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;

soliq to'lashdan alohida shaxs yoki ma'lum guruhlarini (masalan, urush faxriylarini) ozod qilish;

soliq darajasi (stavkasi) ni pasaytirish;

soliq olinadigan summadan chegirish;



solikli kredit (solliq olishni kechiktirish yoki solliq summasini ma'lum miqdorga kamaytirish)

Solliqlarni turkumlashga turli xil mezonlar asosida yondashiladi.

Solliq stavkasi va daromadlar o'rtasidagi nisbatga asos-

lanib, solliqlar odatda progressiv (o'sib boruvchi), proporsional (mutanosib) va regressiv (kamayib boruvchi) solliqlarga bo'linadi.

Agar solliqning o'rtacha stavkasi daromadlar ortishi bilan o'sib borsa, progressiv solliq hisoblanadi.

Daromadlar o'sib borishi bilan o'rtacha stavkasi pasayib boruvchi solliqlar regressiv solliqlar deyiladi.

Proporsional solliq o'rtacha solliq stavkasi daromad hajmiga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarishsiz qolishini taqozo qiladi.

Solliqlar amal qilish doirasi (markaziy va mahalliy solliqlar), mahsulot tannarxiga qo'shilish usuli (to'g'ri va egri solliqlar) va iqtisodiy mazmuniga qarab ham turkumlanadi.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra u quyidagi turlarga ajratiladi:

Daromaddan olinadigan solliqlar. To'lovchining yillik daromadidan chegiriladigan qismi;

Foydasidan olinadigan solliqlar huquqiy shaxslarning sof foydasidan olinadi;

Ijtimoiy to'lovlar – har xil budjetdan tashqari fondlarga (ishsizlik, pensiya va h.k.) yo'naltiriladi, qisman ishlovchilar va korxonalar mablag'lari hisobiga shakllantiriladi;

Mol-mulk solliqlari. Mulkdan, merosdan va hadya qilingan mablag' hamda boyliklardan olinadi;

Tovar va xizmatlarga solliqlar. Bunga boj to'lovlari va aksizlar, shuningdek qo'shilgan qiymat solliqlari kiradi.

Undirilishi usuliga ko'ra bevosita va bilvosita solliqlar farqlanadi. Bevosita solliqlar iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonida subyektlar daromadlari hisobidan undirilsa, bilvosita solliq to'lovchilar tovar va xizmatlardan foydalanuvchilar hisoblanadi, shu sababli bilvosita solliqlar tovarlar narxiga ustama

sifatida yuzaga chiqadi. Bilvosita soliqlarga aksizlar, boj to'lovlari va qo'shilgan qiymat solig'i kabilar kiradi.

Amal qilish ko'lamiga ko'ra yoki undirilish darajasidan kelib chiqib umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlar ajratiladi. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida belgilanganidek, (23-modda) mamlakat hududida umumdavlat soliqlar, majburiy to'lovlar va yig'inlar amal qiladi. Umumdavlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

Foyda solig'i (huquqiy shaxslardan)

Daromad solig'i (jismoniy shaxslardan)

Qo'shilgan qiymat solig'i

Aksizlar

Yer qa'ridan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to'lovlar.

Umumdavlat darajasidagi majburiy to'lovlar quyidagilar: yagona ijtimoiy to'lovlar, budjetdan tashqari pensiya jamg'arma yoki majburiy ajratmalar; respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar, ajratmalar va yig'inlar; bojxona to'lovlari.



Mahalliy soliqlar quyidagilardan iborat: mol-mulk solig'i, yer solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i; transport vositalariga yoqilg'idan foydalangani uchun olinadigan soliq (jismoniy shaxslardan) mahalliy darajada ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im majburiy to'lov hisoblanadi.

Soliq to'lovchi subyektlar turidan kelib chiqib jismoniy va huquqiy shaxslardan undiriladigan soliqlar farqlanadi.

Soliqlarning to'g'ri to'lanishini nazorat qilish soliq deklaratsiyasi yordamida amalga oshiriladi. Soliq deklaratsiyasi – soliq to'lovchining joriy davrda olgan umumiy daromadi haqidagi rasmiy tasdiqlangan yozma bayonoti. Unda soliq to'lovchining olgan daromad manbalari ko'rsatilib qayd qilinadi va beriladigan soliq imtiyozlari haqida ham ma'lumot beriladi.

Soliq imtiyozi – soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bunday to‘lovdan to‘liq, qisman va vaqtincha ozod qilinishidir.

Soliq subyekti – soliq solinadigan daromad, xarajat, aylanma va mulk qiymati yoki miqdoridir (masalan, yer maydoni). Soliq subyekti – soliq munosabatlari ishtirokchilari (jismoniy va huquqiy shaxslar, davlat), ya’ni soliq to‘lovchi va uni undiruvchilardir.

Soliq yuki – soliqlar va majburiy to‘lov (yig‘in) larning foyda, daromad, aylanma va mulk qiymatidagi ulushidir. Mamlakat miqyosida soliq yuki soliq va majburiy to‘lovlarning YaIMdagi salmog‘i sifatida aniqlanadi.

Soliq tizimida uni belgilashda quyidagi asosiy prinsiplarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, soliq stavkasi darajasi soliq to‘lovchilarning iqtisodiy imkoniyatlaridan, ya’ni ularning daromadlari darajasidan kelib chiqib belgilanishi zarur. Chunki turli huquqiy va jismoniy shaxslarning iqtisodiy imkoniyatlari bir xil emas, ular uchun soliq stavkasi tabaqalashtirilgan tartibda belgilanishi kerak, shuning uchun daromadlardan olinadigan soliqlar progressiv (o‘sib boruvchi) xarakterga ega bo‘lishi zarur;

Ikkinchidan, soliqqa tortish bir martalik tavsifga ega bo‘lishi zarur, aks holda bu tovar narxi asoslanmagan holda oshirilishiga sabab bo‘lishi bilan birga, mahsulotning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Boshqa tomondan tadbirkorlarning iqtisodiy faollik ko‘rsatishidan manfaatdorligini susaytiradi. Bunda ishlab chiqaruvchining sotishdan olingan butun pul tushumidan emas, balki ular tomonidan qo‘shilgan qiymatdan soliq undirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, soliq to‘lovining majburiyligi. Bunda soliq tizimi soliq to‘lovchida bunday to‘lovning muqarrarligi to‘g‘risida shubha uyg‘otmasligi zarur. Jarima tizimi ham shunday bo‘lishi kerakki, bunda u soliq to‘lovchilarga to‘lanmagan yoki o‘z vaqtida bajarilmagan soliq majburiyatlariga qaraganda ancha katta miqdorni tashkil qilsin;

To‘rtinchidan, soliq to‘lov jarayoni soliq to‘lovchilarga oddiy, tushunarli va qulay, soliq yig‘uvchi tashkilotlar uchun tejamli bo‘lishi zarur;

Beshinchidan, soliq tizimi iqtisodiyotda yaratilgan YaMMning samarali qayta taqsimlanishini ta'minlashi kerak.

O'zbekistonda soliq tizimini takomillashtirish, milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash;
davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);

ijtimoiy tanglikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);

iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi);

iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish.

Soliqlarning davlat xarajatlarini



moliyalashtirish vazifasi, davlat budjeti daromad qismining eng muhim umumdavlat vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan miqdorda shakllanishini ta'minlashga qaratilishi lozim. Uning qayta taqsimlash vazifasi, YaMMning bir qismini qayta taqsimlash va shu orqali iqtisodiyot tuzilishini o'zgartirish, aholini ijtimoiy himoyalash kafolatini ta'minlashda bevosita ishtirok etishdan iborat. Soliqlarning iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish vazifasi ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir.

Bu vazifalarni real bajarishi uchun amaldagi soliq tizimi bosqichma - bosqich isloh qilish talab qilinadi.


Soliqlar takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy faollikni tartibga solishning vositalaridan biri rovida ham chiqadi.

Bunda davlat butun xo'jalik konyunkturasiga umumiy ta'sir ko'rsatish maqsadida, soliq mexanizmidan keng foydalaniladi. Davlat iqtisodiyotidagi turg'unlik holatini bartaraf qilish uchun imtiyozli soliqlar yordamida kapital qo'yilmalarni rag'batlantiradi hamda shu orqali iste'molchilik va investitsion tovarlarga yalpi talabni kengaytirish uchun ancha qulay sharoit yaratadi. Soliqlarni pasaytirish

iqtisodiy yuksalish va davlat daromadlarning o‘shishiga olib kelishini birinchi bo‘lib amerikalik iqtisodchi A.Laffer asosladi. A.Lafferning mulohazalariga ko‘ra, korporatsiyalar daromadiga soliqlar stavkasini haddan tashqari oshirish, ularning kapital qo‘yilmalariga bo‘lgan rag‘batini susaytiradi, fan-texnika taraqqiyotini to‘xtatadi, iqtisodiy o‘shishni sekinlashtiradi va bular oxir-oqibatda davlat budjeti tushumlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Davlat budjetining daromadlari va soliq stavka (me‘yor) si o‘shishi o‘rtasidagi bog‘liqlikning grafikda tasvirlanishi “Laffer egri chizig‘i” nomini oldi.

Grafik tik o‘qida soliq stavkasi (R), yotiq o‘qida – davlat budjetiga tushumlar (V) aks etgan. Soliq stavkasining optimal miqdori (R1) davlat budjetiga eng yuqori tushum (V1) ni ta‘minlaydi. Soliqlar yanada oshirilganda ishlashga va tadbirkorlikka qiziqish susayadi, 100 foizli soliq olishda davlat daromadi nolga teng bo‘ladi, chunki hech kim tekinga ishlashni xohlamaydi. Boshqacha aytganda, uzoq muddatli istiqbolda haddan tashqari yuqori o‘rnatilgan soliqlarni pasaytirish jamg‘armalar, investitsiyalar, bandlikning ortishi orqali soliq undiriladigan yalpi daromad hajmining o‘shishini ta‘minlaydi. Natijada soliq tushumlari summasi ko‘payadi, davlat daromadlari hajmi o‘sadi, taqchilik kamayadi va inflatsiyaning susayishi ro‘y beradi. Lekin o‘z-o‘zidan tushunarliki, Laffer samarasi faqat erkin bozor mexanizmi me‘yorida amal qilgan holdagina namoyon bo‘ladi.



24.1-chizma. Laffer egri chizig‘i.

Laffer nazariyasining haqiqatga yaqinligi shundaki, soliq me'yorining oshishi yoki tushishi shubhasiz kapital qo'yilmalar o'sish sur'atiga to'siq bo'luvchi yoki aksincha rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ammo, umuman bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarga soliq stavkasidan tashqari ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ichida muhim o'rinni siklning xususiyatlari, u yoki bu korxonalar mahsulotiga talab va taklif nisbati, ular foydasining darajasi egallaydi.

Soliq tizimini isloh qilishga asos qilib olingan asosiy tamoyil-korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishdir. Bu ularning o'z mablag'larini ishlab chiqarishini rivojlantirish, texnika bilan qayta qurollantirish va aylanma mablag'larni to'ldirishga sarflash imkoniyatini beradi

Korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishda daromad solig'idan foydadan undirilgan soliqqa o'tish ko'zda tutiladiki, bu ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish imkoniyatini beradi. Foydaning ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan umumiy miqdori ko'payishi bilan birga, ayni vaqtda ishlovchilar ish haqini oshirish imkoniyati ham yaratiladi. Natijada faol mehnatni rag'batlantiruvchi iqtisodiy muhit qaror topadi.

Korxonalar zimmasidagi soliq yukini yengillashtirishga erishishda qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq stavkasini kamaytirishga ham e'tibor qaratiladi. "Soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo'lini davom etish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish"¹²¹ imkonini ham beradi.

Respublikada soliq tizimini isloh qilishda uning tarkibini tubdan o'zgartirish, resurslar, mol-mulk solig'ining rolini oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini joriy etish vazifasi qo'yiladi.

Tabiiy resurslarni qayta tiklash imkoniyatini yaratish va ulardan ehtiyotkorona foydalanish maqsadini amalga oshirish uchun yer osti boyliklari, suv va qayta tiklanmaydigan boshqa resurslarga to'lov o'rnatish soliq siyosatining navbatdagi yo'nalishidir.

¹²¹ 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz.

Respublika ahamiyatiga ega bo'lgan soliqlar bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq chegarani belgilash soliq tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishidir.



Bunda davlat budjeti daromadining katta qismini joylarga berish, mahalliy budjetlarni mustahkamlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Davlat budjeti mutanosibligini kuchaytirish maqsadida, soliq tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, korxonalarining moliya intizomini mustahkamlash, to'lov majburiyatlarini bir me'yorga keltirish, qarzlarning salbiy oqibatini tugatish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

4. Davlatning fiskal siyosati, uning maqsadi va iqtisodiy dastaklari

Davlatning fiskal siyosati siklik tebranishlarni bir maromga keltirish va yuqori bandlik hamda past inflatsiya sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliqqa tortish va davlat xarajatlarini tartibga solishga qaratiladi.



Fiskal siyosat rag'batlantiruvchi yoki turg'un tavsifga ega bo'lishi mumkin. Rag'batlantiruvchi fiskal siyosati (fiskal ekspansiya) qisqa davrda davlat sarflarini ko'paytirish, soliqlar stavkalarini pasaytirish yoki bu choralarni o'zaro uyg'unlashtirish yo'li bilan siklik tanazzulni yengib o'tish maqsadida ishchan iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltiriladi. Uzoq davrda soliq stavkalari pasayishi iqtisodiy o'sish sur'atining barqaror

jadallashuvi va iqtisodiy salohiyatning mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin.

Davlatning, turg'un fiskal siyosati qisqa davrda iqtisodiyotning "qizib ketish"ni bartaraf etish maqsadiga ega bo'ladi. U davlat xarajatlarini taqozo etib iqtisodiy o'sish va talab inflatsiyasi sur'atini pasaytirishga imkon beradi.

Davlat fiskal siyosati – bu davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tarkibiy qismini o'zgartirish orqali milliy iqtisodiyotga ta'sir qilishni anglatadi.

"Fiskal" lotincha so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni bildiradi. Bu o'z navbatida "xazina siyosati" degan tushunchani ham yuzaga keltiradi. Fiskal, ya'ni xazina siyosatiga insoniyat tarixida o'tgan yirik davlat arboblardan biri, o'rta asrlarda buyuk saltanat barpo qilgan Amir Temur katta e'tibor qilgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda asosan xazinani to'ldiruvchi soliqlarga tayangan.

Shu bois "Temur tuzuklari"da "davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir. Dono vazir bularning uchallasini yaxshi ahvolda saranjom tutadi", - degan fikr ilgari suriladi.

Fiskal siyosatdan iqtisodiyotni tartibga solish va uning muvozanatligini ta'minlash dastagi sifatida foydalanish haqidagi fikr ingliz iqtisodchisi J.M.Keynsga mansubdir¹²². U jamiyat taraqqiyot darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning 3 guruhini ajratib ko'rsatib, birinchi guruhga: ishchi kuchining miqdori va malaka darajasi, mavjud uskunalari soni va sifati, tatbiq etiladigan texnologiya, raqobatning yetuklik darajasi, iste'molchining didi va odatlari, turli jadallikdagi mehnatning og'irligi, nazorat va ishlab chiqarishni tashkil etishning ahamiyati, shuningdek jamiyatning tarkibiy tuzilishini kiritadi, J.Keyns ikkinchi guruhga mustaqil o'zgaruvchan omillarni: iste'molga moyillik, kapitalning samaradorligi va foiz normasini, uchinchi guruhga bandlik va milliy daromad hajmini kiritgan.

J.Keyns iqtisodiyotga davlatning aralashuvini mustaqil o'zgaruvchan omillarga ajratib, u bandlik va milliy daromad hajmiga ta'sir ko'rsatadi deb hisoblagan. Bunda hal qiluvchi shart

¹²² Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег – М.; Прогресс, 1978. Стр.449

sifatida davlat fiskal va pul-kredit siyosati investitsiyalarni rag'batlantirishda namoyon bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Soliqlarni fiskal siyosatning bir qismi sifatida G'arb iqtisodiy fanida ko'rsatib uni rag'batlantiruvchi va to'sqinlik qiluvchi dastak sifatida ifodalashga alohida e'tibor qaratadi.

“Fiskal siyosatning asosiy maqsadi – ishsizlik va inflatsiyani yumshatishdan iboratdir. Tanazzul davrida kun tartibida rag'batlantiruvchi fiskal siyosat to'g'risidagi masala paydo bo'ladi.

U quyidagilarni o'z ichiga oladi: (1) davlat xarajatlarning ko'payishi yoki (2) soliqlarning pasayishi, yoxud (1) va (2)ni birga qo'shib olib borish.

Agar iqtisodiyotda ortiqcha talab tufayli paydo bo'lgan inflatsiya sodir bo'lsa, bunga to'sqinlik qiluvchi fiskal siyosat mos keladi. Bunday fiskal siyosat quyidagilarni o'z ichiga oladi: (1) hukumat xarajatlarning kamayishi, yoxud (2) soliqlarning ko'payishi, yoxud (1) va (2)ning birga qo'shib olib borilishi. Fiskal siyosat bashartida iqtisodiyot oldida inflatsiya ustidan nazorat qilish muammosi turadigan bo'lsa, hukumat budjetining ijobiy qoldig'iga tayanishi lozim”¹²³.



XX asrning 20-yillariga kelib, davlat moliya siyosati neoklassik oqim vakillarining konsepsiyasiga asoslangan, uning asosiy yo'nalishi quyidagilardan iborat bo'lgan: davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi; erkin raqobatga asoslangan xo'jalik faoliyatini tartiblashda bozor mexanizmidan samarali foydalanish.

Davlat monopolistik kapitalizmining rivojlanishi oqibatida, 30–60-yillarga kelib moliyaviy siyosat negizida asosan keynschilik va neokeynschilik oqim maktablarining iqtisodiy konsepsiyalari joy oldi.

¹²³ Makkonell B., Stenla Bryu S.L. Ekonomiks: Prinsipy, problemy i politika per.s ang., 2t, Izd. «Respublika», 1992.

Keyinchalik yoʻnalishning moliyaviy konsepsiyasida quyidagi asosiy yoʻnalishlar ustuvorlikni egallagan;

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining barcha muhim muammolarini resurslar taklifini oʻrganish bilan emas, balki ularning sotilishini taʼminlovchi talab nuqtayi nazaridan qarab chiqish zarur;

Kapitalistik iqtisodiyot har doim ham oʻzini-oʻzi tartibga solishga layoqatli emas. Shunday ekan, mehnat va kapital yuqori darajada umumlashgan sharoitda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi muqarrardir. Bunda davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiyotni narx yordamida tartiblash mexanizmi orqali toʻldirib borilishi zarur;

Takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan ortiqcha ishlab chiqarish, iqtisodiy beqarorlik holatlarining sababi talabning yetishmasligidandir. Shunday ekan iqtisodiyotdagi muvozanatlikni taʼminlash muammosini talab nuqtayi nazaridan hal qilish zarur. Buning uchun Keynes “samarali talab” tushunchasini kiritadiki, u daromad va bandlik, isteʼmol va ishlab chiqarish oʻrtasidagi muvozanatlikni oʻzida mujassamlashtiradi;

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi muhim dastagi bu budjet siyosatidir. Davlat budjeti va moliyaviy siyosatning asosiy maqsadi ishchi kuchi va ishlab chiqarish uskunalarining bandligini taʼminlashdan iboratdir¹²⁴.



Iqtisodiyotning siklli rivojlanishi va inqirozlarni bartaraf etishning asosiy dastagi bu – davlat xarajatlaridir. Keynsning fikricha, uning shakllanishi, tuzilishi va oʻsishi “samarali talab”ga erishishdagi muhim omildir.

Shunday qilib, Keynes davlat monopolistik kapitalistik iqtisodiyotni tartibga solishda yangi moliya nazariyasining ustuvor yoʻnalishini ishlab chiqdi. Mazkur moliyaviy siyosat Keyns izdoshlari tomonidan (Amerikada – R.Xarrod, A.Ouken, U.Xeller, Buyuk Britaniyada – J.Vaysman,

¹²⁴ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег – М.; Progress, 1978. Стр.142

Fransiyada – F.Perru, Yaponiyada – K.Emi, X.Itolar) amaliyotga joriy etildi. Bu 40–60-yillarda iqtisodiyotni tartibga solishda ijobiy natijalarni berdi. 70-yillargacha ko‘pchilik yetakchi g‘arb davlatlarning moliya nazariyasi va amaliyoti asosida Keynes nazariyasining qoidalari yotadi.

Neokonservatorlar Keynes ta’limotining ayrim kamchiliklarini topib, unga muqobil o‘z konsepsiyalarini ilgari suradi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

1. Keynes konsepsiyasidagi inflatsiyani jilovlash, ishlab chiqarish va bandlikni kengaytirishda moliyaviy dastaklardan foydalanish to‘g‘risidagi fikriga qarshi muomaladagi pul miqdorini kamaytirish haqidagi g‘oyalari;

Soliqlarning tez o‘sishi ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlarning moddiy manfaatdorligini pasaytirib yuborishi sababli taklifni kengaytirish orqali iste’molchilik talabini muvozanatlashtirish, soliqlarni ratsional darajada pasaytirib, erkin xususiy tadbirkorlik va bozor raqobatini rivojlantirish to‘g‘risidagi fikrlari;

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi faqatgina ayrim xizmatlar, xo‘jalik faoliyatini himoya qilish bilan cheklanishi kerakligi to‘g‘risidagi fikrlari;

Fiskal siyosat oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, uning uchta yo‘nalishi, ya’ni iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, barqarorlashtirish va iqtisodiy faoliyatni chegaralash siyosatlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Iqtisodiy o‘shish maqsadlaridan kelib chiqilganda, fiskal siyosat bandlik darajasini va shu orqali YaIM real hajmini oshirishga qaratiladi. Bunda rag‘batlantiruvchi fiskal siyosatning dastaklari davlat xarajatlarining o‘sishi va soliq stavkalarining pasayishi hisoblanadi


Boshqacha aytganda, hozirgi davrda davlatning budjet barqarorligini ta’minlashga qaratilgan moliyaviy siyosati iqtisodiy inqiroz yoki turg‘unlik davrida budjet taqchilligini bartaraf etish maqsadlariga qaratilishi zarur.

Agar davlat o‘zining fiskal va xarajatlar siyosatidan foydalanib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini bir me’yorda ushlab turishga va narxlarning barqarorligini ta’minlashga intilsa, bunda uning iqtisodiyotni barqarorlashtirish orqali iqtisodiy jarayonlarni rag‘batlan-

tirish yoki ushlab turishga qaratilgan moliyaviy siyosat turlicha maqsadni koʻzlab, bir-biridan farqlanadi.

Davlatning iqtisodiy faollikni cheklash siyosati real YaMM hajmining potensial darajasidan keskin farq qilishini kamaytirishga yoʻnaltirilib, bu ayni vaqtda iqtisodiy oʻsish va uning tanazzuli davrlarida inflatsiya va ishlab chiqarishdagi inqirozli jarayonlardan qochishga qaratiladi.

Iqtisodiyotning siklli rivojlanishini tartibga solish orqali makroiqtisodiy mauvozanatlikni taʼminlab borishga qaratilgan fiskal siyosat bir qator moliyaviy vosita va iqtisodiy dastaklar yordamida amalga oshiriladi. Qoʻllaniladigan bu barcha moliyaviy vosita va dastaklar birgalikda tartibga solishning moliyaviy mexanizmini tashkil qiladi.



24.2-chizma. Fiskal siyosat, uning maqsadi va amalga oshirishning iqtisodiy dastaklari.

Ma'lumki, iqtisodiyot nazariyasi va amaliy hayotda fiskal siyosatning ikkita turi ajratiladi:



Diskretsion fiskal siyosat yoki bevosita davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosat;

Nodiskretsion fiskal siyosat yoki avtomatik ravishda barqarorlashtiruvchi siyosat.

Nodiskretsion fiskal siyosat deyilganda, soliq tizimining mustaqil

barqarorlashtiruvchi bir qator layoqatlari, ya'ni uning mamlakatdagi iqtisodiy faollikni qandaydir boshqaruvchi organlarning bevosita aralashuvlarisiz tartibga solish imkoniyatini beruvchi ayrim xususiyatlari tushuniladi.

Ishlab chiqarishning birdaniga va tez o'sish holatini yumshatish uchun budget daromadlari uning xarajatlar qismiga nisbatan ortiqcha bo'lishi zarur. Boshqa tomondan yondashilsa, bunday "yumshatish" uchun aksincha, budget kamomadi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday ekan, iqtisodiyotni tartibga solishni faqat avtomatik ravishda barqarorlashtiruvchi vositalar yordamida amalga oshirish mumkin emas, shu sababli davlatning diskretsion siyosati bunga zaruriy to'ldiruvchi hisoblanadi.

Diskretsion fiskal siyosat – bu milliy ishlab chiqarish real hajmini o'zgartirish, bandlik darajasini ushlab turish va inflatsiya ustidan nazorat o'rnatish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliqlar bilan birga, davlat xarajatlarini ongli ravishda manipulatsiya qilish tushuniladi.

Diskretsion fiskal siyosatning asosiy dastaklari quyidagilar hisoblanadi:

Davlat sarflari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ishlar va boshqa dasturlari;

Davlat buyurtma va xaridlari;
Davlat investitsiyalari;
Transfert yoki qayta taqsimlash turidagi xarajatlarni o'zgartirish;
Soliqlarni boshqarish.

Shunday qilib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan fiskal siyosat, milliy xo'jalikda tashkil qilingan soliq tizimining asosiy qoidalariga javob berishi va iqtisodiyotdagi ichki o'zaro munosabatlarni samarali tartibga solishi zarur. Bunda asosiy e'tibor: "...xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlangan holda davlat, budjetining barcha miqyoslarida muvozanatni saqlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish" ga qaratilishi maqsadga muvofiq¹²⁵.

Tayanch tushunchalar

Moliya – bu turli darajada markazlashgan pul fondlari vositasida iqtisodiyot subyektlari pul daromadlarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Davlat budjeti – bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir.

Soliq – iqtisodiy tushuncha sifatida, sof daromadning bir qismini budjetga jalb qilish shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Davlat fiskal siyosati – bu davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tarkibiy qismini o'zgartirish orqali milliy iqtisodiyotga ta'sir qilishni anglatadi.

Muhokama uchun savollar

1. Moliyaning iqtisodiy mazmunini tushuntiring va uning vazifalarini bayon qiling.

¹²⁵ Mirziyoyev Sh.M.. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz

2. Jamiyat va davlat moliya tizimlari asosiy bo'g'inlarining tavsifini bering. Moliya tizimida davlat budjetining o'rni qanday?

3. O'zbekiston davlat budjeti mablag'larining shakllanish va taqsimlanish xususiyatlari to'g'risida mulohaza yuriting.

4. Davlat budjeti milliy daromadini taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol o'ynaydi? Bunda qanday usullardan foydalaniladi?

5. Budjet taqchilligi nima? Ijobiy va salbiy budjet taqchilligini tushuntiring.

6. Soliqlarning iqtisoiy mohiyatini tushuntiring va uning turlarini asosiy vazifalarini ko'rsating.

7. Davlat fiskal siyosati mohiyatini va uning milliy iqtisodiyotga ta'sir etishini tushuntiring.

8. O'zbekistonda budjet va soliq tizimini isloh qilish qanday yo'nalishlarda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan?

XXV bob. PUL MUOMALASI, KREDIT VA BANKLAR

1. Pul tizimi. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari.

2. Pul bozori. Pulga bo‘lgan talab va pul taklifi.

3. Kreditning mohiyati, vazifalari va manbalari.

4. Kredit tamoyillari va turlari. Foiz stavkasi va unga ta’sir etuvchi omillar.

5. Kredit-bank tizimi va Markaziy bankning pul kredit siyosati.

6. Pul multiplikatori.

1. Pul tizimi. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari

Pul tizimi – bu davlat tomonidan qonuniy tartibda o‘rnatilgan pul muomalasini tashkil qilish shakli va unga xizmat qiluvchi kredit muassasalaridir.

Pul tizimining tarkibiy qismlari:

1. Pul birligi (dollar, marka, yevro, rubl, so‘m va h.k.).

2. Pul turlari (bank biletlari, tanga, chaqalar).

3. Pul emissiya qilish tartibi.

4. Muomaladagi pul massasini tartibga soluvchi davlat muassasalari.

5. Naqd pulsiz hisob-kitobni amalga oshirish tartibi.

6. Milliy valutani chet el valutasiga almashtirish tartibi.

Pul muomalasi – bu tovarlar aylanishiga hamda notovar tavsifidagi to‘lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan aktivlarning harakati. Naqd pul muo-

malasiga bank biletlari va metall tangalar (pul belgilari) xizmat



qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi pul agregati deb yuritiladi. Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi ularni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarda turli xil moliyaviy aktivlarga ega bo'lish imkoniyati mavjud bo'ladi. Pul, turlicha qimmatli qog'ozlar, bankdagi hisoblar, ko'chmas mulk, qimmatli metallar, antikvar buyumlar va boshqa shu kabilar moliyaviy aktivlar shakli hisoblanadi.

Daromad egalari o'zlarining aktivlarini likvidli, ya'ni pul shaklida saqlashga harakat qiladi.

Aktivlar likvidligi – bu ularning, har xil to'lovlarga zaruriyat bo'lganda naqd pullarga aylana olish layoqatidir.

Pul mutlaq likvidlik xususiyatiga ega. Boshqa barcha aktivlar kam yoki ko'p darajada bunday xususiyatga ega bo'ladi. Moliyaviy aktivlar likvidligi qancha kam bo'lsa, uning egasi uchun o'z ixtiyoridagi pulni zarur vaqtda olish imkoniyati bilan bog'liq yo'qotish tahlikasi shuncha yuqori bo'ladi¹²⁶.

Yuqori inflatsiya sharoitida pulning mutlaq likvidligi ustuvorlikka ega bo'lishdan to'xtaydi. Bunday sharoitda yuqori likvidli aktiv barqaror chet el valutalari va ko'chmas mulklar bo'lib qoladi.

Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning eng muhimi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagilarga bog'liq.

1. Muayyan davrda, (bir yil davomida) sotilishi lozim bo'lgan tovarlar narxi summasiga (T_b). Tovarlar qancha ko'p va narxi baland bo'lsa, ularni sotish va sotib olish uchun shuncha ko'p pul birligi talab qilinadi.

2. Pul birligining aylanish tezligiga (A_t).

Pul bir xil bo'lmagan tezlik bilan aylanadi. Bu ko'p omillarga, jumladan ular ayriboshlanishiga xizmat qilayotgan tovarlar turiga bog'liq.

¹²⁶ Campbell R. McConnell "Economics" Principles, Problems, and Policies 2008 195 p

3. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori puldan to'lov vositasi sifatida foydalanishga ham bog'liq. Ko'pincha tovarlar qarzga sotiladi va ularning haqi kelishuvga muvofiq keyingi davrlarda to'lanadi. Demak, zarur pul miqdori shunga muvofiq miqdorda kamayadi. Ikkinchi tomondan, bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar haqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu pulga ehtiyojni ko'paytiradi.

Mazkur holatlarni hisobga olganda, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori (P_m) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$P_m = \frac{T_b - K_s + X_t}{A_t}; \text{ bunda}$$

K_s – qarzga sotilgan tovarlar narxi summasi;

X_t – haqini to'lash muddati kelgan tovarlar narxi summasi;

Muomala uchun zarur pul miqdorini aniqlashning hozirgi zamon yondashuvi «Fisherning ayriboshlash tenglamasiga» asoslanadi, ya'ni

$QP=MV$; yoki

$$M = \frac{QP}{V}; \text{ bunda}$$

Q – ayriboshlanadigan tovarlar miqdori;

P – tovarlar narxi;

M – muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori;

V – pulning aylanish tezligi.

Iqtisodiy fondida, pul muomalasi to'g'risida bir qator nazariyalar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilar:

Klassik nazariya

Muomala uchun zarur pul miqdori sotishga chiqariladigan tovarlarning qiymat miqdori va ularning oltin asosiga teng kelishi g'oyasini ilgari suradi.

Miqdoriylik nazariyasi

Bu nazariyaga ko'ra, muomaladagi pul miqdorining o'zgarishi tovarlar narxining o'zgarishiga olib keladi va bu o'z navbatida pulning sotib olish layoqatini o'zgartiradi.



I.Fisher yondashuvi

Bunda Fisher tenglamasi $Q \cdot P = M \cdot V$ narxlar pul massasiga to'g'ri mutanosiblikda, pulning qadr-qiyamati esa uning miqdoriga teskari mutanosiblikda bog'liq bo'lishini ko'rsatadi.

Kembridj maktabi (A.Marshall, A.Pigu, D.Robinson) yondashuvi pulga talab va uning taklifi o'rtasidagi muvozanatlik shartlarini xarakterlaydi, ya'ni $M = K \cdot R \cdot Y$, bu yerda

M – pul massasi;

K – Marshall koefitsiyenti (nominal daromadlarning naqd pul shaklida saqlanayotgan qismi);

R – narxlarning umumiy darajasi;

Y – jamiyatning real daromadi;

R·Y – nominal daromad.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti me'yorida faoliyat qilishi, uning o'sish sur'ati, narx darajasi va bandlikni barqaror ushlab turish uchun muayyan miqdorda pul massasi talab qilinadi.

2. Pul bozori. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi

Pul bozori – moliyaviy bozorning tarkibiy qismi bo'lib, unda pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar harakati ularga bo'lgan talab va taklif ta'sirida uyg'unlashtiriladi.

Pul bozori turlari:

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) bozori.

Kredit resurslari bozori.

Banklararo depozitlar bozori.

Milliy iqtisodiyotda davlatning, tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalarning majburiyatlari pul sifatida foydalanadi. Pul operatsiyalarining asosiy ko'pchilik qismi naqd pulsiz, cheklar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli, muomalada bo'lgan pul miqdorini hisoblash uchun $M_1 \dots M_n$ pul agregatlari yoki tarkibiy qismi tushunchasidan foydalaniladi.

Bizning respublikamizda umumiy pul miqdori quyidagi (tarkib)lar asosida hisoblanadi:

M_0 – naqd pullar;

$M_1 = M_0 +$ tegishli hisob varaqalaridagi pul qoldiqlari, mahalliy budjetlar mablag‘lari, budjet, jamoa va boshqa tashkilot mablag‘lari;

$M_2 = M_1 +$ banklardagi muddatli omonat(jamg‘arma)lar;

$M_3 = M_2 +$ chiqarilayotgan sertifikatlar + aniq maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlari.

Barcha pul agregatlari yig‘indisi yalpi pul massasi yoki yalpi pul taklifini tashkil qiladi.

Pul massasi – bu naqd va naqdsiz shaklda mavjud bo‘lgan, belgilangan vazifalarni bajaruvchi barcha pul vositalari yig‘indisidir. Yalpi pul taklifi iqtisodiyotdagi mavjud barcha pullar miqdori bilan aniqlanadi.

Pul taklifi pul multiplikatori yordamida hisoblanadi.

Pul multiplikatori – bu tijorat banklar tizimi muomaladagi pul massasini ko‘paytirish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan ortiqcha ehtiyotlar bir qismi va yangi qarz (yoki qimmatli qog‘ozlarni sotib olish) taqdim qilish yo‘li bilan berilgan muddatsiz qo‘yilmalar summasidir. U bir soni (1) ning ehtiyotlar, majburiy normasiga bo‘lingan miqdoriga teng. Mazkur ko‘rsatkich pul asosi o‘zgargan holda pul massasi hajmi qanchaga o‘zgarishini ko‘rsatadi.

$$m = D = E \cdot m, \quad E = A - R \text{ bunda,}$$

m – pul multiplikatori;

D – pulning joriy hisobda eng yuqori darajada ko‘payishi;

R – ehtiyotlar normasi;

E – ortiqcha ehtiyotlar.





Pul tarkibiy qismlari nuqtayi nazaridan naqd pullar – metall va qog‘oz pullardan iborat bo‘ladi. Naqd pullar bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy pul massa-sining 5-7 foizini, bo-

zor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mustaqil hamdo‘stlik davlatlarida 30–35% ni tashkil qilgan.

Monetaristik yondashuvga ko‘ra Fisher tenglamasida Transak-sion deb nomlanadigan pulga talab hisobga olinadi. Bu talab pulning muomala vositasi vazifasidan kelib chiqadi. Pulga Transaksion talab – tovar va xizmatlarni sotib olishga xizmat qilishi sababli, u bitimlar uchun pulga talab ham deyiladi.


Shunday ekan, pulga talab – bu bitimlar uchun (Pt) va aktivlar tomonidan pulga talab (Pa) ni o‘z ichiga oladi.

Aholi o‘zlarining hisoblariga navbatdagi pul oqimi kelib tushguncha, kundalik ehtiyojlari uchun qo‘llarida yetarlicha pulga ega bo‘lishi zarur. Korxonalariga ish haqi to‘lash, material, yoqilg‘i sotib olish va shu kabilar uchun pul kerak bo‘ladi. Shu barcha maqsadlar uchun zarur bo‘lgan pul bitim uchun pulga talab deyiladi. Bitim uchun zarur bo‘lgan pul miqdori nominal YaIM hajmi bilan aniqlanadi, ya’ni u nominal YaIM qiymatiga mutanosib ravishda o‘zgaradi. Aholi va korxonalariga ikki holda bitim uchun ko‘proq pul talab qilinadi: narxlar o‘sganda va ishlab chiqarish hajmi ko‘payganda.



Kishilar o‘zlarining moliyaviy aktivlarini har xil shakllarda, masalan, korporatsiya aksiyalari, xususiy yoki davlat obligatsiyalari shaklida ushlab turishi mumkin. Demak, aktivlar tomonidan pulga talab ham mavjud bo‘ladi.

Aktivlar tomonidan pulga talab foiz stavkasiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Foiz stavkasi past bo'lsa, kishilar ko'proq miqdordagi naqd pulga egalik qilishni afzal ko'radi. Aksincha, foiz yuqori bo'lganda pulni ushlab turish foydasiz va aktivlar shaklidagi pul miqdori ko'payadi. Shunday qilib, pulga bo'lgan umumiy talab, aktivlar tomonidan pulga bo'lgan talab va bitim uchun pulga bo'lgan talabning miqdori bilan aniqlanadi.



25.1-chizma. Pulga bo'lgan talab.

Keyns nazariyasida pulga bo'lgan talabni iqtisodiyot subyektlari o'z boyligining bir qismini likvidli pul aktivlari shaklida saqlashga moyilligidan kelib chiqib aniqlashga harakat qilinadi.

Bunda pulni likvidli shaklda saqlashning transaksion (to'lov vositasi sifatida foydalanish), ehtiyotkorlik (ko'zda tutilmagan xarajatlar bo'lishini hisobga olish) va olib-sotarlik (moliyaviy aktivlarning kelgusidagi bozor qiymati noaniqligi va yo'qotishdan qochish xohishi) motivi asosida unga bo'lgan talabni aniqlashga harakat qilinadi.

Keyns pulga bo'lgan talabni nominal daromad va ssuda foizi normasiga bog'liq deb hisoblaydi: nominal daromad pulga bo'lgan talabga to'g'ri mutanosiblikda, ssuda foizi normasi esa teskari mutanosiblikda ta'sir ko'rsatadi.

Keyns fikricha, muomaladagi pul miqdorining ko'payishi boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda foiz stavkasi darajasi pasayishini keltirib chiqaradi. Bu tadbirkorlar uchun kreditlar

arzonlashganini bildiradi, investitsiyalar o'sishi ro'y beradi va natijada YaIM o'sishi kuzatiladi.

YaIMning o'sishi pulga bo'lgan talabni kengaytiradi va foizning muvozanatli stavkasini oshiradi. Monetaristlar qarashicha, aynan pul muomalasi ishlab chiqarish, bandlik va narx darajasini belgilab beradi.

3. Kreditning mohiyati, vazifalari va manbalari

Kredit pulni ma'lum shartlarga amal qilgan holda qarzga berish va uni maqsadli ishlatishni bildiradi. Kredit munosabatlari juda qadim zamonlarda vujudga kelgan. Dastlab natura shaklida (g'alla, chorva va boshqalar) mulkdorlar tomonidan qarzga berish udum bo'la boshlagan. Qarzga pul berishning dastlabki shakli sudxo'rlik bo'lib, u nihoyatda yuqori darajada foiz bilan qaytarilishi bilan kreditdan farq qilgan. Qadimgi Gretsiyada eramizgacha (IV asrda) oyiga 42%, yiliga 570% gacha foiz to'langani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Bundan tashqari, sudxo'r qarz oluvchidan qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishini ham talab qilgan.



yordam bergan. Industrial ishlab chiqarish va bozor xo'jaligining vujudga kelishi bilan kreditsiz ishlab chiqarish faoliyatini yuritish qiyinlashib qoldi.

Bunda kapital bir xo'jalikda pul shaklida, ikkinchisida tovar shaklida to'planib, turli sohalarda ularning harakati bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Kapital harakatning alohidalashgani tufayli bir xo'jalikda pul yetishmasa, ikkinchisida bo'sh pul mablag'lari mavjud bo'ladi. Natijada mablag'i yo'qlar, bo'sh pul mablag'ga ega bo'lganlardan qarz olishga majbur bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat taraqqiy etishi bilan kredit munosabatlari rivojlanib, uning yangi-yangi imkoniyatlari vujudga kela boradi. Hozirgi iqtisodiyotni kredit munosabatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan pul mablag'larning ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga berilishi va uni qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlarni ifodalaydi.

Kredit munosabatlari ikki subyekt o'rtasida yuz beradi. Biri bo'sh pul mablag'lari egasi, ikkinchisi unga muhtoj, ya'ni qarz oluvchilardir.



Kredit subyektlari yuridik hamda jismoniy shaxslar, banklar, korxonalar, davlat va turli toifa aholi qatlami bo'lishi mumkin. Bir subyektning o'zi bir vaqtda ham qarz oluvchi, ham qarz beruvchi sifatida chiqishi mumkin. Kredit aloqalari pul egasi bilan qarz oluvchi o'rtasida bevosita yoki bilvosita tartibda amalga oshiriladi. Birinchi holda ular to'g'ridan-to'g'ri, ikkinchi holda vositachilar orqali bog'lanadi. Odatda, asosiy vositachi rolini banklar o'ynaydi. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida qator vazifalarni bajaradi.

Taqsimlash vazifasi. Bunda bo'sh pul mablag'larini qarzga berish orqali kapitalni turli tarmoqlar, korxonalar o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash amalga oshiriladi va iqtisodiy resurslarning ko'chib yurishi ta'minlanadi.

Joriy qilish. Kredit asosida va unga bog'liq holda pul belgilari va unga tenglashtirilgan naqd pulsiz to'lov vositalari, turli qimmatbaho qog'ozlar emissiya qilinadi, xo'jalik aylanmasiga kiritiladi.

Nazorat qilish. Kredit operatsiyalarini bajarish jarayonida iqtisodiy faoliyat, moliyaviy ahvol nazorat qilinadi. Davlat kredit munosabatlari orqali pul aylanmasi barcha jarayonlarini boshqarishni amalga oshiradi.

Rag‘batlantirish. U yoki bu maqsad uchun qarz berish, qarzni undirish orqali tejamkorlik, iqtisodiy o‘sish rag‘batlantiriladi.

Ishlab chiqarish uzluksizligini ta‘minlash. Bunda bo‘sh pul mablag‘larini harakatdagi kapitalga aylantirilib tovar ishlab chiqarish vaqti qisqartiriladi.

Kredit mablag‘lari manbai sifatida quyidagilar chiqadi:

Birinchi, korxonalarining vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘lari. Bu mablag‘lar kapitalning doiraviy aylanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ma‘lum muddat uning bir qismi bo‘sh turadi. Jumladan amortizatsiya ajratmalari, asosiy kapitalni yangilash vaqti kelguncha bo‘sh bo‘lib, bankdagi hisob raqamlarida jamlanib boradi. “jadallashtirilgan” amortizatsiya siyosati tufayli bu mablag‘lar o‘sib borish tamoyiliga ega bo‘ladi. Mahsulot sotishdan keladigan pul tushumlari ham xomashyo, materiallar sotib olish, xodimlar mehnatiga haq to‘lash vaqti kelguncha bo‘sh turadi. Korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag‘batlantirish fondlari ham jamlanib borib, belgilangan maqsad bo‘yicha ishlatilguncha bo‘sh turadi. Korxonalar foydasi davlat budjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, bankdagi hisoblarda saqlanadi.

Ikkinchi, moliya-kredit muassasalarining pul mablag‘lari. Ularning daromadlari bilan xarajatlari o‘rtasidagi farq bo‘sh pul mablag‘larini tashkil etadi. Tijorat banklari va moliya-kredit

muassasalarining pul zaxiralari ham ssuda fondi manbai hisoblanadi.

Uchinchi, davlat ixtiyoridagi zaxira pul mablag‘lari. Markaziy va mahalliy boshqaruv bo‘g‘inlarining xarajatlari bilan soliq tushumlari o‘rtasidagi farq tarzida bo‘sh pullar mavjud bo‘ladi. Budjet



tizimi mablagʻlari harakati natijasida ham maʼlum miqdorda boʻsh pullar hosil boʻladi.

Toʻrtinchidan, turli maxsus (pensiya, sugʻurta, xayriya) va ijtimoiy fondlarning mablagʻlari. Bu fondlarda pullarning hosil boʻlishi va ishlatilishi har xil vaqtda yuz beradi. Bu maʼlum miqdorda pul mablagʻlarining boʻsh qolib, qarz fondiga aylanishi uchun imkon beradi.

Beshinchidan, aholi pul daromadlari va jamgʻarmalari. Aholining isteʼmolchi sifatida qimmatbaho tovarlar olish, uy qurish va marosimlar oʻtkazish maqsadidagi pullari ishlatilgunga qadar boʻsh turadi.

Oltinchidan, tadbirkorlar qoʻlidagi boʻsh pul mablagʻlari.

Bulardan tashqari davlat budjetidan uzoq muddatli qarz berish uchun maxsus mablagʻ ajratiladi. Markaziy bank ham qoʻshimcha emissiya tufayli moliya-kredit muassasalariga kreditlar berishi mumkin.

Maʼlum vaqt mobaynida boʻsh pullar uning egalariga hech qanday daromad keltirmaydilar, shuning uchun kam miqdordagi foiz bilan ham qarz berish foydali boʻlib qoladi. Natijada ana shu boʻsh pullar ssuda kapitaliga aylantiriladi. Bunda banklar yuqori foiz bilan muhtoj boʻlgan tadbirkorlar va boshqa subyektlarga oʻz maqsadlarini amalga oshirish uchun qarz beradi. Hozirgi sharoitda xoʻjalik faoliyatini moliyalashtirishda qarz mablagʻlari ulushi oshib borishi tamoyili kuzatiladi. Ularning ulushi ayniqsa kapital quyilmalar hajmida ortib boradi. Bunday tamoyil Yaponiya, Italiya, Fransiyada yaqqol koʻzga tashlandi. Masalan: Yaponiya firmalari ishlab chiqarishni kengaytirish uchun sarflangan mablagʻlarning 4/5 qismini chetdan jalb qilingan, yaʼni qarz olingan mablagʻlar tashkil qiladi.

4. Kredit tamoyillari va turlari. Foiz stavkasi va unga taʼsir etuvchi omillar

Kreditning tarixiy rivojlanish jarayonidagi shakllari bu tovar (tijorat) va pul kreditlaridir. Tovar krediti – bu korxonalar, tadbirkorlar va boshqa xoʻjalik subyektlarining bir-biriga tovar shaklida beradigan kreditdir. Bunda tovar qarzga beriladi.

Ko‘pincha bunday kredit veksel (qarz majburiyatnomasi) bilan hujjatlashtiriladi. Kreditning mazkur shakli cheklangan tarzda qo‘llaniladi. Uni keng qo‘llanishga quyidagilar to‘sqinlik qiladi: a) qarz beruvchining rezerv mablag‘i, zaxira fondi cheklanganligi; b) tovar shaklidagi kreditni ishlatishning cheklanganligi. Masalan, korxonaga to‘ldiruvchi material yoki xomashyo qarz olgan bo‘lsa, uni faqat ishlab chiqarish jarayonida ishlatishi mumkin, undan ish haqi tarzida foydalana olmaydi;



Pul krediti nafaqat tovar muomalasiga, balki kapital jamg‘arilishga ham xizmat qiladi. Pul shaklidagi kredit bitimlar hajmi, muddati, yo‘nalishi bo‘yicha cheklanmaganligi jihatidan tijorat kreditidan farq qilishi, uni kreditning asosiy va ustun shakliga aylantiradi.

Kredit turlarini ajratishga har xil mezonlar asos qilib olinadi.

Qarz beruvchi va oluvchining asosiy toifalariga ko‘ra: xo‘jaliklararo, aholi va davlat kreditlari farqlanadi.



Davlat krediti: Davlat bir tomondan qarz oluvchi, ikkinchi tomondan qarz beruvchi sifatida maydonga chiqishi natijasida davlat krediti paydo bo‘ladi. Davlat aholdan, firma, korxonalar, tashkilotlar, banklardan qarz olganda qarzni uzish va foiz to‘lashni kafolatlaydi. Qarz va uning foizi budget mablag‘i hisobidan qoplanadi. Davlat

qarzni eng avvalo, budget taqchilligini qoplash uchun oladi. Kredit munosabatlarida davlat faqat qarzdor vazifasini o‘tamay, qarz beruvchi rolini ham bajaradi. Davlat o‘z mablag‘lari hisobidan

bankda qarz fondini tashkil etadi, xazinadan qarz beradi. Xazina qarzi davlat budjetidan, korxonalar va firma, tashkilotlarga ularning moliyaviy sogʻlomlashtirish uchun sarflanadi.

Bu qarz ham maʼlum muddatga, qaytarib berish va foiz toʻlash sharti bilan beriladi. Foiz gʻoyat imtiyozli boʻlib, koʻpincha daromad olishni koʻzlamaydi. Ayrim hollarda Davlat bunday qarzlardan voz kechishi ham mumkin.

Xoʻjaliklararo pul krediti xoʻjalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga beradigan krediti. Bunday holda kredit korxonalar, tashkilotlar tomonidan aksiya, obligatsiya, kredit kartochkalari va boshqa qimmatbaho qogʻozlar chiqarish orqali beriladi. Bu operatsiyalar korxonalarining markazlashtirilmagan moliyalashtirish va kreditlash tizimi degan nom olgan.

Koʻzlangan maqsadga koʻra: isteʼmol, ipoteka, tijorat va xalqaro kreditlar ajratiladi.

Isteʼmol krediti. Aholi ehtiyojlarini qondirishga moʻljallangan boʻlib, u tovar yoki pul shaklida berilishi mumkin. Bu kredit eng avvalo, uzoq muddat foydalaniladigan isteʼmol tovarlarini sotib olish uchun beriladi hamda unga belgilanadigan foiz birmuncha yuqori boʻladi. Hozirgi paytda imtiyozli kreditlar ham oʻz oʻrniga ega Jumladan, talabalarga oʻqish haqini toʻlashlari uchun maxsus taʼlim kreditlari beriladi. Bunday qarzni talaba oʻqishni tugatib pul topgach, uzadi. Hozirgi paytda, uy-joy qurish, oliy oʻquv yurtlarida oʻqish uchun imtiyozli kredit berish keng qoʻllanilmoqda.

Ipoteka krediti: koʻchmas mulk (yer, binolar, uy-joy kabilar)ni garovga qoʻyib olinadigan kredit. Odatda ipoteka kreditidan asosan qishloq xoʻjaligida asosiy fondlarni yangilash uchun yirik qoʻyilmalarni qoplash maqsadida foydalaniladi.

Xalqaro kredit – bu ssuda kapitalining





xalqaro miqyosidagi harakatidir. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valuta) shaklida beriladi. Qarz beruvchi va qarz oluvchilar banklar, xususiyl firmalar, davlat organlari, hukumatlar, yirik korporatsiyalar, xalqaro va regional tashkilotlar bo'lib, ularning kredit berish shartlari bir-biriniidan jiddiy farq qilishi mumkin.

Berilish vaqtiga ko'ra: qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar ajratiladi. Qarz hajmi va muddatining cheklanish darajasiga ko'ra limitlangan va limitlanmagan kreditlar farqlanadi.

Ishlatilish sohasiga ko'ra, kredit ikki turga bo'linadi: aylanma kapitalini tashkil etish hamda asosiy kapitalni sotib olish uchun foydalaniladigan kreditlar.

Kredit qaytarilishi ta'minlanganligiga ko'ra: ta'minlanmagan yoki blankali (overdraft, kontokorrent) va ta'minlangan kredit farqlanadi;

Berish usuliga ko'ra: kompensatsion, ya'ni o'z mablag'larini to'ldirish uchun hisob varaqasiga o'tkaziladigan va to'lov to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan kreditlar ajratiladi;

Qaytarilish tartibiga ko'ra: to'lash muddati uzaytirilgan, bo'lib to'lanadigan hamda birdaniga to'liq qaytariladigan kreditlarga bo'linadi.

Kredit qaysi shaklda berilishidan qat'i nazar, uning asosiy tamoyillariga rioya qilinishi kerak. Bular quyidagilar:

1. Qaytarilishligi. Bu faqat kreditning tamoyili bo'lmasdan, balki uning xususiyati, mohiyatini ifodalaydi. Uning pul berishning boshqa shakllari (subsidiya, dotatsiya kabilar)dan farqi ham shunda, qaytarilish tartibi bo'lmasa kredit munosabatlari ham amal qilmaydi.

2. Muddatliligi. Kredit berishning bu tamoyili avvalgisi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kredit shartnomasi tuzilayotgan paytda qaytarish sharti bilan birga muddati ham ko‘rsatiladi. Qarz mablag‘laridan foydalanganligi uchun to‘lanadigan haq ham uning muddatiga bog‘liq.

3. To‘lovliligi. Qarz olib, ishlatilgan mablag‘ uchun ma‘lum miqdorda foiz to‘lanadi. Foiz stavkasi shakllanishiga eng avvalo, talab va taklif, Markaziy bank hisob stavkasi, banklararo kredit bozoridagi foiz va depozitlar stavkasi ta‘sir etadi. Depozitlar bo‘yicha stavka qancha yuqori bo‘lsa, kredit uchun foiz ham shuncha yuqori bo‘ladi.

4. Moddiy jihatdan ta‘minlanganligi. Bu tamoyil qarz oluvchining olingan mablag‘ni qaytarishiga real imkoniyati borligini ifodalaydi. Agar kredit berish uchun real tovar moddiy boyliklar zaxirasi hisobiga olinsa, shuning o‘zi kreditning ta‘minlanganini bildiradi. Agar kredit mavsumiy xarajatlarni qoplash uchun berilsa, bu xarajatlar real moddiy boyliklar qiymatiga kirishi ko‘zda tutiladi.

Kredit berishda garov olish yoki kafil bo‘lish alohida o‘rin tutadi. Kafolatli shartnoma asosida kredit



mumkin.

jismoniy shaxslar, dehqon xo‘jaliklari, fermerlar, ijarachilarga berilishi mumkin. Bunday shartnomaga ko‘ra kafolatchi qarzni qaytarishiga kafil bo‘ladi. Qarz shartnomasi sug‘urta kompaniyalari javobgarligi asosida ham tuzilishi

5. Maqsadliligi. Kredit qat‘iy ravishda aniq maqsad uchun beriladi. Bank kredit berishda qarz olayotgan subyekt uni nima

maqsadda olayotgani, undan qanday foyda olishi mumkinligini tahlil qiladi.



6. Kredit berishga tabaqalashgan holda yondashish. Bu tamoyil turli qarz oluvchilarga individual tarzda yondashishni ifodalaydi. Bank qarz berib, qaytarib olmaslik xatarini hisoblab chiqib, har tomonlama tahlil etib mazkur masalani hal etadi.

Rivojlangan bozor xo'jaligida ssuda kapitali bozori vujudga keladi. Bu bozorda pul kapitali oldi-sotdi

qilinadi. Bunda pul qo'shimcha foyda keltirish layoqatiga ega bo'ladi. Uning narxi foiz bo'lib, bu pulning xususiyatidan foydalanligi uchun beriladigan haq – to'lovidir. U ssuda hamda bank foizidan iborat bo'ladi. Mijozlar odatda o'z pullarini bankka qo'yar ekanlar unga foizli daromad olishadi. Bankning olgan daromadidan pul egalariga to'laydigan qismi bank foizi deb ataladi.

U yuqori bo'lsa, pulni bankda saqlovchi mijozlar ko'payadi, kamaysa aksincha.

Bankdan qarz oluvchi ssuda foizini to'laydi. Har bir ssuda oluvchini olgan qarzi unga qanchaga tushishi qiziqtiradi. Buni quyidagicha hisoblab chiqish mumkin:

$$r = kr \cdot x \cdot r^2 \cdot x \cdot t$$

r – ssuda uchun to'lanadigan foiz miqdori;

kr – umumiy qarz miqdori;

r^2 – foizning yillik miqdori;

t – kredit berilgan muddat.

Aytaylik, "Mikrokredit bank" xususiy tadbirkorga yillik 14% foiz hisobidan 20 mln. so'm, yarim yilga kredit berdi. Bunda ssuda foizi quyidagicha bo'ladi:

Demak, xususiy tadbirkor 20 mln so'mni belgilangan muddatda 21,4mln so'm qilib qaytarishi kerak. Odatda ssuda foizi bank foiziga

nisbatan yuqori belgilanadi. Bu bank xarajatlarini qoplash va daromad olish imkonini beradi. Bank muassasi oladigan va beradigan foiz o'rtasidagi farq marja deyiladi.

Qarzga olingan pul kapital sifatida ishlatilganda, foyda olish nazarda tutiladi. Pul egasi mulkdor sifatida pulni ishlatib olingan foydaning bir qismini o'zlashtiradi. Foiz miqdori qarz olingan pulni ishlatish orqali olingan daromaddan qoplanadi.

Qarz olingan pul iste'mol uchun ishlatilsa, foizli daromadning bir qismi bo'lmaydi, u qarzdorning kelajakda kutiladigan shaxsiy daromadining iste'mol maqsadida ishlatiladigan qismidan qoplanadi.

Bankning yalpi foydasi uning amalga oshirgan barcha operatsiyalardan olingan daromadi bo'lib, uning xarajatlari qoplanganidan qolgan qismi bankning sof foydasi hisoblanadi. Sof foydaning bankning o'z kapitaliga nisbati bank foyda normasini ifodalaydi.

Ssuda kapitaliga talab va taklif asosida muvozanatlashgan ssuda foizi aniqlanadi.

Odatda bozor va o'rtacha foiz normasi farqlanadi. Bozor foizi normasi bozor konyunkturasiga bog'liq bo'ladi. U iqtisodiyotdagi siklning: yuksalish yoki turg'unlik fazasidan faollikka bog'liqlikda tebranib turadi. O'rtacha foiz normasi uzoq muddat davomida uning o'zgarish tamoyillarini ifodalaydi.

Ssuda kapitaliga bo'lgan talab va taklifga bir qator omillar ta'sir qiladi. Bular:

– Ishlab chiqarish hajmi;

– Jamg'arilgan pul hajmi ya'ni jamiyatdagi barcha qatlam va tabaqalar jamg'armasi;

– Ishlab chiqarishning sikllik tebranishi;




- Ishlab chiqarishning mavsumiy sharoitlari;
- Inflatsiya sur'ati;
- Davlat tomonidan foiz stavkasining tartibga solinishi;
- Tashqi omillar.

Foiz stavkasi qancha yuqori bo'lsa, naqd pulni bankda saqlashga intilish kuchayadi. Foiz stavkasi past bo'lganda, aksincha likvidligi eng yuqori (100%) naqd pulga ega bo'lishga intilish kuchayadi. Shu bilan birga qarz oluvchi bank tizimi uchun aksincha foiz stavkasi yuqori bo'lsa, pulga talab shuncha kam, aks holda yuqori bo'ladi.

Pulga umumiy talab (D_m) bilan uning taklif (S_m) o'rtasidagi muvozanat pul bozorida foiz stavkasini (r) belgilaydi.

Kapital bozorida pul kapitalning muvozanatli narxi, ya'ni foiz stavkasi bir tomondan pul kapitaliga talab, ikkinchi tomondan uning taklifi, xullas bozor qonuniyatlari asosida shakllanadi.

Foiz stavkasiga qarz berishning xatarlik darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy faoliyatdagi xavf-xatarining mavjud bo'lishi, bozor iqtisodiyotiga xos bo'lganligi sababli pul egasi doimo tavakkal qiladi. Qarz berilayotganda xavf-xatar qancha katta bo'lsa, foiz stavkasi shuncha yuqori bo'ladi. Bu ayniqsa qimmatli qog'ozlar bozorida aniqroq namoyon bo'ladi. Chunki qimmatli qog'ozlarning ishonchliligi, daromadliligi doimo bank foiziga teskari mutanosibdir.



25.2-chizma. Pulga bo'lgan umumiy talab va foizning muvozanatli stavkasi.

Foiz belgilashda vaqt omili juda muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra pul egasi o'z pulini bugungi ehtiyojiga sarflamay qarzga beradi.

Kishilar har doim hozirgi kundagi ne'matlardan foydalanishni, kelajakdagi iste'moldan yuqori baholaydi. Shu sababli, kishilar hozir qondirishi mumkin bo'lgan ehtiyojini keyinga qoldirmasdan ne'matlardan foydalanishga harakat qiladi. Bunga sabab, eng avvalo, kishilarning umri cheklanganligidir. Turli ne'matlarni iste'mol qilishni keyinga surish bilan ulardan umuman foydalanmaslik mumkinligi xavfi tug'iladi. Bundan kelib chiqadiki, pul egasi xatarga yo'l qo'yib o'z resurslarini boshqa birovga uni taqdirlangandagina qarz beradi.

Foiz darajasiga yuqoridagilardan tashqari qarzga olinadigan pulni ishlatishdan olinadigan naf, qarz to'lash muddati va sharti, qarz qanday pul birligida berilishi kabilar ta'sir ko'rsatadi.

5. Kredit-bank tizimi va Markaziy bankning pul kredit siyosati

Kredit tizimi bank va boshqa kredit muassasalarining tashkiliy huquqiy shaklini ifodalaydi. Kredit tizimining asosiy vazifasi bo‘sh pul mablag‘larini to‘plab ssuda kapitaliga aylantirishdir. Undan tashqari omonatlar qabul qilish va ular bo‘yicha turli hisoblar ochish, aksiya va obligatsiyalar chiqarish, moddiy boyliklarni saqlash, to‘lov operatsiyalarida vositachilik qilish vazifalarini bajaradi.



Kredit tizimi kreditlash mexanizmiga tayanadi. Kredit mexanizmi o‘z ichiga kreditlash shakllarini, sharoitlarini, usullarini, uni boshqarish tizimini oladi. Kredit mexanizmi yordamida bank tizimining kredit


siyosati amalga oshiriladi. Kredit mexanizmining muhim tarkiblaridan biri kredit shartnomasi bo‘lib, u kredit munosabatlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari hisoblanadi. Kredit tizimi o‘z ichiga ikki bo‘g‘in: bank va maxsus moliya-kredit muassasalari tizimini oladi. Kredit tizimining hal qiluvchi bo‘g‘ini – bu bank tizimidir.

Pul munosabatlarining rivojlanishi bank tizimini yuzaga keltirgan. Bank iqtisodiy munosabatlarining pulning harakati yuzasidan kelib chiqadigan aloqalariga xizmat qiluvchi muassasadir. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra “Pul mablag‘larini jalb qilish hamda ularni qaytarishlik, to‘lashlik va muddatlilik shartlari asosida o‘z nomidan joylashtirish uchun tuzilgan muassasa bankdir, bank huquqiy shaxsdir”.

Banklar eng avvalo, xususiy-tijorat tuzilma sifatida vujudga kelgan. Banklar o‘zining rivojlanishi jarayonida uzoq davr va ko‘p bosqichlarni bosib o‘tgan. Dastlabki banklar eramizgacha 2300-yilda qadimgi Mesopotamiya davlatida savdo sherikchilik ko‘rinishida tashkil etilib, ssudaga pul berish va pul ko‘chirish

operatsiyalari bilan shug'ullangan. Lekin haqiqiy banklar rivojlanishi Bobillar davlati (miloddan avvalgi 2000-yilning boshlarida janubiy Mesopatamiyada) vujudga kelishi bilan bog'liq. Banklar keyinchalik Afrika, Misr, Rim va Angliyada rivojlana boshlagan.

Davlat banklari XIX asrga kelibgina tashkil topa boshlagan. Fransiya davlat banki 1800-yilda tashkil etilgan, 1816-yil Avstriya, 1825-yili Belgiya milliy banki keyinchalik Rus davlat banki, Italiya milliy banki vujudga kelib, tijorat banklari bilan birgalikda ish yurita boshlagan.



25.3-chizma.

O'zbekistonda bank tizimi Markaziy banki va aksiyadorlik-tijorat banklardan iborat ikki bo'g'indan tashkil topgan. Bu tizim tarkiban O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning muassasalari, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Xalq banki hamda aksiya, pay asosida tashkil qilingan, shuningdek chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banklari, ularning vakolatxonalaridan iboratdir.

Markaziy bank mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona monetar siyosatini amalga oshiradi.

Markaziy bank davlat banki hisoblanadi. Buning mazmuni shundan iboratki, birinchidan, ko'pchilik mamlakatlarda davlat banki yagona markaziy bankdan iborat bo'lib, u o'tkazadigan siyosat tartiblari yuqori davlat organlari tomonidan o'rnatiladi.

Ikkinchidan, Markaziy bank u “banklar banki” deb ham yuritiladi, tijorat banklari va jamg‘arma muassasalaridan mablag‘larni qabul qilib, ularga kredit beradi.

Uchinchidan, Markaziy bank faqat foyda olishga intilib faoliyat qilmaydi, davlatning va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Markaziy bank bir qator vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, boshqa bank muassasalarining majburiy ehtiyotlarini saqlaydi. Bu ehtiyotlar pul taklifini boshqarish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Markaziy bank mamlakatning rasmiy oltin oltin-valuta ehtiyotlarini saqlash vazifasini ham bajaradi.

Ikkinchidan, cheklarni qayd qilish mexanizmini ta‘minlaydi va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiradi, ularga kreditlar beradi.

Uchinchidan, davlatning monetar siyosatini amalga oshiradi.

To‘rtinchidan, barcha banklar faoliyatini uyg‘unlashtiradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Beshinchidan, xalqaro valuta bozorlarida milliy valutalarni ayriboshlaydi.

Oltinchidan, pul taklifi ustidan nazorat qilish mas‘uliyatini oladi, muomalaga milliy valutani chiqaradi.

Markaziy bank davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi. Bunda u:

- a) pul muomalasini tartibga soladi;
- b) kredit hajmi, foiz stavkalari darajasini belgilaydi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalaniladi.

- Ochiq bozordagi operatsiyalar;
- Zaxira (ehtiyot) me‘yorini o‘zgartirish;
- Hisob stavkalarini o‘zgartirish.



Ularning har birining o'zgarishi pul massasining o'zgarishiga olib keladi, ya'ni mazkur usullar pul taklifi ustidan nazoratning eng moslashuvchan qurolidir.

Agar Markaziy bankka muomaladagi pul massasini ko'paytirishi zarur bo'lsa, u qimmatli qog'ozlar bozorida davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini sotib olishni boshlaydi. Tijorat banklari aktivlaridagi davlat qimmatli qog'ozlarini o'zlari uchun maqbul



sharoit asosida sotishga tushadilar. Ma'lum vaqt o'tgach, obligatsiyalar sotishdan olingan pullar tijorat banklariga cheklar yoki depozitlar shaklida kelib tushadi. Bu mablag'lardan bir qismi ehtiyotga qo'yilib,

qolganlari bank krediti sifatida foydalaniladi.

Agar Markaziy bank inflatsiya sharoitida pul massasini ko'paytirishning oldini olishga harakat qilsa, u davlat qarz majburiyatlarini sotishni boshlaydi. Tijorat banklari o'zlariga foydali tarzda davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini sotib oladi va ma'lum vaqt o'tgach, to'lov uchun taqdim etadi.

Markaziy bankning qimmatli qog'ozlar bozoriga doimo ta'sir ko'rsatishi tufayli davlat obligatsiyalarining to'lov muddatlari har xil bo'lishidan qat'i nazar, tezda pul massasini o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Ehtiyot normalari pasayganda banklarning ssuda berish mumkin bo'lgan ortiqcha mablag'lari ko'payadi. Aksincha bu norma yuqori bo'lsa muomaladagi pul taklifi kamayishiga ta'sir ko'rsatadi.

Hisob stavkasi orqali Markaziy bank kredit resurslari hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Hisob stavkasi kamayishi bilan tijorat banklari tomonidan Markaziy bank kreditga talab o'sadi, aks holda talab kamayadi. Hisob stavkasini pasaytirish bilan iqtisodiy faollik kuchayadi. Sababi pul taklifi o'sib, qarz olish imkoniyati ortadi. Agarda mamlakatda pul massasini kamaytirish zarur bo'lsa, Markaziy bank hisob stavkasini oshiradi, natijada kredit qimmatlashadi, iqtisodiy faollik susayadi.

Markaziy bank iqtisodiy vaziyatga qarab "arzon" yoki "qimmat" pul siyosatini yuritadi.

Agar iqtisodiyotda foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari, ishsizlik mavjud bo'lsa, Markaziy bank "arzon" pul siyosatini yuritadi va kredit olishni osonlashtiradi.

Buning uchun davlat ochiq bozorda davlat qimmatli qog'ozlarni



banklar va aholidan sotib oladi, ehtiyot normasini kamaytiradi va hisob stavkasi pasaytiradi. Natijada pul taklifi ko'payadi, foiz stavkasi pasayadi. Bu investitsiyalarning o'sishi va iqtisodiy faollikning kuchayishiga olib

keladi.

Agarda mamlakatda inflatsiya yuz berayotgan bo'lsa, "qimmat" pul siyosati yuritilishiga to'g'ri keladi. Bu siyosat kreditni "qimmat" qilib, uni olishni qiyinlashtiradi. Markaziy bank pul taklifini qisqartirish uchun ochiq bozorda qimmatli qog'ozlarini sotadi, ehtiyot normasini oshiradi va hisob stavkasini ko'taradi.



Pul taklifi qisqarishi natijasida foiz stavkasi ko'tariladi. Bu o'z navbatida investitsiyalarning qisqarishiga, inflatsiyani cheklashga olib keladi. Shunday qilib, Markaziy bank mamlakat kredit-moliya tizimiga bevosita ta'sir qilib, butun iqtisodiyotga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda Markaziy bankning "...pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, milliy valutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta'minlash; erkin konvertatsiyani ta'minlovchi valutaga oid munosabatlarni tartibga solish, milliy valuta

kursini shakllantirishda zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish¹²⁷ga qaratiladi.

Bank tizimida tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki o‘z o‘rniga ega. U birinchidan eksport tovarlari ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish uchun chet el valutasida kreditlar beradi. Davlat zayomlari va kreditlaridan samarali foydalanishga qaratilgan xizmatlar ko‘rsatadi. Ikkinchidan, xalqaro valuta-kredit bozorlari operatsiyalarida ishtirok etadi. Uchinchidan, hukumatlararo bitimlarning to‘lov shartlarini ishlab chiqishda qatnashadi va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi.

Tijorat banklari tizimi rivojiga ikki tamoyil xos: bir tomondan, universallashtirish, ikkinchi tomondan, ixtisoslashuv. Tijorat banklari odatda universal tavsifga ega bo‘lib, o‘zlarining xo‘jalik mavqeiga ko‘ra aksionerlik tipidagi korporatsiyalar hisoblanadi. Ular Markaziy bankdan maxsus litsenziya olib, unga muvofiq quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish;
- Kredit operatsiyalarini bajarish;
- Qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar o‘tkazish;
- Turli xizmatlar ko‘rsatish;
- Banklararo operatsiyalar o‘tkazish;
- Valuta operatsiyalarini bajarish;
- Biznes yuzasidan maslahat berish va h.k.

Tijorat banklari to‘la mustaqil, lekin ular pul emissiya qilish xuquqiga ega emas. Ular real jalb qilgan resurslari miqyosidagina kredit bera oladi. Ixtisoslashgan tijorat banklar alohida sohalarda kredit-pul operatsiyalarini amalga oshiradi. Jumladan, investitsiya banklari iqtisodiyotning turli tarmoqlarini eng avvalo, sanoat, savdo, transportni uzoq muddatli kreditlash bilan shug‘ullanadi, qimmatli qog‘oz chiqaradi va ularni investorlar o‘rtasida joylashtiradi.

Uy-joy qurilish banki aholining uy-joy qurilishini moliyalashtirish bilan shug‘ullanadi.

Ipoteka bank ko‘chmas mulkni garovga olib, uzoq muddatli kreditlar beradi.

¹²⁷ Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz

Innovatsiya banki ilmiy-texnikaviy loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni kreditlaydi. Shunga o‘xshash boshqa maxsus banklar ham u yoki bu ixtisoslashgan xizmat turini ko‘rsatadi. Tijorat va maxsus banklar faoliyatini Markaziy bank nazorat qiladi.

Respublikada “bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchliligini mustahkamlash¹²⁸”ga qaratilishi lozim.

Kredit tizimida maxsus moliya-kredit muassasalari alohida o‘ziga xos mijozlarga xizmat ko‘rsatadi. Ko‘rsatilgan xizmati bir, ikki turda bo‘lib, ko‘pincha maxsus tavsifga ega bo‘ladi. Maxsus moliya-kredit institutlariga ikki tomonlama nazorat xos. Bir



tomondan qarz berish, hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish tufayli Markaziy bank talablariga bo‘ysunadi. Ayrim paytlarda ular xalqaro muassasalar tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar asosida ish ko‘radilar.

Moliya kredit institutlarining o‘ziga xos

turi pochta-jamg‘arma muassasalaridir. U mayda omonatchilarni jalb qilishda katta rol o‘ynaydi. Bunda mijozlarga pochta bo‘limlari orqali xizmat ko‘rsatiladi. Keyingi paytlarda ko‘plab mamlakatlarda pochta-jamg‘arma muassasalari orqali kredit-hisob operatsiyalarini



¹²⁸ Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021-527yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz

amalga oshirish kengayib bormoqda.

Maxsus moliya-kredit muassasalari tizimida lizing, faktoring firmalari ham o'ziga xos o'rin tutadi. Odatda lizing va faktoring operatsiyalarini tijorat banklari ham amalga oshiradi. Faktoring firmalari mijozlarining boshqalarga bergan qarzlarni undirishni o'z zimmasiga oladi va shu qarz ustidan ularga universal moliya xizmati ko'rsatadi. Jumladan, ular buxgalteriya hisobotini yuritadi, korxonani zarur xomashyo va boshqa resurslar bilan ta'minlash va xaridorlar bilan hisob-kitob xizmatlarini ham amalga oshiradi. Axborot, reklama, huquqiy va boshqa xizmatlar ko'rsatadi. Konfensial faktoringda esa ayrim operatsiyalar, jumladan qarzni to'lash, pul olish huquqlari chegaralangan bo'ladi. Lizing firmalari tovarlarni ijaraga berish bilan shug'ullanadi. Lizing iborasi "Ijaraga olmoq" degan ma'noni bildiradi. Bunda ko'chmas mulk, asbob-uskuna va boshqa tovar egalari ularga o'z mulk egaligini saqlab qoladi.



Ushbu ijaradan tarqib olingan qimmatli asboblardan iborat bo'lgan mulk, bunda ijaraga berilgan asbob-uskunalar shartnoma muddati

tugagandan so'ng, ularni qoldiq qiymati asosida sotib olish ko'zda tutiladi. Lizing kompaniyalarda lizing operatsiyalarini o'tkazish uchun o'z mablag'lari yetishmaydi shu sababli, ko'pchilik lizing operatsiyalarida jalb qilingan mablag'lar keng qo'llaniladi. Bunda odatda bankning uzoq muddatli ssudalaridan foydalaniladi.

Lombardlar ko'chirib bo'ladigan mol-mulk evaziga kredit beradi. Dastlab lombardlar sudxo'rlik krediti tarzida yuzaga kelgan. Keyingi paytda ular mol-mulkni saqlash, hamda garovga qo'yish, belgilangan muddatda qaytarib olinmagan mulkni komission vositachilik asosida sotishni ham amalga oshiradi.

Kredit birlashmalari –xususiy shaxslar guruhi yoki mayda kredit muassasalari tomonidan tashkil etiladi. Ular ikki turda bo‘lishi mumkin:

Jismoniy shaxslar guruhi tomonidan kasbi yoki hududiy jihatiga qarab, qisqa muddatli iste‘mol krediti berish maqsadida tashkil etiladi.

Mustaqil mayda kredit muassasalari ixtiyoriy tarzda birlashuvi tufayli tashkil etiladi. Ularning mablag‘lari paychilik yoki a‘zolik badallari va zayomlar chiqarish bilan shakllanadi.

Mazkur muassasalarning asosiy operatsiyalari omonatlarini jalb etish, zayomlar chiqarish, o‘z a‘zolariga qarz berish, veksellarni hisob-kitob qilish, savdo vositachiligi, komission operatsiyalar, maslahat va auditorlik xizmatlari ko‘rsatishdan iborat.



O‘zaro kredit berish jamiyatlari o‘z xarakteri jihatidan tijorat banklariga yaqin bo‘lib, asosan mayda va o‘rta biznesga xizmat ko‘rsatadi. Ularning a‘zosi jismoniy, yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin. Jamiyat kapitali unga a‘zo bo‘lib kirish badallaridan tashkil topadi.

Moliya kompaniyalari odatda tovarlar oldi-sotdisiga kredit bera-di. Savdo va sanoat firmalariga qarzga sotilgan tovari uchun kredit berish bilan shug‘ullanadi. Ba‘zi kompaniyalar alohida turdagi maqsadlar uchun kredit berish bilan ham shug‘ullanadi.

Sug‘urta kompaniyalari asosan sug‘urta polislarini sotish bilan shug‘ullanadi. O‘z mablag‘larini sanoat kompaniyalari obligatsiyalari, aksiyalari hamda davlat qimmatli qog‘ozlariga qo‘yadilar.

Pensiya fondlari eng avvalo, o‘z mablag‘larini tashkil etish va pensiya berish bilan shug‘ullanadi. O‘z mablag‘larini asosan sanoat kompaniyalari aksiyalariga qo‘yadi.

Investitsion kompaniyalar o‘z majburiyatlarini mayda mijozlar o‘rtasida joylashtirib, turli tarmoqlar qimmatli qog‘ozlarini sotib olish bilan shug‘ullanadi.

Kredit uyushmalari o‘z a‘zolari, kooperatorlar, ijara korxonalari, kichik va xususiy biznes hamda jismoniy shaxslarga kredit hisob-kitob xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida tashkil etiladi. Ularning kapitali paylari va kirish badallari hisobiga tashkil topib, shirkatdan chiqqanda qaytarilmaydi. Asosiy passiv operatsiyalari omonatlarini jalb etish va zayomlarini joylashtirishdir¹²⁹.

Kredit uyushmalarining o‘ziga xos turi qishloq xo‘jalik kredit jamiyatlaridir. Uning ta‘sischilari Markaziy, tijorat, maxsus banklar, hukumat, jismoniy, yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin. Ular faoliyatining asosiy yo‘nalishi qishloq xo‘jaligiga kredit berish va hisob-kitob xizmatlarini ko‘rsatishdir. Uning mijozlari dehqon va fermer xo‘jaliklari hamda boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari hisoblanadi. Qishloq xo‘jalik kredit jamiyatlariga soliq imtiyozlari beriladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida maxsus moliya-kredit muassasalari soni tobora ortib boradi. Ular nihoyatda katta mablag‘larni jalb etish bilan birga kapitallarni samarali joylashtirishga ham erishib, umuman iqtisodiyotni rivojlantirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, AQSHda ana shunday muassasalarning aktivlari tijorat banklari aktivlaridan deyarli ikki barobar ko‘pdir. Respublikamizda ham bunday muassasalar tashkil etishda anchagina muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi.

6. Pul multiplikatori

Bank tizimi mamlakatdagi pul massasini o‘zgartirish layoqatiga ega bo‘ladi. Davlat bankining emission faoliyatidan qat’iy nazar pul massasi hajmi tijorat banklari kreditlari hisobiga ko‘payadi. Banklar ssuda berganda pul massasi ko‘payadi, aksincha mijozlar olgan qarzni kamaytirganda pul massasi kamayadi.

¹²⁹ Campbell R. McConnell “Economics” Principles, Problems, and Policies. P. 258-285

Biroq bitta alohida bank pul massasini ko'paytira olmaydi, barcha banklar birgalikda bunday imkoniyatga ega bo'ladi.

Bu jarayonni quyidagicha tushuntirish mumkin. Aytaylik "A" bankning aktivlari 200000 mln so'm bo'lsin, bank uning bir qismini ehtiyot tarzda Markaziy bankda saqlashi lozim. U asosiysi majburiyat bo'yicha to'lovga qobiliyatsizlik xatarini kamaytirishga qaratiladi. Uning minimal miqdori Markaziy bank tomonidan majburiy ehtiyot normasi sifatida o'rnatiladi va pul massasi va shu orqali tartibga solish vazifasini bajaradi.

Agar bankning majburiyatlari 200000 mln so'm bo'lib, undan 40000 mln so'mini majburiy ehtiyotlarni tashkil etsa, uning normasi 20% ni tashkil etadi.

$$\text{Ehtiyot normasi} = \frac{\text{bankning majburiy ehtiyotlari}}{\text{bankning muddatsiz omonatlari}}$$

Bu normani Markaziy bank davlatning pul-kredit siyosatidan kelib chiqib belgilaydi. Tijorat banklar zarur ehtiyotlardan ortiq mablag'larini boshqa banklarga qarzga beradi.



Agar ehtiyot normasi 20% deb olsak, "A"bank 40000 mln so'mni majburiy ehtiyot sifatida saqlaydi, 160000 mln so'mni mijozlarga ssudaga berishi mumkin. Bank kredit berganda, bu summani mijozning joriy hisobiga o'tkazadi. Ssuda olgan tadbirkor o'z navbatida sotib olgan tovari uchun chekni xizmat ko'rsatuvchi "B"bankka o'tkazadi. Natijada "B"bankda 160000 mln so'm yangi pul massasi paydo bo'ldi

Misolni jadvalda ifodalasak, u quyidagi ko'rinishni oladi:

“B” bank bu pulning 32000mln so‘mini ehtiyotga o‘tkazib, qolgan 128000mln so‘mini qarzga berishi mumkin. Bu jarayon to‘xtovsiz davom etib natijada butun banklar tizimi tomonidan yaratilgan pul massasi miqdoran to‘xtovsiz ortib boradi.

Tijorat banklarining pul hosil qilish layoqatlari

25.1-jadval

Bank	Tijorat bank majburiyatlari	Majburiy ehtiyotlar	Ehtiyojdan ortiq pul	Ssudaga berish mumkin bo‘lgan pul
A	200000	40000	160000	160000
B	160000	32000	128000	128000
V	128000	25600	102000	102000
G	102000	20480	81920	81920
D	8192 va hokazo	16384	6553	65536

Banklar tomonidan yangi pul taklifini yaratilish jarayoni ma’lum bir chegaragacha davom etadi. Bizning misolda 200000 mln so‘mning yuzaga kelishi butun bank tizimida depozitlarning bir necha marta ko‘payishiga olib keladi.

Bu bank tizimi pul taklifi multiplikatori samarasi yoki bank multiplikatori ko‘rsatkichini anglatadi.


“Multiplikator” so‘zi tarjima qilinganda, ko‘paytiruvchi degan ma’noni anglatadi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$$M = \frac{1}{r} \times 100\%$$

bu yerda, M – pul multiplikatori; r – Markaziy bank qo‘yilish kerak bo‘lgan talab etilgan ehtiyot (zaxira) normasi;

Agar, r=20% bo‘lsa, u holda $M=1 \times 100 / 20 = 5$; ya’ni har bir so‘m depozit pul taklifining 5 so‘mga ko‘payishiga olib keladi. Ehtiyot normasining kamayishi depozitlarning o‘sishiga, uning ortishi pul massasining kamayishiga olib keladi.

Bizning misolda ehtiyot normasi 20% dan 10% ga tushirilsa, multiplikator 10ga teng bo‘ladi, aksincha 25% ga ortsa multiplikator 4ga teng bo‘ladi.



Amaliy hayotda bank depozitlari ko‘payishi-multiplikator samarasidan ancha farq qiladi. Sababi bankdan olingan ssudaning hammasi ham bank tizimiga qaytib bormaydi. Ulardan bir qismi muomalada naqd pul tarzida yurishi mumkin. Bularning hammasi banklarning ssuda berish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Bunda bank ehtiyotlaridan tashqari naqd pulga aylangan mablag‘ chiqib ketadi. U pul multiplikatorini o‘zgartiradi. Agar bank majburiyatlarining naqd pulga aylangan qismini “s” bilan belgilasak, u holda yuqoridagi formula quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$m = \frac{1 \times 100}{r + s}$$

Agar naqd pulga aylangan miqdor 30%ni tashkil qiladi deb faraz qilsak, u holda pul multiplikatori $= 1 \times 100 : (20 + 30) = 2$ ga teng bo‘ladi.

Demak, har bir so‘m qo‘shimcha depozitlar oldingiga o‘xshab 5 emas, balki 2 so‘m yangi kredit pulni hosil qiladi.

Pul multiplikatoridan foydalanib, umumiy pul massasi miqdori ko‘payishi yoki kamayishini hisoblab chiqish mumkin. Bozor iqtisodiyotida pul emissiyasiga qaraganda ehtiyotlar miqdorini o‘zgartirish bilan pul muomalasini tartibga solish samarali hisoblanadi.

Markaziy bankda ehtiyot tarzida ma‘lum miqdordagi pulni saqlash majburiyatlari bo‘yicha to‘lovga layoqatsizlik xatarini kamaytiradi, biroq bu banklardan mijozlarning omonatga qo‘ygan pullarini yoppasiga olish uchun harakat qilishlarining oldini ol-

maydi. Ehtiyotning yetishmasligi esa moliyaviy sarosimalikni keltirib chiqarishi mumkin.

Moliyaviy sarosimalik – bu mijozlar omonatiga qo‘ygan pul-larni bir vaqtning o‘zida olishga urinishlari, banklarda esa talab qilingan miqdorda pulning yo‘qligi sababli ularning sarosimaga tushib qolishidir. Bu nafaqat banklar, balki ular bilan bog‘liq kompaniyalarning ham bankrot bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Biroq Moliyaviy sarosimalik har doim ham yuz beravermaydi. Chunki mijozlar omonatlari, bank depozitlari tegishli tartibda sug‘urtalanadi. Agar bank biron sabab bilan yopilsa, uning mijozlari qisqa muddatda kompensatsiya olishni mo‘ljallashlari mumkin.

Sug‘urta fondi mablag‘lari yetmagan taqdirda hukumat zarur pulni emissiya qiladi. Ma’lumki, hamma banklarda aktivlar summasi bankning o‘z kapitalidan bir necha marta yuqori, uning nisbati 15:1 gohida 25:1 gachani tashkil etadi. Undan tashqari aktivlar umumiy summasida muddati uzaytirilgan kreditlar mavjudki, uning bir vaqtda to‘lanishi ro‘y bermaydi.

Umuman olganda, bank tizimida moliyaviy xatarlarni sug‘urtalash butun bir tizimi mavjudki, bu moliyaviy sarosimalikning oldini olishni kafolatlaydi.

Tayanch tushunchalar

Pul muomalasi – bu tovarlar aylanishiga hamda notovar tavsifidagi to‘lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan aktivlarning harakati.

Pul bozori – moliyaviy bozorning tarkibiy qismi bo‘lib, unda pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar harakati ularga bo‘lgan talab va taklif ta‘sirida uyg‘unlashtiriladi.

Kredit – bo‘sh turgan pul mablag‘larini ssuda fondi shaklida to‘plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.

Tijorat krediti – bu korxonalar, tadbirkorlar va boshqa xo‘jalik subyektlarining bir-biriga beradigan qarzlari.

Bank krediti – bu bank muassasalari tomonidan har qanday xo‘jalik subyektlari (tadbirkorlar, korxonalar, tashkilotlar va boshqalar)ga pul shaklida – ssuda tarzida beriladi.

Ipoteka krediti – ko‘chmas mulk (yer, bino, uy-joy kabilar)ni garovga qo‘yish hisobiga beriladigan kredit. Odatda ipoteka kreditidan asosan qishloq xo‘jaligida asosiy fondlarni yangilash uchun yirik qo‘yilmalarni qoplashda foydalaniladi.

Davlat kreditida – bunda davlat bir tomondan qarz oluvchi, ikkinchi tomondan qarz beruvchi sifatida maydonga chiqadi.

Xo‘jaliklararo pul krediti – xo‘jalik yurituvchi subyektlarni bir-biriga beradigan qarzlari.

Xalqaro kredit bu – ssuda kapitalining xalqaro miqyosdagi harakatidir.

Foiz normasi (stavkasi) – foiz yoki foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi.

Banklar – moliyaviy munosabatlarga xizmat qilib, kredit tizimining negizini tashkil qiluvchi maxsus muassasalar.

Bank operatsiyalari – mablag‘larni jalb qilish va ularni joylashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Bank foydasi (marja) – olingan va to‘langan foiz summalari o‘rtasidagi farq.

Bank foyda normasi – bank sof foydasining uning o‘z kapitaliga nisbatining foizdagi ifodasi.

Muhokama uchun savollar

1. Pul muomalasining mazmunini tushuntiring.
2. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday omillarga bog'liq?
3. Pulga bo'lgan talab va uning taklifini qanday omillar belgilab beradi.
4. Kreditning mohiyati, vazifalari va manbalarini izohlang.
5. Kreditning sudxo'rlikdan farqi nimada? Qanday kredit turlarini bilasiz?
6. Bank tizimi nima? Markaziy va tijorat banklarining vazifalarini ajratib ko'rsating.
7. Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirishda qanday usullardan foydalanadi?
8. Bank va ssuda foizi o'rtasidagi farqlarni ko'rsating.
9. Pul multiplikatori nima va u qanday aniqlanadi?

XXVI bob. IQTISODIYOTDA DAVLATNING ROLI

1. Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqida turli xil nazariya va qarashlar.

2. Davlatning milliy iqtisodiyotdagi vazifalari. Davlat iqtisodiy siyosatining maqsadi va vazifalari.

3. Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yoʻnalishlari va tartibga solish dastaklari.

4. Iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning oʻzaro bogʻliqligi.

1. Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqida turli xil nazariya va qarashlar

Milliy iqtisodiyotning samaradorligi koʻp omilli koʻrsatkich boʻlib, bunda uning erishilgan darajasi koʻp jihatdan iqtisodiyotda davlat yoki bozor tizimining tutgan roliga bogʻliq. Chunki ancha yuqori samaradorlikka, birinchidan, bozorning tartibga solish usullari orqali; ikkinchidan, iqtisodiyotni faqatgina yagona markazdan markazlashgan boshqarish yoʻli bilan; uchinchidan, iqtisodiyotga davlatning aralashuvini bozor usullari bilan uygʻunlashtirish orqali erishiladi.

Kishilik jamiyatining ilk davrlaridanoq davlatning iqtisodiyotga aralashuvi muammosi paydo boʻlgan. Tovar ishlab chiqarishining rivojlanishi va pulning paydo boʻlishi sudxoʻrlik kapitalini vujudga keltirgan. Sudxoʻrlik oʻzining yuqori foizlari bilan tovar ishlab chiqaruvchilarni xonavayron qilib, davlatni qashshoqlashishiga olib kelgan. Bu oʻz navbatida davlatning oʻzini va soliq toʻlovchilarni himoya qilishga majbur etgan. Qadimgi Bobilda qabul qilingan Eshnunn va Xammurapi qonunlari bunga misol boʻla oladi.

Buyuk jugʻrofiy kashfiyotlar davrida Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarning mustamlakalarni bosib olish siyosati ham davlatning iqtisodiyotga aralashuvini taqozo qilgan. Chunki bunda, birinchidan, mustamlaka aholisini itoatda ushlab turish; ikkinchidan, mustamlakalarni boshqa davlatlardan himoya qilish zarurati paydo boʻlgan.

XX asr boshlarida, ko‘plab mamlakatlar birinchi jahon urushining ishtirokchilari bo‘lganligi sababli, davlat iqtisodiyotni boshqarish bo‘yicha bir qator vazifalarni o‘z zimmasiga olgan. U resurslar va ishchi kuchini taqsimlagan, yirik monopolistlarga mamlakat uchun zarur bo‘lgan ko‘plab zaruriy tovarlarni ishlab chiqarish bo‘yicha buyurtmalar bergan.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi asosan 1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozidan keyin kuchaygan. U iqtisodiyotga ta‘sir ko‘rsatishning har xil usullarini qo‘llab, siklga qarshi tartibga solishni amalga oshirgan.

Iqtisodiy tafakkur tarixidan birinchi marta davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi A.Smit tomonidan ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Uning "Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida" (1776-yil) nomli kitobida bozor usullari orqali iqtisodiyotning o‘z-o‘zini tartibga solish zarurligi ta‘kidlab o‘tilgan. A.Smitning fikricha xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to‘liq ozod bo‘lishi zarur. Ana shundagina ishlab chiqaruvchilar iste‘molchilar talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashishsiz ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun harakat qilishga rag‘batlantiradi.

A.Smit davlatning iqtisodiy jarayonlariga har qanday aralashuvi oxir-oqibatda faqat vaziyatni yomonlashtiradi deb hisoblaydi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan tashqi savdo tartib - qoidalari milliy iste‘molchilarga faqat zarar keltirishi mumkin. Haqiqatan ham importga boj to‘lovi milliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berib, ularning chet el sheriklariga nisbatan raqobatlashuv qobiliyatini oshiradi. Ammo bu oxir-oqibatda ishlab chiqarishning ancha yuqori xarajatlari va mahsulotning past sifatini saqlab qolishiga olib keladi. Bunda past sifatli va narxi qimmat tovarlarni sotib olishga majbur bo‘lgan milliy iste‘molchilar yutqazadi.

A.Smitning "Tinch qo‘yish" nazariyasi, 1923–1933-yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqozo qilishini ko‘rsatdi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasi Dj.M.Keynsning «Ish bilan bandlilik, foiz va pulning umumiy nazariyalari» nomli kitobida o‘z aksini topdi (1936). U davlat fiskal va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag‘batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta‘minlashi zarurligini isbotlaydi.

Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi ko‘rsatmalar u yoki bu darajada bozor iqtisodi amalda ustun bo‘lgan barcha mamlakatlarda foydalaniladi. Shu bilan birga davlatning iqtisodiyotdagi rolining yanada ko‘proq oshib borish holati ro‘y berdi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishning muhim maqsadi sifatida nafaqat siklga qarshi tartibga solish va ish bilan bandlilikni ta‘minlash, balki iqtisodiy o‘shishning yuqori darajasini va yaxlit ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishni rag‘batlantirish tan olinadi.

XX asrning 70-yillariga kelib, iqtisodiy qarashlarning monetarizm va uning «reygonomika», «tetcherizm» kabi ko‘rinishlarida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash g‘oyasi ilgari surildi. Lekin bozorning o‘z-o‘zini boshqarishdagi kamchiliklari natijasida 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bu muammoga boshqacha ko‘z bilan qarashga majbur qildi. Angliyaning London shahrida 2008-yilning 2 aprelida bo‘lib o‘tgan jahonning eng rivojlangan 20 ta mamlakati rahbarlarining sammitida bir ovozdan davlat iqtisodiyotga aralashuvi zarur degan fikr o‘z tasdig‘ini topdi.

2. Davlatning milliy iqtisodiyotdagi vazifalari. Davlat iqtisodiy siyosatining maqsadi va vazifalari

Davlat iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisi hisoblanadi va ayni vaqtda bozor tizimi faoliyat qilishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bozor iqtisodiyotida bu davlatning iqtisodiy vazifalarida ifodalanadi. Bular quyidagilar:

- bozor iqtisodiyoti me‘yorida faoliyat qilish uchun huquqiy asosni vujudga keltirish va takomillashtirish;
- raqobatni himoya qilish;
- daromad va boylikni oqilona qayta taqsimlash;

- resurslarni qayta taqsimlash;
- iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni inflatsiya va bandlik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish;
- tashqi samarani tartibga solish.

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishning shart-sharoiti hisoblangan huquqiy asosni ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy, huquqiy asosni



quyidagi tadbirlar taqozo qiladi: xususiy korxonalar qonuniy mavqeini berish; xususiy mulkchilik huquqini aniqlash va shartnomalarga amal qilishini kafolatlash; korxonalar, resurslarni yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy bitimlarni

ishlab chiqish va shu kabilar. O'zbekiston Respublikasining korxonalar, tadbirkorlik va aksionerlik jamiyatlar to'g'risidagi qonunlari hamda ularga kiritilgan qo'shimcha va tuzatishlar, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha tadbirlari bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy, huquqiy asosni ta'minlashga qaratilgan.

Davlat tomonidan ijtimoiy muhitni ta'minlash o'z ichiga ichki tartibni saqlash mahsulot sifati va og'irligini o'lchashga andozalar belgilash, tovarlar va xizmatlar ayriboshlashini yengillashtirish uchun milliy pul tizimini muomalaga kiritish kabilarni oladi.

Monopoliya raqobatning o'rnini almashtirganda, sotuvchilar bozorga ta'sir ko'rsatishi yoki undagi narxlarni o'z manfaatlarini ko'zlab o'zgartirishi mumkin. Monopoliyalar o'zlarining takliflari umumiy hajmini tartibga solish layoqatidan foydalanib, mahsulot hajmini sun'iy cheklash orqali ularga ancha yuqori narx belgilash va shu orqali ancha barqaror foyda olishi mumkin.

Bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda monopoliyalar ustidan ikki usulda nazorat oʻrnatiladi. Birinchi usulda, texnologiya va iqtisodiy sharoitlar “raqobatli bozor” mavjud boʻlish imkoniyatini yoʻqqa chiqaradigan tabiiy monopoliyalar deb nomlanadigan tarmoqlarda davlat narxlarini tartibga soladi va koʻrsatiladigan xizmatlarga andozalarni oʻrnatadi. Transport, aloqa, elektr quvvati, ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar maʼlum darajada shunday tartibga solinadi. Ikkinchi usulda, samarali ishlab chiqarish juda koʻpchilik bozorlarda raqobat rivojining juda yuqori darajasida taʼminlanishi sababli davlat raqobatini kuchaytirish va himoya qilish maqsadida monopoliyalarga qarshi qonunlar qabul qiladi.

Bizning Respublikada ham monopol faoliyatni cheklash, tovarlar bozorida raqobatni rivojlantirish, isteʼmolchilar va tadbirkorlar manfaatini himoya qilishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilingan.



Bozor tizimi kishilarning tabiiy qobiliyati, orttirgan bilimi va malakasi hamda mulkka egaligini hisobga olib, ularning yuqori daromad olishini taʼminlaydi. Shu bilan birga jamiyatning moddiy vositalarga ega boʻlmagan, bilim va malaka darajasi past, layoqati ham yuqori boʻlmagan aʼzolari, qariyalar, nogironlar, ishsizlar, yolgʻiz va qaramogʻida bolalari boʻlgan ayollar juda kam daromad oladi yoki bozor tizimi doirasida ishsizlar kabi umuman daromadga ega boʻlmaydi. Qisqasi, bozor tizimi pul daromadlarini va milliy mahsulotni jamiyat aʼzolari oʻrtasida taqsimlashda birmuncha tengsizliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, davlat oʻz zimmasiga daromadlar tengsizligini kamaytirish vazifasini oladi. Bu vazifa bir qator tadbir va dasturlarda oʻz ifodasini topadi.

Birinchidan, transfert to'lovlari orqasi muhtojlarni, nogironlarni va birovning qaramog'ida bo'lganlarni nafaqalar hamda ishsizlarni ishsizlik nafaqalari bilan ta'minlaydi. Ijtimoiy ta'minot dasturlari orqali pensionerlar va qariyalarga moliyaviy yordam ko'rsatiladi.

Bu barcha dasturlar davlat budjeti mablag'larini, jamiyatning kam daromad olgan yoki umuman daromadga ega bo'lmagan a'zolari hisobiga qayta taqsimlaydi.

Ikkinchidan, davlat bozorini tartibga solish yo'li bilan, ya'ni talab va taklif ta'sirida o'rnatiladigan narxlarni o'zgartirish yo'li bilan ham daromadlarning taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Me'yoridagi oziq-ovqat tovarlariga o'rnatiladigan imtiyozli narxlar va ish haqining eng kam (minimal) darajasi haqidagi qonunchilik davlatning, aholining ma'lum qatlami daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarining yana bir misolidir.

Davlat jamiyat a'zolari o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlashda soliq tizimidan ham keng foydalanadi (soliq imtiyozlari orqali).



Bozor mexanizmi- ning resurslarni qayta taqsimlashdagi layoqatsizligi ikki holatda ko'rinadi, ya'ni raqobatli bozor tizimi: 1) ma'lum tovarlar va xizmatlarning kam miqdorini ishlab chiqaradi; 2) ishlab chiqarishi o'zini oqlagan ayrim tovarlar va xizmatlarga resurslarning har qanday turini ajratish holatida bo'lmaydi.

Resurslarning qayta taqsimlanishi tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish bilan bog'liq foyda yoki zarar, uchinchi tomonga, ya'ni bevosita xaridor yoki sotuvchi hisoblanmaganlar tomonga "joyini o'zgartirsa" vujudga keladi. Bu qo'shimcha samara deb ataladi, chunki u



bozor qatnashchisi hisoblanmaganlar hissasiga to'g'ri keluvchi foyda yoki zararni ifodalaydi. Bunga atrof-muhitning ifloslanishini misol qilib keltirish mumkin. Kimyo korxonasi o'zining sanoat chiqitlarini ko'l yoki daryoga oqizsa, bu cho'miluvchilar, baliqchilar va atrofdagi aholiga zarar keltiradi.

Ishlab chiqaruvchi esa muhofaza inshoot va uskunalari o'rnatmaganligi hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarining ancha past darajasini ta'minlaydi. Davlat resurslarining nomutanosib taqsimlanishi vujudga keltiradigan bu holatlarni tartibga solish uchun qonunchilik tadbirlarini qo'llaydi yoki maxsus soliq va jarimalardan foydalanadi.

Masalan, atrof-muhit va suv havzalarining ifloslanishini taqiqlovchi yoki cheklovchi qonunlar, ishlab chiqaruvchilarni o'zlarining sanoat chiqitlarini ishlab chiqarish jarayonida ifloslangan suvni tozalovchi qurilmalar sotib olish va o'rnatish bilan yo'qotishga majbur qiladi.

Boshqa holda davlat maxsus soliqlarni kiritish yordamida, atrof-muhitni ifloslantiruvchi korxonalariga boshqalarga keltirishi mumkin bo'lgan zararni yuklashga harakat qiladi.

Davlat bir qator yo'llar bilan resurslarning nomutanosib taqsimlanishi keltirib chiqaradigan oqibatlarni yumshatishga ham harakat qiladi.

Birinchidan, iste'molchilarning aniq tovar va xizmatlarni xarid qilish qobiliyatini oshirish yo'li bilan ularning talabi kengaytirildi. Masalan, bizning Respublikamizda islohotlarning dastlabki davrida

oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni oshiradi va shu orqali



resurslarning nomutanosib taqsimlanishini bartaraf qiladi.

Ikkinchidan, davlat taklifini oshirish maqsadida ishlab chiqarishni subsidiyalashi mumkin. Subsidiyalar ishlab chiqaruvchilarning zararlarini qisqartiradi va mahsulotlarni ishlab

chiqarishda resurslarning yetishmasligi bartaraf qilinadi.

Uchinchidan, davlat ayrim tovarlar va ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchisi sifatida chiqadi. Bunday tarmoqlar davlat mulkchiligiga asoslanadi va davlat tomonidan bevosita boshqariladi yoki ularni moliyalashtirishni davlat o'z zimmasiga oladi.

Bular fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, milliy mudofaa, favqulodda ro'y beradigan tabiiy hodisalarga qarshi kurash, ichki tartibni saqlash shular jumlasidandir.

Davlat budjet mablag'lari hisobiga resurslarni xususiy sohada qo'llanilishdan bo'shatadi hamda ularni ijtimoiy ne'mat va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltirish mumkin. Shunday qilib, davlat mamlakat milliy mahsuloti tarkibida muhim o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida resurslarni qayta taqsimlaydi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiyotning barcha sohalarini resurslar bilan ta'minlash, to'liq bandlik va narxlarning barqaror darajasiga erishishda yordam berish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish davlatning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Iqtisodiyotda to'liq bandlikni ta'minlash uchun umumiy sarflar, ya'ni xususiy va davlat sarflarining hajmi yetarli bo'lmasa, davlat bir tomondan ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarga o'z xarajatlarini ko'paytiradi, boshqa tomondan xususiy sektorning sarflarini rag'batlantirish maqsadida soliqlarni qisqartiradi.

Agar jami sarflar to'liq bandlik sharoitida taklif hajmidan oshib ketsa, bu narxlar darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Jami

sarflarning mazkur ortiqcha darajasi inflatsion xususiyat kasb etadi. Bunday holda davlat soliqlarni oshirish orqali xususiy sektor sarflarini qisqartirish va shu yo‘l bilan ortiqcha sarflarni tugatishga harakat qiladi. Iqtisodiyotda ishsizlik mavjud bo‘lganda davlat sarflarining ko‘payishi jami sarflar, ishlab chiqarish hajmi va bandlilikning o‘shiga olib keladi. O‘z navbatida, soliqlarning qisqarishi yoki transfert to‘lovlarning ko‘payishi daromadlarni ko‘paytiradi. Bu daromadlar shaxsiy sarflarning o‘shini rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Davlat o‘z ishlab chiqarishini moliyalashtirishdan tashqari ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta‘minotning bir qator dasturlarini amalga oshiradi, iqtisodiyotning xususiy va kooperativ sektorida daromadlarni qayta taqsimlaydi. Davlat tartibga soluvchi xususiyatga ega bo‘lgan bir qator vaziyatlarni ham amalga oshiradi. Bularga atrof-muhitni himoya qilish, aholi sog‘lig‘ini saqlash, bo‘sh ishchi o‘rinlariga ega bo‘lishning teng sharoitini ta‘minlash va



ma‘lum sohalarda narx belgilash amaliyoti ustidan nazorat qilish va shu kabilarni kiritish mumkin.

Tashqi samara ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti nafaqat ijobiy, balki salbiy

naflilikka ega bo‘lgan ne‘matlarni ham ishlab chiqaradi. Ulardan foydalanish yoki iste‘mol qilish atrof-muhit ifloslanishiga olib keladi yoki kishilar sog‘ligiga zarar yetkazadi. Ijtimoiy tavsifdagi ne‘matlar ham borki, ular faqat davlat tomonidan ishlab chiqarilib, butun jamiyat a‘zolari yoki alohida kishilar guruhi bahramand bo‘lishi taqozo qilinadi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ikki yo‘nalishda kechadi. Birinchidan, iqtisodiyotning davlat sektorini tashkil etuvchi korxonalar va tashkilotlar milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida tovar va xizmatlar yaratib bozor munosabatlarida ishtirok etadi. Ikkinchidan, davlat umumiy manfaatlarini ifodalovchi kuch sifatida milliy iqtisodiyotni tartiblashda ishtirok etadi.

Respublikamizda yaqin istiqbolda ham: “iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish” nazarda tutiladi¹³⁰. Bunda quyidagilarga ustuvorlik beriladi:

davlat mulkini xususiylashtirish tartib-tamoyillarni yanada kengaytirish va soddalashtirish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish;

davlat mulkini xususiylashtirilgan obyektlarning bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

korporativ boshqaruvining zamonaviy standartlari va usullarini joriy etish;

davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish;

nodavlat, jamoat tashkilotlar va o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

Davlatning turli muassasalari iste‘molchi sifatida bozordan resurslar va iste‘mol tovarlarni sotib olganda xaridor sifatida bozor aloqalarida ishtirok etadi. Davlat korxonalarini bozorga o‘z tovar va xizmatlarini taklif etadi va bozordagi resurslarga talab bildiradi. Har ikki holatda davlat bozor iqtisodiyotining subyektini vazifasini o‘taydi. Biroq davlat bozorga nisbatan tashqi kuch sifatida ham maydonga chiqib, butun iqtisodiyotni tartiblashda



¹³⁰ Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz

ishtirok etadi va bunda butun jamiyat nomidan ish ko‘radi. Davlat korxonalarini va uy xo‘jaliklari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni hamda tovarlar va resurslar bozorini tartibga soladi.

Davlatning oilalarga beradigan turli transferlari ularning xarid qobiliyatini oshiradi, bu esa o‘z navbatida talabni shu orqali bozorni kengaytiradi. Davlat sektori korxonalarida yaratilgan tovar va xizmatlar taklifini oshiradi.

Davlat sektori butun jamiyat uchun zarur bo‘lgan xususiy korxonalar ishlab chiqarilmaydigan tovar va xizmatlarni yaratadi. Aksariyat hollarda davlat sektori ishlab chiqarish infratuzilmasi, yoqilg‘i-energetika, transport, yo‘l va suv xo‘jaligi, aloqa kabi sohalarni qamrab oladi. Ularning xizmatlari milliy iqtisodiyotning rivoji uchun zarur bo‘lganligi sababli shu sohalar xarajatini qoplashni davlat o‘z zimmasiga olib, iqtisodiy o‘shishga turtki beradi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bozor mexanizmining amal qilishiga xalaqit qilmasligi, aksincha bunga sharoit yaratib, zarur bo‘lganda bu mexanizmni to‘ldirib turishi ham talab qilinadi.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotini tartiblashda bozor va davlat mexanizmi birgalikda amal qiladi. Biroq ularning nisbati iqtisodiyotdagi vaziyatdan kelib chiqib, turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, Italiya, Yaponiya, Avstriya, Fransiya, Shvetsiyada davlatning roli kuchli bo‘lsa, AQSH va Germaniyada bozor mexanizmi ustuvorlikka ega.

Davlatning tartibga solish rolini iqtisodiyot rivojining umumiy holati ham belgilaydi. Iqtisodiyot barqaror o‘sayotgan va bozor mexanizmi samarali ishlab turganidan davlat iqtisodiyotga kamroq aralashadi. Aksincha, iqtisodiyot inqirozli holatda bo‘lganda davlat uning oqibatlarini yumshatishga qarata aralashuvi faollashadi.

3. Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va tartibga solish dastaklari

Davlatning iqtisodiy siyosati — bu iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, bandlikni ta‘minlash va inflatsiyani oldini olish orqali aholi farovonligini oshirib borishga qaratilgan chora-tadbirlaridir.

Davlatning iqtisodiy siyosati har doim mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ichki va tashqi sharoitlarini hisobga oladi. Bunda eng avval mamlakat iqtisodiyotining holati, xalqaro iqtisodiy konyunkturaning milliy iqtisodiyotga ta'siri, undan kutilayotgan o'zgarishlar, mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlar, milliy iqtisodiyotning resurslar bilan ta'minlanish darajasi kabilarga e'tibor qaratiladi.

Davlatning iqtisodiy siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi. Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va yetarli sur'atlar bilan o'sishiga sharoit hozirlashni bildiradi, chunki u qanchalik tez o'ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik ortadi.

2. Milliy iqtisodiyotning mustaqilligini mustahkamlash. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo'lsa, shunchalik milliy manfaatlarga ko'proq xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlash. Bu iqtisodiy oqimlar uzluksizligini, ya'ni takror ishlab chiqarishning to'xtovsiz davom etishini, iqtisodiy falajlikka yo'l qo'yilmasligini bildiradi.

4. Milliy pul barqarorligini ta'minlash. Bu mamlakatdagi pul muomalasining me'yorida borishiga erishish, uni iqtisodiy aloqalarning barqaror vositasiga aylantirish imkonini beradi.

5. Aholi turmush farovonligini muttasil oshirib borish. Bu iqtisodiyotning ijtimoiylikni to'laroq yuzaga chiqarishga ko'maklashadi.

6. Milliy xo'jalikning xalqaro integratsion jarayonlarda faol ishtirok etishga erishish. Bu mamlakatning jahon iqtisodiyotida o'z o'rnini topishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishishga sharoit yaratadi.

7. Bular iqtisodiy siyosatning strategik, ya'ni uzoq davrga mo'ljallangan maqsadi hisoblanadi. Davlat strategik maqsadlardan kelib chiqib qisqa davrdagi vazifalarini belgilaydi. Bular jumlasiga iqtisodiy tanglikdan chiqib ketish, narxlarning barqarorligini ta'minlash, investitsion faollikni rag'batlantirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsion rivojlanishni ta'minlash, yangi tashqi bozorlarga kirib borish kabilar kiradi.

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhlash mumkin:

- bevosita ta'sir qilish usullari;
- bilvosita ta'sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Markazdan boshqarish tartibi ustun bo'lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta'sir qilish usullari ustun bo'lsa, bozor iqtisodiyoti esa birinchi navbatda iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog'langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat sektori mavjud. Davlat xilma-xil shakldagi kapitalga egalik qiladi, kreditlar



beradi, korxonalariga mulkdor hisoblanadi. Bu davlatning ijtimoiy kapitalning bir qismiga egalik qilishiga olib keladi.

Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma'muriy vositalardan foydalaniladi.

Ma'muriy vositalar

davlat hokimiyati kuchiga tayanadi va taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xususiyatidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Tartibga solishning ma'muriy vositalaridan foydalanilganda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish ko'zda tutiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish tanazzulga uchragan davrda iqtisodiyotga bilvosita ta'sir qilish tadbirlari kam samarali bo'lib, ma'muriy vositalardan foydalanishga ustunlik beriladi. Bu usullardan quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin:

a) iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari – transport, aloqa, atom va elektr-energetika, kommunal xizmat va boshqalarni bevosita boshqarish. Bunda davlat mulk sohibi va tadbirkor sifatida o'ziga

qarashli korxonalar va tashkilotchilar iqtisodiy hayotida faol qatnashadi. Davlat tadbirkorligi, ma'lum doirada amal qilib, ko'pincha texnologiya sharoiti xususiy kapital uchun qulay bo'lmagan korxonalar doirasi bilan cheklanadi. Davlat tadbirkorligi bir tomondan, ma'lum sharoitlarda iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, vaqt o'tishi bilan samarasiz bo'lib qolishi ham mumkin. Bunday holda ular xususiy tadbirkorlik obyektiga aylantiriladi.

Respublikada "Iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – davlatning funksiyalarini qisqartirish uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga birinchi galda xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash¹³¹," hisoblanadi;

b) narxlar va ish haqini qotirib qo'yish siyosati: bu iqtisodiyotga aralashishning antiinflatsion tadbirlar hisoblanib, inflatsiyaning yumshatishga qaratiladi. Mazkur siyosatni yuritishda narxlar va ish haqini oshirish qonun bilan taqiqlandi yoki ma'lum doira bilan cheklanadi. Antiinflatsion tadbirlar orqali inflatsiya darajasining pasayishi investitsiyalarga rag'bat beradi;

d) ish bilan bandlik xizmati faoliyati (mehnat birjalari) ni tashkil qilish:



davlat bu faoliyatni tashkil qilish bilan ish-sizlikni qisqartirish choralarini ko'radi. Ularni zarur kasblarga qayta tayyorlaydi, ish bilan ta'minlanmaganlarga nafaqa beradi, muhtojlarga yordam ko'rsatadi;

e) iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish

¹³¹ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: "Янги асар авлоди", 2001-йил. 62-бет .

va qabul qilish (monopoliyaga qarshi qonunchilik, tadbirkorlik to'g'risidagi, bank sohalari, qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlar).

Shu orqali bozor munosabatlarining rivojlanishi qonun yo'li bilan kafolatlanadi, turli mulk shakllarining daxlsizligi ta'minlanadi, monopoliyalarga yo'l berilmaydi va erkin raqobatga sharoit yaratiladi. Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi.

IDTTSda asosiy kapitalga hisoblanadigan jadallashgan amortizatsiya ajratmalari alohida rol o'ynaydi. U hozirgi sharoitda jamg'arish va iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni rag'batlantirishning asosiy vositasi hamda iqtisodiy sikl va bandlikka ta'sir ko'rsatuvchi muhim dastak hisoblanadi.

Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat kapital qo'yilmalari muhim rol o'ynaydi. Jumladan, bozor konyunkturasi yomonlashgan, turg'unlik yoki inqiroz sharoitida xususiy kapital qo'yilmalar qisqaradi, davlat investitsiyalari esa odatda o'sadi. Shu orqali davlat ishlab chiqarishda tanazzul va ishsizlikning o'sishiga qarshi turishga harakat qiladi.

Davlat kapital qiymatlari iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarda ham sezilarli o'ringa ega bo'ladi, masalan, davlat, xususiy kapitalning oqib kelishi yetarli bo'lmagan mintaqalar, tarmoqlar yoki faoliyat sohaslarida yangi obyektlar qurish va eskilarini qayta qurollantirish orqali iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Bulardan tashqari davlat kapital qo'yilmalari ilmiy tadqiqot ishlarida, kadrlar tayyorlashda, tashqi savdo va chetga kapital chiqarishda ham katta rol o'ynaydi.

IDTTSning oliy shakli davlat iqtisodiy dasturlari hisoblanadi. Uning vazifasi tartibga solishning barcha usuli va vositalaridan kompleks foydalanishdan iborat. Iqtisodiy dasturlar o'rta muddatli, favqulodli va maqsadli bo'lishi mumkin. O'rta muddatli umumiy iqtisodiy dasturlar odatda besh yilga tuziladi. Favqulodli dasturlar tig'iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kuchli inflatsiya sharoitlarida ishlab chiqilib, qisqa muddatli xususiyatga ega bo'ladi. Bunday maqsadli dasturlarning obyekti tarmoqlar, mintaqalar, ijtimoiy sohalar va ilmiy tadqiqotlarning har xil yo'nalishlari bo'lishi mumkin.

IDTTS tashqi iqtisodiy usullar yordamida ham amalga oshiriladi. Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamlakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan xo‘jalik aloqalariga bevosita ta’sir ko‘rsatiladi.

Tovarlar, xizmatlar, kapital va fan-texnika yutuqlari eksportini rag‘batlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash, chet ellardan investitsiyalar va eksport kreditlarini kafolatlash, tashqi iqtisodiy aloqalarga cheklashlar kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdoda boj to‘lovlarini o‘zgartirish, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish yoki cheklash bo‘yicha tadbirlar, mamlakatga chetdan ishchi kuchini jalb qilish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda va davlatlararo uyushmalarda qatnashish mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning asosiy vositalaridir.

Shunday qilib, IDTTSning qarab chiqilgan barcha ichki va tashqi iqtisodiy usullari birgalikda milliy iqtisodiyotdagi takror ishlab chiqarish jarayoniga va mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Davlat o‘zining iqtisodiy siyosatini tartibga solishning turli vositalari yordamida amalga oshiradi. Bular birinchidan, tartibga solishning iqtisodiy vositalar bo‘lib, ularga soliqlar, subsidiyalar, hisob stavkalari, davlat buyurtmalari, investitsiyalari va transfertlari, turli iqtisodiy sanksiyalar kiradi. Ikkinchisi, huquqiy vositalar. Bu iqtisodiy faoliyat tartibi va qoidalarini, uning davlat tomonidan rag‘batlantirilishini belgilab beruvchi qonunlarni, ularga mos ravishdagi qonun osti hujjatlarni ishlab chiqish, ularni qabul qilish va joriy etishdan iboratdir.

Uchinchisi, ma’muriy vositalar. Ma’muriy vositalar qo‘shimcha hisoblanib, u bozor tizimida yaxshi natija bermaganida cheklangan holda qo‘llaniladi.

4. Iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning o‘zaro bog‘liqligi

Davlatning iqtisodiy siyosatni pul-kredit, fiskal, investitsion, agrar, ijtimoiy, daromadlarni tartibga solish, tashqi iqtisodiy va global iqtisodiy siyosat kabilardan iborat bo‘ladi.

Pul-kredit siyosati – bu davlatning monetar siyosati bo‘lib, u pul muomalasini tartiblash, tovar va pul massasi o‘rtasidagi

muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini tartibga solib turishga qaratiladi. Uning maqsadi narxlarni va shunga mos ravishda milliy pul birligi xarid qobiliyatini ushlab turish, valuta kursini barqarorlashtirish, oxir-oqibatda pulga talab bilan uning taklifini muvozanatlashtirishga qaratilgan.

Monetar siyosatni amalga oshirishda hisob stavkasini o'zgartirish, ochiq bozordagi operatsiyalar va majburiy ehtiyoatlarni o'rnatish kabi iqtisodiy vositalardan foydalaniladi.

Davlatning monetar siyosat qattiq yoki yumshoq pul-kredit siyosat bo'lishi mumkin.

Qattiq pul-kredit siyosatni amalga oshirishda pul massasining uni emissiya qilish hisobidan o'sib borishi qat'iy chegaralanadi.



Natijada pul taklifi qisqarib tovar massasiga tenglashadi. Pul taklifining qisqarishi talabni kamaytiradi, natijada narxlar va pul birligining xarid qobiliyati barqarorlashadi. Ishlab pul topishga intilish iqtisodiyotning jonlanishiga olib keladi. Bunday siyosat odatda iqtisodiyotni tanglikdan chiqarish yoki inflatsiyani bartaraf qilish maqsadida qo'llaniladi.

Yumshoq pul-kredit siyosatini amalga oshirishda davlat pul massasining ortishiga to'sqinlik qilmaydi, pul emissiyasi mutlaq cheklanmaydi, natijada pul taklifi ko'payib, tovarlarning arzonlashuvi yuz beradi. Yumshoq pul-kredit siyosati iqtisodiyotning o'sish pallasida bo'lganda ko'proq qo'llaniladi, chunki pul massasining o'sishiga qarab tovarlar massasi ham ko'payadi. Bunda



tovar-pul muvozanati pul taklifini qisqartirish hisobidan emas, balki tovarlarning ko‘payishi tufayli ta‘minlanib turadi.

Fiskal siyosat – bu davlatning soliq-budjet siyosatidir, unga binoan soliq tushumlari belgilanadi, budjet mablag‘lari aniq maqsadlar yo‘lida ishlatilishi ko‘zda tutiladi.

Soliq siyosatini amalga oshirishda davlat soliqlar vositasida budjetga pul tushumini ta‘minlaydi. Unga binoan soliq turlari, soliq stavkalari, soliq solinadigan obyektlar, soliq imtiyozlari, soliq undirish tartibi belgilanadi.



Soliqlar davlatning iqtisodiyotga ta‘sir etishida qo‘llaniladigan asosiy moliyaviy dastakdir. “Soliq, tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda, rag‘batlantirish xususiyatiga ega bo‘lishi lozim”.

Iqtisodiyotni rag‘batlantirish zarur bo‘lganda soliqlardan

imtiyozlar beriladi. Bunda soliq yuki kamaytiriladi, soliqni undirish muddati cho‘ziladi yoki umuman soliqdan ozod qilinadi. Natijada korxonalar tasarrufidagi foyda ko‘payadi, uni investitsiya qilish, ya‘ni qaytadan ishlab chiqarishni o‘stirishga yo‘naltirish imkoniyati kengayadi. Ishlab chiqarishni rag‘batlantirish maqsadida O‘zbekistonda foydadan to‘lanadigan soliq stavkasi 2004-yildagi 24%dan 2009-yilda 12%, 2012-yilda 9% va 2016-yilda 8% ga tushirildi.

Fiskal siyosat ikki xil yo‘ldan amalga oshiriladi.

1. Iqtisodiyotni barqarorlashtiruvchi amaldagi moliyaviy normativlarni qo‘llashni davom ettirish. Bular jumlasiga soliq stavkalarini, ishsizlik nafaqasi, daromadlarning inflatsiyaga qarab indeksatsiyalash, ijtimoiy yordam ko‘rsatish normativlarini kiritish mumkin.

2. Yangi moliyaviy normativlarni kiritish. Bu diskretion fiskal siyosat deb yuritiladi. Mazkur siyosat doirasida yangi soliq stavkalari joriy etiladi, uning yangi turlari kiritiladi, budjet

mablagʻlarini sarflash normativlari oʻzgartiriladi. Diskretsiyon siyosat iqtisodiyotning oʻzgargan sharoitga moslashish siyosatidir. Iqtisodiyot bir maromda oʻsib borganda birinchisi, u tanglikka uchraganda diskretsiyon siyosat ustuvor boʻladi.

Fiskal siyosatda davlat budjeti orqali ham iqtisodiy faollikka taʼsir koʻrsatadi. Budget mablagʻlari hisobidan davlat ishlab chiqarish infratuzilmasiga katta hajmdagi investitsiyalarni ajratadi, milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatli faoliyat (masalan, yangi texnologiyani yaratish) bilan shugʻullanuvchi korxonalariga subsidiya beriladi. Subsidiya moliyaviy yordam sifatida qaytarib olinmaydi, uning hisobidan xarajatlar qoplanib foyda koʻpayadi, bu bilan korxonalar faoliyati ragʻbatlantiriladi.

Budget siyosati ijtimoiy neʼmatlarning yaratilishini uzluksiz kerakli miqdordagi pul mablagʻlari bilan taʼminlab turishga ham qaratiladi. Davlat budjeti balanslashgan boʻlishi, yaʼni taqchilikka yoʻl qoʻymaslik, u yuz bergan taqdirda ham meʼyorida boʻlishiga qaratiladi. Fiskal siyosat davlatning ichki va tashqi qarzlari meʼyorida boʻlishini taʼminlashda ham ahamiyatli.

Fiskal siyosat faol yoki passiv tavsifga ega boʻlishi mumkin.

Faol fiskal siyosatni amalga oshirishda diskretsiyon vositalar ishga solinadi, jumladan, soliqlar kamaytiriladi, ulardan siylovlar beriladi, budjetdan transfertlar berish koʻpaytiriladi, firmalar subsidiyalar oladi. Bularning barchasi iqtisodiy faollikka olib keladi, korxonalar xarajati qisqarib foydasi ortadi, aholining transfertlar hisobidan xarid qobiliyati oshadi. Xullas, bu siyosat yalpi talabni ragʻbatlantiradi.

Passiv fiskal siyosat moliyaviy dastaklarni oʻzgartirmay, ularning erkin ishlashiga yoʻl berishga qaratiladi. Iqtisodiyotning barqaror yuksalib borishi tufayli moliyaviy dastaklarni oʻzgartirishga zaruriyat qolmaydi. Demak, bu siyosat iqtisodiy oʻsish tuxtovsiz borayotgan kezlarda naf beradi.

Agrar siyosat davlatning qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatidir. U qishloq xo‘jaligining barqaror o‘shishini, oziq-ovqat mustaqilligi va xavfsizligini ta‘minlashni ko‘zda tutadi. Mazkur siyosat doirasida davlat qishloqda ishlab chiqarish infratuzilmasining (suv xo‘jaligi, yo‘l qurilishi, gaz va elektrenergiya ta‘minotining) xarajatlarini qisman o‘z zimmasiga oladi, yerni ijaraga olib ishlatilishini, uni garovga qo‘yib kredit olishni huquqiy jihatdan ta‘minlaydi. Agrar siyosatda xarid narxlari, davlat subsidiyalari kabi moliyaviy dastaklar qo‘llaniladi. Dehqon va fermerlarni qo‘llab-quvvatlash uchun yer solig‘i yuki yengillash-tiriladi. Masalan, O‘zbekistonda yagona yer solig‘i qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bozor qiymatining 3—5%idan oshmaydi.

Qishloq xo‘jaligida rentabellik nisbatan past bo‘lganligidan kapitalning tarmoqdan chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun davlat fermerlarga subsidiya berib, uning hisobidan xarajatlarni qisman qoplaydi va ular me‘yordagi daromadga ega bo‘lishni ta‘minlaydi.

Hozirgi davrda davlatning agrar siyosatida:

birinchidan “...ekin maydonlari va ekinlar tarkibini opti-mallashtirish, ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy etish va hosildorlikni oshirish, meva-sabzavot va uzum yetishtirishni ko‘paytirish”;

ikkinchidan, “fermer xo‘jaliklarining moliyaviy-iqtisodiy holatini mustahkamlash. Oxirgi 10 yil mobaynida mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i-moylash materiallari va urug‘lik narxining o‘shishi bilan paxta xomashyosi va g‘allani xarid qilish narxlari o‘shishi o‘rtasida keskin farq borligi kuzatilmoqda”;

uchinchidan, “agrotexnika tadbirlarini moliyalashtirishda ijobiy natija bermayotgan va mutlaqo chala tizimga barham berish” ga ustuvorlik qaratiladi.



Tashqi iqtisodiy siyosat davlatning o'zaro foydali tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotini jahon xo'jaligi bilan integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratiladi. Bu siyosatning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligidagi mavqeiini mustahkamlab borishdan iborat. Unga binoan eksport va import, chetga kapital chiqarish va chetdan kapital kiritish, ish kuchi migratsiyasini tartibga solishga doir tadbirlar amalga oshiriladi. Bu siyosatda bojxona to'lovlari, eksport-import litsenziyalari va kvotalari kabi vositalar qo'llaniladi. Eksportni ko'paytirish zarur bo'lsa unga litsenziyalar beriladi, eksport kvotasi oshiriladi. Importni qisqartirish ma'qul bo'lsa, uning kvotasi kamaytiriladi, import uchun boj to'lovi oshiriladi, unga litsenziya berish chegaralanadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati kapital chiqarish va kapital kiritish tartibini ham belgilaydi. Kapital kiritish zarur bo'lsa, u rag'batlantiriladi. Kapital chiqishi ma'qul bo'lsa davlat bunga turli imtiyozlar orqali sharoit yaratib beradi. Davlat chetga ish kuchini



chiqarishni ham tartibga soladi.

Bordi-yu, mamlakatga arzon ish kuchi kerak bo'lsa, uning chetdan kirib kelishi uchun migratsiya qoidalari (chegaradan o'tish, yashash va ishlash uchun ruxsat olish va h.k.) yengillashtiriladi. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatida xalqaro iqtisodiy tashqilotlar bilan

hamkorlik qilish ham ko'zda tutiladi.

Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining samaradorligi iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflatsiya darajasi, eksport va import holati, tashqi qarz miqdori, savdo va to'lov balansi holati kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi.

Global iqtisodiy siyosat iqtisodiy resurslar, yaratilgan tovar va xizmatlarni dunyo mamlakatlari o'rtasida taqsimlab, ulardan sama-

rali foydalanishni maqsad qilib qo'yadi. Bu siyosatda chetga kapitalni investitsiya sifatida chiqarib, uni serfoйда sohalarga joylashtirish uchun o'zaro kelishilgan soliqlar, bank foizlari, boj to'lovlari, kvotalar kabi dastaklardan foydalaniladi. Tovarlarining qimmatlashib ketishiga yo'l qo'yimaslik uchun eksport soliqlar bilan cheklanib, ularning importiga soliq belgilanmaydi. Bu ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish deb yuritiladi. Masalan, qo'shilgan qiymat yoki aksiz soliqlari tovarlar chetga chiqarilganda undirilib, ular import qilinganda olinmaydi. O'zaro kelishuvlar asosida import qilingan texnologiya ham soliqdan ozod qilinadi. Xalqaro savdo-sotiqda o'zaro kelishilgan yengillashtirilgan bojxona to'lovlari qo'llaniladi. Jumladan, xalqaro savdo tashkiloti a'zolari o'zaro savdo qilganda, mazkur to'lovlari tovar qiymatining 10 foizidan oshmasligi kerak.

Xalqaro kredit berish tartibi ham birgalikda belgilanadi. Bunga ko'ra kredit kvotalari, uni berish muddati va kredit uchun foiz stavkasi o'rnatiladi. Xalqaro kreditda kelishilgan foiz stavkasi libor deb yuritiladi. Liborni yirik London banklari o'rnatadi, boshqa xalqaro



banklar shunga qarab o'z foizlarini belgilaydilar. Xalqaro kredit siyosatini yirik kreditor — qarz beruvchi mamlakatlar banklari amalga oshiradi. Bular Parij va London qarz beruvchilar klubini tashkil etadi. Bu kredit siyosati kimga va qancha qarz berishni, qanday qarzlarni kechib yuborishni, qaysilarining to'lash muddatini cho'zishni belgilab beradi.

Yirik xalqaro korporatsiyalar davlat ishtirokida eksport va import kvotalari o'rnatadilar. Bularga binoan qayerga qancha tovarni eksport va import qilish hamda uning tartibi aniqlab beriladi. Integratsion ittifoqlarga kirgan mamlakatlarda, masalan, Yevropa ittifoqida, davlatlararo eksport va import uchun qulay sharoit yaratib beriladi, bunda ayrim mamlakatlar tovarlarini diskriminatsiya qilish, ya'ni kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

Global iqtisodiy siyosatni transmilliy, ya'ni xalqaro korporatsiya va tashkilotlar, yetakchi davlatlar hukumati, davlatlararo muassasalar va parlament belgilaydi. Bunga misol qilib Yevroparlament, Yevropa ministrlar kengashi qo'llaydigan siyosatni olish mumkin. Bu siyosatda o'zaro va boshqalar bilan bo'ladigan iqtisodiy aloqalarning qaysi yo'nalishda va qanday tartibda bo'lishi ko'rsatiladi. Global siyosat umuman yoki ayrim sohalarga tatbiqan qo'llaniladi. Transmilliy korporat-siyalar faqat o'z faoliyati doirasidagi xalqaro siyosatni belgilaydi. Masalan, OPEK tashkiloti neftni qazib olish va qayta ishlash kvotalarini, uning narxini o'z siyosatiga binoan belgilaydi. Bu yerda qabul qilingan neft narxining amal qilish doirasi o'rnatiladi. Xalqaro savdo birjalari jahon narxlarini o'rnatishga doir siyosatni amalga oshiradi.

Xalqaro Valuta fondi, Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Tarraqiyot banki, Osiyo Rivojlanish banki kabi xalqaro institutlar valuta rejimini mustahkamlash, kreditni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni qo'llaydilar. Ular milliy valuta kursini barqarorlashtirish va uning tahlikasini kamaytirish uchun, milliy iqtisodiyotni rivojlantirib eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kredit siyosatini qo'llab-quvvatlaydi.



Global iqtisodiy siyosat davlatlararo ishchi kuchi migratsiyasiga ham taalluqlidir. Ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solish uchun unga oid xalqaro qoidalar ishlab chiqiladi. Turli mamlakat hukumati va parlamentlari

belgilagan migratsiya qoidalari bir-biriga yaqin turadi. Migratsiya oqimini nazorat qilish tartibi ham kelishiladi, migratsiyaga oid o'zaro axborot almashlab turiladi.

Global siyosat tabiiy ravishda globallashtirish jarayonining afzalliklaridan foydalanish, uning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratiladi.

4. Iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning o‘zaro bog‘liqligi

Bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘naltirilganligi iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning uzviy aloqada bo‘lishini taqozo qiladi. Iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan tovar va xizmatlarni yaratib bersa, o‘z navbatida ijtimoiy muammolarning hal etilishi inson kapitalining rivoji orqali iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Mana shunday bog‘lanishning amaliy hayotda bo‘lishi iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning uyg‘unlashuvini talab qiladi.

Davlatning ijtimoiy siyosati – bu kishilarning hayotiy manfaatlarini yuzaga chiqarish, insonni himoya qilish va kamol topishiga qaratilgan siyosatdir.

Uning maqsadi umumiy iqtisodiy farovonlikni oshirib borishga ko‘mak berishdir. Bu siyosatda ish bilan bandlik darajasini belgilash, minimal ish haqini o‘rnatish, kambag‘allik chegaralarini aniqlash, tirikchilik minimumini belgilash, ijtimoiy yordam me‘yorlarini aniqlash kabilarga ustuvorlik beriladi. Uning asosiy yo‘nalishlari bandlik, daromad va ijtimoiy yordam siyosatidir.

Bandlik siyosati. Bu mehnatga layoqatli va ishlashni xohlagan kishilarni ish bilan ta'minlash, shu orqali ularga o'zini-o'zi iqtisodiy



ta'minlash uchun imkoniyat yaratishni ko'zda tutadi. Bunda davlat mamlakatda yangi ish o'rinlarini yaratish, mavjud ish o'rinlaridan to'laroq foydalanib bandlikni oshirilishini ko'zda tutadi. Yangi ish o'rinlarini yaratgan korxonalariga soliqdan imtiyozlar yoki subsidiyalar beriladi. Shuningdek, yangi ish o'rnini yaratib, uni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlab, mehnat unumdorligini va shunga ko'ra daromadlarini oshirishga erishish rag'batlantiriladi. Bandlik muammosining keskinligiga qarab uni hal etishning u yoki bu yo'liga ustuvorlik beriladi. Iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda ishsizlar nisbatan ko'p bo'lganida bandlik siyosati har qanday ish o'rnini, hatto unumi past ish o'rinlarining yaratilishini ham ko'zda tutadi. Aksincha, iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda malakali mehnatni band qiluvchi unumi yuqori ish o'rinlarini, yaratishga e'tibor qaratiladi. O'zbekistonda bandlik siyosatida yangi ish o'rinlarini yaratishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohalari, dehqon va fermer xo'jaliklarida ish o'rinlarini yaratishga ustuvorlik beriladi. O'zbekistonda maxsus bandlik fondi mablag'lari hisobidan ish o'rinlari yaratiladi, ishsizlarga nafaqa beriladi va ular yangi kasblarga o'rgatiladi. Davlat hisobidan moliyalashtiriladigan fondlar mablag'lari ham yangi ish o'rinlarini yaratishga yo'naltiriladi.

Ishsizlik darajasi yuqori bo'lganda, uni kamaytirish uchun hukumat ish kuchini chetga chiqarish choralarini ham ko'radi. Mehnat migratsiyasi xususida davlatlararo kelishuvlar tuziladi, migratsiyaga xizmat qiluvchi firmalar tashkil etilib, ular moliyalashtiriladi.

Bandlik siyosatida barcha mehnat qobiliyati borlarni ish bilan ta'minlab, 100% bandlikka erishish ko'zlanmaydi. Mazkur siyosat rivojlangan mamlakatlarda mehnatga yaroqli aholining 94-95%i band bo'lishini bildiradi.

Daromadlar siyosati mazmunan daromadlarning taqsimlanishini tartiblashga qaratiladi. Bu siyosatda ijtimoiy soliqlar, ijtimoiy dotatsiyalar va budjet transfertlari kabi dastaklar qo'llaniladi. Bandlikni, pensiya bilan ta'minlanish va mehnatning ijtimoiy sug'urtalanishini ta'minlash uchun korxonalar mehnat haqi mablag'laridan ijtimoiy soliqlar undiriladi. Bularning bir qismi davlat tomonidan ishsizlik nafaqasi ish qobiliyatini vaqtincha yuqotganlarga to'lovlar sifatida beriladi.

Daromad siyosati soliqlarni progressiv, ya'ni daromad miqdoriga qarab oshib borishi tarzida belgilanishini nazarda tutadi. Bunda davlat budjetida to'plangan mablag'lar muhtojlarga yordam sifatida taqsimlanadi.

Daromad siyosati qariyalarni nafaqa bilan ta'minlashni ham nazarda tutadi. Bunda 2 xil nafaqa tizimi mavjud bo'ladi. Birinchisida, ishlayotganlar daromadining bir qismi olinib, davlat nafaqasi sifatida beriladi. Ikkinchisi, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi bo'lib, unga ko'ra har bir xodim ishlagan paytidagi daromadining bir qismini pensiya jamg'armasiga o'tkazish orqali pensiya mablag'ini o'zi to'plab boradi.

Ijtimoiy himoya siyosati aholining nochor qatlamlariga yordam berish, ularni qo'llab-quvvatlab turishga qaratiladi. Unga ko'ra o'zi ishlab pul topishga qodir bo'lmagan kishilarga budjet mablag'lari hisobidan moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Daromadi kam kishilar soliqlardan ozod qilinadi, ularga turli nafaqalar beriladi yoki bir yo'la yordam ham ko'rsatiladi. Ijtimoiy yordam miqyosi muhtojlar soniga va davlatning moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosati aholining muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi.

Davlat kommunal xizmatlarni aholiga maqbul narxda yetkazib berish uchun ularga qayd qilingan ta'riflar belgilanadi va bozor narxlari o'rtasidagi farqi budjet mablag'lari hisobidan qoplanadi. Ayrim hollarda mazkur xizmatlar narxi oshishi munosabati bilan aholi ayrim toifalariga kompensatsiyalar to'lanadi.

Davlat turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqib, ularni moliyalashtiradi. Bular ichida kam ta'minlanganlarga yordam berish dasturlari alohida o'rin tutadi. Bu dasturlarda kam ta'minlanganlarga nafaqa berish, ularni arzon uy-joy va ish bilan ta'minlash, bepul tibbiyot xizmatlarini ko'rsatish, yangi kasblarga tayyorlashga ustuvorlik beriladi.

Ijtimoiy siyosat jamiyatdagi tengsizlikning haddan tashqari oshib ketishiga yo'l ko'yimaslikka qaratiladi. Bunda aholining haddan tashqari boy-badavlat va qashshoq-kambag'al qatlamlarga ajralishining oldi olinadi. Daromadlarning yuqori va kam ta'minlanganlar o'rtasida qayta taqsimlanishi orqali tengsizlik qisqartiriladi. Bunda daromadlarning farqlanish chegarasi belgilanadi. Bunga ko'ra boylar va kambag'allar daromadi o'rtasidagi farq 13-15 barobardan oshmasligi kerak. Aytilgan tengsizlik me'yori maqbul hisoblanadi, ijtimoiy siyosat shuni e'tiborga oladi.

“O'zbekistonda eng past va eng yuqori daromad oladigan aholi guruhlari o'rtasidagi tafovut darajasi so'nggi yillarda 8 barobarga to'g'ri kelmoqda”¹³².

Ijtimoiy siyosat daromadlarni tartiblash va ijtimoiy yordam uyushtirish orqali jamiyatdagi, turli ijtimoiy guruhlar hamjihatligini ta'minlashga qaratiladi. Bu bilan ijtimoiy beqarorlikning oldi olinadi va iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratiladi.

Tayanch tushunchalar

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish (IDTTS) –qonunchilik, ijro va nazorat qilish xarakteridagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishdir.

¹³² Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2014-yil, 23-bet.

IDTTS maqsadi – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirishga qaratiladi.

Davlatning iqtisodiy vazifalari – iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlardan iborat bo'ladi.

IDTTS usullari – tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy dastaklari birligidir.

Bevosita usullar – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xarakteridagi ma'muriy vositalari.

Bilvosita usullar – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.

Davlatning iqtisodiy siyosat – bu iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni ta'minlash va inflatsiyaning oldini olish orqali aholi farovonligini oshirib borishga qaratilgan chora-tadbirlaridir.

Davlatning monetar siyosati – bu pul-kredit siyosati bo'lib, pul muomalasini tartiblashni ko'zda tutadi.

Davlatning fiskal siyosati – bu soliq-budjet siyosati bo'lib, u soliqlar vositasida budjetga mablag'larni jalb qilish hamda uni iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar uchun sarflashni nazarda tutadi.

Global iqtisodiy siyosat – dunyodagi yetakchi mamlakatlar hukumatlari, xalqaro banklar, moliya korporatsiyalari, transmilliy korporatsiyalar tomonidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy siyosat – insonni kamol toptirishga qaratilib, tarkiban bandlik, daromad va ijtimoiy himoya siyosatlaridan iborat bo'ladi.

Muhokama uchun savollar

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang.

2. Davlatning asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering?

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi? Tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?

4. IDTTSning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.

5. IDTTSda davlat sektori qanday rol o'ynaydi? Davlat iqtisodiy dasturlari qanday amalga oshiriladi?

XXVII bob. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI

1. Aholi daromadlari va uning tarkibi. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari.

2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash.

3. O'zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari.

1. Aholi daromadlari va uning tarkibi. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari

Bozor tizimi iste'molni ta'minlashning eng samarali usullarini yaratib ayni vaqtda aholi daromadlarini oshirib borishga keng yo'l ochib beradi.

Aholi daromadlari deyilganda, ularning ma'lum vaqt davomida (masalan, bir yilda) pul va natural shaklda olgan barcha daromadlari miqdori tushuniladi.

Aholi iste'mol darajasi to'g'ridan-to'g'ri ularning daromadlari darajasiga bog'liq bo'ladiki, bu uning aholi turmush darajasidagi rolini belgilab beradi.

Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan pul mablag'lardan iborat bo'ladi.

Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlardan iborat bo'ladi.

Jamiyat a'zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko'rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog'ligini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Aholi daromadlari darajasiga



bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida ish haqidani tashqari chakana narx dinamikasi, iste'mol bozorini tovarlar bilan to'yin-ganlik darajasi kabilar muhim o'rin tutadi.

Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal, ixtiyorida bo'lgan va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi.

Nominal daromad – aholi tomonidan ma'lum vaqt davomida pul shaklida olingan daromad hisoblanadi.

Ixtiyorida bo'lgan daromad – shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad. Bu daromad nominal daromaddan soliqlar va majburiy to'lovlar miqdoriga kam bo'ladi.

Real daromad – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorini ko'rsatadi.

Aholining nominal pul daromadlari turli manbalar hisobiga shakllanadi va ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- a) ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad;
- b) davlat yordam dasturlari bo'yicha to'lov va imtiyozlar shaklidagi pul tushumlari;
- d) moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pul daromadlari.

Respublikamizda mehnatni rag'batlantirish maqsadida ish haqini oshirish natijasida aholi daromadlari muttasil o'sib bormoqda. Jumladan, 2016-yilda aholi umumiy daromadlari 12 foizga o'sgan. 2000-yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi¹³³.

¹³³ O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. T.2016 54-bet.

Aholining yollanib ishlovchi qismi oladigan daromadlarning asosiy turi ish haqi istiqbolda ham pul daromadlari umumiy hajmining shakllanishida o‘zining yetakchi rolini saqlab qoladi.

O‘zbekistonda aholi daromadlarining tarkibi (2016y.,foizda)

27.1-jadval

Umumiy daromadlar – jami	100,0
Shu jumladan:	
I.Birlamchi daromadlar	79,7
1.1). Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar	75,7
a). <i>Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar</i>	73,3
– yollanma ishchilarning ish haqi	38,9
– mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar	34,4
b). <i>Shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar</i>	2,4
1.2). Mol-mulkdan olingan daromadlar	4,0
II.Transfertlardan daromadlar	20,3
1.1). Umumiy daromadlarda, kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi	55,2

Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o‘zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o‘sib borayotgani alohida e‘tiborga molikdir. 2016-yilda ushbu ko‘rsatkich ulushi 55,2 foizni tashkil qilgan, boshqacha aytganda aholi daromadlarining yarmidan ko‘pi, birinchi navbatda, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllangan¹³⁴.

¹³⁴ O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. T. 2016-y. 55-bet.

O‘zbekistonda yaqin istiqbolda ham aholining real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirib borish ko‘zda tutiladi. Bu quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish;
kam ta‘minlangan oilalarni va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanishi darajasini yanada qisqartirish;

budget muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalarning hajmini inflatsiya sur‘atlariga nisbatan jadal miqdorda bosqichma-bosqich oshirish.

Aholi pul daromadlari darajasiga davlat yordam dasturlari bo‘yicha to‘lovlar sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu manbalar hisobiga pensiya ta‘minoti amalga oshiriladi va turli xil nafaqalar to‘lanadi.

Aholining moliya-kredit tizimi orqali oladigan pul daromadlari quyidagilardan iborat: sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar; shaxsiy uy qurilishiga va matlubot jamiyati a‘zolariga bank ssudalari; qo‘yilmalar bo‘yicha foizlar; aksiya, obligatsiya bahosining ko‘payishidan olinadigan daromad va zayom bo‘yicha to‘lovlar; lotereya bo‘yicha yutuqlar; tovarlarni kreditga sotib olish natijasida tashkil topadigan vaqtincha bo‘sh mablag‘lar; har xil turdagi kompensatsiya to‘lovlar va h.k.

Jamiyat a‘zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanishi bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog‘lig‘ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Tabiyki, ish haqi va aholi real daromadlarining ahamiyatli darajada o‘ssishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur‘atlarda rivojlanishi bilan bir qatorda tashqi savdo va eksport sohasidagi faoliyatning samaradorligiga ham bog‘liq.



O‘zbekistonda aholining pul daromadlari tarkibida ijtimoiy transfert daromadlari 2016-yilda 20,3% ni tashkil qiladi. MDH mamlakatlari ichida faqatgina Belorussiyada bu ko‘rsatkich nisbatan yuqori (18,8%), boshqa MDH davlatlarida esa u 8% dan oshmaydi.

Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin.

Shu sababli, aholi turmush darajasi va sifatini baholashda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bilan bir qatorda, ular hayot darajasini belgilaydigan bir qator muhim ko'rsatkichlar hisobga olinadi. Bular quyidagilar:

- yashash sharoitlari va standartlari;
- qulay va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlanganligi;
- kishilar yashash muhiti rivojlanganligi va obodonlashtirilganligi;
- zaruriy infratuzilma mavjudligi va uning samarasi;
- aholining sifatli iste'mol tovarlari, xususan mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan ta'minlanganligi;
- zamonaviy ta'lim hamda sog'liqni saqlash tizimidan bahramand bo'lishi.

O'zbekistonda hozirgi paytda barcha oilalarning 97 foizi o'z uyiga ega, aholining 90 foizi uzoq muddat foydalaniladigan barcha asosiy tovarlar bilan ta'minlangan, har uch oiladan biri shaxsiy yengil avtomobilga ega, aholi iste'mol mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlab kelinadi¹³⁵.

Kishilar ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a'zolarining alohida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog'liq. Turmush darajasini mamlakat darajasida butun aholi uchun va tabaqalashgan mikro darajada aholining alohida guruhi uchun qarab chiqish mumkin. Birinchi yondashuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi bo'yicha aniqlab, qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.



¹³⁵ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. T.: O‘zbekiston, 2013. 31, 33 betlar.

Aholi guruhlari bo'yicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini taqqoslash, iste'molchilik budjeti asosida amalga oshiriladi. Qator iste'molchilik budjetlari mavjud bo'lib, ulardan o'rtacha oila uchun, yuqori darajada mo'l-ko'l budjet, minimal moddiy ta'minlanganlar budjeti, nafaqaxo'rlar va aholining boshqa ijtimoiy guruhlari budjeti shular jumlasidandir.

Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday darajasi bilan belgilash mumkinki, undan keyin ishchi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja moddiy ta'minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi, ya'ni qashshoqlikning boshlanishi sifatida chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rtacha daromad «o'rtacha sinf» deb ataladigan tabaqalar daromadlari bo'yicha aniqlanadi. Bunday guruh iste'molchilik savati to'plamiga uy, avtomashina, dala hovli, zamonaviy uy jihozlar, sayr qilish va bolalarni o'qitish imkoniyati, qimmatli qog'ozlar va zebu-ziynatlar kiradi.

O'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining 50 foiziga yaqini o'zini o'rta toifaga mansub deb biladi. Holbuki, 2000 yilda atigi 24 foiz aholi o'zini shu toifaga mansub deb hisoblagan¹³⁶.

Bozor iqtisodiyoti aholining yuqori ta'minlangan yoki "boy" qatlami mavjud bo'lishini taqozo qilib, ularga aholining yuqori sifatli tovarlar xarid qilishga layoqatli bo'lgan juda oz qatlami kiradi. AQSHda aholi bu qismining shaxsiy imkoniyati 8 -10 mln. dollar deb baholanadi.



O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati, aholi turmush darajasi va hayot sifatini oshirish bo'yicha erishilgan yutuqlar yetakchi xalqaro tashkilot hamda ekspertlar tomonidan xolisona baholangan. 2012-yilda Buyuk Britaniyaning xalqaro miqyosda tan olingan Legatum instituti o'zining farovonlik va

¹³⁶ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: O'zbekiston, 2013. 33 bet.

rivojlanish indeksida O‘zbekistonni dunyo mamlakatlari orasida 64 o‘ringa kiritgani e‘tiborga loyiqdir.

O‘zbekiston ijtimoiy farovonlik, jumladan, umr ko‘rish davomiyligi, oilalarning tinchligi va osoyishtaligi, ishsizlik darajasining pastligi, ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish darajasi bo‘yicha ham jahon hamjamiyatida havas qilarli o‘rinni egallab turibdi¹³⁷.

2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash

Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi o‘rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga alohida olingan mamlakatlar aholisining turli qatlam va guruhlari o‘rtacha daromadlari darajasida ham farq mavjud bo‘ladi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi ham daromadlardagi farqlarni bartaraf qila olmaydi.

O‘z-o‘zidan aniqki, iqtisodiy o‘shish daromadlarning ko‘payishiga olib keladi. Bunda butun aholi daromadlari mutlaq miqdorda asta-sekin o‘sib boradi. Daromadlarning mutlaq miqdori ko‘payib borsa-da, har doim ham daromadlar tengsizligi darajasiga ta‘sir ko‘rsatmasligi mumkin.


Daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi sabablar:
kishilarning aqliy va jismoniy qobiliyatidagi farqlar;
yangidan yaratilgan qiymatning taqsimotidagi notenglik;
ayrim kishilarning merosga egaligi, tasodifiy omadi kelishi;
kishilarning tadbirkorlik layoqatidagi farqlar;
mehnat bozoridagi monopoliya va turli xil kamsitishlar.

Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida Lorens egri chizig‘idan foydalaniladi.

Nazariy jihatdan daromadlarning mutlaq teng taqsimlanish imkoniyati burchakni teng ikkiga bo‘luvchi bissektrisa o‘qida ifodalangan bo‘lib, u oilalarning har qanday tegishli foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko‘rsatadi. Oilalarning 20%, 40% va

¹³⁷ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish. T.: O‘zbekiston, 2013. 33 bet.

60%i mos ravishda barcha daromadlarning 20%, 40% va 60% ni olishi lozim bo‘ladi va h.k.



27.1-chizma. Lorens egri chizig‘i.



Mutlaq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorens egri chizig‘i o‘rtasidagi farq daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi.

Bu farq qanchalik katta bo‘lsa, daromadlar tengsizligi darajasi ham shunchalik katta bo‘ladi. Agar daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutlaq teng bo‘lsa, bunda Lorens egri chizig‘i va bissektisa o‘qi bir-biriga mos kelib farq yo‘qoladi.


Bizning misolda AV yoysimon chiziq bilan AV to‘g‘ri chiziq o‘rtasidagi farqqa qanchalik kattalashsa daromadlarda tengsizlik shunchalik kuchli bo‘ladi. Tengsizlikning haddan oshib ketishiga yo‘l bermaslik uchun uning me‘yori kiritilgan. Bunga ko‘ra boylar qo‘lida jami daromadlarning 25-35 foizi to‘planishi mumkin. Boshqa bir me‘yorga ko‘ra 10 foiz boylar va 10 foiz kambag‘allar

daromadi o'rtasidagi farq 13-15 martadan oshmasligi talab qilinadi. O'zbekistonda bu farq oxirgi yillarda 11 dan 8 martagacha qisqargan. Buni davlatning faol ijtimoiy siyosati ta'minlagan.

Daromadlar tabaqalanishini aniqlashning ko'proq qo'llaniladigan ko'rsatkichlaridan bir diel koeffitsiyenti hisoblanadi. Bu ko'rsatkich 10% eng yuqori va 10% eng kam ta'minlanganlar o'rtacha daromadi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

O'zbekistonda bu ko'rsatkich o'rtacha 8 barobarni tashkil etgan. Bu jahonda eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning samarasidir¹³⁸.

Yalpi daromadning aholi guruhlari o'rtasida taqsimlanishini xarakterlash uchun aholi daromadlari tengsizligi indeksi (Djini koeffitsiyenti) ko'rsatkichi qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich italiya iqtisodchisi va statistigi Korrado DJini (1889-1965) nomi bilan ataladi. Mazkur ko'rsatkich qanchalik katta bo'lsa, (ya'ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyat a'zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko'rsatkich 0 (nol)ga intiladi.



27.2-chizma. Daromadlar piramidasi.

Larens egri chizig'i bilan bog'liq daromadlarining tengsizligi darajasini aniqlashning usullaridan biri Shvetsariya iqtisodchisi

¹³⁸ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamlı islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. T.: O'zbekiston, 2013. 32 bet.

Paretoga tegishli. U daromadlar taqsimlanishini tadqiq qilib eng kam va eng yuqori darajada daromad oladigan tabaqalar ulushi aholining kamchilik qismini tashkil etishini ko'rsatadi. Jumladan, AQSH da barcha aholiga nisbatan eng kam daromad oluvchilar 13,5 foizni, eng yuqori daromad oladiganlar 5-20 foizini tashkil etgan. Daromadlarning asosiy qismi o'rtahol qatlamlarga to'g'ri kelgan. Daromadlarning taqsimlanishidagi bu bog'lanish iqtisodiy nazariada Pareto qonuni deb yuritiladi.


Aholi daromadga qarab guruhlanishini daromadlar piramidasi orqali tasavvur qilish oson bo'ladi.



Ko'rinib turibdiki, piramidaning asosiy qismini o'rta qatlamlar egallagan. Aholining o'rta qatlam toifasiga daromadi tirikchilik umumiy qiymatidan yuqori bo'lgan, lekin o'rtacha daromadlar darajasidan oshib ketmaganlar kiradi.

Daromadlar tengsizligida katta farqlar mavjud bo'lishining asosiy sababi, bozor tizimiga asoslangan iqtisodiyotning o'z xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Respublikamizda ham bozor iqtisodiyotiga o'tish, daromadlar tengsizligi muammosini keskinlashtiradi. Bu yerda asosiy rolni mullukka uy-joy, ko'chmas mulk, aksiya (va boshqalar)ga ega bo'lish omili o'ynay boshlaydi. Daromadlarning tabaqalanish jarayoni yetarli darajada tez boradi, minimal darajadan bir necha o'n baravar yuqori daromadga ega bo'lgan ijtimoiy qatlam shakllanadi. Daromadlarning tabaqalanishi mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqaradi. Vaqt o'tishi bilan oilalarning to'plagan mulluk meros qoldirilishi sababli daromadlar tabaqalanishining kuchayishi ro'y beradi. Har xil oilalar uchun turlicha iste'mol muhiti yaratiladi. Ijtimoiy tenglik va da-



romadlar taqsimotida adolatlilikni ta'minlab borish muammolari yuzaga chiqadi.

Har qanday iqtisodiyot sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar ham mavjud bo'ladi. Bularning asosiylari quyidagilar:

kishilarning umumiy layoqati (jismoniy, aqliy va estetik) dagi farqlar;

ta'lim darajasi va malakaviy tayyorgarlik darajasidagi farqlar;

tadbirkorlik mahorati va tahlikaga tayyorgarlik darajasidagi farqlar;

ishlab chiqaruvchilarning bozorda narxlarni o'rnatishga layoqatliligi (bozordagi hukmronlik darajasidan kelib chiqib).

Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a'zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta'minlashga qaratiladi.

Daromadlar tengsizligi kamayishining taxminan 80 foizini asosan transfert to'lovlari taqozo qiladi. Aniqroq aytganda davlat transfert to'lovlari eng past daromad oluvchi kishilar guruhi daromadining asosiy qismi (70-75%)ni tashkil qiladi va tengsizlikni yumshatishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

3. O'zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari

Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yo'li bilan shakllantirish va uni budjet tizimi orqali aholi turli guruhlari o'rtasida qayta taqsimlashdan iborat. Davlat daromadlarini qayta taqsimlashda ijtimoiy to'lovlar bilan birga bozor narxlarini o'zgartirish (masalan, fermerlarga narxlarni kafolatlash) va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi. Bundan ko'zlangan "...maqsad – iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi, eng muhimi, odamlarning hayot darajasidagi jiddiy tafovutni bartaraf etishdir"¹³⁹.

¹³⁹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: «O'zbekiston», 2017, 14-yanvar. 22-bet.

O‘zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, budjetning ijtimoiy yo‘naltirilganlik tavsifi saqlab qolinadi. Davlat budjeti xarajatlar qismining 60 foizdan ortig‘i ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishga qaratiladi.

Ijtimoiy to‘lovlar – kam ta‘minlanganlarga pul yoki natural yordam ko‘rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi bo‘lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatda qatnashishi bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Ijtimoiy to‘lovlarning maqsadi jamiyatdagi munosabatlarni insonparvarlashtirish hamda ichki talabni ushlab turish hisoblanadi.

Aholi real daromadlari darajasiga inflatsiya sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi sababli daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vazifasi iste‘molchilik tovarlariga narxning o‘shishini hisobga olish va daromadlarni indeksatsiyalash, ya‘ni nominal daromadlarni narxlar o‘shishiga bog‘liqlikda oshirib borish hisoblanadi.

Shaxsiy daromadni himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.

Amaliy hayotda qashshoqlikning o‘zi hayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik minimumda



ifodalanadi. Ijtimoiy minimum jismoniy ehtiyojlarni qondirishning eng kam me‘yori bilan birga ijtimoiy talabning eng kam xarajatlarini ham o‘z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirishni ko‘zda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy yordamiga muhtoj qismini aniqlashda turli xil mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga daromad darajasi, shaxsiy mol-mulki miqdori, oilaviy ahvoli va shu kabilar kiritiladi.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan siyosatdir.

Respublikada bozor munosabatlari o'tish davrida ijtimoiy siyosat aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratiladi hamda alohida yirik yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. Bunda respublikaning o'ziga xos yondashuvi ishlab chiqilib, daromadlar nisbatini o'zgartirish, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg'arma banklardagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorini bir vaqtning o'zida qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Daromadlar nisbatini o'zgartirishda respublikada joriy etilgan yangi yagona ta'rif setkasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu barcha toifadagi xodimlarning mehnat haqi miqdorlarini tarif koeffitsiyentlari orqali, eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo'nalishi – ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada ushlab turish hisoblanadi. Bunga erishishda muhimi mahsulotlar

eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to'lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy valuta joriy etilishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan voz kechish erkin narxlarga o'tish imkoniyatini yaratadi.



Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo'nalishi – aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazilganligi bo'ldi. Bu yo'nalishda aholining

ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari – pensionerlar, nogironlar, ko‘p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o‘quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo‘llar bilan himoya qilib boriladi.

Yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o‘tish – ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlashini bildiradi.

Yangilangan ijtimoiy siyosat adolat tamoyillariga izchillik bilan rioya qilishga asoslanib, ijtimoiy ko‘maklashishning mavjud usullarini va pul bilan ta‘minlash manbalarini tubdan o‘zgartirishni taqozo etadi. Bu siyosat ijtimoiy himoya aniq maqsadi va aholining aniq tabaqalarini qamrab olishni ko‘zda tutadi. Yordam tizimi faqat kam ta‘minlangan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nisbatan qo‘llanilib, shu maqsad uchun davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, turli tashkilot hamda jamg‘armalarning mablag‘laridan ham foydalaniladi.

Ijtimoiy ko‘maklashishning yangi tizimida bolalar va kam daromadli oilalar yordamdan bahramand bo‘luvchilar hisoblanib, ular uchun hamma nafaqa va moddiy yordamlar faqat mahalla orqali yetkazib beriladi. Shu maqsadda mahallalarda budget mablag‘lari, korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy o‘tkazgan mablag‘lari hisobidan maxsus jamg‘armalar hosil qilindi.

Ijtimoiy ko‘maklashishning yangi tizimi mehnatga rag‘batlantiradigan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bo‘lishini ham taqozo qiladi.

Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qayd qilib o‘tganidek: “...islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta‘minlashdir”¹⁴⁰.

Davlatning ijtimoiy siyosati ijtimoiy sohani rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. “Harakatlar strategiyasi” da uning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

¹⁴⁰ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: «O‘zbekiston», 2017, 14-yanvar. 6-bet.

aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish;

aholini ijtimoiy himoya qilish va sogʻliqni saqlash tizimini takomillashtirish;

arzon uy-joylar qurish boʻyicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini taʼminlovchi yoʻl-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish;

taʼlim va fan sohasini rivojlantirish;

yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Shunday qilib, islohotlar davrida davlat aholining muhtoj tabaqalarini qoʻllab-quvvatlash bilan birga, oʻz mehnat faoliyati orqali oilasining farovonligini taʼminlashga intiluvchi kishilar uchun teng sharoit va qulay imkoniyat yaratishga harakat qiladi.

Tayanch tushunchalar

Aholi daromadlari – aholining maʼlum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.

Nominal daromad – aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlar summasi.

Ixtiyorida boʻlgan daromad – shaxsiy isteʼmol va jamgʻarma maqsadlarida foydalanish mumkin boʻlgan daromad.

Real daromad – narx darajasi oʻzgarishini hisobga olib aholining hayot kechirishi uchun zarur boʻlgan moddiy va maʼnaviy neʼmatlar bilan taʼminlanishi hamda ular ehtiyojlarining bu neʼmatlar bilan qondirilish darajasidir.

Lorens egri chizigʻi – daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlashni tavsiflaydi.

Ijtimoiy toʻlovlar – kam taʼminlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam koʻrsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatish iqtisodiyot qatnashchilari oʻrtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yoʻnaltirilgan siyosat.

Muhokama uchun savollar

1. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz? Ijtimoiy adolatni ta'minlashda bu siyosatning roli qanday?

2. Aholi daromadlari tushunchasini va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab ko'rsating.

3. Turmush darajasi tushunchasiga izoh bering. Turmush darajasini qanday ko'rsatkichlar tavsiflab beradi?

4. Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini sanab ko'rsating va ularga tushuntirish bering.

5. O'zbekistonda davlat maqsadli ijtimoiy yordam dasturlarini amalga oshirish va uning hozirgi davrdagi asosiy yo'nalishlariga o'zingizning fikringizni bildiring.

XXVIII bob. ISHCHI KUCHI BOZORI. ISHCHI KUCHI VA UNING BANDLIGI

1. Bandlik tushunchasi. To‘liq va samarali bandlik muammosi.

2. Ishchi kuchini qayta taqsimlashning bozor mexanizmi.

3. Bandlikni ta‘minlashda mehnat birjalari faoliyati. Ishsizlarni ijtimoiy himoyalash.

4. O‘zbekistonda bandlikning tarkibi va uni takomillashtirish vazifalari.

1. Bandlik tushunchasi. To‘liq va samarali bandlik muammosi

Mavjud qonunchilikka muvofiq ish bilan bandlik deganda fuqarolarning qonunda taqiqlanmagan va ularga daromad keltiradigan faoliyat turi bilan shug‘ullanishlari tushuniladi. “Bandlik mehnat layoqatiga ega bo‘lgan va mehnat qilishga ishtiyoqi bor kishilarning ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishlaridir”. Ish bilan band aholiga yollanib ishlovchilar va o‘zlarini mustaqil ravishda ish bilan ta‘minlagan shaxslar kiradi.



Ish bilan band bo‘lish uchun mehnatga layoqatli, ya‘ni mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lish kerak, unga ega bo‘lgan kishilar mehnat resurslarini tashkil etadilar. O‘zbekistonda mehnat resurslariga aholining quyidagi guruhlari kiradi:

Mehnatga layoqatli yoshdagilar:

16 yoshdan 54 yoshgacha bo‘lgan ayollar;

16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar.

Mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagi (mehnat nafaqasidagi) ishlovchilar.

Balogʻat yoshiga yetmagan ishlovchi oʻsmirlar (16 yoshgacha boʻlganlar).

Mehnat resurslari iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol aholi qatlamlaridan iborat boʻladi. Oʻzbekistonda mehnat resurslarining oʻrtacha 70-72 foizi, iqtisodiy faol, 28-30 foizi iqtisodiy nafaol hisoblanadi. Iqtisodiy faol aholining 95% ga yaqini iqtisodiyotda band qilingan. Iqtisodiy nafaol aholining 57,0% dan ortiqrogʻini band qilinmaganlar tashkil qilsa, 43,0% ga yaqini mehnatga layoqatli yoshdagi oʻquvchilar va ishlab chiqarishdan ajralgan holda taʼlim olayotganlardan iborat.

Iqtisodiy faol aholi qatlami yalpi ishchi kuchini tashkil qiladi. Yalpi ishchi kuchining miqdor oʻlchami – bu mehnatga layoqatli kishilarining (mehnat resurslarining) umumiy sonidir.

Yalpi ishchi kuchining sifat oʻlchami esa ularning bilimi, malakasi, mahorati, koʻnikmasi va ish tajribasining oʻrtacha koʻrsatkichlarida mujassamlashadi.

Boshqa resurslar kabi mehnat resurslari ham takror hosil qilib turilishi kerak.

Ishchi kuchini takror hosil qilish insonning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz kengaytirilgan tarzda tiklab turish, ularning mehnat malakasini, umumiy bilimi, kasbiy tayyorgarlik darajasini yangilab va oʻstirib borish hamda ishchi avlodini tayyorlash kabilarni oʻz ichiga oladigan jarayondir.

Ishchi kuchini takror hosil qilish quyidagilarni anglatadi:

aholining tabiiy harakati, tabiiy oʻsishning umumiy shart-sharoitlarini yaratish;

xodimlarni ishlab chiqarishga jalb qilish va boʻshatish;

mehnat resurslarini tarmoqlar, sohalar va hududlar oʻrtasida taqsimlash hamda qayta taqsimlash;

aholining ijtimoiy, maʼnaviy va madaniy ehtiyojlarini qondirib borish;

ishchi kuchini toʻliq va samarali bandligini taʼminlash.

Milliy iqtisodiyot faoliyat qilishining asosiy maqsadlaridan biri toʻliq ish bilan bandlikni taʼminlash hisoblanadi. “Toʻliq bandlik” va “samarali” yoki “oqilona” bandlikni ham taqozo qiladi.

Ish bilan toʻliq bandlik mehnatga layoqatli boʻlgan va ishlashni xohlagan barcha kishilarning ish bilan taʼminlanganini anglatadi.

Shuningdek, ish bilan to‘liq bandlik bir tomondan iqtisodiyotda ishsizlikning tabiiy darajasi mavjud bo‘lishini inkor etmaydi, boshqa tomondan, bu mehnatga layoqatli barcha kishilarning ishlab chiqarishga jalb etilish zarurligini anglatmaydi.

Bandlik miqdor o‘lchamda qancha kishi va qancha vaqt ish bilan mashg‘ul bo‘lishini bildiradi. Sifat jihatidan esa bu ishlagan vaqt davomida qancha miqdorda tovar va xizmatlar yaratilishi, ular qanday narxda sotilishi, natijada qancha pul daromad olinishini bildiradi. To‘liq bandlik belgilangan ish kuni, haftasi va oy davomida har doim ish bilan mashg‘ul bo‘lishini bildiradi. Aks holda to‘liq bo‘lmagan bandlik kelib chiqadi.

“Samarali” yoki “oqilona” va “samarasiz” bandlik ham mavjud. Oqilona bandlik bu yuqori mehnat unumdorligi va shunga binoan



yuqori daromad keltiradigan va ishlovchining mehnatdan qoniqishini ta‘minlovchi bandlikdir. Samarasiz bandlik mehnat unumdorligi past, ish haqi kam va ishlovchi o‘z mehnatidan qoniqmagandagi bandlikdir. Bunday bandlikda texnologiya yuqori bo‘lmaydi,

malakasi va ish tajribasi kam kishilarning mehnati talab qilinadi. Oqilona bandlikka misol qilib kompyuter dasturchisining bandligini olish mumkin. U zamonaviy kompyuterlarda ishlaydi, uning mehnati maxsus iste‘dod va tayyorgarlik talab qiladi va ish haqi ham boshqalarnikidan ancha yuqori bo‘ladi. Samarasiz bandlikka misol qilib qishloq xo‘jaligi xodimlari bandligini olish mumkin. Ish bilan samarali bandlik, xodimlarning o‘z mehnati natijalaridan to‘liq iqtisodiy manfaatdorligining ta‘minlanishi zarurligini anglatadi. Bu o‘z navbatida mehnat resurslarining oqilona band qilinishini va ulardan foydalanishning intensiv turiga tayanishini taqozo qiladi.

Bandlik ishlovchi uchun ahamiyatiga qarab birlamchi va ikkilamchi bandlikka ajratiladi. Birlamchi bandlik bu asosiy ish bilan, ya‘ni daromadning asosiy qismini beruvchi faoliyat turi bilan band bo‘lishidir. Ikkilamchi bandlik qo‘shimcha ish bilan, ya‘ni qo‘shimcha daromad beruvchi faoliyat bilan band bo‘lishidir. Ko‘pchilik

ishlovchilar birlamchi bandlikka moyil bo‘ladi, u keltirgan daromad ishlovchini qoniqtirmaganda, u ikkilamchi bandlikka harakat qiladi. Ikkilamchi bandlik o‘rindoshlik asosida ishlash shaklida ro‘y beradi. Mehnat bozordagi holatni faqat ish haqi miqdori emas, balki bandlik darajasi ham ifoda etadi. Bu daraja taklif etilgan mehnatning qanchasi sotilganini bildiradi.

Bandlik darajasi ishlashga layoqati bo‘lganlarning qanchasi amalda ishlab turishlarini bildiradi.

Bandlik darajasi iqtisodiyotda band bo‘lganlarning mehnat resurslariga nisbatan hisoblanadi. Bunda mehnat qobiliyati borlarning hammasi ishlashni xohlaydi deb faraz qilinadi. Bandlik darajasi (Bd) ishlovchilarning (I) mehnat resurslaridagi (Mr) hissasi bo‘lib, foizda ifodalanadi. Bunda $Bd = I / Mr \cdot 100\%$. Bandlik darajasi mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga va iqtisodiyotining ishlab chiqarish imkoniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish yuz berayotgan sharoitda bandlik yuqori bo‘lib, ya’ni taklif etilgan ish kuchining katta qismiga talab bildiriladi. Mazkur mamlakatlar uchun mehnatga layoqatli aholining 94%ining band bo‘lishi bandlikning tabiiy darajasi deb qabul qilingan.

Keyns nazariyasiga ko‘ra bandlik darajasi samarali talabning hosilasidir.

Boshqacha aytganda bandlik yalpi talab miqdoriga bog‘liq. Iste’mol va investitsion tovarlarga talabning o‘shishi jamiyatning samarali talabini ko‘paytiradi va shu asosda bandlik tartibga solinadi. Keyns davlat tomondan ijtimoiy ahamiyatga molik ishlarni (yo‘l qurish, ko‘priklar va boshqa infrastrukturani) tashkil etish orqali faol aholini ish bilan band qilish masalasini ilgari suradi.

Bandlikni ta’minlashda sotsial-demografik jarayonlarning ahamiyati ham muhim hisoblanadi. Jumladan, respublikamizda mehnat resurslari nisbatan ko‘p, aholining tabiiy o‘shishi yuqori. Lekin ular hududlar, tarmoqlar va faoliyat turlari bo‘yicha bir tekis taqsimlanmagan.

Yaratilayotgan ish joylari soni mehnatga layoqatli aholining o'sish sur'atlariga har doim ham mos kelavermaydi. Xo'jalik aloqalarining murakkablashuvi, ishlab chiqarish tarmoqlarida o'sish sur'atlarining har xil darajasi, iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o'zgarishlar bandlik sohasidagi muammolarni biroz keskinlashtirdi.

Ko'pincha aholining bilim va malaka darajasi bozor munosabatlarining yuqori talablariga to'liq javob beravermaydi. Ayniqsa, yoshlarning mehnatga layoqatli qismida ish bilan ta'minlanmaganlik muammosi mavjud bo'lib qoladi.

Respublikada bu muammoning oqilona yechimi – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish hisobidan yangi ish joylari sonini keskin ko'paytirib borish hisoblanadi. Bu yo'l katta investitsiyalar va uzoq vaqtni talab qilmaydi.



Respublikada yaqin istiqbolda ish o'rinlarini tashkil qilishda quyidagi masalalarni hal qilish muhim o'rin tutadi:

- tarmoq dasturlarini amalga oshirish;
- korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash;
- ishlab chiqarishni mahalliyashtirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish;
- transport va kommunikatsiya tizimini, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish;

aholi yashash joylarini obodonlashtirish ishlarini kengaytirish.

Moliyaviy mablag'lar taqchilligi sharoitida yangi ish joylarini yaratish uchun zarur resurslarni jalb qilish quyidagi yo'nalishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- xususiy kapitalni, aholining shaxsiy jamg'armalarini jalb qilish, fuqarolarning shaxsiy va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga qonun doirasida ko'proq erkinliklar berish;

chet el kapitalini jalb qilish, uning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratib (huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqalar) borish;

faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yangi ish joylarini yaratishga qaratilgan mablag'lari jamg'arilgan qismini ko'paytirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ;

sermehnat sohalarni kengaytirish va qo'shimcha ish joylarini yaratish uchun uzoq muddatli kredit mablag'larini ko'paytirish;

shaxsiy mablag'lar hisobiga yoshlarning oliy va o'rta maxsus ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv maskanlari tarmog'ini kengaytirish.

Aholi bandligini ta'minlash orqali mehnatning qo'llanish doirasi kengayadi, tovar ishlab chivarish va xizmat ko'rsatish hajmi ko'payadi, kishilarning turmush darajasi ko'tariladi, jamiyatdagi ijtimoiy tanglik yumshatiladi.


2. Ishchi kuchini qayta taqsimlashning bozor mexanizmi

Ishchi kuchi bozorida unga talab mehnat unumdorligiga bog'liq bo'lib, u doimo o'zgarib turadi. Boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda mehnat unumdorligi ish haqi darajasini belgilab beradi. Ish beruvchilar ish haqini kamaytirishga, yollanib ishlovchilar uni oshirishga harakat qiladi. Ammo ish haqi ortgan sharoitda ham ishchi kuchiga talab ko'payishi mumkin, chunki bunda ish haqiga nisbatan mehnat unumdorligi tezroq ortib borishi yuz beradi. Natijada ish haqiga ketgan qo'shimcha sarfni mehnat unumdorligining ortishi qoplaydi va hatto uning tejalishiga ham olib keladi.

Ish haqi xarajatlar tarzida foydaga ta'sir etishi orqali ishchi kuchiga talabni o'zgartiradi.

Ish haqi bilan ishchi kuchiga talabning o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi chizmada ko'rish mumkin:

Soatlik ish haqi 5000 so'm bo'lganda ishlash uchun 500 kishi talab qilinadi, 2000 so'mga tushganda, ishchi kuchiga talab ortib, jami 700 kishiga yetadi. Bunda ish haqining qisqarishi ishchi kuchiga talabni oshiradi.




28.1-chizma. Ishchi kuchiga talab va uning o'zgarishi.

Mehnat bozorida taklif ham narxga nisbatan egiluvchan bo'ladi, ya'ni ish haqi oshsa, ishchi kuchi taklifi ko'payadi, kamaysa, uning taklifi qisqaradi. Quyidagi chizmada ishchi kuchining taklifi bilan ish haqining bog'liqligi tasvirlangan.


Ish haqi 3000, 5000, 7000 so'm bo'lishiga qarab, ishchi kuchi taklifi 300, 500, 700 kishidan iborat bo'ladi. Bu ishchi kuchi taklifining ish haqiga nisbatan egiluvchanligini ko'rsatadi.

Ishchi kuchi bozorida unga bo'lgan talab va taklif mos kelganda muvozanatlik hosil bo'ladi. Mazkur muvozanat ish haqining muayyan darajasida vujudga keladi.

Chizmada ishchi kuchiga talab chizig'i AB taklif chizig'i DS bilan M nuqtada kesishadi. Bu nuqta muvozanat nuqtasi bo'lib, ishchi kuchiga talab va taklif miqdoran tenglashganligini bildiradi. Ish haqi 5000 so'm bo'lganda 500 kishi mehnatiga talab qondiriladi, ish qidirgan 500 kishi ishga joylashadi, demak, ish kuchining bundan ortiqchasi ish haqining mavjud darajasida band qilinmaydi.



28.2-chizma. Ishchi kuchi taklifi va uning oʻzgarishi.



28.3-chizma. Ishchi kuchi bozorida muvozanatlik.

Ishchi kuchiga bo‘lgan talab va uning taklifiga ish haqidani tashqari boshqa omillar ham ta’sir qiladi, bular:

texnika taraqqiyoti;

iqtisodiy tanglik yoki turg‘unlik holati;

yangi texnologiyaning joriy etilishi;

ishlab chiqarish tarkibining o‘zgarishi;

mavsumiylik.

Shunday mehnat turlari ham borki, ular maxsus qobiliyat va tayyorgarlikni talab qiladi. Masalan: og‘ir jismoniy ish sog‘lom va baquvvat kishilarni; san’at, adabiyot, fan, konstruktorlik sohalari alohida iste’dodni talab qiladi. Shunday kasblar borki, ular puxta bilim, maxsus tayyorgarlik va katta tajribani talab qiladi. Masalan, Germaniyada mustaqil ishlovchi shifokor bo‘lish uchun, oliy ma’lumot olgach, yana 10-12 yil tayyorgarlik ko‘rishi lozim bo‘ladi.

Ishchi kuchining taklifiga ishning jozibadorligi kasbdan obro‘



topish, qo‘shimcha imtiyoz olish, yuqori mansabga erishish imkoni, ishsiz qolish xavfining yo‘qligi, mehnat sharoitining yaxshiligi, shuningdek imtiyozli kredit olish imkoni va boshqalar ta’sir qiladi.

Ishchi kuchining taklifiga eng avvalo, nufuz qonuni, ya’ni aholi soni-

ning o‘shish sur’ati ta’sir ko‘rsatadi. Aholi soni tez o‘shib, mehnat qilish yoshiga yetganlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, ishchi kuchi taklifi ham shuncha ko‘p bo‘ladi. O‘zbekistonda 1995-yilda mehnat qilish yoshiga yetganlar jami aholining 49,3%ni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilda bu ko‘rsatkich 58,1%ga yetgan¹⁴¹. Shunga mos ishchi kuchi taklifi ham ortgan.

Iqtisodiyotdagi har qanday beqarorliklar, real sektordagi faollikka jumladan, bandlik va ishsizlikka o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

¹⁴¹ O‘zbekistonda mehnat va bandlik. T.:2016. 21 bet.

Ishchi kuchiga boʻlgan talab miqdori uning yordamida yaratiladigan tovar va xizmatlarga boʻlgan talabning hajmiga bogʻliq boʻladi. Agar bozorda tovarlarga talab oshsa ishchi kuchiga talab



ortadi, talab qisqarganda ishchi kuchiga ham talab qisqaradi. Mana shu bogʻliqlik sababli iqtisodiy inqirozlar davrida ishchi kuchiga talab keskin qisqarib ishsizlar soni oshib boradi.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov qayd etib oʻtganlaridek:

”Aholining ish bilan taʼminlanish muammolarini hal qilishda ham jiddiy sifat oʻzgarishlar koʻzga tashlanmoqda. Biz uchun oʻta dolzarb boʻlgan bu masalani yechishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, xizmat koʻrsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllarini keng joriy etish, qishloq joylarda chorvachilikni rivojlantirishni ragʻbatlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda”¹⁴².

Bu respublikamizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi taʼsirini kamaytirish va uni bartaraf etish boʻyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijasidir. Chunki rivojlangan mamlakatlarda bu inqiroz taʼsirida ishsizlar soni keskin ortgan. Jumladan, AQSHda 2008-yilda ishsizlik darajasi 5,6%, Yaponiyada 4.1%, Buyuk Britaniyada 5,7%, Germaniyada 7,7%ga yetgan. Bu oʻz-oʻzidan aniqki, ijtimoiy transferlarning koʻpayishi davlat xarajatlarining oʻsishiga olib kelgan.

Respublikada keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirishdagi ustuvor vazifa – bu mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishdan iboratdir. Chunki infratuzilmani rivojlantirish koʻp mehnat talab

¹⁴² Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida bartaraf yetishning yoʻllari va choralari. -T.: Oʻzbekiston, 2009, 24-25-betlar.

qiladigan keng ko‘lamli soha hisoblanadi. Bu yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa yoshlarning ish bilan bandligini ta‘minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirish imkonini beradi.

3. Bandlikni ta‘minlashda mehnat birjalari faoliyati. Ishsizlarni ijtimoiy himoyalash



Ishchi kuchi bozori xaridorlar – ish beruvchilar va sotuvchilar- ish kuchi egalaridan iborat bo‘ladi. Ish beruvchilar davlat idora tashkilotlari, xususiy va jamoat tashkilotlari, mehnatni taklif etuvchilar – ish kuchi egalari bo‘lib, ular mehnat qobiliyatiga ega va o‘z ishchi kuchini sotishga

ishtiyoqi bo‘lgan kishilardan tashkil topadi. Ishchi kuchi bozorining aniq shakllari bular – mehnat birjalari va ishga yollovchi firmalardir.

Ishchi kuchi bozorini tartibga solishda mehnat birjalari alohida o‘rin tutadi.

Mehnat birjasi – ishchi kuchini taqdim qiluvchilar hamda ishga yollovchilar o‘rtasida ish kuchini sotish va sotib olish bo‘yicha kelishuvni amalga oshirishda vositachi vazifasini bajaruvchi maxsus muassasadir.

Dastlabki mehnat birjalari XIX asrning birinchi yarmida tashkil topgan. Bizning Respublikada mehnat birjalari 2009-yildan boshlab –“Aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari” deb atala boshlandi.

Bunday markazlarning asosiy vazifalari quyidagilardir:

– ishsizlarni ro‘yxatga olish hamda ish joyini o‘zgartirmoqchi bo‘lganlarni ishga joylashtirishda vositachilik qilishi;

– ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganish;

– alohida ixtisosliklar bo‘yicha ishchi kuchiga talab haqida ma‘lumot berish;

– yoshlarni kasb ixtisosliklar bo‘yicha yo‘naltirish, yangi kasb-hunarga o‘rgatishni tashkil qilish.

Mehnat birjalarining faoliyati faqat ish bilan ta‘minlash emas, balki iqtisodiyot tarmoqlari tarkibidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda o‘zgarib turadigan mehnat bozori talabini qondirishdan iborat.

2016-yilda Respublika bandlik xizmati muassasalariga 263,4 ming kishi ishga joylashtirishga ko‘maklashish uchun murojaat qilib, ulardan 248,2 ming kishi ish bilan ta‘minlangan.

Respublikada aholining yuqori sur‘atlar bilan o‘sib bora-yotganligini, shuningdek jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy ta‘sirini hisobga olgan holda ish bilan bandlikni ta‘minlash



uchun mamlakatimizda bir qator tadbirlarni amalga oshirish mo‘ljallangan:

Birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi ashyosini qayta ishlash, iste‘mol mollari, mahalliy xomashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarni faol rivojlantirishni rag‘batlantirish.

Bu tadbirlarni amalga oshirish natijasida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2008-yildagi 48.2% dan 2015-yilda 56,5% ga ortgan. Ularning sanoat mahsuloti hajmi-dagi ulushi 40,6% ni, qurilish ishlarida 66,7%, savdoda 87,1% ni,

pulli xizmatlardagisi 50,5% ni tashkil qilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ish bilan band bo‘lgan aholining 77,9%dan ko‘prog‘i aynan shu sohaga to‘g‘ri keladi.

Ikkinchidan, xizmat ko‘rsatish sohasi va kasachilikning turli shakl-



larini keng joriy etish, qishloq joylarda chorvachilikni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish.

Uchinchidan, qishloqlarda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish.

To'rtinchidan, ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishni tashkil etishni tubdan o'zgartirish.

Beshinchidan, vaqtincha ishga joylashtirish imkoni bo'lmagan mehnatga yaroqli aholini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash. Bu siyosat ularning o'ta zarur ehtiyojlarini qondirish va kafolatli tirikchilik manbalariga ega bo'lishiga qaratiladi.

Aholining ish bilan bandligi muammosi ko'p qirrali bo'lib, u barcha odamlarga o'z qobiliyatlarini ishga solish imkoniyatini berish bilan birga, aholi ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki teng imkoniyatlarni ta'minlovchi davlat va bozor mexanizmini vujudga keltirish, ishchi kuchini unumli va samarali ish bilan band qilish, zarur hollarda ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida qayta taqsimlash kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

4.O'zbekistonda bandlikning tarkibi va uni takomillashtirish vazifalari

Bandlik darajasi uning tarkibidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Iqtisodiy tahlilda bandlikning mulkiy, tarmoq, hududiy va mussasaviy tarkibi o'rganiladi. Respublikamizda 2000-2016-yillarda iqtisodiyotning davlat sektorida band bo'lganlar ulushi -6,6(24,1 dan 17,5) foizga qisqarib, nodavlat sektorida band bo'lganlar ulushi shunga mos ravishda 75,9 dan 82,5 foizga ortgan.

O'zbekistonda bandlikning mulkiy tarkibi tahlili milliy iqtisodiyotda xususiy mulk va uning doirasida xo'jalik yuritishning turli-tuman shakllari ustuvor o'rin egallab borayotganligini ko'rsatadi.

Bandlikning mulkchilik shakllari bo'yicha ro'y berishi kutiladigan o'zgarishlar istiqbolda ham davlat sektorida band bo'lganlar ulushi nisbatan kamayib nodavlat sektordagilar salmog'i ortib borish hisobiga sodir bo'ladi.

Respublikada bandlikning tarmoqlar bo'yicha ulushidagi o'zgarishlarga har xil tamoyil xos bo'lgan. Shu davrda bandlikning ayrim tarmoqlaridagi ulushi ortib borgan bo'lsa, boshqalarida u pasayish tamoyiliga ega bo'lgan, uchinchisida esa nisbatan barqaror saqlanib qolgan.

Jumladan, iqtisodiyotning transport va aloqa, qurilish tarmoqlarida bandlikning ulushi 1,2 savdo umumiy ovqatlanish, moddiy-texnika ta'minoti va tayyorlash tarmoqlariniki 1,3 barobardan ko'proqqa ortgan.

Mazkur tarmoqlarda bandlikning qayd qilingan, ortib borishi YaIMda ular mahsuloti ulushining o'sishiga mos ravishda ro'y bergan. Respublikada yaqin istiqbolda ham "yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yuqori sur'atlar bilan olib borilishi"¹⁴³, namunaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurilishini va ijtimoiy sohani ustuvor rivojlantirish vazifalari bandlikda ular ulushi ortib borishini taqozo etadi.

O'zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bandlar (2016-yil.)

28.1-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlari	Ming kishi	Foizda
Iqtisodiyotda jami bandlar soni	13298,4	100,0
Shu jumladan tarmoqlarda:		
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi	3646,7	27,4
Sanoat	1802,4	13,6
Qurilish	1263,6	9,5
Savdo	1452,4	10,9
Tashish va saqlash	638,2	4,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	308,0	2,3
Axborot va aloqa	63,6	0,5
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	66,5	0,5
Ta'lim	1105,6	8,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	601,6	4,5

¹⁴³ Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2014-yil, 16-bet.

San'at, ko'ngil ochish va dam olish	65,1	0,5
Boshqa faoliyat turlari	2284,7	17,2

Respublikada bandlikning tarmoq tarkibidagi keskin kamayishi qishloq xo'jaligi sohasi ulushiga tegishli bo'lgan. Agrar sohaning YaIMdagi ulushi 2016-yilda 2000-yilga taqqoslanganda 12,5 (30,1 dan 17,6) foizga qisqargani holda, bandlikdagi ulushining kamayishi 6,8 foizni tashkil qilgan.



Respublikada bandlikning tarmoq tarkibidagi ro'y beradigan istiqboldagi muhim o'zgarishlar sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin.

Iqtisodiyotning, sanoat tarmog'ining mavjud quvvatlarini yangilash va modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda kooperatsiyalash asosida mahalliyashtirish dasturlarini amalga oshirish natijasida bandlikdagi ancha muhim miqdor va sifat o'zgarishlar uning alohida tarmoqlariga tegishli bo'ladi. Jumladan, sanoatning qazib oluvchi va undiruvchi tarmoqlarida, band bo'lganlar salmog'i nisbatan kamayib, uni qayta ishlovchi tarmoqlaridagi ulushi shunga mos ravishda ortib boradi. Bu avvalo, yoqilg'i, metallurgiya, kimyo va qurilish materiallari sanoatiga tegishli.

Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishda band bo'lganlar mutlaq va nisbiy ulushining kamayishi tarmoq mahsulotining YaIMdagi salmog'i qisqarishiga mutanosib ravishda bo'lishiga erishib borishga qaratilishi zarur. Tarmoqning bandlikdagi ulushi 2007-yildan boshlab nisbatan barqaror (26,0-27,0%) saqlanib qolgan holda, uning YaIMdagi salmog'i bu davrda 6,0% (23,2 % dan 17,2 %)ga yoki $\frac{1}{4}$ hissaga qisqargan.

Samarali bandlikni ta'minlash talabi hisobga olinganda iqtisodiyotning transport va aloqa tarmog'i boshqa tarmoq va sohalarga qiyosan ancha yuqori mavqega ega ekanligini kuzatish mumkin. Mazkur tarmoqning YaIM va bandlikdagi ulushi 2000-yilda deyarli bir xil darajani (mos ravishda 7,7 va 7,5%) tashkil qilgani holda, 2016-yilda bu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi farq birinchisi foydasiga 2,2 barobarga yaqin ortgan. Mazkur tarmoqda keyingi yillarda qaror

topgan ijobiy tamoyillarni saqlab qolish nafaqat sohada, balki butun milliy iqtisodiyotda samarali bandlikni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Samarali bandlikka erishib borish talabi nuqtayi nazaridan iqtisodiyotning qurilish hamda savdo tarmoqlarida va umumiy ovqatlanish sohalarida ishchi kuchidan foydalanilmayotgan katta



potensial imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, qurilish tarmog'ining bandlikdagi ulushi 2000-2016-yilda $\frac{1}{4}$ hissaga ortgani holda, uning YaIM dagi hisyasi deyarli o'zgarib qolgan. Savdo va umumiy ovqatlanish sohalarining YaIM dagi ulushi kamayib borgan sharoitda, unda band bo'lganlar salmog'i $\frac{1}{3}$ barobarga ortgan. Demak, iqtisodiyotning mazkur tarmoqlarida ham samarali bandlikka erishib borish istiqboldagi vazifalardan hisoblanib, davlatning bu sohalarni innovatsion rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari ko'proq mehnat unumdorligi va iqtisodiy faoliyat samaradarligini rag'batlantirish maqsadlariga yo'naltirilishi zarur.

Respublika iqtisodiyotida bandlarning hududiy kesimidagi tahlili shuni ko'rsatadiki, uning ulushi ayrim viloyatlar bo'yicha 2,7% (Sirdaryo viloyati)dan 11,4% (Farg'ona viloyati)gacha bo'lgan darajani tashkil qilgan, ya'ni bandlikning eng past va yuqori ko'rsatkichi o'rtasidagi farq 4,2 barobardan ko'proqqa teng bo'lgan (2016 y.). Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarining YaIMdagi ulushi (mos ravishda 1,8 va 6,7%)dagi farqlar ko'lami ham 3,7 barobardan ko'proqni tashkil qilgan.

Respublika viloyatlari bo'yicha band bo'lganlarning ulushidagi nisbatan ancha katta farqlarni ular iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi, ixtisoslashuv yo'nalishi, tarmoq tuzilishi va unda sanoat hamda qayta ishlovchi sohalarning ulushi kabi omillar belgilab beradi.

Respublikada bandlikning hududiy tarkibini takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

→ YaIMdagi ulushi bandlikdagi salmog'idan yuqori bo'lgan hududiy subyektlarda bu ijobiy tamoyilni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

→ Band bo'lganlardagi ulushi YaIM dagi xuddi shunday ko'rsatkichdan birmuncha yuqori bo'lgan hududiy subyektlarda ishlab chiqarishning samaradorligini va mehnat unumdorligini oshirib borishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish.

→ Band bo'lganlardagi ulushi nisbatan yuqori bo'lgan subyektlarda mehnat sig'imli ishlab chiqarish turlarini ustuvor rivojlantirish, o'zini mustaqil ish bilan ta'minlashning progressiv shakllarini va ishchi kuchining ichki migratsiyasini rag'batlantirish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bandlikdagi ulushi past darajaga ega hududlarda ishlab chiqarishning texnik va texnologik asoslarini mustahkamlash, ikkilamchi va qo'shimcha ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish muhim o'rin tutadi.

Hozirgi kunda mamlakatda aholini ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilarni qamrab oladi:

Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillash-tirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunarlarga o'rgatish;

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalashga e'tiborni kuchaytirish;

Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo, ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish.

Tayanch tushunchalar

Ishchi kuchini takror hosil qilish – insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash, yosh ishchilar avlodini yetkazib berish demakdir.

Bandlik – mehnat layoqatiga ega bo‘lgan va mehnat qilishga ishtiyoqi bor kishilarning ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishlaridir.

To‘liq bandlik – mehnatga layoqatli bo‘lgan va ishlashni xohlagan barcha kishilarning ish bilan ta‘minlanganini anglatadi.

Samarali bandlik – xodimlarning o‘z mehnati natijalaridan to‘liq iqtisodiy manfaatdorligining ta‘minlanishi zarurligini anglatadi.

Birlamchi bandlik – bu asosiy ish bilan, ya‘ni daromadning asosiy qismini beruvchi faoliyat turi bilan band bo‘lishidir.

Ikkilamchi bandlik – qo‘shimcha ish bilan, ya‘ni qo‘shimcha daromad beruvchi faoliyat bilan band bo‘lishidir.

Bandlik darajasi – iqtisodiyotda band bo‘lganlarning mehnat resurslariga nisbatan hisoblanadi.

Mehnat birjasi – ishchi kuchini taqdim qiluvchilar hamda ishga yollovchilar o‘rtasida ish kuchini sotish va sotib olish bo‘yicha kelishuvni amalga oshirishda vositachi vazifasini bajaruvchi maxsus muassasadir.

Muhokama uchun savollar

1. Ishchi kuchini takror hosil qilish deganda, nimani tushunasiz va uning xususiyatlari qanday?

2. Ishchi kuchining sifati nima? U qanday omillarga bog‘liq? Fan-texnika taraqqiyotida ishchi kuchining sifatiga qanday talablar kuchayadi?

3. Ish bilan to‘la bandlik nima uchun nisbiy ma‘noda tushuniladi? Qanday qilib ishchi kuchidan samarali foydalanishga erishiladi?

4. Ish bilan birlamchi va ikkilamchi bandlik tushunchalarini izohlang.

5. Mehnat birjasi nima va u qanday vazifalarni bajaradi?

UCHINCHI BO‘LIM JAHON XO‘JALIGI

XXIX bob. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA VA O‘ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA KIRIB BORISHI

- 1. Jahon xo‘jaligi rivojining asosiy tamoyillari va uning baynalmilallashuvi.**
- 2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi.**
- 3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va obyektiv asoslari. Qiyosiy ustunlik nazariyasi.**
- 4. Jahon xo‘jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish.**
- 5. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.**

1. Jahon xo‘jaligi rivojining asosiy tamoyillari va uning baynalminallashuvi

Jahon xo‘jaligi va uning rivojlanish tamoyillari tarkibi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan o‘zgarib borgan. Jumladan, jahon xo‘jaligi rivojlanishining birinchi bosqichi jahon kapitalistik xo‘jalik tanho hukmronlik qilgan davrni qamrab oladi. Bu davrda mustamlakachi davlatlarning xo‘jaligi, qaram davlatlar boyligi hisobiga rivojlangan. Jahon xo‘jaligi rivojlanishining ikkinchi bosqichi 1917-yildan 1990-yillargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, bu davr jahon iqtisodiyoti bir-biriga qarama-qarshi ikki tizim, ya’ni jahon kapitalistik va sotsialistik xo‘jaligi mavjud bo‘lganligi bilan tavsiflanadi. 1991-yildan boshlab jahon xo‘jaligi rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Bu bosqich hozirgi yaxlit umumjahon xo‘jaligining shakllanishi bilan xarakterlanadi.



Hozirgi davrda jahon xo‘jaligi iqtisodiy rivojlanishining muhim xususiyati – bu turli mamlakatlar va xo‘jalik regionlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarning o‘sib borishi hisoblanadi.

Jahon xo‘jaligida har bir o‘zgarishlar (jahon bozoridagi narxlar, alohida mamlakatning eksport imkoniyati, dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlar va xalqaro monopoliyalar faoliyati) dunyodagi barcha mamlakatlar manfaatini o‘ziga tortadi. Mamlakatning savdo, ishlab chiqarish, valuta-moliya sohalaridagi jahon tamoyillariga bog‘liqlik obyektiv reallik hisoblanadi. Hozirgi davrda har qanday mamlakatni uning iqtisodi qanday rivojlangan bo‘lishidan qat’i nazar, jahon xo‘jaligi aloqalariga jalb qilmasdan uning to‘laqonli iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash mumkin emas.

Shu sababli, Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.Karimov «Mamlakatning jahon xo‘jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida keng miqyosda ishtirok etishi ochiq turdagi iqtisodiyotni barpo etishning asosidir»¹⁴⁵, deb ta’kidlagan edi.

Dunyo bir-biridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar, xalqaro guruhlariga bo‘lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi. Yaqin vaqtlargacha bizning ilmiy adabiyotimiz sotsializm dunyosi, kapitalizm dunyosi va uchinchi dunyo mamlakatlari degan tushunchani singdirib keldi.

Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlashga umumiy asosda yondashib xo‘jalik tizimlarining xususiyatlariga mos ravishda davlatlarning uchta guruhini ajratib ko‘rsatish mumkin: rivojlangan, bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan va bozor iqtisodi mavjud bo‘lmagan mamlakatlar. Rivojlanganlik darajasi bo‘yicha ham o‘z navbatida uchta guruh farqlanadi: kam, o‘rtacha va yuqori rivojlangan mamlakatlar. Shimoliy-Sharqiy Osiyo va Lotin Ameri-

¹⁴⁵ Каримов И.А. «Ўзбекистон буюк келажак сари» Т.: «Ўзбекистон», 1998 й. 267-бет.

kasidagi yangi industrial mamlakatlar (YaIM), yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabistoni, Quvayt va boshqalar) eng kam rivojlangan mamlakatlar (EKVI), shu jumladan eng kambag'al mamlakatlar (Chad, Bangladesh, Efiopiya), har xil regional ittifoqlar va internatsional guruhlarga ajratiladi.

Bu barcha turli-tumanlik bir butun yaxlitlikka o'zaro iqtisodiy bog'liqlikning har xil jihatlari orqali tortiladi. Hozirgi xo'jalik aloqalarining chuqurlashib borayotganligi baynalminallashuvning kuchayishi hamda fan-texnika taraqqiyotining keng qamrovli xarakteri, aloqa va kommunikatsiya vositalarining butunlay yangi roli sharoitida milliy iqtisodiyot o'z-o'zini ta'minlash orqali samarali amal qilish mumkin emas.

Jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi shunday davrlarga to'g'ri keladiki, bu davrda ishlab chiqarish omillarining harakati tezlashadi, kapital milliy chegaradan tashqariga chiqadi, ishchi kuchi migratsiyasi kuchayadi, xalqaro mehnat taqsimotining shakllanish jarayoni tezlashadi. Bu shundan guvohlik beradiki, xo'jalik aloqalarining umumjahon tamoyillarini ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish mantiqi taqozo qiladi, ya'ni u milliy chegaradan o'sib chiqadi va obyektiv ravishda ishlab chiqarishning baynalminallashuviga olib keladi.



Milliy xo'jaliklar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar negizida shakllangan jahon xo'jaligi asosida xalqaro mehnat taqsimoti yotadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini ifodalaydi. Alohida mamlakatlarning bunday ixtisoslashuvi mahsulotlari ustun darajada eksportga yo'naltirilgan xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarining shakllanishiga olib keladi.

Dastlabki davrlarda xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi asosan tabiiy sharoitlardagi tafovutlarga asoslangan. Binobarin, faqat sanoat to'ntarishidan keyin, ya'ni ishlab chiqaruvchi kuchlar

baynalmilal xususiyat kasb etib, milliy xo‘jaliklar doirasidan tashqariga chiqa boshlagach, ularning negizidan barqaror mehnat taqsimoti va jahon bozori tarkib topgan. Hozirgi vaqtda xalqaro mehnat taqsimoti turli ijtimoiy tizimlarni o‘z ichida oluvchi umumjahon xo‘jaligi doirasida rivojlanmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimoti va ayriboshlashda qatnashayotgan mamlakatlar bir xil sharoitda emas. Bu hol ularning turli jo‘g‘rofiy ahvoli, tabiiy resurslarining tarkibi va miqdori, rivojlanish ko‘lami, darajasi va iqtisodiyotini tuzilishi, ichki bozorning hajmi bilan belgilanadi.

Ana shu farqlar sababli ayrim mamlakatlarda bir xil tovarlarni



ishlab chiqarishdagi xarajatlar darajasi ham turlicha bo‘ladi. Shuning uchun har bir mamlakat o‘zi nisbatan qulayroq, kamroq xarajat bilan ishlab chiqaradigan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotishga va aksincha, jahon bozoridan o‘zidan

ishlab chiqarish uchun xarajat ko‘proq bo‘ladigan yoki tabiiy yoxud boshqa sharoitlarga ko‘ra umuman ishlab chiqarib bo‘lmaydigan tovarlarni sotib olishga intiladi.

Tovarlar mamlakatlar o‘rtasida jahon narxlari asosida ayriboshlanadi. Ular baynalminal qiymatga asoslanadi. Buning ma‘nosi shuki, baynalminal mehnat sarflari jahon bozorida e‘tirof qilinadi.

Umuman olganda, jahon narxlarining tashkil topishi odatda, sof hoida amalga oshmaydi. Baynalminal qiymatning hosil bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi o‘ziga xos omillar jahon narxlariga ta‘sir qiladi. Bular tashqi savdo va valuta cheklashlari, valutalar qiymatining

o'zgarib turishi, xalqaro monopoliyalar siyosati, birjadagi chayqovchilik va boshqa shu kabilar. Shu sababli, ayrim mamlakatlarning jahon bozorida raqobatlashuv layoqatidagi farqlar, pirovard natijada mehnat unumdorligining milliy darajadagi farqlarini aks ettiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning keyingi yillarda yangi texnologik asoslarga o'tish jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi bilan birga boradi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarining baynalminallashuvi o'zining har ikkala shaklida: integratsion (milliy xo'jaliklarning yaqinlashuvi, o'zaro moslashuvi orqali) va transmilliy (xalqaro ishlab chiqarish majmuasining tuzilishi orqali) shakllarida kuchayadi. Jumladan, butun dunyoda regional davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning qaror topish tamoyili kuzatiladi. Jumladan, rivojlangan Yevropa integratsion hamjamiyati (EI) doirasida tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchining erkin harakati amalga oshiriladi. Shimoliy Amerika umumiy iqtisodiy hamkorlik AQSH, Kanada va Meksika iqtisodiyotining integratsiyasini ko'zda tutadi. Davlatlararo integratsiyaning kuchayishi janubiy-sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo, arab dunyosi, Afrika va Markaziy Amerika mamlakatlari uchun ham xarakterli bo'lib bormoqda.



2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi

Xalqaro mehnat taqsimoti xalqaro iqtisodiy munosabatlar, ya'ni turli mamlakatlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari negizida yotadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- tovar va xizmatlar bilan xalqaro savdo;
- kapital va chet el investitsiyalarining harakati;
- ishchi kuchining migratsiyasi;
- ishlab chiqarishning davlatlararo kooperatsiyasi;
- fan va texnika sohasidagi ayriboshlash;
- valuta-kredit munosabatlari.

Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi natijasida jahon bozori tarkib topadi. Jahon bozoriga tovar va xizmatlarning xalqaro harakati sifatida qarash mumkin. Jahon bozori o'zining rivojlanishida bir qator bosqichlardan o'tadiki, ulardan har biri milliy xo'jalikning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb qilinishing ma'lum darajasi bilan tavsiflanadi.

Kapitalning xalqaro harakati – bu kapitalning chet elda joylash-tirilishi va faoliyat qilishidir. U chet elga quyidagi shakllarda chiqariladi: - xususiy yoki davlat kapitali shaklida. Kapitalning xalqaro tashkilotlar orqali harakati ko'pincha mustaqil shakl sifatida ajratiladi.

– pul va tovar shaklida. Jumladan, kapital chiqarish mashina va uskunalar, patentlar, nou-xau hamda tovar kreditlari shaklida bo'lishi mumkin;



– qisqa va uzoq muddatli kreditlar shaklida;

– ssuda va tadbirkorlik kapitali shaklida. Ssuda shaklidagi kapital quyilmalar bo'yicha foiz, tadbirkorlik shaklidagi kapital esa foyda keltiradi. Tadbirkorlik kapitali to'g'ridan-to'g'ri va portfelli investitsiyalardan iborat bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar shu kapital

hisobiga qurilgan obyektlar ustidan nazorat qilish huquqini beradi, portfelli investitsiyalar esa bunday huquqni bermaydi. U odatda



aksiya paketlari hamda obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar shaklida beriladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi hisoblanib, u o'z ifodasini mehnat resurslarining an-

cha qulay sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishida topadi.

Xalqaro migratsiya jarayonini iqtisodiy omillar bilan birga siyosiy, etnik, madaniy, oilaviy va boshqa tavsifdagi omillar ham taqozo qiladi.

Xalqaro migratsiya ikkita asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: emigratsiya va immigratsiya. Emigratsiya-mamlakatlardan doimiy yashash joyiga chiqib ketishni, immigratsiya-mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishni bildiradi.

Fan-texnika yutuqlari bilan xalqaro ayriboshlash bir qator shakllarda amalga oshiriladi. U innovatsiyalar, ilmiy texnikaviy axborotlar, mutaxassislar, fan sohasi xodimlari bilan ayriboshlashni, tadqiqot va yangiliklarni litsenziya asosida berishni, ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazishni, umumiy fan-texnika va texnologiyani ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ichiga oladi.

Ilmiy texnikaviy hamkorlikning muhim shakllaridan biri injiniring hisoblanadi. Xalqaro injiniring bir davlat tomonidan boshqasiga sanoat va boshqa obyektlarni loyihalashtirish va qurish jarayoniga kerakli hisob-kitob loyihalarini berish hamda injenerlik-qurilish xizmati ko'rsatishdan iborat bo'ladi.



Jahon infratuzilmasi. Tovarlar, ishchi kuchi, moliyaviy vositalarning milliy chegaralar orqali to'xtovsiz o'sib boruvchi harakati butun jahon infratuzilmasining rivojlanishi va takomillashuvini tezlashtiradi. Juda muhim transport tizimi (dengiz, daryo, havo, temir yo'l transporti) bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotining rivojlanishida axborot kommunikatsiyalar tarmog'i tobora ko'proq ahamiyat kasb etib boradi. Munosib umumjahon infratuzilmasi bo'lmasa, hozirgi ishlab chiqaruvchi kuchlarning baynalminalashuvini rivojlantirib bo'lmaydi. Bunday infratuzilmaning ayrim tarkibiy qismlari jahon savdosi vujudga kelayotgan, jahon bozori tashkil topayotgan vaqtda paydo bo'lgan.

Hozirgi davrda birjalar, moliya markazlari, yirik sanoat va savdo birlashmalari misli ko'rilmagan tezlik bilan operativ ma'lumotlar olishga va ularni ishlab chiqishga imkon beruvchi eng yangi texnik vositalar bilan jihozlangan. Rivojlangan mamlakatlarda keng tarmoqli axborot majmuasi tashkil topmoqda, uning ta'siri amalda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalariga yoyilmoqda.

Hozirgi sharoitda ilmiy va tijorat axborotlar ayniqsa qimmatlidir. Shu sababli, turli xalqaro darajalarda maxsus «ma'lumotlar banklari» tashkil topmoqda, bular ilmiy va ishlab chiqarish maqsadlari uchun zarur axborotni qidirib topishni ancha yengillashtiradi. Jahon infratuzilmasi turli nomutanosibliklarni bartaraf qilish orqali rivojlanadi.

Xalqaro ayriboshlash tovarlarda moddiylashgan shakllardan nomaterial aloqalarga tobora ko'proq o'rin bo'shatadi, ya'ni fan-texnika yutuqlari, ishlab chiqarish va boshqarish tajribasi, xizmatning boshqa turlari bilan ayriboshlash o'sib boradi.

3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va obyektiv asoslari. Qiyosiy ustunlik nazariyasi

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – bu mamlakatlarning chuqur, o'zaro aloqalarining barqaror rivojlanishi va milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik-siyosiy aloqalarining birlashish jarayonlaridir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon xo'jaligi rivojining tarixiy jihatdan uzoq davr davom etgan natijasi hisoblansa-da, Respublika

Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi kunda ham mamlakatlarning Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jaryonida hal etilmagan ko'pdan-ko'p muammolar mavjudki, bizning Respublikamiz uchun bu tashqi iqtisodiy va valuta siyosatini yanada erkinlashtirishdan iborat¹⁴⁶.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari quyidagilar:

– erkin savdo zonolari. Bu iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning doirasida qatnashuvchi mamlakatlar o'rtasidagi savdo cheklashlari bekor qilinadi. Bunga Yevropa erkin savdo uyushmasi va MDH mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bitimlar misol bo'la oladi;

O'zbekistonda ham erkin savdo zonalarini tashkil qilishda “ma'lumki ijtimoiy sohada aholi salomatligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, dori vositalari bilan ishonchli ta'minlash, jismoniy baquvvat va ma'naviy jihatdan sog'lom avlodni kamol toptirish masalalariga alohida ustuvor ahamiyat berish”¹⁴⁷ga ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi;

– boj ittifoqi. Iqtisodiy integratsiyaning bu shakli erkin savdo zonalarining faoliyat qilishi bilan birga yagona tashqi savdo ta'riflari o'rnatishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi

savdo siyosati yuritishni taqozo qiladi. Yevropa Ittifoqi (EI) boj ittifoqiga yorqin misoldir;



¹⁴⁶ Каримов И.А. Ислохотлар ва инвестициялар бўйича идоралараро мувофиқлаштирувчи кенгаш йиғилишидаги маърузаси. «Халқ сўзи», 2000-йил. 2-феврал.

¹⁴⁷ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: «O'zbekiston», 2017, 14-yanvar.18-bet.

– to‘lov ittifoqi. Bu milliy valutalarning o‘zaro erkin almashuvini va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishini ta‘minlaydi. Yevropa hamjamiyati, Janubiy-Sharqiy Osiyo va MDH mamlakatlari uchun to‘lov ittifoqi pirovard maqsaddir;

– umumiy bozor. Bu iqtisodiy integratsiyaning ancha murakkab shakli bo‘lib, uning qatnashchilariga erkin o‘zaro savdo va yagona



tashqi savdo ta‘rifi bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati hamda o‘zaro kelishilgan iqtisodiy siyosat ta‘minlanadi. Bunga Yevropa iqtisodiy ittifoqi yoki Yevropa umumiy bozorini misol qilib keltirish mumkin. Uning

doirasida barcha boj to‘lovlari va import me‘yor (kvota)lari bekor qilinadi, boshqa mamlakatlardan Yevropa bozoriga tovarlar kirishi bir xil tartibga solinadi, pul mablag‘lari va ishchi kuchining chegaradan erkin o‘tishi ta‘minlanadi hamda umumiy muammolarni hal etishda yagona siyosat o‘tkaziladi;

– iqtisodiy va valuta ittifoqi davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli hisoblanadi. Bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari umumiy iqtisodiy va valuta-moliyaviy siyosat o‘tkazish bilan birga uyg‘unlashadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini obyektiv xaraktyerdagi bir qator omillar taqozo qiladiki, ularning ichidan quyidagilar asosiy o‘rinni egallaydi:

- xo‘jalik aloqalarining baynalminallashuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umum jahon fan-texnika revolutsiyasi;
- milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi.

Qiyosiy ustunlik nazariyasi. Iqtisodiy rivojlanishning milliy andozasidan jahon xo‘jaligiga o‘tish va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi hamda alohida olingan mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishi asosida nima yotadi? – degan savol tug‘iladi. Bu savolga javob topishga iqtisod fani ancha oldindan qiziqib kelgan. Jumladan, A.Smit xalqaro mehnat taqsimoti masalasini tahlil qilib, qanday tovarlarni eksport qilish va

qaysilarini import qilish qulayligi to'g'risidagi o'z qarashlarini bayon qilish asosida «mutlaq ustunlik» nazariyasini ilgari surgan. D.Rikardo o'zaro foydali savdo va xalqaro ixtisoslashuvning ancha umumiy prinsiplarini shakllantirib, «qiyosiy ustunlik» nazariyasini ishlab chiqqan. U nafaqat milliy xo'jaliklar o'rtasidagi, balki milliy xo'jalik ichidagi mintaqalar, korxonalar o'rtasidagi har qanday mehnat taqsimotining ustunliklarini asoslab beradi.

Rikardoning xalqaro ixtisoslashuv ustunliklari haqidagi xulosalari mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdo munosabatlari o'rnatilganda ayriboshlash qanday nisbatlar asosida ro'y beradi?-degan savolga javob topishda boshlang'ich nuqta bo'ladi. Dj. Mill ishlab chiqarish xarajatlarining turli nisbatlari o'rtasida o'rnatiladigan almashuv mutanosibligi tovarning har biriga jahon taklifi va talabi hajmiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy nazariyada xalqaro ixtisoslashuvning ustunliklarini asoslash Rikardoning klassik sxemasi bilan cheklanmagan. XX asrda xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini ko'plab iqtisodchilar: jumladan, S. Xeksher, B. Olin, Dj. Keynos, V. Leontev va boshqalar tadqiq qilgan. Xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini yanada chuqurroq tushunish qiyosiy xarajatlar tahlili asosida ko'p omilli andoza tuzishga olib keldiki, unda tovarlar harakati bilan birga ishlab chiqarish omillarining davlatlararo erkin harakati imkoniyatlari hisobga olindi. O'tkazilgan tadqiqotlarda nafaqat tarmoqlararo, balki tarmoqlar ichida va mintaqa o'rtasidagi ixtisoslashuvning qonuniyatlari, mamlakatning material, kapital, mehnat va fan sig'imli tovarlarga ixtisoslashuv sabablari ochib berildi. Ixtisoslashuvga fan va texnika taraqqiyoti hamda texnologik o'zgarishlar sur'ati va xarakteri ta'sirining xususiyatlari aniqlanadi.



4. Jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish

Jahon xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvi davlatlararo xo'jalik aloqalarini tartibga solish mexanizmini yaratish zarurligiga olib keldi. Hozirgi davrda qanday-

dir tartibga soluvchi tuzilma amal qilmaydigan xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasini topish qiyin. Jumladan, moliya, valuta va kredit sohalarida xalqaro valuta fondi (XVF), xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), jahon savdosi sohasida-tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK) ni ko'rsatish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish milliy tashkiliy shakllardan boshlanadi. Xo'jalik hayotining baynalminallashuv jarayoni dastlab milliy davlatlar faoliyatini xalqaro uyg'unlashtirishga, keyin esa davlatlararo va xalqaro tashkilotlar tuzilishiga olib keldi.

Huquqiy ma'noda tartibga solish xalqaro tartiblarni o'rnatishga, ya'ni me'yoriy normalar va qoidalarni aniqlovchi kelishuvlarni ishlab chiqishni yoki xalqaro aloqalarning qandaydir sohasini hal qilishda tomonlarga majburiyatlarga amal qilishni yuklaydi. Umumqabul qilingan standartlar va qoidalarni o'z ichiga oluvchi xalqaro tartiblar o'z navbatida milliy tartibga solish tizimiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Birinchi xalqaro tashkilotlar o'tgan asrning 20-yillarda tuzilgan bo'lsa-da, (Millatlar ligasi 1919 y, Xalqaro hisob-kitoblar banki 1929 y.) xalqaro darajada jahon xo'jalik aloqalarini ko'p tomonlama tartibga soluvchi tuzilmalar ikkinchi jahon urushidan keyin shakllana boshladi.

1945-yilda maxsus xalqaro moliyaviy muassasalar –Xalqaro valuta fondi (XVF) va Xalqaro tiklanish taraqqiyot banki (XTTB) tashkil topdi. Hozirgi davrda ham ularning ikkalasi muhim xalqaro tashkilot hisoblanadi: jahon savdosi, xalqaro kredit va valuta munosabatlari sohalarini davlatlararo tartibga solishning tartib-qoidalarini aniqlab beradi. Urushdan keyingi davrda tuzilgan tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK) Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti (EIXT), NATOning iqtisodiy masalarni uyg'unlashtiruvchi komiteti (IMUK) xalqaro iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish davriga to'g'ri keladi.

Jahon savdosini erkinlashtirish ko'p tomonlama shartnoma asosida harakat qiluvchi, xalqaro savdo tartib qoidalarini qayd



qiluvchi xalqaro tashkilot (TSBK) doirasidagi faoliyat bilan bogʻliq. Hozirgi davrda TSBK jahon savdo aylanmasining 4/5 qismidan



koʻprogʻini tartibga soladi. TSBK milliy va regional darajada vaqt-vaqti bilan kuchayib boruvchi proteksionizmga qarshi turadi, milliy manfaatlarni oʻzaro kelishtirishga yordam beradi. Uning faoliyati savdoda kamsitmaslik, savdoda tarifli va tarifsiz cheklashlarni aniqlashda teng asosda maslahatlashish kabi

tartiblarga asoslanadi. TSBK faoliyatining asosiy shakli qatnashuvchi tomonlarining koʻp tomonlama savdo muzokaralarini oʻtkazish hisoblanadi.

Ammo jahon savdosi raqobat kurashi asosida boradi, shu sababli oʻzaro maqbul qarorlarni qidirib topishga va savdoni xalqaro darajada tartibga solishga koʻplab qiyinchiliklar bilan erishiladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yana bir ahamiyatga molik sohasi bu valuta-moliya sohasi. Xalqaro moliyaviy munosabatlarni uygʻunlashtirish XVF, XTTB, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IXRO), xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK) va shu kabilar doirasida amalga oshiriladi. Gʻarbdagi yetti yetakchi mamlakatlarning har yillik kengashi bu sohada muhim rol oʻynaydi.

Valuta – moliyaviy sohani xalqaro uygʻunlashtirishning kuchayishi koʻp jihatdan XVFning faoliyati bilan bogʻliq. U oʻzining nizomiga muvofiq valuta kurslari va aʼzo mamlakatlar toʻlov balanslarini tartibga soladi, koʻp tomonlama toʻlov tizimlari va rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzlarini nazorat qiladi, aʼzo

mamlakatlarga ularning valuta moliya muammolarini hal qilish uchun kredit beradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tarkibiy qayta qurishlarni moliyalashtirish bilan XTTB faol shug'ullanadi. XTTB va u bilan birga jahon banki tarkibiga kiruvchi Xalqaro rivojlanish Uyushmasi (XRU), Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK) har xil investitsion obyektlarni o'rta va uzoq muddatli kreditlash bilan shug'ullanadi, loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy asoslarini tayyorlaydi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tarkibiy qayta o'zgartirishlarga yordam beradi.

Davlatlararo tashkilotlar ichida barcha sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarni birlashtiruvchi IXRO muhim rol o'ynaydi. Uning doirasida ichki iqtisodiy tadbirlarning boshqa mamlakatlar milliy iqtisodi samaradorligiga ta'sirini, ularning to'lov balansi holatini o'rganish amalga oshiriladi, milliy iqtisodning jahon xo'jaligi tamoyillariga tez moslashishini ta'minlash maqsadida makroiqtisodiy tartibga solish bo'yicha tavsiyanomalar beriladi. IXRO jahon xo'jaligi doirasida ko'p omilli funksional aloqalarni o'rganishni amalga oshiradi, valuta va budjet siyosati, narxlar, savdo va boshqa sohalar bo'yicha ilmiy asoslangan iqtisodiy prognozlar tavsiya etadi.

Sharqiy Yevropa mintaqasida tarkibiy qayta qurishga moliyaviy ta'sir ko'rsatish va yordam tashkil qilish maqsadida 1991-yil Yevropa tiklanish va taraqqiyoti banki (ETTB) tuzildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiy munosabatlarini xalqaro tartibga solish tizimida doimiy o'zgarishlar ro'y berib turadi. XX asrning 80-yillarida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sabablar taqozo qilgan dunyo siyosiy vaziyatdagi o'zgarishlar, jahon xo'jalik aloqalari tizimini ko'p tomonlama tartibga solish shakllari evolutsiyasiga olib keldi. Bular ichida sobiq sotsialistik mamlakatlarda vaziyatning o'zgarishi, tashqi faoliyatida mustaqil subyektlarni tashkil qiluvchi davlatlar sonining keskin ko'payishi hamda dunyo mamlakatlari ichida ro'y beradigan o'zgarishlar muhim o'rin tutadi.

O'tgan asrning oxirlarida dunyoda AQSH, G'arbiy Yevropa, Xitoy va Yaponiyadan iborat ancha qudratli raqobatlashuv markaz vujudga keldiki, bu ham jahon iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Jahon xo'jalik aloqalarini tartibga solishga xalqaro tashkilot a'zolari tarkibidagi o'zgarishlarning ham ta'siri bo'ldi. XVF, XTTB, TSBKga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi ozod bo'lgan mamlakatlar va keyin qator sobiq sotsialistik mamlakatlar faol kira bordiki, bu ham jahon xo'jaligi aloqalarini tartibga solishda ma'lum o'zgarishlarga olib keladi.

Yevropa Ittifoqi (EI) doirasida yagona bozorni bunyod etishga harakat tufayli yagona umumyevropa fuqaroligi, iqtisodiy, valuta va siyosiy ittifoq ta'sis etiladi. Bu ittifoqning shartnomada belgilangan

vazifalarni bajarish uchun bir qator Yevropa muassasalari tuzildi.



Yevropa Ittifoqining ijroiya organi-Yevropa hamjamiyati Komissiyasi (EHK)dir. Uning a'zolarini milliy hukumatlar tayinlaydi, lekin ular o'z faoliyatlarida mutlaqo mustaqildir.

Ittifoqning qarorlar qabul qilish organi-Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Uning tarkibida ichki ishlar, moliya, ta'minot, qishloq xo'jaligi kabi Vazirlar kengashi mavjud bo'ladi.

Yevropa hamjamiyati Komissiyasi faoliyatini nazorat qilish, hamjamiyat budjeti va qonunlarini ma'qullash hamda ularga o'zgartirish kiritish huquqi Yevroparlament zimmasiga yuklatiladi.

Yevropa Ittifoqida 1999-yildan boshlab yagona pul-kredit siyosati o'tkazila boshlandi. Shu munosabat bilan yagona valuta-yevro joriy etildi va yangi muassasa – Yevropa Markaziy banki tuzilib, u milliy banklar bilan birga Yevropa banklar tizimining asosini tashkil qiladi.

5. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishining shart-sharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari Respublika davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan qaror topa boshladi. Bunday vaziyatda tashqi iqtisodiy majmuani boshqarishning o‘ziga xos tizimini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yish borasida qoida va tamoyillarni ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilish yo‘llarini belgilash taqozo etiladi.

Respublika tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik negizida



qurilsa, uning qoidalari ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnoma munosabatlarida o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslanadi¹⁴⁸.

O‘zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo‘jalik aloqalarida ishtirok etishning asosi ochiq turdagi iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Shu sababli, respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qisqa davr ichida 80 dan ko‘p davlat bilan diplomatiya munosabatlarini o‘rnatdi, dunyoning 20 dan ortiq davlatida diplomatiya elchixonalarini ochdi, ko‘pgina xalqaro tashkilotlar - BMT iqtisodiy muassasalari, jahon banki, xalqaro bank, xalqaro valuta fondi, xalqaro moliya korporatsiyasi, iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashuvchi tashkilot kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a‘zo bo‘lib kirdi. Respublika a‘zo bo‘lib kirgan dastlabki ittifoq – Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (1991-yil tuzilgan) hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda Turkiya, Eron va Pokiston tomonidan tuzilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) dir.

¹⁴⁸ Каримов И.А. “Ўзбекистон буюк келажак сари” Т.: «Ўзбекистон», 1998 й. 266, 267-бет.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilish talablaridan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi zarur bo‘lgan barcha muassasalar (tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, bojxonalar xizmati va boshqalar) amalda yangidan tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasidan tortib boshqaruvning mahalliy darajasi va korxonalargacha bo‘lgan xo‘jalik subyektlarida tegishli tashqi iqtisodiy bo‘limlar tuzildi. Dunyoning bir qancha mamlakatlarida savdo uylari ochildi va savdo-sanoat palatalari barpo etildi.

Tashqi savdo bilan birga iqtisodiy hamkorlikning boshqa shakllari ham sezilarli darajada rivojlandi. Respublika hududida xorijiy sarmoya ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining eksporti hajmi mamlakat umumiy eksportining 2016-yilda 18,1 foizini tashkil qilgan (2002-yil 14,8%). Bunday korxonalarining asosiy qismi sanoat tarmoqlari (45%) savdo va umumiy ovqatlanish (23,8%) sohalarida to‘plangan.


Dastlabki davrlarda respublikamizda tashqi savdo ikki yo‘nalish bo‘yicha: MDH mamlakatlari bilan hukumatlararo bitimlar va xorijiy mamlakatlar bilan erkin muomaladagi valutada hisob-kitob qilish asosida amalga oshirildi.

2016-yil respublikamiz tashqi savdo aylanmasi oldingi davrlarga nisbatan pasayib (2014 y. 27530 mln.doll.) 24309,4 mln. AQSH dollarining tashkil etib, uning 34,8 foizi MDH mamlakatlari, 65,2 foizi uzoq xorijiy mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Xorijiy mamlakatlarga mahsulot eksporti hajmi 2016-yilda 12178,7 mln. dollarni tashkil qilgan, uning asosiy qismi (63,7) uzoq chet el davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan¹⁴⁹.

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy mamlakatlarning respublika tashqi savdosidagi ulushi (2016y. foizda)

29.1-jadval

¹⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.



Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatbardosh tayyor mahsulot salmog'ining barqaror o'sish tendensiyasi va xomashyo yetkazib



beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. 2016-yilda umumiy eksport hajmida xomashyo bo'lmagan tovarlarning ulushi 70%dan ziyodni tashkil etdi. Ayni vaqtda O'zbekiston uchun an'anaviy eksport xomashyosi bo'lgan paxta tolasining bu boradagi ulushi 2003-yildagi 20% dan, 2016-yilda 5,2% ga tushdi¹⁵⁰.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama aloqalari va hamkorligini rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasidagi yagona iqtisodiy makon to'g'risida tuzilgan shartnoma samara bera boshladi. Ularning sanoatini integratsiya-lashtirishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi.

¹⁵⁰ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston 2009, 16-17 betlar.

MDH mamlakatlari bilan bevosita va ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish tashqi siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Hamdo‘stlik davlatlari muassasalari – Davlatlararo iqtisodiy qo‘mita, Davlatlararo bank va boshqa muassasalarni tashkil etishda faol qatnashmoqda. MDHdagi mamlakatlar (Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova va boshqalar) bilan ikki tomonlama tashqi siyosiy, savdo-iqtisodiy va boshqa shartnoma hamda bitimlar imzolaniib, ular kuchga kirmoqda.



Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratishga hamda zarur bo‘lgan tashkilot va muassasalar tuzishga katta ahamiyat berilmoqda. Bular jumlasiga tavakkalchilik xatarlari keltiriladigan zararni

qoplaydigan «O‘zbekinvest» milliy sug‘urta kompaniyasini, turli qo‘shma sug‘urta kompaniyalarini, Vazirlar Mahkamasi huzurida BMT bilan birgalikda tashkil qilingan investitsiyalarga ko‘maklashuvchi xizmatni, Davlat mulk ko‘mitasi huzuridagi ko‘chmas mulk va xorijiy investitsiyalar agentligi kabilarni kiritish mumkin. Bu muassasa va tashkilotlar hamda respublikada vujudga keltirilgan tegishli tuzilmalar xorijiy investorlar uchun qulay huquqiy-me‘yoriy sharoitlarni yaratib, ularning huquqlarini himoya qiladi va sarflangan sarmoyasini kafolatlaydi. Shu sababli, respublikamiz iqtisodiyotida faqat 2016-yil davomida 10611,4 milliard so‘m miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi. Bu shu yili jalb etilgan jami investitsiyalarning 21,3 foizini tashkil etdi, uning 69,3 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir¹⁵¹.

Shu yilda iqtisodiyotimizga yo‘naltirilgan investitsiyalar yalpi ichki mahsulotning 25 foizga yaqin.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi BMTning respublikada amalga oshirayotgan iqtisodiy, ta‘lim, sog‘liqni

¹⁵¹ Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish” T.: O‘zbekiston, 2013y. 7bet.

saqlash, madaniyat, fan sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalarida ham namoyon bo‘ladi.

Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik, NATOning «Tinchlik yo‘lidagi sheriklik» dasturida mamlakatimiz ishtiroki uning jahon xo‘jaligi qo‘shilishning navbatdagi yo‘nalishidir. Jumladan, Yevropa Ittifoqi bilan Respublikamiz o‘rtasida imzolangan Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (1996-yil iyun) tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishidir;

Respublika iqtisodiyotining alohida tarmoqlarida chet el investitsiyalari va kreditlaridan foydalanish quyidagi ma‘lumotlar bilan xarakterlanadi.

O‘zbekistonning Xalqaro valuta fondi va jahon banki bilan hamkorligi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishdagi navbatdagi yo‘nalishdir. Bu yo‘nalishda XVF bilan tizimli qayta qurilishlarni mablag‘ bilan ta‘minlash, tizimli va makroiqtisodiy siyosat sohasidagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash Dasturlari ma‘qullangan.

Jahon bank tashkilotlari – Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XRTB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) bilan hamkorlik O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan XRRB yo‘li bilan O‘zbekistonga paxta yetishtirish usullarini zamonaviylashtirib, uning jahon bozoriga chiqishiga ko‘maklashish va unumdorlikni oshirish uchun asos yaratish maqsadida salmoqli mablag‘ ajratilgan. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) ham O‘zbekistonda bir qator loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda.

Respublika iqtisodiyoti tarmoqlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan chet el investitsiyalari (2016 yil)

29.2-jadval

Tarmoqlar	Ulushi, foizda
Sanoat	58,5
Qishloq xo‘jaligi	1,6
Qurilish	0,1

Transport	13,1
Aloqa	7,2
Savdo va umumiy ovqatlanish	1,1
Sogʻliqni saqlash *	1,7
Taʼlim	1
Ijtimoiy sohalar	15,3
Boshqalar	0,4

Yaqin istiqbolda ham “...xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, shu jumladan yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yoʻli bilan, puxta oʻylangan tashqi qarzar siyosatini amalga oshirishni davom etish”ga ustuvorlik beriladi.

Oʻzbekistonning tashqi iqtisodiy va savdo faoliyatida Osiyo rivojlanishi banki (ORB) hamda jahon savdo tashkiloti (JST) bilan hamkorlik istiqbolli yoʻnalishlardan hisoblanadi.

Shunday qilib, Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga qoʻshilishida dunyo mamlakatlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik hal qiluvchi oʻringa ega boʻlib, bu milliy iqtisodiyotning baynalminallashuvini kuchaytiradi hamda iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga koʻtarishning asosiy tashqi omillari hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar

Xalqaro mehnat taqsimoti – alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlar ayrim turlarining ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – jahon mamlakatlari oʻzaro iqtisodiy aloqalarining chuqurlashuvi va barqaror rivojlanishi hamda milliy xoʻjaliklar oʻrtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xoʻjalik aloqalarining birlashish jarayoni.

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi – mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan taʼminlanish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga koʻchib oʻtishi.

Emigratsiya – ishchi kuchining mamlakatdan doimiy yashash joyiga chiqib ketishi.

* Jismoniy tarbiya va ijtimoiy taʼminot bilan birga.

Immigratsiya – ishchi kuchining mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishi.

Erkin savdo zonalari – iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo‘lib, uning dorasida savdo cheklashlari bekor qilinadi.

Boj ittifoqi – yagona tashqi savdo ta‘riflari o‘rnatishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishni taqozo qiladi.

To‘lov ittifoqi – milliy valutalarning o‘zaro almashinuvi va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishi.

Umumiy bozor – bunda uning qatnashchilari o‘zaro erkin savdoni amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o‘tkazish bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati ta‘minlanadi.

Iqtisodiy va valuta ittifoqi – iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli bo‘lib, bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha shakllari iqtisodiy va valuta-moliyaviy siyosat o‘tkazish bilan birga uyg‘unlashadi.

Muhokama uchun savollar

1. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o‘ziga xos xususiyati nimadan iborat? Jahon xo‘jaligining milliy iqtisodga ta‘siri qanday?

2. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash qanday mezonlarga asoslanadi? Ularni turkumlashga hozirgi davrda yondashuvlarga asoslanib, davlatlarning asosiy guruhlarini ajratib ko‘rsating.

3. Xalqaro mehnat taqsimoti qanday tamoyillarga asoslanadi? Unda tabiiy sharoitdagi tafovutlar qanday rol o‘ynaydi?

4. Jahon narxlari qanday qiymatga asoslanadi? Jahon narxlariga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tavsifini bering.

5. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nima uchun turli shakllarga ega bo‘ladi? Ularning asosiy shakllarini sanab ko‘rsating.

6. Jahon infratuzilmasi tarkibiy qismlarining tavsifini bering va ular har birining ahamiyatini ko‘rsating.

7. Xalqaro mehnat taqsimotini mutlaq va qiyosiy ustunlik nazariyasidan foydalanib tahlil qiling. Qiyosiy ishlab chiqarish xarajatlari nima?

8. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni nima zarur qilib qo'yadi?

9. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsating.

XXX bob. XALQARO SAVDO, TO‘LOV BALANSI VA VALUTA MUNOSABATLARI

REJA:

- 1. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari.**
- 2. To‘lov balansi, uning tuzilishi va taqchilligi.**
- 3. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari va valuta tizimlari.**
- 4. Valuta kursi va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar.**

1. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari

Milliy iqtisodiyotning dunyo mamlakatlari bilan bog‘langan murakkab iqtisodiy munosabatlar tizimining tarkibiy qismi xalqaro savdo munosabatlaridir.

Hozirgi jahon rivojining xarakterli belgisi tashqi iqtisodiy aloqalarning, avvalo, jahon savdosining tez o‘sishi hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangan jahon savdosi tashqi savdo aylanmasi, eksport va import kabi ko‘rsatkichlar bilan xarakterlanadi.

Eksport-tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo‘lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Ko‘plab mamlakatlar, cheklangan resurs bazasiga va tor ichki bozorga ega bo‘lib, o‘zlarining ichki iste’moli uchun zarur bo‘lgan barcha tovarlarni yetarli samaradorlik bilan ishlab chiqarish holatida bo‘lmaydi. Bunday mamlakatlar uchun eksport kerakli tovarlarni olishning asosiy yo‘li hisoblanadi.

Jahon savdosida tovarlarning eksport tarkibi fan-texnika taraqqiyoti va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta’siri ostida o‘zgaradi. Hozirgi davrda jahon savdosining eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, uning hissasiga jahon tovar ayriboshlashining 3/4 qismi to‘g‘ri keladi. Oziq-ovqat, xomashyo va yoqilg‘i ulushi faqat 1/4 qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valutalarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi. Masalan, chet el kompaniyasi vakillariga pochta, telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga sayyohlik xizmati ko'rsatish va h.k.

O'zbekistonning tashqi savdosida xorijiy davlatlarning salmog'i quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi.

Xorijiy va MDH davlatlarining Respublika tashqi savdosidagi salmog'i, % hisobida¹⁵²

30.1-jadval

	Tashqi savdo aylanmasi				Shu jumladan:							
					Eksport				Import			
	2005	2008	2012	2015	2005	2008	2012	2015	2005	2008	2012	2015
MDH davlatlari	35,8	48,9	47,2	38,9	31,8	34,7	54,3	43,1	41,1	42,7	38,8	34,8
Xorijiy davlatlar	64,2	51,1	52,8	61,1	69,2	65,3	45,7	56,9	59,9	57,3	61,2	65,2

Respublika tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy tamoyillar bilan birga 2010–2016-yillarda “xomashyo import qilish 1,3 barobarga ko'paygan”¹⁵³. Shu sababli, 2017–2021-yillarda mamlakatimiz oldiga “...neft-gaz mahsulotlari eksportini ko'paytirish, importni keskin kamaytirish va asbob-uskunalar ishlab chiqarishni mahalliy-lashtirish hajmini oshirish”¹⁵⁴ vazifasi qo'yiladi. Bunda “...eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksportning tuzilmasi va geografiasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarining eksport salohiyatini kengaytirish, yo'l-transport infra-tuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni

¹⁵² www.statistic.uz

¹⁵³ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: «O'zbekiston», 2017, 14-yanvar.11-bet.

¹⁵⁴ O'sha joyda. 12-bet.

joriy etish”¹⁵⁵ tashqi savdo siyosatida ustuvor yoʻnalish boʻlib qoladi.

Kapital eksport qilish ham oʻziga xos xususiyatlarga ega. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalari aksiyalariga maqsadli qoʻyilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablagʻlar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida boʻlgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan, kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakatdan boʻlgan qarzlarini koʻpaytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qulay sharoit yaratadi va chet el valutasida foiz yoki dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi.

Import eksportdan farq qilib chet ellik mijozlardan tovarlar sotib olib, ularni mamlakatga keltirishni bildiradi. Tovarlar eksporti va importi summasi tashqi savdo aylanmasi yoki tovar aylanmasi beradi. Qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarni oʻz isteʼmoli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun olgan taqdirda reeksport roʻy beradi. Reeksport bilan reimport uzviy bogʻliq. Reimport isteʼmolchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi.

Eksport hajmi bilan import hajmi oʻrtasidagi farq sof eksport deb ataladi. Oʻzbekiston 2016-yil yakuniga koʻra 48 mln. AQSH dollari miqdorida salbiy saldoga erishdi. Agar mustaqillikning birinchi yillarida paxta tolasi umumiy eksport hajmining 50 foizdan koʻprogʻini tashkil etgan boʻlsa, hozirgi paytda bu koʻrsatkich 6,0-7,0 foizdan ortmaydi.

Ayni paytda paxtadan tayyorlangan ip-kalava va gazlamalar, shuningdek, plastmassa va kimyoviy mahsulotlar, avtomobillar, xizmatlar va boshqa mahsulotlar eksporti keskin ravishda oʻsdi. Tashqi savdo aylanmasining yarmidan koʻprogʻi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar hissasiga toʻgʻri keladi.

Oʻzbekistonda tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi quyidagi maʼlumotlar bilan xarakterlanadi.

¹⁵⁵ Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha Harakatlar strategiyasi. www.lex.uz.

O‘zbekistonda eksport va import tarkibi (2016 y. foizda)

30.2-jadval

<i>Eksport</i>	100,0	Import 100,0
<i>Shu jumladan:</i>		
Paxta tolasi	5,2	-
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,7	11,9
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	6,9	17,5
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	14,1	4,8
Qora va rangli metallar	5,8	7,6
Mashina va asbob-uskunalar	1,8	41,4
xizmatlar	26,3	6,6
boshqalar	34,2	10,2

Xalqaro savdo bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o‘rtasida, mamlakat ichidagiga qaraganda ancha past bo‘ladi. Masalan, ishchilar mamlakat ichida viloyatdan viloyatga, hududdan hududga erkin o‘tishi mumkin. Mamlakatlar o‘rtasidagi til va madaniy to‘siqlar haqida gapirmaganda ham, immigratsion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o‘rtasidagi migratsiyasiga qattiq cheklashlar qo‘yadi. Soliq qonunchiligidagi, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa tadbirlaridagi farqlar va boshqa qator muassasaviy to‘siqlar real kapitalning milliy chegara orqali migratsiyasini cheklaydi.

2. Har bir mamlakat har xil valutadan foydalanadi. Bu mamlakatlar o‘rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi.

3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo‘lib, bu ichki savdoga nisbatan qo‘llaniladigan tadbirlardan xarakteri va darajasi bo‘yicha sezilarli farqlanadi.

Qiyosiy ustunlik nazariyasiga ko‘ra erkin savdo tufayli, jahon xo‘jaligi resurslarni samarali joylashtirishga va moddiy farovonlikning yuqori darajasiga erishishi mumkin.

**O‘zbekistonda tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi,
(% hisobida)¹⁵⁶**

30.3-jadval

Ko‘rsatkichlar	2000	2002	2005	2008	2012	2015	2016
Tashqi savdo aylanmasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Eksport	52,5	52,4	56,9	60,7	54,2	49,4	50,1
Import	47,5	47,6	43,1	39,3	45,8	50,6	49,9
Eksport - jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan:							
Tovarlar	86,3	84,1	87,8	89,6	83,8	74,8	73,7
Xizmatlar	13,7	15,9	12,2	10,4	16,2	25,2	26,3
Import - jami:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan:							
Tovarlar	91,5	89,4	89,6	94,3	93,9	92,3	93,4
Xizmatlar	8,5	10,6	10,4	5,7	6,1	7,7	6,6

Biroq Proteksionizm, ya’ni erkin savdo yo‘lidagi to‘siqlar xalqaro ixtisoslashuvdan olinadigan nafni kamaytiradi yoki yo‘qqa chiqaradi.

Erkin savdo yo‘lida juda ko‘p to‘siqlar mavjud bo‘ladi. Ularning asosiylari quyidagilar:

boj to‘lovlari import tovarlarga aksiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin;

import kvotalari yordamida ma’lum bir vaqt oralig‘ida import qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlarning eng yuqori hajmi o‘rnatiladi;

ta’rifsiz to‘siqlar deyilganda litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo‘yish yoki oddiy ma’muriy taqiqlashlar tushuniladi;

eksportni ixtiyoriy cheklashlar savdo to‘siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o‘zlarining ma’lum mamlakatga eksportini «ixtiyoriy» cheklaydi.

¹⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Mamlakatlar xalqaro savdo yordamida o'zlarining davlatlararo ixtisoslashuvini rivojlantirishi, resurslar unumdorligini oshirishi va shu orqali ishlab chiqarishning umumiy hajmini ko'paytirishi mumkin. Alohida davlatlar, eng yuqori nisbiy samaradorlik bilan ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlarga ixtisoslashishi va ularning o'zlari samarali ishlab chiqarish holatida bo'lmagan tovarlarga ayriboshlash hisobiga yutish mumkin.

Bu yerda «mamlakatlar nima uchun savdo-sotiq qiladi?» degan savol tug'iladi. Birinchidan, iqtisodiy resurslar dunyo mamlakatlari o'rtasida juda notekis taqsimlangan: mamlakatlarning iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanishi keskin farqlanadi. Ikkinchidan, turli xil tovarlarni samarali ishlab chiqarish har xil texnologiya yoki resurslar uyg'unlashuvini talab qiladi. Bu ikki holatning xalqaro savdoga ta'sirini oson tushuntirish mumkin. Masalan, Yaponiya



ko'p va yaxshi tayyorlangan ishchi kuchiga ega, malakali mehnat ortiqcha bo'lganligi sababli arzon turadi. Shu sababli, Yaponiya tayyorlash uchun ko'p miqdorda malakali mehnat talab qilinadigan turli-tuman mehnat sig'imli tovarlarni samarali ishlab chiqarishga ixtisoslash-

gan. Avstraliya esa aksincha, juda keng maydonlarga ega bo'lgan holda yetarli bo'lmagan miqdorda inson resurslari va kapitalga ega.

Qisqacha aytganda, himoya qilinadigan tarmoqlar savdo to'siqlarini kiritishdan oladigan foyda, butun iqtisodiyot uchun ancha katta yo'qotish hisoblanadi.

2. To'lov balansi, uning tuzilishi va taqchilligi

To'lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida

(odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayriboshlanishi, ya’ni tovarlar, ko’rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o’tishi bo’yicha kelishuvlardir. Har qanday bitim ikki tomoniga ega bo’ladi va shu sababli to’lov balansida ikki tomonlama yozuv tartibiga rioya qilinadi. Bitta bitim to’lov balansining debet va kredit qismlarida o’z ifodasini topadi.

Kredit – qiymatning mamlakatdan chiqib ketishi bo’lib, uning hisobiga mazkur mamlakat rezidentlari chet el valutalarida qoplovchi to’lovlar ekvivalentini oladi. Debet – qiymatning mazkur mamlakatga kirib kelishi bo’lib, uning hisobiga rezidentlar chet el valutalarini sarflaydi. To’lov balansida kreditlar umumiy summasi debetlarning umumiy summasiga teng bo’lishi zarur.

To’lov balansidagi barcha bitimlar o’z ichiga joriy va kapital bilan operatsiyalarni olishi sababli u uchta tarkibiy qismdan iborat bo’ladi:

- joriy operatsiyalar hisobi;
- kapital harakati hisobi;
- rasmiy zaxiralarning o’zgarishi.

To’lov balansining tuzilishi

30.4-jadval

I. Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovar eksporti	2. Tovar importi
Tashqi savdo balans qoldig’i	
3. Xizmatlar eksporti (chet el turizmidan daromadlar va h.k. - kreditli xizmatlar)	4. Xizmatlar importi (turizm uchun chet elga to’lovlar va h.k. - kreditli xizmatlar)
5. Investitsiyalardan sof daromadlar (kreditli xizmatlardan sof daromadlar)	
6. Sof transfertlar	
Joriy operatsiyalar bo’yicha balans qoldig’i	
II. Kapital harakati hisobi	

7. Kapital kirishi	8. Kapital chiqishi
Kapital harakati balansi qoldig‘i	
Joriy operatsiyalar va kapital harakat balansi qoldig‘i	
III. Rasmiy zaxiralarning o‘zgarishi	

Mamlakatning tashqi to‘lov balansi mazkur davlatning chet ellik sheriklari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlarining holatini ifodalab, uning kredit-pul, valuta, budjet-soliq, tashqi savdo siyosatini amalga oshirish va davlat qarzlarni tartibga solishi uchun indikator bo‘lib xizmat qiladi.

Joriy operatsiyalar hisobi o‘z ichiga tovar va xizmatlar eksporti («+» belgisi bilan), import («-» belgisi bilan), investitsiyalardan sof daromad va sof transfertlarni oladi. Tovarlar eksporti va importi o‘rtasidagi farq savdo balansini tashkil qiladi.

Tovar eksporti kredit sifatida chiqib, milliy bankda chet el valutilari zaxiralarini vujudga keltiradi. Import esa («debet» grafasida «-» belgisi bilan) mamlakatdagi chet el valutilari zaxirasini qisqartiradi.

Investitsiyalardan sof daromadlar (chet eldan sof omilli daromadlar) kreditli xizmatlardan olinadigan daromad hisoblanib, u chet ellarga qo‘yilgan milliy pul kapitali hisobiga kirib keladi. Agar chet elga qo‘yilgan milliy kapital mazkur mamlakatga qo‘yilgan chet el kapitaliga qaraganda foiz va dividendlarning ko‘proq hajmini keltirsa, bunda investitsiyalardan olinadigan sof daromad ijobiy, aks holda esa salbiy bo‘ladi.

Sof transfertlar xususiy va davlat mablag‘larning boshqa mamlakatlarga o‘tkazilgan summasini bildiradi (pensiya, sovg‘a, chet elga pul o‘tkazishlar yoki chet mamlakatlarga insonparvarlik yordamlari). Bunday to‘lovlar mamlakatda mavjud chet el valutilari zaxirasini kamaytiradi.

Makroiqtisodiy modelda joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘i quyidagicha ifodalanadi:

X	-	M	=	X _n	=	U	-	(s+1+G)
eksport		import		sof		YaIM		Absorbat-

				eksport				siya
--	--	--	--	---------	--	--	--	------

Absorbatsiya – yalpi ichki mahsulotning mazkur mamlakatdagi uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlatga sotiladigan qismi.

Importga to‘lovlar eksportdan olingan daromaddan ortiqcha bo‘lsa, bu mamlakatning joriy operatsiyalar bo‘yicha balansi taqchilligini bildiradi. Bu taqchillik chet el qarzlari yordamida yoki aktivlarning bir qismini chet elliklarga sotish yo‘li bilan moliyalashtiriladi va bu kapital harakati hisobida aks etadi.

Eksportdan olinadigan daromad importga sarflardan ortiq bo‘lsa joriy operatsiyalar hisobi ijobiy qoldiqqa ega bo‘ladi.

Kapital harakati hisobida aktivlar bilan amalga oshiriladigan barcha xalqaro bitimlar o‘z ifodasini topadi. Bular chet elliklarga aksiyalar, obligatsiyalar, ko‘chmas mulk va h.k. sotishdan olinadigan daromadlar hamda chet eldan aktivlar sotib olish natijasida vujudga keladigan sarf-xarajatlar.

$$\begin{array}{l} \text{Kapital} \\ \text{harakati} \\ \text{balansi} \end{array} = \begin{array}{l} \text{Aktivlar} \\ \text{sotishdan} \\ \text{tushumlar} \end{array} - \begin{array}{l} \text{Chetdan aktivlar} \\ \text{sotib olishga} \\ \text{sarflar} \end{array}$$

Chet el aktivlarini sotish ularning zaxiralarini ko‘paytiradi, ularni sotib olish esa kamaytiradi. Kapital harakati hisobi ham taqchillikka va ijobiy qoldiqqa ega bo‘ladi.

To‘lov balansining taqchilligi Markaziy bank (MB) rasmiy zaxiralarini qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Rasmiy zaxiralarning asosiylari quyidagilar:

chet el valutalari;
oltin;

mamlakatning XVFdagi kredit ulushi;
qarz olishning maxsus huquqi (SDR) va
h.k.



Balans taqchilligi rasmiy zaxiralar hisobiga moliyalashtirilganda, ichki bozorda chet el valutalari taklifi ortadi, milliy valutar taklifi esa nisbatan kamayadi va uning ayriboshlash kursi nisbatan o‘sib milliy iqtisodiyotga inqirozli ta’sir ko‘rsatadi.

Aksincha, to'lov balansining aktiv qoldig'i MB rasmiy valuta zaxiralarining o'sishi bilan birga borganda ichki bozorda chet el valutalari taklifini kamaytiradi, milliy valuta taklifi esa nisbatan ortadi va uning ayriboshlash kursi pasayib, iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

MB tomonidan chet el valutarining bunday sotilishi va sotib olinishi rasmiy zaxiralar bilan operatsiyalar deyiladi. Rasmiy zaxiralar bilan operatsiyalar natijasida joriy hisobdagi qoldiq summasi, kapital harakati hisobi va zaxiralar miqdorining o'zgarishi «nol»ni tashkil qilishi zarur.

Mamlakat uzoq davr davomida joriy operatsiyalar bo'yicha taqchillikni bartaraf qilishni kechiktirishi va o'zining rasmiy valuta ehtiyojlarini to'liq sarflashi natijasida to'lov balansi inqirozi kelib chiqadi. Mamlakat tashqi qarzlarni to'lash holatida bo'lmaganligi sababli, chet eldan kreditlash imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

Iqtisodiyot subyektlarining davlat va MB siyosatiga ishonchsizligi to'lov balansi inqirozini chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi. Milliy valuta qadrsizlanishining kutilishi chet el valutariga chayqovchilikka qaratilgan talabni rag'batlantiradi. Bu MB ning milliy valuta qadrsizlanishining oldini olishga qaratilgan harakatini ancha qiyinlashtiradi, chunki uning rasmiy valuta ehtiyoqlari bir vaqtda to'lov balansining taqchilligini moliyalashtirish va chet el valutariga o'sib boruvchi chayqovchilik talabini qondirish uchun yetarli bo'lmay qoladi. Bunday holda valutarining, «xufyona bozori» vujudga kelib, rivojlana boshlaydi.

Respublikamizda davlat budjeti taqchilligi ijobiy xarakterga egaligi, tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldoga erishilganligi va oltin-valuta zaxiralarimizning yildan-yilga ko'payib borayotganligi «...mamlakatimiz to'lov balansining barqarorligini ta'minlashda



mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi va tashqi iqtisodiy sherik sifatidagi O‘zbekistonga bo‘lgan ishonchni orttiradi»¹⁵⁷.

Bugun keng ko‘lamda tarqalib borayotgan jahon moliyaviy inqirozining asosiy sabablaridan biri tashqi qarz va uni uzish muammolari bilan bog‘liq.

Shuni aytish kerakki, ko‘plab davlatlarning tashqi qarz masalasidagi puxta o‘ylanmagan siyosati ularning iqtisodiyotini zaif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida himoyasiz va nochor ahvolga solib qo‘yganini kuzatish qiyin emas. O‘zbekiston o‘zining mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo‘yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelmoqda.

3. Xalqaro valuta-kredit munosabatlari va valuta tizimlari

Pulning jahon xo‘jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlar va subsidiyalar oqimi, fan-texnika ayriboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar-xalqaro valuta-kredit munosabatlari deb ataladi. U pulning xalqaro to‘lov munosabatida amal qilish jarayonida vujudga keladi. Valuta – bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so‘m, dollar, funt sterling va h.k.). Har bir milliy bozor o‘zining milliy valuta tizimiga ega bo‘ladi. Bunda milliy va xalqaro valuta tizimini farqlash zarur. Milliy valuta tizimi-valuta munosabatlarining milliy qonunchilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda tashkil qilinish shaklini ifodalaydi.



¹⁵⁷ Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масулимиз Т.: Ўзбекистон 2000.

Xalqaro valuta tizimi-xalqaro valuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Uning tarkibiy elementlari quyidagilar hisoblanadi: asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valutaralar, oltin, xalqaro valuta birliklari-SDR, Yevro), valuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi, xalqaro to'lovlarini balanslashtirish tartibi, valutaning -
iti, xalqaro valuta bozori va oltin bozori tartibi, valuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar tizimi.

Jahon valuta tizimi o'zining rivojlanishida uchta bosqichdan o'tdi va ularning har biriga xalqaro valuta munosabatlarini tashkil qilishning o'ziga xos turlari mos keladi. Birinchi bosqich 1879-1934-yillar davrini o'z ichiga olib, bunda oltin standart sifatidagi pul tizimi ustunlikka ega bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi oxiri (1944 y.) dan 1971-yilgacha oltin – devizli (Breton-Vuds tizimi deb nomlanuvchi) tizim ustunlikka ega bo'lgan. Bu ikki tizim qayd qilinadigan valuta kurslariga asoslangan. Hozirgi davrda amal qiluvchi jahon valuta tizimi 1971-yilda tashkil topgan bo'lib, bu tizim boshqariladigan suzib yuruvchi valuta tizimi nomini oldi. Chunki davlat ko'pincha o'z valutaralarining xalqaro qiymatini o'zgartirish uchun valuta bozorining faoliyat yuritishiga aralashadi.

Oltin standart tizim qayd qilingan valuta kursining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Banklar o'zlari chiqargan banknotlarni oltinga almashtirgan. Xalqaro to'lovlarni muvofiqlashtirish vositasi bo'lib, oltinni erkin chiqarish va kiritish xizmat qilgan. Mamlakat, uchta shartni bajarsa oltin standart qabul qilingan deb hisoblangan: a) o'z pul birligining ma'lum oltin mazmunini o'rnatadi; b) o'zining oltin zaxirasi va pulning ichki taklif o'rtasidagi qattiq nisbatni ushlab turadi; d) oltinning erkin eksport va importiga to'sqinlik qilmaydi. Oltin standart pul birligining oltin mazmuni nisbatiga asoslanadi. Oltin standart sharoitida, turli mamlakatlar pul birligining nisbati ularning rasmiy oltin mazmuni bo'yicha o'rnatiladi.


Oltin standart barbod bo'lgandan keyin, valuta sohasini tartibga solishning o'zaro maqbul yo'lini topishga harakat qilindi. Yangi jahon valuta tizimi asoslarini ishlab chiqish maqsadida, 1944 yil Bretton-Vudsdan (AQSH) ittifoqchi davlatlarning xalqaro konferen-


siyasi chaqirildi. Bu konferensiyada o‘zaro bog‘liq valuta kurslarini tartibga solish tizimini yaratish haqidagi kelishuvga erishildi va bu ko‘pincha Bretton - Vuds tizimi deb ataladi. Mazkur tizim oldingi oltin standartdan keskin farq qilmaydi. Uning asosida oltin - valuta standart (AQSH dollari) yotadi va bu yerda rezervlar sifatida oltin va dollar chiqadi.

Dollarning oltinga almashinishi rasman to‘xtagandan keyin, valutaning qayd qilingan kursi, suzib yuruvchi kursiga o‘rin bo‘shatadi. Xalqaro valuta tizimidagi bu o‘zgarish 1976-yil Kingston (Yamayka) dagi kelishuvga binoan huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Qog‘oz pul tizimiga o‘tish bilan, qog‘oz pullar oltinga almashtirilmaydi. Beqaror kurslar sharoitida valuta kursi ham har qanday boshqa narx turlari kabi talab va taklifning bozor kuchlari bilan belgilanadi.

4. Valuta kursi va uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar

Har qanday valuta tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri valuta kursi hisoblanadi. Valuta kursi bir mamlakat valutasining boshqa mamlakat valutasidagi ifodalanishini ko‘rsatadi. Uning nominal va real kursi farqlanadi.






30.1-chizma. Valutalar ayriboshlash.

Funt sterling taklifi 250 milliarddan 300 milliardgacha koʻpaysa, ayriboshlash kursi 1 funt sterlingga 1,18 dollardan 1,0 dollargacha pasayadi. Buning oqibatida:

amerikaliklar uchun Angliya tovarlari nisbatan arzonlashadi;
Angliya eksportining koʻpayishi funt sterlingga talabni oshiradi.



Masalan, agar tovar va xizmatlarning maʼlum bir toʻplamini oʻz ichiga olgan isteʼmol savatining narxi AQSHda 1000 doll., Germaniyada 3000 markani tashkil qilsa, narx indeksi 1, real valuta kursi uchga teng boʻladi:

$$E_R = 3(E_N) \frac{\frac{1000}{3000}}{\frac{1000}{3000}} = 3$$



Narx darajasi AQSHda 50% ga o'sadi, Germaniyada o'zgarmay qoladi, deb faraz qilinsa, xuddi o'sha iste'mol savati AQSHda 1500 doll., Germaniyada oldingidek 3000 markani tashkil qiladi hamda real valuta kursi 4,5ga teng bo'ladi.

Valuta kurslariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;
- milliy iste'molchilarning real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflatsiya darajasi;
- valutilarga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi to'lov balansi holati;
- mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- valutaga jahon bozoridagi ishonch va h. k.

Valuta kurslarining tebranishini tushuntirishga, xarid qilish layoqatining paritet (turli mamlakatlar pul birliklari qiymatining bir-biriga nisbati) nazariyasi yordam beradi. Bu nazariyaga ko'ra, kurslar nisbatlarini aniqlash uchun, ikki mamlakat iste'molchilik tovarlari «savati» narxlarini taqqoslash talab qilinadi. Masalan, agar O'zbekistonda bunday «savat», aytaylik 2500 ming so'm, AQSHda esa 1000 dol. tursa, 2500 mingni mingga bo'lib, 1 dol. ning narxini hosil qilamiz, bu 2500 so'mga teng. Agar O'zbekistonda muomaladagi pul massasining ko'payishi oqibatida, tovarlar narxi ikki marta oshsa, barcha sharoitlar teng bo'lganda dollarning so'mga ayriboshlash kursi ikki marta oshadi. Valuta kursi tebranishi valuta bozorida juda ko'p omillar ta'sirida shakllanadi. Bu omillarni shartli ravishda 3 guruhga bo'lish mumkin: uzoq, qisqa, o'rta muddatli.

a) uzoq muddatli omillar: mamlakat iqtisodiyotining umumiy holati, mehnat unumdorligi darajasi, YaMM o'sish sur'ati, pul tizimi;

b) o‘rta muddatli omillar: to‘lov balansi holati, budget taqchilligi darajasi, kapital qo‘yilmalar holati, inflatsiya sur‘ati, pul-kredit emissiyasi, real foiz stavkalari, valutaga bo‘lgan ishonch, davlat iqtisodiyotini tartibga solish siyosati va boshqa shu kabilar.

d) qisqa muddatli omillarga bozorda kutilayotgan o‘zgarishlar, milliy va xalqaro miqyosda iste‘molchilarning didi va daromadlarining o‘zgarishi, yirik banklar, valuta dilerlarining ijtimoiy fikri va boshqa shu kabilar kiradi.

Valuta kursining har qanday tebranishi ikki xil oqibatga olib keladi: Eksportni yoki importni afzal qilib qo‘yadi. Bunda eksport foyda yoki zarar keltirishi, import tovarlari qimmatlashishi yoki arzonlashishi mumkin. Eksport-import ko‘lamiga qarab mamlakat iqtisodiyotining valuta kursiga bog‘lanishi kuchayadi.

Tayanch tushunchalar

Eksport – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo‘lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Import – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

Reeksport – qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarlarni o‘z iste‘moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun sotib olishi.

Reimport – iste‘molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.

Xalqaro valuta tizimi – xalqaro valuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Valuta kursi – bir mamlakat valutasining boshqa mamlakat valutasida ifodalangan narxi.

To‘lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o‘rtasida ma‘lum vaqt oralig‘ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayriboshlanishi, ya‘ni tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o‘tishi bo‘yicha kelishuvlar.

Muhokama uchun savollar

1. Ichki va tashqi savdoning o'xshashliklari nimadan iborat? Ularning farqi-chi? Xalqaro savdo qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?

2. Nima uchun xalqaro savdoda sun'iy to'siqlar mavjud bo'ladi? Ularning tavsifini bering.

3. Proteksionistik siyosatning ijobiy va salbiy tomonlari qanday? Ularni taqqoslang.

4. Xalqaro savdoda iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati qandayligi va unda O'zbekistonning ishtirok etishi imkoniyatlarini aniqlang.

5. Xalqaro valuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?

6. Davlat valuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalanadi? Chet el valutalariga talab va taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

IQTISODIYOT BO‘YICHA NOBEL MUKOFOTI LAUREATLARI:

1969-yil

Yan Tinbergen (1903–1973-y.y. Gollandiya);
Ragnar Frish (1895–1973-y.y. Norvegiya) – iqtisodiyotni matematik usullar asosida tahlil qilishni ishlab chiqqanlari uchun.

1970-yil

Pol Samuelson (1915-y. AQSH) – iqtisodiy fanlarda ilmiy tahlilni chuqurlashtirish usullarini ishlab chiqqani uchun.

1971-yil

Saymon Kuznes (1901–1985-y.y. AQSH) – iqtisodiy o‘shish muammolarining amaliy tadqiqoti uchun.

1972-yil

Kennet Errou (1912-y. AQSH),
Jon Xiks (1904–1989-y.y. Buyuk Britaniya) – umumiqtisodiy muvozanat va barqarorlik nazariyalari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari uchun.

1973-yil

Vasiliy Leontev (1906–1999-y.y. AQSH) – “Xarajat – ishlab chiqarish” usulini ishlab chiqqani uchun.

1974-yil

Fridrix Avgust fon Xayek (1899-1992-y.y. Avstriya, AQSH).
Gunnar Myurdal (1899–1997 y.y. Shvetsiya) – bir-biriga ta’sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va institusional jarayonlar, pul va o‘zgaruvchan konyunktura nazariyalari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari uchun.

1975-yil

Leonid Kantorovich (1912–1986-y.y. Sobiq SSSR);
Tyalling Kupmans (1910–1986-y.y. AQSH) – resurslardan optimal foydalanish nazariyasiga qo‘shgan hissalar uchun.

1976-yil.

Milton Fridmen (1912 y. AQSH) – iste'mol nazariyasi, pul muomalasining tarixi va nazariyasi tahlili uchun.

1977-yil.

Jeyms Mid (1907–1995 y.y. Buyuk Britaniya);

Bertil Ulin (Olin 1899–1979 y.y., Shvetsiya) – kapitalning xalqaro harakati va jahon savdosini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga qo'shgan hissalari uchun.

1978-yil

Gerbert Saymon (1916-y. AQSH) – iqtisodiy tashkilotlarda qaror qabul qilish tizimi tahlili uchun.

1979-yil

Artur Lyuis (1915-y. AQSH);

Teodor Shuls (1902-y. AQSH) – rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy muammolar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari uchun.

1980-yil

Lorens Kleyn (1920-y. AQSH) – iqtisodiy modellar, ular asosida iqtisodiy sikllar va hukumatning iqtisodiy siyosatini tahlil qilish borasidagi ishlari uchun.

1981-yil

Jeyms Tobin (1918–2002-y.y. AQSH) – moliya bozorlari va ularning sarflar, bandlik, ishlab chiqarish, narxlar bo'yicha qaror qabul qilishga ta'sirining tahlili uchun.

1982-yil

Jorj Stigler (1911–1991-y.y. AQSH) – sanoatning tarkibi, davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi va bozorning amal qilishi borasidagi tadqiqotlari uchun.

1983-yil

Jerar Debre (1921-y. AQSH) – umumiqtisodiy muvozanat nazariyasi muammolari bo‘yicha ishlari uchun.

1984-yil

Richard Stoun (1913–1991-y.y. Buyuk Britaniya) – milliy hisob tizimini ishlab chiqqani uchun.

1985-yil

Franko Modilyani (1918-y. AQSH) – moliyaviy bozorlar va jamg‘arish jarayoni tahlili uchun.

1986-yil

Jeyms Byukenen (1919 y. AQSH) – iqtisodiyot va siyosatda qaror qabul qilish nazariyasi uchun kelishuv va konstitusion asoslarni rivojlantirgani uchun.

1987-yil

Robert Solou (1924-y. AQSH) – iqtisodiy o‘shish nazariyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun.

1988-yil

Moris Alle (1911-y. Fransiya) – resurslardan samarali foydalanish va bozor nazariyasiga qo‘shgan hissasi uchun.

1989-yil

Tryugve Xaavelmo (1911-y. Norvegiya) – ekonometrik tahlilni rivojlantirgani uchun.

1990-yil

Garri Markovis (1927-y. AQSH);
Merton Miller (1923–2000-y.y. AQSH);
Uilyam Sharp (1953-y. AQSH) – moliya bozorlarining fundamental muammolari tahlili uchun.

1991-yil

Ronald Kouz (1910-y. Buyuk Britaniya) – mulk huquqi va transaksion xarajatlardagi muammolar tadqiqoti uchun.

1992-yil

Geri Bekker (1930-y. AQSH) – insonlarning sa'y-harakati, tanlovi muammolari va ijtimoiy munosabatlarni mikroiqtisodiy tahlil nuqtayi nazaridan tadqiqoti uchun.

1993-yil

Duglas Nort (1921-y. AQSH);
Robert Fogel (1926-y. AQSH) – iqtisodiyot tarixida yangi yo'nalish yaratganlari uchun («kliometriya»).

1994-yil

Jon Nesh (1928-y. AQSH);
Jon Xarsani (1920-y. AQSH);
Reynxard Zelten (1930-y. Germaniya) – o'yinlar nazariyasidagi xizmatlari, ya'ni raqobatchilik va uning strategiyasining nazariy tahlili uchun.

1995-yil

Robert Lukas (1937-y. AQSH) – iqtisodiy siyosat tushunchasini chuqurlashtirgan ratsiotnal kutish gipotezalarini ishlab chiqqani va qo'llagani uchun.

1996-yil

Uilyam Vikri (1914-1996-y. AQSH);
Jeyms Mirrliz (1936-y. Buyuk Britaniya) – axborotlarni asimmetrik tarqalishi sharoitida iqtisodiy agentlarning tanlovi (harakati) nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalarini uchun.

1997-yil

Robert Merton (1944-y. AQSH);
Mayron Sholz (1941-y. AQSH) – qimmatbaho qog'ozlarning qimmatini aniqlashning yangi usulini ishlab chiqqani uchun.

1998-yil

Amatriya Sen (1934-y. hind fuqarosi, AQSH va Buyuk Britaniya universitetlarida dars beradi) – farovonlik nazariyasi fundamental muammolari tadqiqotiga qo‘shgan hissasi uchun.

1999-yil

Robert Mandell (1932-y. AQSH) – optimal valuta zonalari hamda ayriboshlash kurslarining har xil jarayonlardagi pul va fiskal siyosatining tahlillari uchun.

2000-yil

Jeyms Xekman (1944-y. AQSH);
Deniel Makfaddin (1937-y. AQSH) – iqtisodiyotdagi tanlov muammolari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan xizmatlari uchun.

2001-yil

Jorj Akerlof (1940-y. AQSH);
Jozef Stiglis (1943-y. AQSH);
Maykl Spens (1943-y. AQSH) – axborotlarni asimmetrik tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lgan bozorlar tahlili uchun.

2002-yil

Deniel Kankneman (1934 y. AQSH, Isroil) – iqtisodiy fanndagi psixologik tadqiqotning integratsion natijasi, ayniqsa insonning noaniqlik sharoitida fikrlash, ishonchsizlik bilan qaror qabul qilish borasidagi tadqiqotlari uchun;

Vernon Smit (1927 y. AQSH) – iqtisodiyotda empirik tahlilning quroli sifatida laboratoriya eksperimentlari o‘tgazgani, ayniqsa, bozorning muqobil (alternativ) mexanizmlarini o‘rganish borasidagi xizmatlari uchun.

2003-yil

Robert F. Engel (1942-y. AQSH) – matematik model hamda iqtisodiy vaqt qatorlarini tahlil qilish usullarini ishlab chiqqani uchun.

Kliv V. Grenger (1934-y. AQSH, Buyuk Britaniya) – iqtisodiyotda vaqt qatorlarini umumiy tendensiyalari bilan tahlil qilish uchun kointegratsiya metodini yaratganligi uchun.

2004-yil

Finn E. Kidlend (1943 y. Norvegiya), Edvard S. Preskott (1940 y. AQSH) – dinamik makroiqtisodiyotni rivojlantirishga qo‘shgan hissalarini, biznes sikllarini harakatga keltiruvchi kuchlar va iqtisodiy siyosatda vaqt omili tadqiqotlari uchun.

2005-yil

Robert Aumann (Isroil), Tomas Shelling. (AQSH) – o‘yinlar nazariyasi orqali hamkorlik va nizoli (ziddiyat) hodisalarini o‘rganishga qo‘shgan ulkan hissalarini uchun.

2006-yil

Edmund Filps – makroiqtisodiy siyosatda vaqtlar oralig‘idagi ayriboshlash tahlili uchun.

2007-yil

Leonid Gurvich, Erik Meskin, Rodjer Mayerson – optimal mexanizmlar nazariyasi asoslarini yaratganlari uchun.

2008-yil

Pol Krugman – Savdo tarkibi, modellari, xalqaro savdo mexanizmi tahlili va iqtisodiy geografiya muammolari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari uchun.

2009-yil

Elinor Ostrom, Oliver Uilyamson – Jamoa resurslari va o‘z-o‘zini boshqarish, kompaniya resurslarini boshqarishni tashkil etish sohasidagi tadqiqotlari uchun.

2010-yil

Piter A. Daymond, Deyl Mortensen, Kristofer Pissarides – Mehnat bozori va boshqa bozorlar muhitini nazariy asoslarini qidiruv modellarini yaratish orqali o‘rganishdagi tadqiqotlari uchun.

2011-yil

Tomas Sardjent, Kristofer Sims (AQSH) – Makroiqtisodiyotda sabab-oqibat aloqalarni empirik tadqiq qilinganligi uchun.

2012-yil

Lloyd Stauell Shepli, Elvin Eliot Rot (AQSH) – Barqaror taqsimot va bozor tuzilishi amaliyoti nazariyasi uchun.

2013-yil

Yudjin F, Lars Peter X, Robert Shiller (AQSH) – Aktivlarga narx o'zgarishlarini empirik tahlil qilinganligi uchun.

2014-yil

Jan Tirol (Fransiya) – Bozor kuchlari va uni tartibga solishning tahlili uchun.

2015-yil

Diton Engus (AQSH) – Iste'mol, qashshoqlik va ijtimoiy ta'minot muammosini tahlil qilinganligi uchun.

2016-yil

Oliver Xart (AQSH), Bengt Xolmstryom (Finlyandiya) – Shartnoma nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalar uchun.

2017-yil

Richard Taler, (AQSH) – Iste'molchi xulqini tahlil qilganligi uchun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Rasmiy hujjatlar va manbalar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –T.: «O‘zbekiston», 2012.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi 1998-yil 24-dekabrda Qonuni. № 719-1.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni, 1998 y, may.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Valutani tartibga solish to‘g‘risida” gi Qonuni 2001 y.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi 2003-yil 11-dekabrda Qonuni. //”Soliqlar va bojxona xabarlari” gazetasi, 2004-yil 10-fevral.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi” qonuni 2013y.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari” qonuni 19-modda. 2017y. 24-avgustdan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 09.02.1998. PF-1924-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2007-2010-yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 20.07.2007y. PQ-672-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi 17.11.2014-y. PQ-2264-sonli Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 15-maydagi Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni 07.02.2017 y. № PF-4947.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori 2017-yil 15-avgust, PQ-3213-son.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili institutini ta’ sis etish to‘g‘risida”gi Farmoni 2017y. 5-may. PF-5125-son.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Birja va ko‘rgazma-yarmarka savdolarini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori 29.09.2017 yildagi PQ-3295-son.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va tugatish tartibi to‘g‘risida”gi 336-sonli Qarori. 02.07.1997y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat Soliq qo‘mitasi va Iqtisodiyot vazirligining 2005-yil 3-avgustdagi 61, 2005-40, 60-son qarori bilan tasdiqlangan “To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xoriji investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida Nizom”

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Investitsiya loyihalari o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi uchun

loyihalar tashabbuskorlari bo'lgan tashkilotlarning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 15-martdagi 2836-son Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari axborot-tahlil departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 03.01.2017 y. QT, 1-son, 17-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan xorijiy valutadagi tushumni majburiy sotish tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi Qarori 01.02.2017 y. 44-son.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori 10.04.2017 y. 198-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, suvga chidamli, eksportbop daraxt plantatsiyalarini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori 04.03.2017 y. 119-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 27-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 344-son Qarori. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. 2010-yil.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliqlarni to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi Qarori. 27.02.2017 y. 105-son.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T-3. –T.: «O'zbekiston », 1996.

2. Karimov I. A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». –T.: «O'zbekiston», 1999.

3. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas'ulmiz. –T.: «O'zbekiston», 2000.

4. Karimov I.A. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish – tarqqiyot garovi. –T.: «O‘zbekiston», 2001.

5. Karimov I.A. Islohotlar va investitsiyalar bo‘yicha idoralara-raro muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishidagi ma‘ruzasi. «Xalq so‘zi», 2000-yil. 2-fevral.

6. Karimov I.A. “Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz” –T.: «O‘zbekiston», 2001.

7. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish – bosh yo‘limiz. –T.: «O‘zbekiston», 2002.

8. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: «O‘zbekiston», 2005.

9. Karimov I. A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. // –T.: «O‘zbekiston», 2009.

10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: «O‘zbekiston», 2009.

11. Karimov I. A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // –T.: «O‘zbekiston», 2011.

12. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. –T.: «O‘zbekiston», 2014.

13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik hoidasi bo‘lishi kerak. –T.: «O‘zbekiston», 2017, 14.

14. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: «O‘zbekiston», 2017, 14.

Maxsus ilmiy va o‘quv adabiyotlari

1. Alimov B., Shodiyev M., Rasulov T., «Sharqona bozor fazilatları». –T.: «Universitet», 1996.

2. Abdullayev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. – T.: «Mehnat», 1997.

3. Akromov E.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotining holati va rivojlanish tamoyillari. Risola. – Toshkent, 2010.

4. Абдулкасимов Х.П., Приоритеты реформирования и модернизации экономики Республики Узбекистан. – Ташкент: Молия, 2010.

5. Allaberganov Z.G. Tejamkorlikning konseptual asoslari va uning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014.

6. A.V.Vahabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyeva. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik – T.: Baktria press, 2015.

7. Абдулкасимов Х.П., Саидахмедова Н.И., Абдулкасимов М.Х. «Экономическая безопасность предпринимательской деятельности». Учебное пособие. – T.: Илмий-техника ахбороти-пресс нашриёти, 2016 й.

8. Abdulqasimov X.P., Abdulqasimov M.H. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarning izohli lug‘ati. – T.: “ABU MATBUT-KONSALT”, 2017.

9. Вишневская Н. Проблемы и перспективы рынка рабочей силы. Мировая экономика и международные отношения. – T., 2000.

10. Vahabov A.V. Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichidagi ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo‘lishi. – T.: «Moliya», 2002.

11. Vahabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo‘minova N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Moliya», 2010.

12. Грегори Н. Менкю. Макроэкономика. – М.: МГУ, 1994.

13. Гурова И.П. Мировая экономика. Учебник – М: Омега-Л., 2007

14. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций. Учеб. – метод. пособие. – М: Финансы и статистика, ИНФРА – М., 2009, 17 с.

15. Jo‘rayev T.T. Iqtisodiy resurslar doiraviy aylanish jarayoni-ning nazariy asoslari va samaradorligini oshirish omillari. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006.

16. Jo‘rayev T.T. Doiraviy aylanishlar modeli: o‘lchamlari, ko‘rsatkichlari va samaradorligi. Monografiya –T. “Fan va texnologiya”, 2012.

17. Jo‘rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (2-qism) ko‘rgazmali va tarqatma materiallar. –T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

18. Jo‘rayev T.T. O‘zbekistonda bandlik va uning o‘zgarishi. Risola –T.: “Fan va texnologiya”, 2016

19. Ikramov Sh.T., Qobilov Sh.R. Mustaqillik, barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash oson kechgan emas. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013.

20. Иващенко Н.П. Экономика инноваций: курс лекций. – М.: МАКС Пресс, 2014.

21. Кокушкина И.В., Воронин М.С. Международная торговля и мировые рынки. – СПб.: “Техническая книга”, 2007.

22. Qobilov Sh.R. Qonunga hurmat va itoatkorlik – taraqqiyot va xavfsizlik garovi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.

23. Qobilov Sh.R. O‘zbekiston demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. –T.: “O‘qituvchi” 2012.

24. Qobilov Sh.R. Mustaqillik g‘oyibdan kelgan emas. O‘quv qo‘llanma. –T.: “O‘qituvchi”, 2012.

25. Qobilov Sh.R. Iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlash strategiyasi. Ilmiy risola –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015.

26. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс, 13-э издание, – М.: «Инфра–М», 1999.

27. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: “Yangi asar avlodi”, 2001, 62 b.

28. Надырханов У.С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт, проблемы, перспективы роста. – T.: “Фан ва технология”, 2011.

29. Рыбак О. Основные тенденции инвестиционной активности. // Экономист, №12, 2002.

30. Rasulova D.V. Ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanishining nazariy asoslari. – T.: Moliya, 2010.

31. Самуэлсон П., Нордхаус В. Экономика. Пер. с англ. – Москва, 1999.

32. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2002-2009 годы. –Т., 2003-2009.

33. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi –T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.

34. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. Пер. с англ. –Москва, Дело, 1999.

35. Федяшева Г. Международные финансовые институты на рынке Узбекистана: инвестиции и приоритетные проекты. //Биржа-Эксперт, №3, 2009.

36. Chjen V.A Pul va moliya bozorlari. –T., 1996.

37. Чепурина М.А., Киселевой Э.А. Киров, Курс экономической теории. Изд. 4-ое. –Т.: 1999.

38. Shodmonov Sh.Sh., Alimov R.H., Jo‘rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. –Toshkent: «Moliya», 2003

39. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2005.

40. Шоҳаъзамий Ш.Ш. «Трактат о собственности и её справедливой стоимости». Монография Т.: Иқтисод-молия, 2014.

41. Shoha‘zamiy Sh.Sh. Rieltorlik bozor tizimining nazariy va metodologik asoslari. Monografiya –T.: Iqtisod-moliya, 2016.

42. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Sharq», 2006.

43. Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Economics: Tamoyillar, muammolar va siyosat. O‘n ettinchi Nashr. 11 b.

44. Economics : principles, problems and policies. Stanley L. Brue, Campbell P. McConnell, seventeenth edition, McGraw-Hill/Irwin New York, 2008. 360 bet.

45. Экономика Узбекистана// Информационно-аналитический обзор за 2003 г. – Т, 2004.

46. Социально – экономическое положение Республики Узбекистан за 2007// Госкомстат Республики Узбекистан. –Т, 2008.

47. «Ўзбекистон иқтисодиёти», Узбекистан в цифрах. Статистический сборник, 2005-2016.

48. O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Internet resurslari.

1. www.lex.uz
2. www.ziyo.uz
3. www.mf.uz
4. www.gov.uz
5. www.nalog.ru
6. www.uza.uz
7. www.undp.uz
8. www.stat.uz
9. www.tfi.uz
10. www.bearingpoint.uz.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BO‘LIM. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING SHAKLLANISHI	
I BOB. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA	6
YO‘NALISHLARI.....	
II bob. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA BILISH USULLARI.....	33
III bob. ISHLAB CHIQRISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI.....	43
IV bob. IJTIMOY-IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI.....	61
V bob. TOVAR-PUL MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI.....	85
VI bob. BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI.....	105
VII bob. BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISH DAVRI VA UNING O‘ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI.....	129
VIII bob. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI.....	155
IX bob. NARXNING MOHIYATI VA SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	173
X bob. RAQOBAT VA	190

MONOPOLIYA.....	
XI bob. ANTIMONOPOL QONUNCHILIK VA MONO- POLIYALARNI TARTIBGA SOLISH.....	208
XII bob. ISH HAQINING SHAKLLANISHI VA AMAL QILISH.....	225
XIII bob. ISTE'MOLCHI XULQI NAZARIYASI: NAFLI- LIK VA UNI MAKSIMALLASHTIRISH QOIDASI.....	238
XIV bob. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA TADBIR- KORLIK KAPITALI.....	257
XV bob. ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA FOY- DA.....	281
XVI bob. AGRAR MUNOSABATLAR: IJARA HAQI VA RENTA	292
II BO'LIM. MAKROIQTISODIYOTNING AMAL QILISHI VA UNING QONUNIYATLARI	
XVII bob. YALPI ICHKI MAHSULOT VA UNI HISOB- LASH USULLARI.....	310
XVIII bob. YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF.....	331
XIX bob. ISTE'MOL VA JAMG'ARMA.....	353
XX bob. INVESTITSİYALAR VA INVESTITSION SIYO- SAT.....	362
XXI bob. IQTISODIY O'SISH VA MILLIY BOYLIK.....	375

XXII bob. MILLIY IQTISODIYOTNING MUVOZANATI VA NISBATLARI.....	398
XXIII bob. MAKROIQTISODIY BEQARORLIK: INQI- ROZ, ISHSIZLIK VA INFLYATSIYA.....	415
XXIV bob. MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY SIYOSAT.	462
XXV bob. PUL MUOMALASI, KREDIT VA BANKLAR...	486
XXVI bob. IQTISODIYOTDA DAVLATNING ROLI.....	519
XXVII bob. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOVIY SIYOSATI.....	547
XXVIII bob. ISHCHI KUCHI BOZORI. ISHCHI KUCHI VA UNING BANDLIGI.....	563
III BO‘LIM. JAHON XO‘JALIGI	
XXIX bob. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA VA O‘ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA KIRIB BORISHI.....	581
XXX bob. XALQARO SAVDO, TO‘LOV BALANSI VA VALYUTA MUNOSABATLARI.....	603
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	627

JO‘RAYEV TOSHBOLTA TO‘XTAYEVICH

IQTISODIYOT NAZARIYASI

(O‘quv qo‘llanma)

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2017

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	F.Teshaboyev
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.

Nashr.lits. AIN№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 25.12.2017.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 39,75. Nashriyot bosma tabog‘i 40,0.

Tiraji 500. Buyurtma №252.

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**